

CHOL, QIZ VA OFTOB

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____	
05.03.22	

821
Sh 91

5.0.

VASILIY MAKAROVICH

SHUKSHIN



UNICOD

GHOL, QIZ VA OFTOB

Hikoyalar

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

UO‘K 821.161.1-32
KBK 84-44(2Ros=Rus)
Sh 91

Rus tilidan: **O‘tkir Hoshimov, Xayriddin Sultonov, O‘roz Haydar, Ochil Tohir, Jamshid Matyoqubov, Saidjalol Saidmurodov** tarjimasi

Shukshin Vasiliy

Sh 91 Chol, qiz va oftob [Matn]: hikoyalar / V.M. Shukshin. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2021. – 352 b.

ISBN 978-9943-7145-4-0

Rossiyada xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Vasiliy Shukshinning hikoyalarida soddalik, mehr, sadoqat, g‘azab, o‘zbilarmonlik, manmanlik, takabburlik, ishonch, umid, oilaga sadoqat, ona mehri, sotqinlik, ayol vasvasasi, bevafolik, muhabbat, sevgi iztiroblari va boshqa inson xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar hamisha yetakchilik qiladi. Uning hikoyalaridagi oddiy hayot falsafasi ana shu qirralarda yanada go‘zal tarzda namoyon bo‘ladi va voqealar rivoji hamda shiddati kitobxonni benihoya katta kuch bilan o‘ziga tortadi.

V. Shukshin hikoyalarini o‘qib ko‘rsangiz bunga o‘zingiz ham ishonch hosil qilasiz, degan umidda uni sizga ham tuhfa etmoqdamiz.

UO‘K 821.161.1-32
KBK 84-44(2Ros=Rus)



ISBN 978-9943-7145-4-0

© V.M. Shukshin, 2021
© O‘. Hoshimov va boshq. (tarj.), 2021
© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2021

YUKSAK ISTE'DOD SOHIBI

Atoqli rus yozuvchisi Vasiliy Shukshin nafaqat adabiyotda, shuningdek, kino san'atida ham birday nom qozongan ijodkordir. O'zining keng ko'lamli ijodi bilan o'chmas iz qoldirgan Vasiliy Makarovich Shukshin 1929-yilning 25-iyulida olis Sibirda, Srostki qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Vasiliyning otasi Makar Shukshin qatag'on tufayli qatl etilgandan so'ng oilaning barcha yuki bo'lajak ijodkorning onasi Mariya Sergeyevnaning zimmasiga tushdi.

Vasiliy maktabni bitirib, avtomobil texnikumiga o'qishga kiradi-yu, lekin o'qishni tamomlash unga nasib etmaydi: tug'ilib o'sgan qishlog'iga qaytib, dehqonchilik qilishiga to'g'ri keladi. Harbiy xizmatga chaqirilgunicha turli korxonalarda chilangarlik qiladi. Aytish kerakki, Shukshinning adabiy faoliyati aynan harbiy xizmat paytida kurtak yozadi. O'zining ilk hikoyalarini xizmatdoshlariga o'qib beradi. Harbiy xizmatdan qaytgan Shukshin o'z qishlog'ida rus tilidan dars bera boshlaydi.

Vasiliy Shukshin 1954-yili Moskvaga, Butunittifoq kinematografiya davlat institutiga o'qishga kirish uchun yo'l oladi. O'g'lining orzulari ro'yobga chiqishi uchun onaizor, ta'bir joiz bo'lsa, ro'zg'orni tebratib turgan yagona sigirni ham sotib, pulini Vasiliyning qo'liga topshiradi. Alqissa, olti yillik tahsildan so'ng Shukshin institutning rejissorlik fakultetini tamomlaydi. Bu vaqt oralig'ida u nafaqat kino san'atining sir-asrorlarini o'rganadi, shuningdek, badiiy ijod bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Yozuvchi sifatida birin-ketin hikoyalari chop etila boshlaydi, kinoijodkor sifatida esa ilk marotaba «Ikki Fyodor» filmida bosh rolni ijro etadi.

1963-yili yozuvchining dastlabki kitobi – «Qishloq odamlari» nomli hikoyalar to'plami nashr etiladi. Shundan so'ng

Vasiliy Shukshin ko‘plab kinotomoshabinlarning dillaridagini ekranga ko‘chirgan «Shunday yigit yashardi», «Sizning o‘g‘lingiz va akangiz», «G‘aroyib kishilar», «Qizil bodrezak» kabi kinokartinalarni suratga olib, ularda insonning teran ichki kechinmalari, orzu va umid sari talpinishlari, ba’zi kimsalarda uchraydigan manfaatparastlik, tor dunyoqarash hamda xudbinlikning fojiaga olib kelishini badiiy mahorat bilan ko‘rsatib beradi. Shukshin ssenariysi asosida suratga olingan «Shunday yigit yashardi» filmi Venetsiyada bo‘lib o‘tgan XVI Xalqaro kinoforumda «Oltin sher» mukofotiga sazovor bo‘ladi. Uning haqqoniy voqealarga asoslangan, inson taqdiri va matonati haqidagi «Qizil bodrezak» filmi esa o‘sha davr kino sohasida juda katta shov-shuvlarga, bahs-munozaralarga sabab bo‘lgandi.

Vasiliy Shukshin kino olamidan ayro bo‘lmagan ravishda bir-biridan ajoyib-u g‘aroyib qahramonlar, turli toifadagi har xil fe’l-atvorli kishilar hayoti va ular tiynatidagi, ruhiyatidagi evrilishlar aks etgan bir-biridan ajoyib hikoyalar yaratadi. Bu hikoyalarning qahramonlari doimo ko‘ngil erkinligiga intiladilar, o‘z burch va majburiyatlarini turlicha sharoitlarda sinab ko‘radilar, hayot mashaqqatlarida toblanadilar. Shukshin o‘z hikoyalarida inson eng og‘ir sharoitda ham ojiz emasligini, barchasi uning ruhiyati, ma’naviy dunyosi hamda irodasiga bog‘liq ekanligini yaqqol ifodalab beradi.

Hayotda jo‘shqin yashagan Vasiliy bor-yo‘g‘i qirq besh yil umr ko‘radi. Aniqrog‘i, 1974-yilning 2-oktabrida «Ular Vatan uchun jang qildilar» filmida suratga tushish chog‘ida to‘satdan vafot etadi.

Vasiliy Shukshin kinoda ham, adabiyotda ham qishloq hayotini, oddiy chapani kishilarning turmush tarzini samimiy, haqqoniy ifodalab bera oldi. Shu sababdan uning hikoyalari hozirgi davr sinovlariga dosh berib, yashab kelmoqda. Uning nomi o‘zbek kitobxonida mehr uyg‘otganining boisi ham shundadir.

Rossiyada xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Vasiliy Shukshinning hikoyalari, qissa hamda romanlari va yaratgan kinolari juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. U ko‘plab mukofotlar sohibidir.

Shukshin uchun insonning qalbi, ruhiy olami doimo muhim edi. Ehtimol, bularning boisi, katta iste’dodlar sodda bo‘lishidandir. Biz bilgan Shukshin oddiy, sodda hamda yuksak iste’dod sohibi edi. U shunday bo‘lib mangu yashayveradi.

Bahrom Akbarov


HIKOYALAR



QISHLOQILAR

«Xo‘sh, nima bo‘pti, oyi? Etagingni qoqib, uydan chiqqin-u kelaver. Moskvani tomosha qilib ketasan. Yo‘lkirangni yuboraman. Faqat, yaxshisi, samolyotda kela qol – arzonroq tushadi. Jo‘nashing bilan telegramma yubor. Eng muhimi – qo‘rqma».

Malanya buvi xatni o‘qigach, qurushqoq lablarini kuvacha qilib cho‘chchaytirganicha o‘ylanib qoldi.

– Pavel uyiga chaqiribdi, – dedi u Shurkaga ko‘zoynagining ustidan qarab (Shurka – Malanya buvining nevarasi, qizining o‘g‘li. Qizining baxti ham hadeganda ochila qolmadi. Uchinchi bor turmushga chiqqanida kampir nevarasini amallab ko‘ndirdi-yu, o‘zi bilan olib qoldi. U nevarasini yaxshi ko‘rar, ammo qattiq tergab turardi).

Shurka stolda dars tayyorlab o‘tirardi. Buvisining gapini eshitib yelkasini qisib qo‘ydi.

– Chaqirayotgan bo‘lsa bora qol.

– Senga qachon ta’til berishadi? – so‘radi buvisi. Shurka qulog‘ini ding qildi.

– Qaysi biri? Qishki ta’tilmi?

– Ha, qanaqasi bo‘lardi? Yozgisi emas-ku.

– Birinchi yanvardan. Nimaydi?

Buvisi yana lablarini kuvacha qilib o‘ylanib qoldi. Shurkaning yuragi quvonchli hayajondan orziqib ketdi.

– Nimaydi? – qayta so‘radi u.

– Hech narsa. Darsingni qil, – kampir xatni peshbandining cho‘ntagiga yashirdi-da, kiyinib, tashqari chiqdi. Shurka uning qayoqqa otlanganini aniqlash uchun yugurib deraza oldiga keldi.

Darvoza yonida Malanya buvi qo‘shni ayolni uchratib, baland ovoz bilan gap boshladi.

– Pavel Moskvaga chaqiryapti, mehmonga. Nima qilishga hayronman. Boshim qotib qoldi: «Oyi, tez yetib kel, juda sog‘indim»,– debdi.

Qo‘shni nimadir deya javob qaytardi, Shurka eshitmadi, kampir esa tovushining boricha:

– O‘zi borishim kerak edi. Nevaralarimniyam faqat suratda ko‘rganman. Borsak bo‘lardi-yu... juda qo‘rqaman-da... – dedi.

Ularning yonida ikkita xotin to‘xtadi, so‘ng yana bittasi kelib qo‘shildi, keyin tag‘in bittasi... Birpasda Malanya buvining atrofida ancha odam yig‘ildi. U esa qayta-qayta bir gapni takrorlar edi:

– Pavel Moskvaga chaqiryapti, mehmonga. Nima qilishga hayronman.

Hamma unga borishni maslahat berayotgani ko‘rinib turardi.

Shurka qo‘llarini cho‘ntagiga tiqib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Uning hardamxayol qiyofasi buvisining yuzi singari o‘ychan edi. U, umuman, buvisiga judayam o‘xshardi; xuddi buvisi singari qoqsuyak, yalpoq yuz, ko‘zlari ham buvisinikidek kichkina, aqlli. Biroq ularning fe'l-atvori bir-biriga sira o‘xshamasdi. Kampir – serg‘ayrat, baqiroq, shaxtso‘z, serhafsala ayol Shurkaning ham hafsalasi durust, ammo u o‘lguday uyatchan, kamtar va «tegmanozik» edi.

* * *

Kechqurun Moskvaga telegramma tayyorlashdi. Kampir aytib turdi, Shurka yozdi:

«Mehribon o‘g‘ilginam, Pasha, agar sen shuni xohlasang, men qarib qolgan bo‘lsam hamki, bir amallab, albatta, boraman...».

– Salomat bo‘ling! – dedi Shurka. – Telegrammani shunaqa yozarkanmi?

– Qanaqa yozadi bo‘lmasa?

– Boramiz. Nuqta. Yoki: Yangi yildan keyin boramiz. Nuqta. Imzo. Oying. Tamom.

Kampir hatto xafa bo‘ldi.

– Oltinchida o‘qiysan-u Shurka, tariqcha aqling yo‘g‘-a... Qachon es kiradi senga!

Shurka ham xafa bo‘lib ketdi.

– Marhamat! – dedi u. – Menga baribir. Bilasiz-mi, biz bunaqada qanchaga tushamiz? Eski pulda yigirma so‘mga.

Buvisi labini kuvacha qilib cho‘chchaytirdi. O‘ylab-o‘ylab shunday dedi:

– Unaqa bo‘lsa, bundoq deb yoz... «O‘g‘lim, men bu yerda bir-ikki kishi bilan maslahatlashdim...»

Shurka ruchkani stolga tashladi.

– Men bunaqa deb yozolmayman. Axir, sizning bu yerda birov bilan maslahatlashganingizni nima qizig‘i bor? Pochtada kulgi bo‘lamiz-ku.

– Men nima desam shuni yozasan! – buyruq qildi kampir. – Nima, men o‘g‘limdan yigirma so‘mni ayarmidim?

Shurka ruchkani qo‘liga oldi va takabburlik bilan aftini burishtirib qog‘ozga egildi.

«Aziz o‘g‘lim Pasha, men bu yerda qo‘ni-qo‘shnilar bilan gaplashdim – hammasi boraver, deyapti. Albatta, qarigan chog‘imda bu g‘irt vahimaning o‘zi, lekin...»

– Pochtada baribir boshqatdan yozishadi, – deb qo‘ydi Shurka.

– Qani, qo‘l tekkizib ko‘rsin-chi!

– O‘zingiz ham bilmay qolasiz!

– U yog‘ini yoz: «Albatta, men sal-pal qo‘rqaman, lekin... xayr, mayli, Yangi yildan keyin boramiz. Nuqta. Shurka bilan. U endi katta yigit bo‘lib qolgan. Yomon emas, mo‘min-qobilgina bola...»

Shurka o‘zining katta yigit va mo‘min-qobil bo‘lib qolgani xususidagi so‘zlarni tushirib qoldirdi.

«...U yonimda bo‘lsa uncha qo‘rqmasman. Hozircha xayr, o‘g‘lim. Men o‘zim ham sizlarni toza...»

Shurka «juda» deb yozdi.

«...sog‘indim. Loaqal bolalaringni ko‘rsam deyman. Nuqta. Oying».

– Ho-o-zir hisoblaymiz, – dedi Shurka quvonib va peroni so‘zlarga sanchib-sanchib pichirlagancha sanay boshladi, – bir, ikki, uch, to‘rt...

Buvisi uning yelkasi osha mo‘ralagancha kutib turardi.

– Ellik sakkiz, ellik to‘qqiz, oltmish! To‘g‘rimi? Oltmishni o‘ttizga ko‘paytirsak – bir ming sakkiz yuzmi? Xo‘p! Yuzga bo‘lamiz – o‘n sakkiz hosil bo‘ladi... Yigirma so‘m-u nechayam tiyin! – tantana bilan e’lon qildi u.

– Pochtaga o‘zim boraman. Hisobniyam toza qotirding, donishmand...

– Marhamat. Xuddi shuncha chiqadi. Uch-to‘rt tiyin xato qilgan bo‘lishim mumkin...

...Soat o‘n birlarda ularnikiga qo‘shnisi, maktab xo‘jalik bo‘lim mudiri Yegor Lizunov kirib keldi. Kampir uning uyidagilarga, Yegor ishdan qaytgach, biznikiga kirsin, deb tayinlab qo‘ygan edi. Yegor ko‘pni ko‘rgan, samolyotlarda uchgan edi.

Yegor nimpo‘stinini, shapkasini yechdi, keng kafti bilan sochlari oqara boshlagan boshining terini artdi-da, stol yoniga o‘tirdi. Mehmonxonada pichan va egar-jabduq hidi anqib ketdi.

– Xo‘sh, shundoq qilib uchadigan bo‘ldinglarmi? Kampir qopqoqni ko‘tarib pol tagiga – podvalga emaklab kirdi, bir zumdan so‘ng «yarimta» olib chiqdi.

– Uchmoqchimiz, Yegor. Qani, bir chekkadan yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntirib ber-chi.

– Tushuntiradigan joyi bormidi buning. – Yegor kampirning pivo quyishiga ochko‘zlik emas, bir qadar bepisand qarab qo‘ydi, – shaharga borasizlar, «Biysk – Tomsk»ka o‘tirasizlar. Poyezdda Novosibirskkacha borasizlar-da, shahar havo kassasini so‘raysizlar. Yoki bo‘lmasa to‘g‘ri aeroportga borsa ham bo‘laveradi.

– Shoshma, shoshma! Boplading-ku juda. Bo‘laveradi emish. Sen qandoq qilsa bo‘laverishini emas, qandoq qilish kerakligini ayt-da...

Kampir Yegorning oldiga pivo to‘la stakanni surib, unga qattiq tikildi.

Yegor stakanni barmoqlari orasiga olib siladi.

– Xo‘sh, demak, avval Novosibirskkacha borasizlar, keyin aeroportga qanaqa qilib borishni so‘raysizlar. Eslab qol, Shurka.

– Yozib ol, Shurka, – buyurdi kampir.

Shurka daftaridan bir varaq toza qog‘oz yirtib olib yozishga tutindi.

– Tolmachevgacha borasizlar. U yerda Moskvaga bilet sotadigan joyni so‘raysizlar. Bilet olasizlar-da, «TU-104»ga o‘tirib, besh soatdan keyin vatanimiz poytaxti Moskvada bo‘lasizlar.

Kampir iyagini qoqsuyak kaftiga tiragancha Yegorning gapiga tashvishlanib quloq solardi. Yegor o‘ziga benihoya oson ko‘rinayotgan bu safar haqida gapirgan sari kampirni tobora vahm bosmoqda edi.

– Ha, aytmoqchi, rostdan ham Sverdlovskda qo‘nib o‘tasizlar...

– Nega?

– Kerak. Buni bizdan so‘rab o‘tirishmaydi. Qo‘nadi, vassalom. – Yegor, endi ichish mumkin, degan qarorga keldi. – Xo‘p bo‘lmasa! Safaringiz bexatar bo‘lsin!

– Ma. Sverdlovskda qo‘nishni o‘zimiz so‘raymizmi yoki hammani qo‘ndiradimi?

Yegor ichdi, tomoq qirib, mo‘ylovini siypaladi.

– Hammani qo‘ndiradi. Pivong juda zo‘r ekan, Malanya Vasilevna. Qandoq qilib tayyorlaysan? Meni xotinimgayam o‘rgatsangchi...

Kampir unga yana bir stakan quyib berdi.

– Xasislik qilmasanglar, pivo ham binoyidek bo‘ladi.

– Qanaqasiga? – tushunmadi Yegor.

– Shakarni ko‘proq solinglar. Hammanglar nuqul arzoniga yugurasizlar. Sharbatga shakarni ko‘proq qo‘shsanglar – pivo jonivor ham pivodek bo‘ladi. Shakar bu yoqda qolib, o‘rniga tamaki solishadi... uyat-e...

– Ha, – dedi Yegor o‘ychan qiyofada. Keyin stakanni ko‘tarib, kampirga, Shurkaga bir-bir qaradi-da, ichib yubordi. – Ha-a, – dedi yana.

– Albatta, shunaqa-da. Ammo Novosibirskda ehtiyot bo‘linglar, adashib ketmanglar...

– Nimaga?

– Ha, endi... shunchaki. Har nima bo‘lishi mumkin. – Yegor papiros tutatdi, mo‘ylovlari ostidan quyuq tutun chiqarib chekishga tushdi. – Eng muhimi, Tolmachevda kassalarni adashtirib yubormanglar. Bo‘lmasa, naq Vladivostokka uchib ketishinglar mumkin-a!

Kampir hayajonlanib, Yegorga uchinchi stakanni quyib berdi. Yegor uni bir zumda bo‘shatib, tomoq qoqdi-da, fikrini davom ettira boshladi.

– Ba’zan shunaqa bo‘ladi: birov sharqiy kassaga kelib, bilet bering, deydi. Qayoqda bilet sotilyapti, deb so‘rab ham o‘tirmaydi. Qarabsizki, sho‘rlik butunlay teskari tarafga ketib qoladi. Ha, ehtiyot bo‘linglar.

Kampir Yegorga to‘rtinchi stakanni quyib berdi. Yegor endi qip-qizarib, maroq bilan so‘zlardi:

– Samolyotda uchish uchun yurak kerak, yurak! Yerdan ko‘tarilishing bilan darrov qo‘lingga konfet tutqazadi.

– Konfet?

– Ha-da! Go‘yo shunchaki, parvo qilmanglar, degandek.

Aslida esa eng katta xatar ana shunda boshlanadi. Yoki, deylik, bir payt «Kamarlarni bog‘la!» – deb qoladi. «Nega?» – desang, shunday qilish kerak, deydi. Shunday qilish kerakmish. Ochig‘ini aytavermaysanmi – ag‘anab ketishimiz mumkin, deb... Shunday qilish kerakmish-a!

– Yo Xudo! Yo Xudo! – dedi kampir. – Shunchalik ekan... uchib nima zaril...

– Ha, endi chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmaydi, – Yegor pivo shishasiga qarab qo‘ydi. – Umuman, reaktivlari ancha tuzuk, sal ishonchliroq. Anavinaqa parraklilar istagan paytda buzilib qolishi mumkin – ko‘ribsizki... Keyin ularning motori ba’zan yonib ketadigan odati bor. – Yegor stuliga o‘rnashibroq o‘tirdi, yangi papiros tutatib, tag‘in pivo shishasiga tikildi. Kampir joyidan qimirlamadi. – Uchib ketyapmiz-u, bir vaqt derazadan qarasam, yonyapti...

– Xudoyim-ey! – dedi kampir ovozi qaltirab. Shurkaning og‘zi ochilib qoldi.

– Xo‘sh, men, albatta, jonimning boricha baqirdim. Uchuvchi chopib keldi... Xullas, meni so‘kib-so‘kib qaytib ketdi... – Hoy deydi, nega bekorga vahima qilasan, – deydi. Gapini qarang-u... U yerda motori yonaversinmish-da, men tinchgina o‘tirishim kerak emish... Ana shunaqa qiliqlari bor bu aviatsiyaning...

Shurkaga bu gap haqiqatga xilof bo‘lib tuyuldi. U, uchuvchi alangani ko‘rib tezlikni oshirar yoki majburan qo‘nar, deb kutgandi, yo‘q, aksincha, Yegorni urishib beribdi. Qiziq...

– Men bir narsaga hayronman, – davom etdi Yegor Shurkaga yuzlanib, – nima uchun yo‘lovchilarga parashut berilmaydi?

Shurka yelkasini qisdi. U yo‘lovchilarga parashut berilmasligini bilmas edi. Agar haqiqatan shunaqa bo‘lsa, rostdan ham g‘alati ekan.

Yegor papiros qoldig‘ini gultuvakka tashlab o‘rnidan turdi, shishadan stakaniga o‘zi quyib oldi.

– Pivong qoyilmaqom ekan-da, Malanya!

– Sen unaqa zo‘r beraverma, mast bo‘lib qolasan.

– Pivo, bilasanmi... – Yegor bosh chayqab stakanni bo‘shatdi. – K-hu! Shunaqa deymiz-u, ammo reaktiv samolyotlar... ular ham

baribir xavfli. Narigisi agar buzilsa, pastga toshday sho‘ng‘ib ketadi. Bulari bo‘lsa... shundoq joyining o‘zida... Keyin suyak-puyagingni ham topib bo‘lmaydi. Odamdan kiyim-piyimi bilan bor-yo‘g‘i uch yuz gramm qoladi.

Yegor qovoq uyib diqqat bilan pivoga termildi. Kampir shishani olib narigi xonaga kirib ketdi. Yegor yana birpas o‘tirdi-da, sekin chayqalib o‘rnidan turdi.

– Umuman, qo‘rqmanglar, – dedi baland tovushda, – faqat kabinadan uzoqroqqa – orqa tomonga o‘tiringlar-da, uchaveringlar. Xo‘p, men boray...

U lapanglab eshik yoniga keldi, nimpo‘stini va shapkasini kiyib:

– Pavel Ignatevichga salom aytinglar, – dedi. – Ammo-lekin, Malanya, pivoni boplar ekansan. Qoyil!

Kampir Yegorning darrov mast bo‘lib qolganidan, bafurjaroq gaplasha olmaganidan norozi edi.

– Kuch-quvvatdan ketibsan, Yegor.

– Charchabman, shunga. – Yegor po‘stinining yoqasiga ilashgan xashakni olib tashladi, – xo‘jayinlarga yozda aytdim – hoy, pichan g‘amlab qo‘yaylik, deb! Qayoqda! Mana bu bo‘rondan keyin yo‘llar muzlab... hammayoq toyg‘anchoq... Bugun kuni bilan yaxmalakda o‘yin tushdik. Xo‘sh, keyin, pivong ham o‘tkir ekan... – Yegor bosh tebratib kuldi. – Xo‘p, men ketdim. Qo‘rqmanglar, uchaveringlar. Faqat kabinadan uzoqroq o‘tiringlar. Xayr, ko‘rishguncha...

– Xayr, – dedi Shurka.

Yegor chiqdi, tashqaridan uning baland zinadan ehtiyotkorlik bilan tushib borayotgani, hovlidan o‘tgani, darvozani g‘ijirlatib ochgani va past tovushda xirgoyi qilayotgani eshitilib turar edi: «Cheksiz dengiz yastanib yot-a-ar...»

Nihoyat, jimlik cho‘kdi.

Kampir qorong‘i derazaga o‘ychan va g‘amgin tikilib o‘tirardi. Shurka Yegordan yozib olganlarini qayta ko‘zdan kechirdi.

– Xavfli ekan-ku, Shurka, – dedi kampir.

– Boshqalar uchishyapti-ku.

– Yaxshisi, poyezdda borsakmikan?

– Poyezdda? Mening butun ta’tilim yo‘lda o‘tib ketadi-yu...

– E, Xudoyim-ey! – xo‘rsindi kampir. – Qani, o‘tir, Pavelga xat yozamiz. Telegrammani yo‘q qilamiz.

Shurka daftaridan yana toza varaq yirtdi.

– Demak, uchmaymizmi?

– Qayoqqa uchasan, vahimasini eshitding-ku. Xudoyim-ey! Uch yuz gramm go‘shting qolarmish...

Shurka o‘ylanib qoldi.

– Yoz: «Aziz o‘g‘ilginam, Pasha, men bu yerda yo‘l-yo‘riq biladigan kishilar bilan maslahatlashib ko‘rdim...»

Shurka qog‘oz ustiga engashdi.

«...Ular bizga samolyot qanaqa uchishini aytib berishdi... Va biz Shurka bilan, yaxshisi, yozda poyezdda bora qolamiz, deb qaror qildik. Hozir ham boraverishimiz mumkin edi, ammo Shurkaning kanikuli toza qisqa ekan...»

Shurka ikki-uch daqiqa pero qitirlatib o‘tirdi-da, keyin o‘zicha yozishga tutindi. «Endi, Pasha tog‘a, sizga men o‘zim yozyapman. Buvimni Yegor amaki aynitdi, Lizunov bor-ku, bizning xo‘jalik bo‘limi mudirimiz – esingizda bo‘lsa... U, masalan, shunaqa narsani aytib berdi: oynadan qarab motorning yonayotganini ko‘rganmish. Agar shu rost bo‘lsa, uchuvchi tezlikni oshirib, alangani o‘chirardi. Doim shunday qilishadi-ku, axir! Menimcha, u orqa tomondagi tutun chiqadigan trubani ko‘rib, vahima ko‘targan bo‘lsa kerak. Pasha tog‘a, siz buvimga tushuntiring, hech qo‘rqinchli joyi yo‘q, deb yozing, ammo men yozganimni aytmay qo‘ya qoling. Bo‘lmasa, buvim yozda ham bormaydi. Polizda ish ko‘payib ketadi, bir yoqda cho‘chqalar, tovuq, o‘rdaklar... Biz, har qalay, haliyam qishloqilarmiz-ku... Men esa Moskvani judayam ko‘rgim keladi. Biz uni geografiyadan ham, tarixdan ham o‘tamiz, ammo baribir ko‘z bilan ko‘rgandek emasda, o‘zingiz bilasiz-ku. Yegor amaki, yo‘lovchilarga parashut bermas emish. Bu g‘irt tuhmat. Shunga buvim ishonib o‘tiribdi. Pasha tog‘a, uni bir uyaltiring. Axir u sizni nihoyatda yaxshi ko‘radi-ku. Siz unga shunday deb ayting: bu qanaqasi, oyijon, o‘g‘lingiz uchuvchi, Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘lsa-yu, siz qandaydir arzimagan grajdan samolyotida uchishga qo‘rqsangiz! Tag‘in kelib-kelib, biz tovushdan tez uchayotgan bir paytda-ya! Unga shunday deb yozing, shu zahoti uchib boradi. Axir u siz bilan juda faxrlanadi-ku. Shaxsan men ham siz bilan faxrlanaman. Lekin Moskvani juda ko‘rgim kelyapti. Xo‘p, hozircha xayr. Salom bilan Aleksandr».

Kampir esa hamon hijjalab aytib turar edi.

«...kuzga tomon boramiz. U vaqtga kelib qo‘ziqorinlar ham bo‘ladi, biror nima tuzlashga ulguramiz, tuzukroq murabbo pishi-

rib oboramiz. Moskvada hammasini pulga sotib olasizlar-ku. Keyin qo‘lda tayyorlaganimdek pishira olarmidi? Shunaqa gaplar, bolajonim. Xotiningga, bolalaringga mendan va Shurkadan salom ayt. Hozircha xayr». Yozdingmi?

– Yozdim.

– Kampir xatni konvertga solib, o‘zi manzilni yozdi: «MOSKVA (ko‘cha nomini yozdi), uy № 78, xonadon № 156. Sovet Ittifoqi Qahramoni Lyubavin Pavel Ignatevichga Sibirdagi onasidan».

U manzilni har doim o‘zi yozar, shunda aniqroq borib tegishini bilardi.

– Xo‘p, bo‘ldi. Xafa bo‘lma, Shurka. Yozda boramiz.

– Xafa bo‘layotganim yo‘q. Lekin har qalay bir o‘ylab ko‘ring: balki uchib ketaverarmiz?

Kampir nevarasiga qarab qo‘ydi-yu, hech nima demadi.

Kechasi Shurka buvisining pechka ustida u yonboshidan bu yonboshiga ag‘darilganini, sekingina xo‘rsinib pichirlaganlarini eshitib yotdi. Shurkaning ham uyqusi kelmadi. Xayol surib yotdi. Hayot yaqin orada unga ko‘pdan ko‘p ajoyibotlarni hadya etayotgandek edi.

– Shurka! – chaqirib qoldi buvisi.

– Ha?

– Pavelni Kremlga kirgizsa kerak-a?

– Ehtimol. Nimaydi?

– Biror marta o‘sha yerda bo‘lsam... ko‘rsam... armonim yo‘q edi.

– Hozir u yerga hammani kiritaveradi. Kampir bir muddat indamadi.

– Hammani deysanmi? – dedi ishonqiramay.

– Bizga Nikolay Vasilyevich aytib berganlar. Yana bir daqiqa jim yotishdi.

– Buvi, o‘ziz ham qiziqsiz: hech qo‘rqmaydigan odam shundan cho‘chib o‘tiribsiz-a, – dedi Shurka norozi ohang-da, – nimadan qo‘rqasiz, a?

– Uxla, – buyurdi kampir, – sendaqa botirdan o‘rgildim. Birinchi bo‘lib ishtoningni ho‘llab qo‘yarsan.

– Garov o‘ynaymizmi, qo‘rqmayman?

– Uxla, uxla. Bo‘lmasa, ertaga tag‘in maktabga kech qolasan.

Shurka jimib qoldi.

RESTORANDAGI VOQEA

N. shahridagi katta restoranlarning birida sochi tap-taqir olingan, kiyim-boshi ozoda, chuvakkina, yuvosh bir qariya derazaga xayolchan boqqancha taom keltirishlarini kutib o‘tirar edi.

– Joy bo‘shmi, otaxon? – deb so‘radi kimdir orqadan, gulduragan yo‘g‘on tovushda.

Chol cho‘chib boshini ko‘tardi.

– O‘tiring, marhamat.

Koverkot matodan bahaybat kostum kiygan, pidjagining yapyangi qora tugmachalari ko‘zni qamashtirgudek yaltillab turgan baquvvat yigit cholga ro‘baro‘ o‘rnashdi. Chol uning ko‘zlariga tikilib qoldi. Odam bunaqalarga negadir zavqlanib qaraydi. Ular o‘lgudek ishonuvchan, sodda bo‘lishadi.

– Xo‘sh, otaxon, – deb so‘radi «ayiq polvon», – qani, otamizmi?

Qariya muloyim jilmaydi.

– Men ichmayman-ku.

– Iye, nega?

– Qarichilik... Bizga to‘g‘ri kelmaydi endi. Ularning tepasiga kelgan ofitsiantka ham yigitga qiziqish bilan boqdi.

– Bir shisha aroq va gazakka biron narsa, – deb buyurtma berdi yigit. – Kabobdan bormi?

– Aroq – faqat yuz grammgina mumkin... Yigit tushunmagandek anqaydi.

– Nega endi?

– Negaki... aroqdan faqat yuz grammgina beriladi. Qoida shunaqa.

– Bu qanaqasi?

– Nima qanaqasi?

– Menga ko‘proq kerak bo‘lsa-chi? Yigitni kuzatib o‘tirgan chol miyig‘ida kulimsiradi.

– Qizim, – dedi u ofitsiantkaga, – axir menga ham yuz gramm mumkin-ku, to‘g‘rimi? Shundoq ekan, ikki yuz qilib olib kelavermaysizmi unga.

– Mumkin emas, dedimmi, mumkin emas! Xo‘-o‘sh, kabob... Tag‘in nima?

Yigit cholga nochor mo‘ltirab qaradi.

– Bu qanaqasi?.. Hazillashyaptimi bu? Qariya jiddiylashib ofitsiantkaga yuzlandi:

– O‘zingiz bilasiz-ku, endi... istisnosiz qoida yo‘q. Ko‘rib turibsiz, devday yigit... Yuz gramm nima bo‘ladi unga?

– Mumkin emas, – xotirjam javob qaytardi ofisiantka va yana qoniqish bilan xurram jilmayib yigitga boqdi. – Tag‘in nima?

Yigit uning xushchaqchaq nigohini o‘zicha tushunib:

– Uch yuz gramm bo‘lsayam koshkiydi, yaxshi qiz, – dedi barvasta yelkalarini sho‘x uchirib qo‘yarkan.

– Mumkin emas. Gapiring, yana nima? Yigit endi astoydil ranjidi.

– Yana... yuz shisha limonad!

Ofitsiantka qo‘lidagi daftarchasini shappa yopdi.

– Yaxshilab o‘ylab olinglar, keyin chaqirarsizlar. – U taq-tuq yurib stoldan nari ketdi.

– Kiroyi ichgandan keyin yolchibroq ichsang-da, – dedi yigit alam bilan uning ortidan qarab. – Shuyam gap bo‘ldi-yu...

– Rasmiyatchilik, bilsangiz, faqat muassasalarni rasvo qilib qolmaydi... – deya hamdard ohangda so‘z qo‘shdi chol. – Bu yerda, – u chilcho‘pdek ingichka barmog‘i bilan oppoq dasturxonni chertib qo‘ydi, – bu yerda u yana rasvoyi raddi shaklda namoyon bo‘ladi. Mabodo sizni bironta boshliq o‘z vaqtida qabul qilmasa, balki banddir, deb o‘zingizga oz-moz tasalli berasiz. Ammo bu yerda...

– Xo‘sh, har holda nima qilish kerak?

– Konyak buyuring. Ko‘nglingiz tusagancha beraveradi.

– Rostdanmi?

– Ha.

Yigit ofitsiantkaga imo qildi. U yaqinlashgach:

– Men o‘ylab ko‘rdim, – dedi yigit. – Bir shisha konyak va ikkita... Kabobga qalaysiz, otaxon?

Qariya bosh chayqadi.

– Men o‘zimga buyurib qo‘ygan edim.

– Demak, ikkita kabob, qanaqasi bo‘lsayam ikkita salat... yana tabakada qovurilgan tovuq.

– Tabaka deng, – deb tuzatdi ofitsiantka, daftarchasiga yozib olarkan.

– Bilama-an, – dedi yigit. – Hazillashyapman-da.

– Bo‘ldimi?

– Bo‘ldi. Ofitsiantka ketdi.

Yigit norozi bosh chayqadi.

– Rostdan ham, qip-qizil rasmiyatchi-ku bular. Axir konyak aroqdan ko‘ra o‘tkirroq-ku. Nahotki shuni bilishmasa?..

– Baloni bilishar. Konyak qimmatroq, hamma gap ana shunda, – tushuntirdi chol. – Boshqa yoqdan kelganga o‘xshaysiz?

– Shunday. Ehtiyot qismlar uchun keluvdim. Bugun bir amallab undirdim, yuvish kerak-da axir.

– Sibirlikmisiz?

– Yo‘q, Uraldanman.

– O‘xshaysiz... – tabassum qildi qariya. – Bir paytlar Sibirda bo‘lganman, bilaman...

– Sibirning qayerida?

– Vladivostokda.

– Ha-a. Men u yerda bo‘lmaganman.

Shu payt musiqa boshlanib qoldi. Yigit o‘girilib sozandalarga qaradi. Yaltiroq ko‘ylagi qomatini sirib turgan qiz mikrofonga yaqinlashib, odamlarga tikilgancha, tabassum qildi... Yigit yuzini loqaydgina chetga burdi – u bunaqalarni yoqtirmasdi. Qiz qo‘shiq boshladi. U shunday past, lekin kutilmagan shirali ovozda kuylardi-ki, yigit beixtiyor tag‘in qayrilib qaradi. Qiz ko‘nglida ardoqlab yurgan, ammo hali uchratmagan «yigiti» haqida kuylardi, qo‘shig‘i allanechuk g‘alati edi: go‘yo birovga shunchaki so‘zlab berayotganga o‘xshasa-da, gaplari beixtiyor qo‘shiq bo‘lib chiqardi. Gavdasi musiqa maromiga mos tebranardi. Yigit undan ko‘z uzolmay qoldi.

Zalda ishtahani qitiqlovchi taom hidi anqir, restoran g‘ovur-g‘uvurini musiqa hamda qizning ovozi bosib ketgan edi. Deraza raxlaridagi gultuvaklarda fikus o‘simligi qulf urib yotgan shinam zal tobora orombaxsh bo‘lib borardi.

Qiz yigitga yanada ko‘proq yoqa boshladi. Yigit cholga nazar tashladi. Qariya mashshoqlarga ters o‘girilgan ko‘yi unsiz o‘tirardi...

№ 2021/N9-44

Boshini yelkalari orasiga olgancha nursiz ko‘zlarini stolga tikkan. Og‘zi yarim ochiq, pastki labi osilgan.

– Keldi, – dedi u yigitning nigohini tuyib sekingina. So‘ng go‘yo o‘zini oqlamoqchidek, qo‘shiq ta’sir qilgan kabi iljayib qo‘ydi.

Qiz esa hamon kuylar, xo‘randalarga tabassum ulashar edi... Uning tabassumida samimiyatdan yiroq allanarsa yashirindek tuyulardi. Shunga qaramay, u go‘zal hamda g‘oyat dadil edi.

Yigit iyagini barkashdek kaftiga tiragancha qizga suqlanib boqardi.

– Qoyi-il, – dedi u, qiz qo‘shig‘ini tugatgach.

– Oladigan nafaqam unchalik ko‘p emas-u, – deya birdan yorilib qoldi qariya, – lekin hammasini shu yerda sarflayman – uning qanday kuylashini eshitib o‘tiraman. Qalay, sizga ham yoqdimi?

– Ha.

– E’tibor qiling-a, u hali ona suti og‘zidan ketmagan norasida. Harchand yasangan, qovoqlarini ko‘kartirib bo‘yagan, yasama tirjayishlarni xo‘p o‘rgangan bo‘lsa hamki, hali baribir go‘dak. Uni ko‘rib ba’zan ko‘zimga yosh keladi.

– U tag‘in aytadimi?

– Aytadi. Chorakam o‘n birgacha.

Konyak, kabob, salatlar va cholga shavla keltirib qo‘yishdi.

– Jindak ichmaysizmi, otaxon? – manzirat qildi yigit.

Chol shishaga tikilgancha o‘ylanib turdi-da, qo‘l siltab:

– Quysangiz quying-e, – dedi. – Yigirma besh grammgina...

Yigit jilmaydi, ko‘kish ryumkani yarimlatdi, o‘ziga esa fujerni qilqillatib to‘ldirdi-yu o‘ylab ham o‘tirmay birdan ko‘tarib yubordi.

– Oh, Xudoyim-a! – deb xitob qildi qariya.

– Ha, otaxon?

– Qoyil, boplar ekansiz...

– E, menga o‘zi bunaqasi ko‘p yoqmaydi – hidi g‘alati...

– Havasim keldi sizga... Kasbingiz nima?

– Brigadirman. Haligi... o‘rmonda yog‘och tayyorlovchilarga.

– Xudo haqqi, sizlarga havas qilaman! Shaharga bamisoli burgutdek uchib kelasizlar-u gurullagan, qaynoq hayot qo‘ynida yurganlaringdan bu yer sizlarga torlik qilib qoladi. Torlik qiladi, yaxshi bilaman.

Yigit kabob chaynagancha uning gaplarini tinglab o‘tirardi.

– Qani, oling, otaxon!

Qariya qadahni bo‘shatgach, kekirib qo‘ydi-da, shosha-pisha gazak qildi.

– Ichmaganimga ham ko‘p bo‘ldi, uch yilcha.

– Nima, yolg‘iz o‘zingiz turasizmi?

– Yolg‘iz o‘zim, – bosh irg‘adi chol.

– Yakkalik yomon.

– Unchalikmas... Men negadir bu haqda o‘ylamay qo‘yganman. Anavi menga, – chol boyagina qiz chiqib ashula aytgan tomonga ishora qildi, – qizimga o‘xshab tuyuladi. O‘z qizimdek yaxshi ko‘raman. Bilmadim, taqdiri ne bo‘larkan, o‘lgudek qo‘rqaman.

– U sizni taniydimi?

– Qayoqdan tanisin.

– Yaxshi aytar ekan. Men chiyillab, chinqiradiganlarni yoqtirmayman.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri...

Yigit qaddini rostladi-da, kafti bilan ko‘kragiga shap-shap urib qo‘ydi. Negadir baralla xo‘rsindi.

– Kabobi zo‘r ekan ammo-lekin.

– Sizlar – hayotning qanaqadir haqiqiy xo‘jayinlariga o‘xshaysiz. Men vaqtida shunaqa bo‘lolmaganman-da, – deb g‘amgin pichirladi qariya.

Mashshoqlar sozlarini tag‘in qo‘lga olishdi. Yana boyagi qiz chiqib, mikrofonni o‘ziga mosladi. Yigit cheka boshladi.

– Keldi, – dedi u qiz tomonga ishora qilib.

Chol orqasiga o‘girilib, qizga yalt etib nazar tashladi.

– Ko‘z qurg‘ur o‘tmaydi. Ko‘zoynak bilan qarashga esa... iymanaman, yoqtirmayman. Ba’zi-ba’zida foydalanmasam...

Qiz yana qo‘shig‘ini boshladi. Qo‘shiq, uning qandaydir indamas, odamovi yigitni sevib, aziyatlar chekkani, ammo baribir ko‘ngil uzolmagani xususida edi.

Yigit jimgina tinglab, o‘ychan jilmayib o‘tirardi. Qariya tag‘in o‘z xayollariga sho‘ng‘ib ketgan, nigohi so‘niq, pastki labi osilgan edi.

Qiz hamon faqat «ha va yo‘q» deyishnigina biladigan o‘sha dardisarni qandoq sevib qolgani haqida kuylardi. Sho‘x, hazil qo‘shiq. Qiz xuddi atay kuylamayotganga, balki o‘z sarguzashtini jo‘ngina bayon qilib berayotganga o‘xshardi. U sirini hammaga oshkor etayotganidan ham zarracha cho‘chimas, shu qadar yoqimtoy, suyukli tuyular edi...

Yigit yuragida jo‘shqin, ajib bir quvonch tuydi. Turmush o‘zining barcha tashvish-u yumushlari bilan benihoya yiroqlashib ketgandek tuyuldi unga. Olamda go‘yoki faqat qizning tovushi-yu qo‘shig‘i qolgandek. Ana shu orombaxsh, kuy-qo‘shiqlarga to‘la olamga qadam qo‘yasan-u o‘zingni cheksiz baxt og‘ushida sezasan...

– Yana bittadan olaylik, otaxon! – deya yigit o‘ziga va cholga quydi.

Qariya itoatkorlik bilan ichishga ichdi-yu so‘ng boshini sarak-sarak qilib:

– Nima bo‘lyapti o‘zi menga, – dedi.

– Hech narsa qilmaydi, otaxon... Men ham negadir unga achinib ketyapman, – deb tan oldi yigit. – Qayoqdagi mast-alastlarga qo‘shiq aytib o‘tirsa-ya...

– Ana, ana, topding! – deya chol oppoq, chilcho‘pdek barmog‘ini bigiz qildi. – Uylan shunga sen! Uylangin-da, biror yoqqa olib ket. Sibirgami... Qo‘lingdan keladi-ku axir... Gavdangni qara!..

– Birinchidan, men uylanganman, otaxon, – e’tiroz bildirdi yigit. – Keyin u Sibirga borarmikan? Nima deysiz?..

– Menimcha, senday yigit bilan jon deb ketadi.

– Xudo biladi-da.

Qariyaning kayfi oshib qolgan edi. U og‘zini artib g‘ijimlangan sochiqni stolga tashladi va qizishib nasihat ohangida gap boshladi:

– Hech qachon bunaqa «boradimi, yo‘qmi» deb mulohaza qilib o‘tirmaslik kerak. Bandasi yordamingga muhtojligini ko‘rdingmi – ikkilanmay yordam ber. Mijg‘ovlanib o‘tirma. Qolaversa, Xudo hech narsadan qismagan ekan – qo‘lingdan istagan ish keladi!

– Nimalar deyapsiz, otaxon, – deb yigit tag‘in e’tiroz bildira boshladi, – men uylanganman, axir!

– Gap undamas... Shunchaki, indallosini aytyapman-da... Jindak quy menga. Bugun negadir juda ko‘nglim xush.

O‘spirin ko‘kish ryumkani, so‘ng o‘zining fujerini to‘ldirdi.

– Seni ko‘rib, ajoyib bir odam esimga tushdi, – dedi chol. – Qiyqirishga qalaysan?

– Qanaqa qiyqirish? – hang-u mang bo‘lib so‘radi yigit.

– Qani, bir baqirib ko‘r-chi!

– Nega-a?

– Eshitib ko‘raman-da. Qani, ha!..

– Axir bizni quvib solishadi-ku bu yerdan.

– E-e... Tupurmaysanmi! Ayiqchasiga bir bo‘kir, iltimos.

O‘spirin qo‘lidagi fujerni stolga qo‘ydi-da, nafasini rostlab olgach, na’ra tortdi.

Raqs tushayotganlar bexos to‘xtab qolishdi, chor atrofdagilar ham cho‘chib ularga yuzlanishdi.

Qariya yigitga maroq bilan tikilardi.

– Qoyil. Bir do‘stim bo‘lardi, uyam rasm muallimi edi... Bo‘yi sendan sal tikroq... Oh, qandoq bo‘kirardi u, qandoq bo‘kirardi! Keyin yo‘lbars ovlovchilarga qo‘shilib ketdi. Yo‘lbarsni qanday tutishlarini bilasanmi? Yo‘lbarsga qarab to‘rt tomondan bo‘kirishadi, yo‘lbars bundan esankirab, orqa oyoqlariga cho‘nqayib qoladi, shunda...

Xonanda yana chiqib, notanish bir qo‘shiqni kuylay boshladi. Yigit qo‘shiqning so‘zlarini yaxshi tushunolmadi sirasini aytganda, tushungisi ham kelmasdi o‘zi. Tag‘in boyagidek, boshini changallagancha churq etmasdan tinglab o‘tirardi.

– Rostdan ham olib ketaylik shu qizni, – deb taklif qildi u bir payt cholga. – Klubimizda qo‘shiq aytib yurardi.

– Bo‘pti. Men ham tashvishdan qutulib, tinchib qolardim. Shunday qilaylik, Vanya!

– Mening otim – Semyon.

– Baribir – nima farqi bor? Ke, o‘g‘lim, shu bir insonni halokatdan qutqazaylik!

Yigit cholning so‘zlarini eshitarkan, mijjalari yoshlandi. Stol ustidagi gurzidek mushtlari o‘z-o‘zidan mahkam tugildi.

– Sen ham men bilan ketasan, – deb birdan hayqirdi u.

– Menmi? Boraman! Albatta! – Qariya qoqsuyak mushtini stolga urib qo‘ydi. – Biz uni haqiqiy xonanda qilib tarbiyalaymiz! Meni bu ishdan oz-moz xabarim bor.

Shu payt ofitsiantka ularga yaqinlashdi.

– Tinchlikmi, o‘rtoqlar? Nega shovqin solasiz?.. O‘rmonda emassizlar-ku, to‘g‘rimi?

– Xotirjam bo‘ling, – dedi yigit. – Hammasiga aqlimiz yetadi, xudoga shukur.

– Siz bilan hisob-kitob qilamizmi? – Ofitsiantka cholga yuzlanib so‘radi.

– Ko‘nglingiz to‘q bo‘laversin, – deb javob qaytardi qariya. – Boshqa ishlaringizni qilib turing.

Ofitsiantka unga ajablanib qaray-qaray, nari ketdi.

– Umr bo‘yi kuchli bo‘lishni orzu qildim, odamlarning mushkulini oson qilay dedim, biroq qo‘limdan kelmadi, men ojiz bir kimsaman.

– Ko‘p ham kuyunaverma, – dedi yigit uni yupatishga urinib. – Ko‘ryapsanmi mana buni? U cho‘qmordek mushtini ko‘rsatdi. – Men bilan bo‘lsang pand yemaysan. Kimki yo‘lni to‘ssa, shu zahoti ora ochdi qilib qo‘ya qolamiz.

– Oh, men qanday bema’ni yashadim-a, Vanya! Attang... Hatto sevmaganman ham – sevishdan qo‘rqqanman, xudo haqqi.

– Nega?

Chol uning savoliga e’tibor bermay, davom etdi:

– Xuddi anavinga o‘xshagan bittasi bo‘lardi, u ham qo‘shiq aytardi... Zo‘r aytardi ammo-lekin! Men ham xuddi mana shunday o‘tirib uning qo‘shig‘ini tinglardim. Uni ham qutqarish kerak edi, tushunasanmi, unga ham yordam berish kerak edi! U yerda ofitserlar ham bo‘lardi. Eh-he, ko‘p bo‘ldi bunga. Kelishgan ofitserlar edi!.. Eh, la’nati! – Qariyaning boshi silkinib ketdi. – Ehtimol, birovlarga o‘xshab ichganimda, xatolar qilganimda, jur’atliroq bo‘larmidim! Men axir hayotda biron xato qilmaganman-da, Vanya! – U ko‘kragiga mushtladi, nursiz ko‘zlarini pirpiratdi. – Umr bo‘yi biron marta nojo‘ya ish qilmagan bo‘lsam-a! Ishonasanmi shunga?

– Yaxshi-da. Nimasi yomon?

– Yomon, Vanya, yomo-on! Biror marta-ya! Axir bu pastkashlik, axir bu dahshat! Menga achinib qaraganlarida sevishadi, deb o‘ylabman, o‘zim sevganimda esa – qo‘rqibman, ming xil andisha-yu mulohazalarga boribman...

– Ko‘proq ichib qo‘yding, shekilli, otaxon, – dedi yigit. – Mana bundan gazak qilgin...

– Sen bularni tushunmaysan – bunaqa narsalarni tushunmaslik qanday yaxshi!

– Xo‘sh, Sibirga ketadigan bo‘ldikmi axir?

– Ketamiz, albatta, ketamiz. Men manavini ichib olay?

– Icha qol, – ruxsat berdi yigit.

Qariya konyakni oxirigacha ichdi-yu, ryumkani yerga urdi. Ryumka chil-chil sinib, sochilib ketdi. Chol ko‘kragini stolga tashlab ho‘ngrab yubordi.

Shu zahoti eshik og‘asi-yu ofitsiantkalar yugurib qolishdi. Yigit ko‘zlarini qisib ularga osoyishta boqardi. U cholni himoya qilishga tayyor edi. Hatto hozir o‘zining shunday ko‘makka asqatishini juda-juda istardi ham.

– Nima gap?

– Hech gap yo‘q. Biz Sibirga ketyapmiz, – dedi yigit og‘zini to‘ldirib.

– Sibirga ketsanglar yaxshi, lekin bezorilikning nima keragi bor?

– Bezorilik qilganimiz yo‘q, qo‘shiq eshityapmiz.

– Axir u juda yomon aytyapti, Vanya! Juda yomon, dahshatli darajada yomon! – derdi chol ko‘z yoshi aralash hiqillab. – Sen undan yaxshiroq bo‘kirasan. Ma’niliroq. Axir u mutlaqo aytolmaydi! Lekin gap bundamas, sirayam bundamas...

– Ryumkaning pulini kim to‘laydi?

– Men, – dedi yigit cholga taajjublanib tikilarkan. – Hammasini o‘zim to‘layman.

Ofitsiantka yigit bilan hisob-kitob qilarkan, chol yarg‘oq kallasini qo‘llari ustiga qo‘yib, past tovushda yig‘lar va o‘qtin-o‘qtin g‘udranib qo‘yar edi:

– Eh, Vanya, Vanya... ayiq polvonim... Qandoq bo‘kirding-a! Burgutsan!.. Taygaga uchib ketamiz. Uchib ketamiz...

– Bu odamning kimligini bilmaysizmi? – deb ohista so‘radi ofitsiantka.

Bu kishi... – yigit o‘ylanib qoldi. – Bu kishi yirik bir ziyoli. Hozir nafaqada.

Ofitsiantka cholga achinib boqdi.

– Bu yerda tez-tez bo‘lib turadi, ammo sira ichmasdi. Bugun negadir... o‘zingiz kuzatib qo‘ying, tag‘in biron joyda yotib qolmasin.

«Ayiq polvon» indamay o‘rnidan turdi-da, cholning qo‘ltig‘idan olib eshikka boshladi. Qariya qarshilik qilmadi, faqat:

– Qayoqqa ketyapmiz, Vanya? – deb so‘radi.

– Hozir mehmonxonaga, mening joyimga. Ertaga esa Sibirga jo‘naymiz.

Mehmonxona navbatchisi tarxashlik qilib, cholni ichkariga qo‘ymadi. Qariyani suyab turgan yigitning zardasi qaynab ketdi; navbatchiga yoni bilan o‘girilib:

– Cho‘ntakni kavlang, pul bor. Oling, xohlaganingizcha oling, faqat bunaqa vaysamang, iltimos, – dedi.

...Yarim kechagacha ivirsib yo‘l taraddudini ko‘rishdi. Tong qorong‘isida esa Dumbul jomadonini ko‘tarib qishloq ko‘chasidan borardi.

«Yo‘l bo‘lsin?» – deb so‘ragan kishilarga:

– Uralga! Uralga! – deya javob berar, shunda bo‘liq, go‘shtdor yuzi va o‘tkir ko‘zlari uning olis yo‘llarga bo‘lgan bepisand munosabatini ifoda etardi. Nima qipti, olis safarlar uni qo‘rqita olarkanmi? – Uralga! – derdi u. – Odam degan munday qimirlab turishi kerak, po‘panak bosib yotavermasdan.

Ammo Uralgacha hali uzoq edi.

Tuman markazidagi shahargacha eson-omon yetib keldi. Endi u yog‘iga chipta olib, poyezdga o‘tirishi lozim edi.

Hali barvaqtligi uchun Dumbul jiyanlariga sovg‘a-salom, qandqurs xarid qilmoqchi bo‘ldi... Oziq-ovqat magaziniga kirib, navbatga turdi. Uning oldida shlapa kiygan bir kishi, undan oldinroqda esa labini bo‘yagan semiz xotin turardi. Xotin shlapali kishiga past tovushda qizishib tez-tez gapirar edi:

– Buni qarang-a, odam ham shunchalik qo‘pol, befarosat bo‘lar ekan! Xo‘p, yaxshi, uning parishonxotirligi borlikka bor. Hali hech kim unga nafaqaga chiqing, deyishga tili bormagan edi. Anavi bo‘lsa o‘zi jamoaga kechagina boshliq bo‘lib keldi-yu, darrov: «Aleksandr Semyonich, balki nafaqaga chiqarsiz», – deydi. Sur-r-bet!

Shlapali kishi bosh irg‘ab, ma’qullardi.

– Ha, ha... Hozir ular hammasi shunaqa bo‘p ketgan. Skleroz emish-a... Xo‘sh, Sumbatich-chi?.. U ham keyingi vaqtlarda tekstni eslab qololmaydigan bo‘lgan. Anavi-chi, xotin ham bor edi-ku. Anuv... oting qurg‘ur?..

Dumbul shaharliklarni hurmat qilardi. Hammasini emas, albatta: bezori va sotuvchilarni hurmat qilmas, ulardan hayiqardi.

Uning navbati keldi. Konfet, uch plitka shokolad, teshikkulcha sotib oldi-da, xarid qilgan narsalarini jomadonga joylash uchun chetroqqa o‘tdi. Jomadonini yerga qo‘yib ochdi, sovg‘alarni sola boshladi... Shu payt ro‘parasidagi peshtaxta tagiga ko‘zi tushib qoldi. Yerda, odamlarning oyog‘i ostida ellik so‘mlik pul yotardi. Qovurg‘asi sinmagan shapaloqdek ko‘k elliktalik shundoqqina yerda votar – hech kim ko‘rmas edi. Dumbul quvonganidan hatto titrab
zlarida o‘t yondi. Birortasi o‘zidan oldin aytib qo‘ymasligi
avbatda turganlarga buni mumkin qadar xushchaqchaq

yo‘sinda ma'lum qilish maqsadida shosha-pisha aqlliroq gap qidira boshladi.

– Ja... me’dalaring to‘q ekan, grajdanlar! – dedi baland va quvnoq ohangda.

Hamma unga yalt etib qaradi.

– Masalan, biz tomonlarda bunaqa pullarni oyoq ostiga olib tepkilashmaydi. – Bu gapni eshitib odamlar xiyol hayajonga tushib qolishdi, – Uch so‘mmas, besh so‘mmas, butun boshli elliktalik-a! Shuncha pulni topish uchun o‘n besh kun ishlash kerak. Shundoq paytda pul egasiz bo‘lib yotsa!

«Anavi shlapali tushirgan bo‘lsa kerak», deb taxmin qildi Dumbul.

Pulni peshtaxtaning ko‘zga ko‘rinarli joyiga qo‘yib, kutishga qaror qildilar.

– Hozir egasi hovliqib kelib qoladi, – dedi sotuvchi ayol.

Dumbul magazindan kayfi chog‘ bo‘lib chiqdi. «Masalan, biz tomonlarda bunaqa pullarni oyoq ostiga olib tepkilashmaydi!» – dedimi. Bopladi-da. Gapining qoyilmaqom chiqqani hadeb unga zavq bag‘ishlardi. Birdan taqqa to‘xtadi: omonat kassada o‘ziga xuddi shunaqa elliktalik va bitta yigirma besh so‘mlik berishgani esiga tushdi. Yigirma beshtalikni hozir maydaladi, elliktalik cho‘ntagida bo‘lishi kerak... Cho‘ntagiga qo‘l suqsa – yo‘q. U yoq-bu yoqni qaradi – yo‘q.

– O‘zimning pulim ekan-ku! – deb yubordi Dumbul. – Voy onangni!.. O‘zimniki ekan-ku!

Alam qilganidan, hatto yuragining tagida bir narsa jig‘illab ketgandek bo‘ldi. Bir ko‘ngli shartta kirib: «Grajdanlar, bu meni pulim. Omonat kassada bitta yigirma beshtalik, bitta elliktalik oluvdim. Yigirma beshtalikni hozir maydaladim, elliktalik bo‘lsa – yo‘q», – degisi keldi-yu, biroq bu gapi ko‘pchilikni shubhalantirishini o‘ylab qoldi, ular: «Qaranglar-a, egasi chiqmaganidan keyin o‘marishni payiga tushibdi-da», deb o‘ylashi mumkinligini eslab, bo‘shashdi. Yo‘q, eplolmay-di. Bu la’nati qog‘ozga qo‘l cho‘zolmaydi. Qaytib berish-bermasliklariyam dargumon.

– E, Xudo-ye, men nega shunaqaman-a? – deya alam bilan xitob qilardi Dumbul. – Endi nima qildim?..

Uyga hali bir qur kirib-chiqishi kerak edi.

Dumbul akasini yupatishga urindi.

– Qo‘ysang-chi, xafa bo‘lma. Kerakmas. Bularning bo‘lganturgani o‘zi shu... Toshmehr emas. Hammasining bir no‘xati kam. Menikiyam shunaqa-da.

– Nimaga ro‘yxushlik bermadi, a?! Nimaga? Axir senga ro‘yxushlik bermayapti-ku... Nimaga axir?

Ana shundagina Dumbul yangasi o‘ziga ro‘yxushlik bermaganini angladi. Rost-a, nimaga endi uni xushlamasligi kerak ekan?

– Nega deganda, sen hech qanaqa amaldor yo boshliq-moshliq emassan. Bilaman-ku, men bu ahmoqni. Amaldor desa o‘lib bo‘ladi. O‘zi-chi, o‘zi kim bo‘pti! Bor-yo‘g‘i boshqarmada bufetchi-yu hovliqishi olamni buzadi... O‘sha yerda har xil boshliqlarni tomosha qilib keladi-da, boshlaydi mashmashasini. Bilaman, meniyam ko‘rgani ko‘zi yo‘q. Nega deganda, men ham qishloqiman, amaldor emasman.

– Qanaqa boshqarmada ishlaydi?

– Annaqa... no-nomi... Tilim ham kelishmay turibdi aytishga. Shunaqa ekan, tegib nima qilardi? Ko‘rib tekkan, bilib tekkan.

Dumbulga ham turib-turib, nash’a qilib ketdi.

– E, nima degan gap o‘zi bu? – dedi u akasidan emas, go‘yo yana boshqa birovdan so‘rayotgandek baland ovozda. – E, agar bilsangiz, mashhur odamlarning deyarli hammasi qishloqdan chiqqan. Gazetalardagi qora ramkalarning ichini mundoq qarasang, albatta, qishloqdan chiqqan odam bo‘ladi. Gazeta o‘qish kerak-da, savodsizlar!.. Qaysi bir katta odamni olib qaramang – qishloqdan chiqqan bo‘ladi, yoshlikdan qattiqchilik ko‘rgan bo‘ladi....

– Men ham unga ming marta aytdim: hoy, qishloq odamlari yaxshi bo‘ladi, quvlik, shumlikni bilmaydi, dedim, qani tushunsa.

– Stepan Vorobyev esingdami? Tanirding-ku...

– Esimda, esimda bo‘lmay-chi.

– Ana senga qishloqi: Sovet Ittifoqi Qahramoni. To‘qqizta tankni dabdala qilib, o‘zini tank tagiga tashlagan. Endi onasiga oltmish so‘mdan nafaqa berishadi bir umr. O‘ziniyam yaqinda bilishdi-da, bedarak ketgan, deb yurishardi.

– Ilya-chi, Maksimov!.. Urushga bir kunda ketuvdik. Marhamat: uchala Shuhrat ordenining kavaleri. Ammo sen... xotinimga Stepan to‘g‘risida gapirib yurma tag‘in... Keragi yo‘q.

– Bo‘pti. Anavini aytmaysanmi!.. To‘lqinlanib ketgan aka-uka yana xiyla vaqt shovqinlashib o‘tirishdi. Dumbul hatto o‘rnidan tu-

rib darvoza oldida nari-beri yurgancha qo‘llarini silkitib gapira boshladi.

– Qishloqdan yaxshisi bormi?.. Havosining o‘zi tillaga teng-u! Ertalab oynani ochdim deguningcha toza havoga cho‘masan-qolasan. Shunchalik musaffoki, o‘t deysanmi, gul deysanmi hammasining hididan bor, havoni shundoqqina ichging kelib ketadi.

Nihoyat, charchab bir muddat jim qolishdi.

– Tomingni yopib oldingmi? – deb so‘radi akasi sekin.

– Yopib oldim. – Dumbul ham ohista tin oldi. – Ayvon qurdim – ko‘rsang tomosha. Kechqurunlari chiqib o‘tirib xayol surib ketaman: qaniydi otam bilan onam tirik bo‘lsa, sen bola-chaqalaring bilan kelgan bo‘lsang-da, hammamiz shiyponda malinali choy ichib o‘tirsak... Bu yil malina shunaqa ko‘pki, it qaramaydi. Dmitriy, sen u bilan hadeb o‘chakishaverma, bo‘lmasa battar yomon ko‘rib qoladi. Men bo‘lsam bir amallab til topisharman, mana ko‘rasan...

– Bo‘lmasa, o‘ziyam qishloqdan-a! – taajjub bilan asta bosh chayqadi Dmitriy. – Lekin... Bolalarniyam rosa qiynab yubordi-da ahmoq; birini pianino o‘rganasan, deb boshini qotiradi, ikkinchisini figurali chiqishga zo‘rlab yozdirdi. Yuragim qon bo‘lib ketadi-yu indamayman. Bir og‘iz gapirdimmi, tamom, g‘idi-bidi boshlanadi.

– E-e!.. – Dumbulning yana jahli chiqib ketdi. – Shu gazetalargayam sira tushunmayman, o‘lay agar, shunaqa qo‘pol xotin magazinda ishlasa boplab savalashadi. Uyat, balo-battar deyishadi... U bo‘lsa uyida ham xuddi shu qiliqni qilaveradi-da. Hamma balo shunda-da! Hayronman! – Dumbul ham endi tizzasiga mushtlab qo‘ydi. – Hech tushunmayman, o‘lay agar, nega ular bunaqa dajjol-a!

Ertalab Dumbul uyg‘onganida uyda hech kim yo‘q edi: akasi bilan yangasi ishga ketishgan, bolalarning kichigi bog‘chada, kattalari hovlida o‘ynab yurardi.

Dumbul o‘rnini yig‘ishtirib yuvindi-da, yangasining ko‘ngliga yoqadigan biror ish qilishni o‘ylay boshladi. Shunda birdan ko‘zi bolalar aravachasiga tushib qoldi. «Aha, – deb o‘yladi Dumbul, – shunga bir rasm chizmaymanmi». U uyidagi pechkani shunaqayam boplab bezagan ediki, hammaning og‘zi ochilib qolgandi. U jiyanchalarining rasm bo‘yoqlari, cho‘tkalarini topib ishga kirishdi. Biror soatlardan so‘ng aravacha tanib bo‘lmas qiyofaga kirdi. Dumbul aravachaning tepasiga arg‘amchi solib uchayotgan turnalar karvonini chizdi, pastiga esa turli o‘t-o‘lan, har xil gullar, bir juft xo‘roz va

jo‘jalarning rasmini ishladi... Aravachaning u yog‘iga o‘tib qaradi, bu yog‘iga o‘tib qaradi. Ana tomosha-yu mana tomosha! Aravacha emas, qutichaning o‘zi bo‘ldi-ku! Yangasining suyunib ketishini ko‘z oldiga keltirib, o‘zicha kulimsiradi.

– Tag‘in bizni qishloqi deysan, a, jinnivoy! – u yangasi bilan apoq-chapoq bo‘lib ketgisi kelardi. – Bola ham endi xuddi taxtiravonda o‘tirgandek maza qiladi-da.

Dumbul kun bo‘yi shahar aylandi, vitrinalarga anqayib yurdi. Jiyaniga kater sotib oldi. Oppoq, chiroqlari yonadigan chiroyli kater. «Bungayam rasm chizib beraman», – deb o‘yladi u.

Soat oltilarda akasining uyiga kirib keldi. Dahlizga qadam qo‘yishi bilanoq Dmitriy xotini bilan urishayotganini payqadi. Aniqrog‘i, xotini uni urishar, Dmitriy esa hadeb:

– Ey, qo‘ysang-chi!.. Xo‘p endi... Son... Mayli deyapman-ku... – deb takrorlar edi.

– Ertagayoq qorasi o‘chsin bu ahmoqning! – baqirardi Sofya Ivanovna. – Ertagayoq daf bo‘lsin!

– E, xo‘p, bo‘pti endi... Son...

– Mayli emas! Mayli emas! jomadonini ko‘chaga uloqtirmasimdan qorasini o‘chirsin! Bas, yetar!..

Dumbul shosha-pisha zinadan tushib ketdi. U nima qilarini bilmas edi. Tag‘in yuragi zirqirab og‘ridi. Bitta-yarimta o‘zidan nafratlangan kezlarda Dumbul nihoyatda og‘rinar, qo‘rquvga tushar, bo‘ldi endi, hammasi tamom, bunaqa yashashning nima keragi bor, degan xayolga borardi. Bunday paytlarda o‘zini kalaka qiluvchi yoki yomon ko‘ruvchi odamlardan qayoqlargadir ketib qolgisi kelardi.

– Xudo meni nega bunaqa yaratgan-a? – deya alam bilan shivirladi u bostirmada o‘tirarkan. – Nima qilardim shuni... baribir, tushunmaydi-ku bu xotin... Xalq ijodiga aqli yetarmidi.

U qorong‘i tushguncha bostirmada yolg‘iz o‘tirdi. Yuragining qa’rida hanuz nimadir zirqirardi. Keyin akasi Dmitriy paydo bo‘ldi. Dumbulni ko‘rib, uning shu yerdaligini allaqachon bilgan kishidek, hayron ham qolmadi.

– Uh... mana... – dedi u. – Bu... yana to‘polon qildi. Aravachani bekor qipsan-da.

– Men unga ma’qul bo‘lar deb o‘ylovdim. Men keta qolay, akajon.

Dmitriy xo‘rsindi-yu, lom-lim demadi.

Dumbul iliq yomg‘ir shivalab turgan bir mahalda qishlog‘iga kirib keldi. Avtobusdan tushib, oyog‘idagi yap-yangi botinkalarini ko‘targancha iliq, namchil yerdan yugurib ketdi. U sakrab-sakrab borarkan, atrofni boshiga ko‘tarib ashula aytardi:

Terakl-a-a-ar...

Osmonning bir burchi bulutlardan arib, tobora moviylashar, hademay quyoshning yuz ko‘rsatishi sezilib turar edi. Yomg‘ir astasekin pasayib borar, ko‘lmakchalarda yirik-yirik yomg‘ir tomchilari pufak yorardi.

Bir joyda Dumbul oyog‘i toyib, yiqilib ketishiga sal qoldi.

...Uning ismi sharifi Vasiliy Yegorich Knyazev bo‘lib, yoshi o‘ttiz to‘qqizda edi. Qishloqda kinomexanik bo‘lib ishlar, itlar va izquvarlarni yaxshi ko‘rardi. Yoshligida esa josus bo‘lishni orzu qilardi.

«XIKOYA»

Ivan Petinning xotini ketib qoldi. Ketganda ham qandoq deng! Xuddi qadimgi oliyjanob romanlarda tasvirlangandek bir ofitser bilan qochdi-ketdi...

Ivan uzoq reysdan qaytib keldi. Mashinasini qo‘raga qo‘ydi. Shoshib uyga kirdi... Qarasa – stol ustida xat yotibdi.

«Ivan, meni kechir, biroq sendek mag‘zava bilan ortiq yasholmayman. Ovora bo‘lib qidirma, Lyudmila».

Devqomat Ivan go‘yo qo‘qqisdan qoq peshonasidan o‘q yegandek gangib, kursiga og‘ir cho‘kdi. Nima uchundir, buning hazil emas, haqiqat ekanini yaqqol tushundi.

Bir umr hamma narsaga sabr-toqat bilan chidab kelgan Ivan bu zarbaga dosh berolmaydigandek edi: yuragining qa’rida noxush og‘riq turdi. Allaqanday bir alam va qayg‘u uni shunday iskanjaga oldiki, yig‘lab yuborayozdi. O‘ylashga urindi – o‘ylolmadi, faqatgina sanchiq tutayotgandek yuragi zirqirar edi.

Xayolida: «G‘am degani shunaqa bo‘larkan-da...» degan lo‘nda bir fikr yalt etdi, xolos.

Qirq yashar Ivan qishloqilarga ko‘pam o‘xshamas – xiyla tepakal, yoshiga nisbatan ancha katta ko‘rinar edi. Uning indamas va badqovoqligi o‘ziga malol kelmasa ham doimo o‘zgalarning diqqatini tortishi alam qilardi. Ammo erkak kishiga ayni shu xususiyatlarga – ya’ni, o‘zini hamisha xushchaqchaq tuta bilishi va muomalani o‘rniga qo‘ya olishiga qarab baho berishlarini u aslo aqliga sig‘dirolmasdi. «Iye, bo‘lmasam-chi!» – deya taajjublanardi o‘sha Lyudmila. Ivan esa shu so‘zlari uchun xotiniga yana ham mehri tovlanib ketar... va indamas edi. «Nahot hamma gap shunda bo‘lsa, – deb o‘ylardi u, – nima, men senga siyosiy rahbarmidim...».

Mana, oqibat: demak, Lyudmila uning badqovoqligi-yu hadeb aylanib-o‘rgilavermasligidan chindan ham alamzada ekan-da!

So‘ngra Ivan nima bo‘lganini bilib oldi.

Kichkinagina harbiy bo‘linma bir ofitser boshchiligida sovxozga elektropodstansiyani montaj qilishga yordamlashgani kelgandi. Qishloqda bor-yo‘g‘i bir hafta bo‘lishibdi. Montajni tugatgach, qaytib jo‘nab ketishibdi. Ofitser esa bu orada o‘ziga oila ham «montaj qilib» olibdi.

Ikki kun Ivan o‘zini qo‘yarga joy topmadi. Ichib ko‘rgandi – ko‘ngli aynib, battar bo‘ldi. Tashladi. Uchinchi kuni o‘tirib Tuman gazetasiga hikoya yoza boshladi. U ba’zan gazetalarda nohaq ranjitilgan kishilarning hikoyalarini o‘qib turardi. Shu topda o‘zi ham ich-ichidan o‘kinar, duch kelgan odamdan: «Bu qandoq gap axir, shunaqayam bo‘ladimi?» – deb so‘ragisi kelardi.

Xikoya

Demak, mundog‘ bo‘ldi: kesam – stol ustida xat yotipti. Mazmunini yozib o‘tirmayman: og‘ziga kelganini vaysapti. Muhimi, man uni nega bunaqa nayrang qilganini yaxshi bilaman. Unga hamma, san palonchi artistkaga o‘xshaysan, deb aytardi. Qaysi artistligi esimda yo‘q. Xo‘sh, o‘xshasa nima bo‘pti? U ahmoq bo‘lsa tushunmaydi. Axir man ham hech kimga o‘xshamaymanmi? Birontasiga o‘xsharman. Lekin u yoqdan bu yoqqa shox tashlayotganim yo‘q-ku. U bo‘lsa biror artistga o‘xshaysan deyishsa bas, darrov ming tusga kirib tovlanib ketadi. Madaniy oqartuv maktabgayam shuning uchun kirdi – o‘zi aytuvdi. Bordi-yu, biror kishiga Gitlerga o‘xshaysan deyishsa u hovliqib darrov qo‘liga miltig‘ olib hammani otib tashlashi kerakmi? Frontda bizda bitta shunaqasi bor edi – quyib qo‘ygandek Gitlerning o‘ziydi. Keyin uni orqa tomonga jo‘natvorishdi, chunki mumkinmasda mundoq. Yo‘q, buni nuqul shaharga ketgisi kelvurardi. U yerda mashhur bo‘p ketaman, mani hamma taniydigan bo‘ladi, derdi. Bu ahmoqligimasmi? U o‘zi judayam unaqa jinnimas, faqat shu bir oz husniga kerilardi, xolos. Axir chiroylilar ozmunchami!.. Hammasi uyidan qochib ketavursa! Bilaman, o‘sha muttaham unga: «Siz palonchi artistkani o‘zisiz», deb boshini aylantirgan. U ahmoq bo‘lsa, laqqa tushgan-qolgan. Eh, dovlat silaga pul sarplab o‘qitgani-

– Agaeyev bormi? – deb so‘radi u ro‘parada o‘tirgan ayoldan. Ivan bu xotinni uch-to‘rt marta o‘z uyida ko‘rgan, u ham doimo klubga repetitsiyaga yugurgani yugurgan edi. Ba’zan Lyudmila ikkalasining gap-so‘zlari qulog‘iga chalinar, ularning topgan gapi «repetitsiya-yu, dekoratsiyalar» edi.

Hozir Ivan u bilan so‘rashmaslikni lozim topdi, yuragi alamdan zirqirab ketdi.

Ayol unga qiziqsinib va negadir, xushchaqchaq tikildi.

– Bor. Oldiga kirmoqchimisiz?

– Ha... Shu... bir ishim bor edi. – Ivan xotinga tik qarab: «Buyam bitta-yarimtaning oldiga poxol tashlab yurganga o‘xshaydi, juda xursand...» deb o‘yladi.

Ayol muharrirning xonasiga kirib chiqdi-da:

– Marhamat, kiring, – dedi.

Muharrir ham xushvaqt edi. U pakana odam... Bo‘yiga nisbatan to‘la, dum-dumaloq, tepakal... Ivanni o‘rnidan turib qarshi oldi.

– Buni qarang-a! – deya xitob etdi derazaga ishora qilarkan, – vaqt bizning foydamizga ishlayapti-a? Hali cho‘ktirmalarni sinab ko‘rmadingizmi?..

– Yo‘q. – Ivan o‘zining butun qiyofasi bilan hozir hech qanaqa cho‘ktirma-yu baliq oviga tob-toqati yo‘qligini anglatmoqchi bo‘ldi.

– Men shanba kuni sinab ko‘rmoqchiman. – Muharrir hanuz xushhol kayfiyatda edi. – Yo hali ertamikan? Hech sabrim chidamayapti-da...

– Man hikoya opkeldim, – dedi Ivan.

– Hikoya? – ajablandi muharrir. – O‘zingiz yozdingizmi? Nima haqda?

– Bu yerda hammasini yozganman. – Ivan daftarni uzatdi.

Muharrir daftarni varaqlab chiqdi... Ivanga tikildi. U esa muharrirga jiddiy, g‘amgin bir tarzda tikilib turardi.

– Buni hozir o‘qib chiqishimni istaysizmi?

– Yaxshisi, hozir...

Redaktor kresloga o‘tirib o‘qiy boshladi.

Ivan tik turgan ko‘yi xushchaqchaq muharrirga tikilib o‘zicha o‘ylardi. «Ehtimol, buniyam xotini repetitsiyalarga borsa kerak. Bu esa parvoyi falak o‘tiribdi. Buning o‘zi o‘sha har xil «dekoratsiya»larning nimaligini biladi. Buni hamma narsaga aqli yetadi».

Muharrir xaxolab kulib yubordi.

Ivan tishlarini mahkam qisdi.

– Ajoyib! – xitob qildi muharrir . Dumaloq qorinchasini silkitib yana qah-qah urib kuldi.

– Nimasi ajoyib? – so‘radi Ivan.

Muharrir kulishdan to‘xtadi... Hatto biroz xijolat ham chekkandek bo‘ldi.

– Kechirasiz... Bu.... o‘zingiz haqingizdami? O‘zingizning boshingizga tushgan savdomi?

– O‘zimni.

– Ihm... Kechirasiz, men tushunmadim.

– Hechqisi yo‘q. Davomini o‘qing.

Muharrir tag‘in o‘qishga tutindi. U boshqa kulmadi, biroq benihoya taajjublanayotgani va kulgisi qistayotgani ko‘rinib turardi. U esa buni yashirish uchun qoshlarini chimirib, lablarini «kuvacha» qilib, ma’nodor cho‘chchaytirardi. O‘qib chiqqach:

– Siz buni bosib chiqaringlar, demoqchimisiz? – deb so‘radi.

– Ha-da.

– Biroq buni bosib bo‘lmaydi. Bu hikoya emas.

– Nega? Man o‘qiganman. Shunaqa yozishadi-ku...

– Buni bosib chiqarishning sizga nima keragi bor? – Muharrir chindan ham Ivanga hamdardlik bilan va jiddiy tikilib turardi. – Nima foydasi tegadi qayg‘ungizni... yengillatadimi?

Ivan taraddudlanib qoldi.

– Ular o‘qisin-bilsin....o‘sha yoqda.

– Qayerda ular?

– Hozircha bilmayman.

– Axir bizning gazetamiz ulargacha yetib bormaydi-ku!

– Men ularni topib... jo‘natvoraman.

– Yo‘q, gap bunda ham emas! – Muharrir o‘rnidan turib xona bo‘ylab nari-beri yura boshladi. – Gap bunda emas. Nima foydasi bor? U hushini yig‘ib, qaytib keladi deb o‘ylaysizmi?

– Ular uyaladi.

– Yo‘g‘-ey! – xitob qildi muharrir. – Eh, Xudo-yey! Yaxshisi, xat yozing. Keling, ikkalamiz yoza qolamiz.

Ivan daftarchani olib eshikka yo‘naldi.

– Shoshmang! – xitob qildi redaktor. – Keling, birgalashib uchinchi shaxs nomidan...

– U chiqquncha tug‘ib qo‘yish ham hech gap emas. Kesib olinadi. Gospitalda shunaqasi bo‘lgan bolalarda...

– Ana, sen ham oldirib tashlaysan. Tamom.

Yefim indamadi. O‘zi ham: «Kestirishga to‘g‘ri keladi», – deb o‘ylab qo‘ydi. Lekin birdan qishloqdagi kasalxonada birorta ham shifokor yo‘qligi esiga tushdi. Bu ham kamlik qilgandek, xirurg yoshgina ayol edi. Bundan yigirma yil avval gospitalda o‘ylab o‘tirmay duch kelgan kishi oldida orqasini o‘girib yotishi mumkin edi – u vaqtda uyalmasdi. Hozir esa buni o‘ylashning o‘ziyoq odamni mulzam qiladi.

– Ko‘ramiz, – dedi u. – Bo‘pti, uxla.

O‘zi esa yana allapallagacha endi nima qilishini o‘ylab yotdi.

Ertasiga kun bo‘yi tik oyoqda yurdi – o‘tirolmadi. O‘tiray desa – og‘rirdi. Xonada (u jamoa xo‘jaligi raisi edi) odamlarni qabul qilarkan, yakkash asabiylashar, stol atrofida hadeb nari borib-beri kelardi. Kursk ostonasida kuragidan ancha pastga temir konfet ushog‘ini qadab qo‘ygan «o‘sha haromi»ning onasini o‘zicha qayta-qayta bo‘g‘oz qilardi.

Battol yara ham juda xunuk-da, asli. Gospitalda qancha zanglab yotdi. Lekin u paytlar boshqa gap edi! Endi esa u ilg‘or xo‘jalikning raisi, sipo, basavlat kishi. Qaqillagan, yosh xotin-xalaj oldida ishtonini yechib o‘tirsa... Ular, albatta, darrov bir-biriga im qoqa boshlaydi. Birorta tili o‘tkirrog‘i esa: «Mana, Yefim Stepanich, bo‘ldi, endi prezidiumda o‘tire-e-b majlis qilaverishingiz mumkin», deb qolishdan ham toymaydi.

Uyiga erta qaytdi. Qosh-qovog‘idan qor yog‘ib, inqilladi:

– Lo‘qillab ketyapti.

– E, kasalxonaga borsang-chi, Xudo-yo tavba! – shang‘illadi Sonya. – Nima balo, o‘shaning bilan kindiging bittami? Ajraging kelmaydi, bilmadim... allakimlarga o‘xshab.

– Kasalxonagamish! – Yefim papiros tutatib, xona bo‘ylab yura boshladi. – Koshki bu kasalxona bo‘lsa! Xotinlar monastirining o‘zi, la’nati! Qay go‘rdan shuncha sochi yoyiq alvasti yig‘ilib olganiykin, Xudo tugul shayton ham bilmaydi!

– Ha?! Arpangni xom o‘rishdimi?

– Hech nima! Arpangni emish... Shuncha yil misqollab obro‘ orttiray-da, duch kelgan xotinning oldida dum tushib yotib sharmanda bo‘laymi? Bir og‘iz gap bilan hammasini chippakka chiqarishar. Koshki, bilmasam, bu tilingga tirsak chiqqurlarni...

– Tfu! – Sonya erining bu qadar ahmoqligidan hatto ranjib ketdi. – Nima, sen o‘shaning uchun obro‘ orttirganmiding? Qanaqa matoh ekan o‘zi ko‘rsatib bo‘lmaydigan?

– Bas qil. Ko‘p aljirama, aqling yetmagandan keyin. Birpasda butun qishloqqa gap tarqaladi. Ana undan keyin ko‘rasan, jin urgurlarning tili qichishini. Koshki bilmasam! Sen nima azobdasan-u ular hiringlashga tushadi. Tiling kesilgur, xumgazaklar. – Yefim ulardan xafa bo‘lish tentaklik ekanini tushunsa-da, battar tutaqardi. U chindan ham nima qilarini bilmay qolgandi. Shaharga boray desa – salkam yuz chaqirimlik yo‘l. Borgani bilan qabul qilmaydi: o‘zinglarda kasalxona bor, deyishi aniq. Xo‘sh, bordiyam deylik. Shuncha joyga tippa-tik turib g‘o‘dayib boradimi?!

Kechasi og‘riq nihoyatda zo‘raydi.

Yefim tishlarini g‘ijirlatib, ingrashga tushdi.

– Hah, ahmoq, ahmog‘-a, – vaysay boshladi Sonya. – Nima azob o‘zingni shuncha qiynab? Obro‘sini yo‘qotishdan qo‘rqarmish! Birovga aytsang – kuladi. Kasalxonada ozmuncha erkak yotibdimi?

– Yotibdi! Bu rasvodan ko‘ra rak-pak bo‘lganim ham yaxshiydi. El qatori oddiy bir odam bo‘lganimda ham baharnav edi: hammasi bilan birpas hingillashib ketaverardim... Hammasi qo‘lini bigiz qilib ko‘rsatishga tushadi...

– Unaqa ekan, savilni qoldirib nima qilarding... O‘sha paytda oldirib tashlasang haqing ketarmidi?

– Qani, mening o‘rnimda sen yotgan bo‘lsang. Bir ko‘rgan bo‘lardim holingni. Loaqal bir ko‘z bilan. Ana o‘shanda bilarding. Qoldirgan ma’qulmi, oldirganmi!

– Lekin hozir ahmoqqa o‘xshab oh-voh qilib o‘tirmasdim.

– Ahmoq bo‘lmay nimasan!

Og‘riq Yefimning butun a’zoyi badanini zirqiratib yubordi. Ba’zan oskolka yorib chiqib ketayotganga o‘xshab tuyulardi. Yefim tishini tishiga qo‘yib, chandiq o‘rnini uzoq siypalar, biroq barmoqlar qattiqroq biror narsani sezmas edi. Chandiq ho‘l bo‘lib ketdi.

– Onangni emgur, do‘xtir!.. Hammasini olib-olib, shu bittani qoldirmasa nima ekan!..

Ertalab Yefim baribir kasalxonaga bormay iloji yo‘qligini angladi. Tun bo‘yi mijja qoqmay azoblanib chiqqan edi.

Xuddi bir jazo olishga ketayotgandek imillab otlandi.

– Idoradan so‘rab qolishsa tumanga ketgan, degin. Valdirab yurma, tag‘in.

– E, xo‘p, bora qol, Xudo xayringni bergur.

Kasalxonaga yaqinlashgan sayin Yefim battar qo‘rqib, bezovta bo‘la boshladi. Yetib borib, shifokor xonasiga kirgach, yuz beradigan tomoshani yaqqol tasavvur qildi... U yerda, albatta, kallayi saharlab kampirlar o‘tirishadi. Uni ko‘ra solib, darrov bosh chayqashga tushishadi.

– Sen ham bu yoqqa kepqopsan, Stepanich? Nima qildi, qoqindiq?

Boringki, uni navbatsiz kiritib yuborishdi ham deylik. Yosh, jiddiy shifokor ayol kutib oladi.

– Xizmat?

– Oskolka.

– Qayerda?

– Anavi yerda.

– «Anavi yeringiz» qayer?

– Ey, o‘sha yerda-da... – Balki shundan keyin yolg‘ondan bo‘lsada, kulib qo‘yish kerakdir? – Hi-hi-hi... Bilasizmi, xotinim kesatib aytgandek, u judayam qiziq joyda...

– Ko‘rsating.

E, Xudo! Bundan boshqa jazong yo‘qmidi?! La’nati haromi, sal yuqoriroqni mo‘ljallasa o‘lar ekanmi?!

Yefim kasalxona hovlisiga sudralib kirib keldi.

«Mendan boshqa saharlab bu yerga keladigan birorta ham erkak zoti bo‘lmasa kerak, – deb o‘yladi ichida ezilib. – Loaqal, papiros tutatib bitta-yarimta bilan ko‘ngilni yozvolsang bo‘larmidi, xonada ishton yechishdan oldin».

Darhaqiqat, yo‘lakda erkaklarning qorasi ham ko‘rinmasdi. Xotin-xalaj bo‘lsa serob. Oq o‘rindiqlarda, divanda tizilib o‘tirishibdi.

Hammasi baxtiqaro va jindek tantanavor qiyofada o‘zaro pichirlashib, xo‘rsinib qo‘yishadi. Orasida yoshlari ham bor. Bir juvon yonidagi yoshi o‘tinqiraganroq ayolga qarab gapiryapti:

– Shundoq og‘ridi, shundoq og‘ridiki, kunim bitdi, deb o‘yladim. Xuddi mana shu yerimgacha tiqilib kelaverdi, kelaverdi...

Yoshi o‘tinqiraganroq xotin oynaga tikilgancha ma’nodor chimirilib, bosh irg‘aydi.

Bir chetda yana ikkitasi shivirlashadi. Birinchisi sekingina ohvoh qilib o‘tiribdi, sherigi esa uning tizzasiga shapatilab gapini ma’qullaydi:

– ...Men dedimki, hoy, ilonvachcha, nima qilyapsan, dedim. Seni, dedim, nima, mushting juda momiqmidi dedim...

Xotinlar Yefim Stepanichni ko‘rib chug‘ur-chug‘urdan to‘xtashdi-da, unga qiziqsinib tikilishdi.

«Boshlandi, – o‘kinch bilan o‘nladi Yefim. – Bir zumda bilib olishadi. Qarabsizki, tushgacha butun qishloq hingillashga tushadi».

Navbatga yaqinlashib, qatordagilarning barchasiga istehzoomuz kulgi bilan qarab chiqdi.

– O‘h-ho‘! Ko‘pchiliksizlar-ku! Qiziq, bayram kunlari bu yerda hech kim bo‘lmaydi-ya. Nima balo, yo bayramda tobinglar qochmaydimi? – shu gapni aytishga aytdi-yu nimagaligini o‘zi ham tushunmadi. Shunchaki, og‘zidan chiqib ketdi.

– Bayram kunlari busiz ham tashvishimiz ko‘p-da, Yefim Stepanich, – javob berdi ularning biri.

– Shuning uchun aytyapman-da: tobi ayniganlar juda ko‘p ekan, – deb. Bularning boshlig‘i qayerda o‘tiradi?

– Bosh shifokormi?

– Ha.

– Ana, xonasi. Anavi kleyonka qoplangan eshik. Yefim oqsamaslikka tirishib, ko‘rsatilgan xonaga qarab yurdi.

Bosh shifokor kelmagan ekan.

Xonada bo‘ynida xoli bor, semizgina bir ayol o‘tirardi (Yefim ularning birortasini ham tanimasdi – hammasi chetdan kelganlar edi.)

– Bosh shifokor yo‘q. Nima ishingiz bor edi? – deb so‘radi ayol xushmuomalalik bilan.

– Men shu yerdagi jamoa xo‘jaligi raisiman. Bosh shifokoringiz o‘tin masalasida gapirgandi...

– Ha, ha, xabarim bor. O‘tin judayam zarur, hademay qish kelyapti.

«Xuddi men hademay qish kelishini bilmaydigandek», kinoya qildi o‘zicha Yefim.

– Olishinglar mumkin. Faqat menda transport yo‘q.

– Nimada tashib olamiz?

– Bunisini bilmayman. Qishloq kengashiga murojaat qilinglar. Mening ishim o‘tin berish.

Yefim kasalxonadan jig‘ibiyrqn bo‘lib chiqdi. «Oltmish kubometr o‘tin qulog‘ini ushlab ketdi. Shayton yo‘ldan urdimi, nima balo! O‘tinni gapirishga zaril kelganmidi!.. Nahotki, kirishga boshqa bahona qurib qolgan bo‘lsa!» Kasalxonaga baribir o‘tin to‘g‘rilab berish kerak edi, biroq bu masalada o‘z oyog‘i bilan kelib yolvorgandek bo‘lish Afandining ishidek gap; eng beobro‘ rais ham bunday qilmaydi.

«Jinni bo‘p qoldimov».

Orqasi esa shunday qaqshab og‘rirdiki, har qadamni ming mashaqqat bilan bosardi.

«Borib o‘zim operatsiya qilaman», degan qarorga keldi Yefim.

Sonya uni ajablanib qarshi oldi.

– Ana, birpasda bitarkan-ku! Sen bo‘lsang qo‘rqib yuribsan...

– Sevinmay qo‘ya qol. Hozir o‘zimiz kesamiz. Suv qaynatib kel, pichoqni ol... Xullas, nima desam shuni qilasan, bildingmi?

– Voy, qo‘y-e, Yefim! – Sonya endi gap boshlagandi, Yefim unga shunday qahrlanib o‘qraydiki, nafasi ichiga tushib ketdi.

– Bas! Yetar, shuncha ko‘tarib yurganim. Bolalar maktabdami?

– Maktabda.

– Eshikni qulfla... Dala lazareti yasaymiz.

– Men qo‘rqaman, Yefim... qilolmayman. Nimadan qo‘rqasan?

– Kesishdan qo‘rqaman. Shoshma, jinni-pinni bo‘ldingmi?

– E, buning nimasi qo‘rqinchli ekan?!

– Qilmayman, – oyoq tirab oldi Sonya. – Gazak oldirib yuboramiz-da, keyin... Qonga urib ketib...

– Suvni yaxshilab qaynatamiz-ku – gazak-pazak bo‘lmaydi. Axir, urushda okopning o‘zidayoq kesib tashlashaverardi!

– Shifokorga bormadingmi?

– Bormayman shifokoringga. Kel, o‘zimiz bir amallaylik. Qani, yeng shimarib boshladik... operatsiyani.

– Jinni bo‘lma, Yefim. Xohlasang – men chopib borib kasalxonadan birortasini aytib kelaman, to‘g‘ri shu yerda kesib qo‘ya qoladi. Hech kim bilmaydi ham.

– Yana o‘zingnikini ma’qullayapsanmi?! – tutaqib ketdi Yefim. – Sen ahmoqqa o‘ttiz martalab tushuntiryapman-ku! Yana o‘zinikini ma’qullaydi! Qaynat suvni!

Sonya ham o‘ziga yetguncha o‘jar xotin edi.

– Tentaklik qilma, laqillatib bo‘psan. Sendaqa anoyi mug‘ambirni... Gazak oldirib yuboramiz-da, keyin bir etak churvaqa bilan men qay go‘rga boraman? Faqat o‘zingni o‘ylaysan! Axir ne-ne odamlar kasal bo‘lib shifokorga boradi, baloyam urmaydi-yu, bu kishi dumbasini ko‘rsatishga uyalarmish! O‘sha qurib ketgur matohingga kimning ko‘zi uchib turibdi... Koshki tomosha qiladigan joyi bo‘lsa...

Yefim xotiniga talmovsirab qaradi-da:

– Besh minut tashqariga chiqib tur. Qani, men uni oynada ko‘ray-chi, – dedi.

Sonya esa eriga shubhalanib tikildi.

– Tag‘in nima baloni boshlamoqchisan?

– Chiq deyapman, men ko‘raman! Senga tomoshami bu?..

– Tfu! – Sonya tashqariga chiqdi.

Yefim sandiqdan toza choyshab olib, yerga to‘shadi, shimini tushirdi... Birpas o‘ylab turdi... Choyshabdan sal nariroqqa borib, yugurib keldi-da, jon-jahdi bilan choyshabga o‘tirdi. Kuchanib, olg‘a sirpandi...

Sonya erining bo‘g‘iq faryodini eshitib, uyga qarab chopdi.

Yefim ishtonini changallagancha yonboshlab yotar, sekin so‘kinar edi.

– Chaqir... kasalxonadan birortasini, – dedi u. – Chiqmadi, la’nati. Qo‘zg‘aldi, shekilli...

Sonya kasalxonaga yugurib ketdi.

XOTIN ERINI PARIJGA KUZATDI

Har shanba kechqurun Kolka Paratov hovlida «konsert» beradi. Sadaf tugmachalari yarqiragan garmonini olib chiqadi-da, ashulasini boshlaydi:

Xotin esa erini Parij tomon kuzatdi.
Tugunga qoq non tugib, qo‘llariga uzatdi.

Kuy avjiga chiqadi. Kolka esa dumbasini kulgili likillatib, o‘yinga tushadi.

Tara-ram, tara-ram, tara ta-ma-ta-ra...ram,
Tari-ram, tari-ram, ta-ta-ta...

Oqshomlari hovlida ezmalashib o‘tiradigan kampirlar, uy-uyiga quvilay deb turgan bolakaylar qotib-qotib kulishadi.

...Keyin uning izidan qarg‘ab qoldi shivirlab,
Tezroq daf bo‘l, oldimda yuraverma g‘imirlab.
Tara-ram-tari-ram, ta-ta-ra...

Kolka – qotmadan kelgan, ko‘k ko‘z, bir tutam zig‘irrang sochi peshonasiga kokildek tushib turadigan xushchaqchaq yigit. Bo‘y-basti baland bo‘lmasa ham zuvalasi pishiq, chayir sibirlik. Bir vaqtlar – 1941-yili xuddi shunaqa – tiniq ko‘zli yigitlarni Moskvada ko‘p uchratish mumkin edi. O‘shanda oq pochapo‘stin kiyib, ko‘chalardan guras-guras saf tortib o‘tayotgan bunday yigitlarning qiyofasidanoq ulkan shahar taskin-tasalli topgan edi.

– Kol, «siganochka»dan bo‘lsin!

Kolka allaqachon «shirin» bo‘lib olgan, hadeb iljayadi.

– Valyu-sha, – deb chaqiradi u boshini ko‘tarib. – Shtibletlarimni tashlavor, o‘rtoqlar «siganochka»dan bo‘lsin, deb qo‘yishmayapti.

Valyusha javob qaytarishni xayoliga ham keltirmaydi. U Kolkadan alamzada. Mana shunaqa tomoshalari-yu maynavozchiliklarini ko‘rarga ko‘zi yo‘q, Kolkaning qiliqlaridan yer yorilsa-yu kirib keta qolsa.

Kolka Valyushaning qayrilib ham qaramasligini yaxshi biladi, biroq olomonni kuldirish uchun ovozini ming maqomga solib, jo‘rttaga baqiradi.

– Valyusha! Bir qiyo boq, jonginam! Loaqol chap ko‘zing bilan! Chap oyog‘ing bilan bo‘lsayam, yo‘q demayman. A-u-u!..

Odamlar kulishadi. Hamma tepaga qaraydi... Valyusha chidolmaydi: uchinchi qavat derazasi sharaq-shuruq qilib ochiladi, oynalar zirillab ketadi. Valyusha bo‘liq ko‘kraklarini deraza raxiga tiragancha pastga engashib, darg‘azab o‘shqiradi:

– Qiyo boqish manavinaqa bo‘ladi, deb kastrulka bilan boshingga solaman, gazanda!

Pastda qahqaha yangraydi. Kolka ham kuladi, garchi... G‘alati hol bu: Kolkaning ko‘zlari kulmaydi, Valyushaga sergak boqadi va aftidan, nihoyat, xotinining toqatini toq qilganidan, uni o‘zining befahm, badjahlgina emas, g‘irt ahmoqligini ko‘rsatishga majbur etganidan mamnundek tuyuladi. Go‘yo Kolka allanima uchun xotinidan qattiq o‘ch olayotgandek. Biroq bu alfoz yigitga uncha yarashmaganidanmi atrofdagilar bunday xayolga borishmaydi. Kolka shunchaki maynavozchilik qilyapti, deb o‘ylashadi.

Bu orada Kolkaning atrofiga ancha odam to‘planadi. Bular orasida yosh o‘spirinlar ham, kap-katta kishilar ham bor.

– Razmering nechanchi, Kolya?

– Fier svansix – qirq ikki.

Kimdir tuflisini yechib beradi va Kolka o‘yinga tushib ketadi. U zavq bilan kelishtirib raqsga tushadi. Orada to‘satdan jiddiy tortib, hatto birmuncha tantanavor qiyofaga ham kiradi...

Qo‘lidagi garmon go‘yo sayrab yuboradi. Garmon nolasi tinganda esa «siganochka»ga yordam bermoqchidek, Kolkaning oyoqlari ishga tushadi. Poshnalarining quruq asfaltga aniq, bexato, bir me’yorda urilishidan «taqa-tuq», «taqa-tuq» degan ovoz eshitiladi... Yana garmon tilga kiradi, yana Kolkaning ter bosgan peshonasidagi bir tutam kokili silkina boshlaydi. Atrofdagilar bu yigitning yuragi-

da pinhoniy bir dard borligini sezgandek, jimgina tomosha qilishadi. Uchinchi qavat derazasidagi qimmatbaho darparda qiya suriladi – Valya o'zining «masxarabozi»ga tikiladi. Valyaning qiyofasi jiddiy, u ham jazavakor «siganochka»ga mahliyo. Uch yil burun ana shu «siganochka» tufayli Kolka mag'rur Valyaning boshini «aylantirib» qo'ygandi. Valya nafaqat mag'rur, balki... Xullas, bunday daqiqalarda u erini yaxshi ko'rib ketar edi.

Sibirlik Kolka Valyusha bilan eng ahmoqona bir tarzda – sirtdan tanishdi. Qizning akasi bilan armiya-da birga xizmat qilardan. Akasi bir kuni Valyaning suratini ko'rsatib qoldi... Valya chiroyli edi – birdaniga uch-to'rtta soldatning yuragiga o't tushdi. Adresini surishtira boshladilar, biroq Valyaning akasi adresni o'zining eng yaqin jo'rasi bo'lmish Kolkaga berdi. Kolka Moskvaga rasmini jo'natdi. Suratiga qo'shib ancha-muncha «har xil» gaplarni ham yozib yubordi. Valya javob qaytardi... Yozishmalar boshlandi. Kolya Valyaning akasidan bir yosh katta edi, bir yil avval demobilizatsiya bo'lib, Moskvaga yolg'iz o'zi jo'nadi. Kolkani ko'rishga Valyaning barcha qarindosh-urug'lari yig'ildi. Kolka hammaga, shu jumladan, Valyaga ham ma'qul tushdi. Faqatgina askar bolaning so'qqa boshidan boshqa hech vaqosi, ayniqsa, biror hunari yo'qligi ularni xiyol tashvishga soldi. Balki keyinchalik turmushi yaxshi bo'p ketar, degan xulosaga kelishdi. Shunday qilib, Kolya uyiga, onasining oldiga ham bormasdan moskvalik bo'lib qoldi.

Tuz-nasiba ekan, u Valyusha bilan yashab ketdi. Asta-sekin bir-biriga butkul nomunosib odamlar ekanligi ularning ikkalasiga ham ayon bo'la boshladi. Biroq endi fursat o'tgandi: oradan bir yil o'tgach, Minka degan dumaloq yuz, oppoqqina, shirin qizchalari tug'ildi... Kolka qonli chelakka boshini tiqqanini endi tushundi. Valyaning qarindosh-urug'lari birgalashib (Valyaning hamma qarindoshlari – avlod-ajdodi bilan mashhur tikuvchilar, Valya ham dong'i chiqqan chevar edi), ularga ikki xonali kooperativ uy olib berishdi. Kolka ko'p marta ishini o'zgartirib ko'rdi, biroq hamma joyda ham maoshi yuz, juda nari borganda yuz yigirma so'mdan oshmasdi. Valya esa oyiga uch yuz so'm «naqd» topardi. U telegrafchi bo'lib ishlar, bir kun ishlasa ikki kun uyida o'tirib ish tikar edi.

Hamma balo Kolka xotinida pulga nisbatan g'aroyib, ulkan bir hirs borligini payqagan kundan boshlandi. U xotiniga buning yaxshi

emasligini yotig‘i bilan tushuntirishga urinib ko‘rdi, ammo evaziga qaqshatqich zarba oldi.

– Bizning qishlog‘imizda, hatto bozorchi xotinlar ham bunaqa ochko‘z emas...

– Qishlog‘ing bilan qo‘shmozor bo‘l, – maslahat berdi Valya. – Jo‘na o‘sha yoqqa... bu yerda senga hech kimning ko‘zi uchib turgani yo‘q.

«Bopladi-yu... – deb o‘yladi o‘zini yo‘qotib qo‘ygan Kolka. – Boplaganda ham qandoq!»

«Qishloqi» bo‘lsa ham, chakki yigit emas edi. Peshonasida bunday kunlar borligi yetti uxlab tushiga ham kirmagandi. Armiyada yurganida u xizmatdan keyin turmushi qanaqa bo‘lishini juda ko‘p o‘ylardi. Birinchidan, kechki maktabda o‘ninchini bitiradi (uning ma’lumoti to‘qqiz sinf edi). Ikkinchidan... Uchinchidan, to‘rtinchidan – shu tariqa orzular yopirilib kelaveradi-kelaveradi. Birinchi yili tuzukroq ish qidirdi. O‘ziga emas, xotini Valyaga yoqadigan ish axtarib sarson bo‘lganini keyinroq payqadi. Ko‘ngildagidek ish topilmagach, nima bo‘lsa-bo‘ldi, dedi-yu, savdo shoxobchasida yukchi bo‘lib qolaverdi. Keyin qizchasi tug‘ildi, endi u bo‘sh vaqtini nuqul shu go‘dak bilan o‘tkazishi lozim edi, chunki qurumsoq Valya loaqal qizchani o‘ynatib, sayr qildiradigan birorta kampir yollashga ham pulni ko‘zi qiymasdi. O‘zi esa uzzukun mashinasining qulog‘ini aylantirishdan bo‘shamasdi. Kolkaning kechki maktab to‘g‘risidagi xayoli ham xayolligicha qoldi-ketdi. Oqshomlari Kolka qizchasini hovlidagi skameykaga o‘tqazib garmoshka chalib berar va qiyshanglab ashula aytardi:

Orzularim havoyi emas,
Kun tig‘ida erib ham ketmas.
Ammo bir kun meni sezmay, siz
Jilmaygancha o‘tib ketdingiz.

Qizchasi qiqirlab kular, Kolka esa ko‘z yoshi to‘kmasdan unsizgina yig‘lagisi kelar edi. U shartta qishloqqa jo‘navorar ham edi-yu, lekin qizchasidan judo bo‘lishini o‘ylasa... Yo‘q, bu uning qo‘lidan kelmaydi. Harchand sabr-toqatli, bardoshli, ming karra, ming marta baquvvat sibirlik bo‘lganida ham bunday judolikni ko‘tarolmaydi. Bo‘lak har narsaga chidashi mumkin, ammo bunisiga – aslo.

Yarim yil avval qishloqdan Kolkaning onasi kelgandi. Valya uni muloyimgina qarshi oldi, biroq kampir nima uchundir undan hayiqar, ortiqcha biror qadam qo‘yishdan ham cho‘chir, nevarasini qo‘liga olishdan qo‘rqar edi... Kolka onasiga qarab ezilib ketdi. Onabola yolg‘iz qolishganida undan o‘pkaladi:

– Oyi, bu nima qilganing?

– Nima qippan?

– Juda bir... g‘alatiroqmisan-ey... hatto nevarangniyam qo‘lingga olmading.

– Qo‘rqyapman, o‘g‘ilginam, tag‘in... bexosdan...

– E, qo‘ysang-chi, oyijon...

– Hechqisi yo‘q, xafa bo‘lma. Xudoga shukur, ko‘rdim, tirikchiliging yaxshi ekan, o‘g‘lim. Ro‘zg‘oring ham badastir. Bu moldunyoni qara-yu! O‘zingga shukur, Yaratgan egam! Ishqilib oxiri baxayr bo‘lsin, tinchgina yashanglar. Xotining ham tuzukkina... To‘g‘ri, sal fe’li tez ekan-u, mayli, hechqisi yo‘q, g‘irt shaltog‘idan ko‘ra shunaqa o‘tli-shudli bo‘lganiyam ma’qul. Xudoga shukur qilib yashayveringlar.

Shunday qilib, onasi o‘g‘lim yaxshi yashayotgan ekan, degan xayolda uyiga jo‘nab ketdi.

Kampir ketgandan so‘ng, nimadir bo‘lib er-xotin g‘ijillashib qolishganida Valya erining bo‘g‘ziga o‘tmas pichoq qo‘ydi:

– E, onangdan ham o‘rgildim!.. O‘tiribdi, haligi... nimaga o‘xshash... Loaqal biron marta ovqat pishiray demasa, biron marta mundoq nevarasini o‘ynatib kelmasa-ya! Oyimtilla bo‘lmay o‘lsin...

Kolka ana shunda birinchi marta xotinining gardaniga tushirib qoldi. Valka g‘ing demay, onasinikiga jo‘nadi. Kolka Ninani ko‘tarib, to‘g‘ri magazinga bordi-da, qaynatasi bilan qaynanasi kelganda dovdirab qolmaslik uchun ichdi, uyga kelib kuta boshladi.

– Ko‘zingga qara, bola, ko‘zingga! – bir-biriga gal bermay stolni mushtlashishdi qaynata-qaynanasi. – Qadamingni bilib bos, ha!.. Ayol kishiga qo‘l ko‘targaning uchun bir zumda Moskvadan qiya bo‘p ketasan-a, bildingmi?! Sendaqa zo‘ravonni... Sening kaltagingni yesin, deb o‘stiribmizmi buni? Bilib qo‘y, hoy, qo‘ling kaltalik qiladi! Buning orqasidan qandoq yigitlar yurar edi! Senga o‘xshagan qalang‘i-qasang‘ilar emas, kimsan injenerlar! Qancha osilib, qancha yalinib yurishdi.

– Buni qara-ya, g‘aflatda qolibsizlar-da! Qo‘lga tushgan birinchi injenerni yoqasidan sudrab ZAGSga oborish kerak edi. Yo ular siz-

lardan ustaroq chiqib qoldimi? Ishni bitirib suvga urib ketishdimi? Xo‘p dog‘da qolgan ekansizlar-da?!

Endi ular uch kishilashib baqira boshladilar.

– Marazi! Ablah!

– Hozir militsiya chaqiramiz! Shoshma, hozir militsiya chaqiramiz!..

– Kasofat, chuvrindi!

– Marazi!

Qizchasi Ninka chirqirab yig‘lashga tushdi. Kolka bo‘zdek oqarib, go‘sht maydalaydigan boltachani qo‘liga oldi-da, qaynatasi, xotini va qaynanasiga yuzlanib, sekin, ammo dona-dona qilib ta’kidladi:

– Agar tovushlaringni o‘chirmasalaring hammangni chopib tashlayman, yaramaslar... Hammangni shu yerga cho‘ziltiraman!

Ana shundan boshlab er-xotin Paratovlar hayotlari darz ketganini yaqqol anglashdi. Hatto ikkalasi ham xiyla yengil tortib, erkinroq bo‘lib qolgandek ko‘rinishga urinardi. Valya kechqurunlari qayoqqadir g‘oyib bo‘la boshladi.

– Yo‘l bo‘lsin? – deb so‘rardi Kolka iztirobdan tishlarini qisib.

– Buyurtmachilarnikiga.

Shunga qaramay, har qalay, birga yotishardi.

– Xo‘sh, buyurtmachilar qalay? – deya so‘rardi Kolka kechalari xotinining yumshoq badanini silab-siyparkan. U shuni so‘rab negadir kulardi. Yo‘q, munofiqlik qilmasdi. Haqiqatan ham kulgisi qistar, lekin bu qandaydir asabiy kulgi edi.

– Ahmoq, – derdi Valya xotirjamlik bilan. – Ko‘ngling to‘q bo‘lsin – unaqalardan emasman.

– Siz unaqalardan emassiz, – der edi Kolka uning gapini ma’qullab, – siz, albatta, unaqalardan emassiz.

Ba’zan esa yakshanba kunlari uchovlon – qizchalari bilan u yoqbu yoqqa chiqishgan paytlari ham bo‘lardi.

Uch martacha VDNX[1]ga borishdi. Kabobxonaga kirib o‘tirishdi. Kolka bir shisha yaxshi vino, kabob, qizchasiga konfetlar olib berdi... Vinoni maydalab, shiringina ovqatlanib o‘tirdilar. Kolka xotiniga o‘g‘rincha nazar tashlab o‘ylardi: «Nima qilyapmiz o‘zi? Ikkita ahmoq bir bo‘lib nima qilyapmiz? Axir tinchgina yashash ham mumkin-ku. Odamlar tuppa-tuzuk yashayapti-ku axir».

---

[1] *VDHX* – Xalq xo‘jalik yutuqlari ko‘rgazmasi.

Ko‘rgazmada ko‘p narsalarni ko‘rishdi. Kolka qishloq xo‘jalik mashinalarini tomosha qilishni yoqtirar, traktorlar, seyalkalar, pichan o‘radigan mashinalar oldida uzoq turib qolardi... Xayol uni tug‘ilgan qishlog‘iga olib ketar, yuragida cho‘kib yotgan qayg‘u yana azob bera boshlardi. U o‘zining turmushi turmush emas, balki benihoya jirkanch, sharmanda va pastarin allanarsa ekanligini bilar, juda yaxshi tushunar edi... Qo‘li ishga bormas, mayda, arzimas xayollar bilan ko‘ngli tilka-pora bo‘lardi. Birga ishlaydigan «savdo xodimlari»ga qo‘shilib ichishni o‘rgandi. Biror ishni qotirishmaydi, ammo yerto‘lada bir-ikki shishani maydalashga hamisha ulfat topilib turadi. (Bunday paytda yukchilarga yana sotuvchilar, yuzidan qon tomadigan o‘lgudek beg‘am qassoblar ham ulfat bo‘lishardi.) Oqibati nima bo‘larkin? Oqibati esa yaxshilikdan darak bermasdi. Ana shu yurakni bezillatadigan «oqibati» haqida o‘ylamaslik uchun u qishlog‘ini, onasini, asov daryoni juda ko‘p eslar edi... Ishda ham, uyda ham, kechasi ham, kunduzi ham yakkash shu haqda o‘ylar, biroq o‘ylab o‘yiga yetolmas, faqat bu fikrlardan qalbi zaharlanar va battar ichgisi kelardi.

«Xo‘sh, nima qipti?! Odamlar... ketaveradi-ku, bolasiniyam tashlab?! Ayb faqat mendami?!.»

Odamlar allaqachon uy-uylariga tarqab ketishgan... Kolka esa esiga kelgan allaqanday g‘amgin bir qo‘shiqni sekin xirgoyi qilgancha hamon ohista garmon chalib o‘tiribdi. Xayollari dunyoning bu burchidan kirib, narigi uchidan chiqadi. Fikran allaqachon qadrdon qishlog‘ini qarichma-qarich kezib chiqqan, endi esa musaffo daryo bo‘yida uning shiddatiga mahliyo bo‘lib turibdi. Agar yolg‘iz o‘zi uyiga kirib borsa onasining yig‘lashi aniq: pushtikamaridan bo‘lgan farzandni tirik yetim qilish gunohi azim, deb nasihat boshlashi, uyingga qayt, deb zorlanishi tayin... O Xudoyim! Nima qilsa ekan?

Uchinchi qavatdagi deraza ochiladi.

– Nag‘mangni bas qilasanmi, yo‘qmi? Odamlarga shuncha kulgi bo‘lding, yetar endi, uyqu ham bermaysanmi? Marazi! Hamma uydagilarning hol-joniga tegib bo‘lding-ku!

Kolkaning olishib o‘tirgisi kelmaydi.

– Eshityapsanmi, hoy? Ninka uxlolmayapti!.. Ajina bazm qilmay o‘l!

– Pardani tushir. Derazaniyam yop – uxlaydi-qoladi.

– Maraz!

– Megajin!

Deraza yopiladi. Ammo oradan bir daqiqa o‘tmay, qayta ochiladi.

– Ko‘rgazmada aytgan gapingni bitta-yarimtaga aytib beraman, ana o‘shanda ko‘rasan kuningni! Esingdami? «Menga mana shunday kichkina bir traktor, kichkinagina kombayin-u o‘n gektargina yer bo‘lsa» emish! Quloqning dumi, gazanda. Nega ketmading uyingga? A? Jamoa xo‘jaligingga borgingiz kelmadimi? Onangiz ikkovingiz yakka xo‘jalikni orzu qip qoldingizmi... Jamoa xo‘jaligi yoqmaydida sizga, a? Tekinxo‘r bo‘lmay qirilib ketkur! Meshchanlar...

Eng ajoyibi shundaki, xotini Valya hammasini, Kolkaning otasi ham, bobosi ham, butun qarindosh-urug‘lari ham o‘tmishda g‘irt qashshoq bo‘lganini, jamoa xo‘jaligiga birinchilar qatorida kirishganini yaxshi biladi, Kolka unga aytib bergan.

Kolka garmonni o‘rindiqqa qo‘yib o‘rnidan turdi... Bas! Bunga chek qo‘yish kerak. Bu ixtiyoriy g‘urbat hademay uni ashaddiy aroqxo‘r yoki telba qilib qo‘yadi. Qandaydir bir nihoya bo‘lishi kerak-ku axir!

Ko‘z ochib-yumguncha uchinchi qavatga chiqib bordi... Otilib, xonaga kirdi. Xotini noxush bir narsani sezib, qizchasini qo‘liga ko‘tarib oldi.

– Tegib ko‘r-chi! Qani, tegib ko‘r-chi!.. Kolkani qaltiroq bosdi.

– B-bolani qo‘y, – dedi u duduqlanib.

– Tegib ko‘r-chi!

– Baribir seni bugun o‘ldiraman. – Kolkaning o‘zi ham hayratda qoldi, go‘yo bu dahshatli so‘zlarni u emas, begona bir odam xo‘p o‘ylab, xo‘p pishitib aytayotgandek edi. – Kuning bitdi seni... Bu dunyoda yashaging kelmay qoldimi? Bo‘pti... Shu kecha seni qatl etaman.

Kolka oshxonaga kirib, stol tortmasidan boltachani olib chiqdi... Qaltirog‘i bosilib, birdan xotirjam bo‘lib qoldi. Suv ichdi... Jo‘mrakni burab yopdi, biroz o‘ylanib turdi-da, keyin negadir yana ochib qo‘ydi.

– Hozircha oqib tursin, – dedi ovoz chiqarib.

Xonaga kirib qarasa – Valya yo‘q. Boshqa xonaga kirdi – bu yerda ham yo‘q.

– Qochib ketibdi. – Zinapoyaga chiqib birpas turdi... So‘ng qaytib xonaga kirdi. – To‘g‘ri...

Boltani joyiga qo‘yib, oshxona ichida nari-beri yurdi. Bekitib qo‘ygan yeridan og‘zi ochilgan aroq shishasini olib stakanga quydi, shishani yana joyiga yashirib qo‘ydi. Stakanni ko‘tarib bir daqiqa turib qoldi... Keyin aroqni rakovinaga sepib tashladi.

– Sen ablahlarni sevintirib nima qildim. Horg‘in cho‘kdi... Lekin darhol sapchib turdi – nazarida oshxona juda ham iflosdek ko‘rinib ketdi. Supurgini olib, xonani supurib chiqdi.

– Hali shunaqami? – deb so‘radi o‘zidan o‘zi. – Demak, xotin erini Parijga kuzatdimi? – Derazani yopdi, fortochkani zichlab, eshikni ham yopdi. Papiros tutatib, uch marta chuqur-chuqur tortdida, papirosni o‘chirdi. Qo‘liga qalam olib gazetaning bir chetiga: «Qizim, dadang komandirovkaga ketdi», – deb yozdi.

Gazetani ko‘zga tashlanadigan joyga qo‘ydi. So‘ngra gazning ikkala ko‘zini ham ochib, stulga o‘tirdi...

Ertalab Valya ota-onasini ergashtirib uyga kirib kelganida Kolka kaftlari bilan yuzini changallab oshxonada yotardi. Zinapoyagacha hammayoqni gaz hidi tutib ketgandi.

– Turqing o‘chgur! Hayvon! Hatto gazniyam... – Valya shunday dedi-yu, to‘satdan nima bo‘lganini fahmlab, chinqirib yubordi. Onasi yuragini changallab qoldi.

Qaynata Kolkaga yaqinlashib, uni yonboshiga ag‘dardi.

Kolkaning mijjalaridagi yosh tomchilari hali qurimagan edi... Peshonasidagi malla kokili qorayib, bir tomonga qiyshayib yotardi. Qaynatasi Kolkani siltab, barmoqlari bilan qovoqlarini ochishga urinib ko‘rdi... So‘ngra jasadni yana joyiga yotqizdi.

– Bu... haligi, militsiya chaqirish kerak...

MIL PARDON, MADAM!

Shu tomonlarga ovga chiqqan shaharliklar tevarak-atrofni yaxshi biladigan, o‘zlariga yo‘l ko‘rsata oladigan biror kimsani so‘rabsurishtirishsa, odamlar:

– Ana, Bronka Pupkov... bunaqa ishlarga ustasi farang, sirayam zeriktirmaydi, – deya javob beradilar-da, negadir, g‘alati kulimsirab qo‘yadilar.

Bronka (Bronislav) Pupkov – bichimi kelishgan, o‘ziyam oyoq-qo‘li chaqqongina, tiliyam yugurikkina, hali ancha baquvvat, ko‘k ko‘z kishi. Yoshi elliklarda, frontda ham bo‘lgan. Ammo o‘ng panjasidagi o‘q uchirib ketgan ikki barmog‘i urush kasofati emas: yigit payti bir qish kuni ovga chiqqanida juda chanqabdi, qo‘lidagi miltiq qo‘ndog‘i bilan muzni teshib ko‘ldan suv ichmoqchi bo‘libdi. O‘ng panjasi stvol og‘zida ekan. Bexos berdankaning ko‘tarib qo‘yilgan tepkisi silkinib ketibdi-yu, shu zahoti bir barmog‘i uzilib tushibdi, ikkinchisining terisi ilvirab turgan ekan, Bronka uni ham shartta yulib ola qolibdi. Ikkala barmog‘ini uyga ko‘tarib kelib polizga ko‘mibdi. Hatto o‘shanda:

– Qadrdon barmoqqinalarim, qiyomat-qoyimda diydor ko‘rishguncha tinchgina uxlanglar, – degan gaplar ham aytgan emish.

But ham o‘rnatmoqchi ekan-u otasi qo‘ymabdi. Bronka, umr bo‘yi boshi urush-janjaldan chiqmay doimo yoqalashib yurar, ko‘pincha uni yaxshigina kaltaklab turishar ham edi. U esa yotib-yotib, sal o‘ziga kelgach, ko‘chaga chiqib yana motopedi («pedigi») ni tarillatgancha quloq-miyani batang qilar, hech kimga gina-kudurat saqlab yurmasdi. Turmushi ham shunga yarasha yengil-yelpigina edi.

Bronka shaharlik ovchilarni bayramni kutgandek orziqib poylardi. Ular kelgach, bir haftami, bir oymi – istagancha xizmatga kamar-

basta edi. Tevarak-atrofni o‘zining sakkiz barmog‘idek yaxshi bilar, aqlli, omadli ovchi hisoblanardi.

Shaharliklar aroqni ayashmasdi. Ba’zan uning qo‘liga pul-mul ham tutqazishardi. Bordi-yu, berishmasayam u parvoyi falak qolaverardi.

– Xo‘sh, qanchaga keldinglar? – deb so‘rardi Bronka ishbilarmon ohangda.

– Uch-to‘rt kunga.

– Hammasi aptekadagidek bo‘ladi. Dam olib, kallani shamollatib ketasizlar.

Goh uch-to‘rt kun, goh haftalab gasht qilib yurishardi. Shahar odamlari – bama’ni kishilar; ichib mast bo‘lganda ham ular bilan yoqa bo‘g‘ishishning hojati yo‘q. U hamrohlariga turli ov hangomalarini aytib berishni yaxshi ko‘rardi.

Oxirgi kun, «Ketar jafosi»ni nishonlaydigan paytda Bronka o‘zining asosiy hikoyasini boshlardi.

Bu kunni buyuk besabrlik bilan kutar, jon-jahdi bilan unga kuch to‘plar edi... Nihoyat, o‘sha zoriqib poylagan muddati yetib kelgach, erta tongdanoq Bronkaning yuragi shirin entika boshlar, o‘zi esa kun bo‘yi allanechuk tantanavor sukut saqlab yurardi.

– Sizga nima bo‘ldi? – deb so‘rashsa:

– Yo‘q, o‘zim... – deb javob berardi. – «Ketar jafosi»ni nima qildik? Sohilga bora qolamizmi?

– Shunday qilsak ham bo‘ladi.

...Kechga yaqin kichkina, asov daryo bo‘yidagi ovloqqina bir joyga yig‘ilib, gulxan yoqishardi. Baliq sho‘rva qaynaguncha qitday-qitday otib hangomalashib o‘tirishardi.

Bronka alumin stakanni ikkinchi bor bo‘shatgach, papiros tutatardi.

– Frontda bo‘lganmisizlar? – derdi u shunchaki gap orasida so‘ragandek. Yoshi qirqdan oshgan odamlarning deyarli ko‘pchiligi front ko‘rgan bo‘lib chiqar, ammo Bronka buni yosh-yalanglardan ham surishtiraverardi: boshlashga bahona kerak-ku, axir.

– Qo‘lingiz... frontda bo‘lgan ekan-da? – deb so‘rashardi mehmonlar uning cho‘ltoq qo‘liga imo qilib.

– Yo‘q. Men frontda sanitar edim. Ha, endi nimalarni ko‘rmadi bu bosh... – Bronka uzoq jimib qolardi. – Gitlerga qilingan suiqasdni eshitganmisizlar?

– Eshitganmiz.

– Haligi... uni o‘zining generallari gumdon qilmoqchi bo‘lganini aytyapsizlarmi?

– Ha.

– Yo‘q, men boshqasini so‘rayapman.

– Yana qanaqasi? Boshqasi ham bo‘lganmidi?

– Bo‘lgan edi. – Bronka qo‘lidagi alumin stakanni uzatib: – Qani, to‘ldirsinlar! – deydi. Bir ko‘tarishda bo‘shatadi-da: – Bo‘lgan, hurmatli o‘rtoqlar, bo‘lgan, – deb ta’kidlaydi. – Ihm! O‘ziyam, o‘q kallasidan mana shuncha joydan o‘tib ketgan edi-da! – U jimjilog‘ining uchini ko‘rsatadi.

– Qachon bo‘lgan edi bu ish?

– Ming to‘qqiz yuz qirq uchinchi yil, yigirma beshinchi iyulda. – Bronka xuddi olis va qadrdon bir narsasini eslayotgan kabi tag‘in o‘yga cho‘mib, jim qoladi.

– Kim otgan edi?

Bronka savolni eshitmagandek olovga tikilgan ko‘yi churq etmay chekib o‘tiraveradi.

– Qayerda bo‘lgan edi o‘sha... suiqasd? Bronka lom-mim demaydi.

Odamlar hayron bo‘lib, bir-birlariga

– Men otgan edim, – deydi u kutilmaganda sekingina.

Bir muddat o‘tga tikilib o‘tiradi-da, so‘ng asta bosh ko‘taradi... Ko‘zlari esa go‘yoki: «Hayron qolyapsizlarmi? Nachora, o‘zim ham hayronman», deb turgandek tuyuladi. U allaqanday g‘amgin kulimsirab qo‘yadi.

Bunaqa paytda odatda oraga uzoq sukut cho‘kadi. Hamma Bronkaga termilib qoladi. U esa qo‘lidagi cho‘p bilan ikki chekkaga sachrab ketgan cho‘g‘larni gulxan tomon surib, jim o‘tiraveradi... Aslida esa mana shu lahzalar uning uchun eng lazzatli ekanini birov bilmaydi. Bunday paytda u xuddi bir stakan toza spirt tomiriga yugurgandek maza qiladi.

– Behazil aytyapsizmi?

– Bo‘lmasa-chi! Nima, men tarixni soxtalashtirishning oqibati qandoq bo‘lishini bilmaymanmi? Bilaman, qadrli o‘rtoqlar, juda yaxshi bilaman...

– E, shu... biror oldi-qochdi gapdir-da, buyam...

– Xo‘sh, qayerda otgan edingiz, qani? Qanday qilib?

– Brauningdan otganman. Tepkini mana shundoq paq etib bosganman – tamom! – Bronka atrofga jiddiy va g‘amgin qiyofada boqadi: qanaqa odamlar o‘zi bu, gapga ishonmaydigan? Endi u maynavozchilik qilmay, butunlay jiddiy bo‘lib oladi. «Gapga ishonmaydigan»lar esa butunlay garangsib qolishadi.

– Nega bo‘lmasa hech kim bilmaydi?

– Oradan yuz yil o‘tsin, ana unda hamma narsa o‘tmishga singib ketadi. Tushundinglarmi? Hech kim bilmaydi, deydi-ya! Ko‘p qahramonlar panada qolib ketyapti, hamma fojia mana shunda-da!

– Bu bizni laqillatmoqchimi?..

– Shoshmay tur! Xo‘p, o‘sha ish qanaqa bo‘lgan edi o‘zi?

Bronka ularning baribir jon-jon deb eshitishga tayyor ekanligini biladi. Chunki har safar shunaqa bo‘ladi: ko‘nikib ketgan.

– Og‘zinglardan gullab qo‘ymaysizlarmi? – U yana tarang qila boshlaydi.

– Yo‘g‘-ey, sirayam.

– Chin partiyaviy so‘zinglarmi?

– Obbo, gullamaymiz, dedik-ku, bo‘ldi-da! Qani, ayting endi.

– Yo‘q, chinakam partiyaviy so‘z beringlar! Qishloqdagi odamlarni bilmaysizlar-da... Bular oyog‘i bilan emas, tili bilan yuradi.

– E, hammasi joyida bo‘ladi, tashvishlanavermang! – Hangomatalablarning sabr kosasi to‘lib-toshadi. – Boshlang endi.

– Qani, to‘ldirsinlar! – deya Bronka tag‘in stakanini uzatadi. Ichib olganiga qaramay, u mutlaqo hushyor ko‘rinadi. – Bu ish, boya aytganimdek, qirq uchinchi yil, yigirma beshinchi iyulda bo‘lgan edi. Ihm! Biz hujumga o‘tgan payt. Hujum qilinayotganda, ayniqsa, sanitarlarning ishi ko‘payadi. O‘sha kuni men o‘n-o‘n besh kishini lazeretga olib keldim. Og‘ir yarador bir leytenantni ham palataga joylashtirdim... Shu palatada qandaydir general ham yotgan ekan. General-mayor. Yarasi uncha og‘ir emas, o‘ng oyog‘ining tizzasidan yuqorisiga o‘q tekkan ekan. Palataga kirsam yarasini bog‘lashyapti. General meni ko‘rdi-yu:

– Shoshma, sanitar, ketmay tur, – dedi.

Bir yoqqa borishi lozim bo‘lsa, yonida suyab borsam kerak, deb o‘yladim. Kutib turibman. Generallar bilan yurish har qalay, qiziqda: butun hol-ahvol oynadek ravshan ko‘rinadi-qoladi...

Odamlar quloq qoqmay eshitishadi. Sho‘x uchqunlar birin-ketin atrofga sachrab-so‘nadi, o‘rmon tomondan bostirib kelgan qo-

rong‘ilik sharpasi suv uzra yopiriladi. Biroq daryoning tezoqar joyi – qoq o‘rtasi xuddi kumush tangachalarini yaltiratgancha zulmat bilan o‘ynashib suzib borayotgan ulkan baliq tanasi kabi yalt-yult tovlanadi.

– Xo‘sh, generalning yarasini bog‘lashdi. Keyin desangiz, do‘xtir unga: «Endi qimirlamay yotishingiz kerak!» – degan edi, general: «E, o‘t-e, naryoqqa!» – deb qayirib tashladi. U – siz bilan biz, do‘xtirlardan qo‘rqadigan, generallarga esa – do‘xtiring cho‘t emas. Xullas, general bilan mashinaga o‘tirib, hayyo huyt deb jo‘nadik-ketvordik. Yo‘l-yo‘lakay general mendan: Qayerda tug‘ilganim-u nima ish qilganim, ma’lumotim qanaqaligini so‘rab-surishtirib boryapti. Men erinmay bir chetdan aytib turibman: xo‘sh, tug‘ilgan joyim falon yer (men shu yerda tug‘ilganman), jamoa xo‘jaligida ishlaganman, xo‘sh, ko‘proq ovchilik qilganman. «Yaxshi-i! – deydi general. – Merganlikka qalaysan? –«Yomon emas», dedim. Ortiqcha quruqlanmaslik uchun: «Yonib turgan shamni ellik qadamdan o‘chira olaman», deb qo‘ya qoldim. «Lekin ma’lumot masalasi haligidek... Yoshligimdan otam o‘zi bilan nuqul taygama-tayga yetaklab yurardi», – dedim. «Ha, mayli, ziyoni yo‘q», deydi u. «Bu ishga oliy ma’lumotning hojati yo‘q. Lekin sen, – deydi, – jahon urushi olovini yoqqan bir la’nati shamni bizga o‘chirib bersang – Vatan seni unutmaydi», deydi. Kosa tagida nimkosani tushunding-larmi?... Men ham o‘shanda darrov anglay olmovdim. Katta bir yer-to‘laga yetib keldik General hammani quvib chiqardi-da, men bilan savol-javobni tag‘in davom ettirdi. «Mabodo chet elda birorta urug‘-aymog‘ing yo‘qmi?» – deydi. «Qayoqdan bo‘lsin, – deyman, – biz asl sibirliklarmiz. Bizning ota-bobolarimiz podsho Pyotr zamonasida bu yerga kelib qolgan kazaklar bo‘ladi, ular bundan sal naridagi Biy-Katunskda qal’a qurishgan», deyman. «Butun qishlog‘imiz bilan ana shu kazaklardan tarqalganmiz...» – deyman.

– Bo‘lmasa nega otingiz bunaqa – Bronislav?

– Pop boshqa ism qurib ketgandek kayf ustida shuni o‘ylab topgan ekan. Men u la’nati yoldor ayg‘irni o‘ttiz uchinchi yili GPU ga olib ketayotganimda shuning alamiga boplab bir tushirganman...

– Qayerga deysiz? Qayoqqa olib ketayotgan edingiz?

– Shaharga-da. Biz uni qamoqqa oladigan bo‘ldig-u shaharga eltadigan odam yo‘q. Bronka, sen obora qol, o‘zingniyam alaming bor edi, deb qolishdi.

– Nega, ismingiz yaxshi-ku?

– Bunaqa ismga mos familiya bo‘lishi kerak-da. Meniki esa – Bronislav Pupkov[1]. Armiyada har yo‘qlamada ismi familiyam chiqsa – gurra kulgi. Mana, bizda Vanka Pupkov degani bor, u bilan hech kimning ishi ham yo‘q.

– Xo‘p, yaxshi, keyin-chi?

– Xo‘sh, keyin... Qayerda to‘xtovdim?

– General avlod-ajdodlaringizni surishtirayotgan edi...

– Ha-ha, esimga tushdi. Xullas, hammasini so‘rab-surishtirgach: «O‘rtoq Pupkov, partiya va hukumat sizga goyat mas’uliyatli bir vazifa topshiradi», deb qoldi. «Bu yoqqa, frontning oldingi chizig‘iga yovuz Gitler kelgan. Hozir bizda uni joyroston qilish imkoni bor», deydi. «Biz, deydi, bu tomonga maxsus topshiriq bilan kelayotgan bir gazandani qo‘lga tushirdik. Topshiriqni bajardi, lekin o‘zi tuzoqqa ilindi. U shu yerdan front chizig‘ini kesib o‘tib, shaxsan Gitlerga juda muhim hujjatlarni topshirishi kerak edi. Gitler bilan yugurdaklari esa o‘sha ablahning aftini tanir ekan», deydi...

– Sizning bunga nima aloqangiz bor?

– Shoshgan qiz erga yolchimas, degan gapni eshitganmisiz? Qani, to‘ldirsinlar! Ihm! Aloqasi shuki, o‘sha gazanda bilan men birbirimizga xuddi ikki tomchi suvdek o‘xshar ekanmiz. E, og‘aynilar, nimasini aytasiz! O‘sha kundan boshlab shunaqangi ishlar boshlanib ketdiki, ana maishat-u mana maishat! – Bronka shu qadar shirin ehtiros, pinhona ishtiyoq bilan xayolga beriladiki, tinglovchilar ham beixtiyor ajib yoqimli tuyg‘uni his qilib, kulimsirashadi. Dillarda allanechuk sokin, tantanavor hayajon uyg‘onadi. – Meni darrov gospital yonidagi alohida xonaga joylashtirib, ikkita ordinares berdilar... Bittasining unvoni – starshina, men bo‘lsam – oddiy askarman deng. «Qani, o‘rtoq starshina, etigimni uzat-chi», deyman. Uzatadi. Buyruqni bajarmay ko‘rsin-chi! Bu yerda deng, meni tinmay tayyorlashyapti. Men ham tayyorgarlik ko‘ryapman...

– Qanaqa tayyorgarlik?

– Maxsus tayyorgarlik. Bu to‘g‘rida hali-beri gapirishga haqqim yo‘q: tilxat berganman. Ellik yil o‘tsin, keyin, mayli. Endi boryo‘g‘i... – Bronka lablari qimirlab nimanidir hisoblaydi, – yigirma besh yil o‘tibdi. Mayli, bu o‘z yo‘liga. Shunaqa desangiz, maishat

[1] Bu yerda so‘z o‘yini. «Pupok» – «kindik» degan ma’noni anglatadi (Tarj.).

qilib yotibman. Ertalab ko‘zimni ochsam – nonushta tayyor: quyuq-suyuq hammasi joyida. Ordinares bir shisha portveyn ko‘tarib kirib qolmaydimi. Shu desangiz, bir boplab so‘kaman!.. «Vinong o‘zingga buyursin, menga spirt top!» – deyman – topib keladi. Gospitalda to‘lib yotibdi. O‘zim spirtni istaganimcha suvga aralashtirib urib olaman, portveynni unga beraman. Shu yo‘sin bir hafta o‘tdi... «Qachongacha maishat qilib yotaman?» – deb o‘ylayman. Nihoyat, bir kuni general chaqirib qoldi. «Qalaysan, o‘rtoq Pupkov?» – deydi. «Topshiriqni bajarishga tap-tayyorman», dedim. «Bo‘pti bo‘lmasa, – deydi, – Xudo madad bersin! U yoqdan seni Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘lib qaytishingni kutamiz. Faqat mo‘ljalni olishda xato qilma», – deydi. Men unga: «Agar mo‘ljalni to‘g‘ri ololmasam, mayli, ashaddiy xoin va xalq dushmani bo‘la qolay», – dedim. «Yo Gitler bilan go‘rga kiraman, yo siz Bronislav Ivanovich Pupkovga Sovet Ittifoqi Qahramoni nishonini topshirasiz», – dedim. Gap shundaki, o‘shanda biz katta hujumga tayyorlanayotgan edik. Mana bunday: ikki qanotdan piyodalar, o‘rtadan esa tanklarning kuchli zarbasi mo‘ljallangan edi.

Bronkaning ko‘zlari cho‘g‘dek yiltirab yonadi. U hatto stakanini uzatishni ham unutib qo‘ygan. Alanga shu’lasi lip-lip o‘ynagan qotma, cho‘zinchoq yuzi ham asabiy va chiroyli ko‘rinadi.

– Meni qanday qilib front chizig‘idan o‘tkazib yuborganlariyu qanday qilib Gitlerning bunkeriga kirib borganimni aytib o‘tirmayman, qadrli o‘rtoqlar... Men bunkerga kirdim! – Bronka o‘rnidan turadi. – kirdim!.. Oxirgi zinaga qadam qo‘ydim-da, katta temir-beton zalga kirib qoldim. Elektr chiroq charaqlab turibdi, bir talay generallar... Ko‘zim bilan nuqul Gitlerni qidiraman. – Bronka hayajonga tushib goh hushtak chalayotgandek shivirlaydi, goh yoqimsiz, goh iztirobli ohangda chiyillaydi. Tupugini yutgan ko‘yi uzuq-yuluq so‘zlaydi. – Yuragim desangiz, qinidan chiqib ketay deyapti. Qani Gitler?! – deyman ichimda. Uning tulkiga o‘xshash basharasi yod bo‘lib ketgan emasmi, qayeriga o‘q uzishni ham oldindan belgilab qo‘yganman: qoq mo‘yloviga otaman zang‘arni! Qo‘limni shundoq ko‘tarib: Xayl Gitler!» – deb baqirdim. Qo‘limda katta paket, paketning ichida parchalanib ketadigan zaharli o‘q bilan o‘qlangan brauning. Bir general yonimga yaqinlashib, «Qani, bu yoqqa», degandek paketga qo‘l cho‘zdi. Men unga: Mil pardon, madam, faqat Fyurerga beraman, degandek qo‘lim bilan kelishtiribgina ishora qildim. Sof nemis tilida gapirib qoldim: Fyurer! – Bron-

ka qult etib tupugini yutadi. – Shu payt desangiz u chiqib keldi-ku! Xuddi tok urgandek etim jimirlashib ketdi. Olisda qolgan Vatanimni esladim... Ota-onamni yodimga oldim. U paytda hali xotinim yo‘q edi... – Bronka yig‘lagudek, yoqasini yirtgudek alfozda bir lahza jimib qoladi. – Bilasizlar, bunaqa paytda butun umringiz kiprik qoqquncha ko‘z oldingizdan lipillab o‘tadi... O‘rmonda ayiq bilan yuzma-yuz duch kelib qolganda xuddi shunday bo‘ladi. Iha! Yo‘q, aytolmayman!.. – Branka to‘satdan yig‘lab yuboradi.

– Keyin-chi? – deb so‘raydi kimdir sekingina.

– U menga qarab yurib kelaverdi. Generallar hammasi g‘oz qotib turibdi. U iljayib kelyapti. Shunda shartta paketni oldim. Kulyapsanmi hali, gazanda! Xo‘p, mana senga chekkan azoblarimiz haqqi!.. Ko‘rgan alamlarimiz haqqi! Sovet kishilarning qoni haqqi!.. Vayron bo‘lgan qishloqlar, shaharlar haqqi! Xotinlarimiz, onalarimizning ko‘z yoshlari haqqi! – Bronka xuddi o‘q uzayotgandek qo‘lini siltab qichqiradi. Hamma o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. – Kulish mana bunaqa bo‘ladi! Mana endi, og‘zingdan laxta-laxta qon keladi, gazanda! – Yurakni zirqiratadigan darajada bo‘g‘iq qichqiriq yangraydi-yu keyin jimjit sukunat cho‘kadi... Keyin shosha-pisha aytilgan noaniq shivirlash eshitiladi: – O‘q uzdim... – Bronka boshini ko‘ksi uzra solishtirib uzoq unsiz yig‘laydi, baquvvat tishlarini g‘ijirlatgan ko‘yi kallasini alam bilan tebratadi. Nihoyat, boshini ko‘taradi, yuz-ko‘zlari jiqqa yosh. Yana boyagidek sekin, nihoyatda sekin va dahshat bilan pichirlaydi:

Tegizolmadim...

Hamma jim. Bronkaning holati tinglovchilarga qattiq ta’sir qilgan, biron narsa deb og‘iz ochish noqulay tuyuladi.

– Qani, to‘ldirsinlar, – deydi Bronka bir payt asta, talabgor ohangda. Ichadi-yu suv bo‘yniga tushib ketadi-da, xiyla vaqt hayajon ta’sirida qiynalib, xo‘rsina-xo‘rsina yo‘talgancha yolg‘iz o‘zi o‘tiradi. Baliq sho‘rvaga chaqirishsa – rad etadi.

...Qishloqdagilar Bronka tag‘in «suiqasd» haqida hikoya qilganini bilib olishadi.

Bronka uyga hafsalasiz qiyofada, ta’na-malomat eshitishga va o‘zi ham boplab so‘kishga tayyor holda kirib keladi. Do‘rdoq labli, xunuk xotini darhol unga yopishadi:

– Nima bu, kaltak yegan itdan battar? Yo tag‘in?..

– Tur yo‘qol-e! – deydi erinibgina Bronka. – Undan ko‘ra qornimni to‘yg‘azishni bilsang-chi.

– Seni qorningni to‘yg‘azish u yoqda tursin, boshingni urib yorsa kam! – deb shang‘illaydi xotini. – Qachon odam bo‘lasan-a? Sening dastingdan yetti nomusim yerga bukilib adoyi tamom bo‘ldim-ku, ko‘chaga chiqolmaydigan bo‘lib qoldim-ku!

– Juda yaxshi-da, ko‘chama-ko‘cha izg‘ib eshik sanaguncha uyda o‘tir!

– Yo‘-o‘q, hozir boraman!.. Hozir qishloq kengashiga boraman, sen ahmoqni yana chaqirishmasami! Mana ko‘rasan, axir bir kunmas-bir kun sen Xudo ko‘targurni sud qilishadi, ha! Tarixga yolg‘on-yashiq qo‘shib maynabozchilik qilish qanaqa bo‘lishini o‘shanda bilasan, o‘shanda ko‘zing moshdek ochiladi!

– Haqqi yo‘q: men gazetaga yozayotganim yo‘q, bildingmi? Undan ko‘ra u-bu ol, deyapman.

– Ko‘zingga baqrayib turib butun yurt-u olam kulyapti-yu bu bo‘lsa... sirtiga yuqtirmaydi. Basharang qursin, yuvuqsiz to‘ng‘iz! Senda o‘zi uyat degan narsa bormi? Yo uniyam allaqachon ichvorganmisan? Tfu, ko‘zingga tuproq to‘lsin, benomus! He, kindik!..

Bronka qahr bilan xotiniga o‘qrayib, past tovushda bazo‘r:

– Mil pardon, madam... Hozir kuningni ko‘rsataman! – deydi.

Xotini eshikni qarsillatib yopgancha «yuvuqsiz to‘ng‘iz»ning ustidan arz qilgani ketadi.

Xotinining «sirtingga yuqtirmaysan», degani ko‘p ham to‘g‘ri emas. Yo‘q, Bronka bu gaplarning barchasini o‘ylab azoblanar, darg‘azab bo‘lar edi... Ikki kun uydan chiqmay ichar, o‘smir o‘g‘lini do‘konga – aroqqa g‘izillatarkan:

– Ko‘cha-ko‘yda hech kimning gapiga quloq solma, – derdi gunohkor ohangda, – olgin-u izingga qayt.

Darhaqiqat, uni bir necha marta qishloq kengashiga chaqirib, uyaltirib ko‘rishgan, chora ko‘ramiz, deb po‘pisa ham qilishgan edi... Bronka esa raisning ko‘ziga qaramasdan o‘pkalagan ohangda:

– E, mayli!.. Qo‘ysang-chi! Obbo!.. Ol-ha!.. – deya g‘o‘ldirardi.

Keyin do‘konda «bir qultumgina» ichib olib, birpas oftobshuvoqda o‘tirar, xiyol badani «qizigach», o‘rnidan turib yeng shimarardida:

– Qani, marhamat!.. Kim bor? Agar jindak ozor yetkazib qo‘ysam xafa bo‘lmasliklarini so‘rayman. Mil pardon!.. – deya e’lon qilardi.

Ammo insof bilan aytganda, haqiqatan ham usta mergan edi.

QAYG‘U

Yoz paytlari o‘tkir yovshan hidi gurkirab, odamning boshini aylantirib yuboradigan ajib kezlar bo‘ladi. Ayniqsa, kechalari... Ko‘kda oy jimgina suzadi, beorom ko‘ngil nimanidir qo‘msab orziqadi. Kishini sarxush etuvchi mastona, anvoyi hidlar taratib yotgan xumorga to‘liq, osuda, oydin kechalarda totli, yorug‘ xayollardan entikadi. Yo‘q, bu hatto xayol ham emas, bu zoriqtirib-sog‘intirgan, ko‘ngilga intizorlik soluvchi allaqanday bo‘lak narsa... Tomorqa etagidami, otquloqlar ichidami, o‘t-o‘lanlarga ko‘milib yotsangiz, yuragingiz totli, pinhona shodumonlik bilan to‘lib ketadi. Afsuski, bunday sohir tunlar hayotda kam bo‘ladi.

Shunday kechalardan biri mening xotiramda butun umrga saqlanib qolgan.

O‘n ikki yashar paytim edi. Polizda tizzalarimni ohista quchoqlab, ko‘zimdan yosh chiqquncha oyga termilib o‘tirardim. Birdan yaqingina joyda allakim sekin yig‘layotganini eshitib qoldim. Orqamga qayrilib, qo‘shnimiz Nechay boboga ko‘zim tushdi. Ozg‘in, ushoqqina chol uzun surp ko‘ylagiga o‘ralib, o‘zicha bir nimalarni gapirib-gapirib yig‘lab kelardi.

Uch kun burun Nechay boboning muloyimgina, beozor kampiri o‘lgan edi. Bolalari uy-joyli bo‘lib ketishgan, chol-kampir ikkovlon hayot kechirishayotgandi. Nechay boboning kampiri jimgina yashab, dunyodan ham jimgina ko‘z yumdi. O‘lib qolganini ham ertalab bilishdi.

«Nima deysan, Nechayning kampiri... o‘tibdi-ku, boyaqish...», – deyishdi odamlar. Go‘r kavlashdi, keyin ko‘mib qaytishdi – shu bilan tamom. Men hozir uning aft-angori qanaqaligini ham esimdan chiqarib yubordim. Qo‘rasida yurganida borligiyam sezilmas, ahyon-ahyonda «tu-tu-tu», deb tovuqlarini chaqirib qo‘yar, qishloqda

hech kim bilan urishmas, birovni g‘iybat ham qilmagan edi. Bechora, kechagina bor edi – endi esa yo‘q, g‘oyib bo‘ldi.

...O‘sha so‘lim, sutdek oydin kechada tanholik alami qanchalik og‘ir bo‘lishini ilk bor angladim. Chor atrof naqadar go‘zal, zamin naqadar iliq, qadrdon va dilkash bo‘lmasin, yolg‘iz odamning ahvoli benihoya mushkul ekanini tushundim.

Bir burchakka bekinib oldim.

Cholning etaklari tizzasidan pastga tushib turgan uzun ko‘ylagi oy nurida ko‘zni olgudek oqarib ko‘rinardi. U sudralib qadam bosar, halpillagan yenglari bilan ko‘zini artar edi. Men uni aniq ko‘rib turardim. Chol sal nari borib, o‘tirdi.

– Hozir... sal madorimni to‘play... bir hasratlashamiz, – der edi chol va ko‘z yoshlarini sira tiyolmasdi. – Uch kun bo‘ladi – o‘zimni qo‘yarga joy topolmayman. Biror nima qilay desam... qo‘lim ishga bormaydi

Asta-sekin u biroz ovundi.

– Alam qilarkan, Paraskovya: aqalli rozi-rizolik tilashmaysanmi? Nima qila qoluvdim senga? Rizolik tilashganingdayam sal dardim bo‘sharmidi... Armonda qoldim. Paraskovya, armonda qoldim... Oh... – Chol bir nafasga jimdi. – Yuvib-tarab, rasm-rusmini bajo qilib ko‘mdik. Kumimiz[1] Sergey tobut yasadi. Yig‘ladik-siqtadik... To‘g‘ri, odam uncha ko‘p bo‘lmadi-yu, baribir... Holvaytar pishirib tarqatdik. Dadovnaning yoniga qo‘ydik. Juda yaxshi, quppa-quruq joy.

– Man o‘zimgayam shu yerdan mo‘ljallab turibman. O‘zing ayt, yolg‘iz boshim bilan nima qilay: yo eshik-derazani mixlab, Petkaning yoniga jo‘navorsammikan?.. Odam cho‘chiydi. Kim biladi, u o‘zi yomon emas-ku, xotinini... bilasan-ku... bir narsa demaydi-yu bir burda nonniyam zahar qilib beradi. Ey, sho‘rim qursin!.. Ayt, axir, nima qilay?

Sukunat cho‘kdi.

Men qo‘rqib ketdim. Nazarimda, Nechay boboning kampiri hozir muloyim, bosiq tovush bilan gapirib yuboradigandek edi.

– Qayoqqa bosh urarimni bilmay qoldim, – davom etdi Nechay bobo, – bundan ko‘ra sirtmoqqa osilib o‘lganim yaxshimasmi. Kecha kechasi sal ko‘zim ilingan ekan, bir mahal qarasam: qo‘radan

---

[1] *Kum* – xristianlarda farzandni cho‘qintirgan odam.

yurib kelayotgan emishsan, qo‘lingda bir savat tuxum... Tuzukroq qarasam, tuxum emas, endi ko‘z ochgan jo‘ja opkelayotgan emishsan-da, hadeb bittalab yeyayotganmishsan. Yeb turib, maqtab ham qo‘yarmishsan... Yo parvardigor! Uyg‘onsam – tushim... Sani o‘zimcha uyg‘otmoqchiyam bo‘ldim, yo‘qliging xayolimdan ko‘tarilibdi. Paraskovyushka... arvohing chirqirab... yuribdimi-a!.. – Nechay bobo tag‘in ho‘ng-ho‘ng yig‘lab yubordi.

O‘krab-o‘krab, uv torta boshladi – ustimdan muzdek suv quygandek etim jimirlab ketdi.

– Mani tashlab ketaverdingmi?.. Bu sho‘rlik qariganda qayoqqa boradi, demadingmi? Bir og‘iz aytganingdayam mayliydi, shahardan do‘xtir opkelardim... Odamlar tuzalib ketyapti-ku. Na bir og‘iz gap, na rozi-rizolik... Bu maniyam qo‘limdan keladi-da...– Nechay bobo burnini tortdi, ko‘z yoshlarini artib, xo‘rsindi. – U yoqda... qo‘rqmayapsanmi, Paraskovyushka? Bu yoqqa chiqqing kelayotgandir? Tushlarimga kirasan. Mayli, tez-tez kirib tur... faqat jo‘yalik bo‘lib kir... Odamni qo‘rqitmay. Bu... jo‘jalarni nimaga yo‘yishimni o‘zim ham bilmay qoldim. Yo bo‘lmasa... – Nechay bobo shivirlab gapirganidan men gapining yarmini eshitolmadim. – Gunoh bo‘larmikan? Nima qipti?.. Ba’zan qazib olishar ekan, eshitdim. Ana, Krayushkinoda bir kampirni qazib olishipti... ingrab yotgan ekan. Ochib olishipti... Ikki kundan beri quloq solib yuribman: jimjitga o‘xshaydi. Bo‘lmasa qazib olmoqchiydim-u... Aytishlaricha, odamni goho qattiq uyqu bosar ekan-u hamma uni o‘ldi deb o‘ylarkan, u bo‘lsa o‘lmagan, qattiq uxlab qolgan bo‘larkan...

Endi yuragim butunlay orqaga tortib ketdi. Emaklab-emaklab polizdan chiqdim-da, buvamning oldiga kirib hammasini aytib berdim. Buvam egniga kiyimini kiydi. Ikkalamiz tomorqaga qarab yo‘l oldik.

– O‘zi bilan o‘zi gaplashyaptimi yo kampiri bilan gaplashayotganga o‘xshaydimi? – deb so‘radi buvam. – Kampiri bilan. Endi qandoq qilaman, deb undan maslahat so‘rayapti... – E, o‘lsin, qari taka. Borib go‘rini ochishdanam toymaydi bu! Yo mast-pastmi?

– Yo‘q, u mast bo‘lganida ashula aytib, Xudoni gapirishga tushadi, – dedim. Uning bu odatini bilardim.

Nechay bobo qadam tovushini eshitib, jim bo‘ldi. – Kim bu? – qat’iy ohangda so‘radi buvam.

Nechay bobo uzoq indamay turdi. – Kim bu deyapman? – Sanga nima kerak? – Sanmisan, Nechay? – Hm...

Biz unga yaqinlashdik. Nechay bobo tatarchasiga chordana qurib olgan, bizga norozi qiyofada qarab turardi.

– Yana kim bor edi. – Qatda? – Shu yerda... Birov bilan gaplashayotganding-ku, o‘zim eshitdim. – Ishing bo‘lmasin. – Hozir yaxshi bir kaltakni olaman-da, quvib solaman, uyinggacha tirqirab, orqangga qaramay qochib borasan. Qari odam tentakka o‘xshab o‘tiribsan... Uyat emasmi? – Man u bilan gaplashib o‘tiribman, hech kimga zararim tegayotgani yo‘q.

– Kim bilan gaplashib o‘tiribsan? U yo‘q-ku, kim bilan gaplashasan! U o‘ldi, endi – yerni tagida, Xudo marhamat qilsin.

– U man bilan gaplashyapti, man eshityapman, – deb o‘jarlik qilardi Nechay bobo. – Hech kimga og‘ir-yengili tushmay qo‘ya qolsin buni. Bu yoqqa kelib, poylab o‘tirishingni-chi...

– Qani, ketdik, – buvam Nechay boboni yerdan yengilgina ko‘tarib oldi, – ketdik biznikiga, manda bir shisha samogon bor. Borib ichamiz, zora yengil tortsang.

Nechay bobo qarshilik qilmadi.

– Chidolmayapman, og‘ayni, tinka-madorim qurib ketdi. – U oldinda borar, qoqilib-suqilib, hadeb yengi bilan ko‘z yoshlarini artardi. Men uning ortidan qadam tashlar va g‘am adoyi tamom qilib qo‘ygan bu ushoqqina cholga rahmim kelib yig‘lar, biroq buvam gardanimga solib qolishidan hayiqqanim uchun tovushim chiqmas edi.

– Bu dunyoda g‘amsiz odam bormi? – deb tassalli berardi buvam. – Jufti halolini yerga ko‘mish osonmi? Lekin hamma o‘lganning ketidan shahid bo‘lib ketaversa nima bo‘lardi? Unda man necha marta go‘rga kirishim kerak edi? Sabr qil. Nailoj, chidaysanda endi, qandoq qilasan?

– Boyaqishga rahmim keladi. – Albatta, rahming keladi. Hech kim sanga oson tuyayotgani yo‘q. Lekin endi o‘limga chora yo‘q-da, birodar! O‘zingga jabr, tirilib kelmaydi-ku endi. Bunaqada o‘zing ham omonatni topshirishing hech gapmas, Xudo sabr bersin.

– Bilaman. Aqlim yetib turibdi, ammo mana bu yerim yonib ketyapti, hech alami bosilmayapti. Ichib ham ko‘rdim, yo‘q, o‘tmayapti.

– O‘tadi-i. Petka nega kelmadi? Anavisini-ku xo‘p, mayli, uzoqda deylik, xo‘sh, bunisi-chi? – Komandirovkaga ketibdi. Ey, qiyin

bo‘ldi-da kum! Peshonam sho‘r ekan, birodar. Ne kunlarga qoldim! Bunaqa ko‘rgilik yetti uxlab tushimga kiribdimi! – Dunyoning ishlari shunaqa o‘zi, odam tirikligida qadri bilinmaydi-yu, o‘lgandan keyin oh-voh qilamiz. Lekin g‘amni deb aqldan ozish ham... tentaklik.

Endi ko‘z o‘ngimdan boyagi sokin, oydin kecha tarovati yo‘qolgan, ko‘nglimni to‘ldirgan yorug‘ xayollardan nom-nishon qolmagan, o‘sha botiniy shodumonlik butkul so‘ngan edi. Mana shu ushoqqina cholning dardi butun bir nafis olamni to‘sib qo‘ygandek edi. Bugungidek hamon xotiramda: gurkirab achchiq yovshan hidi anqirdi.

Buvim Nechayni biznikida yotib qolishga ko‘ndirdi. Ular yerga o‘rin to‘shab, ustilariga po‘stin yopib yotishdi.

– Senga bir narsani aytib beray, – deya past tovushda gap boshladi buvam, – sen urushga bormagansan – u yerda bo‘lgan ishlarni bilmaysan... U yoqda birodar... bundan beshbattar ishlar bo‘lgan. O‘z ko‘zim bilan ko‘rganman: sanitar bo‘lib xizmat qilardim, yaradorlarni front ichkarisiga tashirdik. Bir kuni yo‘lda ketyapmiz, studebekkerimiz liq to‘la. Hammasi ingraydi, oh-voh qilib, sekinroq yurishimizni so‘raydi... Shofyor Mikolay Igrinev degan o‘zim tengi o‘rta yoshlardagi bir kishi edi, iloji boricha tekisroq yurishga tirishib kelyapti. Imillab ham bo‘lmaydi – chekinyapmiz. Xullas, qulab yotgan bir uyning yoniga kelganimizda qarasak oldimizda yengil mashina turibdi, bir ofitser: to‘xta, degandek qilib hadeb qo‘l silkitadi. Biz bo‘lsak Xudoning o‘zi qo‘l ko‘tarsayam to‘xtatmaysanlar, deb qattiq buyruq olganmiz. To‘g‘ri-da, bu yoqda bizni kutib yotgan yaradorlar qancha. Hujum qilayotgan bo‘lsak mayliydi, orqaga chekinyapmiz. Qisqasi, to‘xtatmasdan o‘tib ketdik. Yengil mashina bizni quvib o‘tib, yo‘lga ko‘ndalang bo‘ldi, ofitser to‘pponchasini yalang‘ochlab turibdi. Bo‘lak iloj yo‘q, to‘xtadik. Qarasak, ularning mishinasida og‘ir yarador ofitser bor ekan. Ular esa boshqa tomonga ketishlari kerak ekan. Xo‘sh, keyin haligi to‘pponcha o‘qtagan ikkalamiz yaradorni bir amallab kuzovga joyladik. Mikolay kabinada o‘tirardi: uniyam yonida bir kapitan bor edi, ahvoli og‘ir, behush yotardi, Mikolay bir qo‘li bilan uni suyab, ikkinchi qo‘li bilan rulni tutib kelayotgan edi. Xullas, amallab joylashib oldik. Boyagi sho‘rlik esa tinimsiz ingraydi, bosh-ko‘zi qop-qora qonga belangan. O‘sha zahotiyoq: yetkazib borolmasak kerak, deb o‘ylagandim. Boyaqish, yoshgina yigitcha, leytenant ekan, o‘ziyam shu, soqoliga endi tig‘

tekkan bo‘lsa kerak. Boshini tizzamga olvoldim, harna sal yengil bo‘larmikan deb... Qayoqda!.. Gospitalga yetib keldik, yaradorlarni tushira boshladik... – Buvam yo‘tal tutib jim bo‘lib qoldi. Papiros tutatib, davom etdi. – Mikolay ham yordamlashib turibdi. Boyagi leytenantni kuzatdim... «Tamom, joni uzilibdi», dedim. Mikolay bo‘lsa leytenantning yuziga shundoq qaradi-yu...Ih-hi!.. – Yana sukutga cho‘mdi.

– Nima, o‘g‘li ekanmi? – deya sekin so‘radi Nechay bobo. – O‘g‘li ekan. – Yo parvardigor! – Kim... – Buvam ustma-ust burnini tortib qo‘ydi. – Keyin nima bo‘ldi?

– Ko‘mdik... Komandir Mikolayga bir hafta ta’til berdi, uyiga borib kelishga ketdi. Ammo xotiniga o‘g‘lini dafn etganini aytmabdi. Hujjatlari bilan ordenlarini yashirib qo‘yibdi-da, bir haftadan keyin orqasiga jo‘nabdi.

– Nega aytmagan ekan-a? – Aytib bo‘larmishmi!.. Bedarak ketdi, degani ham axir sal baharnav-ku, qildek bo‘lsayam umid qoladiku ko‘nglida. Mundoq deb aytishga til borarmidi. Necha marta og‘iz ochishga chog‘lanipti-yu aytolmapti. – Xudoyim-ey, Xudo-ey! – tag‘in xo‘rsindi Nechay bobo. – O‘zi tirik qoldimi, keyin?

– Mikolaymi? Bilmayman, keyin bizni har tomonga tarqatib yuborishdi... Mana, shunaqa ishlar bo‘lgan. O‘g‘lini-ya, o‘z qo‘li bilan ko‘msa-ya. Jigarbandini-ya! Hazil gapmi? Tag‘in shundoq yosh narsa degin...

Chollar so‘zsiz-sadosiz qolishdi.

Xonaga esa oyning mo‘l, ammo sovuq yog‘dusi hanuz to‘kilib turardi. Yog‘du!.. Quvonchdan darakmi bu, qayg‘udanmi – har qalay yog‘du edi!

ETIK

Ular ehtiyot qismlar olish uchun shaharga tushishgan edi... Shunda deng, Sergey Duxanin magazinda zaifona chiroyli etikni ko‘rib qoldi-yu tinchini yo‘qotdi: xotiniga sotib olgisi keldi. Loaqal biror marta tuzukroq sovg‘a olsam xo‘p ish bo‘ladi-da, deb o‘yladi u. Shundoq chiroyli narsani oborsam... Bunaqa etik xotinining yetti uxlab tushiga kirmagandir.

Sergey ixcham etikchalarni uzoq tomosha qildi, keyin tirnog‘i bilan peshtaxta oynasini tiqillatib, xushchaqchaq ohangda:

– Manavi zormanda qancha turadi o‘zi? – deb so‘radi.

– Qanaqa zormanda? – tushunmadi sotuvchi.

– Ha, manavi etiklar-da...

– Hm, zormanda emish... Oltmish besh so‘m.

Sergey ovozi boricha «Voy-bu» – deb yuborayozdi va cho‘zib:

– Ha-a... Chaqar ekan... – deb qo‘ydi.

Sotuvchi unga yovqarash qildi. Xo‘p g‘alati xalqda, bu sotuvchilar: bir kilo un tortib beradigan bo‘lsa ham xuddi otasidan qolgan qarzini qaytarayotganday muomala qiladi. Xo‘p, mayli, jin ursin shu sotuvchilarni. Sergeyning yonida oltmish besh emas, hatto yetmish so‘mi ham bor edi. Ammo... U tashqariga chiqdi, papiros tutatib o‘ylay boshladi. Umuman, bunaqangi po‘rim etiklar qishloqning botqoq yo‘liga uvol, gapning ochig‘i. Xotini ming ehtiyotlagandayam baribir... Shunaqa-yu, oyda biror marta nozikroq joylarga kiyadi-da... Loy-poyga kiymas axir, esini yemagan-ku. Boyaqish xo‘p suyunadi-da.

Sergey magazindan sal naridagi do‘konchaga kirdi va pivoga navbatga turdi. Etikni ko‘rgan zahoti xotinining ko‘zlari qanday yonib ketishini xayoliga keltirdi. Xotini yosh bolaning o‘zi – ba’zan sevinsa ham yig‘lab oladi. Bechora, umuman, durust xotin. Biz er-

kaklar bilan yashashga tog‘day bardosh kerak-e, deb o‘yladi Sergey. La’nati ichkilikning o‘zi-chi... Yana ro‘zg‘or, bola tashvishi... Xotinlarga balli – shularning hammasiga dosh beradi. Joni qirqtaligi rost, shekilli. Biz – erkaklarning yo‘rig‘imiz boshqa, uncha-muncha ko‘ngil yozasan, ichganingda sal-pal yengil tortasan. Xotin boyaqishlar bo‘lsa «yugur-yugur»ni baylab olganday, sahardan to yarim kechagacha tinchishmaydi.

Navbat imillab siljir, pivoxo‘rlar hadeb «ishni qaytadan boshlashar» edi. Xotini juda yalang oyoq qolgan bo‘lmasa, ortiqcha xarajatning nima hojati bor? Oyog‘ida el qatori kiyib turgani bo‘lsa... Albatta, etik qurg‘ur chiroyli ekan, lekin hamyon ko‘tarmagach... Oborgani bilan birinchi bo‘lib xotinining o‘zi urishadi. Bunaqa zahardan qimmat matohni boshimga uramanmi, undan ko‘ra qizlarga palto-malto olsang bo‘lmasmidi, qish kelyapti, deydi.

Nihoyat, Sergey ikki krujka pivo olib chetroqqa o‘tdi va bir qultumdan maydalagancha xayolga berildi.

Hayot shu ekan-da – qirq beshga chiqibsan-u haliyam ahvol haligidaqa. Hechqisi yo‘q, bir kunmas-bir kun tirikchiligim yaxshi bo‘p ketadi, deb yuraverasan. Umr esa o‘tyapti... Shu alfozda bir umr nimanidir kuta-kuta go‘r og‘ziga borganingni bilmay qolasan. Shunda bitta-yarimta so‘rasa; shuncha paytdan buyon nima balolarni kutib yashading, yaxshilik qilishning xonasi kelganda nega qila qolmading, desa nima deysan? Mana, puling bo‘lsa bor, do‘konda tayyor etik, sen ham odam bo‘lib birovning ko‘nglini ol, mundoq! Ehtimol, boshqa bunaqa xonasi kelmas. Qizlar kelin bo‘lgunicha borini amal-lab turishar... Xotiningga har kuni sovg‘a olayotganing yo‘q-ku, nomard!

Sergey magazinga qaytib keldi.

– Qani, haligini ko‘rsatgin-chi, – dedi u.

– Nimani?

– Etiklarni.

– Ko‘rib nima qilasiz? Nechanchi razmer kerak?

– Men ko‘z bilan chamalab ko‘raman, razmerini bilmayman.

– Tavba, narsa olarmish-u razmerini bilmasmish. Buni kiyib ko‘rish kerak, bu shippak emas-ku.

– Shippak emasligini o‘zim ham bilaman. Narxidan ma’lum, hye-hye.

– Ko‘rishning hech hojati yo‘q.

– Agar men olmoqchi bo‘lsam-chi?

– Olarmish! Razmeriniyam bilmaysiz-ku.

– Sizga nima? Men ko‘rmoqchiman...

– Ko‘rishning keragi yo‘q. Hamma ko‘raveradigan bo‘lsa...

– Hey, menga qarang, oyimcha, – dedi Sergey jahli chiqib, – men axir sizdan yuzingni bir ko‘rsat, deb so‘rayotganim yo‘q. Ko‘rishga ko‘zim uchib turganiyam yo‘q. Nihoyati, menga anovi etiklarni bir ko‘rsating, deyapman.

– Qo‘pollik qilmang, bildingizmi, qo‘pollik qilmang! Xurmachasini to‘ldirib oladi-da, boshlaydi...

– Nimani boshlaydi? Kim boshlaydi? Siz, nima, o‘tkazib qo‘yganingiz bormi, menga bunaqa gapirasiz?

Sotuvchi xotin bir poy etikni uning oldiga itqitdi. Sergey uni sinchiklab tekshirdi, xiromini g‘ijirlatib ko‘rdi, tirnog‘i bilan poshnasiga chertib qo‘ydi. Ichiga ohista qo‘l suqdi. «Oyoq jonivor buning ichida xuddi yayraydi», – deb o‘yladi o‘zicha.

– Oltmish besh so‘mning o‘zimi? – deb so‘radi u. Sotuvchi indamay unga qahr bilan tikilib turardi.

– Yo Xudo! – taajjublandi Sergey. – Otishga o‘qi yo‘g‘-a! Nimaga endi, a?

– Olaman, – dedi u shosha-pisha, go‘yo shunday qilsa sotuvchi biroz g‘azabidan tushadigandek, birovni u bekorga ovora qilgani yo‘q, etik olyapti-ku, axir, – sizga to‘laymi, kassirgami?

Sotuvchi undan ko‘z uzmay, eshitilar-eshitilmas ming‘illadi:

– Kassaga.

– Oltmish besh so‘mning o‘zimi yo tiyini ham bormi? Sotuvchi hamon unga xo‘mrayib turardi. Sergey hadik aralash sekin razm solarkan, ayolning ko‘zlarida yonayotgan qahr alangasini ko‘rib, qo‘rqib ketdi. Indamasdan etikni joyiga qo‘ydi-da, kassaga yaqinlashdi... «Nima balo bo‘ldi unga? Esi og‘ib qolgan, shekilli. Muncha g‘azabga olmasa? Yana birpas shunaqa o‘qraysa odam o‘lib qolishi ham mumkin».

Etikning narxi tiyin-piyinlarsiz, oltmish besh so‘mning o‘zi ekan. Sergey chekni sotuvchiga uzatarkan, uning ko‘ziga boqishga jur’at qilmay, ozg‘in ko‘ksidan sal yuqoriga tikilib turdi. «Balki kasaldir», – deb o‘yladi achinib.

Sotuvchi chekni olmadi. Sergey boshini ko‘tardi. Endi xotinning ko‘zlarida ham nafrat, ham qandaydir g‘alati bir istehzo bor edi.

– Men etikni so‘rayapman.

– Kontrolga, – dedi sotuvchi sekingina.

– Kontrol qayoqda? – deb so‘radi Sergey ham past tovushda. Endi u ham qoqsuyak sotuvchini tobora yomon ko‘ra boshlaganini sezdi. Sotuvchi indamay qarab turardi.

– Kontrol qayoqda deyapman? – so‘radi tag‘in Sergey. Ammo yana javob ololmadi. U endi to‘g‘ri sotuvchining ko‘ziga tikilib kulimsiradi.

– Ha, senga nima bo‘ldi. Sen, jonginam, menga ko‘p bunaqa tirkalaverma – xotinim bor mening. Bilaman, meni bir ko‘rgandayoq sevib qolish mumkin, lekin nachora? Chidaysan-da, qandoq qilasan? Ana endi aytib yuborgin, kontrolni. Qayerda deding?

Ayol og‘zi ochilib qoldi. U bunday gap chiqishini sira kutmagan edi.

Sergey kontrolni qidirib ketdi.

«O‘h-ho‘! – o‘zicha g‘ururlanib qo‘ydi u. – Kesakdan o‘t chiqdimi? Qayoqdan biyron bo‘p qoldim? Asli xotinlarni gap bilan shunaqa o‘tqazib qo‘yish kerak. Shunda bekorchi asabbozlik bo‘lmaydi».

Kontrolda unga etikni o‘rab berishdi va u uyga qaytish uchun avtobazaga, sheriklari yoniga jo‘nadi. (Ular hammalari – mexanik hamda yana ikkita shofyor bu yerga o‘z mashinalarida kelishgan edi.)

Sergey «dejurka»ga kirarkan, hoziroq barcha qo‘limdagi qutiga yopishib olsa kerak, deb o‘ylagandi. Hech kim qayrilib ham qaramadi. Yigitlar odatdagiday hadeb bahslashishar edi. Ko‘chada bir yosh popni ko‘rishgan ekan, o‘sha qancha oylik oladi, deb tortishishardi. Katta-katta ko‘zlari g‘amgin boquvchi, ozg‘in Vitka Kibrov hammadan qattiqroq baqirardi. Hatto jazavasi tutib, so‘kinishga tushganda ham uning ko‘zlari g‘amgin va allanechuk aqlli boqar, xuddi Vitkaning alamzada ekanidan dalolat berib turganday bo‘lib tuyular edi.

– Bilasanmi, uning shaxsiy «Volga»si bor-a? – deya qichqirardi Rapshil (Vitkaning laqabi Rapshil edi). – Ular o‘qiyotgandayoq yuz ellik so‘m stipendiya olishadi. Bildingmi! Sti-pen-diyaning o‘zi yuz ellik!

– Bularda shaxsiy «Volga» bo‘lishi rost, lekin yoshlarida emas. Sen kimga gap, o‘rgatmoqchisan? «Volga» anavilarda, hah, oting qurg‘ur... apostolmi... yo‘q, apostolmas, hah, nimaydi?..

– Aqlingdan o‘rgildim! Apostollarda shaxsiy «Volga» emish! Yashavor, kallavaram! Apostol emish... Sen o‘zing apostolsan!.. – Stipendiyasining o‘zi yuz ellik emish! Stipendiyasi shuncha bo‘lsa, maoshi qancha bo‘ladi?

– Sen nima, uni bekorga laqillab yuraveradi, devdingmi? Ol-ha! Naqd besh yuzni qoqib oladi, deyaver.

– U Xudojo‘y bo‘lishi kerak.

Sergey yoshgina popga besh yuz so‘m oylik ko‘plik qiladi-ku, demoqchi bo‘ldi-yu, ular bilan pachakilashib o‘tirmadi. Hozir bekorchi safsataning xonasi emas... U tezroq etikni ko‘rsatgisi kelardi. Qutini ochib, etikni u yoq-bu yoqqa aylantirib tomosha qilgan bo‘ldi. Hozir pop to‘g‘risidagi dahanaki jang bir chetda qolib ketadi. Hamma jim bo‘p qoladi... U shunday deb o‘ylardi. Yo‘q, sheriklari jim bo‘lishmadi. Faqat Sergeyning qo‘lidagi etikka birrov qarab qo‘yishdi, xolos. Yolg‘on bo‘lmasin, notanish bir shofyor «qani», deb qo‘l cho‘zuvdi, Sergey darrov etikni uzatdi. Shofyor birpas tomosha qilgan bo‘ldi-da, qoramoyga belangan qo‘lini etikning oppoq, mayin qo‘njiga tiqdi. Sergey jon holatda undan etikni tortib oldi.

– E-e-y!.. Panjangni nega tiqyapsan? Shofyor kuldi.

– Kimga bu?

– Xotinimga.

Shundagina barcha jim bo‘lib qoldi.

– Kimga? – deb so‘radi Rapshil.

– Klavaga.

– Qani?

Etik qo‘ldan qo‘lga o‘tdi. Shofyorlar nafis charmni silab ko‘rishar, poshnasiga chertib qo‘yishar, ammo ichiga qo‘l tiqqani endi hech kim jur’at qilolmas edi. Faqat qo‘njini yoruqqa tutib, ichkarisiga qiziqsinib tikilishardi. Ulardan biri, hatto negadir etikning ichiga puflab ham ko‘rdi. Sergey shu paytgacha o‘zi aslo sezmagan qandaydir g‘alati iftixorni his qildi.

– Qancha ekan?

– Oltmish besh so‘m.

Hammalari Sergeyga hayron bo‘lganday, taajjub bilan tikilishdi. Sergey biroz dovdirab qoldi.

– Nima balo, jinni bo‘ldingmi?

Sergey Rapshilning qo‘lidan etikni qaytib oldi.

– Esiz! – deya xitob qildi Rapshil – Serga... esingni yebsan. Boshiga uradimi xotining buni?

– Kiyadi.

Sergey, harchand o‘zini xotirjam tutishga urinsa hamki, ichida allanarsa qaltiray boshladi. Ahmoqona bir fikr miyasiga yopishib oldi: «Motorollerning yarim puli. Motorollerning yarmi». U garchi oltmish besh so‘m motorollerning yarim puli emasligini yaxshi bilsa-da, bari bir qaysarlik bilan shunday deb o‘ylar edi: «Motorollerning yarmi».

– Shunaqa etik olib kelgin, deb buyuruvdimi?

– Buyurishi shartmi? O‘zim sotvoldim, vassalom.

– U buni qayoqqayam kiyardi? – xushchaqchaqlik bilan Sergeyning g‘ashiga tega boshlashdi sheriklari. – Tizzadan botqoq joyda oltmish besh so‘mlik etik olishga balo bormi.

– Axir, bu qishlik etik-ku!

– Xo‘p, qishda buni kiyib qayoqqa boradi?

– Keyin, bu – shaharliklarning oyog‘iga mo‘ljallangan. Klavangni oyog‘iga sig‘masa keragov. Oyog‘ining uchida qolib ketadi.

– Bu etik qayoqda-yu uning oyog‘i qayoqda!

– E, borlaring-e! – oxiri Sergeyning jahli chiqib ketdi. – Senlarga buning nima og‘irligi tushib qoldi?

Kulishdi.

– Odamning ichi achiydi-da, Seryoja! Axir sen oltmish besh so‘mni ko‘chadan topib olmagansan-ku!

– Pulni ishlab topgan – men, sarflagan – men, senlarga nima? Lo‘libozor qilishning nima keragi bor?

– Balki xotining senga rezina etik olishni buyurgandir?..

– Rezina etik emish... – Sergey butunlay o‘rtanib ketdi. – E, turlaring-e... Yaxshisi, pop haqida valdirashinglar – shunaqa qilib qancha olar ekan?

– Har qalay sendan ko‘proq oladi.

– Senlarni qara-yu! Qo‘l qovushtirib o‘tirgancha birovning pulini hisoblab o‘tirishibdi-ya. – Sergey o‘rnidan turib ketdi. – Boshqa qiladigan ishlaring yo‘q ekan-da?!

– Sen nimaga jirillaysan? Ahmoqlik qilishga-ku qilibsan. – Yana nimaga jirillaysan?

– Men lovullayotganim yo‘q. Namuncha mening g‘amimni yeb qolding? Sendaqa g‘amxo‘rdan o‘rgildim-u! Sendan qarz oldimmi, yo bo‘lmasa...

– Sening g‘amingni yeb o‘libmanmi, shunchaki, dunyoda ahmoqlarga achinasan kishi.

– Menga achinmay qo‘ya qol. Yaxshisi boyagi popingga achin!

Yana birpas g‘ijillashdilar-da, uyga jo‘nadilar. Yo‘lda Sergey bilan bir mashinada ketayotgan mexanik hech qanday kinoyasiz, hamdard ohangda:

– U senga nimaga pul beruvdi? – deb so‘radi. – Biror boshqa narsaga bo‘lsa kerak-a?

Sergey mexanikni hurmat qilardi. Shuning uchun u bilan urishib o‘tirmadi.

– Hech narsaga. Ke, qo‘y shu gapni.

* * *

Qishloqqa kechqurun yetib kelishdi. Sergey sheriklariga xayrma’zurni nasiya qilib, uy tomon ketdi. Klavdiya qizlari bilan ovqatlanib o‘tirardi.

– Namuncha kech qoldinglar? – deb so‘radi u. – Men endi yotib qolsanglar kerak, deb o‘ylovdim.

– To mashinalarni olib avtobazaga kelgunimizcha. – To u yerdan rayonlarga tarqatgunicha kech bo‘p ketdi.

– Dada, hech narsa opkemadingmi? – so‘radi katta qizi Grusha.

– Nima?

U yo‘l-yo‘lakay o‘zicha reja tuzib kelgan edi: agar Klava etikni qimmat ekan, boshqa narsa olmabsan, deb g‘idi-bidi qilaveradigan bo‘lsa... Oboradi-yu quduqqa tashlaydi.

– Opkeldim!

Uchovlon unga yalt etib qarashdi. Bu so‘z shunday ohangda aytilgan ediki, har kim o‘zicha har narsani o‘yladi. Xotini bu o‘zi kutgan go‘sht qiymalagich emasligini, qizlari esa bu dadalari va’da qilgan to‘rt so‘mlik ro‘mol emasligini tushunishdi. Uchovlari Sergeyning og‘ziga tikilib qolishdi.

– Huv ana, jomadonda. – Sergey stulga cho‘kdi, papiros axtarib cho‘ntagini kavlashtirdi. Azbaroyi hayajonlanganidan barmoqlari titrayotganini sezdi.

Klavdiya jomadondan qutini, qutidan etikni oldi. Elektr shu'lasi yorug'ida ular yanada yarqirab, xuddi nozanin bo'lib turishar edi. Qizlari o'rinlaridan sapchib turishdi... Birpas oh-voh qilib olishdi.

– Voy! Yo Xudoyim! Kimga bu?

– Senga-da, kimga bo'lardi.

– Voy, Xudoyim! – Klavdiya karavot chetiga o'tirdi. ...Shaharcha etik ichiga baquvvat, dehqon oyoqlari dadil yugurdi-yu birdan borib tiqilib qoldi. Sergey ko'ksida qandaydir og'riq tuyib labini tishladi. Sig'madi-ya... Qo'nji sig'madi.

– Razmeri nechanchi?

– O'ttiz sakkiz.

Yo'q, sig'madi. Sergey o'rnidan turib, tortib ham ko'rdi. Yo'q, sig'madi.

– Tavba, mening razmerim-ku o'zi...

– Qo'nji sig'mayapti faqat.

– Bu qurib ketgur qanaqa oyoq ekan-a, menda!

– Shoshma. Birorta yupqaroq paypoq kiyib ko'rgin-chi.

– E, qayoqda! Ko'ryapsanmi zormandani!

– Ha-ya...

– Obbo!.. Bu baytalmon qanaqa oyoq ekan-a! Tantanavor hayajon bosildi.

– E-ha! – Klavdiyaning umidi tobora so'nib borardi... – He, oyoq bo'lmay ket, la'nati! Qanchaga oluvding?

– Oltmish besh so'm. – Sergey papiros tutatdi. Uning nazarida xotini etikning bahosini yaxshi eshitmay qolgandek edi. – Oltmish besh so'm ekan, – deb qo'shib qo'ydi u yana sekingina.

Klavdiya etikka termilib uzoq o'tirdi, kafti bilan uning silliq qo'njini siladi. Uning mijjalarida yosh yiltiradi. Yo'q, u etik narxini eshitgan edi.

– Xudo ko'tarsin bunaqa oyoqni! – dedi u. – Ozib-yozib bir martagina... Shundayam... E, Xudoyim!

Sergeyning yuragini allanarsa iskanjaga oldi... Rahm-shafqatmi, unutilayozgan muhabbatmi... U etikni silab-siypalab o'tirgan xotining barmoqlariga qo'lini tekkizdi-da, ularni ohista siqdi. Klavdiya unga qaradi... Ularning ko'zlari to'qnashdi. Klavdiya ma'yus kuldi, keyin bir vaqtlar, yoshlik paytlaridagi kabi sho'x, sodda, ammo mag'rur bosh irg'adi.

– Senga nasib qilgan ekan, Grusha, – dedi etikni qiziga uzatib. – Ma, kiyib ko‘r-chi.

Qiz taraddudlanib qoldi.

– Qani, bo‘l! – Bosh silkib qo‘ydi Sergey ham. – O‘nni yaxshi bitirsang – seniki.

Klavdiya kuldi.

...Uyquga yotish oldidan Sergey doim oshxona eshigi yonidagi pastak kursida o‘tirib oxirgi papirosini chekar edi. Bugun ham borib joyiga o‘tirdi... Papiros tutatgancha, bugungi kun hayajonlarini esladi, sotib olgan sovg‘asining tasodifiy, ammo endi o‘ziga juda katta bo‘lib tuyulgan ma’nosi xususida o‘yladi. O‘yladi-yu ko‘ngli ravshan tortib ketdi. Hozir u shu daqiqadagi oromini, ahyon-ahyon bir mehmon bo‘lib qoladigan shu halovatli lahzani bexos hurkitib yuborishdan cho‘chir edi.

Klavdiya mehmonxonaga joy soldi.

– Qani, kela qol... – deb chaqirdi erini u.

Sergey atay nafasini chiqarmadi – tag‘in nima der ekan?

– Sergun – deya erkalab chaqirdi Klavdiya. Sergey o‘rnidan turdi, papiros qoldig‘ini o‘chirib, ichkariga kirdi. O‘zicha kulib, bosh chayqadi. «Etik oberganim uchun darrov menga mehribon bo‘p qoldi», – degan fikr xayoliga kelgani yo‘q. Gap etikda emas, albatta, gap shundaki... Buni tushuntirib bo‘lmaydi. Vassalom.

CHOLNING O‘LIMI

Chol ertalabdanoq betoqat bo‘la boshladi. Darmonsizlik tinkamadorini quritib borardi... U anchadan beri, bir oydan buyon betob. Ammo bugungisi butunlay bo‘lakcha, xuddi yuragining tagida qo‘rg‘oshin qadalib turgandek, ko‘ngli alag‘da. Chol bundan qo‘rqmas, ammo hech qachon bunchalik bedarmon bo‘lmagani uchun o‘ziyam hayron edi. Goho o‘zidan o‘zi oyog‘i ishlamay qolganga o‘xshaydi... Barmoqlarini qimirlatib ko‘rsa – yo‘q, ishlayapti. Goho esa o‘ng qo‘li muzlay boshlaydi, jon holatda qimirlatib ko‘rsa – binoyidek. Lekin nega bunchalik tinkasi qurib ketyapti-a? Yo Xudo!

Tushgacha sabr qilib yotdi: balki yuragimning tagida qadalib turgan narsa biroz qo‘yib yuborar, balki tamaki xumor qilib qolar yoki suv ichgim kelib qolar, deb kutdi. Keyin birdan ajali yetganini tushundi.

– Onasi... Hoy onasi! – deb chaqirdi u kampirni. – Bu... mening kunim bitganga o‘xshaydi.

– Og‘zingdan yel olsin! – shang‘illadi kampir. – Yotvolgan joyingda nima deb aljirayapsan tag‘in?

– Bir amallab meni tushirsang bo‘lardi. Qiynalib ketdim-ku. – Chol pech ustida yotardi. – Tushirib qo‘y.

– Bir o‘zim tushira olarkanmanmi. Yegorni chaqirib chiqsammikan?

– Chaqirib chiq. Uyida bormikan?

– Boya qo‘rada qorasi ko‘rinayotgan edi... Kirib chiqay-chi.

Kampir kiyinib, tashqariga chiqishi bilan eshikdan olam-jahon sovuq yopirildi.

«Qish o‘chog‘i tor. Shunaqa paytda o‘lish ham g‘irt g‘alva-da», – deb o‘yladi chol.

Ularning qo‘shnisi kirib keldi.

– Uh-h, sovuqni qara-ya! – dedi u. – Shoshmay tur, Stepan amaki, birnas isinib olay, keyin yoningga borarman. Naq qotib qolayozdim. Nima, tag‘in mazang bo‘lmadimi?

– Ahvolim chatoq, Yegor. O‘laman, shekilli.

– Ol-a, vahimangni qara-yu!

– Vahima qilsam-qilmasam – tamom. Sovuq qattiqmi judayam?

– Ellik darajalar borov. – Yegor papiros tutatdi. – Dalada bo‘lsa qordan nom-nishon yo‘q. Traktorlar bilan to‘plashyapti-yu, lekin bu urvoq bo‘larmidi!

– Balki, hali yana yog‘ar...

– Endi Xudo biladi. Qani, kel, tushsak-tusha qolaylik...

Kampir yostiqni urib-urib qappaytirdi, joy hozirladi. Yegor pechga yaqinlashib, qo‘llarini cholning tagidan o‘tkazdi.

– Bo‘ynimdan ushlab ol... Ana shundoq! Namuncha yengil bo‘p ketmasang!

– Dard tortdim-da.

– Yosh bolachalik g‘ozing yo‘g‘-a... Mening Kolkam ham sendan og‘irroq chiqar...

Cholni karavotga yotqizib, po‘stin bilan o‘rab qo‘yishdi.

– Tamaki o‘rab beraymi? – manzirat qildi Yegor.

– Yo‘q, chekkim kelmayapti, Eh, Xudoyim, – xo‘rsindi chol, – qishning kunida o‘lishni aytgin...

– E, qo‘ysang-chi! – dedi Yegor jiddiy ohangda. – Munaqa bo‘lmag‘ur xayollarga borma. – U stulni karavotga yaqinroq surib o‘tirdi. – Frontda mening dabdalam chiqib ketgandi. Men ham o‘shanda tamom, deb o‘ylagandim. Doktor bo‘lsa – yashashni xohlasang – yashaysan, istamasang – o‘lasan, deydi. Men bo‘lsam gapirolmayman ham. Yotgan joyimda o‘zimcha: «Yashashni kim ham xohlamaydi, jinnimi bu?» – deyman. Xullas, sen ham yotib: «Yashayman!» – deb o‘ylayver. Chol ojizgina kulimsiradi.

– Qani, bir tortib ko‘ray-chi, – dedi u.

Yegor papiros uzatdi. Chol tutunni ichiga tortib uzoq yo‘taldi...

– Cho‘p bo‘lib ketibman-da... Ammo tutun qo‘rsog‘imgacha bordi chog‘imda.

Yegor pixillab kuldi.

– Qayering og‘riyapti o‘zi? – so‘radi kampir achinib va negadir, norozi qiyofada.

– Hamma yerim... Og‘rimagan joyim yo‘q. Shundoq tinkam qurib ketyaptiki, xuddi birov qonimni so‘rib olgandek.

Uchovlon jimib qolishdi.

– Mayli, men boray, Stepan amaki, – dedi Yegor. – Mollarni sug‘orib, yem-pemini berish kerak...

– Bora qol.

– Kechqurun tag‘in xabar olarman.

– Mayli. Yegor ketdi.

– Madorim quridi, deysan. Ichingga tuz kirmaganidan keyin madoring quriydi-da, – luqma tashladi kampir. – Yo tovuqni so‘ysakmikan – sho‘rva qilib berardim? A? Mazalikkina qilib. – A?..

Chol o‘ylanib qoldi.

– Kerakmas. Koshki yolchitib yesam, bekorga tovuqni uvol qilamiz.

– Xudo ko‘tarsin, uvol bo‘lsa bo‘lar. Nima, juda shunchalik azizmi...

– Kerakmas, – dedi yana chol. – Yaxshisi, yarim ryumka ichib ko‘ray... Zora sal-pal qonimni yurishtirsa...

– Battar bo‘lmasa go‘rgaydi.

– Hechqisi yo‘q. Balki sal-pal qizdirar.

Kampir shkafdan bo‘g‘ziga puxtalik bilan latta tiqib qo‘yilgan shishani oldi. Choraktalik shishadagi aroq yarmidan kamrog‘i ichilgan, qolgani shundoq turardi.

– Ishqilib battar bo‘lib yurmasa go‘rga edi.

– E, aroq qachon battar qilgan, esing bormi o‘zi! – Cholning achchig‘i chiqdi. – Bir umr ustida o‘lib bo‘lasizlar-u aroq eng zo‘r doriligiga fahmlaring yetmaydi. Kaltafahm, xumgazaklar.

– Loaqal endi qaysarlik qilmasang-chi! – dedi kampir ham achchiqlanib. – «Xumgazak» emish... Bir oyog‘i go‘rda-yu tag‘in o‘z bilganidan qolmaydi. Doktor tinch yotishni buyurgan bo‘lsa...

– Doktor... Doktorlarga qolsa o‘lmaysan, deb ham buyuraveradida, ammo odamlar o‘laveradi!

Kampir yarim ryumka aroq quyib cholga uzatdi. U bir ho‘pladiyu yutolmadi. Bir qultum aroq qaytib ryumkaga to‘kildi. Chol rangi bo‘zday oqarib, qimir etmay uzoq jim yotdi. So‘ngra qiynalib-qiynalib:

– Yo‘q, ich, vaqt borida ichib qol, – dedi. Kampir unga rahmi kelib hasrat bilan qarab turdi-turdi-da, nihoyat birdaniga piqillab yubordi.

– Chol... Xudo ko‘rsatmasin, rostdan ham o‘lib qolsang, men so‘qqa boshim bilan qandoq qilaman?

Chol lom-mim demasdan shiftga xiyla vaqt tikilib yotdi. Biror narsa deyishga qiynalar, ammo bosiq, bafurja gapirgisi kelardi.

– Eng avval Mishkadan nafaqa undirib ol. Otang o‘ldi, onangni o‘lgunicha boqqin, deb vasiyat qildi, degin. Xuddi shundoq degin. Agar u noinsof, quloq qoqmasa, sudga bergin. Uyat o‘z yo‘liga, ammo tirikchilik ham kerak. Sen emas, u uyalsin. Mankaga, yozib yubor, o‘g‘lini, albatta, o‘qitsin. Bolasi miyali, butun «Internatsional»ni yod biladi. «Otang o‘qitsin deb aytdi», – degin.

Chol charchadi. Yana shiftga termilgancha bir muddat jim yotdi. Yuzi jiddiy va hatto bir qadar tantanavor edi.

– Petkaga nima dey? – deb so‘radi kampir ko‘z yoshlarini artib; u ham Yegor vazmin va ko‘z yoshisiz gapirishga shaylangandi.

– Petkagami?.. Petkaga tegma – topganini o‘zi zo‘rg‘a uchma-uch qilib yuribdi sho‘rlik.

– Sho‘rva qilib beraymi, a? Yegor so‘yib berar...

– Kerakmas.

– Nima, yana mazang qochyaptimi?

– Shunaqaga o‘xshaydi. Birpas dam olay. – Chol ko‘zlarini yumib, sezilar-sezilmas, ohista nafas oldi. U chindan ham o‘likka o‘xshar, chehrasida qandaydir sovuqqonlik, tirik odamda bo‘lmaydigan allaqanday osudalik muhrlangan edi.

– Stepan! – deya chaqirdi kampir.

– Hm?

– Tur, bunaqa qilib yotmagin...

– Qandoq yotay, yo‘qsa, esi past? Birov o‘lay deyapti-yu bu bo‘lsa undoq yotma, bundoq yot, deydi. Qandoq yotishim kerak? To‘rt oyoqlab yotaymi?

– Mixeyevnani aytib kelaymi – o‘qib qo‘yardi?

– Yig‘ishtirlaring-e!.. Toza yaxshilik qildi-da, menga senlarning Xudolaring. Bekorga tovug‘ingni Mixeyevna shilib ketadi. Yaxshisi, o‘sha tovuqni Yegorga ber – chiqib go‘rni kavlaydi. Bo‘lmasa, kimga zaril kepti?

– Topilar bitta-yarimta...

– «Topilar» emish... Keyin yurasan uyma-uy izg‘ib – shu sovuqda kimning ko‘zi uchib turibdi. Qish kuni bo‘lsa... Yozdayam baharnav edi!

– Nima balo, rostdan ham o‘lyapsan, shekilli? Balki tavba-tazarru qilarsan...

– Hozir qildim tavba-tazarruni. Oyog‘im muzlab ketyapti... Eh, Xudoyim, Xudoyim! – Chol chuqur xo‘rsindi. – Balki bordirsan, Xudo... osiy bandangni o‘zing kechir.

Kampir tag‘in ho‘ngrab yubordi.

– Stepan, sal o‘zingni tut. Axir, Yegor: «Har narsani o‘ylayverma», deb aytdi-ku.

– Hamma narsani biladi o‘shaning! Ho‘kizdek baquvvat, unga o‘lmagin degin – o‘lmay qo‘ya qoladi.

– Undoq bo‘lsa, yaxshi-yomon gapirgan bo‘lsam... rozi bo‘l, chol...

– Xudoning o‘zi kechirsin, – dedi chol tez-tez quloqqa chalinadigan gapni takrorlab. U yana bir nima demoqchi, g‘oyat muhim bir gapni aytmoqchi bo‘lib chog‘landi-yu, biroq buning o‘rniga negadir yon-veriga g‘alati alanglab betoqatlana boshladi.

– Agnyusha, – dedi u bazo‘r, – mendan rozi bo‘l. Xiyol ko‘proq ichardim... Nonni qara, nonni – qop-qora!.. Anavi burchakda turgan kim? Kim u?

– Qani, Stepan?

– Huv ana!.. – Chol tirsagiga tayanib, qaddini rostladi, uy burchagiga – dahliz tarafga talvasa bilan tikildi. – Ana-ku, ana! O‘tiribdi-ku?..

Yegor kechqurun keldi.

Chol oppoq burni so‘rraygancha karavotda yotar, bosh tomonida esa kampir unsiz yig‘lab o‘tirar edi.

Yegor boshidan shapkasini oldi, biroz o‘ylanib turgach, burchakdagi sanamga qarab cho‘qindi.

– Ha-a, – dedi u, – ajalini sezgan ekan-da.

– Joyining o‘zi qayerda! Joyi qayerda, deyapman?

– Qayerda bo‘lsa o‘sha yerda! Direktorni nima qilasan? «Direktor qani emish!» Direktorning senga o‘xshaganlar bilan adi-badi aytishib o‘tirishdan bo‘lak ishi yo‘q ekan-da! – Xola boshqa sotuvchilar va keksaroq xaridorlarni yordamga chaqirgandek ovozini balandlatdi. – Buni qarang, bu kishiga direktor kerak emish. Direktor ishlik odam. Senga o‘xshaganlar bilan pachakilashib o‘tirmaydi. Qarang-a, direktorni ko‘rgilari kelib qolipti!

– Nima gap, Roza? – deb so‘rashdi boshqa sotuvchi xotinlar.

– Manavini qarang, oyog‘ini tirab nuqul direktorni so‘raydi. Direktorni oldingga opchiqaymi? Tusingni yel yesin senday oliftani! Piyanista!

Sashka direktorni o‘zi qidirib ketdi.

– Xola momon ekan-a, – dedi Masha.

– Yomon emas, u xuddi... – Sashka yosh bolaning oldi-da xolaning qanaqaligini aytib o‘tirgisi kelmadi. Go‘yo birov ko‘pchilik o‘rtasida basharasiga tarsakilab yuborgandek ikki yuzi lovullab yonar edi.

Orqa tomondagi eshikdan kirayotgan edi, qassob yigit uning yo‘lini to‘sdi.

– Nima qilib shovqin ko‘tarib yuribsan?

Sashka qassobga o‘xshatib javob qildi. Uning ko‘zlarida jiddiyat borligini ko‘rgani uchunmi, qassob yigit yo‘l bo‘shatdi.

– Men direktor emasman, – dedi kichkina xonada o‘tirgan boshqa bir xola. –Men bo‘lim boshlig‘iman. Nima bo‘ldi o‘zi?

– Bilasizmi, – deb gap boshladi Sashka. – O‘zidan o‘zi... Hech gapdan hech gap yo‘q... Nimaga unaqa qiladi?

– Sekinroq, sekinroq, – dedi bo‘lim boshlig‘i nasihat ohangida.

– Men kecha kun bo‘yi ishda edim... Magazinga qadam qo‘yganim yo‘q. U bo‘lsa aytadiki, do‘konga kirib to‘polon ko‘tarding, deydi. Axir, men magazinga qadam qo‘yganim yo‘q.

– Kim shunaqa deyapti?

– Baliq bo‘limida turgani.

– Nima deydi?

– Aytyapman-ku, kecha magazinga kelib to‘polon qilding, deydi. Axir men magazinga kelgan emasman.

– Xo‘sh, to‘polon qilmagan bo‘lsangiz nimaga ota go‘ri – qozixona qilib yuribsiz? Demak, boshqasi ekan-da. Olam guliston.

– Axir u qo‘pollik qildi! Haqorat qildi!

– Nima deydi?

– «Ish qilib qo‘ygan boladek», deydi.

Bo‘lim boshlig‘i kulib yubordi. Alamdan Sashkaning yuzi yana qiyshayib ketdi. Endi tishlari ham gijirlay bashladi.

– Bo‘pti, yuring, yuring. Qani, aniqlab ko‘raylik-chi, nima gap ekan.

Avval bo‘lim boshlig‘i, uning ketidan Sashka baliq bo‘limiga kelishdi.

– Nima bo‘ldi, Roza? – deb ohista so‘radi bo‘lim boshlig‘i.

Roza ham unga javoban xuddi shunday ohista tovushda javob qila boshladi. Odatda shifokorlar bemor haqida bemorning oldida, sud yoki militsiyada ma’lum kishilar haqida xuddi shunday pichirlashib gaplashadilar. Roza ana shunaqa pichir-pichir ohangda gapini ma’qulladi:

– Kecha o‘lgudek ichib to‘polon ko‘tardi. Bugun shuni gapirsam bo‘yniga olmaydi. Tag‘in xafa bo‘lganiga o‘laymi?

Sashka yana titrab ketdi. Shuning uchun ham titrab ketdiki, bo‘lim boshlig‘i Rozaning gaplarini jon qulog‘i bilan tinglar, har so‘zini ma’qullab nuqul boshini silkitar edi. Ular bir-birining tilini yaxshi anglar, Sashkaning «aybini bo‘yniga» olmayotganini ham tushunib turishardi.

Sashka butun kuchini to‘plab o‘zini bosishga urinsa ham qaltirab ketdi.

– Nimaga pichir-pichir qilasiz? – dedi u.

Bo‘lim boshlig‘i ham, Roza ham unga qayrilib qaramadi. O‘zaro gaplarini davom ettirishdi.

– Nima qiluvdi o‘zi?

– Avval ichdi, xurmachasi to‘lmadi, shekilli, yana keldi. Kech bo‘lib qolgan edi. U bo‘lsa hozir topasan, deb turib oldi.

– Qo‘ng‘iroq qilmadinglarmi?

– Lyubka qo‘ng‘iroq qilmoqchi edi. Ichib olgan bo‘lsayam shum ekan, qochib qoldi. Tag‘in hammamizni so‘kib chiqib ketganini aytmaysizmi?

– Menga qarang! – Sashka ularning gapini kesdi, – Kecha men magazinga kirmaganman! Kirmaganman! Gapga tushunasizlarmi o‘zi?!

Roza bilan bo‘lim boshlig‘i unga qarab qo‘yishdi.

– Axir men kecha magazinga kirgan emasman. Odamning gapiga tushunasizlarmi, yo‘qmi? Men sizlarga rus tilida aytyapman-ku! Kecha men magazinga qadam bosgan emasman!

Roza bilan bo‘lim boshlig‘i unga tikilib indamay turishaverdi.

Bu paytda orqa tomonda navbat kutib turganlar ko‘payib ketdi. Har chekkadan har xil ovozlar kela boshladi:

– Bo‘ldi-da endi! «Kirganman, kirmaganman!»

– Qani, ishingizdan qolmang!

– Bu qanaqasi axir? – Sashka navbatda turganlarga qayrilib qaradi. – Kecha men magazinga mutlaqo kelgan emasman. Ular bo‘lsa, bu yerga kelib to‘polon qilgansan, deyapti. Sizlar nega aralashasiz?!

Plash kiygan keksaroq bir kishi va’zxonlikni boshladi.

– Bo‘pti! Kelmagan emish! Har kuni shu yerda o‘ralashasanlar. Odam ichkariga kirolmaydi. Bir-birdan qilib ichishdan bo‘shashmaydi. Kelgansan deyapti-ku, demak, kelgansan-da!

– Qo‘ying-e, ular kechqurunlari dumlarini qisib uyda o‘tirishadi, – dedi navbatda turganlardan kimdir piching qilib.

– Ha-da, gazeta o‘qib yotishadi.

– Tag‘in jahli chiqishini qarang. Asli bizning jahlimiz chiqishi kerak. Senlarning qilig‘ingdan biz achchiqlanishimiz kerak.

– Qanaqa odamsizlar o‘zi? – Sashka gap boshladi-yu, lekin olishib o‘tirish befoydaligini tushundi. Bunday qilish bema’nilik edi. Odamlardan yasalgan bu jonli devorni teshib o‘tib bo‘larmidi.

– Ishingizni qilavering, – deyishdi Rozaga. – Xotirjam ishingizni qilavering. Ranjimang.

Sashka eshik tomon yurdi. Plash kiygan boyagi xaridor uning orqasidan yana gap otib qoldi:

– Aroqni soat o‘ndan sotishadi. Erta kelibsan.

Sashka ko‘chaga chiqdi. To‘xtab chekdi.

– Amakilar momon-a, – dedi Masha.

– Ha, amakilar... xolalar, – dedi Sashka o‘zicha ming‘illab. – Xo‘sh... – U nima qilishni bilmay turib qoldi.

Yana a’zoyi badanida titroq turdi. Xuddi bezgak tutgandek qaltiray boshladi.

U plashlining chiqishini poylashga qaror qildi. Bir gaplashib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Bu qanaqasi? Nimaga bilar-bilmas surbetlarning yonini olamiz? Kap-katta odam nimaga magazinchilarga yelpataklik qiladi? Bu qanaqa qiliq? Nimaga odamlar surbet sotuvchiga, amal-

dorga, umuman, allaqanday surbetlarga yoqish uchun laganbardorlik qilishadi? Bunaqada bezbetlarni o‘zimiz ko‘paytiryapmiz-ku! Hech kim ularni boshqa yerdan olib kelib parashutdan tashlayotgani yo‘q-ku.

Sashka taxminan shunday deb o‘ylar edi. Shu payt plashli qariya chiqib qoldi.

– Menga qarang, – Sashka unga yaqin bordi. – Siz bilan gaplashib olmoqchiman.

Plashli qariya. Sashkaga o‘shshayib tikildi.

– Nimani gaplashasan?

– Nima uchun siz bilar-bilmas magazinchining yonini olasiz? Axir, men rostdan ham kecha magazinga kelgan emasman.

– Bor, avval uyquga to‘yib ol. Tushundingmi? Qarang-a, men bilan gaplashib olmoqchi emish. Men senga gaplashishni ko‘rsatib qo‘yaman! Boshqa joyda gaplashib qo‘ymay tag‘in.

– Nima, jinnimisan?

– O‘zingni jinningni chiqarib qo‘ymay! Mana ko‘rasan, hozir ko‘rsataman! Gaplashish qanaqa bo‘lishini ko‘rsatib qo‘yaman, haromi!

Plashli magazin tomonga yo‘rg‘alab qoldi. Sashka uning telefon qilgani ketganini payqadi.

Qiziq-a? Bundan ortiq tuhmat bo‘ladimi? Sashka hatto xiyla yengil tortgandek bo‘ldi. Militsiyani kutib o‘tirmaslikka qaror qildi. Militsiyadan nima foyda chiqardi? Agar bir o‘zi bo‘lganida kutishi ham mumkin edi. Gap nima bilan tugashini bilib qo‘yish har holda qiziq. Ammo yonida qizchasi bor-da...

Shunday qilib ota-bola uyga yo‘l olishdi. Sashka yo‘l-yo‘lakay faqat bir narsani o‘ylar, ammo hech tagiga yetolmas edi. Odamlarga nima bo‘lgan o‘zi?

Qizaloq shirin tili bilan yana bijir-bijir gapira boshladi. Shunda Sashka bir nimani payqadi. Hali u xolalar-u amakilar bilan g‘ijillashayotganda qizchasi negadir har safar jimib qolar, faqat gap-so‘zlar tugagandan keyingina dadasini ranjitayotgan odamlarning «momonligini» gapirar edi. Sashka qizining qo‘ldan mahkam ushlab oldi. Nimagadir ko‘ziga yosh quyilib keldi.

– Qizalog‘im... Nahotki, hammasini tushunsang? Sashka uyga kirganida xotini Veraga magazindagi voqeani aytishga chog‘landiyu, so‘z boshlashi bilan negadir hafsalasi pir bo‘ldi.

– Nima, nima gap o‘zi?

– Mayli, bo‘lganicha bo‘ldi-da! Qo‘pollik qilishdi. Nima, endi ko‘ribmizmi?

Shunday dedi-yu boyagi plashli odam to‘g‘risida o‘ylab ketdi. Kichkina bola emas, yoshi bir joyga borib qolgan odam bo‘lsa. Shuyam erkakning ishimi?! Qo‘rqoq! Yelpatak! Gapni oxirigacha eshitmay, militsiyaga sim qoqqani chopib qoldi. Shuncha yil umrini qanday o‘tkazgan ekan? Butun umr davomida nima ish qilgan ekan? Balki u bir narsani – laganbardorlik hech qachon yaxshilikka olib bormasligini bilmas? Bundan xunuk ish bormi? Shunaqa-ku, lekin mana shuni bilmasdan umr bo‘yi qanday kun kechirdiykin? Rost-a, u qanday yashagan ekan? Nima bilan shug‘ullangan? Sashka bu odamni ilgari ham ko‘rgan, ro‘paradagi to‘qqiz qavatli uyda turishini bilar edi. Borib ko‘rsinmi? Birortasidan so‘rasa, qaysi xonadonda turishini aytib beradi.

«Boraman! – deb qaror qildi Sashka. – Qani, bir gaplashib ko‘ray-chi! Tushuntiraman. Magazindagi o‘sha ahmoq xotin meni birov bilan adashtirganini, u esa gapning tagiga yetmay, oraga tushganini aytib, uyaltiraman. Umuman, bir gaplashib ko‘raman. Ehtimol, u so‘qqabosh, bechorahol odamdir».

– Sigaret olib kelaman, – dedi Sashka xotiniga.

– Hozir magazindan kelding-ku!

– Unutibman.

...Bir yigitcha Sashka tasvirlab bergan odamni tanidi. Familiyasi Chukalov ekan.

– O‘ttiz oltinchi xonadonda turadi.

– Bitta o‘zimi?

– Nega? Kampiri bor. Nimaydi?

– Yo‘q, o‘zim. Oldiga kirib chiqmoqchi edim. Eshikni o‘sha odamning o‘zi ochdi. Familiyasi chindan ham Chukalov ekan.

– Iltimos, qo‘rqmang, – dedi Sashka avvalo. – Men sizga tushuntirmoqchi edim...

– Igor! – deb qichqirdi Chukalov ichkariga qarab ovozi boricha.

Yo‘q, u qo‘rqqani yo‘q, qaytaga ostonada turgan mehmonni ko‘rib, quvonib ketdi. Xiyol qabarib chiqqan qop-qora ko‘zlarini lo‘q qilib turaverdi. U nimanidir kutar edi.

– Men boyagi gapni tushuntirmoqchiman.

– Hozir tushuntirasan... Igoryok!

– Nima gap? – dedi ichkaridan boshqa erkak ovozi. Sashka beixtiyor veshalkaga qarab qo‘ydi. Qaradi-yu g‘imirlab qoldi.

Chukalov Sashkani qochib ketadi, deb o‘yladi, shekilli, to‘satdan jon holatda yengiga yopishdi. Qiziq, uning qo‘llari kuchli edi. Qora ko‘zlari esa hozir qasos olishini sezib rohatlangandek yonib ketdi. Undan aroq hidi anqirdi. Sashka shu qadar hayratda qolgan ediki, qo‘lini tortib ham olmadi, faqat Chukalov yengiga qo‘shib chimchilagani uchun xiyol bo‘shatishga harakat qildi.

– Igor!

– Nima gap! – Igor o‘g‘li bo‘lsa kerak, uning ham ko‘zlari qopqora, xiyol namlanib turar edi. Bu zabardast yigit aroq bilan nonushta qilib olgan, kayfi borligi ayon edi.

– Mana bu odam magazinda meni haqorat qildi. Urmoqchi bo‘ldi. – Chukalov hamon Sashkaning yengidan ushlab turardi.

Igor Sashkaga baqrayib qaradi.

– Qo‘limni qo‘yvoring, qochib ketayotganim yo‘q-ku, – dedi Sashka. Keyin jilmaydi. – O‘zim keldim-ku!

– Qo‘yvor, – deb buyurdi Igor. Keyin Sashkaga yana baqraydi. Uning qarashida savol alomati ham, tahdid ham, kuchini chamalashga o‘xshash allaqanday holat ham bor edi.

Chukalov Sashkaning yengini qo‘yib yubordi.

– Bilasizmi, gap bunday, – Sashka iloji boricha osoyishta, ziyoliroq ohangda gap boshlab, kaftlarini ishqalab qo‘ydi. – Magazinda meni haqorat qilishdi. Dadangiz bo‘lsa...

– Sen alamingni dadamdan olding, shunaqami?

– Yo‘g‘-e, nega endi?

– Magazindan chiqishimni poylab, ataylab kutib turgan ekan.

– Men bir narsani bilmoqchi edim. Siz nimaga unaqa... yelpataklik qilasiz?

Igor birdan unga yopishdi. Sashka bunday bo‘lishini hech kutmagan edi. Igor uning boshini ikki marta eshik-ka urdi. Keyin eshikni ochib, maydonchaga olib chiqdi-da, kuchi boricha zinadan uloqtirib yubordi. Sashka qandaydir tasodif bilan bir amallab oyoqqa turib qoldi. Chirpirak bo‘lib uchib ketayotgan joyida zina panjarasini changalladi. Yuqoridagi eshik qarsillab yopildi.

Sashka xuddi quyunga yo‘liqib qolgandek, boshi aylanib yiqilib tushdi. Hammasi bir lahzada bo‘lib o‘tdi. Uning shuuri ham shunday zudlik bilan ishlay boshladi. Zinada bir zum tur-

di, keyin pastga qarab tez-tez yurib, to‘g‘rirog‘i, yugurib tushdi. Uyida, shunday kiraverishda yaxshi bolg‘asi bor. Olib keladi-da, qo‘ng‘iroqni bosadi.

Agar boyagi chol ochsa, itarib yuborib, ichkariga kirib olsa – bas. Igoryokning o‘zi ochsa-ku nur ustiga nur! O‘ch olishni kim qo‘yuvdi-ya! Magazindan ertaroq chiqib keta qolganda-ku, shuncha gan yo‘q edi. Endi g‘isht qolipdan ko‘chdi. Agar Igorning o‘zi ochsa, chap tizzasi bilan eshikni itarib, ichkariga kirib olishi kerak. Bo‘lmasa, u eshikni yopishga harakat qiladi. Unda bolg‘a bilan urolmay qolishi mumkin. Zarbasi ikki pulga qimmat bo‘ladi.

Sashka podyezddan yugurib chiqdi-yu magazindan shu tomonga uchib kelayotgan Verani ko‘rdi. Uning sochlari yoyilib ketgan, yuzida dahshat ifodasi qotib qolgan edi. Sashka birdan oyoqlaridan mador qochganini sezdi. U bolalarga bir narsa bo‘lgan, deb o‘yladi. Mashami, endi yo‘lga kirgan kichik qizimi, biror falokatga yo‘liqqan, deb qo‘rqib ketdi. Qichqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi. Taqqa to‘xtadi. Vera uni ko‘rib yugurib keldi.

– Nima qilding? – deb so‘radi xotini hovliqib.

– O‘zing nima qilib yuribsan?

– Masha qanaqa amakilarni gapiryapti? Yana janjal boshladingmi? Masha aytdi, dadam amakilar bilan urishdi, dedi. Qanaqa amakilar ular? Nimaga bir holatda turibsan?

– Nima qildi?

– O‘zingni go‘llikka solma, Sashka. Men seni bilaman. Ranging o‘chib ketganini qara. Nima bo‘ldi? Kim bilan janjallashding?

– Hech kim bilan! Qutuldimmi?

– Aldama! Magazinga boraman degan eding. Bu yoqda nima qilib yuribsan?

Sashka indamadi. Tamom, endi hech nima bo‘lmaydi. U yerga tikilgan ko‘yi ancha vaqt turib qoldi. Qani, ko‘ksini kuydirayotgan alam o‘zi bosilarmikan yo bolg‘a bilan Igorning boshini majaqlasinmi?

– Sashka, yur jonim, Xudo xayringni bersin. Uyga boraylik,– Vera erining ko‘nglidagini payqadi, shekilli, yalinishga tushdi. – Uyga yura qol. Bolalar yolg‘iz... Qo‘y, shular bilan olishib o‘tirmagin. Jon Sasha, hech bo‘lmasa bizni o‘ylagin. – Vera erining qo‘lidan tutdi. – Bizga achinmaysanmi?

Sashkaning ko‘zlarida yosh aylandi... U qovog‘ini soldi. Jahl bilan yo‘talib qo‘ydi. Cho‘ntagiga qo‘l suqib, sigareta qutisini chiqardi. Qaltirayotgan barmoqlari bilan bittasini olib tutatdi.

– Qo‘lingni titrashini qara. Yura qol.

Sashka yengilgina siltanib Veraning qo‘lidan o‘zini bo‘shatdi. Keyin uyga yo‘l oldi. Lom-mim demay xotiniga itoatkorona ergashdi.

IMTIHON

– Nega kechikdingiz? – deb so‘radi professor keskin ohangda.

– Kechirasiz... bilasizmi, haligi... to‘g‘ri ishdan kelyapman, qo‘limda buyurtma bor edi, shoshilinch...

Istarasi issiq, baland bo‘yli student yigit ichkari kirishga jur’at etolmay, auditoriya eshigida taraddudlanib turar, ma’nili ko‘zlari muloyim javdirab boqardi.

– Oling biletni. Nechanchi?

– O‘n yettinchi.

– Nima ekan?

– Birinchi savol – «Igor jangnomasi». Ikkinchisi...

– Yaxshi bilet. – Professor o‘zining qattiqqo‘lligidan endi xiyol uyalgandek bo‘ldi. – Tayyorlaning.

Student qog‘oz ustiga muk tushgancha o‘ylanib qoldi.

Professor bir muddat uni kuzatib o‘tirdi. Uzoq hayoti davomida ko‘z o‘ngidan son mingi o‘tgan bunday yigitlarning barchasini u lo‘nda qilib: student, deya o‘ylashga odatlangan edi. Aslida esa bu ko‘p mingli lashkarning birorta vakili ikkinchisiga aslo o‘xshamas, hammasi har xil edi.

«Hamma narsa o‘zgaryapti. Qadimgi professorlar o‘zlarini o‘qituvchi, deb atashlari mumkin edi, chunki har biri o‘quvchilariga ega edi... Biz esa bugun faqat professorlarmiz», o‘yladi professor.

– Menga savolingiz yo‘qmi?

– Yo‘q.

Professor deraza yoniga bordi. Papiros tutatgan ko‘yi qadimgi professorlar haqidagi fikriga qaytmoqchi bo‘ldi-yu, biroq negadir buning o‘rniga diqqat bilan ko‘chani kuzata boshladi.

Qosh qorayib borar, ko‘chada odatdagi shovqin-suronli hayot davom etardi. Yoyidan qizil uchqunlar chaqnatib muyulishdan tram-

vay o‘tdi. Svetofor ro‘parasida talay avtomobillar tizilishib qolgandi: svetofor ularga bir im qoqqandi, barchasi shitob bilan olg‘a intildi. Trotuarlardan shosha-pisha yo‘lovchilar o‘tib borishar, mashinalar ham, odamlar ham allaqayoqqa oshiqar edi.

«Odamlar hamisha shoshgani shoshgan. Tovush tezligiga erishilsa hamki, baribir shoshilaverishadi. Bu... hammasi qayerga oshiqarkin-ey?..»

– Ihm... – student qo‘zg‘alib qo‘ydi.

– Tayyormisiz? Boshlang. – Professor unga yuzlandi. – Eshitaman.

Student yo‘g‘on, qo‘pol barmoqlarida ensiz qog‘oz parchasini ushlab turar, bilet sezilar-sezilmas titrardi.

«Hayajonlanyapti, – angladi professor. – Ziyoni yo‘q, hayajonlanaver...»

– «Igor jangnomasi» – bu buyuk asar, – deya gap boshladi student. – Bu... durdona o‘n ikkinchi asr oxiriga mansub... Ihm... Muallif bu asarda...

Professor ro‘parasidagi yigitning qat’iyat aks etgan, kelishgan qiyofasiga parishon tikilarkan, nima uchundir, «Jangnoma»ning muallifi nihoyatda yosh... o‘spirin bo‘lgan, degan xayolga bordi.

– ...Knyazlar tarqoq edi va... Umuman, Rus tarqoq edi va qipchoqlar Rusga hujum qilganlarida...

Student yomon, zerikarli javob berayotganini o‘zi ham tushundi, shekilli, labini tishlab xo‘mraydi-da, qizarib ketdi.

«O‘qimapti. – Professor ranjib studentning ko‘zlariga tik qaradi. – Ha, mutlaqo o‘qimagan. Ahmoqona bir so‘zboshini o‘qibdi, xolos. Hah, shaytonvachchalar! Mana, sizga sirtqi ta’limning karomati!»

Professor sirtqi ta’limning dushmani edi. Hatto o‘z vaqtida gazetada maqola bilan ham chiqmoqchi bo‘lgandi-yu bosishmagandi. «Iye!» – deyishgandi o‘shanda kapalagi o‘chib. «Mana sizga «Iye!» Knyazlar tarqoq edimish-a...

– O‘qidingizmi?

– Qarab chiqdim... Ihm...

– Uyalmaysizmi? – jon olguvchi bosiqlik bilan so‘radi professor va yigitdan javob kutib chaqchaydi.

Student bo‘ynidan peshonasigacha qizarib ketdi.

– Ulgurolmadim, professor... Ish tig‘iz... shoshilinchroq buyurtma bor edi...

– Meni buyurtma-muyurtmangiz qiziqtirmaydi. Meni shunday buyuk milliy asarni o‘qishga bo‘yni yor bermagan kishi, rus kishisi qiziqtiradi, bildingizmi? – Professor bu baquvvat studentga qarshi nafrati qo‘zib borayotganini yaqqol his etdi. – Siz o‘qishga o‘zingiz kirganmisiz?

– Albatta, o‘zim.

– Buni nima deb o‘ylovdingiz?

– Nimani?

– O‘qishni. Odam bo‘lish niyatingiz bormidi, axir? Bir muddat bir-birlariga so‘zsiz tikilib qoldilar.

– Kerakmas, – dedi student sekingina va boshini quyi soldi.

– Nima kerakmas?

– Shu gaplar... keragi yo‘q.

– Yo‘q, bu juda ham muhim! – deya xitob qildi professor. U tizzasiga shapatilab urdi-da, o‘rnidan turdi. – Juda muhim. Yaxshi, bu haqda boshqa gapirmayman. Faqat meni shu narsa qiziqtiryapti: o‘zingiz-chi, o‘zingiz, uyalyapsizmi yoki yo‘qmi?

– Uyalyapman.

– Xudoga shukur!

Bir daqiqa jim qolishdi. Professor doska oldida nari-beri yurar, pishqirib bosh chayqardi. Qahrining zo‘ridan hatto yosharib ketgandek edi. Student biletga tikilgancha qimir etmay o‘tirardi. Asabiy sukunat bir lahza cho‘zildi.

– Yana u-bu narsa so‘rab ko‘ring. Men... tayyorlanganman.

– «Jangnoma» qachon yaratilgan? – Professor jahli chiqqan paytda yosh boladek o‘jar, qaysar bo‘lib ketardi.

– O‘n ikkinchi asrda. Oxirida.

– To‘g‘ri. Knyaz Igor nima bo‘lgandi?

– Knyaz Igor asirga tushib qoladi.

– To‘ppa-to‘g‘ri! Knyaz Igor asirga tushadi. Eh, jin urgur! – professor qo‘llarini ko‘ksida chalishtirdi, yuzlarida ham Knyaz Igorning asirga tushgani, ham asosan, u haqdagi suhbatning o‘ta tuturiqsiz chiqqani uchun ulug‘ bir taassuf ifodasi zuhur etdi. Chunki u mo‘ljallagan istehzo ohangi chiqmagan, o‘zini bu yigit bilan maynavozchilik qilib o‘tirgandek sezar, haqiqatan darg‘azab edi. Qiziq, u yigitga achinar va achingan sayin battar jahli chiqardi. – Eh, falokat! Qanday qilib u asirga tushib qoldiykin-a?!

– Tegishli bahoni qo‘ying-da, o‘zingizni ko‘p qiynamang, – dedi student keskin, qat’iy ohangda va o‘rnidan turdi.

Professorga bu gap biroz yupatuvchan ta’sir qildi. U joyiga o‘tirdi. Yigit unga yoqa boshlagandi.

– Keling, Knyaz Igor haqida so‘zlashaylik. U o‘zini tutqunda qanday his qiladi? Qani, munday o‘tiring-chi.

Student tik turaverdi.

– Menga ikki qo‘yavering.

– Knyaz Igor asirlikda o‘zini qanday his qilgan edi?! – deb so‘radi professor qichqirgudek bo‘lib. U yana qahri qo‘ziyotganini ravshan sezib turardi. – Asir tushgan odam o‘zini qanday his qiladi axir?! Loaqal shuni ham bilmaysizmi?!

Student bir asno taraddudlanib, tiniq, moviy ko‘zlari bilan cholga nazar tashladi.

– Bilaman, – dedi u.

– Xo‘sh, nimani bilasiz?

– Men o‘zim asirlikda bo‘lganman.

– Nima? A? Ya’ni, qanaqasiga?.. Qayerda?

– Nemislarda.

– Siz jang qilganmisiz?

– Ha.

Professor studentga diqqat bilan tikilarkan, nima uchundir tag‘in xayoliga «Jangnoma»ning muallifi, qo‘rs, qat’iyatli yigitcha bo‘lgan, degan fikr keldi.

– Asirlikda uzoq bo‘lganmisiz?

– Uch oy.

– Xo‘sh, keyin-chi?

– Nima, keyin?

Student professorga, professor studentga qarab turar, ikkalasining ham dili xufton edi.

– O‘tiring, nega tik turibsiz? – dedi professor. – Keyin qochdingizmi?

– Ha. – Student o‘tirdi. Yana biletni qo‘liga oldi- da, unga tikildi. Uning bu yerdan tezroq ketgisi kelardi.

– Qanday qilib qochdingiz? Gapirib bering.

– Kechasi. Etapdan.

– Batafsilroq, – buyurdi professor. – Batafsilroq gapirishni o‘rganing, yigitcha! Axir bu ham kerak. Qanday qochdingiz? Umu-

man, meni bu ishning texnikasi emas, nima desam ekan, psixologik jihati qiziqtiryapti... O‘zingizni qanday his etdingiz? Axir bu... asirga tushish degani yomon kulfat-ku?.. – professor hatto chimirilib qo‘ydi. – Siz qanday tushib qoldingiz? Yaradormidingiz?

– Yo‘q.

Jim qolishdi. O‘rtaga cho‘kkan sukunat bu xil mavzudagi suhbat uchun keragidan xiyol ortiqroq cho‘zildi.

– Bo‘lmasa qanday?..

– Qurshovga tushib qolgandik. Bu juda uzun savdo, professor.

– E-ha, kechirasiz, sizning bu qadar bandligingizni bilmabman!

– Band emasman-u faqat...

– Qo‘rqdingizmi o‘shanda?

– Qo‘rqdim.

– Ha, ha, – professorga bu gap negadir nihoyatda ma’qul tushdi. Papiros tutatarkan: – Siz ham chekavering, – dedi. – To‘g‘ri, auditoriyada... mumkin emas, biroq... mayli, hechqisi yo‘q.

– Chekkim kelmayapti. – Student xiyol kulimsiradi-yu shu zahoti jiddiy tortdi.

– Tug‘ilgan qishlog‘ingizni eslagandirsiz? Oilangizni... Yoshingiz nechada edi?

– O‘n sakkizda.

– Qishlog‘ingizni eslaganmidingiz?

– Men shahardanman.

– Ana xolos! Men bo‘lsam nima uchundir sizni qishloqdan, deb o‘ylabman. Ha...

Jimlik cho‘kdi. Student hanuz mash’um biletga termilib o‘tirar, professor unga tikilgancha kahrabo mushtugini o‘ynardi.

– U yerda o‘zaro nima haqda gaplashardinglar?

– Qayerda? – student boshini ko‘tardi. Unga bu suhbatning malol kelayotgani ochiq-oydin ayon edi.

– Asirlikda.

– Hech narsa to‘g‘risida. Nimaniyam gaplashardik?

– Jin ursin! To‘g‘ri aytasiz, – dedi profsssor hayajonlanib o‘rnidan turarkan; mushtugini u kaftidan- bu kaftiga olib kafedra yonidan o‘tdi. – To‘g‘ri aytasiz. Otingiz nima?

– Nikolay.

– Haqiqatan to‘g‘ri, tushunyapsizmi?

– Nima to‘g‘ri? – Student odob bilan kulimsiradi-da, biletni joyiga qo‘ydi. Suhbat butkul g‘alati yo‘sin kasb etganidan u o‘zini qanday tutishni bilmay qiynalardi.

– Sukut saqlardik, deganingiz to‘g‘ri. Nimani ham gaplashib bo‘lardi! Dushman qo‘lida sukut saqlanadi. Eng oqilona yo‘l shu. Siz hech Kiyevda bo‘lganmisiz?

– Yo‘q.

– U yerda bir tuman bor – Podol deb atashadi. Baland tepalikka chiqib tomosha qilsangiz, ko‘z o‘ngingizda hayratomuz ajib yalanglik ochiladi. Har safar shu tepalikdan pastga boqarkanman, negadir o‘zimni xuddi bu joylarda qachonlardir yurgandek his qilaman. Shu hayotim davomida emas, yo‘q, uzoq-uzoq bir zamonlarda... Tushunyapsizmi?

Professorning yuziga chalkash tuyg‘ular ifodasi qalqidi: u go‘yo sir tutilishi lozim bo‘lgan allaqanday muqaddas bir narsani bexos og‘zidan gullab qo‘ygandek edi. Endi esa birinchidan, bu yigit o‘zini tushunib yetmasligidan cho‘chir, ikkinchidan esa ezgu sirini aytib qo‘nganidan norozi edi. U studentga keskin, sinovchan qiyofada tashvishlangan ko‘yi tikilib turardi.

Student yelkasini qisib, tin oldi:

– Bilasizmi... juda g‘alati, murakkab...

– Yo‘g‘-e! Nimasi murakkab? – Professor yana auditoriya bo‘ylab shitob bilan u yoqdan - bu yoqqa yura boshladi. U o‘zidan qattiq ranjigan, biroq endi boshlab qo‘ygan gapini tugatmay turolmas edi. – Nazarimda, qachonlardir o‘sha joylarda yurgandekman. Bir zamonlarda. Go‘yoki Igor davrida, – dedi u fikrini ravshanlashtirib. – Agar bu gap xayolimga endi kelganida, qarilikka yo‘yish mumkin edi. Biroq yoshlik chog‘larimda ham shu narsaii doim his qilardim. Xo‘sh?

Havoda bir soniya o‘ng‘aysiz sukunat muallaq osilib qolgandek bo‘ldi. Bu ikki kishi bir-biriga tikilgancha ayni damda nimani aniqlab olishlari kerakligini o‘zlari ham anglolmay o‘tirishardi.

– Men tushunmayroq turibman, – deya so‘z boshladi student ohista, – bunga Podolning nima daxli bor?

– Daxli shundaki, sizning sukut saqladik, degan gapingiz menga juda ham to‘g‘ri bo‘lib tuyuldi. Men asirlikda bo‘lmaganman, hatto hech qachon jang ham qilmaganman. Biroq u yerda, Podolda qandaydir tarzda urushga taalluqli barcha narsalarni anglab yetgandim.

Men asirlikda sukut saqlashgan, deb o‘yladim. Tergovlarda emas, shunchaki o‘zaro munosabatda... U yerda men ko‘p narsalarni bildim, tushundim. Masalan, men hamisha qanday qilib soqchini shovqin-suronsiz gumdon qilishgani to‘g‘risida bosh qotirardim. Nazarimda, ularni qo‘rqitish kerak edi.

Student hayratlanib professorga qaradi.

– Ha! Bilintirmay emaklab kelasiz-da, sekingina biror narsani so‘raysiz, masalan, «Marhamat qilib ayting-chi, soat necha bo‘ldi» deysiz. U gangib qoladi. Ana o‘shanda darrov unga tashlanasiz.

Student boshini egib kuldi.

– Ahmoqona gapiryapmanmi? – professor uning ko‘zlariga boqdi.

Student shoshib qoldi.

– Yo‘q, nega... Nazarimda, sizni tushunayotgandekman.

«Aldayapti. Xafa qilgisi yo‘q», angladi professor va achchig‘i keldi. Biroq yana ozroq qo‘shimcha qilishni lozim topdi:

– Bilasizmi, bularni nega gapiryapman: mamlakatimiz juda ko‘p janglar qilgan. Og‘ir janglar. Ular hamisha xalq urushlari va xalq qayg‘usiga aylangan. Urushda bevosita ishtirok etmagan kishi ham bari bir xalqning boshiga tushgan tashvishlar, u kechirayotgan tuyg‘ular bilan yashadi. O‘zingiz tushunasiz, men kitobdan o‘qib olgan gapimni aytayotganim yo‘q. Men buni qalbdan idrok etaman va bunga ishonaman.

Shundan so‘ng xiyla jimib qolishdi. Yana o‘sha eski masalaga: «Igor jangnomasi»ga, studentning bu buyuk asarni o‘qimagani borib turgan sharmandalik ekaniga qaytish lozim edi. Biroq professor oxirgi ikki savolni berishdan o‘zini tutolmadi.

– Yolg‘iz qochganmidingiz?

– Yo‘q, yetti kishi edik.

– Ehtimol, bu ezmachurik chol toza yopishib oldi-ku, deb o‘ylayotgandirsiz-a. Shundaymi?

– Qo‘ying-e! Sirayam bunaqa deb o‘ylayotganim yo‘q. – Student go‘yo chindan ham shunday deb o‘ylayotgandek qip-qizarib ketdi. – Gaplaringiz juda qiziqarli, professor. Rost aytyapman.

Keksa professorning yuragi zirqirab ketdi.

– Yaxshi, soldat! Meni tushungan ekansiz – demak, yaxshi! «Jangnoma»ni esa, albatta, o‘qish kerak. Qayta-qayta... Men sizga bu kitobni sovg‘a qilaman... Yonimda borligini qarang... – professor

portfelidan «Igor jangnomasi»ni oldi, o‘ylanib, studentga qaradi-da, jilmaydi. Kitob muqovasini ochib, shosha-pisha bir nima deb yozdi, so‘ngra unga uzatdi. – Hozir o‘qimang. Uyingizga borib o‘qing. Sezdingizmi, men bu asno qaynatasinikiga borgan lapashang kuyovdan battar dovdirab qoldim-a? – Professorning tovushi ham, qiyofasi ham g‘amgin tusga kirdi. – Shunaqa gaplardan keyin kishiga og‘ir bo‘ladi.

Student bu gapga nima deyishini bilmay yelka qisdi.

– Yettovinglar ham tirik qoldinglarmi?

– Ha.

– Xat-pat yozishib turasizlarmi?

– Yo‘q, bilasizmi, haligi...

– Ha, bilaman, albatta. Azizim, sizga aytsam, bularning barchasi sof rus xususiyatlari. Siz bo‘lsangiz «Jangnoma»ni o‘qigingiz kelmaydi. Axir, bu eng haqiqiy, eng ajoyib rus qo‘shig‘i-ku. «Komoni rjut za Suloyu; zvenit slava v’ Knev; trubyat v’ Novыgradы; stoyat styazi v Putivli». A? – professor, xuddi bu g‘aroyib qo‘shiqning musiqiy ohangiga erib ketayotgandek, barmog‘ini havoga niqtadi.– Daftarchangizni bering. – U bahoni qo‘yib, sinov daftarchasini yopdi-da, studentga qaytararkan, quruqqina qilib: – Xayr, – dedi.

Student auditoriyadan chiqdi. Reza ter bosgan peshonasini artib, bo‘m-bo‘sh koridorga alanglagancha qaqqayib turdi. Daftarchasini qo‘lida ushlab turar, ochib qarashga yuragi dov bermas, «yaxshi» yoki – Xudo ko‘rsatmasin «a’lo» bahoga ko‘zi tushishidan qo‘rqar edi. U qattiq uyalardi.

«Qoniqarli» qo‘ygan bo‘lsa ham mayliydi», deb o‘ylardi u.

Auditoriya eshigiga bir qarab oldi, so‘ng shosha-pisha sinov daftarchasini ochdi... birmuncha vaqt unga garangsib tikilib turdi. Keyin auditoriya eshigiga yana nazar tashladi, asta kuldi-da, yo‘lga tushdi. Daftarchaga «yomon» baho qo‘yilgan edi.

Ko‘chaga chiqqach, kitob esiga tushdi. Muqovani ochgach, yozuvga ko‘zi tushdi: «O‘qi, soldat. Bu ham oson ish emas. Prof. Grigoryev».

Student qayrilib institut derazalariga qaradi va nazarida ularning birida professorning qorasini ko‘rgandek bo‘ldi.

...Professor darhaqiqat, deraza oldida turar, tirnog‘i bilan oynani tiqillatgancha o‘yga tolgan edi.

CHOL, QIZ VA OFTOB

Kunlar oq alanga bilan yonardi. Dov-daraxtlarning tanasi qizib, tuproq qaynab yotar, oyoq ostida qovjirab o‘t-o‘lanlar shitirlar edi.

Faqatgina kechqurunlari salqin tushardi.

Ana shunda tezoqar Katun daryosi sohiliga munkillagan bir chol chiqib kelar, hamisha bir joyga – qo‘porilgan bahaybat ildizga o‘tirgan ko‘yi quyoshni tomosha qilardi.

Oqshom chog‘i quyosh tog‘lar ortiga botarkan, nihoyatda ulkan, qip-qizil bo‘lib ko‘rinar edi.

Chol qimirlamay o‘tirardi. Ajin bosgan qoqsuyak, jigarrang qo‘llari tizzasi ustida yotardi; yoshlanib turuvchi ko‘zlari nursiz. Ingichka bo‘ynida kichkina, oqsoch boshi liqillab turar, ko‘k chit ko‘ylak ostidagi ozg‘in kuraklari turtib chiqqan edi.

Bir kuni chol jimgina o‘tirarkan, yonginasida allakimning:

– Salom, buvajon! – degan tovushini eshitdi. Chol bosh irg‘adi.

Yapasqi jomadon ko‘targan qiz uning yoniga o‘tirdi.

– Dam olyapsizmi?

Qariya tag‘in bosh irg‘adi-da: .

– Dam olyapman, – dedi. Ammo qizga qayrilib qaramadi.

– Portretingizni ishlasak, maylimi? – deb so‘radi qiz.

Chol tushunmadi:

– Nima?

– Rasmingizni chizsam, maylimi?

Qariya bir muddat jim qoldi. Quyoshga tikilgancha tuksiz qoshlarini uchirdi.

– Men chiroyli emasman-ku, – dedi.

– Nega? – qiz bir zum dovdiradi. – Yo‘q, siz chiroylisiz, buva.

– Quruq suyak bo‘lsam...

Qiz cholga uzoq termildi, keyin yumshoq kafti bilan uning cho‘pdek ingichka barmoqlarini siladi va:

– Siz judayam chiroylisiz, buva. Rost, – dedi. Qariya ma’yus kulimsiradi.

– Ha, mayli, chizsang-chiza qol. Qiz jomadonini ochdi.

Chol mushtumiga yo‘talib oldi-da:

– Shaharlik bo‘lsang kerak? – deb so‘radi.

– Ha, shaharlikman.

– Chizgan narsalaringga pul beradimi?

– Umuman, qilgan ishimizga qarashadi. Yaxshi chizsam – to‘lashadi...

– Harakat qilish kerak-da!

– Harakat qilyapman...

Jim qolishdi.

Chol hanuz quyoshga termilib o‘tirardi.

Qiz uning yuziga yon tomondan qarab rasmini chizardi.

– Siz shu yerlikmisiz, buva?

– Shu yerlikman.

– Shu yerda tug‘ilganmisiz?

– Shu yerda, shu yerda.

– Nechaga chiqdingiz?

– Yoshimmi? Saksonda.

– O‘h-ho‘!

– Ha, yoshimni yashab qo‘ydim, – deb tasdiqladi qariya va ohista kulimsiradi. – Sen-chi?

– Yigirma beshga kirdim.

Tag‘in jim qoldilar.

– Quyoshni qara, xo‘p g‘alati-ya! – sekingina xitob qildi chol.

– Nega? – tushunmadi qiz.

– Katta-da.

– Ha-a... Umuman, bu yerlar chiroyli ekan.

– Suvni ko‘rdingmi, qara, huv narigi qirg‘oqni aytyapman...

– Ha, ha...

– Xuddi birov qon qo‘shib yuborgandek.

– Rost, – deb ma’qulladi qiz sohilga qarab. – Shunaqa...

Quyosh Oltoy tog‘larining cho‘qqisiga minib, olisdagi moviy bo‘shliqqa cho‘ka boshladi. U botib borgani sayin tog‘lar yaqqol ko‘zga chalinar, go‘yo yaqinroq kelib qolgandek tuyulardi. Vodiyda, tog‘ bilan daryo oralig‘ida esa g‘ira-shira qizg‘ish yorug‘lik asta-sekin so‘nib borar, tog‘lar etagidan yengil, xayoliy bir qorong‘ilik sharpasi suzib kelardi. Nihoyat, quyosh Qashqa Buburxon cho‘qqisi ortiga o‘tib, butkul g‘oyib bo‘ldi va shu zahoti ko‘m-ko‘k osmon

G‘alati bir jumboq qizni hayratga solib qo‘ydi: nazarida, cholning ko‘zlari ko‘r edi. U qariyaning gaplarini ilg‘ab-ilg‘amay, unga yon tomondan tikilib turardi. Chol esa kun botgan tarafga xotirjam, o‘ychan termilib o‘tirardi.

– Ma, toshingni ol, – dedi u toshni qizga uzatib. – Bundan boshqachalari ham bo‘ladi. Bir xillari bor: oppoq-da, sirtida qandaydir dog‘-dog‘lari bo‘ladi. Bir xillari xuddi tuxumga o‘xshaydi, sira ajratolmaysan. Tag‘in bir xili bor, naq zag‘izg‘onning tuxumi deysan. Chug‘urchuq tuxumiga o‘xshagan olachiporlari ham uchraydi...

Qiz hanuz cholga tikilib turar, ammo: «Siz ko‘rmisiz?» – deb so‘rashga botinolmas edi.

– Siz qayerda yashaysiz, buva? – deb so‘radi u nihoyat.

– Bu yerdan judayam uzoq emas. Mana bu Ivan Kolokolnikovning uyi, – chol qirg‘oqdagi imoratga ishora qildi, – narigisi – Bederyevlarniki, keyin Volokitinlar, keyin Zinovyevlarniki, muyulishdan keyingisi – bizniki. Biror narsa kerak bo‘lsa kirib tur. Nevaralarim borligida xo‘p yaxshi edi-da...

– Rahmat.

– Men boray. Uh, biram etim uvushyapti-ey...

Chol o‘rnidan qo‘zg‘alib, so‘qmoqdan toqqa qarab yo‘l oldi.

Qiz, u muyulishda ko‘zdan yo‘qolguncha orqasidan kuzatib turdi. Chol hech yerda qoqilmay-suqilmay oyog‘ining ostiga qarab sekingina borar edi.

«Yo‘q, ko‘r emas ekan, – deb o‘yladi qiz, – ko‘zi shunchaki xira tortgan bo‘lsa kerak».

Ertasi kuni chol qirg‘oqqa kelmadi. Qiz yolg‘iz o‘zi cholni o‘ylab uzoq o‘tirdi. Cholning shu qadar oddiy, shu qadar odatiy, kamsuqum hayotida ayni vaqtda favqulodda ulkan, benihoya muhim allanarsa borligini teran angladi.

«Mana, quyosh, – deb o‘ylardi qiz. – U ham shunchaki chiqib, shunchaki botadi. Lekin uning chiqishi-yu botishi shunchaki odatiy narsamikin?»

U o‘zi chizgan rasmlarga diqqat bilan razm soldi. Negadir, ko‘nglini g‘am chulg‘adi.

Chol uchinchi kuni ham, to‘rtinchi kuni ham kelmadi.

Qiz uning uyini axtarib ketdi.

Topdi.

Besh devorli hovlisida, burchakdagi tunuka tomli bostirma tagida ellik yoshlar chamasidagi kishi dastgohda qarag‘ay taxtasini randalar edi.

– Salom, – dedi qiz.

Kishi boshini ko‘tarib, unga qaradi, ko‘rsatkich barmog‘i bilan peshonasidagi terni sidirdi, kallasini qimirlatib:

– Salom, – dedi.

– Ayting-chi, bu yerda bir bobo yashaydimi, haligi... Boyagi kishi qizga diqqat bilan g‘alati tikildi. Qiz jimib qoldi.

– Yashardi, – dedi boyagi kishi. – Mana, endi men unga oxirat uchun uy yasayapman.

Qizning og‘zi ochilib qoldi.

– U... o‘ldimi, a?

– Qazo qildi. – Boyagi kishi randasini qattiq shig‘illatdi, yana taxta ustiga egildi, randani bir marta yurg‘izdi-da, qizga qarab:

– Senga nima kerak edi? – deb so‘radi.

– O‘zim... men uning rasmini chizayotgan edim.

– Ha-a... – duradgor yana randasini qattiq shig‘illatdi.

– Ayting-chi, u ko‘rmidi? – deb so‘radi qiz uzoq jimlikdan so‘ng.

– Ko‘r edi.

– Anchadan berimi?

– O‘n yilcha bo‘lgan edi. Nimaydi?

– O‘zim...

Qiz qo‘radan tashqariga chiqdi.

Uy burchagiga yetgach, devorga suyanib yig‘lab yubordi. U cholga achinar, cholning mashaqqatli turmushi to‘g‘risida hikoya qila olmagani uchun ezilar edi.

Ammo shu asno u inson hayoti va jasoratining allaqanday teran va botiniy mazmunini chuqur idrok qildi-da, o‘zi anglab yetmagan holda birmuncha ulg‘ayib qoldi.

ILON ZAHRI

Maksim Volokitinning yotoqxonasiga xat keldi. Onasidan. «Mazam yo‘q, bolam. Bod degan kasofat dardga yo‘liqibman – belim bilan oyog‘imning qaqshab og‘riganiga hech chidayolmayotibman. Qo‘ni-qo‘shnilar ilon zahri surib ko‘ring-chi, deyishyapti. Lekin bu yerda ilon zahri qayoqda! O‘sha yoqdagi dorixonalardan bir so‘rab-surishtirib ko‘rsang, zora topilib qolsa... Kechalari ninaga ag‘anagandek «voyvoylab chiqaman. Jon bolam, Xudo xayringni bersin, bir hafsala qilgin...»

Maksim kaftini peshonasiga tiragancha o‘ylanib qoldi. Onasiga rahmi kelib, yuragi ezildi. Onda-sonda bir enli xat yozishdan nari o‘tmaganini eslab, o‘kindi, onasi oldidagi barcha gunohlarini birdan yaqqol angladi. Keyingi paytlarda onasini kamdan kam eslaydigan, u kechalari tushiga kirmaydigan bo‘lib qolgan edi. Mana, axiri boyaqishning boshiga shu ko‘rgilik tushibdi-da...

«Niyatingga yetdingmi?!» – deya o‘yladi u o‘zidan g‘ijinib.

Bugun yakshanba edi, Maksim darhol qishlik ust-boshini kiyib yaqin-o‘rtadagi dorixonaga otlandi. «Bu ilon zahrining boshqacha oti bordir, bitta-yarimtadan so‘rab-bilib olsam, undirish oson bo‘lармidi...» Ammo yaqin-atrofda biror kimsa yo‘q edi Maksim to‘g‘ri ketaverdi.

Dorixonada odam kam edi. Maksim peshtaxta ortida turgan ko‘hlikkina qizni ko‘rib, unga yuzlandi:

– Sizlarda ilon zahri bormi?

Qiz qandaydir qog‘oz paketchalarni sanayotgan edi, bir daqiqa to‘xtab, hisobdan adashmaslik uchun oxirgi raqamni shivirlab takrorladi-da, Maksimga yalt etib qarab: «yo‘q» dedi, so‘ng yana ishiga tutindi. Maksim biroz kutib turdi, ilon zahri ilmiy tilda nima deyilishini so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, botinolmadi – qiz nihoyatda band edi.

Keyingi dorixonada quyidagicha gap-so‘z bo‘ldi:

– Sizlarda ilon zahri bormi?

– Yo‘q.

– Bo‘p turadimi o‘zi?

– Ba’zan bo‘ladi, lekin...

– Qayerdan topish mumkin, balki bilarsiz?

– Yo‘q, bilmayman.

Dorixonachi – qirq yoshlardagi, qoqsuyak, qirra burun, peshonasi pachoqroq bir ayol edi. Manglayining terisi shu qadar oppoq va yupqa ediki, xuddi suyaklari ko‘rinib turgandek tuyulardi. Maksim, bu xotin: «Yo‘q», «Bilmayman» deyishdan huzur qilsa kerak, deb o‘yladi-da, unga tikilib qoldi.

– Nima? – deb so‘radi ayol.

– Qayerdadir bo‘lishi kerak-ku, axir? Nahotki butun shaharda topilmasa?!

– Bilmayman, – dedi ayol, yana qandaydir g‘alati qoniqish bilan.

Maksim joyidan qo‘zg‘almadi.

– Yana nima kerak? – deb so‘radi xotin. Ular chetroqda turishganidan gaplarini hech kim eshitmasdi.

– Namuncha oriqsiz? – deb so‘radi Maksim to‘satdan. U bunday deb yuborishini ham, nega shunday deganini ham bilmas edi– shunchaki, og‘zidan chiqib ketdi. U ham o‘lgudek yoqimsiz xotin ekan-da.

Ayol kipriklarini pirpiratgancha angrayib qolaverdi. Maksim orqasiga qayrilib, dorixonadan chiqdi.

«Nima qilsam ekan?» – deb o‘ylanib qoldi u.

Bir dorixonadan chiqib boshqasiga kirar, turli xil odamlar «Yo‘q», «Yo‘q» deya bir xilda javob qaytarishar edi.

Navbatdagi dorixonada Maksimning ko‘zi oynavand peshtaxta ortida turgan yigitga tushdi

– Yo‘q, – dedi u ham.

– Menga qara, uning ilmiy oti nima o‘zi? – deb so‘radi Maksim. Yigitcha bir joyda turaverib zerikkan edi, chamasi, o‘zining ham «aqli raso»ligini ko‘rsatib qo‘yish xonasi kelganini bildimi:

– Ilmiy nomimi? – dedi negadir iljayib. – Retseptda nima deb yozilgan? Nima deb yozishgan bo‘lsa, shundoq deb ataladi-da.

– Menda retsept yo‘q-da.

– Unaqa ekan, so‘rab nima qilasiz? Qo‘yib bersa obi hayotni ham so‘rarsiz?

– A... retseptsiz berilmaydimi? – deb past tovush bilan so‘radi Maksim, ich-ichidan titroq bosib kelayotganini sezib.

– Yo‘q, yigitcha, berilmaydi.

Takabburona ohangda aytilgan bu «yigitcha» degan so‘z Maksimni butkul o‘rtab yubordi.

– Xo‘p donishmand ekansanmi! – deya xitob qildi u ohista, – Azza-bazza shu daraja past tushganingga borman!

Tashqariga chiqib, sigareta tutatdi.

Ko‘chaning narigi betida aloqa bo‘limi bor edi. Maksim sigaretini chala-chulpa chekib, aloqa bo‘limiga kirdi-da, onasi telegramma jo‘natdi: «Ilon zahrini yubordim. Maksim».

«Butun shaharni ag‘dar-to‘ntar qilib bo‘lsa hamki, topaman!» – deb o‘yladi u ko‘cha bo‘ylab borarkan. Nazarida, ilon zahri topilsa, onasi shu zahoti tuzalib ketadigandek edi.

Katta bir dorixonaga kirgach, Maksim shaxdam yurib, to‘ladan kelgan, chiroyli ayolga ro‘baro‘ bo‘ldi.

Bu ayol boshqalardan ko‘ra xushmuomalaliroq ko‘rinardi.

– Menga ilon zahri kerak, – dedi Maksim.

– Yo‘q, – deya javob qaytardi ayol.

– Unda boshlig‘ingizni chaqiring. Ayol taajjublanib tikildi.

– Nega?

– O‘zi bilan gaplashmoqchiman.

– Chaqirmayman – foydasi yo‘q. Baribir u ham sizga yordam berolmaydi. Bizda yo‘q bunday dori.

To‘satdan Maksim bu xotinni xafa qilgisi, yuziga tikka qarab, qo‘pol bir gap aytgisi keldi. Aslida, uning toqatini toq qilib, jonini halqumiga keltirgan narsa ilon zahrining topilmayotgani emas, balki odamlarning o‘sha yaramas «yo‘q» degan so‘zni bu qadar yakdillik bilan takrorlashayotgani edi.

– Chaqiring boshliqni! – deya talab qildi Maksim. Va birdan shikoyatomuz yo‘sinda: – Oyim kasal, axir, – dedi-yu o‘zining gap ohangidan o‘zi ham ijirg‘anib ketdi.

Ayol ham rasmiy ohangni yig‘ishtirib gapira boshladi:

– Hozir ilon zahri bizda yo‘q, rost aytyapman. Sizga arinikini berishim mumkin. Onangizning bodi bormi?

– A-ha.

– Ari zahri ola qoling. Ilonniki doim ham asqatavermaydi.

– Mayli, bering. – Maksim endi o‘zining boyagi shikoyat ohangi uchun uyala boshladi. – Buniyam nafi bo‘ladimi?

– Retseptingiz bormi?

– Yo‘q.

– Iya?..

– Xo‘sh?

– Retseptsiz berolmayman, mumkin emas. Maksimning yuragi zirqirab ketdi.

– Bu haligi... zig‘irday retsept-da, a? Mana shuncha qog‘oz-da?..

Ayol beixtiyor kulimsiradi:

– Ha, ha. Retseptni shifokorlar yozib berishadi, biz esa...

– Menga shundoq bervora qoling-da, a? Ertaga sizga retsept olib kelib beraman. Xo‘p, deya qoling, maylimi?

– Yo‘q, yigitcha, mumkin emas, berolmayman. Maksim nima qilarini bilmay, ko‘chada uzoq garangsib turdi. Demak, biror joydan ilon zahrini topgan taqdirida ham, baribir retseptsiz ololmaydi – bu aniq. Demak, avval retsept topish kerak.

Iziga qaytarkan, yo‘lda pochtaga kirib onasiga yana bir telegramma jo‘natdi: «Ari zahriyam bo‘laveradimi? Maksim».

Erasiga soat to‘qqizda ishxonasiga – qurilishga borib, ijozat so‘radi-da, poliklinikaga qarab yo‘l oldi.

Oynavand oq devorda kichkina tuynuk, tuynuk ortida esa oppoq-qina bir qiz ko‘rinardi. U Maksimni xiyla «tergab», qog‘oz to‘ldirdi, keyin navbat raqami yozilgan talon uzatdi. Maksim talonga tikildi: o‘n to‘rtinchi, soat o‘n uch-u o‘ttizga.

– Sal yaqinrog‘i yo‘qmi? Yo‘q.

– Yaxshi qiz, bilasizmi... – Maksim tag‘in o‘sha ayanchli ohangda gapira boshlaganini sezdi, lekin o‘zini tutolmadi. – Yaxshi qiz, menga yaqinroqdan bera qoling? Xo‘p, deng? Menga mana shundoq zarur. Maylimi?

Qiz yigitga qiyo boqmay yana talonlarni tita boshladi. Bittasini olib uzatarkan, shundagina uning yuziga qaradi. Maksimning nazarida qiz kulayotgandek tuyuldi.

«Kulasanmi, kulmaysanmi – endi baribir, jonginam, – deb o‘yladi jo‘shib ketgan Maksim. – Talon qo‘limda-ku!» Uning navbati oltinchi, soat o‘n birga belgilangan edi.

Shifokorning xonasi oldida o‘ntacha bemor o‘tirardi. Maksim chekkadagi keksaroq kishining yonidan joy oldi. Qo‘shnisining ko‘zlarida shunday bir nihoyasiz anduh sharpasi kezar ediki, unga qarab odam beixtiyor: «Baribir hammamiz o‘lib ketamiz», – degan xayolga borardi.

«Boyaqish, ahvoli chatoq-ku», – deb o‘yladi Maksim va tag‘in onasini esladi, betoqat bo‘lib shifokorni kuta boshladi.

Yoshgina shifokor yigit keldi.

Xona eshigi ochilib bir xotin chiqdi:

– Kim birinchi?

Hech kim joyidan turmadi.

– Men, – dedi Maksim va qandaydir bir kuch uni o‘rnidan ko‘tarib, xona tomon olib ketayotganini sezdi.

– Sizning navbatingiz birinchimi? – deb so‘radi boyagi keksaroq kishi.

– Ha, – dedi Maksim keskin ohangda xonaga butunlay sho‘x va o‘zining nazarida, juda epchil yigitcha qiyofasida dadil kirib bordi.

– Nima gap? – deb so‘radi doktor unga qaramay.

– Retsept, – dedi Maksim stulga o‘tirarkan. Doktor, bosh ko‘tarishni istamagandek, negadir xo‘mraydi.

«Kecha xo‘p otgan bo‘lsa kerak», – deya tusmolladi Maksim.

– Qanaqa retsept? – Doktor hanuz allaqanday qog‘ozlarni titkilardi.

– Ilon zahriga.

– Qayeringiz og‘riydi?

– Men emas, onam kasal, bodi bor. Vrachlar unga ilon zahri buyurishgan...

– Xo‘sh?

– Retsept yo‘q. Retsept bo‘lmagandan keyin o‘zingiz bilasiz, hech kim bermaydi. – Maksimning nazarida, go‘yo o‘zi hammasini ma’nili qilib tushuntirayotgandek edi. – Shunga retsept yozib bersangiz, deb keluvdim.

Maksimning nimasidir doktorni qiziqtirib qoldi.

– Onang? Qayerda yashaydi?

– Krasnoyarsk o‘lkasida, qishloqda.

– Xo‘sh, demak, retsept kerak, degin?

– Kerak. – Maksim o‘zini erkin sezar, doktor unga yoqib qolgan edi.

Doktor hamshiraga qaradi:

– Kerak ekan – demak, yozib beramiz-da. Nima dedingiz, Klavdiya Nikolayevna?

– Ha, berish kerak, albatta. Doktor retsept yozib uzatdi.

– Dorixonalarda kam topiladi, – dedi u. – Yigirma yettinchiga borib ko‘rgin. Qayerdaligini bilasanmi? «Priboy» kinoteatrining qarshisida. O‘sha yerda bo‘lishi mumkin.

– Rahmat. – Maksim doktorning qo‘lini qisdi-da, ko‘ngli yorishib, xonadan qanot bog‘lagudek uchib chiqdi.

«Yigirma yettinchida» ham zahar yo‘q ekan. Maksim retseptni berdi-da, nafasini yutib, dorixonachiga tikildi.

– Yo‘q, – dedi aptekachi oq soch boshini chayqab.

– Nega yo‘q bo‘larkan?

– Yo‘q-da.

– Axir, mening retseptim bor-ku... Mana retsept, mana!

– Ko‘rib turibman.

– Qo‘ysangiz-chi, otaxon! – deya ohista o‘kinch bilan so‘radi Maksim. – Menga kerak-da, shu zahar.

– Axir o‘zi bo‘lmasa – men qayerdan olaman? Tushunsangizchi, ilon zahri yo‘q, deyapman-ku.

Maksim ko‘chaga chiqdi, devorga suyangan ko‘yi o‘tkinchilarning yuziga ma’nosiz termila boshladi. Yo‘lovchilar tinimsiz oqib o‘tishardi... Maksim esa hamon ularga termilib turar, lekin ular haqida o‘ylamas edi.

Keyin xayoliga bir fikr kelib shartta joyidan qo‘zg‘aldi-da, shahar markaziga – sirkka qarab yo‘l oldi.

Sirk eshigida qorovul chol uning yo‘lini to‘sdi:

– Qayoqqa?

– Menga Ignat kerak, Baykalov.

– Ular hozir repetitsiyada.

– Nima qipti?

– «Nima qipti»ngiz nimasi?.. Repetitsiya, deyapman-ku! – Qorovulning ichkari yo‘latgisi yo‘q edi.

– E, o‘ting-e, naryoqqa! – Maksim achchiqlanib, cholni beozor surib chetlatdi-da, ichkariga yo‘l oldi.

O‘rtadagi sahndor maydonda devqomat erkak turar, uning yelkasiga bir-biridan go‘zal, qo‘g‘irchoqdek ikkita juvon minib olgan edi.

Maksim tarelkalarni osmonga otib mashq qilayotgan, kishi yoniga yaqinlashdi:

– Baykalovni qayerdan topsam bo‘ladi?

U odam tarelkalarini birma-bir ilib oldi.

– Nima deysiz?

– Shu... Baykalov kerak edi.

– Ikkinchi qavatda u. Nima ishingiz bor edi?

– Shunchaki, o‘zim... U mening hamqishlog‘im bo‘ladi.

– Anavi zinadan tepaga ko‘tarilasiz, – boyagi kishi shunday deb tarelkalarini osmonga irg‘ita boshladi.

Ignatiy vajohati qo‘rqinchli qandaydir mo‘g‘ul bashara odam bilan kurash tushmoqda edi.

– Ignat! – deb chaqirdi Maksim. Ignatiy «mo‘g‘ul»ning yelkasidan tushdi-da:

– Maksim!.. Omonmisan? – dedi yaqinlasharkan. U qora terga tushib ketgan, hansirab turar edi. – Bu yerga qanday kelib qolding? – deb so‘radi u biqinini silab.

– Ezg‘ilab tashlabdi-ku, seni, a?

– Rostdan ham ezg‘ilab tashladi. Ho‘kizdek kuchi bor-u kurash tushishni bilmaydi.

– Nahotki, shuni yiqitolsang?

– Ko‘rsataymi, xohlaysanmi?

– Yo‘g‘-e, kerak emas. Men senga bir ish bilan keldim. Uydan xat oldim – onamning tobi yo‘q ekan. Shunga ilon zahri topish kerak... Butun shaharni tit-pit qilib chiqdim – hech yerda yo‘q. Balki seni tanish-panishing bordir?.. Bironta shifokormi yo...

Ignatiy o‘ylanib qoldi.

– Kim bilsin, jin urgur... hozir bir narsa deyish qiyin. Sal oldin kelganingda-ku... Men ertaga jo‘nab ketyapman-da. Uyga ketyapman.

– Uyga?

– Ha-da!

– Ta’tildami?

– A-ha.

Maksim hamqishlog‘iga hasratomuz hasad bilan tikilib qoldi:

– Yaxshi!

– Men bugun birontasidan surishtirib ko‘raman. Sal oldinroq bo‘lganda-ku...

– Sal oldinroq kerak emasdi-da.

– Bilaman. Xullas, men bugun o‘sha odamdan so‘rab ko‘raman. Lekin aniq va’da qilolmayman, Maksim.

Maksim bosh irg‘adi.

– Mayli, ishingdan qolma. Men yana u yoq-bu yoqqa borarman.

Ignatiy, negadir, birdan o‘ng‘aysizlana boshladi.

– Men kirib gaplashaman, Maksim. Balki, toparman...

– Uyda uzoq bo‘lasanmi?

– Ikki haftacha. Keyin – Gagraga jo‘nayman.

– Onamning oldigayam vaqt topib kirgin... Dorini yuboraman, aytib qo‘y. Maylimi?

– Albatta! Sen ko‘p kuyunaverma, Maksim. Ehtimol, bugun toparmiz.

– Hechqisi yo‘q. Uydagilarga salom ayt. Bormaganingga qancha bo‘ldi?

– Besh yilcha.

– Mengayam ikki yildan oshdi. Hamma narsa o‘zgarib ketgandir-a?..

–Ha.

– Xo‘p, ishdan qolma.

Maksim sirkdan chiqqach, boya yigirma yettinchi dorixonadan qanday qat’iyat bilan kelgan bo‘lsa, yana xuddi shu yo‘sinda o‘sha joyga yo‘l oldi.

Dorixonachi cholga yuzlanib:

– Men boshlig‘ingizning oldiga kiraman, – dedi.

– Marhamat, – dedi chol nazokat bilan. – Huv anavi eshik. O‘zi ham hozir shu yerda.

Maksim boshliq huzuriga kirib bordi.

Boshqaruvchining xonasida hech kim yo‘q edi. Ro‘parada tag‘in bir eshik ko‘rinardi. Maksim uni itargan edi, kimningdir yelkasiga tegdi.

– Hozir, – degan tovush eshitildi eshik ortidan. Maksim stulga cho‘kdi-da, ilon zahrisiz bu yerdan ketmaslikka ahd qildi.

Soqollari top-toza, yaltiratib qirtishlangan, qirq yoshlar chamasidagi, ozoda, pakanagina, mo‘ylovdor, to‘la gavdali kishi kirib keldi.

– Xizmat?

– Mana. – Maksim unga retseptni uzatdi. Yuragi to‘satdan shunday dukurlay boshladiki, hatto ko‘ksi sapchib ketdi.

Boshqaruvchi qo‘lidagi retseptni aylantirib:

– Tushunmadim... – dedi.

– Menga mana shu dori kerak. – Maksim peshonasini tirishtirdi, – yuragi qinidan chiqib ketgudek gursullar edi.

– Bizda u yo‘q.

– Menga esa kerak. Mening onam jon beryapti. – Maksim mijjalari yoshlanganini sezgancha, kiprik qoqmay boshqaruvchiga tikilib turardi.

– Lekin dorining o‘zi bo‘lmasa, men nima qila olardim?

– Menga esa kerak. Men bu yerdan ketmayman, bildingmi! Men senlarning hammalaringni ko‘rgani ko‘zim yo‘q, gazandalar!

Boshqaruvchi kulimsiradi:

– Bu endi ancha jiddiy gapga o‘xshaydi-ku. Nachora, topib berishga to‘g‘ri keladi. – U telefon yoniga o‘tirib, raqam terarkan, Maksimga qiziqsinib qarab qo‘yardi.

Maksim ko‘zlarini artishga ulgurdi-yu derazaga tikildi. U uyalib ketgan, oxirgi gapni bekor aytganini anglab, afsuslanardi.

– Alyo! – dedi boshqaruvchi. – Petrovich? Omonmisan? Ha, bu men. Menga qara, senda... – U tushunib bo‘lmaydigan qandaydir so‘zni aytdi. – Yo‘q?

Maksimning yuragi bir qalqib tushdi.

– Ha, shu... bir yigitchaga kerak ekan-da. Qarab ko‘r-chi... Yaxshi yigit ekan, yordam bergim keldi-da.

Maksim boshqaruvchining yuzidan nigohini uzolmay qoldi. U esa labini beg‘amgina «kuvacha» qilib cho‘chchaytirgan ko‘yi kutib turardi.

– A? Yaxshi, bo‘lmasa, oldingga yuboraman. Aytmoqchi, ishlar qalay? Hmm... Menga qara, sen nima deysan, haligi... A? Qo‘ysangchi? E, yo‘g‘-e?

Mazmunini anglash mushkul allaqanday uzuq-yuluq gap boshlandi: kimdir o‘g‘irlik bilan qo‘lga tushganligimi-yey, kimnidir ishdan olib, endi sud qilishmoqchiligimi-yey... Maksim yerga tikilib turar, yum-yum yig‘layotganini sezar, harchand urinmasin, ko‘z yoshlarini tiyolmas edi.

Shu ikki kun mobaynida benihoya toliqqan edi. U ichida: «Boshqaruvchi yana uzoqroq gaplashsin», – deya Xudoga iltijo etardi –

ehtimol, ungacha ko‘z yoshlari tiyilib qolar... Bo‘lmasa, uyatdan yerga kirib ketmaydimi? Bordi-yu, hozir ko‘zlarini artsa, demak, nojo‘ya xatti-harakat qilishga to‘g‘ri keladi. U holda boshqaruvchi unga qaraydi-yu... yig‘layotganini ko‘radi.

«E, turqing qursin!» – deya so‘kdi u o‘zini. Ayni daqiqada u boshqaruvchini yaxshi ko‘rib qolgan, umrida hech kimni bu qadar yaxshi ko‘rmagandek edi.

Boshqaruvchi trubkani qo‘yib, Maksimga tikildi.

Maksim qovog‘ini soldi, boston pidjagining yengi bilan yuz-ko‘zini siypab, sigareta olish uchun kissasiga qo‘l suqdi. Boshqaruvchi indamadi, bir parcha qog‘ozga nimadir yozib, o‘rnidan turdi... Maksim ham o‘rnidan turdi.

– Mana shu manzilga borib, Vadim Petrovichni so‘raysiz... Ko‘p kuyunavermang, onangiz tuzalib ketadi.

– Rahmat, – dedi Maksim. Tomog‘i bo‘g‘ilib qolganidan, «rahmat»ni yamlab-yulqib aytdi-yu boshini eggancha, hatto boshqaruvchiga qo‘l ham bermay xonadan chiqdi.

«O‘l-e, turqing qursin!» – deb so‘kdi u o‘zini. Shu tobda uyatdan yuzi lovullab ketayotganini sezib turardi.

Ertasi kuni Maksimning oldiga Ignatiy shovqin-suron ko‘tarib, hovliqqancha kelib qoldi. U bilan birga suv sepilgan asfalt ko‘chalar salqini ham xonaga yopirildi.

– Maksim!.. Men ketdim! Mana zahar – topdim! Maksim karavotdan sapchib turdi:

– Qayoqqa?

– Uyga-da! Mana, zahar...

– E, kecha o‘zim ham topuvdim. Bir flakon.

– Mayli, ikkita bo‘lsa, yana yaxshi. Asqatib qolar,

– Sen hozir to‘g‘ri jo‘nab ketasanmi?

– Ha. Xo‘p, omon bo‘l! Onangning oldiga kirib kelaman...

– Shoshma, Ignat, kuzatib qo‘yaman.

– Meni taksi kutyapti...

– Men hozir...

– Bo‘pti, faqat oyog‘ingni qo‘lingga ol-u tezroq qimirla! – deb shang‘illardi Ignatiy. – O‘n besh minut vaqt qoldi. Xotinim vagonda oyog‘i kuygan tovuqdek pitirlab o‘tirgandir.

– Xotining vokzaldami? – dedi Maksim, bir oyoqda hakkalab, shimini kiyishga urinarkan.

– Ha-da!

– Hozir... birpasda. G‘ir etib, magazinga kirib chiqolmaymiz-da, a? Onamga sovg‘a-salom...

– E, nima deyapsan! – fig‘on qildi Ignatiy. – Nima, keyin men temir yo‘lda yayov lo‘killab, xotinimning orqasidan quvamanmi?!

– Xo‘p, xo‘p, mayli.

Yugurib pastga tushdilar. Taksi kutib turardi.

– Og‘ayni, poyezd jo‘nashiga o‘n minut qoldi, – deb iltijo qildi Ignatiy. – Joningni boricha hayda. Haqini uch baravar to‘layman.

Mashina olg‘a intildi.

Ignatiyning xotini vagon eshigi oldida kutib turar, bir yarim minut vaqt qolgan edi.

– Ignatiy, bu qanaqasi... shunaqayam bo‘ladimi axir? – deya erini yig‘lamsirab qarshi oldi u. – Endi jomadonlarni optushmoqchi bo‘lib turuvdim.

– Bo‘ldi, jonim, tamom! – deb xushchaqchaq ohangda g‘o‘ldiradi Ignatiy. – Xo‘p, Maksim, hozircha! Qani jonim, chiqdik vagonga.

Poyezd joyidan qo‘zg‘aldi.

– Omon bo‘l, Maksim!

Maksim vagon ortidan ergasha boshladi.

– Ignat, onamga aytib qo‘y: balki tez orada o‘zim ham borib qolarman. Esingdan chiqmasin, Ignat!

– Yo‘-o‘q! Maksim to‘xtadi.

Poyezd tobora tezligini oshirardi.

Maksim yugurib, Ignatiyning vagoniga yana yetib oldi-da:

– Esingdan chiqmasin, Ignat! – deb qichqirdi.

– Aytama-an!

Maksim esa hamon poyezdning orqasidan termilib turardi.

...Endi perronda deyarli hech kim qolmagan, ammo Maksim hanuz Ignatiy jo‘nab ketgan tomonga qimirlamay tikilib turardi.

YOSH VAGANOVNING IZTIROBLARI

Huquqshunoslik fakultetini yaqinda bitirgan yosh mutaxassis, tuman prokuraturasining yosh xodimi, yosh Georgiy Konstantinovich Vaganov ertalabdan dimog‘i chog‘ bo‘lib ishga keldi. Kecha u xat oldi... u har jihatdan yosh bo‘lmoq tugul ming marta yoshroq bo‘lib, hayotdan umidlari ming karra ko‘proq bo‘lganida ham bunday xat kelishini kutmagan edi. Ularning kursida Mayya Yakutina degan chiroyli, mag‘rur bir qiz bor edi. Vaganov o‘qish davrida ham, undan keyin ham, hozir – xayolan Mayyani loaqal bir martagina ko‘rish orzusida yurganida ham, qachonki shu qizni o‘ylasa allanechuk g‘alati bir qiyos xayolini aslo tark etmasdi: Mayya mohir usta qo‘li bilan yasalgan yog‘och qo‘g‘irchoqqa o‘xshardi. Ammo xuddi mana shu narsa – uning qo‘g‘irchoqqa, chiroyli qo‘g‘irchoqqa o‘xshashligi ma’nosiga tushunib yetish qandaydir mushkul tarzda o‘zga bir fikrni ham yetaklab kelardi: Mayya ayol edi. Karam sho‘rva pishirishga, boshqa hech kimsa in’om etolmaydigan quvonch in’om etishga qodir bo‘lgan ayol edi. Qisqasi, u el qatori ayol, faqat qo‘g‘irchoqdek chiroyli ayol edi. Georgiy Vaganov o‘zining qay ahvolga tushib qolganini idrok qilishga urinar, ammo bu yerda aniqlab o‘tiradigan narsaning o‘zi yo‘q edi: u mana shu Mayya Yakutinani sevib qolgan edi, vassalom. Umuman, ularning kursida bu qizni to‘rtta yigit yaxshi ko‘rardi. Hammasi ikki qo‘lini burniga tiqib qolaverdi – oxirgi kursda o‘qiyotganda Mayya allaqanday fizikka tegib ketdi. Orqavoratdan eshitishlaricha, iste’dodli fizik ekan. Barcha: «Bu chiroyli qiz hisob-kitobini o‘ylab erga tegib oldi», – degan xulosaga keldi. Chiroylilar o‘zi shunaqa ustomon bo‘ladi! Lekin Vaganov Mayyani ayblamadi ham, undan ranjimadi ham. Birinchidan, bunday qilishga aslo haqqi yo‘q edi. Ikkinchidan... xo‘sh, nega endi ayblash kerak ekan? Vaganov Mayya bilan yulduzi to‘g‘ri kelmasligini hamisha

tan olardi. Albatta, odamga alam qiladi. Biroq, nachora, ehtimol, shunday bo‘lganiyam yaxshidir. Agar taqdir bitib Mayya bilan qovushganida bormi, u paytda qismatning bu hadyasini bo‘yniga ilgan ko‘yi tubanlikka cho‘kib ketishi ham hech gap emasdi. Negaki, unda hamma narsaga moslashishga, amal-taqal qilib shaharda qolishga, kichik bir ipirsqi amaldor bo‘lib, o‘ralashib yurishga majbur bo‘lar edi. Shu xotinga ipsiz bog‘lanib, atrofida itdek jilpanglab, «yot!» – desa yotib, «tur!» – desa turib yurarmidi... Boshingga ne tushsa qazodan kelar, deganlaridek, taqdiri qo‘shilmagani yaxshi bo‘ldi. Vaganov Mayyaga ikki dunyoda yetisholmasligiga aniq ishonganidan keyin shunday deb o‘zini yupatishga urindi. Shunday qilib, yupandi ham. To‘g‘rirog‘i, taskin topdim, uni unutib yubordim, deb yurgan edi. Aslida esa hayotda bunaqa emas ekan. Kecha Mayyadan xat olganida avvaliga ko‘zlariga ishonmay qoldi. Yo‘q, xat Mayyadan ekani shubhasiz edi. Yuragi shu qadar gursullab ura boshladiki, hatto: «Odam mana shunaqa paytda hushdan ketsa kerak-da», – deb ham o‘yladi. U bundan qo‘rqqani yo‘q. Faqat ijara uydagi o‘z xonasiga kirib ketdi. Vaganov yurakni to‘lqinlantiruvchi allanechuk shirin orziqish bilan xatni o‘qidi, silab-siypaladi. Faqat o‘pmadi, xolos. Avvaliga o‘pib olgisi ham keldi-yu, o‘zidan uyaldi. Vaganov qishloqda, qattiqchilik ko‘rib o‘sgan, otasining fe’li ma’lum, onasi esa sira ro‘zg‘or tashvishidan ortmas, uni deyarli biron marta erkalatishmagan edi. Shuning uchun ham bu qabildagi erkaliklardan uyalar, ayniqsa, o‘pishishdan istihola qilar edi.

Mayya o‘zining oilaviy hayoti «darz» ketganini, endi butunlay erkin ekanligini, ta’tilida mamlakatning u yoq-bu yog‘ini ko‘rib, «bir shamollab» kelish niyatidaligini yozibdi. Shu bois undan maslahat so‘rabdi. «Azizim Jora, eski qadrdonligimiz haqqi, iloji bo‘lsa, bekatga chiqib, meni kutib olsang, senikida biron haftagina turishimga ruxsat etsang. Men o‘sha tomonlarga borishni ko‘pdan buyon orzu qilib yurardim. Maylimi?» So‘ngra u keyingi paytlarda o‘z turmushi va atrofdagi hayotni yaxshilab o‘ylaganini, ko‘p narsani tushunganini, masalan, Jorka nima uchun o‘qishga ixlos qo‘yganiyu shundoq chekka joyga ishga yuborishganida quloq qoqmay rozi bo‘lganining sababini anglab yetganini aytibdi. «Eh-e, azizim, juda oshirib yubording-ku, – deb o‘yladi yosh Vaganov mamnuniyat bilan. – Shoshma, axir, jo‘jani kuzda sanaydilar-da».

Yosh Vaganov xatni portfeliga solib, ishga keldi. Ilojini topsa, ishxonada, bo‘lmasa, kechqurun uyga qaytgach; Mayyaga javob yozishni mo‘ljallab qo‘ydi. U xatni qanday qilib, sodda, oliyjanob, bama’ni yo‘sinda yozishni o‘ylar, shunga mos so‘z va iboralar izlar edi. Ba’zan munosib so‘zlarni topgandek bo‘lar, lekin zum o‘tmay ularni xayolan rad etar, yana yangilarini axtarishga tushar edi... Yuragi esa orziqib-orziqib ketardi. «Nahotki, u meniki bo‘lsa? Axir mamlakatni aylanishga otlanganini aytib, suyunchi olish uchun yozmagandir, bu xatni! Mamlakatni aylanib... boshiga uradimi?..»

O‘z qismatidagi mana shu hayajonli muammoni hal etishga ahd qilgan Vaganov xonasiga kirdi. Bir-ikki varaq qog‘oz olib, xat yozishga shaylandi. Ammo shu payt xona eshigi sekin, g‘ashga tegib g‘ijirladi-da, qiya ochildi. Sochi qirtishlab olingan bir kishi ichkari bosh suqdi. Vaganov boya kirib kelayotganida yo‘lakdagi divanda o‘tirgan bu kishiga razm solib o‘tgan edi.

– Kirsam maylimi?

Vaganov bir zum taraddudlanib qoldi. Ensasi qotganini yashirmay:

– Kiring, – dedi.

– Salom, – Ellik yoshlar chamasidagi baland bo‘yli, tarashadek qotma bu odam uzun, mehnatkash qo‘llarini qayerga yashirishni bilmay o‘ng‘aysizlanayotganga o‘xshardi.

– O‘tiring, – deb buyurdi Vaganov va stol ustidagi qog‘ozlarni bir chekkaga surib qo‘ydi.

– Men manavi... manavi xarakteristikani opkeluvdim, – dedi novcha kishi. Qo‘llarini ishlatishga yumush topganidan quvongandek kuymanib pidjagining ich cho‘ntagidan qog‘oz chiqardi.

– Qanaqa xarakteristika?

– Xotinim to‘g‘risida. Ular mening ustimdan ish qo‘zg‘ashgan ekan... Men tushuntirmoqchi bo‘lib...

– Siz Popovmisiz?

– Ha.

– Nimani tushuntirasiz? Yaxshisi nega mushtlashganingizni tushuntiring. Nega xotiningiz bilan qo‘shningizni do‘pposlaganingizni tushuntiring. Xarakteristika nimasi!

Popov «xarakteristika»ni allaqachon cho‘ntagidan olib ulgurgan, xona o‘rtasida qaqqayib qolgan edi. U bir paytlar juda chiroyli bo‘lganligi yaqqol ko‘rinib turardi. Hali ham husnini yo‘qotmagan.

yonoq suyaklari sal turtib chiqqan, qush burun, peshonasi keng, ajinsiz, ko‘zlari halol, dangal boqadi. Ancha horg‘in ko‘rinadi, albatta, kecha qittak otgan bo‘lsa kerak. Ertalab turib nari-beri soqol olgan, shosha-pisha yuzini chaygan-u kelavergan... Esiz odam!

– Qani, bering-chi, xarakteristikani.

Popov daftar varag‘iga yozilgan ikki bet qog‘ozni uzatdi-da, stoldan nari chekinib, xona o‘rtasida kutib turdi. Vaganov aji-buji satrlarga ko‘z yugurtirdi... U oddiy odamlarning shikoyatlari-yu tushuntirish xatlarini o‘qib maza qiladigan xodimlar xilidan emasdi. Buni odat qilganlarni yaxshi ham ko‘rmasdi. Bunaqa odamlar axir nimani o‘ylashsa, shuni yozishadi. Silliqqina qilib yolg‘on-yashiqni do‘ndiradigan pastkashlar emas bular. Nima bo‘lganda ham tubanlikdan yuqori turishadi. Vaganov xatni oxirigacha o‘qib chiqdi.

– Popov... Bu xatingiz yordam bermaydi sizga.

– Nimaga endi?

– Shundan-da. Mana bu yerda xotinim undoq-bundoq, yomon deb yozibsiz. Boringki, men sizga ishondim, deylik. Xo‘sh, nima bo‘pti?

– «Nima bo‘ptingiz» nimasi? – Popov hayron bo‘ldi. – Axir, u meni jo‘rttaga qamatdi-ku! O‘n besh sutkaga jo‘rttaga qamatdi. Meni qamatti-da, o‘zi anavi bilan... Bilaman-ku! Kolka Korolev menga hammasini aytib berdi-ku! Kolka aytmaganda ham, o‘zim sezaman... Xotinimning o‘ziyam aytgan.

– Nima degan?

– Aytgan! – deb qichqirdi Popov soddadillik bilan. – «Seni qamoqqa tiqib qo‘yaman-da, o‘zim Mishka bilan davron suraman», – degan.

– Yo‘g‘-e! Shunaqa deb aytganmi?

– Hamma gap shunda-da! – Popov yana qichqirib yubordi. Endi rasmiy savol-javob emas, oddiy, ochiqchasiga suhbat boshlanganini his qildi-da, bahuzur o‘tirib oldi. – Aytadiki, «Seni qamataman-da, qasdma-qasdlikka Mishka bilan o‘ynashaman», – deydi.

– «Qasdma-qasdlikka», deb o‘z og‘zi bilan aytdimi?

– Unaqa degani yo‘q. Lekin men uni bilaman-ku! Mishasini ham yaxshi bilaman. Hech qachon haromdan tap tortmaydi. Mana bu yerda nimaiki yozgan bo‘lsam – boshim bilan javob beraman. O‘sha it bilan o‘ynashgan, qanjiq! Meni qamatib, ertasigayoq... Kolka Korolev ham bir marta ustiga kelib qolibdi...

– Men tushunolmay qoldim... – Yosh Vaganov chindan ham nima qilarini bilmas edi. Ro‘parasida o‘tirgan bu odam haqiqatni, achchiq haqiqatni gapiryapti. – Bunaqa ekan, ajrashib qo‘ya qoling?

– Ajrashib qayoqqa borardim? Sud uyumni unga olib beradi. Olmasdan qo‘ymaydi. Buning ustiga... Bolalarim yosh hali. Achinaman.

– Nechta bolangiz bor?

– Uchta. Kenjasi endi yettiga chiqdi. Jonimdan yaxshi ko‘raman. Bolalardan ayriliqqa chidolmayman. Aroqxo‘r bo‘lib qolaman.

– Qiziq ekansiz! – dedi Vaganov achchiqlanib. – Duduq odamga o‘xshab, hadeb bir gapni qaytaraverasizmi?.. «Chidolmayman, aroqxo‘r bo‘p qolaman», emish. Bo‘lmasa, nima qilmoqchisiz? Tasavvur qilingki, siz boshliqlarning oldiga shikoyat bilan emas, bir o‘rtog‘ingizning oldiga keldingiz. Tasavvur qilingki, men sizning do‘stingizman. Lekin sizga nima deb maslahat berishga o‘zim ham hayronman... Yana shu xotin bilan turmoqchi ekansan – bilganingni qil. Bo‘lmasa...

– Turaman, – dedi Popov qat’iy ohangda. – Ming la’nat! Bir-ikki marta dumini likillatgan bo‘lsa – sadqayisar. Lekin ikkinchi bunday qilmasin. O‘zimdan ham o‘tgan. Ba’zan to‘polon ko‘taraman, ko‘p ham erkalatavermayman... Balki vaqtida silab-siypalaganimda unchalikka bormasmidi...

– Unaqa bo‘lsa, birga turaver-da.

– «Turaver emish...» Ular meni qamatmoqchi-ku. Qamatadi ham. Guvohlari bor. Tibbiyot ekspertizasimi-yey, nima balolarni tayyorlab qo‘yishibdi... Uch yilni yopishtirishmoqchi.

– Men nima qilay? Nima deysan, axir?

– Shu ish bosdi-bosdi qilinsa...

– Xarakteristikaning nima keragi bor?

– Ular shuncha qog‘oz to‘ldirganida men ham yozdim-da. Ular ham o‘zining kimligini bilib qo‘yishsin. Balki, ishimni yopishar. Hammasiga o‘zlari aybdor-ku. Meni qamatib qo‘yib, o‘zlari... Yoqmay o‘lsin! Shunaqa xotinni maraz demay bo‘ladimi!

– Qaltisroq tushirganmiding?

– Qayoqda! Qo‘lim tegmasdan dod solib, boshiga odam yig‘di.

– Shu ishni urmasdan bitirib qo‘ya qolsang o‘larmiding?

Popov aybdor qiyofada boshini quyi soldi. Kattakon jigarrang kaftlari bilan tizzasini siladi.

– Chidolmadim...

– Yana «Chidolmadim», deydi-ya. Sendaqa chidamsizdan o‘rgildim! – Vaganov o‘rnidan turib, u yoqdan - bu yoqqa yura boshladi. Shu tobda bu odamdan achchiqlanar, ayni paytda unga achinar edi. Yo‘q, bu odam birovning rahmini keltirishga urinadiganlardan emasligini Vaganov sezib turardi. U o‘zining qisqagina ish tajribasi mobaynida o‘zgalarning rahmini keltirishga ustomonlik bilan urinadigan kimsalarni yaxshi ajratadigan bo‘lib qolgan edi. – Agar to‘g‘rilikcha ajralishga berganingda hammasini tartib bilan ko‘rib chiqish mumkin edi. Ehtimol, xotiningni... Mayli, nima foydasi bor endi.

– Rost, nima keragi bor, – dedi Popov uning gapini ma’qullab. Anchagacha jim qoldilar. «Nima qildim edi? – deb o‘yladi Vaganov.– Qamab qo‘yishadi bu ovsarni! Ishni har qanaqasiga aylantirganda ham baribir aybdor bo‘lib chiqaveradi. Esiz odam!»

– Qanday uylangan edingiz?

– Qanaqa qilib bo‘lardi, odatdagiday... Men urushdan keldim. U selpoda do‘konchi bo‘lib ishlarkan. Shu... Taqdir ekan. Men uni avval ham bilardim.

– Shu yerlikmisiz?

– Shu yerlikman. Faqat bu yerda hech kimim yo‘q. Ota-onam urushgacha o‘lib ketishgan. Is tegib o‘lishgan. Ikkita akam bor edi. Ikkovi ham urushda o‘ldi. Yana ikkita xolam ham o‘lib ketgan. Jiyanlarim bo‘lardi. Allaqaysi shaharlarda turishadi, qayerdaligini bilmayman ham.

– Xotiningiz qayerda hozir?

Popov tergovchiga savol nazari bilan qaradi:

– Qayerda ishlaydi, demoqchimisiz? Selpoda-da,

– Hozir ishdami?

– Ishda.

– Xarakteristika yozgin, deb kim o‘rgatdi senga?

– Hech kim. O‘zim yozdim. Bir-ikkita og‘aynilarim aytishdi. «Xotining sening ustingdan shikoyat yozgan bo‘lsa, sen ham qog‘ozlarni tayyorlab qo‘y», – deyishdi. O‘ylab-o‘ylab nima yozishni bilmadim. Keyin mana shuni yozdim.

– Bo‘pti, menda qolsin. Ketaver. Xotining bilan gaplashib ko‘raman.

Popov o‘rnidan turdi... Yana biron nima so‘ramoqchimi, gapirmoqchimi bo‘ldi-yu, indamadi... Vaganovga bir qaradi-da, itoatkorlik bilan bosh silkitib, sekin chiqib ketdi.

Vaganov yolg‘iz qolgach, eshikka tikilgancha uzoq turdi. Keyin stol yoniga o‘tirdi. Xat yozishga tayyorlab qo‘ygan qog‘oziga qaradi, so‘ng:

– Xo‘sh, Mayya? Nima qilamiz? – deb so‘radi. Yuragi yana orziqib ketishini, qalbida iliq bir tuyg‘u tag‘in jo‘sh urishini kutdi. Lekin nima uchundir endi qalbida o‘sha iliq tuyg‘u uyg‘onmadi. – Ming la’nat! – dedi Vaganov ijirg‘anib. Keyin o‘zicha «kechqurun yozarman», deb o‘ylab qo‘ydi.

Prokuratura farroshi selpoga – Popovaning oldiga borib keldi. Selpo shundaygina qo‘shni binoda edi.

Vaganov ungacha Popov qoralagan «qog‘ozlarni» ko‘zdan kechirib chiqdi. Ha, bu qog‘ozlarni tayyorlaganlar qanday qilib bo‘lmasin, uni qamatishni mo‘ljallashgani yaqqol ko‘rinib turardi. Tag‘in bular shu qadar qonunga moslab, shu qadar savodxonlik bilan yozilganini aytmaysizmi? Hatto maxsus xattot ham topishibdi. Vaganov Popov yozgan «xarakteristikani ham yana bir marta o‘qib chiqdi. Kulgili va alamli insoniy hujjat... Aslida bu «xarakteristika» emas, ro‘y bergan hodisani halol tasvirlab yozilgan xat edi. «O‘n besh sutka o‘tirib, sochimni oldirib qaytsam, u xuddi ilondek to‘lg‘anib par to‘shakda yotibdi. «Xo‘sh, dedim, mensiz nima... larni yeding?!» – dedim. Vajohatim yomonligini ko‘rib ayyuhannos sola boshladi. Men: «Ovozingni o‘chir!» – deb solib qoldim. U bo‘lsa qochib qarindoshlarinikiga emas, to‘ppa-to‘g‘ri Mishkanikiga yugura ketdi. Shundan keyin jinim qo‘zidi-yu chidolmay qoldim...»

* * *

Yoshi qirqlarga borgan ko‘hlikkina juvon Popova sotuvchilarga xos betakalluflik bilan dadil kirib keldi-yu, qonunni ipidan ignasigacha bilishini, u o‘zining tarafida ekanini his qilishini namoyish etdi-qo‘ydi:

– Buni qarang, o‘rtoq Vaganov, hech kun bermaydi. Ichdi deguncha bezorilik qiladi. Allaqanaqa Mishkadan rashk qilib janjal ko‘targani ko‘targan. Ahmoq!

– Ha, ha... – Vaganov bu shaddod ayolning so‘z ohangiga xos betakalluflik bilan gap boshladi. – Yaramasni qarang! Bilmaydi-da,

hozir bunday narsalar uchun qonun qanday jazo berishini bilmaydi-da! Bilsayam unutib yuborgan, ahmoq.

– E, dunyodagi hamma narsani unutib yuborgan bu! Mayli, ziyoni yo‘q. Hali shunday aqlini yig‘ib olsinki! Uch yil o‘tirib chiqsin, esi joyiga kelib qoladi!

– Shunday deysiz-u bolalar bor-da... Otasiz qiynalib qolishmasmikan?

– Nima qipti? Bolalarning esi kirib qoldi. Bunaqa otaning boridan yo‘g‘i...

– Doim shunaqamidi?

– Qanaqa?

– Bezori, urishqoqmidi, deyman-da.

– Yo‘q, ilgari ichardi-yu, bunchalik emasdi. Endi Mixayloga rashk qilib, quturib ketdi. Bulturdan boshlandi. Yana dag‘dag‘asini aytmaysizmi? Nuqul dag‘dag‘a ko‘taradi, Georgiy Konstantinich, «Ikkovingni tikka so‘yaman», – deydi.

– Shunday deng. Mixayloning o‘zi qanaqa odam?

– Yo Xudo, qo‘shniz-da! Bultur ko‘chib kelgan... Selpoda shofyor bo‘lib ishlaydi.

– Nima, u so‘qqaboshmi?

– Yo‘q, bu yoqqa ko‘chishga ko‘chishgan-u, u yoqdagi uylarini sotishmagan-da. Bu joylar xotiniga yoqmaydi. Mixayloga bo‘lsa yoqib qolgan. Mixaylo baliq ovlashni yaxshi ko‘radi. Bizda nima ko‘p – baliq ko‘p. Shuning uchun xotini u yoqdagi uyda, o‘zi bu yoqdagi uyda turadi. U yerda ham, bu yerda ham tomorqalari bor... Xotini kelib-ketib turadi. Tomorqadan ajralib qolishga ko‘zlari qiymaydi.

– Xo‘sh... – Vaganov Popovning haqli ekanligiga tamoman ishondi. Bu xotin begona yaloqdan tap tortadiganlardan emasligi aniq. Tag‘in bu ishni uyalmay-netmay surbetlarcha qilyapti. – Eringiz mana bu yerda bunday deb yozibdi: siz unga aytibsizki, «Seni qamatib qo‘yaman-da, o‘zim Mishka bilan davr-davron suraman», – debsiz. – Bu gap garchi «xarakteristika»da bo‘lmasa ham Vaganov Popovning gapini eslab, atay qo‘shib qo‘ydi. Uni xuddi o‘qib berayotgandek ohangda aytdi. – Shunaqa gap bo‘luvdimi?

– Shunaqa deb yozibdimi? Xuddi shunaqa deb yozibdimi-a?! – Popova jahl bilan qichqirib yubordi. – Voy, tusingni yel yegur, surbet! Qarang-a! – U asabiy kulib qo‘ydi. – Topgan gapini qarang!

– Tuhmatmi?

– Tuhmat!

«Ha, bu jodugar o‘ziga ishonadi! – deb o‘yladi Vaganov endi g‘azablanib. – Yo‘q, bir erkakni senlarning qo‘lingga berib bekorga xor qildirib qo‘ymayman».

– Demak, qamalsin deysiz?

– Qamash kerak, Georgiy Konstantinich, boshqa iloj yo‘q. Qamalsin.

– Achinmaysizmi? – Bu gap Vaganovning og‘zidan beixtiyor chiqib ketdi. Popova birdan hushyor tortdi... Yosh tergovchiga savol nazari bilan qaradi-da, g‘amzakor jilmayib qo‘ydi.

– Qaysi ma’noda?

– Yo‘q, shunchaki o‘zim, – dedi Vaganov gapni burib. – Bo‘pti, boravering. – U ayolga diqqat bilan tikilib turardi.

Popova «xo‘p», deya o‘rnidan turdi, eshik oldiga bordi-da, tashvishli qiyofada burilib qaradi... Vaganov hamon unga qattiq tikilib turardi.

– Bir narsani so‘rash esimdan chiqibdi: nima uchun bolalaringiz bunaqa kech tug‘ilgan?

Ayol butunlay esankirab qoldi. Yo‘q, tergovchining savolidan emas, uning gap ohangi, ko‘z qarashlari birdaniga o‘zgarib ketganidan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi... U dovdirab, yana stol yoniga qaytib keldi. Hozir o‘zi turib ketgan stulga qaytib o‘tirdi.

– Hadeganda homilador bo‘lavermadim, – dedi u. – Hayronman, hech homilador bo‘lmadim. Keyin birdan bo‘yimda bo‘lib qoldi. Nimaydi?

– Hech nima, chiqing, – dedi Vaganov. Keyin Popov haqidagi «qog‘oz»larni kafti bilan bosib: – Hammasini... – u «Hammasini» degan so‘zni alohida ta’kidladi, – hammasini yaxshilab tekshiramiz. Ehtimol, ko‘rgazmali sud qilarmiz. Ammo qattiq jazo ko‘ramiz. Kim aybdor bo‘lsa, o‘shani jazolaymiz. Xayr.

Ayol eshik tomon yurdi... Kirib kelayotganida juda dadil edi. Ammo chiqib ketishda ancha ingichka tortib qoldi.

– Ha, – tergovchi to‘satdan bir gap esiga tushgandek, Popovani to‘xtatdi. – Anavi... – U Popov haqidagi «qog‘oz»larni titkilab, nimanidir eslagan bo‘ldi. – Anavi Nikolay Korolev kim?

– Xudo olsin! – Ayol eshik oldida turgancha xitob qildi. – Korolevmi? Erimning ulfati-da, kim bo‘lar-di! O‘shaning gapiga kim ishonardi. – Ayol butunlay dovdirab qoldi, hatto tovushi titrab ketdi.

– Nima, Korolev aroqchi sifatida ro‘yxatda turadimi?

Ayol yana stol yoniga qaytib, Korolev haqida batafsil gapirib bermoqchi bo‘ldi. Chamasi, bu narsa o‘zining hujumga o‘tishida qo‘l kelishini yaxshi bilardi.

– Bizning joylarda bunaqalarni birov ro‘yxatga olarmidi, o‘rtoq Vaganov! Erimning hamshisha ulfati, urushda birga bo‘lishgan.

– Bo‘pti, boravering. Hammasini tekshirib ko‘ramiz.

Vaganov stol ustida yotgan, xat yozishga mo‘ljallangan oq qog‘ozlarga tikilgancha o‘yga toldi. Mayya... Olislarda qolgan ism, bahor ismi, go‘zallik ismi... Mana endi, chiroyli, yurakni to‘lqinlantiradigan so‘zlarni birma-bir tizib maktub bitaversa bo‘ladi. Ertalabdan buyon ko‘ngli orziqadi: mana, hozir o‘tiradi-yu, xat yozishga kirishadi... Xuddi kamondan mayin patli o‘qni ohista uzgandek go‘zal so‘zlarni ipga tergancha tinimsiz yo‘llayveradi, olis-olislarda yurgan Mayyaning ko‘rkam, fusunkor qomatini nishonga olib, yurak so‘zlarini o‘q-yoy yanglig‘ yo‘llayveradi. Shu qadar ko‘p yo‘llaydiki, oqibat Mayya bu muqarrar muhabbatdan larzaga tushib, faryod chekadi. «Uning yog‘och qalbini muhabbat o‘qi teshib o‘tadi», deb o‘yladi Vaganov. Yuragining shunday nozik joyini topadiki, Mayya uni hech qanday manfaat-tamasiz, chinakamiga sevib qoladi. U ertalabdan buyon shunday deb o‘ylayotgan edi. Hozir esa xayoliga tuyqusdan sodda va aniq bir fikr keldi: «U shunga qodirmikan? Beg‘araz seva olarmikan?» Agar xotirjam hushyor o‘ylab qaraladigan bo‘lsa, xuddi shunday xotirjam va hushyorlik bilan: «Qaydam», deb javob berish lozim. U bunday tarbiya topmagan, bunday sharoitda o‘smagan, bu xil hayotga ko‘nikmagan. Umuman, beilin-u beg‘araz ko‘ngil qo‘yishi mushkul, vassalom. Axir o‘sha talantli fizik bilan bo‘lgan savdo... Kim bilsin, nima bo‘lsa bo‘lgandir, albatta! Ochig‘i, bor gapni: fizikni ham, ularning aloqasi qanday boshlangani-yu nima bilan tugaganini ham ipidan ignasigacha bilib olish qiyin emas. «E-e,– deb o‘yladi Vaganov o‘zidan ijirg‘anib. – Nima balo, talmovsirab qolding? Xo‘sh, nima bo‘pti o‘zi? Nima qipti, yana bir omadsiz, bema’ni hayotiy voqeaga duch kelding, xolos. Xo‘sh, shunga osmon uzilib yerga tushibdimi? Bunaqa odamlar ozmi? Hali

yana qanchasini ko‘rarkinsan? Hammaning taqdirini o‘zingnikiga qiyos qilaversang, oqibati nima bo‘ladi? Nega endi – bu qanday bo‘lmag‘urlik! – o‘zining batamom himoyasiz ekaninigina his etayotgan bir erkag-u eridan farqli o‘laroq, o‘zining qonun himoyasida ekanini to‘la tushunib olgan uyatsiz, surbet ayolning qismati seni buncha tashvishga soladi? Nima uchun ular nojo‘ya turmushi bilan sening hayotingni, o‘zing o‘ylagandek, istagandek bo‘lay deb turgan hayotingni buzishi kerak ekan?» U shunday deb o‘ylardi-yu, baribir er-xotin Popovlar mojarosidan so‘ng olisdagi Mayyani muhabbat «o‘qiga» tutish fikridan butunlay qaytgan edi. Ertalabki xushvaqtligi, hayajonlari birdan xira tortdi. Derazaga nogoh tosh otilganda uyda o‘tirganlar to‘satdan cho‘chib tushgandek, uning qalbida ham nimadir titrab-portlab, larzaga keldi. «Kechqurun yozarman, – degan qarorga keldi Vaganov. – Haliyam yosh ekanman, shekilli, ish bilan shaxsiy kayfiyatni aralashtirib o‘tirish – ahmoqlik-ku! Bu ikki tushunchaning chegarasini aniqlab olishim kerak – shunda oson ko‘chadi».

Kechqurun Vaganov xonasiga kirib, eshikni ichidan bekitib oldi. Radioni o‘chirib, xat yozishga tutindi. Lekin aybdor qiyofada bo‘ynini qisib turgan Popov bilan uning shaddod xotini ko‘z o‘ngidan ketmas, xuddi yomon tushdek harchand nari haydasa ham xayolidan o‘chmas edi. Nima balo, esdan og‘ib qolyaptimi? Vaganov o‘zini o‘zi koyir, iloji boricha sovuqqon, mantiqli fikrlashga urinardi. Yo‘q! Baribir er-xotin uning ko‘z o‘ngidan nari ketmay turaverdi. Garchand Vaganov Popovlarni aslo unutolmasa ham xayollarini chalkashtirib yuborgan narsa ularning o‘zi emas, qilg‘iliklari edi. «Bo‘pti, – dedi nihoyat Vaganov o‘zidan achchiqlanib. – Agar qo‘rqoq bo‘lsang, qo‘rqoqman deb bo‘yningga olib qo‘ya qol. Axir aslida Popova yuragingning bir chekkasida yashirinib yotgan fikrni: «Mayya ham xuddi shunday malakali maishatparast-da», degan o‘yni uyg‘otdi-ku. Mayya ham xuddi Popovaga o‘xshash xudbin xotin. Farqi shundaki, Popova o‘zining iflos qilmishini oddiygina to‘porilik bilan bajarsa, Mayya bu ishni yashirincha, makkorona amalga oshiradi. Lekin bunisi yana ham yomonroq, u odamni ming azobga solib o‘ldiradi. Aslida, sen shu xavfni hozirgina payqab o‘tiribsan. Bas, shundoq ekan, «Xotinlarning hammasi bir go‘r!» – degin-da, xat yozib o‘tirmasdan, orani uzil-kesil ochiq qilib, umr bo‘yi qo‘rqoqligingcha qolaver – shunda xatardan uzoq bo‘lasan. Tushundingmi, idora chuvalchangi!»

Vaganov stol oldida qimir etmay uzoq o‘tirdi... U astoydil iztirob chekardi. Qog‘ozni oldinroqqa surib yana ancha o‘tirdi... Yo‘q, xat yozishga qo‘li bormas, ko‘ngli sira chopmas edi. Yuragini allaqanday shubha kemirar, lekin bu tentaklik emas, ehtimol, tug‘ma qo‘rqoqlik edi. U biron kor-hol ro‘y berishidan cho‘chirdi. Agar jiddiyroq o‘ylab ko‘rib, indallosini aytadigan bo‘lsa, ko‘nglini kemirayotgan ham xuddi shu narsa edi, «Plebey[1], huquqsiz fuqaro! Qani, sen ham inson bo‘lib biron marta xato qilib ko‘r. Nima qipti! Hayotida burilish yasamoqchi bo‘lgan odam «ehtimol shart», deb o‘rmalab yurmaydi-ku! Dunyoga sal ko‘zingni ochib qarasang-chi, qildan qiyiq axtarib hadiksirayvermasang-chi! Axir bu maydakashlik, munofiqlik emasmi?! Bunaqada yashab bo‘ladimi? Kel, birodar, yozamiz, xat yozamiz. Albatta, ishq-muhabbatdan doston yozib o‘tirmasdan, olisdagi Mayyaga sevgi nayzalarini otmasdan, shunday deb yoza qolamiz: «Kelaver, yaxshi bo‘lsang – oshingni yeysan», – deymiz. Qani, boshladik.

Ertalab soat to‘rtlarga yaqin Vaganov uzundan uzoq xatini yozib tugatdi. Kun yorishib kelar, ochiq derazadan iyun tongining salqin nafasi ufurib turardi. Vaganov deraza kesakisiga suyanib sigareta chekdi. Tun bo‘yi xat yozib charchagan edi. U xatni o‘n ikki marta boshlab, o‘n ikki marta yirtib tashladi, qattiq asabiylashganidan benihoya toliqdi. Shu qadar charchadiki, endi xatni qayta ko‘rib chiqish ham malol edi. Malolgina emas, xatda tayinli biror gap, chamasi, aqlliroq fikr ham yo‘q bo‘lib chiqishidan yuragi po‘killab turardi. Vaganov xat yozayotganida bir narsani ayon his etib turdi: tayinli gapdan ko‘ra ko‘proq noz-istig‘noga berildimi-ey... Sigaretani chekib bo‘lib, stol oldiga o‘tirdi-da, xatni o‘qiy boshladi:

«Manya! Maktubing meni shunday hayajonga soldiki, mana, ikki kundan buyon o‘zimni qo‘yarga joy topolmayman. O‘ylaganim o‘ylagan. O‘zimdan nuqul bir narsani so‘rayman: nima bu? So‘rayman-u javob topolmayman. Endi sendan so‘ramoqchiman. Nima bu, Mayya? Vaqtincha mening uyimda yashamoqchi ekansan – bosh ustiga! Lekin baribir xayolimga o‘sha savol aylanib kelaveradi: nima bu? Senga bo‘lgan munosabatimni o‘zing bilasan... Telba qalbim aytib turibdi, u avval qanday bo‘lsa hozir ham shunday: men

[1] *Plebey* – qadimgi yunonlarning huquqsiz fuqarosi. Qul emas, ammo huquqi ham yo‘q (Tarj.).

seni yaxshi ko'raman. Xuddi shu narsa menga sendan bir nimani so'rash va sen haqdagi fikrlarimni ro'yi rost aytish huquqini beradi. O'z to'g'rimda ham. Mayya, nima bu? O'zidan qochib qutulishga (urunishmi? Mayli... kelaver, yashayver. Lekin u holda men o'zimdan qochib qayga boraman? Qayoqqa? Ammo qochib ketgim keladi, buni yaxshi bilaman. Shuning uchun yana bir marta so'rayapman (xuddi tergovchidek): nima bu, Mayya? Iltimos, menga loaqal yana bitta xat yozgin. Ikki enlikkina bo'lsayam mayli. Faqat shu savolga javob bersang: nima bu, Mayya?»

Vaganov uzundan uzoq maktubini shunday boshlagan edi... U xatni bir chekkaga surib qo'ydi-da, iyagini kaftiga tiragancha o'ylanib qoldi. O'zining ovsar va ojizligidan hatto yuragi zirqiray boshlaganini sezib turardi. «To'tiqush! Nima bu, Mayya? Nima bu, Mayya? Tfu! So'tak!» Bu mavhumlik to'satdan kelgan g'am kabi chindan ham uni ezib yuborgan edi. Vaganov umrida birinchi bor bu yanglig' iztirobda o'rtanardi. «Yo Xudo, nima qilsam ekan? Nima qildim?» Vaganov o'ziga yo'l-yo'riq berishga qodir bironta odamni eslashga urindi – hozir shunga ham tayyor edi – lekin bu yerda tortinmay dil yorib, maslahat solish mumkin bo'lgan, uning so'ziga ishonadigan hech kimsani eslolmadi.

Ko'z oldiga faqat Popov keldi. Kishiga tik qaraydigan halol ko'zlar, aqlliligi ko'rinib turgan keng peshona tasavvurida jonlandi... Xo'sh, nima qipti? «To'g'rimi, Mayya? – deb so'radi u o'ziga o'zi kinoya bilan. – Bu hech gap emas, Mayya. Faqat men o'zim so'takman, xolos, Mayya».

U yozgan xatini yumaloqlab-yumaloqlab g'ijimladi-yu, derazadan tomorqaga qarab uloqtirdi. Karavotga cho'zilgancha ko'zlarini chirt yumdi. Bolalik paytida, biror yomon narsani tezroq unutishni istaganida xuddi shunday qilardi.

* * *

Vaganov ertalab ishga borarkan, jismida kuchli horg'inlik tuyardi. Bo'm-bo'sh miyasida xayoliga qayoqdandir o'rnashib olgan betayin bir ohang tinimsiz g'uvullardi: «Men esa chalarman garmonim tag'in, o'tkinchilar ko'ziga bo'la...» Vaganov hozircha xat yozmay turishga ahd qildi. Avval shuni aniq bilib olsin-chi, o'z holicha biron qarorga kelishga qodirmi yoki faqat men aqlliman-u boshqalar hammasi ahmoq, deya o'zini o'zi aldab yuribdimi? Oldin

mana shu narsa aniq bo‘lsin. Avvalo, hech qanday aldamchi xayollarga chalg‘imasdan mana shuni aniqlab olsin-chi. Hozircha yolg‘iz bir narsa aniq: u Mayyani sevadi, ammo unga yaqinlashishdan ham qo‘rqadi. Mas’uliyatdan, erkini boy berib qo‘yishdan, Mayyaga nisbatan qattiqqo‘l va baobro‘ bo‘lolmasligidan, oqibatda o‘z kelajagini ham barbod etishdan qo‘rqadi. «Mana endi, ko‘ramiz, nima qilarkansan, baobro‘ odam? – deb o‘ylardi u o‘ziga qarshi qizg‘in g‘azab bilan. – Xo‘-o‘p, ko‘ramiz».

U ishni Popovga odam yuborishdan boshladi.

Popov darrov yetib keldi, eshikni ochib ichkariga yana xavfsirab mo‘raladi.

– Kir! – deya Vaganov joyidan turdi-da, Popov bilan qo‘l siqib ko‘rishdi. Uni stulga o‘tqazib, o‘zi yoniga o‘tirdi.

– Oting nima?

– Pavel.

– Qalay?.. Uyda nima gap?

Popov javob bermadi... Kulrang ko‘zlarini tergovchiga tikdi. Bu odamning ko‘zlari chindan ham ajoyib edi: kishiga keragidan ortiq ishonch bilanmi, oqillik bilanmi, muloyim boqardi. Xuddi bolaning ko‘zlaridek tiniq, beg‘ubor. Holbuki, bular o‘limni ham, qayg‘u hasratni ham ko‘p ko‘rgan, o‘zi ham ozmuncha aziyat chekmagan kishining ko‘zlari... Ehtimol, insonning qudrati ham xuddi shunda – sabotli, kechirimli bo‘lishdadir? Va balki shundan boshqa hamma narsa surbetlik, yulg‘ichlik, beshafqatlikdir?

– Yomon emas, shekilli. Nimaydi? – deb so‘radi Popov.

– Xotining bilan gaplashdingmi?

– Bizlar bir haftadan buyon gaplashmaymiz.

– Qalay, hech qanaqa o‘zgarish sezmadingmi?

– Sezdim, – Popov kulimsiradi. – Kecha oqshom menga uzoq tikilib turdi-da: «Tergovchining oldiga bordingmi?» – deb so‘radi. «Bordim, – dedim, – tergovchining oldiga borishni bitta senga chiqarganmi?» – dedim.

– U nima dedi?

– Indamadi. Men ham indamadim.

– Ular arizasini qaytib oladi, – dedi Vaganov. – Yana bir chaqirtiraman. Balki bir necha marta chaqirtirarman... Menimcha, qaytib olishadi.

– Yaxshi bo‘lardi, – dedi Popov soddadillik bilan. – Qamalishga kimning ko‘zi uchib turibdi, deysiz, yosh ham borib qoldi.

– Pavel, – deya taraddudlanib so‘z boshladi Vaganov hanuz ichini tirnayotgan o‘z dardini o‘ylab. – Sen bilan bir narsani maslahatlashmoqchiman... – Vaganov, tog‘asidan maslahat so‘ragan yosh boladek uyat ish qilmayapmanmi, deya ikkilanib qoldi. Kulgi bo‘lib o‘tirsa-ya? Yo‘q, uyaladigan joyi, chamasi, kulgili ahvolga tushadigan yeri ham yo‘q. Nimasi kulgili! – Bir tanish xotin bor, Pavel... Yo‘q, gap bunday. Dunyoda bir ayol bor, men uni yaxshi ko‘raman. U erga tekkan, hozir eri bilan ajrashgan, shu xotin menga... – Shu yerga kelganda Vaganov xiyla uyaldi. Gapni bema’ni yo‘sinda boshlaganidan mulzam tortdi. – Xullas, gap bunday. Men shu xotinni yaxshi ko‘raman-u uylanishga qo‘rqyapman.

– Nega endi? – deb so‘radi Popov.

– Nega deganda, u ham... sening xotiningga o‘xshagan chiqib qolmasmikin, deb qo‘rqaman. Bunaqa xotin odamni qaro yer qiladi. Agar unga uylansam, faqat shu yaxshi yashasin, o‘ynab-kulsin, zerikmasin, deb ishlashim kerak bo‘ladi. Uning nafsini qondiraman, deb o‘zimning orzu-umidlarimni qurbon qilaman, deb qo‘rqaman.

– Yo‘g‘-e, unchalikka bormas, – dedi Popov ikkilanib. – Er-xotin inoq bo‘lishi, tashvishniyam, quvonchniyam baham ko‘rishi kerak.

– Shoshma, qanaqa bo‘lishi kerakligini o‘zim ham bilaman. Hammasini bilaman-a...

– Bo‘pti-da...

Vaganovning hafsalasi, pir bo‘ldi. Gapni davom ettirgisi ham kelmay qoldi.

– Qanaqa bo‘lishi kerakligini bilaman. Inson qanday yashashi kerakligini hammayam biladi. Lekin shuni ko‘ra-bila turib, baribir sevsam-u, ammo u menga hech qachon haqiqiy do‘st bo‘lolmasligiga ko‘zim yetsa, unda nima qilishim kerak? Mana, ayt-chi, xotining senga do‘stmi?

– Mening xotinimning yo‘rig‘i boshqa.

– Nimaga yo‘rig‘i boshqa bo‘larkan? Hamma odam bir xil, hammayam yaxshi yashagisi keladi... Nima, senga bir umrlik do‘st kerakmasmi?

– U yog‘ini so‘rasangiz, o‘rtoq Vaganov, – dedi Popov nihoyat, tergovchining maqsadini tushunib. – U yog‘ini so‘rasangiz, hamma xotin bir xotin. Xotindan yorug‘lik – itdan chorig‘lik. Xotin zoti o‘zi

shu: turgan-bitgani aldam-qaldam. Ilgari men ham ko‘p o‘ylardim. Odamlar nega bunaqa it-mushuk bo‘lib yashaydi, derdim. Qayoq-qa qarasang – urish-janjal, qaysi oilani ko‘rsang – dilsiyohlik. Nega bunaqa? Shuning uchunki, xotin zotidan yaxshilik kutib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Xudo uni xotin qilib yaratgan.

– Bo‘lmasa, uylanishga balo bormi? – deb so‘radi Vaganov Popovning bunday tagdor falsafasiga hayron qolib.

– Bu endi boshqa gap. – Popov o‘zining haqligiga tamomila ishonch bilan xotirjam so‘z boshladi. Chamasi, bu haqda ilgari ham ko‘p o‘ylagan bo‘lsa kerak, – Xohlaysanmi-yo‘qmi, inson bolasiga oila kerak. Oila bo‘lmagandan keyin hammasi bir pul. Bo‘lmasa, nima uchun biz bolalarimizni shunchalik yaxshi ko‘ramiz? Boisi shuki, xotinning qilmishiga chidasin, deb bolalarimizga mehrimizni tushirgan...

– Axir bor-ku anavinaqa... Durust oilalar ham!

– Qani o‘shanaqa oilalar? Hammasi nayrangbozlik bilan o‘zini yaxshi ko‘rsatishga urinadi, xolos. Uydagi gapni ko‘chaga chiqargisi kelmaydi. Aslida esa hammasi ham uyida it-mushuk...

– Voy, onangni emgur! – Vaganov battar hayron qoldi. – Bu yog‘i qandoq bo‘ldi? Odamning hafsalasi pir bo‘lib ketarkan! Buna-qada yashashning nima qizig‘i bor?

– Nachora. Chidaysiz – yashaysiz. O‘zini o‘zi aldashning nima keragi bor? Xotin kishi do‘st bo‘larmidi? Qiziq ekansiz. Bola tug‘ib berganiga ham shukur... Xudo shunaqa qilib yaratganidan keyin xafa bo‘lishning ham hojati yo‘q. Nima keragi bor? – Popov o‘zining haqiqatiga sobit ishonch bilan qarar, shuning uchun xo-tirjam gapirar edi. U Vaganovning haq so‘zga tashna ekanini, bor gapni ro‘y-rost eshitishni istayotganini bilgani uchun ko‘nglidagini aytib qo‘ya qolgandi. Shu boisdan, ro‘parasidagi yigitga nihoyatda sokin, hatto xushchaqchaq bir qiyofada qarab turar, iymanib-qim-tinmas edi.

– Shunaqa degin-a, – dedi Vaganov nihoyat tilga kirib. – Yo‘q, Popov, sen alam o‘tganidan, omading kelmaganidan bunday deyap-san. Axir besh qo‘l baravar emas-ku...

Popov yelka qisdi.

– O‘zingiz so‘radingiz – men dilimdagini aytdim.

– Bu gapning to‘g‘ri, bahslashmayman. Bahslashgan bilan ma-salaning tagiga yetib bo‘lmaydi.

– Albatta, har kim peshonasiga yozilganini ko‘radi. Agar boshda birov menga: «Pashka, uylanma, boshingni baloga qo‘yasan», deganida men nima qilardim? Maslahatingni o‘g‘lingga qil, deb bilganimdan qolmasdim. Har kim ham shunaqa-da.

– Ha, ha, – deya Vaganov uni quvvatladi. – Bu gaping to‘g‘ri. Mayli, bo‘pti. – U o‘rnidan turdi. Popov ham turdi. – Xayr, Pavel. Menimcha, ular arizasini qaytarib oladi. Faqat sen...

– Yo‘q, qo‘ysangiz-chi, o‘rtoq Vaganov! – dedi Popov uni ishontirib. – Boshqa unaqa qilmayman. So‘z beraman. Buyam bir ahmoqlik-da... Ularni urgan bilan nima baraka topardim? Nomusi bo‘lsa – o‘zi uyalsin. U yog‘ini so‘rasangiz, to‘polon qilganimga o‘zim xijolatman. Xuddi ig‘vogarlarga o‘xshab fisq-u fasod kavlab yurishimning o‘zi uyat emasmi?

– Bo‘pti, xayr.

– Xayr.

Popov eshikni yopib, chiqib ketishi bilan Vaganov xatni yozish uchun stol yoniga o‘tirdi. Hali Popov bilan gaplashayotganda Mayyaga nima deb telegramma berishni o‘ylab qo‘ygan edi:

«Kelaver. Yurishim o‘sha-o‘sha. Orqa etagimda og‘irligim yo‘q. Kutaman. Georgiy».

U shunday deb yozdi... Keyin o‘qib chiqdi. Bu dono so‘zlar zamirida hamon o‘sha betayin ohang jirtak chalayotgandek edi: «Men esa chalarman garmonim tag‘in...» U yozgan qog‘ozini yaxshilab yirtdi, mayda-mayda qilib kaftiga soldi-da, savatga tashladi. Shu kabi bir zum turib qoldi... Ko‘ngliga qandaydir befarq osoyishtalik cho‘kdi. Hech nimadan achchiqlanmas, hech nimaga achinmas edi. Ammo endi bugun ishlashga ham qodir emasligini yaqqol sezardi. Stol yoniga yana qaytib keldi-da, butun sahifani to‘ldirib, yirik harflar bilan:

«Tobim qochdi. Uyga ketdim», – deb yozdi.

Bugun bironta xizmatdosh hamkasblarini ko‘rish ham, ular bilan gaplashish ham qo‘lidan kelmaydigandek, bunga qudrati yetmaydigandek tuyuldi. Uyiga yo‘l oldi. Yo‘l-yo‘lakay ming‘illab xirgoyi qilib borardi.

Men esa chalarman garmonim tag‘in,
O‘tkinchilar ko‘ziga bo‘la-a.
Ming afsuski, tug‘ilgan kunim –
Yilda bir bo‘ladi-da-a.

Kun juda ajoyib – issiq emas, qandaydir iliq, gul va ko‘katlar isiga to‘liq edi. Hali chang ko‘tarilib ulgurmagan, hali saraton zabtiga olmagan. Kuchga to‘lgan yashil olam yerdan hayot sharbatini so‘rar, chor atrof gulga ko‘milgan edi. Ba’zilari endi gulga kirgan, ba’zilari endigina gullab bo‘lgan, guli to‘kilgan kurtaklar o‘rnida esa kichkina tugunchaklar – bo‘lajak mevalar paydo bo‘la boshlagan edi. Ajoyib, serfayz fasl! Bunday paytda kishi kun o‘tib borayotganiga achinmaydi, aksincha, ertangi kun hali oldinda ekanidan quvonadi.

Vaganov pochta tomonga burilib, ichkari kirdi. Darchaga bosh suqib, telegramma blankasini oldi. Ustiga siyoh to‘kilgan, yaltirab ketgan stol yoniga o‘tirdi, Mayyaning manzilini yozdi... Telegramma so‘zi yoziladigan chiziq ustida peroni qadagancha bir zum o‘ylanib qoldi. Keyin «Kelaver», deb yozdi.

Yozdi-yu bu so‘zga tikilgancha jim qoldi. O‘zi yozgan so‘zga diqqat bilan uzoq termildi. So‘ngra, qog‘ozni g‘ijimlab, burchakdagi savatga tashladi.

– Nima, aynidingizmi? – deb so‘radi darchadan mo‘ralab turgan ayol.

– Manzilni unutibman, – dedi Vaganov yolg‘onlab. Ko‘chaga chiqdi-da, shaxt bilan to‘g‘ri uyiga yo‘l oldi.

«Yolg‘on gapirishni ham o‘rganib olding! – deb o‘yladi u xuddi yot bir odam haqida fikr yuritayotgandek o‘zidan o‘zi begonasirab. – Ko‘zingni baqraytirib, yolg‘on gapirding».

Hali dalalardan pichan isi anqimas, hali o‘rim boshlanmagan edi.

O‘tkir HOSHIMOV va Xayriddin SULTONOV tarjimalari.

IKKINCHI SEANSGA CHIPTA

Keyingi paytlarda nimagadir Timofey Xudyakovning ko‘ngliga qil sig‘mas, hamma narsadan xunobi chiqib yurardi. To‘rtoyoqlab tursa-yu, boshi qaltirab, itday irillasa, hurib yuborsa. Balki, yig‘lab ham olarmidi.

– Seni nima jin urgan o‘zi? – mug‘ambirona rahmdillik bilan so‘radi Yermolay.

Timofey uning atay o‘smoqchilayotganini tushundi, ammo, baribir nolidi.

– Taqdir bevafo... – dedi-yu, gapning davomini chigallashtirib yubordi. – Boshi tosh qotsin uning... Dasturxoni non ko‘rmasin...

Timofey ruhan qiynalgan damlarda so‘kishni qotirib qo‘yar, go‘yoki yomon ko‘rgan odamini darra bilan ana shunday savalardi. Kuchli ehtiros bilan taqdirga la’nat o‘qishni xohlab qolardi. Taqdirni, «o‘n ikki havoriy», «ketiga terak qozig‘i», «cho‘qintirganni onasini» – barini qo‘shib tinmasdan so‘kishda davom etardi. Uning bu holatini ko‘rib, hatto Yermolay ham ajablanib tikilib qoldi.

– Ha, senga qiyin bo‘pti!

– Osonmi, shum taqdir senga shunaqangi ko‘rgiligin ko‘rsatib tursa. – Agar sen taqdirdan nolisang... bilmadim. Senga nima yetishmaydi? Uyingda hamma narsa yetarli bo‘lsa...

Timofey qorovulga ruhan qiynalayotganini tushuntirgisi kelmas, aytgani bilan u tushunmas, hatto o‘zi ham hech nimani tushunmayotgan edi. Rost-da, uyida kamchiligi yo‘q, bolalarini institutlarda o‘qitdi... Ba’zi paytlari u yashashni bilishidan mag‘rurlanar, endi esa jahli chiqar va negadir yuragi siqilardi.

Ahmoq qorovul Yermolay bo‘lsa: «Sen iblisni vijdon yeyapti, butun umr o‘marding... uyga tashiding, biron marta qo‘lga tushmading, tekinxo‘r», deya alamidan tutaqardi.

– Ko‘nglimni nimadir yemiryapti, Yeryomajon... Nazarimda, ko‘nglim g‘alayon ko‘tarmoqchi. Nimadanligini o‘zim ham bilmayman.

– Parvo qilma. O‘tib ketadi.

O‘tib ketmadi.

Shu kuni shanba edi (o‘zi ertalabdan hamma ishi chappa kelaverdi). Timofey omborni tambalab, qorovul bilan «yarimta»ni bo‘lishib kunni kech qildi. Uyiga jo‘nash oldi yana bittasini «yer tishlatgach», o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Uyiga borgisi kelmas – borsa xotini yana ming‘irlab, ta’bini battar xira qiladi.

Kuz yomg‘iri shivalab o‘tgandi. Namchil shamol esganidan xalqob suvlar yuzasi ajinday tirishdi. Osmon etagi yorishib, quyosh ko‘rindi. Yog‘och uylar derazasida kahrabo yog‘dular zarhallanib, atrofga yorug‘lik to‘shardi. Kun sovuq, ham zerikarli edi. Barchasining yoqimsizligi-chi?

Timofey o‘yga cho‘mdi: «Mana – yashab qo‘ydim, bu yog‘i oz qoldi... nari borsa o‘n-o‘n ikki yilmi, umrimni shunchaki sudralib o‘tkazish-u, bo‘sag‘ada yotib olib kun sanash qoldi. Bu hayot emas, chaynab tashlangan suyakday hayot kimga kerak! Nima ham derding, hayot – bu hayot-da. O‘ylab qolasan. Tuf-u! Butun umr yugurdim-yeldim, ustomonlik qildim, uy qurdim, har xil yolg‘onyashiqlar bilan birni o‘nga urib, goh u narsani, goh bu narsani topib keldim. Yermoxa bo‘lsa, o‘zi uchun yashadi. Jonini koyitmay baliq ovladi, o‘z ko‘rpasiga burkanib tinch-osuda, g‘am-alam nimaliginiyam bilmaydi. Qurtlarga esa, baribir, ikkalamiz ham birgalikda yem bo‘lamiz. Eh-he, u ko‘rimsiz hayotda davri davron surdi. Sen-chi? Xuddi sirk artistiday dor ustidan yurib o‘tding; o‘tishga o‘tdim-a, lekin endi tizzalarim darmonsizlikdan qaltirayapti.

Timofey yo‘l-yo‘lakay o‘y surib borardi... Birdan o‘zini tanish ko‘chaga urdi. Bu ko‘chada Polya Teplyashina yashardi... Qachonlardir – ancha ilgari Timofey Polya bilan jinoyatkorona «sevgi o‘yinini» o‘ynagandi. Janjallar bo‘lgan, derazalar singan, sharmandasi chiqqan. Gutya – Timofeyning xotini Polyadan Timofeyni qaytarib olish uchun yetti yil jon-jahdi bilan kurashgandi. Gutyani qishloqda hamma maqtar, u bo‘lsa bundan g‘ururlanib, qishloqning yosh xotinlarini ko‘cha-ko‘yda uchratib qolsa, maslahat oshidan kapkirsiz uzatardi. Ya’ni, o‘zining ahvoliga tushib qolmasliklarini eslatib, ularni erlari uchun kurashishga o‘rgatardi:

«U xonimchasining uyiga borganida, sen qo‘lingda kosov bilan deraza tagida tur! Quchoqlashmoqchi bo‘lganida, kosov bilan deraza oynalarini chil-chil qil. Lazzatdan mahrum et. Qanoti qirqilgan qush qayta ucholmaydi».

Bunaqa «oshiq-ma’shuqlik» hangomalari qishloqda bo‘lib turardi. Hozir boshqacha – ajralishadi, tamom! Ilgarilari yillab g‘azabini bosolmay alamzada bo‘lib yurishardi. O‘shanda Timoxa bilan bu «oshiqlik» birdan o‘zidan o‘zi tugagandi. Polyaning o‘g‘li Kolka ulg‘ayib qolgandi. «Nikolay Petrovich» Timoxani onasining yonidan quvib yuborardi.

Timofey ko‘zlari chaqchayib, Polyaga o‘dag‘aylardi:

– Toychog‘ingni tiyib qo‘y!

Juvon esa birdaniga og‘ziga urardi:

– Toshingni ter!.. Nima, seni o‘g‘limga alishtiramanmi? Bekorlarni aytibsan!

Shu mojarodan so‘ng Timofey yana bir – ikki marta aylanib borgandi, Kolkaning baquvvat mushtiga duch kelgach, «o‘yin»ni yig‘ishtirib qo‘ya qoldi. Eng ahmoqona voqea keyin bo‘ldi; Polya va Gutya do‘stlashib olishdi, endi esa ikkovlashib uning ustidan mazax qilib kulishib, mag‘zava ag‘darishardi. Goho Polya odamlar to‘dalanib turgan joyda Gutya bilan yuzma-yuz kelib qolsa-ku, chirog‘i porlardi. Timoxaning bitini to‘kish bahonasida:

– Qalay, bizning arg‘umog‘imiz yaxshi yuribdimi? – deya jo‘rttaga so‘rardi.

Gutya bundan yayrab kulardi-da:

– Pechka ustida kanasini ezyapti, – derdi xumordan chiqib.

Nima balo – bu atay undan o‘ch olishmidi, tushunish qiyin!

Timoxa bunday voqea ustidan chiqsa, xotini tomon bostirib borardi, ammo endilikda o‘z bolalari tomonidan qarshilikka duch keladigan bo‘ldi. Mana, hozir Timoxadan nima uchun u yerga – Polyaning yoniga borayotganini so‘rashsa, tushuntirolmasdi. Nega borayotganini o‘zi ham bilmasdi. Polya esa hayron.

– Anovini!.. Bu mehmonni ko‘ring. Nima gap?

– Nima bo‘pti. Nima, yuqumli kasaling bormidiki, aylanib o‘tsam? Gaplashib... o‘tiramiz. Eski xotiralarni eslaymiz, mana ichimlik... Timofey o‘zi bilan shisha olvolgandi. Shishani stolga qo‘ydi. – O‘tganlarni, eslaymiz.

– Eslaydigani qoptimi?

Polya keksayib, xunuklashib qolgandi. Timofey: «Aslida u husnda urvoq edi», deya o‘ylab, o‘z ahvoliga achinib ketdi.

– Latifa aytib berishimni xohlaysanmi?

– Qara-ya!

– Nimaga hadeb «qara-ya, qara-ya» deysan popning befahm xotiniga o‘xshab. Yovvoyilarga o‘xshaysan... Xo‘sh, mana keldim... Nima bo‘pti? To‘g‘risi, siz ayollar yovvoyiga o‘xshaysizlar. Rostdan ham.

– Nega unda esi pastlarning yoniga kelasizlar?

– Qayerdan topaman aqllisini? Hammasi bir go‘r bo‘lsa, almashtirsang ham sovunni ignaga alishganday gap.

– Taftish bosdimi, g‘azabnoksan?

– Hali meni qarmoqqa ilintiradigan taftishchi tug‘ilmagan.

– Ko‘rinib turibdi. Demak, tug‘ilibdi...

Timofey stakandagi aroqni shartta simirdi, gazakka hech narsa so‘ramadi ham. Polya gazakka cho‘p ham tutmadi. Timoxa ham Polyani ichishga undamadi.

– Latifani eshit. Bir ramaqijon erkak shaharga kelibdi, so‘ng ko‘chada ketaveribdi. Cho‘ntagi to‘la mullajiring. «Qayerdan bironta shaharlik oyimqizni ilintirsam», deb o‘ylabdi. U shaharlik ayollarni oson ilintirsa bo‘ladi, degan gapni eshitgan ekan-da. Shu payt, bir suluvgina juvon uning yoniga kelib, muloyimlik bilan: «Menikida tunay qoling. Uyim bir qadam», – deya xushnavozlik ko‘rsatibdi. Xudoning o‘zi yetkazdi, deb suyunibdi erkak va ayol bilan uning uyiga boribdi. Uyga kelgandan so‘ng ayol erkakka qarab: «Siz yechinavering, men hozir kelaman», – debdi-yu, o‘zi narigi xonaga o‘tib ketibdi.

Erkak yechinib, uni kuta boshlabdi. Ancha kutibdi. Bir payt ayol bir etak bolalarini yetaklab chiqib kelibdi va ularga qarab: «Mana, bolalarim, agar sizlar ham to‘yib-to‘yib ovqat yemasalaring, mana shu amakiga o‘xshab, qoqsuyak bo‘lib qolasizlar», – dermish.

Polyani bu voqea kuldirolmadi, bu Timofeyning o‘ziga ham uncha qiziq tuyulmadi. Lekin ertalab haydovchilar bilan aynan shu latifani eshitib kulganida, latifa ibratli ekan, deb o‘ylab ham qo‘ygandi.

– Sen bu bilan nima demoqchisan? – dedi Polya. Timofey tushuntirdi:

– Shum taqdir meni ham, xuddi shunday qilib chiqitga chiqarib tashladi. Yashab qol, Timofey! – dabdurustdan quyushqondan chiq-

di u. – Yelkangda bosh bormi? Bor! Yana hech kimdan qo‘rqma! Mana, Timofeyning sochlari to‘kilib bo‘ldi... endi.

– To‘g‘ri yashaganingda, hech kimdan qo‘rqmasding, – deya chaqib oldi Polya.

Timofey ham qanday qilib qattiqroq og‘ritib chaqishni o‘yladi.

– Bilmaysanmi, kim mana bu joyda, – u karavotni ko‘rsatdi, – begona erkak bilan achom-achom o‘ynashgan? Mabodo eshitganing yo‘qmi?

– Eshitganman. Sen-chi, kim xuddi mana shu joyda, o‘z xotini bo‘la turib, begona ayol bilan chalkashib yotgan? A... Men yolg‘iz beva edim, sen esa oilali eding. Buzuqisan, Timoxa!

Timofey yana ichdi. U endi hammasini biroz tushunganday bo‘ldi; esiz umr, esiz hayot. Yashagani qursin.

– Bizning ishimiz oq buqacha haqidagi ertakka o‘xshab ketadi, Polya.

Polya kulib yubordi.

– Nimaga kulasan? – so‘radi Timofey.

– Nimaga kulmas ekanman?

– Kerakmas... Senga yarashmaydi, tishlaring so‘yloq.

– Bir paytlar buni payqamas eding-ku...

– Payqaganman, nimaga endi payqamas ekanman, faqat... Attang! Bilasanmi, nima alam qiladi, azizam, kimgadir bu hayotda hamma narsa yetarli; oliy ma’lumotli, katta maosh egasi, xushro‘y, tishlari tekis va oppoq, shiringina o‘ynashi ham bor. Timoxaga esa sal bundayrog‘i ham bo‘laveradi...

– Voy ilon-ey! – ajablandi Polya. – Sassiq taka. Qani, ko‘tar shishangni, bu yerdan qorangni o‘chir-chi! Hozir o‘qloq olaman-da, mana shu aqlli boshingga... Koshki, aql bitsa!..

Timofey shisha og‘ziga yana tunuka qalpoqchasini kiydirdi-da, pidjagining ichki cho‘ntagiga yaxshilab joyladi va shoshmay keta boshladi. Sal yengil tortganday sezdi o‘zini. Lekin, yana kimningdir jig‘iga tegishni istardi. Kimgadir mana shunaqa sekin, shoshilmay chaqadigan so‘zlarni aytsa, nish sanchsa!

Uyiga yetib kelsa, kiraverishdagi xona chetida tirsaklarini stolga tirab... Hazrat Nikolay xayol surib o‘tirardi. Hazratning qiyofasini odamlardan ko‘p bor eshitgan. Quyib qo‘yganday Hazrat Nikolayning o‘zi: oq yuzli, past bo‘yli, qo‘g‘irchoqqa o‘xshagan qariyacha. Boshini egib muloyimgina tikilib o‘tiribdi. Uyda boshqa hech kim yo‘q.

– Qani, salomatmisan, Timofey? – muloyimlik bilan so‘rashdi Hazrat.

Timofey atrofga alang-jalang qaradi... Va birdan gurs etib qariyaning oyoqlari ostiga yiqildi. Iloji boricha mayin va lo‘nda qilib, sekingina:

– Salom, Hazratim. Men seni darrov tanidim, otaxon, – dedi u.

Hazrat nimagadir silkinib tushdi, hayron bo‘ldi va kulumsirab barmoqlari bilan niqtab, sekin o‘dag‘ayladi:

– Kayfing bor-ov?

– Ha, ozroq bor! – qandaydir qiziqqonlik bilan va shodlikdan suyunib davom etdi Timofey. – Hammasi siqilganimdan... otaxon, ma’zur tutasiz. Hammasi siqilganimdan. Tinim bilmayman. Mana bolalarimni o‘stirdim, endi ichsam nima qiladi, deb o‘yladim. Nega bunchalik qarib qolgansan-a, otaxon... Nimaga kelganding o‘zi?..

Hazrat ko‘zlarini pirpiratdi, yana kulib yubordi.

– Nimaga siqilasan?

– O‘zim ham bilmayman. E-e, Xudo biladi! Unga sig‘inmaymiz – shuning uchun bo‘lsa kerak. Xudoga ishonmay qo‘ydik; mana, u bo‘lsa ko‘rsatib turibdi. Cherkovlarni yopdik, so‘kinamiz, har xil yo‘llarga kiramiz... Siqilishimizning boisi shundan.

– Sen ilgari Xudoga ishonarmiding?

– Otaxon!.. Cho‘qinib aytaman, kichkina paytimda ishonardim. Rojdestvolarda butga sig‘inib yurganman. Agar bolsheviklar kelmaganida edi, hozir ham sig‘inib yurgan bo‘larmidim.

– O‘zing-chi, kommunist emasmisan, ishqilib?

– Qayoqda! Senga yolg‘on gapirmayman. Agar qaynotam o‘lib ketmaganida, balki kommunist bo‘larmidim! Uni o‘ttizinchi yillarda quloq qilishgan...

– Xo‘sh.

– Shundan beri og‘zimga latta tiqilgan, hech kimga, hech qachon g‘ing deb ovoz chiqarmaganman.

Hazrat battar hayron bo‘ldi. Unga achinib qaradi.

– Sen nima demoqchisan, Timofey?

– Ko‘nglimdagini aytayapman, otaxon! Xo‘sh, sen nega kelganding-a! Yaxshi niyat bilanmi yoki yomon niyat bilanmi? Qandoq tushunay?

Hazrat tirishgan kichkina kaftlari bilan oppoq soqolini silab qo‘ydi.

– Nima uchun kelganman... Xo‘sh, mana... tavbadasan, sizlarni ko‘rgani keldim. Menga qara, o‘rningdan tur-chi!

– Turaman! Nega turmas ekanman? Hech narsa qilmaydi. Otaxon, mana, sen dunyo kezib, ko‘rib yuribsan, odamlar aynib borayotibdi-a?

– Hammasi ham emas. Demak, sening fikringcha, qaynotang yo‘lingni kesib o‘tdimi?

– Kesib o‘tdi. To‘g‘risini aytganda, u quloq ham bo‘lgan emas, hech qachon. Shu faqat jamoa xo‘jaliklari tuzish masalasida qaysarlik qilib turib olgandi o‘shanda. Vaysaqi edi qaynotam, tilini tiyolmasdi. Ahmoqni ahmog‘i edi. Ammo qat’iyatli, o‘ziga to‘q odam edi, men esa o‘rtahol edim. Partiyaga qabul qilishlari mumkin edi.

– Xo‘sh, qaynotang-chi, nima qildi?

– Muddatini o‘tab keldi. Men uni o‘shandan buyon ko‘rganim yo‘q, bir-birimizdan uzoqda yashaymiz. U qari tentak o‘g‘li bilan turadi. O‘g‘li bo‘lsa, qayerdadir uzoqda yashaydi. Demak, odamlar aynigan deysanmi?

– Ha, xalq yaxshigina aynigan, – dedi jiddiy boqib Hazrat.

– Umuman, hech narsaga arzimaydi, bu xalq! – gapni ilib battar aljirardi Timofey. – Ichkilikbozlik, o‘g‘rilik... Men ham ombordan o‘g‘irlardim sal-pal. Bilaman, bu gunoh, ammo hamma o‘g‘irlik qiladi. Atrofga qara, voy Xudo, voy Xudo-ey, nimalar bo‘lmayapti deysan.

– O‘g‘irlik qilardim, deysanmi?

– Ha, otaxon, u-bu narsa o‘marib turardim. Mana, bolalarimni o‘qitdim. Qaysi pulga-a? Otaxon...

Timofey Hazratning yoniga yanada yaqinroq emaklab keldi.

– Bilasanmi, sendan nima so‘ramoqchi edim?

– Xo‘sh?..

– Sen u yerda, tepada bizning Xudoyimizga, payg‘ambarimiz Isoga va Bibi Maryamga yaqin o‘tirasan-a... Shu, sen ular bilan maslahat qilib aytsang-chi... xo‘sh... va... e-e! Shunday xo‘rligim keladiki, yuraklarim eziladi, otaxon! Axir men ahmoq emasman-u, ammo savodim haminqadar bo‘lsa ham qaragin, oliy ma’lumotli manaman degan azamatlarni barmog‘imni uchida o‘ynataman...

– Tushunmayapman!

– Oh, qani, yana bir karra qayta tug‘ilsam edi? A, nima deysan? Hozirgisi, ya’ni yashab o‘tgan umrim hisobga olinmasa-da, boshqatdan yana meni tug‘dirsalaring...

Hazrat ixtiyorsiz kulib yubordi.

– Goh siqilib ketdim, deb noliysan...

Goh... eh, sen itning bolasi – Timoxa!

– Ha-da, noliyman-da, hayotim hech o‘xshamadi-da! – Timofey yig‘lab yuborguday edi. – Mana, sen kulyapsan. Hech kulgili joyi yo‘q! Otaxon, faqat g‘am-alam ko‘rdim. Ketma-ket g‘am. Ammo yer yuzida yashash qanday yaxshi! Nima, men ko‘rmayapmanmi, tushunmayapmanmi... hammasini tushunib, ko‘rib turibman. Alamim kelayapti. Tuf-u – ezg‘ilab tashlasang!.. Mening ko‘rgan kunim qursin.

– Xo‘sh, ayt-chi, qayta tug‘ilganingda qanday yasharding, a?

– Eng avvalo, men boshqa ayolga uylangan bo‘lardim. Muhabbat haqida, hatto Bibliyada ham yozilgan-u, ammo men uchun muhabbat yumshoq joydan chiqqan chipqonday bo‘ldi. Bu gaplarim uchun o‘zing kechir, Xudoyim. Yoshlikda qanday yo‘liqdim, ana endi ihrab-sixrab, sudralib yashab yuribman. Bo‘lmag‘ur xotin uchradi. Ahmoq. Xuddi otasining o‘zi. Og‘zi bir ochildimi... faqat ber deyishni biladi. Ayol emas – kajava sandiq. O‘shani deb ko‘proq o‘g‘irlik qilganman. Xasis!.. O‘taketgan ochofat. Mendagi bu aql bilan katta boshliq bo‘lishim ham mumkin edi. Masalan, mendan yaxshigina prokuror chiqardi deb o‘ylayman.

Timofey pastdan Hazratning ilohiy ko‘zlariga tikilib qarab qoldi.

– Qo‘limdan kelganida edi, qaynotamni shunday jo‘natardimki, menga qolsa, u haliyam o‘sha yerda o‘tirgan bo‘lardi. U buni tilidan topgan bo‘lardi.

– O‘chir ovozingni! – g‘azab bilan o‘shqirdi qariya. – Men sening o‘sha qaynotangman-ku, iblis! O‘g‘ri! Ko‘zlaringni kattaroq och, aroqqa bo‘kibsan-da!

Timofey o‘rnidan turdi, cholvorini qoqdi va sekin dedi:

– Qara-ya! Rostdan ham qaynotam. Qaynotaginam! Kel, ichamiz. Uchrashganimiz uchun. Qara, men seni kim deb o‘ylabman-a...

– Bo‘kibsan-da, itvachcha!

– Hamma sirlarimni aytib beribman-a, senga?.. Jim-m! Hechqisi yo‘q, bilib qo‘yding. Shunday ham adashamanmi-a? Qovun tushirganimni qara-ya... Ey-y-a!

Keyin ikkalasi shishani bo‘shatgach, haqoratlangan qaynota Timofeyning burni tagiga bosh barmog‘ini ikki barmog‘i orasidan chiqarib o‘zi va qizi uchun jahl bilan derdi:

– Mana senga boshqa hayot! Mana senga ikkinchi seansga chipta!.. O‘g‘ri... Sholg‘omi chiqqan Timofey esa faqat bir ohangda g‘o‘ldirardi:

– Voh, qanday tushdima-a, voh. Shunchalik ham bo‘ladimi...

– Men sening o‘zingni qamataman! O‘g‘ri!..

– Kimsan? Yoningda Xudo bormi? Sen huquqsizga kim ham ishonardi?

– Mana, mana senga ikkinchi seansga chipta! Heh-he, – boshqatdan yashashni istab qoptilar!.. Ma, senga.

Qaynotasi yana Timofeyning burni tagiga barmog‘ini tiqayotgandi, kuyovi bir stakan aroqni uning boshi ustidan quyib yubordi va qo‘rqitmoqchi bo‘lib, cho‘ntagini kovlab gugurt chiqardi.

– Hozir yoqib yuboraman-a.

Hazrat bo‘lmish qaynota sochiq bilan boshini artdi va yig‘lab yubordi...

– Bu nima qilganing-a? Timoxajon? – Menday qariyani-ya... Uyatsiz... Yaramas... Mehribonlarim oldiga yaxshi niyatlar bilan keldim desam-u... Sen...

– Hamma gap shunda-da, nima qilishni bilolmayapman, – dedi Timoxa biroz yumshoqlik bilan. – Bilmayman, qaynotaginam, bilolmayapman. To‘g‘risini aytsam, o‘zimda nimalar kechayotganligini bilolmayapman. Bunday yashash jonga tegdi. O‘lguday jonga tegdi. Uchdi-ketdi. Alam qiladi. Umrimni ashula aytganday o‘tkazib yubordim, ammo ashulani yomon aytdim. Lekin ashula yaxshi edi, essiz. Tomosha uchun meni kechir. Ko‘nglingni keng qil, kechir, otaginam.

KUZDA

Paromchi Filipp Tyurin radiodan so‘nggi axborotni oxirigacha eshitgach, ancha vaqtgacha dasturxon ustida miq etmadi.

– Nimaga tinch o‘tirishmaydi-a? – dedi jahl bilan.

– Yana kim g‘ashingga tegayapti? – so‘radi do‘rillagan ovoz bilan qo‘llari erkaklarnikiday baquvvat, baland bo‘yli kampiri.

– Bomba yog‘dirishayapti! – radiokarnay tomonga qosh uchirdi Filipp.

– Kimning ustiga?

– Vetnamliklar ustiga-da.

Kampirga cholining siyosatga qiziqishi yoqmas, battar g‘ashini keltirar, ba’zida shu bema’ni qiziqishni deb ikkisi jig‘illashib qolgan vaqtlari ham bo‘lgan. Ammo hozir kampirning janjalga xohishi ham, vaqti ham yo‘q. U bozorga shoshilayotgandi.

Jiddiy, diqqat-e’tiborli Filipp paromga borish uchun issiqroq kiyinib olgach, uyidan chiqdi. U anchadan beri – urushdan qaytgandan buyon paromchi bo‘lib ishlaydi. Urushda boshidan yaralangan, shuning uchun ham engashib ishlashni talab etadigan kasbi – duradgorlikka yaramasligini bilib, paromchilikni tanlagandi.

Sentabrning oxirlari edi, yomg‘irdan so‘ng yoqimsiz sovuq shabada esar, oyoq ostidagi yer bilchillab g‘ashga tegardi. Qishloq do‘koni yonida o‘rnatilgan radiokarnaydan taralayotgan tonggi jismoniy tarbiya musiqasi sadolari va mashqlarni olib boruvchining jo‘shqin ovozini shamol yulqib olib kelardi. Qishloqdan cho‘chqalarning chiyillashi-yu xo‘rozlarning qichqirig‘i eshitilardi.

Yo‘lda uchragan qishloqdoshlari Filipp bilan bosh qimirlatib salomlashishar, ular non xarid qilgani do‘konga yoki bozorga borish uchun avtobus bekatiga shoshilishardi. Filipp uyidan paromgacha bo‘lgan bu yo‘lni ertalablari o‘y-xayollarsiz bosib o‘tishga

o‘rganib qolgandi. To‘g‘ri, xayolga berilardi, lekin parom haqida yoki kun bo‘yi kimlarnidir o‘tkazib qo‘yish haqida emas. Bugun boshqa xayolda. U hozir urush qilmay qanday qilib amerikaliklarni tinchitishni o‘ylab borardi. Bir nimaga ajablansa-da, hech kimdan so‘ramadi: nima uchun ularni raketalarimiz bilan turtib qo‘yish mumkin emas? Axir, ikki kunda ularning esini kiritib qo‘yish mumkin-ku. Filipp yoshligidan tinib-tinchimasdi. Yangi hayotni barpo etishga faollik bilan qo‘shildi, jamoa xo‘jaligi davrida g‘ayrat ko‘rsatdi... Hech kimni quloq qilmadi, ammo ko‘p bahslashar, baqirar... ikkilanganlarni ishontirar, hayajonlanardi. Kommunist emas edi, rahbarlar ham bu xususda negadir gap ochishmagan, shunday bo‘lsa-da Filipp bilan doim hisoblashardilar, u esa ularga sidqidildan yordam berib yuraverardi. Usiz ishlari bitmasligini o‘ylab, Filipp ich-ichidan g‘ururlanib qo‘yardi. Masalan, unga saylovoldi kampaniyasida kelgan mas’ul kishilar bilan qishloq kengashida saylovni qanday qilib yaxshiroq o‘tkazish to‘g‘risida maslahatlashish yoqardi. Kimning uyiga ovoz berish qutisini olib borish kerak, kim o‘zi keladi, faqat ertalab borib eslatilsa, bas... Saylovchilar orasidan ba’zi biri qaysarlik qilib: «Men o‘tinimni olib kelish uchun ulardan ot arava so‘raganimda berib turishadimi?!» desa, Filippning fig‘oni falakka chiqardi: «Hoy, Yegor, axir bu nima deganing? Buni saylovga tenglashtirib bo‘larkanmi?! Gapingni qara-yu!.. Siyosiy masala ko‘ndalang turgan bir paytda, sen nega otni buzoq bilan chalkashtirasan».

Xullas, Filipp qishloq bo‘ylab yelib-yugurar, fikrini odamlarga isbotlashga urinardi. Odamlar u bilan ham jon deb bahslashishar, ammo undan gina qilishmas, aksincha, dardlarini to‘kib sochishar va «Sen ularga yetkazib qo‘y», deya tayinlashardi. U esa vaziyatning muhimligini his qilib hayajonlanar, yonib-kuyardi. «Eh odamlar! – deya fig‘oni chiqardi ulkan ishlar og‘ushida. – Uyqusiragan kallavaramlar!»

Yillar o‘tgan sayin Filippning g‘ayrati so‘na boshladi. Endi hayajonlanib, bunday tashvishlar ortidan yugurishga kuchi yetmay qolgandi. Lekin hamon jamoat ishlarini, jamiyatning muhim masalalarini yuragiga yaqin olar, xavotirlanardi.

Daryo uzra yoqimli shabada esardi. Shamol paromga beozor uriladi, turtiladi. Arqonlar shamolda silkinib g‘uvillaydi. Lekin yaxshiyamki, quyosh ko‘rinib, sal ko‘ngli yorishdi.

Filipp paromda u yoqdan bu yoqqa suzdi, shoshqaloq yo‘lovchilarni o‘tkazib bo‘lgach, yengil tin oldi. Asabbuzarlik to‘xtadi. Filipp yana amerikaliklar haqida xayolga berilgan ham ediki, bayanni varanglatib nikoh to‘yi o‘tkazayotganlar kelib qolishdi... Zamona zaylini qarang – rangli tasmalar, pufaklar bilan bezatilgan yengil mashinalar. Bu urf qishloqqa ham kirib kelayapti. Uchta mashinada kelishdi...

To‘ychilar qirg‘oqqa tushishdi. Shirakayf, sershovqin, o‘zini biroz ko‘z-ko‘z qilib maqtanishga moyil to‘da. Yangicha urf – mashinalarda, boz ustiga, ular tasmalar bilan bezatilgan bo‘lsa, bunaqa to‘ylar o‘tkazish qishloqda hali kam uchraydi, hammaning ham yengil mashina topishga qurbi yetmaydi.

Filipp to‘yni qiziqish bilan kuzatdi. Bu odamlarni tanimaydi – ular bu yerlik emas, aftidan, qayergadir mehmonga ketishayotgan ko‘rinadi. Shlapali bir amaki hadeb qiyshanglardi. Aftidan, mashinalarni o‘sha amaki topgan chog‘i. U to‘y to‘yday bo‘lsin, deb tinimsiz chiranardi. Paromda bayanchini kuy chalishga qistab, o‘zi birinchi bo‘lib o‘yinga tushdi. U hammaga burgutqarash qilib qiyqirar, oyoqlarini do‘pirlatardi. Faqat uning bu qiliqlariga qarash noqulay va uyat edi. Kelin-kuyov boshqalarga nisbatan hushyorroq bo‘lganlari uchun o‘zlarini qandaydir noqulay sezishardi. Shlapali amaki harchand irg‘ishlamasin, hech narsaga erisholmadi, uning bu soxta quvnoqligi hech kimga ta’sir qilmadi, nihoyat o‘zi ham holdan toydi...

Parom suzib o‘tdi, mashinalar qirg‘oqqa chiqdi. To‘ychilar jo‘nab ketishdi. Filipp esa o‘z hayoti haqida o‘yga toldi. Mana, uning uylanishi qanaqa bo‘lgandi. Ularning qishlog‘ida Marya Yermilova degan suluv qiz bor edi. Kulcha yuz, yonog‘i cho‘g‘day, shirinso‘z... Husniga qarab ko‘z to‘ymasdi. Bunday go‘zal qalliq haqida faqatgina orzu qilish mumkin edi. Filipp uni juda ham sevar, Marya ham unga ko‘ngil qo‘ygan edi, to‘y bo‘lishi arafasida...

Filipp komsomollarga qo‘shilib qoldi. Yana o‘sha hol: o‘zi komsomol bo‘lmasa-da, ular bilan baqirib-chaqirishar, hamma narsani ag‘dar-to‘ntar qilishardi. Filippga komsomollarning qishloq qariyalari ra’yiga qarshi chiqishi yoqardi. Mana, qanday bo‘lgandi: zamonasoz yoshlar cherkov nikohiga qarshi bosh ko‘tarishdi. Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqea... Qariyalar biron narsa qilisholmas, g‘azablanishar, qo‘llariga xivchin olib, garchi xivchin bilan

hali og‘zidan ona suti ketmaganlarning esini kiritolmasalar-da, qaytanga, battar ularning qarshiligiga duch kelishardi. Quvnoq damlar edi. Filipp ham o‘sha yoshlar kabi cherkovda nikohdan o‘tishga qarshi edi.

Marya esa, aksincha. Maryaning ota-onasi bir so‘zli edi, uning o‘zi ham oxiri cherkovda nikohdan o‘tamiz, deb qaysarlik qila boshladi. Filipp og‘ir ahvolda qolgandi. U turli gaplar bilan Maryani avray boshlar (u gapga chechan edi, bu esa qishloqda kamyob hol, balki Marya uni shuning uchun sevib qolgandir), ishontirmoqchi bo‘lar, qishloqcha ko‘rsavodlikni yomonlar, har xil maqola va feletonlardan parchalar o‘qib berar, yuraklari ezilib, tishlarini g‘ijirlatardi.

Marya esa hech narsani eshitgisi kelmas, cherkovda nikohdan o‘tamiz, tamom-vassalom, deya bir gapda turib olgandi. Filipp o‘tmishini o‘ylarkan, o‘sha paytda judayam ahmoqona xatoga yo‘l qo‘yganini tushundi. O‘shanda yo‘llari ayro tushdi, ajralishdi. Filipp keyinchalik ham o‘zgarmadi, qilgan ishidan afsuslanmadi, hozir ham afsuslanmaydi, axir qo‘lidan kelgancha hayotni qayta qurishda qatnashdi, biroq Maryaga achinar, uni qo‘msardi.

Bir umr yurak-bag‘ri kabob bo‘lib, o‘rtanib yashadi. U Maryani eslamagan biror kun yo‘q edi. Boshida shunaqayam og‘ir bo‘lgan ediki, hatto o‘zini bir balo qilmoqchi ham bo‘lgandi. Yillar o‘tsa-da, yuragidagi dard arimadi. Garchi oila qurgan – yangi fuqarolik qonuni bo‘yicha xotini bilan nikohdan o‘tgan, farzandlar tug‘ilgan bo‘lsa-da, yurak hamon Maryani deb o‘rtanardi. Xotini Fekla Kuzovnikova Filippdagi bu doimiy g‘amni sezib qolganidan buyon erini ko‘rarga ko‘zi yo‘q. Va bu teran nafrat ayol qalbida u bilan birga yashab kelmoqda. Filipp esa xotini Feklaladan nafratlanmasdi, yo‘q. Biroq, masalan, urush payti «Sizlar o‘z onalaringiz va xotinlaringizni himoya qilayapsizlar...» – deyishganda, u Feklani emas, xayolan Maryani ko‘z oldiga keltirardi. Agar halok bo‘lganida ham Marya haqidagi xayollar bilan halok bo‘lardi. Yillar o‘tsa-da, ishq dardi uni tark etmadi. Biroq yuragini yondirgan olov avvalgidek, endigina uylangan yillardagidek jizg‘anak bo‘lmas edi, albatta. To‘g‘ri, o‘shanda biroz kamgap bo‘lib qoldi. Baribir, targ‘ibotdan voz kechmadi, chunki shunday qilishi zarur edi. Ammo gapirganda, o‘zining achchiq o‘y-xayollari ta’sirida gapirardi. Goho o‘y surib qolar, birdan nimadir esiga tushib, yana odamlarni yangi hayotga, mislsiz o‘zgarishlarga ishontirish ni-

yatida ularning g‘aflat bosgan ko‘zlarini ochmoqchi bo‘lardi. Marya esa... Maryani o‘shanda qishloqdan olib ketishdi. Unga qandaydir boyvachcha so‘tak (qandaydir emas, Filipp u bilan keyinchalik ko‘p bora yuzma-yuz keldi) Krayushkino qishlog‘idan sovchi jo‘natdi... kelishdi, unashtirishdi va olib ketishdi... Albatta, cherkovda nikoh o‘qildi. Oradan bir yil o‘tgach, Filipp Maryaning eri Pavelni uchratib qolib:

– Vijdoning qiynalmadimi cherkovga borishga?.. – deya uni so‘roqqa tutdi.

Pavel o‘zini ajablangandek ko‘rsatib:

– Nega vijdonim qiynalishi kerak? – dedi.

– Qariyalarning yo‘rig‘iga yurib, nikoh o‘qitdingmi?

– Ularning yo‘rig‘i bilan emas, – dedi Pavel. – Men o‘zim shuni xohladim.

– Mana shuning uchun ham so‘rayapman-da, – dedi o‘zini yo‘qotib Filipp. – Vijdonlaring qiynalmadimi? Qariyalarni-ku, tushunish mumkin, ammo sizlar-chi?.. Axir, bu holda hech qachon zulmatdan chiqa olmaymiz-ku?!

Bunga javoban Pavel so‘kindi.

– Toshingni ter! – dedi-da, boshqa gapirishni istamadi.

Filipp bu uchrashuvdan Pavelning nigohida unga nisbatan yashirin nafrat, hattoki azoblanish aks etib turganligini sezdi. Nega shundayligini anglashga harakat qildi-yu, hech narsani tushunolmadi. Keyinchalik qulog‘iga «u Marya bilan yaxshi yashamayotganmish, ayol doimo g‘amgin emish...» degan gaplar chalindi.

Filippga faqat shu yetmay turuvdi, eski dardi yangilandi, ichkilikka berildi, ammo keyinchalik ichkilikni tashlasa-da, o‘sha ilon chaqqanday og‘riqni o‘zi bilan doimo olib yurdi. Ilon esa chaqaverar, chaqaverar, uning esa chidashdan o‘zga iloji yo‘q edi.

Mashinalarda kelgan kelin-kuyovning to‘yi unda mana shunday g‘amgin xotiralarni uyg‘otdi. U shu xayollar og‘ushida yana paromda u yoqdan bu yoqqa qatnadi, shamol suyak-suyagidan o‘tib ketgani uchun tushlikda bir stakan aroq ichishim kerak, degan fikrga keldi. Negadir ko‘ngli g‘ashlana boshladi.

«Yana ikki marta borib kelaman-da, tushlikka chiqaman», qat’iy qaror qildi Filipp. Begona qirg‘oqqa yaqinlashganda (Filipp o‘z qishlog‘i tomondagi qirg‘oqni o‘ziniki, narigi qirg‘oqni begona deb atardi), usti yopiq mashina hamda uning atrofida tumonat odam

ko‘rindi. Bu qanaqa mashina ekanligini, unda mayit olib kelishayotganini sinchkov nigohlari bilan darrov uqib oldi. Odamlar mayitni har doim shu taxlitda olib kelishardi. Parom oldiga kelgach, hammalari mashinadan tushishar va daryoga jimgina qarab turishardi. Buni tushunsa bo‘lardi.

«Kimni olib kelishayotgan ekan? – o‘yladi Filipp odamlarga nigoh tashlab. – Daryo yuqorisidagi qaysidir qishloqdan shekilli, chunki yaqin oradagi qishloqlarda kimdir qazo qilganini eshitmagan edi. Lekin, nega boshqa joydan olib kelishayapti? Yoki uyida o‘lmagan-u, dafn qilish uchun qishlog‘iga olib kelishayaptimikin?»

Parom qirg‘oqqa yetgandagina Filipp tik turgan odamlar orasida Pavelni – Maryaning erini tanidi. Va birdan kimni olib kelishayotganini angladi. Maryani olib kelishayotgandi... Yoz avvalida, Marya shaharda turadigan qizinikiga borayotgan chog‘da, u bilan uchrashgani yodiga tushdi. Parom narigi qirg‘oqqa yetib borguncha gaplashishgandi. Marya shahardagi qizi tuqqanini, unga yordam berish uchun ketayotganini aytgandi. Shirin suhbat qurishgandi. Marya o‘shanda yomon yashashmayotganini, uch nafar farzandiyam uyli-joyli bo‘lib ketganligini, o‘zi nafaqa olayotganini, eri Pavel ham nafaqa olayotgani-yu, ammo uyda haliyam duradgorlik qilib turishini aytib o‘tgandi. Mol-holni uncha ko‘paytirishmagan bo‘lsa-da, hamma narsa yetarli ekanini, kurka boqayotganini, o‘tgan yili uylarini ta’mirlashda o‘g‘illari kelib yordam berishganini ham gapirgandi.

Filipp ham hamma narsa yetarli ekanini, nafaqa olayotgani-yu, sog‘lig‘i durustligini, faqat ob-havo ayniganda boshi sal-pal og‘rib turishini aytib, ko‘nglini yumshatgandi. Marya esa negadir yuragi bezovta qilib turishidan so‘z ochib: «Ba’zida yarim tunlari qattiq sanchib qoladi, sirqirab og‘rishidan yig‘lagudek bo‘laman», – degandi o‘shanda. Mana, oxiri kuni bitibdi-da, Maryaning... Filipp Pavelni tanigan zahotiyoq oh deb yubordi, vujudiga o‘t tutashdi. Parom qirg‘oqdagi liqillab qolgan tutashtirgichga borib urildi. Parom zanjirini olib, ilgakka ildirishdi. Usti yopiq mashinaning oldingi g‘ildiraklari g‘o‘la yog‘ochlar ustiga chiqqanda ular qisirlagan, g‘ichirlagan ovoz chiqardi.

Filipp xuddi sehrlanganday eshkak yonida qotib turar, mashinadan ko‘z uzmasdi. Xudoyim, Xudoyim Maryani olib kelishayapti, Maryani...

Filipp haydovchiga mashinani paromga qanday qo‘yish kerakligini tushuntirishi lozim edi, chunki orqada yana ikkita mashina birbiriga tiralib turardi, u esa xuddi qoqqan qoziqdek joyidan qimirlamas, hamon mashina yukxonasiga qattiq tikilardi.

– Qayerga qo‘yay? – qichqirdi haydovchi.

– A?..

– Qayerga qo‘yay deyapman?

– Qo‘yaver...

Filipp qo‘lini noaniq siltadi. U haliyam jonsiz Maryani olib kelishayotganini tasavvuriga sig‘dira olmasdi. Fikrlar miyasida g‘ujg‘on o‘ynar, sabr xaltasiga sira jam bo‘lmasdi. Goho Marya bilan paromda turmushidan mamnunligi haqida gaplashib ketishayotgani, goho esa uning qizlik ma’sum damlari ko‘z o‘ngidan o‘tardi. Yo Xudoyim, yo Xudoyim... Marya... Nahot bu sen bo‘lsang?

Nihoyat, Filipp oyoqlarini zo‘rg‘a yerdan uzib Pavelga yaqinlashdi. Pavelni turmush bukib qo‘ygandi. Yuzlari hali so‘limagan, ko‘zlari tiyrak va ma’nodor bo‘lsa-da, ammo qaddi yoy edi. Aqlli ko‘zlarida musibat va sabot zohir.

– Pavel... nima bo‘ldi? – so‘radi Filipp.

Pavel zimdan sekin qaradi, ammo nimani so‘rayotganini tushunmadi shekilli nigohini yana pastga, parom taxtalariga qadadi. Qayta so‘rash Filippga noqulay tuyuldi... U yana eshkak yoniga qaytib keldi. Qaytayotib usti yopiq mashinaning orqasidan o‘tarkan qaradi – tobut. Zumda yuragiga og‘riq kirdi, fikri ravshanlashdi: ha, bu – Marya.

Parom suzib ketdi. Filipp ixtiyorsiz eshkak eshib paromni boshqarar, xayol surardi: «Marya, Maryaginam»... Dunyodagi eng aziz odami u bilan oxirgi marta suzib bormoqda... O‘tgan o‘ttiz yil davomida, paromchi bo‘lib ishlayotgandan buyon Maryaning necha marta u yoqdan bu yoqqa suzib o‘tganini besh qo‘lday bilardi. Asosan bolalarining holidan xabar olgani shaharga tushardi: goho o‘qishi, goho ishga joylashishi deb, goho esa nabiralari tug‘ilganda... Mana endi – Marya yo‘q.

Parom qirg‘oqqa yetib keldi. Yana zanjirlar sharaqlab, mashinalar motori guvilladi. Filipp esa yana eshkak yonida turgancha usti yopiq mashinaga tikilardi. Aql bovar qilmaydi. Mabodo Marya o‘lib qolsa nima qilaman, deb sira xayoliga keltirmagan. Aqalli bir marta ham o‘ylab ko‘rmagan. Uning o‘limiga tayyor

emas edi. Usti yopiq mashina jo‘nab keta boshlaganda, Filipp ko‘kragida chidab bo‘lmas og‘riqni his qildi. O‘y-xayolini bezovtalik chulg‘ab oldi: nimadir qilmasa bo‘lmaydi! Axir, hozir marhumani qabristonga olib ketishadi. Butunlay. Uni shu ko‘yi nigohi bilan kuzatib qolaveradimi? Nima qilish kerak? Bezovtalik butun vujudini qamrab oldi, u esa joyidan qimirlay olmas, lahza sayin o‘zini yo‘qotib borardi.

«Axir, vidolashishim kerak edi-ku! – Usti yopiq mashina yo‘lga chiqib olganda o‘ziga keldi va buni tushunib yetdi. – Hech bo‘lmasa, vidolashay-da!.. Hech bo‘lmasa, oxirgi marta bir ko‘ray. Tobutning qopqog‘ini hali yopishmagan, ko‘rish mumkindir axir!» Filippning nazarida, uning yonginasidan Maryani olib o‘tgan anovi odamlar bunaqa qilmasliklari kerak edi. Shundoqqina olib o‘tishdi – tamom-vassalommi? Agar bu kimningdir musibati bo‘lganda ham... hammadan ko‘proq uning – Filippning musibati-ku! Tobutda Marya yotibdi, axir... Ular uni qayoqqa?..

Filippning yodiga hayotidagi og‘riqli vaqtda ham yo‘qotolmagan, unutish mumkin bo‘lmagan eng aziz narsalar yopirilib kela boshladi. O‘tgan butun umri, eng asosiysi, eng keraklisi, nima uchun, kimning xayoli bilan yashagan bo‘lsa, hammasi ko‘z oldida turardi... U ko‘zlaridan yosh quyilayotganini ham sezmasdi.

Tobut ortilgan mashina ortidan ko‘z uzolmay qarab turardi. Mashina tepalikka ko‘tarilib, yo‘lida davom etdi va ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Mana endi hayoti qanday kechadi, uning. Axir yer yuzida Marya borligiga o‘rganib qolgandi. Ko‘ngli o‘ksigan, g‘amga botgan damlarda u Maryani eslar va sag‘irlik nimaligini bilmasdi, u bilan dunyo to‘lib turardi. Endi-chi, endi nima bo‘ladi? E, Xudoyim, usiz hammayoq huvillab qoladi; qanday og‘ir-a?

Filipp paromdan otilib tushdi; baxtiga so‘nggi mashina nimagadir jilmay turardi. Filipp haydovchining yoniga keldi-da:

– Usti yopiq... tobut olib ketayotgan mashinani quvib yet, – dedi o‘tinch bilan kabinaga chiqib olarkan.

– Nega? Nima uchun?

– Shunday qilmasang bo‘lmaydi.

Haydovchi yelka uchirib, boshqa savolga tutmay mashinani jildirdi. Qishloq oralab ketishayotganda, u Filippga bir necha bor sinchkov nazar tashladi.

– Bular Krayushkinodanmi? – so‘radi haydovchi oldinda sekin ildamlayotgan mashina tarafga boshi bilan imo qilib. Filipp sekin bosh irg‘adi.

– Qarindoshingmi? – yana so‘radi haydovchi. Filipp bu gal churq etmadi. U yana usti yopiq mashina ortidan qattiq tikildi. Bu yerdan yukxona o‘rtasidagi tobut ko‘rinib turardi. Tobut atrofida o‘tirib olgan odamlar birdan o‘zi uchun ham, mana shu tobut uchun ham begonadek tuyuldi. Qaysi urfga ko‘ra ular u yerda o‘tirishibdi? Axir tobutda Maryasi yotibdi-ku.

– Quvib o‘taymi? – so‘radi haydovchi.

– Quvib o‘t-da, keyin meni tushir.

Mashinani quvib o‘tishdi. Filipp kabinadan tushib, qo‘lini ko‘tardi. Shunda yuragi qinidan chiqquday bo‘lib o‘ynab ketdi, nazarida hozir nimadir yuz beradi-yu, hammaga, Filippga ham bir sir – Marya uning uchun aslida kim bo‘lgani oshkor bo‘ladi-qoladi. U mashina to‘xtagandan so‘ng nima voqea yuz berishini va qanday so‘zlarni to‘kib-sochishni bilmasdi. Maryani esa judayam ko‘rgisi kelardi. Bu uning uchun hamma narsadan muhim va zarur edi. Marya shunday ketaveradimi, axir uning – Filippning ham hayoti o‘tib bo‘ldi-ku, endi hayotida hech kim bo‘lmaydi.

Mashina to‘xtadi, Filipp uning ortiga o‘tdi... Qo‘llari bilan orqa taxtani ushlab, oyog‘ini temir narvonchaga qo‘ydi-da, kuzovga chiqib oldi.

– Pavel... – dedi o‘zi kutmagan yalinchoq ovozda, bunday ohangda gapirmoqchi emas edi. – U bilan vidolashishimga izn ber. Hech bo‘lmasa, bir bor ko‘ray, yuzini och.

Pavel ilkis o‘rnidan turib, to‘g‘ri unga qarab yurdi. Filipp uning bo‘zday oqargan yuzini yaqindan ko‘rishga ulgurdi. Qiyofasi o‘zgarib, boya g‘amga to‘lib turgan ko‘zlari tuyqusdan chaqchayib ketdi, birdan g‘azabga to‘ldi.

– Ket, bu yerdan! – sekingina, ammo keskin buyurdi Pavel va Filippning ko‘kragiga bir turtdi. Filipp buni kutmagan edi, munkib ketdi, kuzovni mahkam ushlab qolmaganda...

– Ket!!! – qichqirib yubordi Pavel. Va uni yana turtdi, bu gal qattiqroq turtdi. Filipp bor kuchi bilan taxtani mahkam ushlagancha Pavelga qarab, uning vajohatidan hayratlandi. Hech narsani tushunmasdi.

– Hoy, sizlarga nima bo‘ldi? – mashinadagilar sarosimaga tushishdi. Bir yigit – Pavelning o‘g‘li bo‘lsa kerak, darrov otasining yelkasidan ushlab nariroqqa tortdi. – Nima gap? Nima bo‘ldi sizga?!

– Ketsin! – yana g‘azab bilan o‘kirdi Pavel. – Ketsin u bu yerdan! Men unga ko‘rsatib qo‘yaman ko‘rishni. Sudralib kelganini qarang yaramasni! Jo‘na! Jo‘na deyapman! – Pavel joyida tepinar, alamdan shaytonlab qolgandi.

Filipp mashinadan tushdi. Shundagina Paveldan nima o‘tganligini angladi. Baribir, pastda turib ham unga g‘azab bilan tikildi. O‘zi anglamagan holda nimalarnidir gapira boshladi. Bu so‘zlarni bir umr yuragida tugib yurgan ko‘rinardi.

– Nima, alam qildimi?.. Birovnikini tortib olib, quvongan edingku, endi achinayaptilarmi?

– Sen-chi, quvonmadingmi? – dedi kuzovdan turib Pavel, – meni bilmaydi deysanmi?

– Boshqalarning baxti evaziga qurilgan hayot, mana qanday bo‘larkan, – davom etdi Filipp Pavelning yuqoridan turib nima deyayotganiga e’tibor bermay. Muhimi, yuragida borini aytib qolmoqchi bo‘lardi. – Huzur-halovatda yashayman deb o‘ylaganmiding. Yo‘-o‘q... unaqa bo‘lmaydi. Mana endi ko‘rib turibman, bularning hammasi senga qanchaga tushganini...

– O‘zing-chi, ashula aytib yurdingmi? Sen-chi... O‘zing... O‘zing ham egilib qolibsan-ku! Yaxshi yashaganingda egilarmiding?

– O‘shanda quvonganding-a? Mana – quvonib bo‘lding... Tilanchi! Ha, tilanchisan!

– Hoy, nima qilayapsizlar?! – jahl bilan dedi boyagi yigit. – Esdan og‘ib qoldilaringmi? Topgan vaqtlaringni-chi!

Mashina jo‘nab ketdi. Pavel yana bir bor baqirishga ulgurdi:

– Men tilanchimanmi? Sen esa bir umr darvozadan kirolmagan itga o‘xshab g‘ingshib o‘tding! Men emas, sen tilanchisan!

Filipp sekin ortiga qaytdi.

«Marya, – o‘yladi u, – eh, Marya, Marya... Mana, qanday qilib hammaning qanotini qayirding. Ikkita ahmoq – rosa hurdik... Aslidaku, ikkalamiz ham tilanchimiz, Pavel, sen ko‘pam akillayverma. Agar sen gadoy bo‘lmasang, nega buncha g‘azablanasan? Nima keragi bor g‘azablanishning? Yoshlikda baxtning bir bo‘lagini ushatib olganding, xursand bo‘lib yashayversang bo‘lmasmidi? Aslida sen ham quvonch nimaligini bilmay o‘tding. Axir u seni sevmasdi-da,

mana, ichingdagi g‘am bo‘g‘zingdan toshib chiqdi. O‘shanda tortib olmaslik kerak edi. Kelding, olding, ketding!.. Xursand bo‘lgandi...»

Alam qildi Filippga... Endi alam bilan Maryaga bo‘lgan ginaxonlik ham qo‘shildi: «Sen ham o‘zingga yarashasan, kutib turolmading, chopding Krayushkinoga qarab, foydasi bo‘lmasa ham. Endi nima bo‘ldi?..»

– Nima bo‘lardi... – dedi Filipp o‘ziga-o‘zi uzil-kesil. – Hammasi tugadi! Endi bu besh kunlik dunyoda vaqt-soating yetishini kutish va uning ortidan ketish qoldi.

Shamol ancha pasaydi, osmon yorishdi, quyosh nur sochsa-da, ilitmaydi. Atrof qandaydir ship-shiydam va sovuq. Kuz bo‘lgandan keyin shu-da!

YOLG‘IZ O‘ZLARI

Jabduqdo‘z Antip Kalachnikov odamlardagi kuyunchaklik va mehribonlikni qadrlardi. Har qalay, kayfiyati choq damlarning birida uyda xotiniga muloyimlik bilan gap qotdi:

– Marfa, filday ayolsan-u, miyang ishlamaydi-da.

– Hi, nimaga endi?

– Nimagaki... Nimani xohlaysan o‘zi? Senga qolsa, kecha-yu kunduz tikaversam, tikaversam. Axir menda ham qalb bor, yurak bor. Uning ham quvongisi, ham yayragisi keladi.

– Tupirdim-ey, o‘sha qalbingga!

– Eh-h...

– Nima eh, nima eh?

– Shunday, o‘zim... Joyi jannatda bo‘lgur «quloq» otajoningni eslab qoldim-da.

Serjahl, «filday» Marfa ikki qo‘lini beliga qo‘yib, Antipga qattiq tikildi. Kichginagina ramaqijon Antip matonat bilan bu tikilishni yengdi.

– Sen... otamni tinch qo‘y... Tushundingmi?

– Him, tushundim, – qisqa javob qildi Antip.

– Shunday bo‘lsin.

– O‘ta qattiqqo‘lsan-da, Marfajon. Axir bunaqa emas-da, jonim. Bunaqada yuragingni ado qilib o‘lib-netib qolsang, nima bo‘ladi?

Qirq yillik turmushlari davomida Marfa Antipning qachon jahl qilayotgani, qachon jiddiy gapirayotganini hech tushunolmasdi.

– Bas, ishingni qil.

– Tikayapman, onasi, tikayapman.

Kalachnikovlar xonadonidan hamisha ishlov berilgan terining achimsiq hidi anqib turardi. Uy keng va yorug‘ edi.

Qachonlardir bu uyda bolalarning jarangdor kulgisi yangragan damlar ham, keyinroq to‘ylar ham bo‘lgan, o‘lim kelib xonadon qayg‘uga cho‘kib, ko‘zgular yuzi bekitilib, lipillab yongan xira sham yorug‘i va aza jimligi hukm surgan, o‘limning chuqur, sirli sharpasi kezgan paytlar ham bo‘lgan edi. Ko‘p narsalar bo‘lgan. Antip Kalachnikov o‘zining gavdali turmush o‘rtog‘i bilan o‘n ikki jonni ulg‘aytirishdi. Aslida ular o‘n sakkiz farzand ko‘rishgandi. Uyning qiyofasi yillar davomida o‘zgaraverdi-yu, pechkaning o‘ng tomonida, to‘siq orqasidagi Antipning ish joyi o‘zgarmay qolaverdi. U shu yerda ot-ulovga egar-jabduq, yugan, jazliq, no‘xtalar tikar, xomut yasardi. Devorda uning qadrdon balalaykasi osig‘liq turardi. Balalayka uning jon-u jahoni, hayotda chuqur muhabbat qo‘ygan ermagi edi. Antip boshini sal eggan ko‘yi uni soatlab chalar va ikkalasi bir vujud bo‘lib qolganday, soz unga unutilgan qadrdon nimasinidir gapirib berayotganday yoki o‘zi unga keksalikning salmoqli o‘ylarini sekin aytib berayotganday... tushunib bo‘lmasdi. Agar sergak Marfa bo‘lmaganida, kun bo‘yi shunday o‘tiraverardi. Marfaga esa, uni kun bo‘yi tikish bilan shug‘ullangani ma’qul edi – tikaversa, tikaversa; u pulni yaxshi ko‘rar, har bir chaqa ustida qaltirardi. U butun hayoti davomida Antipning balalaykasiga qarshi jang qildi. Hatto, shu darajaga yetdiki, kunlardan birida jahl bilan balalaykani olovga itqitib yubordi. Antip rangi oqargan ko‘yi sozi qanday yonayotganiga tikilib qarab qoldi. Balalayka quruq qayin po‘stidek birdan lop etib alanga oldi-da, darrov tirishib qoldi. U xuddi odamdek uch marta ingradi, torlari uzildi va o‘ldi. Antip hovliga chiqib, boltani oldi-da, tayyorlab qo‘ygan barcha egar-jabduq, yugan, no‘xtalarni mayda-mayda qilib chopa boshladi. Indamay, betartib maydalab chopdi. Qo‘rqib ketgan Marfa o‘rindiqda g‘iq etmay qarab o‘tirdi.

Shundan keyin Antip bir hafta tinmay ichdi, uyga ham kelmadi. Keyin yap-yangi balalayka olib kelib, uy devoriga osib qo‘ydi-da, yana ish joyiga o‘tirdi. Shundan keyin Marfa balalaykaga boshqa qo‘l tegizmadi. Ammo Antipni diqqat bilan kuzatar: qo‘shnilarnikiga chiqsa ham uzoq qolib ketmas, bilardiki, ostona hatlab o‘tishi bilan u balalayka chalishni boshlar, ishlamasdi.

Kuz oqshomlarining birida ikkalasi uyda o‘tirar, Antip o‘z burchagida ish bilan mashg‘ul, Marfa esa nimadir to‘qirdi. Jimgina o‘tirishardi. Tashqarida yomg‘ir ezib yog‘ardi. Uy issiq va sarish-

tagina. Antip yasayotgan xomutiga bolg‘acha bilan kichkina mis mixchalarni qoqardi: taq-tuq... taq-tuq... Marfa to‘qiyotgan narsasini chetga olib qo‘ydi-da, deraza yoniga kelib nimalarnidir o‘ylab tashqariga qarab qoldi. Antip hamon to‘qillatardi. Osma soati ham xuddi hozir to‘xtab qoladiganday sekin chiqillar, ammo to‘xtamasdi. Har zamonda yomg‘ir tomchilari deraza oynasiga mayinlik bilan bo‘g‘iq urilardi.

– Nimadan kuyinayapsan, Marfajon? – so‘radi Antip. – Haliyam qanday qilib ko‘proq pul topishni o‘ylayapsanmi?

Marfa hamon oyna oldida jimgina o‘ylanib turardi. Antip unga qaradi.

– Xoh o‘yla, xoh o‘ylama, hademay o‘lamiz. Xoh o‘yla, xoh o‘ylama, yuz so‘m bu pul emas, – Antip ishlayotganda shunaqa gaplarni gapirishni sevardi. – Mana, men butun umr o‘tirib ishlab, orttirganim bavosir bo‘ldi. Faqat ishladim! So‘rab ko‘r-chi, hayotda nima ko‘rdim – hech narsa! Odamlar esa kurashishdi, hech bo‘lmaganda, har xil qo‘zg‘olonlar ko‘tarishdi, fuqarolar va jahon urushlarida qatnashishdi. Hech bo‘lmaganda, qahramonlarcha halok bo‘lishdi. Men esa o‘n uch yoshimdan mana shu ishga bog‘lanib, shu yerda o‘tirdim-u, hamon o‘tiribman, hademay yetmishni urib qo‘yaman. Mana shunaqa, bardoshimga balli. Endi, xo‘sh, nima uchun ishladim, degan savol tug‘iladi. Pul haqida hech qachon qayg‘urmaganman, men unga tupurganman. Mendan katta odam ham chiqmadi. Tez orada jabduqdo‘zlarning keragi ham bo‘lmay qoladi. Hayot menga nima uchun berilgan edi, degan savol tug‘iladi.

– Bolalar uchun, – jiddiy javob berdi Marfa. Antip Marfaning suhbatni quvvatlab aralashishini kutmagan edi. Odatda u bunaqa gaplarni qandaydir g‘azabli luqma bilan yarim belidan tepardi.

Antip jonlandi.

– Bir tomondan o‘ylab qaralsa, to‘g‘ri, ammo ikkinchi tomondan – noto‘g‘ri.

– Qaysi tomondan noto‘g‘ri?

– Shu tomondanki, faqat bolalar uchun yashamaslik kerak. Odam o‘zi uchun ham yashashi kerak.

– Xo‘sh, o‘zing uchun nimalar qilmoqchi eding?

Antip bu savolga birdan javob topa olmadi.

– Nimalar emish? Topardim nima qilishni... Masalan, men musiqachi bo‘lardim. Huv birda shahardan bir odam kelgandi-ku, o‘sha

meni «tug‘ma iste’dod, yombi» degandi. Yombi degani esa – bir bo‘lak oltin, kamyob narsa, men shunday deb tushunaman. Hozir men kimman? Oddiy bir jabduqdo‘z, balki menda boshqa bir...

– Bas qilsang-chi!.. – Marfa qo‘lini siltadi. – Vaysayverma, gapingdan odamni ko‘ngli ayniydi.

– Demak, tushunmaysan, – xo‘rsindi Antip.

Ancha vaqtgacha jim qolishdi. Birdan Marfa hiqqilab yig‘lay boshladi. Ro‘molcha bilan ko‘z yoshlarini artib, so‘ng:

– Bolalarimiz butun Yer yuzi bo‘ylab uchib ketishdi.

– Nima, bir umr atrofingni o‘rab o‘tirishlari kerakmidi? – gap qotdi Antip.

– Bas qil do‘qillatishni! – dedi qo‘qqisdan Marfa. – Kel, bolalarimiz haqida gaplashib o‘tiramiz.

Antip miyig‘ida kuldi, bolg‘ani qo‘ydi.

– Ha, qariyapsan, Marfa, – dedi u quvnoqlik bilan. – Xohlaysanmi, senga kuy chalib beraman, g‘amingni yozaman?

– Chal, – rozi bo‘ldi Marfa.

Antip turib yuz-qo‘llarini yuvdi, sochini tekislagan bo‘ldi...

– Yangi ko‘ylagimni olib ber.

Marfa sandiqdan yangi ko‘ylak olib berdi. Antip ko‘ylakni kiydi, kamar bilan belini bog‘ladi. Devorda osig‘liq turgan balalaykani olib, burchakka borib o‘tirdi-da, Marfaga qaradi...

– Konsertimizni boshlaymiz!..

– Sen ko‘pam kuchanma, – maslahat bergan bo‘ldi Marfa.

– Hozir butun o‘tib ketgan yoshligimizni eslaymiz, – dedi Antip maqtangannamo balalaykani sozlay turib. – Esingdami, ilgari odamlar qanday qilib birga jo‘r bo‘lib dalalarda kuylashardi?

– Albatta, eslayman, nega eslamas ekanman. Har holda, men sendan yoshroq bo‘lsam kerak.

– Qanchaga? Uch haftalikdan ko‘proqmi?

– Uch hafta emas, ikki yilga. Men u paytda navniholgina edim, sen esa o‘sha paytda ayg‘ir bo‘lib chopib yurarding.

Antip bu gapga qo‘shilganday kulib qo‘ydi.

– Ha, haqiqatan, men ajoyib yigit edim. Yodingdami qanday qilib ortimdan ilakishib yurarding?

– Kim? Menmi? Yo Xudo!.. Kim edi, huv o‘sha amaki o‘lmagur biyalarni qo‘yib yuborgan kunda bog‘chamizda ishtonini tashlab qochgan, a?..

– Ishton, deylik, mayli, meniki bo‘lsin.., – dedi Antip balalaykaning oxirgi qulog‘ini buray-buray, kichkina boshchasini sal qiyshaytirib olib torni cherta boshlarkan. Kuy yangradi. Iliqqina nim qorong‘i yog‘och uyning sokin bo‘shlig‘iga uzoq yoshlikning yorug‘ musiqasi quyildi. U yodga boshqa oqshomni – o‘tib ketgan sog‘inch oqshomini solardi. Ular yaxshi, ham yomon kunlarni eslashdi, hayotdagi eng muhim narsalar haqida o‘ylashar ekan, qaysi biri eng muhimi ekanini bilisholmasdi.

Tikmagin onajon menga
Qizil ko‘ylakni...

Antip sekingina Marfaga qosh uchirdi. Marfa ashulaga qo‘shildi:

Aybimni qadrdonim
Bekor bildirib qo‘yma...

Unchalik jo‘rovozda ayta olishmayotgan bo‘lsalar-da, ikkalasining ham ko‘ngli birdan ko‘tarildi, huzur qildilar. Ko‘z oldilarida unutilayozgan manzaralar gavdalandi. Goh cho‘l, goh daryo qirg‘og‘i, goho shivirlayotgan terakzor, sal qorong‘i, vahimali bo‘lib o‘rmon ko‘rinar, goh... Va ko‘zlarda nimalardir yoqimli jimirlab qo‘yardi.

Hammasi g‘oyib bo‘lgandi: kuz ham, yolg‘izlik ham, pul ham, xomut ham... Endi Antip sho‘x kuyga o‘tdi va mayda qadamlar bilan suyaklari bilinib turgan biqinlarini o‘ynatib, quvnoq ashula ayta boshladi:

Oh, voy, voy, vo-ya,
Voyginalarim mening.
Kela qoling, sayr qilib,
O‘ynab kuling, jonlarim...

Antipning bu quvnoq harakatlari kulgini qistatatar, u har zamon, har zamonda g‘alati qilib sakrab ham qo‘yardi. Marfa kulib yubordi va shu zahoti ro‘molchasini olib ko‘zlarini artib oldi-da, yana kula boshladi.

– Voy Xudoyim-ey, buncha irg‘ishlaysan-a, tomosha qilmagan hech kim qolmagan-u, yana ko‘nglini qarang buni, he...

Antip yashnab ketgandi. Kichkinagina aqlli ko‘zlarida sho‘xchan yorug‘lik zohir edi.

Eh Marfaginam meni, eh Marfaoyginam.
Bekorga sen menga g‘azab qilmagin!

– Esingdami, Antip, qanday qilib meni shaharga, yarmarkaga olib borganing?

Antip bosh irg‘ab qo‘ydi-da:

Oh, eslayman, jonim,
Eslayman Marfaginam.
Oh, xo-xo-xolarim,
Chuchmoma-yu no‘xatim.

– Biram ahmoqsan-ey, Antip, nimalar deb valdirayotganingni o‘zing ham bilmaysan, – dedi Marfa muloyim boqib.

Oh, Marfaginam, sen menga
Butun xalqning shodligi...

Marfa kulgidan yiqilayozdi, va: – Biram ahmoqsan-ey, Antip, – dedi.

Oh, u yerda, u yerda-ya,
U yerdaliklarim meni!

– O‘tir, birorta qo‘shiqni birgalikda kuylaymiz, – dedi Marfa ko‘z yoshlarini arta turib.

Antip sal hansirar... Marfaga kulib qarardi.

– Qalay? Sen bo‘lsang, meni Antipim yomon, deysan-a?

– Yomon emassan, kallavaramsan, – to‘g‘riladi Marfa.

– Demak, tushunmabsan, – dedi Antip Marfaning bu haqoratli tuzatishiga e’tibor bermay. O‘tirdi. – Axir biz sen bilan bilasanmi qanday yashashimiz mumkin edi! Yurakni yurakka berib! Ammo xafa bo‘lmagin-u... seni mana bu padari qusur pul yeb tashladi.

– Meni pullar emas, ularning yo‘qligi yedi.

– Bo‘pti, qo‘y, kerak emas, tugatdik. Xo‘sh, endi qanaqasini xohlaydilar, xonim-xonimjonim?

– Azamat Volodka haqidagisini.

– Ey, qo‘y, u og‘ir-ku!

– Hechqisi yo‘q. Men hech bo‘lmasa, ozroq yig‘lab olarmidim.

Hey chag‘alaylar, dengiz uzra uchmangiz,

dega kuylay boshladi Antip:

Qo‘narga joy qayda u yerda,
Uzoq Sibir tomon uchingiz
Va yetkazing g‘amgin xabarni.

Antip xuddi nimanidir hikoya qilayotganday yurakdan ezilib kuylardi:

Oh, qorong‘i tun soat o‘n ikkida
Volodka azamatni o‘ldirdilar.
Ertasiga ota kichik o‘g‘li ila...

Marfa piqillab yig‘lay boshladi.

– Antip, hoy, Antip! Kechir meni, seni ba’zida xafa qilaman, – dedi yig‘i aralash.

– Hechqisi yo‘q, – dedi Antip. – Sen ham meni kechir, agar biror aybim bo‘lsa.

– Seni ko‘pincha chalgani qo‘ymayman...

– Hechqisi yo‘q, – dedi yana Antip. – Agar meni o‘z erkimga qo‘yganingda, kecha-yu kunduz balalayka chalib o‘tirardim-da. Axir bunday yashab ham bo‘lmasdi-da. Men hammasini tushunaman.

– Xohlaysanmi, senga chorakta olib kelamiz.

– Mayli, – rozi bo‘ldi Antip. Marfa ko‘z yoshlarini artdi-da, o‘rnidan turdi.

– Sen do‘konga borib kel, men kechki ovqatni tayyorlayman.

Antip brezent yopinchiqni kiyib xona o‘rtasida turar, Marfaning sandiqdagi har xil latta-luttalar orasidan pul olib berishini kutardi. U turgani holda, xotinining keng yelkasiga tikilardi.

– Bilasanmi, yana nima ish qilish kerak, – dedi u sekingina... – bu o‘zi ancha eskirib qoldi, yangisini olish kerakmidi-ey. Kecha do‘konga olib kelishdi. Ajoyib! Kel, uni ham olaylik.

– Nimani? – Marfaning yelkasi qimir etmay qolgandi.

– Balalaykani-da.

Marfa yana g‘imirlay boshladi... Pulni olib sandiqning ustiga o‘tirdi va asta-sekin sanay boshladi. Lablari qimirlar, qovog‘i soliq edi.

– Uningni hali chalsa bo‘ladi-ku, – dedi u.

– Bitta taxtachasi yorilgan, zirillab qolgan.

– Yelimlab qo‘y. Yelim ol-da, ehtiyot bo‘lib yelimla...

– Bu asbobni yelim bilan yamab bo‘larkanmi? Xudo ko‘tarsin seni.

Marfa jim bo‘lib qoldi. Yana pulni sanay boshladi. Uning butun vajohati qat’iyatli va tashvishli edi.

– Ma, – Antipga pul uzatdi. Yuziga esa qaramadi.

– Faqat choraktalikkami bu? – Antipning pastki labi osilib qoldi.

– Ha-a!

– Hech narsa qilmaydi, hali uni chalsang bo‘ladi. Mana, bugun qanday ajoyib qilib chalding!

– Eh, Marfa!.. – Antip chuqur xo‘rsindi.

– Nima, eh? Nima, eh?..

– Bo‘pti, esdan chiqardik, – Antip burilib eshik tomonga yurdi.

– O‘zi necha so‘m turadi, uning? – birdan so‘rab qoldi Marfa.

– I-i, hech narsa turmaydi, u arzimas chaqa!.. Yangi narxda olti so‘m.

– Ma, – Marfa zarda bilan olti so‘m sanab berdi.

Antip tez-tez yurib xotinining yoniga keldi, pulni oldi va chiqdi, gaplashish yoki sekin harakat qilish xavfli edi. Marfa tezda aynib qolishi mumkin edi-da.

STYOPKA

Yana... hali balog‘atga yetmagan oqko‘ngil, loqayd, o‘ynoqi qizaloqqa o‘xshab bahor keldi. Qishloqning egri-bugri ko‘chalari tizzagacha loy. Odamlar chetan devorlarning qozig‘idan ushlab arang yurishadi. Mabodo, biron-bir go‘sht tayyorlov idorasida ishlaydigan to‘laroq amaki kelib shu qoziqlardan ushlab yurguday bo‘lsa, qoziq qo‘lida qoladi. Chunki bu idoraning hamma xodimlarining yuzlari ko‘zaday qizg‘ish va moviyrangda bo‘ladi. Hovli egalari esa dunyodagi bor la’natlarni ularning ortidan yog‘diradilar.

– Sen tekinxo‘rlar, etigingni iflos qilishga achinasanlar-u, men har bahorda ortlaringdan chetan devorni tuzatib yurishim kerakmi?!

– Agar chetaningga achinsang, tosh yotqizgin edi ko‘changga.

– Nima, qo‘lingga kuydirgi chiqqanmi? O‘zing yotqiz.

– ...Ko‘pam huraverma. Shunchalik aqllimisan?

Tunlari esa daladagi mayin qor eriy boshlagandi. Ariq yoqasida qator o‘sayotgan teraklardan esa nimanidir jaranglab yorilgan tovushi eshitilardi. Daryoda muz ko‘chardi. Kunduzi katta muz bo‘laklari quyoshda yaraqlab, silliq katta qorni bilan tosh qirg‘oqlarni g‘ijirlatib oldga siljir, daryo o‘zanlarida esa muz bo‘laklari qirg‘oqqa chiqib qolgan mayda toshchalarni sidirar va yana qayergadir oqib ketar edi. O‘ynoqi nam shamol bosh uzra aylanaverardi. Havoni o‘tkir go‘ng hidi tutgandi.

Kechqurun, uyqu oldidan odamlar mehribonroq bo‘lib qolishardi. Hovlilarda uch oyoqli cho‘yan qozonlardan bug‘ chiqardi. Qurigan o‘tinlar charsillar, olov o‘ynoqlab yonardi. Bir kun shunday o‘tdi. Kerak bo‘lmagan suhbat yarim chiranish bilan davom etar, ertaga yana kun bor, yana o‘sha, uncha zarur bo‘lmagan gaplar aytiladi. Hozircha esa dam olish, chekish mumkin, taqdirdan nolishning ham paytidir, balki o‘ylab ko‘rilsa, ertaga nima bo‘lishi Xudoga ayon;

balki hayot – taqdir boshqacharoq, biroz yaxshiroq bo‘lar?.. Umuman olganda, shundoq o‘taversa ham mayliydi.

Shunday o‘ychan oqshomlarning birida Stepan Voevodin dalani chetlab, qadrdon qishlog‘iga qaytib keldi. U qishloqqa hovlilar kamroq bo‘lgan tomondan kirib keldi, kun bo‘yi oftob qizdirgan tepalikka chiqib o‘tirib oldi-da, uf tortdi. Ko‘rinishidan juda ko‘p yo‘l kezgan, o‘lgudek toliqqan edi. U jimgina o‘tirib, ziyraklik bilan atrofni kuzatdi-da, o‘rnidan turib qishloqqa yo‘l oldi.

Nimyorug‘ ustaxonada qirindi hidi anqirdi. Yermolay Voevodin ustaxonada aravacha yasardi. U ming‘irlar, randasi taxtadagi ko‘zga tegib taqalib qolsa, odatiga ko‘ra muloyim so‘kinib qo‘yardi.

...Shunda to‘satdan ostonada o‘g‘li – Stepan paydo bo‘ldi.

– Salom, ota.

Yermolay boshini ko‘tardi, o‘g‘liga uzoq tikildi... Keyin burun qoqdi, xotinlarga o‘xshatib ko‘ylagining etagi bilan burnini artdi va o‘g‘liga diqqat bilan tikilib qoldi.

– Styopka, bu senmisan?

– Ha... Nima, tanimadingmi?

– Xuddi!.. Buni qara... Men o‘ylabmanki... Ko‘rayapman.

Stepan bujmaygan yuk xaltani ostonaga qo‘yib, otasiga yaqin keldi. Ikkisi quchoqlashib, o‘pishib ko‘rishishdi.

– Keldingmi?

– Keldim.

– Sal ertaroqmi?.. Biz kuzda kelasan, deb o‘ylagan edik.

– Ishimni tugatdim... Ertaroq qo‘yib yubordi.

– Eh, buni qara-ya!.. – Ota o‘g‘lini ko‘rayotganidan quvonardi. Ammo shoshganidan nima qilishni bilolmasdi.

– Haligi, Bo‘ribosar haliyam tirik.

– Yo‘g‘-ey? – hayron bo‘ldi Stepan. U ham nima qilishni bilmas, otasini ko‘rib turganidan xursand edi. – Qayerda u?

– Qayerlardadir sang‘ib yurgandir. O‘tgan shanba kuni xotinlar choyshablarini quritish uchun ilib qo‘yishsa, hammasini g‘ajib, bulg‘ab tashlabdi. O‘ynoqilabdi, itdan tarqagan.

– Ha, o‘ynoqi u, bemaza.

– Otib tashlamoqchi edim, seni o‘ylab indamadim.

Moslamaga o‘tirishdi, tamaki tutatishdi.

– Hamma sog‘-salomatmi? – so‘radi Stepan.

– Ha, yurishibdi. Xo‘sh, nima qilding?

– Shu, ishladik.

– Shaxtada ishlagan bo‘lsang kerak?

– Yo‘q, nega endi, o‘rmonda daraxt kesdik.

– Ha-a, xo‘sh, mayli, – Yermolay boshini qimirlatib ma’qulladi. – Aqling joyiga kelgandir?

– He-e... – Stepanning afti burishdi. – Gap bunda emas-ku, ota.

– Menga qara, Styopka... – Yermolay tamakidan sarg‘aygan qiyshiq barmoqlari bilan po‘pisa qildi. – Tushundingmi, endi qo‘lingga erk beraverma, kerak emas. Vaqtini topibsanlar tepalashishni, shaytonvachchalar. Endi unaqa qilma.

– Gap bunda emas-ku, – dedi yana Styopa.

Bostirmaxonaga qorong‘i tushdi. Hamon payraxa va qipiqning hidi anqib turardi. Styopa moslamadan turdi, papiros qoldig‘ini oyog‘i bilan ezg‘ilab tashladi.

– Uyga kirdik, ko‘rinish beraylik.

– Soqov qizimiz esa... – Yermolay o‘rnidan turarkan gap boshladi, – sal qoldi kuyovga chiqishiga.

U qandaydir bir muhim yangilik aytib bergisi kelardi-yu, mavridini topa olmayotgandek edi.

– Yo‘g‘-e? – hayron qoldi Styopa.

– Ham kulging keladi, ham yig‘laging.

Ombordan chiqayotib otasi hikoyasini boshladi:

– Bir marta klubdan keldi-da, menga «m-m-m»lab qoldi, kuyovni boshlab kelaman deb. Men unga hozir senga shunaqangi kuyovni ko‘rsatib qo‘yamanki, bir haftagacha o‘tira olmaydigan bo‘lib qolasan, dedim.

– Balki bekor qilgandirsan-a?

– Nega endi bekorga ekan? Bekorga... Birortasi aldamoqchi bo‘lgan, unga yengilroq po‘pisa qilib qo‘ydim. Qaysi ahmoqqa kerak shu holida. Men unga shunaqangi kuyovni ko‘rsatamanki, dedim...

– Kuyovni ko‘rish kerakmidi-i. Balki rostdan ham...

Shu payt uydan «kelin»ning o‘zi chiqib qoldi, yigirma besh yoshlardagi gavdali qiz. Akasini ko‘rdi-yu, qo‘llarini silkitib quvonch bilan «m-m-m»ladi. Uning ko‘m-ko‘k gulday ko‘zlari yoshlanib ishonch bilan qarardi. U bo‘sag‘ada turgancha balanddan pastga tikilib, akasining yaqinroq kelishini kutib turardi. Shu daqiqada u shunchalik xursand ediki, erkaklarning ham ko‘zidan yosh chiqib ketdi.

– Mana senga mi-mi, – dedi ota zarda bilan va kaftlari bilan ko‘zlarini artdi. – Seni kutdi, har kuni necha kun qolganini devorga belgilab chiqardi, – izoh berdi u Stepanga. – Ahmoq, hammamizni yaxshi ko‘radi.

Stepan sal xo‘mrayib zinadan ko‘tarildi, qovushmayroq singlisini bag‘riga bosdi-da, yelkasiga qoqib qo‘ydi. U akasini mahkam quchoqlab olganicha yuzi, peshonasi, yonoqlaridan tinmay o‘pa boshladi.

– Bo‘ldi bas, – Stepan singlisining quchog‘idan chiqishga urinar, u esa Stepanga mahkam yopishib olgandi. U bir tomondan singlisining mahkam qo‘llaridan, o‘pichlaridan qutula olmayotganidan o‘ng‘aysizlansa, boshqa tomondan bundan xursand ham bo‘lardi.

– Buni qara, – o‘ng‘aysizlanib g‘uldirardi u, – bo‘ldi, bas qil... bo‘ldi yetadi.

– Qo‘yaver, indama, – dedi ota ko‘z yoshini arta turib, – ko‘rmayapsanmi, sog‘ingan.

Nihoyat, Stepan singlisining quchog‘idan chiqib, unga quvonch bilan tikildi.

– Xo‘sh, ishlar qanday? – so‘radi u.

Singlisi qo‘llari bilan «yaxshi», deya ishora qildi.

– Unga hamisha yaxshi, – dedi otasi zinadan chiqayotib. – Yur, onangni ham xursand qilaylik.

Onasi yig‘ladi, quvondi:

– Xudoga shukr, Xudodan aylanay, oxiri mening oh-u zorim, duolarim senga yetib boribdi...

Hamma negadir o‘zini yo‘qotib qo‘yganday edi.

– Onasi, sen quvonsang ham, xafa bo‘lsang ham birdek, tushunib bo‘lmaydi, – tanbeh bergandek bo‘ldi Yermolay. – Nega buncha kalovlanasan? Mana, keldi-ku, quvonish kerak-da, axir.

– Quvonayapman-ku, nima, yo quvonmayapmanmi?..

– Bo‘ldi-da, yig‘lama unda.

– Sog‘lig‘ing yaxshimi, o‘g‘lim? – so‘radi onasi. – Yoki mazang bo‘lmay ertaroq qo‘yib yuborishdimi, a?..

– E, yo‘q, hammasi joyida. O‘tab bo‘ldim hammasini, keyin qo‘yib yuborishdi.

Birin-ketin qarindosh-urug‘, qo‘shnilar kela boshlashdi. Eng birinchi bo‘lib qo‘shnisi kulcha yuzli, muloyim, silliq juvon Nyura

Agapova kirib keldi. Ostonadan o‘tiboq hovliqib, quvonchi ichiga sig‘may so‘zlardi.

– Bundoq oynadan qarasam, voy Xudoyim-ey, Styopka kelganga o‘xshaydimi?! Rostdan ham Stepan...

Stepan unga jilmayib qaradi.

– Salom, Nyura.

Nyura taftli qo‘llari bilan quchoqlab, bevalarga xos ochiqqan lablarini chiroyli qo‘shnisining tamaki hidi anqib turgan, so‘l tomoni yorilgan lablariga bosdi.

– Sendan pechkaning hovuri keladi-ya, – dedi Stepan. – Erga tegdingmi, o‘zi?

– Meni oladigan erkak qani? Butun boshli qishloqda ikki yarim-ta erkak bo‘lsa.

– Nima, senga beshtasi kerakmi?

– Balki, men seni kutgandirman! – sharaqlab kuldi Nyura.

– Hoy, shayton ko‘tarsin seni, Nyura! – g‘ashi keldi onasining. – Ko‘pam bu yerda o‘ralashaverma, boshqalar bilan ham gaplashishga qo‘y... Judayam ziq bo‘lib ketgandirsan, o‘g‘lim?

– E, yo‘q, – so‘z boshladi Stepan, – u yerda hammasi yaxshi. Masalan, men bu yerda oyda bir kino ko‘rardim, to‘g‘rimi? U yerda esa haftasiga ikki marta. Agar xohlasam «qizil burchak»ka boraman, u yerda menga «Sovet kishisining vijdoni va sharafi» yoki «Ishchi sinfining kapitalist mamlakatlardagi ahvoli» haqida ma’ruza o‘qib berishlari mumkin.

– Nima, sizlarni u yerga kino ko‘rgani to‘plashganmidi? – quvnoqlik bilan so‘radi Nyura.

– Nega endi?.. Faqat kino ko‘rgani emas-ku, albatta.

– Tarbiyalashgan... shu yo‘l bilan, – gapga suqildi otasi. – Ahmoqona miyalarini to‘g‘rilashgan.

– Ko‘p ajoyib insonlar bor edi u yerda, – davom etdi Stepan. – Shundoq azamatlar bor ediki... Yana zo‘r ma’lumotli odamlar ham bor. Masalan, bizning brigadamizda ikkita muhandis bor edi...

– Ularni nima uchun qamashgan?

– Bittasini fabrikadagi qandaydir falokat uchun, ikkinchisini tepalashgani uchun, kimnidir boshiga shisha bilan tushirgan.

– Balki injenerman deb aldagandir? – ishonqiramayroq so‘radi otasi.

– U yerda yolg‘on gapirib bo‘lmaydi. U yerda hamma bir-biri haqida hamma narsani biladi.

– Yeb-ichishing qanday edi? – so‘radi onasi.

– Yaxshi, deyarli hamma narsa yetarli. Yomonmas.

Yana odamlar kela boshlashdi. Stepanning o‘rtoqlari kelishdi. Vosvodinlarning torroq yog‘och uyi torlik qila boshladi. Stepan qayta-qayta hikoya qilardi:

– E, yo‘q, umuman olganda, u yerda hamma narsa yaxshi edi! Sizlar bu yerda ko‘p kino ko‘rasizlarmi? Biz esa haftasiga ikki marta. Sizlarga artistlar keladimi? Bizlarda esa, u yerga tinimsiz kelishardi. Ovqat ham yetarli edi... Bir marta esa, hatto ko‘zboylog‘ich ham kelgan. Suv to‘la stakanni shunday oladi-yu...

Odamlar Stepanning aytayotganlarini zavq va biroz hayrat bilan eshitishar, «hm», «qara-ya», deb qo‘yishar, o‘zlari ham nimalarnidir degilari kelardi-yu, ammo yana boshqa birortasi savol tashlar va Stepan yana qaytadan gapirib bera boshlardi. Uzoq kutilgan bu uchrashuvdan, so‘roqlar va o‘zi so‘zlab berayotgan gaplardan xiyol boshi aylanibmi, goho o‘zidan ham u-bu narsalarni qo‘shib-chatib gapira boshlaganini sezmasdi.

– Qo‘riqlash masalasi-chi, qattiqdir-a?

– E, unchalik emas! Keyingi paytlarda bizlarni xo‘jalikka ishga olib borishardi, u yerda deyarli yolg‘iz o‘zimiz qolardik.

– Qochishmasmidi?

– Ba’zan. Qochgandan ma’no yo‘q.

– Aytishlaricha, agar kimdir aybdor bo‘lsa, tosho‘raga qamab qo‘yisharkan.

– Karserga. Bu kamdan kam holatda bo‘ladi. Agar judayam qattiq ayb ish qilsang. Ashaddiylarni, bizlarga esa tegishmasdi.

– Olg‘ir-u o‘g‘rilar rosa yig‘ilgan bo‘lsa kerak u yerda! – xitob qildi soddaroq bir yigit. – Bir-birini tunashlar, o‘g‘rilik bo‘lsa kerak?

Stepan kuldi. Unga qo‘shilib boshqalar ham kulgan bo‘lsalar-da, Stepanga qiziqib qarashdi.

– Bunaqa narsalar u yerda juda qattiq nazorat qilinadi, – tushuntirdi Stepan.

– Biror-bir kishi unaqa ish qiladigan bo‘lsa, darhol joyiga tiqib qo‘yishadi.

Shu vaqtning ichida onasi va gung qiz tezda hammomni qizdirishdi, otasi esa do‘konga chiqib keldi... Kimdir lattaga o‘ralgan salo olib keldi, kimdir kecha pishirilgandan qolgan bo‘g‘irsoq, kimdir idishda «asal pivo» keltirdi... Bayram qo‘qqisdan yuz berganligi sababli uy egalari tayyorgarlik ko‘rmagan edilar. Bayram stoliga kech qorong‘ida o‘tirishdi. Asta-sekin shodiyona qiziy boshladi. Hamma bir-birining so‘zini bo‘lib, baravariga gapira boshlashar, kulishardi... Stepan stolning to‘rida o‘tirar, goh chap, goh o‘ng tomoniga burilib yana gapirmoqchi bo‘lar, lekin endi uning so‘zlarini e’tiborsiz tinglardilar. U ham endi unchalik chiranib gapirishga harakat qilmasdi. U odamlar quvonib o‘tirishganidan xursand bo‘lar va ularning yig‘ilib o‘tirishganining sababchisi o‘zi ekanligidan mamnun edi. U endi yig‘ilganlarga yanayam yaxshi bo‘lishi, ularning o‘ynab-kulib o‘tirishlari uchun o‘sha tomonlardan o‘rganib kelgan qo‘shiqlardan birini kuylay boshladi:

Onajon, kechirgin meni,
Qilgan barcha qiliqlarim uchun.
So‘zlaringga quloq solmagandi-im...

Yig‘ilganlar bir zum jim bo‘lib qolishdi, Stepanni odamlarga bo‘lgan mehr va muhabbat tuyg‘ulari chulg‘ab olgan, kayfi ham oshib qolgandi. «Qamoqxona – bu hazil deb o‘ylagandim. Hazil deb men o‘zimni xarob qildim», deya kuylardi Stepan. Ashula ularga yoqmadi – aybdorlik tavba-tazarrusini yoqlashmadi, ularga unchalik ta’sirli tuyulmadi.

– Chapanicha ashula! – deya hayajon bilan tushuntirgan bo‘ldi boyagi sodda, turmadagilarning hammasi o‘g‘rilar, degan yigit. – Jim bo‘l hammang!

– O‘g‘lim, u yerda ham qamalgan ayollar ko‘pmi? – deya so‘radi stolning narigi chekkasida o‘tirgan onasi.

– Yetarli.

Shundan keyin u yerda o‘tirgan ayollarga oson emasligi haqida qizg‘in gurung boshlandi.

– Bolalarini tashlab ketishgandir, hoynahoy?

– Bolalar – yetimxonalarga...

– Agar men bo‘lganimda, ayollarni qamamagan bo‘lardim! – dedi kayfi oshib qolgan bir erkak. – Men ularning boshini o‘rab tashlardim-da, qayish bilan savalardim!

– Foydasi yo‘q, – bahslashdi u bilan Yermolay. – Agar sen uni savalasang, bilasanmi – u battar g‘azablanadi. – Men o‘zimnikini huv yoshligidayoq tarbiyalab olganman, bir-ikki marta no‘xta bilan tushirib, u esa menga jahl qilib gung qiz tug‘ib bergan.

Kimdir qo‘shiq ayta boshladi:

Bo‘lgan edi meni otam tug‘ma dehqon
Men esa u bilan birga ishlardim...

Qo‘shiqqa boshqalar ham qo‘shilishdi. Boshida ular qo‘shiqni pala-partish boshlab, asta-sekin ovozlarini bir ohangga to‘g‘rilab olishdi.

...Uch kecha-yu uch kun harakat qilib,
Singlimni asiralikdan qutqazdim...

Ashulani ichki zavq bilan stolga tikilgancha, jiddiy kuylashardi.

Yosuman otdi yoysimon o‘qni,
Go‘zal singlimni o‘ldirdi.
Men baland toqqa chiqqandim,
Ona qishlog‘imni tomosha qilgani
Yonmoqda, yonmoqda ona qishlog‘im,
Butun ona yurt yonmoqda!..

Stepan qo‘llarini stol qirrasiga mahkam tiradi.

– Sen meni yaxshi ko‘rmaysan, rahming kelmaydi! – dedi qattiq ovoz bilan. – Men esa sizlarni, qirriq shaytonlar, hurmat qilaman. Sizlarni juda sog‘indim.

Tamaki tutuni qoplagan dahlizdan garmon ovozi yangradi, farosatli kimdir garmonchini yetaklab kelgandi. Qiyqirib yuborishdi... Qo‘shiq tugadi. Stol atrofidagilar o‘rtaga tushib kuy ohangiga moslashib olishga harakat qilishar, oyoqlarini iloji boricha polga qattiqroq urishga unnab, raqsga tushishardi. Xotinlar aylana hosil qilib, lapar aytishardi. Gung qiz ham ro‘molchasini boshi uzra silkitib davrada aylanardi. Hamma uni barmog‘i bilan imlab ko‘rsatib kulardi. Qizning o‘zi ham kular, u judayam xursand edi.

– Verka! Vera! – qichqirardi ichib olgan shirakayf qiltiriq erkak.

– Sen yaxshisi bizga qo‘shiq aytib bersang-chi, nega o‘zingdan o‘zing aylanaverasan! – Uni hech kim eshitmas, o‘zining qilig‘i, hazilidan o‘zi yiqilguday bo‘lib kulardi.

Stepanning onasi esa keksaroq bir ayol bilan suhbat qurardi:

– Shuytib menga enkayib turibdi. – Ona- jon-n, yuragim orqaga tortib ketsa deng. Men arang boshimni ko‘tardim-da, so‘radim: «yaxshilikkami yo yomonlikka?» U esa naq qulog‘imning oldiga kelib yaxshilikka, deb shipshidi.

Keksa ayol boshini sarak-sarak qildi.

– Yaxshilikkami yo?

– Yaxshilikka, yaxshilikka, aniq qilib yaxshilikka dedi.

– Karomat qilgan.

– Karomat, karomat. Men yana oqshom o‘ylagandim qo‘shnim aytgan «bu qanday yaxshilikka ekan» deb. Shunday deb o‘ylab o‘tirgandim, eshik ochildi, qarasam u, uning o‘zi ostonada turibdi.

– Yo Tangrim, yo Tangrim, – shivirladi keksa ayol va ro‘molining uchi bilan nam bo‘lgan ko‘zlarini artdi. – Buni qarang-a! Xotinlar Yermolayni davraga tortdilar. U uzoq o‘ylab o‘tirmasdan bir oyog‘i bilan likillab, ikkinchisining poshnasini to‘qillatib polga urar va «oppa-xop, xoppa-xop»lardi. Tapillataverdi, tapillataverdi. Shkafdagi idish-tovoq ham sharaqlardi.

– Ha, qani-i, Yermil! – qichqirardilar Yermolayga. – Bugun senikida bayram, qani bir bitingni to‘k-chi, qimirla!

– Oppa, xoppa! – hayqirardi Yermolay. Ammo uning qirq yillik duradgorlik stoli yonida ishlagandan qotib qolgan yelkasi egilmas, shundayam sal bukchayib o‘ynayverdi, katta panshaxaday qo‘llari esa ikki yonida osilgancha turardi. Yermolay xursand edi, o‘zining barcha g‘am-anduhlarini unutgan bu kunni sal kam besh yil kutgandi. Davrada uning yoniga Stepan suqilib kirdi-da, oyoqlarini notekis to‘pirlata boshladi.

– Ha-a, ota...

– Ha, qani, ota-o‘g‘il! Qimirlanglar.

– Stepan o‘zini unchalik oldirmabdi, sakrayman deydi-ya.

– Aytdi-ku, axir: u yerda hammasi yaxshi edi deb. Ovqat yetarli bo‘lgan...

– Berishadi, olasan?.. Yetib olishadi-da, yana berishadi.

– Ha-a, oppa, xoppa! – Qichqirardi Yermolay o‘g‘liga tenglashib olishga harakat qilib.

Ikkalasi ham raqsga tushishni yaxshi bilmas, ammo tinmasdan oyoqlarini qimirlatar, harakat qilishardi. Bu esa odamlarga yoqar va ularga qiziqib qarashardi.

Shunday o‘yin-kulgi davom etayotgan damda uyda uchastka noziri qanday paydo bo‘lganini hech kim eslolmadi. Faqat qanday qilib u Stepanning oldiga kelgani-yu, qulog‘iga sekingina nimadir deganini ko‘rishdi. Stepan u bilan ko‘chaga chiqib ketdi. Yog‘och uyda esa o‘yin-kulgi davom etardi; qoidasi shunday bo‘lsa kerak deb o‘ylashdi, Stepan tayanch punktiga boradi-yu, u yerda har xil qog‘ozlarni rasmiylashtirsa kerak, deb hisoblashdi. Faqatgina gung qiz nimadandir xavotirlanganday ovoz chiqarib, otasini tortqilay boshladi. Otasi kayf bilan qizini siltadi.

– Nari tur, he, seni! Bor ana, o‘yna.

Darvozadan chiqishdi. To‘xtadilar.

– Menga qara, nima, sen esingni yeganmisan, yigit? – so‘radi hudud uchastka noziri Stepanning yuziga tikilib qarab.

Stepan darvoza ustuniga suyanib turgancha, zaharxanda kuldi.

– Mo‘jiza, ajoyib-a? Hechqisi yo‘q.

– Muddatingga atigi uch oygina qolgandi-ku?

– Sendan yaxshi bilaman... Chekishdan ber.

Nozir unga papiros uzatdi, o‘zi ham chekdi.

– Ketdikmi?

– Ketdik.

– Balki uyingdagilarga bildirib qo‘yarsan? Yana hovliqib yurishmasin.

– Bugun aytishning keragi yo‘q, mayli, o‘ynab kulaverishsin. Ertaga aytarsan.

– Uch oy qolganda chiday olmaslik va qochish!.. Kechirasan-ku, juda ko‘p hodisalarni ko‘rganman, ammo sendaqangi ahmoqni ko‘rmaganman. Nega bunday qilding?

Stepan qo‘llarini shimining cho‘ntagiga tiqib odim tashlarkan, g‘ira-shirada tanish uy, darvoza va bostirmalarga nazar tashlab borardi. Bolalikdan tanish bahorning achchiq sovuq bo‘yini simirar va o‘ychan kulardi.

– A?

– Nima?

– Nega bunaqa qilding?

– Qochganimmi? Shunday, bir ko‘rib tomosha qilib qaytay dedim-da. Sog‘inib ketgandim.

– Axir bor-yo‘g‘i uch oy qolgandi-ku? – deyarli qichqirib yubordi nozir. – Mana, endi bir juft yil qo‘shib berishadi.

– Hechqisi yo‘q... Men endi ancha o‘zimga kelib, quvvatlandim. Endi o‘tirish mumkin. Aslida meni tushlarim qiynab yuborgandi. Bilasanmi, har kuni tushimga qishlog‘im kirardi... Bahor bizda boshqacha kechadi, to‘g‘rimi?

– Ha, – dedi nozir o‘ylanib.

– Ular qishloq kengashiga yetib kelguncha uzoq jim qolishdi.

– Qanday qilib qochding-a?! Bir o‘zingmi?

– Uch kishi.

Ular qayerda?

– Bilmayman. Bizlar darhol bitta-bitta bo‘lib tarqalgandik.

– Xo‘sh, yetib kelguncha qancha vaqting o‘tdi?

– Ikki hafta.

– Tuf-u! Hey, shayton ko‘tarsin seni, o‘tirasan endi.

Qishloq kengashida uchastka noziri bayonnoma tuzish uchun o‘tirdi. Stepan xayol surgancha derazaga qarab o‘tirar, kayfi ham tarqab ketgandi.

– Quroling yo‘qmi? – so‘radi nozir bayonnoma tuzishdan chalg‘ib.

– Umrimda unaqa bo‘lmag‘ur narsani ko‘tarib yurmaganman.

– Yo‘lda nima yedilaring.

– Ular ehtiyot shart zaxira olishgan ekan.

– Ularning muddatiga qancha qolgandi?

– Ancha ko‘p...

– Xo‘p, ularning qochishida ma’ni bor deylik, ammo seni nima jin urdi?

– Bo‘ldi, bas, jonga tegding! – jahli chiqdi Stepanning. – O‘z ishingni bilib qilaversang-chi? Men senga xalaqit berayotganim yo‘q-ku.

Nozir boshini liqillatdi va yana qog‘ozga egildi.

– Rostini aytsam, menga qo‘ng‘iroq qilishganda ishonmadim. Bu qandaydir xato bo‘lsa kerak, bunaqangi ahmoqlar dunyoda uchramasa kerak deb o‘yladim. Qarasam, rostdan ham bor ekan, – dedi u.

Stepan hanuz derazaga tikilgancha nimalarnidir o‘ylab o‘tirardi.

– Anovi ikkisi ustingdan miriqib kulgan bo‘lishsa kerak? – Chidolmay yana gap qo‘shdi so‘zamol nozir.

Stepan quloq qoqmadi.

Nozir ancha vaqt uning yuziga qiziqsinib tikilib turdi-da, gapga tushdi.

– Aftingga qaragan odam seni ahmoq demaydi, – dedi-da, yana bayonnomani to‘ldirishga tushdi.

Shu payt xonaga gung qiz kirib keldi. Bo‘sag‘ada serrayib turib qoldi-da, qo‘rquv to‘la ko‘zlari bilan goh nozirga, goh akasiga ko‘z yugurtirdi.

– Me-e-i? – so‘radi akasidan.

Stepan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

– Sen nega bu yerga kelding?

– Mi-m-m? – mimmimladi singlisi qo‘li bilan nozirni ko‘rsatib.

– Bu kim? Singlingmi? – so‘radi nozir.

– Hmm.

Gung qiz stolga yaqin keldi-da, nozirning yelkasidan ushlab, qo‘llari bilan akasini ko‘rsatib: «Sen nega uni bu yerga olib kelding», – ishorasini qilib so‘roqlashga tushdi.

Nozir tushundi.

– U... u... – Stepanni ko‘rsatib. – Qamoqdan qochgan. Qochgan! Mana shunaqa...

Nozir deraza tomon barmog‘ini nuqib, uning qamoqdan qanday qochganligini tushuntirdi.

– Bama’ni odamlar eshikdan kirishadi, u esa derazadan sakrab qochgan. Endi unga... Nozir qizga barmoqlarini panjara qilib ko‘rsatdi-da, Stepanga ishora qildi. – Endi yana shunaqangi bo‘ladi. Ikki yil!

So‘ng ikki barmog‘ini ko‘rsatib, jahl bilan silkitdi.

– Yana ikki yil!

Gung qiz tushundi. Qachonki, hammasini tushunib bo‘lgach, uning qo‘rquv to‘la ko‘m-ko‘k ko‘zlari iztirobdan charaqlab, og‘riqli his-tuyg‘uni ifodaladiki, nozir taxta bo‘lib qolgandi. Gung akasiga tikilar, u esa yuzi oqarib, singlisiga qotib qarab turar edi.

– Mana endi sen bu kallavaramga tushuntir, miyasi butun odamlar bunaqa ishni qilishmaydi deb...

Gung qiz g‘alati qilib qichqirib yubordi-da, Stepanga otildi, uning bo‘ynidan mahkam quchoqlab, osilib oldi.

– Yo‘qot buni, – xirillab dedi Stepan nozirga. – Yo‘qot!..

– Qanday qilib ajrataman?..

– Ol deyapman, ablah! – baqirdi Stepan o‘zinikiga o‘xshamagan ovoz bilan. – Olib ket uni! Bo‘lmasa, hozir kursi bilan boshingni yoraman!

Nozir o‘rnidan sakrab turib, gungni akasidan ajrata boshladi... U esa akasiga qarab intilar va mim-mimlab, boshini silkitar edi.

– Unga ayt, men yolg‘on gapirdim de, hazillashgandim de. Yo‘qot uni!

– E, jin ursin sizlarni! Sizlar bilan ovora bo‘lib... – so‘kinardi u gungni eshik tomon sudrar ekan.

– Hozir men sizlarga u bilan xayrlashish uchun fursat beraman, – der edi nozir gungni eshikdan itarib chiqarishga tirishib. – U hozir keladi!.. Nihoyat u qizni eshikdan itarib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi-da: «Kuchini qarang buni», – dedi eshikni ilgak bilan mahkamlarkan.

– Uf-f. Qarab qo‘y, nima ishlar qilib qo‘yganingni, tomosha qil endi.

Stepan qo‘llari bilan boshini mahkam changallab bir nuqtaga tikilib o‘tirardi, nozir chala to‘ldirilgan bayonnomani dala xaltasiga solib qo‘ydi-da, telefonga yaqin keldi.

– Mashina chaqiraman, tumanga boramiz, e jin ursin sizlarni, qanaqa noshud odamsizlar, ey...

O‘rta ko‘chadan esa qoqilib-suqilib, bor ovozi bilan yig‘lab gung qiz ketib borardi.

YASHAGING KELADI

Qirday yalanglik. Yalanglikda esa yog‘och uycha. Uycha ham emas, o‘n uch-o‘n to‘rt qator yog‘ochni archib qurilgan, omborga o‘xshagan bir derazali, dahlizi yo‘q, tomi ham yo‘q bir kulbacha. Taygada kimlardir o‘tgan zamonlarda qurgan bo‘lishsa kerak.

Uch-to‘rtta boltakash usta bahorda havo noqulay bo‘lgan kunlari bir haftaning ichida tikroq o‘sgan daraxtlarni yiqitib qurishgan shekilli. Yaqin o‘rtada loy ham, toshlar ham yetarlicha tiqilib yotganidan «tosh pechka»ni ham yasab, mo‘risini tepaga chiqarib qo‘yishgan, taxtadan supacha ham yasashib, maza qilib yashayverishgan!

Qishda mana shunday uychaga kirsang, yashash zavqi sezilmaydi! Devorlardan shiftga qadar, burchaklarda, kaft qalinligidagi taxta gardon, namiqqan dud hidi anqirdi. Mana «tosh pechka»da charsillab o‘tin yona boshladi. Eriyotgan loydan quyuq achimsiq hid anqidi; devorlarda tomchilar paydo bo‘ldi. Atrofni dimog‘ni achituvchi hid tutib ketdi. Yaxshisi «tosh pech»ga o‘tinni to‘ldirib yoqib, yana o‘tin yig‘ib kelguningga qadar ko‘chaga chiqib ketish lozim... Yarim soatlardan keyin uycha ichi issiqqina bo‘lib, havosi yengillashadi. Kalta po‘stinni yechib tashlab, yana pechga to‘ldirib o‘tin qalashing mumkin. Devorlardan sal hovur ko‘tariladi, «tosh pech»dan issiq taraladi. Odamni xursandchilik va yoqimli halovat chulg‘aydi. «Oh, oh, bu rohat» deging keladi. Mana shunaqa. Endi deyarli hamma narsa qurigan, ammo yotoq taxtalar hozircha sovuq edi. Hechqisi yo‘q, hozircha u yerga kalta po‘stinni tashlab, boshing ostiga yuk xaltani qo‘yib, oyoqni pechga uzatib yotsang bo‘ladi. Va mudray boshlaysan, madoring qurigandaY. O‘rningdan turib yana o‘tin solishga erinasan. Ammo, kerak. «Tosh pech» ichi qo‘rga liq to‘la. G‘o‘lachalar xuddi quruq qayinday birdaniga o‘t oladi. Shundoq pechning yonida to‘nkacha. Unga o‘tirgancha tamaki tutatib,

xayol surishing mumkin. Yolg‘iz bo‘lganingda yaxshi o‘y surasan. Qorong‘i. «Tosh pech» yoriqlaridan yorug‘lik ko‘rinadi; yorug‘lik polda, devorlarda va shiftda o‘ynoqlab aks etadi. Xayolga esa nimalar kelmaydi deysan! Birdan xayolingga otang seni qanday qilib birinchi marta otga mindirgani, «Mahkam ushla, shaytonvachcha», deb otga qamchi urgani, o‘zi esa kulgani yodga tushadi. Onasi ham kuladi. Bu pichan o‘rimida yuz bergandi. Yoki bo‘lmasam qanday qilib birinchi marta qizni kuzatganing. Yonida ketyapsan-u, xuddi ahmoqday miq etmaysan... O‘tiribsan-u, o‘zingdan o‘zing miyig‘ida kulayotganingni o‘zing sezmaysan. Jin ursin, ajoyib-a. Ancha isib qoldi, endi choy ham damlash mumkin, ko‘kidan, qaynoqqina. Giyohlar hidi yozni eslatadi. ...Qariya Nikitich mana shunday «tosh pech» yonida o‘tirib trubkasini chekardi. Uycha juda issiq edi. Tashqarida esa chirsillagan sovuq. Nikitichning vujudi rohatlanardi. U yoshligidan taygani kezar – tirikchilik qilardi. Olmaxon ovlar, ba’zida esa daydi ayiqni yiqitib olardi. Shu maqsadda kalta po‘stinining chap cho‘ntagida doimo besh-oltita maxsus o‘q olib yurardi. Taygani sevardi, ayniqsa, qishda. Shunchalik sokin ediki, ozroq vahimali ham. Yolg‘izlik bilinmasdi, erkinlik jo‘sh urardi. Nikitich g‘imirlab atrofga boqdi, bilardiki, bu oqlik saltanatida uning bir o‘zi xo‘jayin. Nikitich chekib o‘tirardi. Tashqarida chang‘ining g‘ijirlagan tovushi eshitildi-yu, keyin jimlik cho‘kdi. Bo‘sag‘adan kimdir mo‘ralaganday bo‘ldi, eshikni ikki marta hassa bilan taqillatdi.

– Biror kimsa bormi?

Ovoz yosh, uzoq vaqt gapirmaganidan sovuqdan xirqirab chiqdi, odam o‘zi bilan o‘zi gaplasha olmasdi. «Ovchi emas», angladi Nikitich. Ovchi so‘rab o‘tirmaydi, shundoq kirib kelaveradi.

– Bor!

U kishi eshik orqasida chang‘ilarni yechib, ularni devorga suyab qo‘ydi, bo‘sag‘adagi zina g‘ichirladi. Eshik qiya ochilib, sovuqning oppoq hovurida baland bo‘yli, belini bog‘lab olgan, paxtali shim kiygan, eski askar telpagidagi yigit ko‘rindi.

– Kim bor bu yerda?

– Odam, – Nikitich payrahani yondirib, boshi uzra ko‘tardi.

Ancha vaqt bir-birlariga jim qarab turishdi.

– Nima, bir o‘zingmi?

– Bir o‘zim.

Yigit «tosh pech»ga yaqin keldi, qo‘lqopini yechib qo‘ltig‘iga tiqdi, qo‘llarini pechga tutdi.

– Sovuqni qara-ya, jin ursin...

– Sovuq. – Nikitich yigitning qurolsiz ekanini endi sezdi. – Yo‘q, ovchi emas. O‘xshamaydi. Yuzidan ham, kiyimidan ham. – Mart, u o‘z ishini qiladi.

– Qanaqa mart? Aprel-ku, axir.

– Bu – yangichasiga. Eskichasiga esa – mart. Bizda maqol bor: «Martda egning ikki qavat bo‘lsin», degan. Yengil kiyinibsan, – quroli yo‘qligi haqida so‘ramadi Nikitich.

– Hechqisi yo‘q, – dedi yigit. – Bir o‘zingmi?

– Bir o‘zim. Sen buni boya so‘rovding.

Yigit hech narsa demadi.

– O‘tir, hozir choy qo‘yaman.

– Ozroq isinib olay... Yigitning shevasi mahalliy «rusalik» edi. Qariyaning qiziqishi ortdi-yu, lekin asrlar davomida shakllangan odat bo‘yicha qiziqishini bosib, savollar berishdan o‘zini tiyib turdi.

Yigit qo‘llarini isitib olgach, papiros cheka boshladi.

– Yaxshi, issiq.

U chekayotganida Nikitich uni yaxshilab kuzatdi: oq yuzli, kelishgan, kipriklari qalin. Yutoqib papiros so‘rayotganida oldidagi ikkita tilla tishi yarqirab ketdi. Iyagidagi jingalak soqoli o‘sgan, ozg‘in. Yigit qariyaning nigohini sezib, yonayotgan gugurt cho‘pini ko‘tarib unga diqqat bilan tikildi. Nikitich uning qarashlarini eslab qoldi. «Jozibali» deya baho qo‘ydi. Nikitich: «Qizlar bunaqalarni suyadi», deb o‘yladi.

– O‘tir, nimaga tik turibsan?

Yigit jilmaydi.

– Unaqa deyishmaydi, otaxon. Joylashib oling, deyishadi.

– Xo‘p, joylashib oling unda, – dedi qariya.

– Unda joylashib olamiz. Boshqa hech kim kelmaydimi?

– Kim ham kelardi? Kech bo‘ldi. Agar kelsa ham joy yetarli bo‘lsa, – Nikitich g‘o‘ladan sal surildi, yigit yoniga o‘tirdi, qo‘llarini yana issiqqa tutdi. Ishchining qo‘llari emas. Sog‘lom bo‘lsa kerak. Nikitichga uning kulgisi ham ma’qul bo‘ldi, «yasama emas, oddiy, jiddiy». Yana uning tishlari ham... Kirishimli yigit. Soqolini qirtishlab, kastum kiygizib qo‘yilsa, o‘qituvchining o‘zi. Nikitich o‘qituvchilarni yaxshi ko‘rardi.

– Qandaydir iologmisan?

– Kim? – tushunmadi yigit.

– Haligi... bor-ku, taygada nimalarnidir qidirib yuradigan...

– Ha-a... Yo‘q.

– Qanday qilib qurolsiz yuribsan? Xavfli-ku, axir?..

– O‘zimiznikilardan qolib ketdim, – istamayroq javob qaytardi yigit. – Sizning qishlog‘ingiz uzoqdami?

– Yuz ellik chaqirimcha kelib qolar.

Yigit boshini qimillatib qo‘yib, ko‘zlarini yumdi, issiqdan rohatlanib birmuncha vaqt shu zaylda o‘tirdi, keyin bir silkinib oldi-da, chuqur nafas chiqardi.

– Charchadim.

– Bir o‘zing uzoq yurdingmi?

– Ancha. Ichadigan biron narsang yo‘qmi?

– Topiladi.

Yigitga jon kirdi.

– Yaxshi! Vujuding qaltirab ketyapti. Jin ursin, sovuqdan muzlab qolish hech gap emas. Yana aprel deydi.

Nikitich ko‘chaga chiqib kelib, salo solingan xaltacha keltirdi. Shiftdagi fonarni yoqib qo‘ydi.

– Sizlarni taygada yolg‘iz yurishga oz-moz o‘rgatishganmi, o‘zi... Bundoq qarasam jo‘natishadi-yu... Sizlar qayerdan ham bilasizlar, bu ishni. Mana men o‘tgan yili bittasini topib olgandim, bahorda – eruv payti. U ham yoshgina edi. Uning ham soqolchasi bor edi. Kiyimga o‘ralib, tarashaday qotib qolgandi. – Nikitich saloni taxtaning chetiga qo‘yib kesdi. – Agar mening yolg‘iz o‘zimni taygaga qo‘yib yuborishsa, butun qishni o‘tkaza olaman, kasal ham bo‘lmayman. Faqat o‘q dori, gugurt yetarli bo‘lsa bo‘ldi.

– Yog‘och uyga, baribir, kirasan-ku?

– Uy bo‘lgandan keyin nimaga kirmas ekanman, nima, qorda yotishim kerakmi? O‘zimga o‘zim dushman emasman-ku!

Yigit belini bo‘shatib, paxtalik nimchasini echdi ... Uy bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa yurdi. Qomati tik, yelkalari keng edi. Tirik jon topganidan, isinib olganidan o‘lguday xursand edi. Yana bitta papiros chekdi. Papiros hidi yoqimli edi. Nikitich shaharliklar bilan suhbat qurishni yaxshi ko‘rardi. Ularning taygadagi chorasiz ahvolidan g‘ijinardi, ba’zida, hatto biror-bir qidiruv guruhiga yo‘l boshlovchilik qilib oz-moz ishlab ham olar, ichida esa ularning ustidan kular,

ammo suhbatlariga qo‘shilardi. Shaharliklarning o‘zi bilan muloyim, bepisandroq kulib gaplashishlari uning g‘ashini keltirardi, o‘zlari bo‘lsa, agar ularni yolg‘iz qoldirib ketadigan bo‘lsang, ko‘zi yumuq kuchukvachchaday adoyi tamom bo‘lishlarini bilishmasdi. Mabodo guruhda ikki yo uch qiz bo‘lsa, yanada qiziqarliroq edi.

Shunda nolimaydilar, chidasa bo‘ldi. O‘zlarini hamma qatori ekanliklarini ta’kidlab, birovning yordam berishini xohlamaydilar. Hamma bilan to‘da bo‘lib birga uxlaydilar. Yo‘q, hech kim bema’ni qiliq qilmaydi. Agar bularni o‘rnida qishloqliklar bo‘lsa bormi, gunohdan o‘zlarini tiya olishmasdi. Bular esa jimgina! Bo‘lmasa, ular silliqqina, tor ishton, ko‘krakni siqib turadigan kalta ko‘ylak kiyib, yuz-ko‘zlarini chivindan saqlash uchun ro‘molni tang‘ib o‘rab olishgan, yum-yumaloq, xuddi qo‘g‘irchoqqa o‘xshaydilar. Yigitlar esa o‘zlarini xuddi shunday bo‘lishi kerakdek tutishar, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishardi.

– Izlayotganlaring nima?

– Qayerda?

– Bu... nima qilib yuribsizlar?

Yigit o‘zicha kuldi.

– Rizq.

– Rizq... bu og‘ayni quymaday silliq; uni ushlaganday bo‘lasan, mana u, mana qo‘lingda, birdan ko‘rasanki, yo‘q. – Nikitich odatda shaharliklar bilan qanday gaplashgan bo‘lsa, shunday suhbatga kirib gapga tushmoqchi bo‘ldi, mug‘ambirona salmoq bilan, agar diqqat bilan tinglayotgan bo‘lishsa, eshitib turib bir-birlari bilan ko‘z urishtirib qo‘yishsa yoki bo‘lmasa birortasi daftariga nimalarnidir yozib qo‘ysa, Nikitich bunaqa suhbatlarni eshitadigan quloq topilganidan xursand bo‘lib, tun bo‘yi davom ettirishi mumkin edi. Qishloqdoshlari gapirganida, vaysaqi deb so‘kib turib ketishgan bo‘lardi, bular esa eshitaverishardi. Maza. Goho o‘zi ham gapim silliqqina chiqayapti deb xursand bo‘lib qo‘yardi. Shunaqangi uydirmalarni gapirardiki, ba’zan unga o‘zi ham ishonib qolar, ba’zan esa qalbi go‘yo o‘rmonga o‘xshardi, unga teginma, bekordan-bekor bolta bilan chopma, bo‘lmasa qurib qolishi mumkin, qurisa, sening o‘zing quriysan! Yuraging uyushadi-yu, quriysan va nega qalbing uyushganini o‘zing ham tushunmay quriysan. Yoki, masalan, shahardan qurollarini ko‘tarib kelishadi-da, paq-puq qilib to‘g‘ri kelgan narsaga o‘q uzishaveradi! O‘q nimaga tegadi, jonivorning erkagigami,

urg‘ochisigami – farqi yo‘q, ishqilib o‘ldirishsa, ov qilishsa bo‘ldi. Bunaqangi ish uchun qo‘llarini sug‘urib tashlash kerak. Masalan, kiyik yoki ona ayiqni o‘ldirding, uning esa ikkita kichkina bolasi bor. Ular harom qotishadi-ku. Sen bitta ayiq terisini qo‘lga kiritarsan, agar ozgina kutganingda... uchtasiga egalik qilishing mumkin edi-ku. Aqlsizlik bu. Jonivorlar joniga o‘ylamasdan jabr qilish uchiga chiqqan aqlsizlik.

– Mana senga rizq. Yana rizq deysan-a? – davom etardi Nikitich.

Yigit uni eshitgisi kelmasdi. Derazaga yaqin keldi-da, qorong‘ilikka uzoq tikilib qoldi. Xuddi uyqudan uyg‘onganday:

– Baribir, hademay bahor keladi, – dedi birdan.

– Keladi, qayoqqayam borardi. O‘tir, gazak qilamiz. Tangri yetkazgani uchun. Idishda qor eritishdi, spirt aralashtirishdi. Ichishdi. Muzday sala bilan gazak qilishdi. Ko‘ngillar ancha bo‘shashdi. Yoqimli... Nikitich pechga yana o‘tin solib qo‘ydi. Yigit esa yana deraza yoniga bordi. Og‘zining hovuri bilan oynada aylana chizib qorong‘ilikka tikilib turardi.

– Hozir u yerda kimni ham ko‘rarding? – hayron bo‘lardi Nikitich gaplashgisi kelib.

– Erkni, – dedi yigit. Xo‘rsindi. Ammo, xo‘rsinishi mahzun emasdi. Erk haqida ham alam bilan qat’iy aytdi. Deraza yonidan siltanib uzoqlashdi. – Otaxon, ichgim kelayapti. Qora satin ko‘ylagi yoqasidagi tugmalarni yechdi, keyin kaftlari bilan ko‘kragiga gursillatib urdi, siladi. – Ko‘ngil istayapti.

– Biror narsa yeb olsang bo‘lardi. Bo‘lmasa, ochlikdan ko‘ngling ozadi.

– Ozmaydi. Mening ko‘nglim ozmaydi. – U qariyaning bo‘ynidan muloyimlik bilan mahkam quchib, kuylab yubordi:

O‘lim kamerasi esa
Namchil va sovuq.
Paydo bo‘ldi oqsoch qariya...

Va shirin jilmaydi. Yigitning ko‘zlari xushnud charaqlab yiltilladi.

– Kel, ichamiz, yaxshi odam.

– Yolg‘iz zerikding-a, – Nikitich ham jilmaydi. Yigit unga juda-juda yoqayotgandi. Yosh, kuchli, kelishgan. Lekin, adoyi tamom

bo‘lishi mumkin. Shundoq yigit tamom bo‘lishi mumkin. Taygada qurolsiz yursang, rasvoi raddi bo‘lasan.

– Tamom bo‘lmaymiz, otaxon. Hali davr-u davron suramiz! U buni yana bir bora qat’iy aytdi va ko‘zlari bir lahza qayergadir uzoq-uzoqlarga tikilib «qotib» qoldi... U nima haqida o‘ylayapti yoki kimni o‘ylayotgani tushunarsiz edi. Ammo, unda «nimanidir» eslash xohishi yo‘q edi.

Stakandagini bir zarb bilan oxirigacha ichib yubordi. Tomoq qirib, boshini silkitib qo‘ydi. Salani tamshanib chaynadi. Cheka boshladi. O‘rnidan turdi, o‘tirgisi kelmasdi. Katta qadamlar bilan xonada u yoq-bu yoqqa yurdi va xona o‘rtasida to‘xtadi-da, yana uzoqlarga sinchkov tikilib qoldi.

– Yashaging keladi, otaxon.

– Hammaning yashagisi keladi. Nima, meni yashagim kelmaydimi? Mening esa aslida safarim qarib qoldi.

– Yashaging keladi! – takrorladi salobatli kelishgan yigit qaysarlik bilan qariyaning gapini eshitgisi kelmay. – Sen uni bilmaysan, hayot, – o‘ylandi tishlarini mahkam qisib u, – bebaho, yoqimli. Mening jon-u jahonim.

Kayf qilayotgan Nikitich kulib qo‘ydi.

– Sen hayot haqida xuddi ayol haqida gapirganday gapirayapsan.

– Ayollar – arzimas, narxi past matoh. – Yigitni qandaydir jur’atli, xursand qiladigan qaysar tuyg‘ular chulg‘ab olgandi.

U qariyani eshitmas, o‘zicha ming‘irlar, ammo chol uning so‘zlarini tinglagisi kelardi. Yigitning hokimona quvvati endi uni tamoman o‘ziga bo‘ysundirib olgan edi.

– Ayollar – ular... albatta, ularsiz esa yanayam...

– Shundoq olamiz-u, biz uni – javohirni... – yigit qo‘llarini oldinga cho‘zib, barmoqlarini musht qilib tugdi, – g‘arni olamiz-u, tomog‘idan g‘ippa... Kolya professorni eslaysanmi? Unutmadingmi? – Yigit kim bilandir gaplashar va «uni unutishayotganiga» juda ham hayron bo‘lardi. – Kolyani-ya, sen esa hamon Kolyaning yodidan chiqqaning yo‘q. Kolya seni unutmadi. – U yo xursand bo‘layotgandi yoki kimdandir alam bilan o‘ch olmoqchi bo‘layotganday edi. – Men esa, mana borman. Jonginam, mumkinmi, senga aytar ikki og‘iz shirin so‘zim bor. Seni xafa qilmayman. Ammo, sen menga barcha narsangni berasan. Hammasini olaman men!..

– Rostdan ham u ayol seni shu darajada qoningni qaynatadimi? – so‘radi hayron bo‘lib Nikitich.

Yigit boshini chayqadi.

– U ayolning nomi Erk! Uni sen ham tanimaysan, bilmaysan, otaxon. Sen – jonzotsan, senga bu yer yaxshi. Katta shaharda chiroqlar qanday charaqlab yonishini sen bilmaysan. Ular sehrli chorlaydi. U yerda yoqimtoy odamlar bor, ularning uylari issiq, yoqimli musiqa yangraydi. Ular judayam sertakalluf va o‘limdan juda qo‘rqishadi. Men esa shahar kezaman. Bu shahar butunligicha meniki. Nima uchun ular u yerda-yu, men bu yerda bo‘lishim kerak? Tushunyapsanmi?

– Sen bu yerda bir umrga emassan-ku?

– Tushunmayapsan. – Yigit jiddiy va qat’iy so‘zlardi. – Men u yerda bo‘lishim kerak, negaki, men hech kimdan qo‘rqmayman. Men o‘limdan qo‘rqmayman. Demak, hayot – meniki.

Qariya boshini chayqadi.

– Nega bunaqa deyayotganingni tushunmayapman, bo‘z yigit.

Yigit taxta supaga yaqin keldi, stakanlarga quydi. U xuddi birdan charchab qolganday edi.

– Qamoqdan qochib kelayapman, otaxon, – dedi hech qanday ohanglarsiz. – Oldikmi?

Nikitich ixtiyorsiz holatda o‘z stakanini yigitning stakani bilan cho‘qishtirdi. Yigit ichdi. Qariyaga tikildi... U esa hamon stakanni qo‘lida ushlab, zimdan yigitga tikilib turardi.

– Nima?

– Bu qanaqasi bo‘ldi?

– Ich, – dedi yigit. Yana chekmoqchi bo‘ldi, ammo qo‘li bo‘shab qolgandi. – O‘zingnikidan berib tur.

– Mendagi o‘t-o‘landan, barglardan.

– Hechqisi yo‘q, jin ursin.

Chekishdi. Yigit to‘nkaga, olovga yaqinroq o‘tirdi. Ancha vaqt jim bo‘lib qolishdi.

– Tutib olishadi-ku, – dedi Nikitich.

U yigitga achinib emas, boshqacha qaradi, gavdali, kelishgan yigitni qanday qilib qurol o‘qtalib oldilariga solib haydab ketishayotganlarini ko‘z oldiga keltirdi. Uning yoshligiga, chiroyi va kuchiga achinib ketdi. Shappa ushlab olishadi-yu – tamom, hammasi itning dumi tagiga kirib ketadi; hech kimga uning chiroyidan na xamir, na patir bo‘lmaydi.

– Nega unday qilding? Bekor qipsan, – dedi u hushyor tortib.

– Nima?

– Nega qochding? Hozir oldingi davrlar emas, tutib olishadi.

Yigit gapirmadi. U olovga tikilib, o‘ylanib o‘tirardi. Engashib pechga o‘tin tashladi.

– Muddat tugaguncha o‘tirish kerak. Bekor...

– Bas qil! – Keskin gapini bo‘ldi yigit.

U ham qandaydir g‘alati holga tushgan, bundan sergak tortgandi.

– Yelkamda kallam bor.

– Ha, buni bilaman, tushunarli, – qo‘shildi Nikitich. – Yo‘ling uzoqmi?

– Jim, gapirma hozircha.

«Ota-onasi ham bo‘lsa kerak, ehtimol, – o‘ylardi Nikitich yigitning gardaniga qararkan, – boradi, ularni xursand qiladi».

Besh daqiqa indamay o‘tirishdi. Qariya trubkasidagi kulni to‘kib tashlab unga yana tamaki to‘ldirdi. Yigit hamon olovga tikilib o‘tirardi.

– Sening qishlog‘ing tuman markaziga yaqinmi, – so‘radi u teskari o‘tirgan holda.

– Qanaqa tuman markazi? Bizdan tumangacha to‘qson chaqirim chiqadi.

– Ishing pachava seni, qishda taygada...

– Senikida uch kuncha yashasam, kuch to‘plab olsam, – iltimos qilmadi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytdi.

– Yashayver, menga nima. Muddating uzoqmidi, chiday olmadingmi?

– Ko‘p edi.

– Nima uchun qamalganding?

– Bunaqangi savollarni, otaxon, hech qachon, hech kimdan so‘rama.

Nikitich o‘chib qolayozgan trubkasini qaytadan yondirib, chuqur tortdi va yo‘taldi. Yo‘tala turib so‘radi:

– Menga nima?.. Faqat achinayapman. Ushlab olishadi.

– Xudo sotib qo‘ymasa, cho‘chqa yeb qo‘ymaydi. Meni arzongarovga aldolmaysan. Kel, uxlaylik.

– Yotaver! Men o‘tin yonib tugaguncha o‘tiraman, mo‘rini yopaman. Bo‘lmasa, tongga yaqin sovqotamiz.

Yigit paxtaligini taxta supaga to‘shadi, boshining tagiga nima qo‘yishni bilolmay, atrofga boqdi. Ko‘zi devorda osig‘liq miltiqqa tushdi. Yaqiniga borib oldi, indamay ko‘zdan kechirdi, qayta joyiga ilib qo‘ydi.

– Eskigina ekan.

– Hechqisi yo‘q, hozircha yaroqli. Huv burchakda kigiz yotibdi, uni tagingga to‘sha, paxtaligingni boshing tagiga qo‘y. Ertalabgacha, baribir, sovib qoladi.

Yigit kigizni to‘shab, darrov cho‘zildi va chuqur xo‘rsindi.

– Kichkina shahar, – dedi u nimagadir. – Mendan qo‘rqayapsanmi, otaxon?

– Sendanmi? – hayron bo‘ldi qariya. – Xo‘sh, nima uchun sendan qo‘rqarkanman?

– Hm-m, men... haligidaqa qamalgan mahkumman-ku. Balki, odam o‘ldirganim uchun o‘tirgandirman.

– Odam o‘ldirgan bo‘lsang, seni Xudo jazolaydi, odamlar emas. Odamlardan qochib yurishing mumkin, ammo undan qochib qutulolmaysan.

– Sen dindormisan, nima balo? Eski dindorlardan bo‘lsang kerak hoynahoy?

– Dindor bo‘lsam, sen bilan o‘tirarmidim aroq ich-i-ib.

– Buyam to‘g‘ri. Xudoying haqida esa sen miyamni... Men undan qayt qilgim keladi. – Yigit sal bo‘g‘iq ovozda erinibgina so‘zlardi.

– Nima uchun?

– Nima uchunmi?.. Shuning uchunki, u ertak to‘qiydi, aldaydi. Oliyjanob, mehribon odam bo‘lmagan, bo‘lmaydiyam. U esa mehribon, bardoshli bo‘lishga o‘rgatadi. La’nati!

Yigitning ovozida yana avvalgidek qat’iylik va yetuklik sezila boshladi. Faqat ovozida ilgarigi sho‘xchanlik so‘ngan edi. – Kim oliyjanob? Menmi? Senmi?

– Men, masalan, hayotim davomida hech kimga yomonlik qilgan emasman...

– Hayvonlarni o‘ldirasan-ku! U o‘rgatmagan edimi?

– Tenglashtirding, barmoqni sarmoq bilan. Odam – bu odam, hayvon – hayvon-da.

– Tirik jonzot – o‘zlaring aytgansanlar-ku, ablahlar deb.

Yigitning yuzini Nikitich ko‘rmasdi, ammo ko‘z oldiga keltirdi – oqish yuzli, soqolchasi bor. Issiqqina sokin xonada taqdir ezg‘ilab tashlagan shunday xushsurat, yoqimtoy inson ovozi jarangladi. Yaxshi, kelishgan yuzli odamning ovozi.

– Sen nega menga jahl qilib qolding?

– Yolg‘on gapirmalaring! Aldamang odamlarni, farishtalar. Sizlarni sabrga o‘rgatishganmi? Sabr qilinglar! Ibodat qilishga ulgurib-ulgurmay, ishtonlaringni yechasizlar-u, ayolning ketidan chopasizlar, ilonlar! Men tumshuqqa tushirishni o‘rgatadigan yangi Isoni o‘ylab topgan bo‘lardim. Yolg‘on gapirdingmi? Ma, ol, maraz!

– So‘kinma! – dedi qat’iyat bilan Nikitich. – Seni odam deb uyga kiritishdi, sen esa itday hura boshlading. Xafa bo‘ldingmi, qamashdimi? Demak, aybingga yarasha. Kim bu yerda aybdor?!

– Mm-m. – Yigit tishlarini g‘ijirlatdi, so‘ng jim bo‘lib qoldi.

– Men senga pop emasman va bu yer senga Cherkov ham emas, hadeb zarda qilgani. Bu yer tayga – hamma birday. Buni yodingda tut. Bo‘lmasa, o‘zingning «erk»ingga yetib borolmaysan, quduqqa qulab, bo‘yning sinadi. Bilasanmi, yetim qo‘zi asrasang og‘izburning moy etar, degan maqol bor. Sening shoxingni qayiradigan odam ham topilib qoladi. Agar birovni hech narsadan hech narsa yo‘q xafa qilsang, u «erk»ni qayerdan izlashni ko‘rsatib qo‘yadi, senga.

– Achchig‘ing chiqmasin, otaxon, – dedi yigit kelishuvchanlik bilan. – Qanday yashashni o‘rgatadiganlarni ko‘rgani ko‘zim yo‘q. Ichim qizib ketayapti! Har xil bo‘lmag‘ur shilta balchiqni burning tagiga tiqishtirishadi, undoq yashash kerak, mana bundoq yashash kerak, deb. Barini ko‘rgani ko‘zim yo‘q! – deyarli baqirib yubordi yigit. – Men xohlamayman unaqa yashashni. Aldashayapti. Murda hidi anqiydi. Hammamiz top-toza qilib yuvilgan o‘liklarga achinamiz, rahmimiz keladi, sevamiz, sen tiriklarni sev. Yer yuzida farishtalar bo‘lmaydi! Men ularni ko‘rmaganman! Nima uchun biz ularni o‘ylab chiqaramiz?! – Yigit tirsagiga tayanib yonboshladi: g‘ira-shirada uning yuzi oqarib ko‘rinar, ko‘zlari chaqchayib yaltirardi.

– Sal hovuringdan tushsang tushunasan, agar yaxshi odamlar bo‘lmaganida, yer yuzida hayot to‘xtab qolgan bo‘lardi. Bir-birlarini yeb tashlashar yoki so‘yishardi. Buni menga hech qanaqa Iso o‘rgatgani yo‘q, men o‘zim shunday deb hisoblayman. Farishtalar esa rostdanam yo‘q. O‘zim ham farishta emasman. Hech kim meni

yomon yoki qahri qattiq demagan. Bir paytlar yosh bo‘lganman... Bu yerdan uncha uzoqda bo‘lmagan, qirdan narida, dinga sig‘inadigan chol-u kampir va ularning yigirma besh yoshlardagi qizidan iborat bir oila yashardi. Ular unchalik qari emas edi-yu, ammo menga o‘sha paytda keksa bo‘lib ko‘rinishgan. Ular keyin qayoqqadir ketib qolishdi. Xo‘sh, shunday qilib ularning qizi bor edi. Hammalari shu darajada xudojo‘y edilarki, gunohdan uzoqroq yurish uchun odamlardan qochishardi. Men esa o‘sha qizni aldab qayinzorga olib kirdim... va u bilan muchchi-puchchi, u yoq, bu yog‘ini... deganday... Oqila edi u. Qomatli. Homilador bo‘lib qoldi. Men esa uylangan edim...

– Yana hech yomonlik qilmaganman deysan.

– Ha, menam farishta emasman. Rost, men unga zo‘rlik qilmadim, shirin so‘z bilan erkaladim, ko‘ndirdim, ammo, baribir... bola hayotda sargardon bo‘ldi. Eslasam, achinaman. Ulg‘ayib qolgan bo‘lsa kerak, ehtimol, endi so‘kinadigan bo‘lib qolgandir.

– Insonga hayot bergansan, o‘ldirmagansan. Balki, o‘sha qizni ham qutqarib qolgandirsan. Shundan keyin balki qiz ulardan qochib ketgandir. Bo‘lmasa, ota-onasi uni ibodat qildiraverib jonidan to‘ydirib yuborgan va u o‘zini biror shoxga osib qo‘ygan bo‘lardi-yu, tamom. Bir umr erkak nimaligini bilmay o‘tardi. Yaxshi ish qilgansan, qayg‘urma.

– Yaxshimi, yomonmi shunday bo‘lgan, u yog‘ini bilmadim. Balki yomondir...

– U yerda yana qolganmi?

– Spirtmi? Ozroq bor. Ichaver, men boshqa ichmayman.

Yigit ichdi. Yana ihrab tomoq qirdi. Gazak qila boshladi.

– Ko‘p ichayapsan-ov?

– Y-o‘q, bu... shundoq, sovqotganman. Otaxon bunday ichish kerak emas... Huzur qilib ichish kerak. Musiqa, ajoyib sigareta, shampan vinosi, ayollar... Osoyishta madaniyat bilan.

Yigit yana orzularga berildi, qo‘lini boshining ostiga qo‘yib yotdi.

– Xaroba xonalardan jirkanaman. Bular odam emas – mol. Hm-m, nima qilsang, go‘zal yashash mumkin! Agar men bir kechada bir burni puchuq bilan yetti marta o‘ynashsam-a? Agar u meni nozik qo‘llari bilan quchsa va manglayimdan o‘pishni xohlasa, men nima qila olardim?! Keyin... dam olaman. Rohatlanaman... Mayli qalbing

tosh qotsin, mayli u kuchuk dumiday qaltirasin, men to‘g‘riga qarab yuraman, chalishib yiqilmayman.

– Sen o‘zi avval kim bo‘lib ishlagansan? – siziqsinib so‘radi Nikitich.

– Menmi? Ta’minot bo‘yicha xodim bo‘lganman. Chet ellar bilan madaniy aloqalar o‘rnatganmiz. Umuman olganda, men olimman. «Kolorada qo‘ng‘izi nima va u bilan qanday kurashish lozim» mavzusi bo‘yicha dotsent edim.

Yigit jim bo‘lib qoldi, birpasdan keyin uyquli tovush bilan:

– Bo‘ldi... otaxon, men ketdim, – dedi.

– Uxla.

Nikitich yog‘och kosov bilan «tosh pech»ni kovlashtirdi, trubkasiga tamaki joylab qo‘ydi va yigit haqida o‘y sura boshladi: «Mana senga hayot – hamma narsa berilgan; kelishgan, baquvvat, miyasi ham joyidaga o‘xshaydi. Xo‘sh... nima? Keyin-chi, o‘rmonda qochib yuraveradimi? Bularni shahar oqbilak qilib qo‘ygan. U yerdagilarning bari esdan og‘ib qolgan». Nikitichning uch nabirasi katta shaharda yashashadi. Ikkinchisi o‘qiydi, birovi ishlaydi, uylangan. Ular manoviga o‘xshab maqtanishmaydi-yu, ammo shaharga qarab intilishaveradi. Yozda ular kelishadi, tezda zerikib qolishadi. Nikitich qurolini oladi-yu, ularni taygaga yetaklaydi va ular o‘zlariga kelib, o‘qishdan Charchagan miyalarini sal «shamollatib» olishlarini kutadi. Nabiralari o‘zlarini maza qilib dam olayotgandek ko‘rsatishga uringanlarida, Nikitich noqulay ahvolga tushardi; axir uning bundan boshqa xursand qiladigan ilinji yo‘q-da. Go‘yoki ularni aldaganday noqulay vaziyatda qolardi. Ularning miyasida nuqul shahar gavdalanadi. «Manavi taxtada yotgan ham shahar deb, aqlini yeb qo‘yganga o‘xshaydi. Uning o‘rnidagi boshqa odam agar qamoqda o‘tirishga chiday olmasa, olisroqqa ketishi, biror yerdan yerto‘la kovlab to‘rt-besh yil ko‘rinmay turishi kerak edi. Bu esa yana o‘sha yoqqa, har qadamda yoqasidan bo‘g‘ib oladiganlar bor joyga bormoqchi. Qo‘lga tushishini o‘zi ham biladi, baribir, o‘sha yoqqa yuguradi. Bu shahar deganingda, qanday sehr bor o‘zi! Xo‘p mayli, men qariman, u yerda bor-yo‘g‘i uch yil bo‘lganman deylik. Tushunmayman. To‘g‘ri, u yerda xursandchilik ko‘p, chiroqlar charog‘on. Xo‘sh, men tushunmas ekanman, demak men istamayman. Senga u yer ma’qul ekan, salomat bo‘l. Menga esa bu yer yaxshi. Ammo bu nimasi, ular u yoqdan kelishadi-da, burnini jiyirishadi, zerikarli,

ziq bo‘lib ketdim, deyishadi. Hoy senlar! Avval u yoq-bu yoqqa durustroq qaranglar! Hali biror narsani tuzukroq ko‘rganlaring yo‘g‘-u, yana shahar haqida vaysaysanlar. Mana, masalan, chumoli yoki bo‘lmasa ko‘rsichqon qanday yashayapti, tomosha qil. Xohlagan jonzotga qara. Qiziqib qarab, bir tomosha qil. Keyin o‘ylab ko‘rchi, hayot haqida ko‘p narsa bilarmikansan yo yo‘q. Shahar haqida menga ertak aytasan?! Agar bilganlarimni ayta boshlasam, bilasanmi, eh-he, qancha! Meni eshitishmaydi, ko‘zlarini baqraytirib sizlarning og‘izlaringga tikilishadi, shaharliksizlar-da. Men esa senga tupurdim, shaharlik bo‘lsang bo‘libsan-da. Shahar ko‘chalarida oliftagarchilik qilib sang‘igan bo‘lsang, sang‘igandirsan. Sang‘iy-sang‘iy mana o‘n-o‘n besh yil ishlab olibsan-ku, chiroyli hayoting uchun. Biror-bir do‘konni to‘nagan bo‘lsang kerak-da yoki boshqami. Bir g‘ayrat qibsan-u, uchib ketibsanda guvillab. Yana o‘z ixtiyoring bilan ko‘kragingni panjaraning tig‘iga urmoqchisan. Demak, shaharsiz turolmaysan. Yana qandaydir do‘konni mo‘ljalga olgansan, o‘sha shampan vinosini, kallavaram! Shahar senlarni yeydi; suyak-puyaging bilan itday g‘ajiydi. Rahmim keladi, sen ahmoqlarga. Ammo, hech narsa qilib bo‘lmaydi».

«Tosh pech»dagi o‘tin yonib tugayotgandi. Nikitich oxirgi cho‘g‘larni kul ichida so‘nishini ko‘rgach, mo‘rini yopdi, fonusni o‘chirib, yigit yoniga cho‘zildi. U qo‘llarini biqiniga noqulay tiqib, chuqur nafas olgancha bir maromda uxlardi. Nikitich uning qo‘llarini to‘g‘rilab qo‘yganda ham qimir etmadi. «Charchagan, – o‘yladi Nikitich. – Nodon. Kim majbur qildi? Eh, sizlar?!»

...Yarim tunda ko‘chada – uycha yonida shovqin eshitildi. Ikki yoki uch erkak kishining ovozi kelardi. Yigit ilkis o‘rnidan turdi – xuddi uxlamaganday edi. Nikitich ham boshini ko‘tardi.

– Kim ular? – shoshib so‘radi yigit.

– Qayerdan bilay?

Yigit taxtadan irg‘ib turdi-da, eshik yoniga bordi, quloq soldi, qo‘llari bilan paypaslab, devordagi miltiqni izladi. Nikitich sergaklandi.

– Qani, aqlingni yig‘-chi! – dedi past ovozda qat’iy. – Bir falokatni boshlama.

– Kim ular? – so‘radi yigit yana.

– Bilmayman.

– Kiritma, eshikni yopib ol.

– Ahmoq. Kim ham yog‘och uychani qulflaydi. Qulflaydigan hech narsa yo‘q. Yot, qimir etma.

– Hah seni, boboy!..

Yigit gapini tugatmadi. Kimdir ostonaga ko‘tarilib, qo‘li bilan eshik dastagini qidira boshladi. Yigit ilonday sirg‘alib taxta supachaga cho‘zildi va shivirlab dedi:

– Otaxon, Xudo haqqi, shayton haqqi, iblis haqqi qasam ichaman, sotsang... Yolvoraman, qariya. Bir umr...

– Yot, – buyurdi Nikitich.

Eshik ochildi.

– A-ha-a!, – dedi kimdir yo‘g‘on quvnoq ovoz bilan. – Aytdimku, kimdir bor deb. Issiqqina, kiringlar.

– Eshikni yopsang-chi! – dedi Nikitich zarda bilan taxta supadan tushar ekan. Xursandligini qarang, issiqqina emish! Eshikni kattaroq ochsang, bundan ham issiqroq bo‘ladi.

– Hammasi joyida, – dedi yo‘g‘on ovozli. – Uy issiqqina. Egasiyam xushmuomala.

Nikitich fonusning piligini ko‘tardi. Yana ikki kishi kirib keldi. Birisini Nikitich tanidi, tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i. Ovchilarning hammasi uni tanishardi; ovchilik chiptasini olguncha ularni oylik badalni to‘lashiga majbur etib qiynab yuborardi.

– Yemelyanov? – so‘radi boshliq; u baland bo‘yli, yo‘g‘on, ellik yoshlardagi kishi edi. – Shunaqami?

– Shunday, o‘rtoq Protakin.

– Ha, mana! Mehmonlarni kutib ol.

Uchalasi ham yechina boshlashdi.

– Otishmagami? – mazax aralash so‘radi Nikitich.

U bunaqa kelib-ketuvchi «varanglatar»larni yoqtirmas edi: ular shovqin qilishardi-yu, ketishardi.

– Chigilimizni ozroq yozmoqchimiz. Bu kim? – Boshliq taxtada yotgan yigitni ko‘rib qoldi.

– Iolog, – xohlamaygina tushuncha berdi Nikitich. – Sheriklaridan qolib ketibdi.

– Adashib qolibdimi?

– Shundaydir.

– Nimaga unda biz bilmaymiz. Qayoqqa ketayotganini aytdimi?

– Nimani ham aytardi. Og‘zini arang ocholdi. Muzlab qolayozgan ekan. Spirt ichirdim unga, hozir o‘likdek qotib uxlayapti.

Boshliq gugurt cho‘pini yoqib, yigitning yuziga yaqin olib bordi. Uning birorta ham muskuli qimirlamay, bir maromda nafas olib yotardi.

– Surobini to‘g‘rilab qo‘yibsan sen uni, – boshliqning qo‘lidagi gugurt cho‘pi o‘chib qoldi.

– Nima uchundir u bizlarga ma’lum qilinmagan ekan?..

– Balki, xabar berishga hali ulgurishmagandir? – dedi kelganlardan biri.

– Yo‘q, qara ancha vaqtdan beri daydib yurganga o‘xshaydi. U senga qachondan beri yolg‘iz yurganligini aytmadimi?

– Yo‘q, – javob qaytardi Nikitich. – Qolib ketdim dedi, bo‘ldi.

– Mayli, uxlab olsin, ertaga aniqlaymiz. Xo‘sh, o‘rtoqlar, endi uxladikmi?

– Uxladik, – deyishdi ikki sherik. – Sig‘amizmi?

– Sig‘amiz, – dedi boshliq ishonch bilan. – O‘tgan safar besh kishi bo‘lgan edik. Tongga yaqin muzlab qolishimizga sal qoluvdi. Olovni kam yoqqan ekanmiz. Sovuq esa ellik darajaga yaqin edi.

Kiyimlarini yig‘ishib, taxta supaga cho‘zilishdi. Nikitich yigitning yoniga yotdi. Kelganlar yana ozgina vaqt o‘zlarining tumandagi ishlari haqida gaplashib yotishdi-da, keyin jim bo‘lib qolishdi. Hammalari uxlashdi.

...Nikitich deraza sal yorisha boshlagan payt uyg‘ondi. Yonidagi yigit ko‘rinmadi.

Nikitich ohistagina katdan tushdi, cho‘ntaklarini kovlashtirib gugurt qidirdi. Hali ko‘ngliga biron-bir yomon fikr kelib ulgurmagandi. Gugurt cho‘pini yoqdi... Yigit yo‘q edi. Uning paxtaligi ham, quroli ham joyida ko‘rinmasdi. Ko‘kragining osti yomon siqildi.

«Ketibdi, qurolni ham olib ketibdi». Shovqin solmay kiyindi, burchakka suyab qo‘yilgan uch miltiqdan birini oldi, cho‘ntaklaridagi zo‘ldir solingan patronlarni paypaslab tekshirdi.

Eshikni sekingina ochib, tashqariga chiqdi. Tong endi otayotgan edi. Tun birmuncha iliqlashgan. Tuman hovuri xira tong shu’lasiga, rangiga singib ketgandi. Besh qadam naridagi narsani ko‘rib bo‘lmas, bahor hidi anqiy boshlagandi.

Nikitich oyog‘iga o‘z chang‘ilarini bog‘lab, izlari aniq ko‘rinib turgan xira qor ustidan yurib ketdi.

– Itvachcha, qarg‘ish tekkur o‘g‘rivachcha! – Past ovozda so‘kinardi u. – Ketibsan, qurolni nega olasan, it! Qurolsiz men bu yer-

da nima qila olaman, o‘ylab ko‘rmadingmi, xomkalla? Meni nima, xazinam bormi, sendaqalarning hammasini qurol bilan ta’minlashga? Qarg‘ish tekkur, sen uni, baribir, qayerdadir tashlab yuborasan-ku. Sen faqat taygadan chiqib olsang bo‘ldi? Men bu yerda qurolsiz qo‘limni qovushtirib o‘tiramanmi. Na uyat, na vijdon qoldi odamlarda.

Tong asta-sekin yorishib kelardi. Kun bulutli – iliq bo‘ladiganga o‘xshardi. Chang‘i izlari qishloq tomonga qarab ketmagan edi.

– Odamlardan qo‘rqasanda-a? Eh senlarni... «Chiroyli hayot». Qariyaning oxirgi qurolini esa, o‘marish mumkin-a. Ammo har qancha epchil bo‘lsang ham mendan qochib ketolmaysan. Navqiron bo‘lsang ham men senga o‘xshaganning yettitasini holdan toydiraman.

Qariyaning ko‘nglidagi g‘azab unchalik kuchli emas edi. Ko‘ngli og‘rigandi; sen uni odam deb g‘amxo‘rlik qilsang-u, u bo‘lsa sening qurolingni olib ketsa! Shundan keyin ham, sen munofiq emasmisan? Nikitich uch kilometrdan ziyod yo‘lni bosib qo‘ygan edi. Tong otib qoldi. Chang‘ichi ancha uzoqlab ketgandi.

– Erta turgan ekan. Sasini chiqarmay yo‘l olganini qara!

Bir joyda yigit to‘xtabdi, chekibdi, chang‘i izlarining ikki yonida suyanchiq tayoqlarning chuqur izi qolgan. Qorda yongan gugurt donasi, xazon va tamaki qoldiqlari yotardi.

– Tamaki xaltamni ham olibdi! – Nikitich jahl bilan tufladi. – Voy maraz-ey, iflos! – Qadamini tezlashtirdi qariya.

...Nikitich yigitni pastda, soy bo‘ylab ketayotganida ancha uzoqdan ko‘rdi. Yigit shoshilmay, ammo ildam, dadil qadamlar bilan yurib ketardi. Yelkasida miltiq osilgan edi.

– Yurishni bilarkan, – baho berdi o‘zicha Nikitich.

Chang‘i yo‘lidan qayrildi-da, yigitni aylanib quvib o‘tish uchun jadallab ketdi, o‘zini sezdirmaslik uchun uzun qirning panasiga o‘tib, tepaliklar bo‘ylab ketib borardi. U yigitni taxminan qayerda uchratishini bilardi; oldidagi yo‘lda uncha keng bo‘lmagan chorraha kesishgan joy bor, yigit o‘sha yerdan o‘tishi kerak va yana yalanglik bor... Nikitich uni o‘sha yerda kutib oladi.

– Hozir men senga tomosha ko‘rsataman, – dedi Nikitich zaharxandalik bilan va bor kuchi bilan tayoqlarga tayanib harakatini tezlashtirdi. Qiziq, negadir Nikitichda mehmonning chehrasini yana bir bor ko‘rish istagi bor edi. Kishini tortadigan nimadir bor edi uning yuzida. «Rostdan ham, balki o‘ziga xos chiroyli hayotga yetishish

uchun intilganda shunday bo‘lishi kerakmikan. Agar bundoq o‘ylab ko‘rilsa, bu yerda u nima ham qiladi? Tamom bo‘ladi. Padari qusur bir kuni tushunib olar».

Chorrahada Nikitich sekingina yalanglikni kuzatdi, yigit ko‘rinmasdi, quvib o‘tgandi. Tezda chorrahani kesib o‘tdi-da, yigit taxminan qayerdan kelishi mumkin bo‘lgan joydagi buta panasiga o‘tdi, o‘qdonni tekshirib ko‘rib, kuta boshladi. Tajribali ovchilarga xos odatga ko‘ra beixtiyor qurolni ko‘zdan kechirdi; yap-yangi Tula miltig‘i, miltiq yog‘i anqib, yaltillab turibdi. «Ovga chiqishgan emish, miltiqdan hid tarqalmasligi kerakligiga aqllari yetmabdi. Ovda chekishni ham yoddan chiqarish kerak, sendan bir toshliqda hid taralmasligi uchun, og‘izni ham choy bilan chayqab olish kerak, kiyimni ham boshqacharog‘ini, yaxshisi uyning hidi kelmasligi uchun tashqarida, ochiq havoda osig‘liq turganini kiyish kerak. Ovchilar emish – bir uyum kuydirgilar». Yigit chorraha chekkasiga chiqib keldi-da, to‘xtadi. Atrofga alanglab qaradi. Biroz to‘xtab turdida, tez-tez yurib chorrahani kesib o‘ta boshladi. Xuddi shu paytda Nikitich uning qarshisidan chiqib keldi.

– To‘xta! Qo‘lingni ko‘tar! – baland ovoz bilan buyruq berdi u yigitni qattiq sarosimaga solish maqsadida. U boshini ilkis ko‘tardi, ko‘zlarida dahshat ko‘ringanday bo‘ldi. Qo‘llarini ko‘tarmoqchiday silkitdi-yu, Nikitichni tanib qoldi. Shungacha esa ko‘rgan bo‘lsa ham tanimagandi.

– Nima deganding, hech narsadan qo‘rqmayman demaganmiding? – so‘radi Nikitich. – Ishtoningni esa birpasda bulg‘ading.

Yigit tezda o‘ziga keldi, o‘ziga xos yoqimtoylik bilan yana biroz zo‘raki jilmaydi.

– Voy seni-ey, otaxon... boplading. Xuddi kinolardagiday... Voy enag‘ar-ey. Bunaqada yurak yorilib o‘lish hech gapmas.

– Endi, gap bunday, – ishning ko‘zini biladigan ohangda gap boshladi Nikitich. – Qurolni yelkangdan yechmay, qo‘lingni orqangga uzatib miltiqni och, o‘qdondan o‘qni sug‘urib ol-da, chetga uloqtir. Cho‘ntagingdagi hamma narsani ag‘dar. Ulardan menda o‘n olti dona qolgan edi. Hammasini qorga tashla, o‘zing esa chetga chiqib tur. Agar hazil-pazil qilishni o‘ylasang, otaman. Chiniminan aytayapman.

– Tushundim, otaxon. Negadir hozir hazil qilish ko‘nglimga sig‘mayapti.

– Uyatsiz, o‘g‘ri.

– O‘zing aytganding-ku, taygada qurolsiz yurish bema’nilik deb.

– Bu yerda qurolsiz men nima qilaman?

– Sen – uyingdasan.

– Ha, gapir, gapir. Uyingdasan. Nima, mening uyimda zavod bor ekanmi?

Yigit cho‘ntagidan patronlarni chiqarib tashladi. Nikitich sanadi – o‘n to‘rtta. Keyin qo‘llarini orqasiga cho‘zdi-da, pastki labini tishlab, diqqat bilan qariyaga tikilganicha izlandi. U ham yigitdan ko‘zini uzmagan holatda miltiq tepkisiga barmog‘ini qo‘yib uning ko‘krak qismiga to‘g‘rilab turardi.

– Nimaga kalovlanasan?

– Chiqara olmayapman...

– Tirnoqlaring bilan ildirib ol yoki mushting bilan qo‘ndoqqa ur. Avval bitta, keyin esa ikkinchi patron yerga tushdi.

– Xo‘sh, endi huv anavi yerga borib tur.

Yigit bo‘ysundi. Nikitich patronlarni yig‘ib oldi-da, kalta po‘stinining cho‘ntaklariga joyladi.

– Miltiqni menga uloqtir, o‘zing esa joyingdan qimirlama. Yigit qurolni yechdida, qariyaga uloqtirdi.

– Endi turgan joyingga o‘tir, chekamiz. Tamaki xaltani ham menga ot... xaltani o‘g‘irlaganini-chi...

– Chekish xumori tutardi-da, meni.

– Sen faqat hamma narsa menga, menga deysan. Xo‘sh, men haqimda ham o‘yladingmi, shaytonvachcha! Men nimani chekaman?

– Maylimi, men o‘zimga ozroq olsam?

– Olaqol. Gugurting bordir?

– Bor.

Yigit o‘ziga ozroq olib qoldi-da, tamaki xaltani qariya tomonga otib yubordi. U ham cheka boshladi. Bir-biridan besh qadamcha uzoqlikda o‘tirishardi.

– Ular ketishdimi, kechasi kelganlar?

– Uxlashayapti. Ular uxlashga mohir. Ular ov qilishmaydi, o‘yin qilishadi, o‘z tumanlarida odamlarning ko‘z o‘ngida yozilib o‘ynab-kulolmaydilar. Mana shuning uchun ular ko‘zdan pana joyga kelishadi.

– Kim edi ular?

– Boshliqlar. Kuchlarini quruqqa sarflaydilar.

– Ha-a!..

– Sen nima, meni quvib yetolmaydi deb o‘yladinmi?

– Hech narsa deb o‘ylaganim yo‘q. Ularni birovi senga tanish ekan. Kim u? Uni familiyasini aytgan eding...

– Ijtimoiy ta’minotda ishlaydi. Kampirimga nafaqa to‘g‘irlayotganimda o‘sha yerda uni ko‘rgan edim.

Yigit diqqat bilan qariyaga tikildi.

– Bu haligi kurortlarga putyovka beradigan joymi?

– Ha.

– Yashirayapsan, qariya... Nahotki shu qurolni deb meni qamatmoqchisan?

– Seni qamatish, menga zaril keptimi, – dedi Nikitich sidqidildan.

– Menga miltig‘ingni sot. Pulim bor.

– Yo‘q, – qat’iy gapirdi qariya. – Agar kecha kechqurun yaxshilikcha so‘raganingda, sotgan bo‘larmidim. Sen esa cho‘chqani qilig‘ini qilib o‘tiribsan, sotmayman.

– Axir ular qachon uyg‘onar ekan, deb kutolmasdim-ku.

– Kechasi meni ko‘chaga chaqirib so‘rashing mumkin edi-ku, shundoq-shundoq, otaxon, menga mana bu odamlar bilan gaplashib o‘tirish uncha yoqmayapti. Miltig‘ingni menga sotsang, men ketaman, deb. Sen esa... o‘g‘irlading. O‘g‘irlik uchun bizda qo‘lni kesishadi.

Yigit tirsaklarini tizzasiga tirab, boshini egib qo‘llariga qo‘ydi va bo‘g‘iq tovush bilan dedi:

– Rahmat, kecha sotib qo‘ymading.

– Sen, baribir, o‘z «erk»ingga yetib borolmaysan. Yigit boshini ko‘tardi.

– Nima uchun?

– Butun Sibirni kesib o‘tish, hazil ish emas.

– Men faqat temir yo‘lgacha yetib olsam bo‘ldi, u yog‘iga poyezd bilan! Hujjatlarim bor. Ammo bu yerda qurolsiz... rasvo bo‘laman. Qurolingni sotaqol?

– Yo‘q, hatto yalinma ham.

– Men endi yangi hayot boshlamoqchiman... meni qutqargan bo‘larding, otaxon...

– Xo‘sh, hujjatlarni qayerdan olding? Biror-bir joydan o‘margandirsan-da?

– Hujjatlarni ham odamlar yasashadi.

– Soxta. Soxta hujjat bilan ushlab olishmaydi deb o‘ylaysanmi?

– Sen men haqimda... tuqqan onamga o‘xshab qayg‘urayapsan. To‘tiqushday bir gapni qaytaraverasanmi: ushlab olishadi, ushlab olishadi deb. Aytdim-ku, senga, ushlasholmaydi.

– Shampan vinosini qaysi shimildiriqqa olib ichmoqchisan?.. Agar halol ishlamoqchi bo‘lsang-a?

– Kecha kayfda valdirab qo‘ydim-da, e’tibor berma. Mast edim.

– Eh, sizlarni qaranglar-u... Qariya qorga sarg‘ish quyuq tupuk tufladi.

– Sizlar ham ko‘p yil yashashingiz kerak, yoshsizlar... sizlar esa haligi, xuddi ichlaringda olov borday o‘z joyingizni topolmay, dunyoning u yog‘idan-bu yog‘iga chopasizlar. Nima, sizlarni dahshatli ocharchilik o‘g‘rilikka majbur qildimi? To‘qlikdan quturasizlar, qarg‘ish tekkurlar. Qovurilgan xo‘roz ortini cho‘qimaydi.

– Balki shundaydir, otaxon...

– Xo‘sh, seningcha kim aybdor?

– Bu haqda bas qilaylik, – dedi yigit. – Menga qara... – u xavfsirab qariyaga tikildi. – Ular hozir uyg‘onishadi-yu, qurollari esa yo‘q. Sen bilan biz yo‘qmiz... Izlay boshlashadi.

– Ular oftob ko‘tarilguncha uyg‘onishmaydi.

– Sen qayerdan bilasan?

– Bilaman. Ular kecha ichishgan. Uycha issiqqina, issiqda erib tushgacha uxlashadi. Shoshiladigan joylari yo‘q.

– Hm... ha.., – dedi yigit ma’yus tortib. – G‘avg‘oni qarang-a.

Qo‘qqisdan laylak qor yog‘a boshladi, namchil, vazmin va iliqqina.

– Omading keldi, – dedi Nikitich osmonga qarab.

– Nima? – yigit ham tepaga qaradi.

– Qorni aytaman... Hamma izlarni ko‘mib yuboradi.

Yigit kaftini yog‘ayotgan qorga tutdi, ancha tutib turdi. Qor kapalaklari kaftida erib ketardi.

– Hademay bahor ham boshlanadi.., – xo‘rsindi yigit.

Nikitich xuddi bu yerlarda kam uchraydigan odamni uzoq vaqt yodida saqlab qolmoqchiday unga qattiq tikildi. Uning yolg‘iz o‘zi kechasi... qanday ketib borayotganini tasavvur qildi.

– Kechalarni qanday o‘tkazasan?

– Olov yoqaman... Uxlab bo‘ladimi axir.

– Hech bo‘lmaganda yozda qochmaysanmi. Har holda, osonroq bo‘lardi.

– U yerda, qay payt qochish haqida ariza qabul qilishmaydi. Yemish masalasi chatoq. U qishloqdan-bu qishloqqa yetib borguningcha ichaging orqangga qapishib qoladi. Ha, mayli. Non-tuz uchun rahmat. – Yigit turdi. – Bor, bo‘lmasa anovilaring uyg‘onib qolishadi.

Qariya shoshilmasdi.

– Bilasanmi... vaziyatdan chiqishning bir yo‘li bor, – dedi u sekingina, – senga qurol beraman. Sen ertaga kechasi soat ikki-uchlarda men yashaydigan qishloqqa yetib borasan...

– Xo‘sh?

– Xo‘sh-xo‘shlamay tur. Yetib borasan. Eng chekkadagi uylardan birining eshigini taqillatasan: qurol topib oldim deysan... yoki... yo‘q, nima o‘ylab topsak ekan-a? Sen qurolni qoldirib ketishing uchun. U yerdan, bizning qishloqdan temir yo‘l bekatiga to‘ppa-to‘g‘ri yo‘l – yigirma chaqirimcha keladi. Undan u yog‘i uncha qo‘rqinchli emas. Mashinalar qatnaydi. Tong otganda bekatda bo‘lasan. Faqat u yerda yana bitta burilish keladi, burilishdan yana bir yo‘l chapga ketadi, sen undan yurma, u tumanga olib boradi. To‘g‘riga ket.

– Otaxon...

– Shoshma! Qurolni nima qilsak ekan? Topib oldim desang, qo‘rqib ketishadi, meni izlay boshlashadi. Senga butunlay berib yuborishga achinaman. Eskigina bo‘lsa ham, uning oldida mana bunaqalarning uchtasi ham kerak emas.

Nikitich qo‘lidagi yap-yangi qurolga ishora qildi. Yigit qariyaga minnatdor boqdi va bu minnatdorlikni ko‘zlarida yanayam ko‘proq ifoda qilishga harakat qildi.

– Rahmat, otaxon.

– Nimasiga rahmat? Qurolni qanday qaytarib olaman.

Yigit o‘rnidan turdi, qariyaga yaqin kelib yoniga o‘tirdi.

– Hozir o‘ylab topamiz... men uni qayergadir yashirib ketaman, sen keyin uni o‘sha yerdan olasan.

– Qayerga yashirasan?

– Qishloqdan uncha uzoq bo‘lmagan biror-bir g‘aramga tiqib ketaman.

Nikitich o‘ylanib qoldi.

– Qorong‘u tunda nimaniyam ko‘rarding. Menga qara, eng chekkadagi uyni taqillatasan, u yerdagilardan Mazayev Yefim qayerda yashaydi, deb so‘raysan. Senga ko‘rsatishadi. Oshnam Yefimni topasan-da, aytasan: «Nikitichni taygada uchratdim, u iologlarni Ilondaraga olib ketdi. Patronlari tugab qolgan ekan, manovini bekorga ko‘tarib yurmaslik uchun mendan uni senga yetkazishni iltimos qildi», deysan. Meni ertadan keyin o‘zi yetib keladi, deb aytib qo‘y. Meni iologlarga yo‘lboshlovchi bo‘lganligimni hammaga og‘zidan gullab yurmasin, deb tayinladi degin. Ozroq pul ishlab kelib birga ichishni, bo‘lmasa, kampirim hamma pulni birdan shilib olib qo‘yishini bildirgin. Eslab qoldingmi? Hozir esa sen menga bir litrga pul ber, bo‘lmasa, keyin Yefrimdan qutula olmayman. Xudo yor bo‘lsin! Patronlarni senga beraman... olti dona. Har ehtimolga qarshi ikkitasi zo‘ldir solinganidan. Agar sarf qilmasang, qishloq yonida qorga otib yubor, uzoqroqqa. Yefrimga berma, u ayyor, birdan nimadir bo‘lganligini sezadi. Eslab qoldingmi hammasini?

– Eslab qoldim. Bir umr seni esdan chiqarmayman, otaxon.

– Xo‘p mayli... Qishloqqa esa bundoq yetib borasan: quyosh chiqqach, sen uni, baribir, ko‘rasan – shunday qilginki, avvalboshda u sening chap tomoningda bo‘lsin. Quyosh balandga ko‘tarilgach, sen uni doimo chap tomonda tut. Botayotgan payti esa shunday burilginki, u seni orqa tomoningda bo‘lib qolsin, sal o‘ng qulog‘ing tomonroq. Undan u yog‘i esa to‘g‘riga. Xo‘p, yo‘l oldi kel, chekib olamiz.

Chekishdilar.

Birdaniga hamma gap tugab qolganday edi. Sal fursat o‘tib o‘rinlaridan turishdi.

– Ko‘rishguncha, otaxon, rahmat.

– Bo‘pti.

Ikkalasi ikki tomonga keta boshlagan payt Nikitich birdan to‘xtadi-da, yigitga qarab qichqirdi:

– Menga qara! Sal qolgandi qo‘lga tushishingga. Protokin bor-u, kechagi – u militsiya boshlig‘i edi. Yaxshiyam seni tunda uyg‘otmadi. Bo‘lmasa, qutulishing oson kechmasdi. U shayton, judayam sinchkov.

Yigit hech narsa demay qariyaga tikildi.

– Seni so‘roqqa tutsa bormi, hech qanaqa hujjat qutqarolmasdi.

Yigit jim bo‘lib qoldi.

– Qani, jo‘na endi. – Nikitich yelkasiga begona miltiqni ildi-da, chorrahani kesib o‘tib orqa tarafga yo‘l oldi. U chorrahani deyarli kesib o‘tib bo‘lgandi...

Qulog‘i ostida shoxning qarsillab singaniga o‘xshash qattiq tovushni eshitdi. Bir paytning o‘zida orqasidan yelkasi, ensasiga birdan zarb bilan bir necha musht urilib, oldinga qattiq itarib yuborildi. U yuzi bilan yerga quladi. Boshqa hech narsani eshitmadi ham, his ham qilmadi. Qanday qilib ustiga qor tashlangani-yu, «Shunisi tuzuk, otaxon. Ishonchliroq», deyishganiniyam eshitmadi.

... Quyosh ko‘tarilganda yigit ketib borar, chorrahadan ancha olislagandi. U quyoshni ko‘rmas, hech narsaga qaramay ketib borar, quyosh uning yelkasiga qo‘nib turardi. U oldinga intilardi.

Havoda namchil qor sekin shovullardi. Tayga uyg‘onayotgandi. O‘rmonning bahorgi quyuq bo‘yi mast qilar va boshni aylantirardi.

OLDIDAN VA YONIDAN

Darvoza yonidagi yog‘och o‘rindiqda bir qariya o‘tirardi. Uning aft-angori rangsiz, o‘zi ancha charchagan edi. Qariyaning ham ancha avvallari quyoshli kunlari bo‘lgan, u yer yuzida yengil qadamlar bilan yurgan, yerning borligini his qilgan ham. Endi esa boshqacha. Qishloqdagi kechki tutunli oqshom. O‘rindiqqa oriq, qo‘llari uzun, yuzlari ajin bosgan yigit kelib o‘tirdi.

Bunaqalar ko‘rinishidan ramaqijonga o‘xshashsa ham, ishga chidamli bo‘lishadi, xuddi otlarga o‘xshab. Hammomda ham boshqalardan ko‘ra ko‘proq terlashadi. Yigit chuqur xo‘rsindi va cheka boshladi.

– Aylanib yuribsanmi?

– Bu sayr emas, boboy, – dedi Ivan birpasdan keyin. Bir yarim so‘m yo‘qmi senda?

– Qayerdan bo‘lsin?

– Boshim tars yorilay deyapti.

– Ishing masalasi nima bo‘ldi?

– Hech nima. Panshaxani ol-da, molxonaga bor deyishayapti.

– U kim? Direktormi?

– Ha-da. Mening esa cho‘ntagimda uchta mutaxassisligim turibdi, bundan tashqari, deyarli to‘qqizinchi sinf ma’lumotim bor. O‘zi ishlasin eshakday, agar shunchalar aqlli bo‘lsa.

– Haydovchilik guvohnomangni qancha muddatga olib qo‘yishdi?

– Bir yilga. Bor-yo‘g‘i bir kurujka (sarxum) pivo ichgandim! Va bir stakan qizilidan. U bo‘lsa yopishib oldi. O‘tgan yildan buyon poylab yurardi, maraz. Huv o‘sha payti men uni «onasinikiga jo‘natgandim», tish qayrab yurardi...

– Sen o‘zing ham qandaydir... judayam kelisholmaydiganlar xilidansan-da, yigit. Sal muomalaliroq bo‘lish kerak. Xo‘sh, mana endi nima qilasan ularni? Ular – boshliqlar...

– Xo‘sh, nima bo‘pti?

– Endi jimgina o‘tiraverasan. Uchta mutaxassisligingdan nima foyda. Lozim joyda jim bo‘lish, tilni tiya bilish kerak.

Ekinzorlarda poya yoqishardi. Hademay yerni ag‘darish kerak. Har yili shu ish takrorlanar, odamlarning joniga ham tegmasdi, har doim shu achimsiq hiddan – yerdan ko‘tarilgan bug‘ aralash namxush havodan nafas olish, nafas chiqarish og‘ir kechardi.

– Kerak payt tilni tiya bilish kerak, yigit, – takrorladi qariya ekinzorlardan ko‘rinayotgan gulxanlarga tikilib. – Bizning ishimiz shunday.

– Ey, men uncha ko‘p hurganim ham yo‘q edi, – istamaygina javob qaytardi Ivan. – Agar har narsaga yopishib olaverishmasa... Eng asosiysi, men yo‘l qoidasini buzmaganman! – yana achchig‘lanib xitob qildi u. – Bir stakan vino, bir sarxum pivo uchun odamni transport boshqarish huquqidagi mahrum qilish... Marazlar.

– Chetandan uzalib qara-chi, mening kampirim ekinzordamikan?

– Nega?

– Uyda, pechkaning tagida qo‘lbolasidan bor. Men senga bosh og‘riqqa olib chiqardim.

Ivan shoshib o‘rnidan turdi, bo‘ynini cho‘zib ekinzorga qaradi.

– O‘sha yerda, – dedi u, – to‘rdagi burchakda. Bu tomonga umuman qaramayapti.

Qariya uyiga borib keldi. Bir shisha qo‘lbola aroq bilan ozroq gazak va stakan keltirdi.

– Nega sen shuni darrov aytmaganding, – dedi shosha-pisha Ivan. – Indamay o‘tirishingni qara-ya!..

U stakanga aroq quydi-da, bir ko‘tarishda sipqordi.

– Men mana shunaqasini yoqtiraman. Bunaqasini ko‘p hidlab o‘tirmay, shartta ichish kerak. Ki-h-hi... Ich. Faqat birdaniga.

Qariya shoshilmay ichdi, batatdan olib gazak qildi..

– Rostdan ham benzinday, to‘g‘rimi?

– Qo‘lbolaga o‘xshagan, qo‘lbola. Qanaqangi benzin?

– Mana, ko‘rdingmi?! – Ivan kafti bilan ko‘kragiga urdi. – Endi yashasa bo‘ladi. Rahmat, boboy. Manovindan. Xohlaysanmi menikidan? – U «Pomir» qutisidagi sigaretdan uzatdi.

Qariya bukilmay qolgan barmoqlari bilan bir dona sigaretani qutidan arang chiqardi, ezg‘ilab-ezg‘ilab unga diqqat bilan tikildi-da, tutatib oldi.

– Petka yozayaptimi o‘zi?

– Yozayapti. Yaqinda men o‘laman, Ivan.

– E, qo‘ysangchi.

– Qo‘ysang, qo‘ymasang... joyiga tushadi, – qariya xotirjam gapirardi.

– Biron yering og‘riydimi?

– Yo‘q. Sezayapman. Senam shuncha yoshga kirsang, seza olasan.

Ivanning kayfiyati chog‘ bo‘lganligi uchun o‘lim haqida gaplashishni istamasdi.

– E, qo‘y, hali yashaysan. Garmonni olib chiqsammikan?

– Olib chiq.

Ivan yo‘lni kesib o‘tdi-da, uyiga kirdi... U uzoq vaqt chiqmadi. Keyin garmonni ko‘tarib keldi, ammo qovog‘i yana soliq edi.

– Onam, – dedi u, – umuman-ku, achinaman...

– Haliyam ketmoqchimisan?

– Boshqa nimayam qilaman? – Ivan hozirgina onasiga ham shunday deb chiqqandi. – Axir, men qilolmayman anu ishni... E bori, kirsa kirib ketmaydimi shaytonning... uyasiga? Men Shimoliy dengiz yo‘lini bosib o‘tganman... Motor ustasiman, beshinchi razryadli chilangarman. Xo‘p, mayli, bir yil haydamasam haydamabman, nahotki... Ey, shayton ko‘tarsin!

U garmonni oldi va biror narsa chalishga urindi, keyin yana qo‘ydi. U g‘amgin bo‘lib qoldi.

– Hech omadim kelmayapti, boboy. Hecham. Uzoq Sharqda uylangan edim, to‘g‘rimi? Qizim tug‘ildi... U bo‘lsa qulog‘imga lag‘mon osdi-da, Leningradga, onajonisinikiga ketdi-qoldi. Bildingmi? U turmushi haqida tez-tez gapirardi.

– Nimaga endi Leningradga, a?

– U Uzoq Sharqqa texnikum yo‘llanmasi bilan kelgan edi. Menga uning keragi ham yo‘q. Qizimga achinaman. Tushlarimga kiradi.

– Sen endi uning yoniga borasanmi?

– Xotinimning yonigami? Uning erga tekkaniga ikki yil bo‘ldi. Yosh, chiroyli, kalamush.

– Bo‘lmasa, qayoqqa?

– Bir jo‘ramning yoniga... Shaxtaga. Balki butunlay emasdir. Balki bir yilga.

– Bir yilga, sizlarda bunaqa bo‘lmayapti-da. Osongina hamma ketib qolmoqda.

– Xo‘sh, men bu yerda nima qilaman?! – Yana qizishdi Ivan. – Boyagi joyga borish... Ey bor-ey, shayton olsin!

U garmonni oldi-da, chala boshladi. Xuddi zarda qilganday, qo‘shiq kuylay boshladi:

Sevganim bilan yashayapman, mana,
Oh pra-ra-ra-ra-pra-ra,
Sevganim-chi, ketib boradi,
Meni tashlab, sen ham bir qara.
Jajjiginam, qo‘rqmagin aslo
Azoblashga yaralgan dunyo...

Qariya hamon xotirjam tinglardi.

– O‘zim to‘qiyman, – dedi Ivan. – Birdan, to‘ppa-to‘g‘ri to‘qib ketaveraman. Kechasi bilan aytib chiqishim mumkin:

Biz sizga ta’zim qilmaymiz
Olddan ham, yonboshdan ham:
Tilla hal berilgan «ramkadan»...

– Vaysaqisan, Ivanjon, – dedi qariya, – xo‘sh, borsang nima bo‘pti, bir ishlab berarding Cho‘chqaxonaga... Onangga rahming kelmaydimi? U axir bir umr mana shunday yolg‘iz yashab kelayapti.

Ivan chalishdan to‘xtadi. Ancha vaqt jim qoldi.

– Gap bunda emas, boboy. Menga alam qiladi-da. Nima, o‘ylaysanki, meni joylashtirish uchun ularda boshqa ish joyi yo‘qmi? Nima, ularga yana bitta chilangar xalaqit qiladimi? Direktor ham menga tish qayrab yuribdi. Men uning qizini ikki marta klubdan kuzatib qo‘ygan edim, u xavfsiray boshladi. U xavfsirashi mumkin: Chunki aqli yarimta. Men gaplashishni qoyillataman... Men unga yaxshi bir sovg‘a hadya qilishim mumkin edi. Afsuski, bu ishni qilmabman.

– Nima deb keltirarding sovg‘ani?

– Aha. Shundoq kamtargina, sakkizinchi martga atab.

– Ha, sizlar buni eplaysizlar.

– Umuman kayfiyatim yo‘q, boboy. Nima uchun bunaqa? Hech narsa qilgim kelmaydi... nimaga... xuddi guvohdek. Men bir mar-

ta guvoh bo‘lganman: bittasi birovning ko‘zoynagiga tushirdi, uni esa ko‘zi xiralashib qolibdi. Shunday qilib men sudda o‘tiribman va hech nimaga tushunmayman; nima uchun men bu yerda o‘tiribman, bunga mening nima aloqam bor? Judayam bema’ni ish! Xo‘sh, ko‘rganman, nima bo‘pti. Sud tugaguncha qiynalib ketdim. – Ivan ekinzorda yonayotgan gulxanlarga tikilib xo‘rsindi va jim bo‘lib qoldi. – Bu yerda ham go‘yo shunday. O‘tiribman-u, o‘ylayman: «Mening nima aloqam bor?». Sud uzoq cho‘zilsa ham tugadi va men chiqdim. Bu yerdan qayoqqa borasan? Chiqolmaysan.

– Bu yerdan bitta yo‘l – narigi dunyoga yo‘l bor.

Ivan stakanga quydi-da, ichdi.

– Bu hayotda baxt yo‘q, – dedi u va tufladi. – Sengayam quyaymi?

– Yetadi.

– Mana, senga yashash shirin bo‘ldimi?

Qariya uzoq vaqt jim bo‘lib qoldi.

– Sening yoshingda men bunday deb o‘ylamasdim, – dedi u astagina. – Bilardim, uch kishining ishini qilardim. Nonning o‘zidan qancha tayyorlardim... Agar hammasini yig‘sa, qishloqni bir yil to‘yg‘izsa bo‘ladi. O‘ylashga vaqt bo‘lmagan.

– Men esa nima uchun ishlayotganimni bilmayman. Tushunyapsanmi? Xuddi ishga yollangandayman. Xo‘sh, «Nima uchun?» – deb so‘ra – bilmayman. Nahotki faqat qorin to‘ydirish uchun bo‘lsa. Xo‘sh, qornim to‘ydi. Keyin-chi? – Ivan jiddiy so‘radi va qariyaning nima deyishini kutdi. – Keyin nima? Ko‘ngil xuddi lattaga o‘xshab qolgan...

– Charchab yetilgan, – tushuntirdi qariya.

– Sen ham bilmaysan. Sizlarda hech qanaqa ulug‘ niyat bo‘lmagan, shuning uchun qoniqtirgan... Sizlar uyqusirab yurgansiz. Men sizlarga o‘xshab yashay olmayman. Menga nimadir, ulkanroq narsalar kerak.

– Qani quy-chi, – dedi qariya. Ichdi. U ham tufladi. – Qirqoyoqlar, – dedi birdan jahli chiqib. – Yer yuzida u yoqdan-bu yoqqa, bu yoqdan- u yoqqa yurib kalovlanasizlar, hech qanday ma’no yo‘q. Har xil mashinalarni yasab tashlashgan... Tufu-u. Rak qayerdan paydo bo‘layapti? Sizlarning benziningizdan, uning tutunidan. Hademay bola tug‘ishni ham esdan chiqarasizlar.

– Yo‘g‘-e, undaymasdir.

– O‘zlaring boshqacha yashayotganlaringni bilasizlar, yana «ulkan ishlar» deb, dod solasizlar. Unda nimaga jirkanasan?

– Senga qaysi gapim tegib ketdi? Sizlar «uyqusirab» deganimmi? Xo‘sh, unda sizlar qanaqasizlar?

– Dangasasizlar. Oqsuyaklar. Sizlar hozir shunday: siz yaramaslarga bir qatnov uchun bir so‘m yigirma tiyin to‘laydilar, bir kunda to‘rt so‘m ishlashing mumkin, ular esa ikki qatnov qiladiyu, otni bo‘yinturug‘idan chiqarishadi. O‘zi esa cho‘chqani bir urib ag‘dargudek baquvvat. Masalan, menga bir qatnab borib kelganimga yigirma besh to‘lashardi, kuniga besh marta qatnardim, uch-to‘rtta aravada. Mehnat kunlarini ishlardik-da, yil bo‘yi qilgan mehnating uchun qancha to‘lashlarini kutardik. Bizga esa moylangan shimildiriq («shish» ikki barmoq orasidan ko‘ringan uchinchi barmoq) berishardi. Sizlar esa nima uchun ishlayin deb noliysizlar! Sen oyiga bir yarim ming so‘m ishlab topging kelmaydi, men esa bunaqa pul uchun yoz bo‘yi mehnat qilardim.

– E-e, menga buncha pulning keragi yo‘q, – dedi Ivan xuddi kariyaning jig‘iga tegmoqchidek. – Sen buni tushuna olasanmi? Menga nimadir boshqa narsa kerak.

– Kerak emasmish, bosh og‘rig‘iga esa bir yarim so‘ming yo‘q. Yuribsan, xuddi tilanchiday... Unga kerak emas! Onang mehnatdan ado bo‘ldi. Iblislar... Dangasalar. Quyosh hali tikkada turibdi-ku, bular ishdan qaytib kelishadi. Yana mashinada qo‘shiq aytib! O‘rgildim, sizlardaka ishlovchidan, sizlar faqat klubda hushtakvozlik qilishgayu, otalarga «sovg‘a» yasashga ustasizlar.

– Yo‘q, endi avvalgiday hayot kechirmayman, endi... Umuman olganda, rasman sen haqsan, ammo ot ham ishlaydi-ku...

– Bu kishim cho‘chqaxonada ishlashdan uyalarmish! Go‘sht yeyishdan uyalmaysan-ku?

– Boboy, baribir, tushunmaysan, – xo‘rsindi u.

– Bizga yo‘l bo‘lsin!

– Men senga aytayapman, to‘ydim. Keyin-chi, men bilmayman. Lekin bitta narsani bilaman, bu meni qoniqtirmaydi. Men faqat qornim uchun ishlashni xohlamayman.

Qariya zaharxanda kuldi.

– Landovur. Xotining nimadan ketib qoldi? Ichishingdan bezibmi?

– Men olifta emasman, lekin zo‘r dengizchi mutaxassis edim. Ketganinimi?.. Bilmayman. Aynan, oliftaroq bo‘lmaganim uchun bo‘lsa kerak.

– Sen kim bo‘lmagan eding?..

– Bu haligidaqa... – Ivan garmonini taxtaga qo‘ydi-da, chekdi, uzoq vaqt o‘ylanib qoldi. Qo‘qqisdan esi og‘ib emas, qandaydir xavotir bilan kasalga o‘xshab dedi:

– Rostdan ham nima uchun yashayotganimni bilmayman.

– Uylanishing kerak.

– Hayron qolaman. Men ahmoq emasman-ku, ko‘nglimni qanday xotirjam qilay? U mendan nima so‘rayapti? Nega men uni tushunmayapman!

– Uylan, salanglab yurmaysan. Bunga vaqting ham bo‘lmaydi.

– Yo‘q, bunaqa emas. Men sevgidan otash bo‘lib yonishim kerak. Bu yerda qanday yonasan! Tushunmayman: faqat men shunday ahmoqmanmi yoki boshqalar ham ahmog‘-u, indamay yurishadimi. Ishonasanmi, yo‘qmi: kechasi o‘ylayman, o‘ylayman-u, o‘zimni shu darajada yomon his qilamanki, dodlab yuborgim keladi. Nimaga?

– Tufu-u! – Qariya boshini sarak-sarak qildi. – Xalq umuman buzilib bo‘ldi.

Kun esa asta-sekin og‘ib, namxush iliqlikdan eriyotganday qorayib borardi. Polizlardagi gulxanlar yorqinroq ko‘rina boshladi. Tutun yana ham achchiqroq taralardi. Hali ancha vaqtgacha gurunglashib, batatni yoqishadi. Ovozlar ham tiniqroq eshitila boshlaydi, qishloqda shovqin va g‘ala-g‘ovur asta-sekin tinadi. Qorong‘ulik quyuqlashadi. Ekinzordagi gulxanlar o‘chadi. Va qayerdandir – yaqindan erkak kishining tiniq ovozi eshitiladi.

– Xo‘sh, ketdik endi.

Bugungi kun qanchalik sekin, osoyishta va xomush o‘tgan bo‘lsa, ertaga shu darajada yorug‘, shodon, yangroq yangi kun keladi. Qishloq bo‘ylab xo‘rozlarning qichqirgani eshitiladi. Odamlar shoshilib g‘imirlashadi. Kechikishadi.

Ivan vaqtli turdi. Karavotda o‘tirib, polga tikildi. Ko‘ngli g‘ash, tushkun ahvolda edi. Kiyina boshladi. Onasi pechkani yoqdi, yana tutun hidi keldi, ammo bu boshqacharoq – quruq, tonggi qishloq hidi edi. Onasi tashqariga chiqmoqchi bo‘lib eshikni ochganida, ko‘chadan toza havo kirdi. Bu toza havodan muzlagan shishadek ko‘lmaklar hidi anqirdi.

– Borib direktorga uchrashsammikan-a, iltimos qilardim, – gap qotdi onasi.

Ivan soqolini olayotgandi.

– Yana nima! Oyog‘ining ostiga yiqil, xursand bo‘ladi.

– Xo‘sh, unda endi nima qilsak bo‘ladi? – Onasi bu gapni yalinganday bo‘lib tuyulmasligi uchun ishonchliroq, qat’iyroq qilib gapirdi. U bu balki oxirgi suhbatlari bo‘lishi mumkinligini tushunardi. – Odamlar borishayapti, iltimos qilishayapti, tillari kesilgani yo‘q.

– Men bordim. Iltimos qildim.

– Sen tanqay burunni bilaman-ku, qanday so‘raganingni. Hurishni bilasan faqat...

– Ona, bo‘ldi qil.

Onasi boshqa chiday olmadi, o‘rindiqqa o‘tirdi-da, sekin yig‘lab yubordi va asta koyiy boshladi:

– Ayt, qayerga bormoqchisan? Shaytonning o‘chog‘igami. Mening peshonamga butun umr qiynalib yashash yozilgan ekan. O‘g‘lim, nima uchun yolg‘iz o‘zing haqingda o‘ylaysan-a?

Ko‘z yoshlari to‘kilishini Ivan bilardi. Shuning uchun ham ko‘nglining tubida og‘ir tosh yotardi, yuragi zirqiradi. Shu sababdan ham u vaqtidan avval qovog‘ini uyib olgandi.

– Nima, sen meni... urushga jo‘natayapsanmi? Men u yerda nima?.. E, hammasi yo‘q bo‘lsin. Birdan ko‘z yoshi. Bu ko‘z yoshlaringdan menga kun yo‘q.

– Borib kelsam, so‘rasam bo‘lardi, u tosh emas-ku, biror yumush topib berar. Bo‘lmasam, inspektorga borib uchrash. Nimaga darrov ketamanga tushasan. Ana Kolka Zavyalovning ham haydovchilik guvohnomasini olib qo‘yishgandi, bordi, gaplashib to‘g‘riladi... Odamlar bilan gaplashish kerak...

– Haydovchilik guvohnomam endi militsiyaga o‘tib ketdi. Kech.

– Unda militsiyaga borsang...

– Xo-xo! – qizishdi Ivan. – Gapini qarang!

– Ey Xudo, ey Xudo... Bir umr shunday. Nega endi mening peshonamga bunday qismat bitilgan ekan! Nima, menga qarg‘ish tekkanmikan?..

Noqulay vaziyat ro‘y berayotgandi. Ivan hovliga chiqdi, qo‘lyuvgich yoniga borib yuvindi, maykachan holda darvoza yonida turib qoldi. Qishloqqa qaradi. Bu yerdagi hamma narsa ko‘ngliga yaqin. Uzoq yo‘l oldidan esa ko‘nglida xotirjamlik tuymasdi. U yo‘lga chiqishdan qo‘rqmasdi, ammo ko‘ngli xotirjam emasdi, jo‘nayotganda xursandchilik bilan jo‘nash kerak edi. Qayerdandir chiroyli iti Dik kelib qoldi va erkalanib suykala boshladi.

– Qoch! – Itni nari itarib, uyga qarab ketdi.

Onasi dasturxon tuzayotgan edi.

– Cho‘chqaxonada ishlab tursang bo‘ladi-ku...

Ular – onalar qat’iyatli va doim yordamga muhtoj.

– Hech qanday qistov o‘tmaydi, – dedi uzil-kesil Ivan. – Butun qishloq kuladi, men yaxshi bilaman nima uchun ular meni cho‘chqaxonaga tiqishtirayotganlarini. Faqat, ularning aytgani bo‘lmaydi.

– Voy Xudo, voy Xudo...

... Nonushta qildilar.

Onasi buyumlarni jomadonga joyladi-yu, shu yerning o‘zida – ochiq jomadon yonida polga o‘tirib oldi va yana yig‘lay boshladi. Endi hech narsa demay yig‘lardi.

– Qo‘y endi. Bir yilcha ishlayman-u, kelaman?

– Balki uchrashib kelarman, o‘g‘lim? – Pastdan turib o‘g‘liga qaradi onasi, ko‘zlaridagi g‘am shundoq sezilib turardi, umid va iltijo, toqatsizlik akslanardi. – Undan iltimos qilaman. U yaxshi odam.

– Ona... menga ham og‘ir, axir.

– Balki militsiyadagilarning birortasiga berish kerakdir. Nima, olmaydi deb o‘ylaysanmi? Ha, olishmaydi! Kolka Zavyalov bermagan deysanmi? Bergan... Qandaydir yo‘l bilan berishgan.

– Hali bu yerda hech nima ma’lum emas, kim kimga tiqishtirganiyam. Men ulargami yoki ular mengami.

Oldinda pechka bilan xayrlashish ham bor edi. Har doim Ivan biror yoqqa – uzoqroqqa jo‘nayotganda, onasi uni pechka bilan xayrlashib, uni uch marta o‘pishga majbur qilardi va: «Onajonim pech, sen meni qanday yedirgan, ichirgan bo‘lsang, shunday oq yo‘l tilab, fotiha ber, uzoq yo‘lga chiqmoqdaman», deb ayttirardi. Bundan tashqari, u Ivan bu gaplarni ancha oldin yodlab olgan bo‘lsa ham, har doim qanday so‘zlar aytilishi kerakligini so‘zma-so‘z eslatib turardi.

Ivan uch marta peshonasini pechga tegizib: «Pechka, onajon, sen meni qanday yedirgan, ichirgan bo‘lsang, uzoq yo‘l oldidan menga shunday oq fotiha ber», – dedi.

... Ona, o‘g‘il va it ko‘chada ketib borishardi: Ivan onasining kuzatgani chiqishini istamasdi, odamlar derazalaridan ko‘z tikib: «Vanka ketayaptimi... qayoqqa?» deyishlarini xohlamasdi.

Yo‘lda kecha kechqurun gaplashgan qariyaga duch keldi. Ivan to‘xtadi. U onasini birpasdan so‘ng qo‘shni qariya bilan uyga qaytar, deb o‘yladi.

– Ketayapsanmi?

– Ketayapman.

Chekishdi.

– Baliq tutdingmi, deyman?

– Bir-ikki tuzoq qo‘ygandim, hali erta ekan.

– Ha, hali erta.

Onasi qo‘llari bilan fartugini g‘ijimlagancha, suhbatga e’tibor bermay, o‘g‘li ketadigan tomonga o‘ychan tikilib turardi.

– U yoqlarda ko‘p ichma, – tayinlardi qariya. – Shahar – bu shahar, hamma begona. Avval ko‘nikib o‘rgan...

– Nima, men piyonistamidim?

Ular yana birpas turishdi.

– Xudo yor bo‘lsin! – dedi qariya.

– Omon bo‘l.

Qariya o‘z yo‘liga ketdi. Ivan onasiga qaradi... U hamon uzoq-uzoqlarga tikilardi, ona-bola ozroq yurishdi.

– Ona... uyga qaytsang bo‘lardi.

Onasi eshitib to‘xtadi, Ivan uni ohista quchoqladi... O‘g‘lining ko‘ksiga qo‘ygan boshi qaltirab ketdi. Eng og‘iri shu edi. Hozir uni o‘zidan ajratib, ketishi kerak.

– Mayli, ona, boraqol. Borgan zahoti xat yozaman. Shundoq yetib boraman-u... Menga jin ham urmaydi! Boshqalar nima, ketishmayaptimi? Boraqol.

Onasi uni cho‘qintirdi... Va joyida turib qoldi. Ivan esa ketib borardi. Iti uning ortidan ergashdi. U doim xo‘jayini bilan ishga borardi.

– Yo‘qol! – dedi jahl bilan Ivan.

Dik esa dumini likillatib, hamon uning oldida yugurib borardi.

– Dik! Dik! – chaqirdi Ivan.

Dik yugurib keldi. Ivan uni qattiq tepdi, it vangillab chetga qochdi. Va hayron bo‘lib xo‘jayiniga boqdi. Ivan teskari qaradi. Dik dumini likillatdi-yu, o‘rnidan turdi, ammo uning ortidan chopmay joyida qoldi. Lekin, baribir, xo‘jayiniga qarab hayron tikilardi.

Undan sal narida esa onasi turardi... «Yo‘q, hayotda yolg‘iz yashash kerak. Shunda oson bo‘ladi», o‘yladi Ivan tishlarini mahkam qisib. Tezda katta-katta qadam tashlab, avtobus tomon yura boshladi. Onasi esa unga tikilgancha joyidan qimir etmay turardi.

BO‘RILAR

Yakshanba kuni erta tongda Ivan Degyaterovnikiga uncha qari bo‘lmagan, biroz ayyor-u xushmuomala qaynotasi Naum Krechatov keldi. Ivan qaynotasini yoqtirmas, Naum ham qiziga achinganidan Ivanga chidardi.

– Uxlayapsanmi? – tez gapirdi Naum. – Eh-he-e!.. Bunaqada butun bir podsholikni uxlab o‘tkazib yuborish mumkin. Salomatmisizlar?

– Men u yoqqa unchalik ham shoshayotganim yo‘q. Yugurmayman.

– Bekor qilasan. Qani, tur-chi... Ketdik, o‘tinga borib kelamiz. Men brigadirdan ikkita arava so‘rab oldim. Albatta, tekinga emas, he mayli, jin ursin uni, o‘tin kerak.

Ivan yonboshlab yotib o‘yladi... Keyin turib kiyina boshladi.

– Mana, nima uchun yoshlar shaharga ketib qolyapti? Shuning uchunki, u yerda ishingni bajarib bo‘ldingmi – boraver, o‘ynab kul. Odamni dam olgani qo‘yishmaydi. Bu yer xuddi qarg‘ish tekkanday, na kechasi, na kunduzi va na yakshanbada tinchlik bor.

– Nima, o‘tinsiz o‘tirasanmi? – so‘radi Ivandan xotini Nyura. – Unga ot topib berishsa-yu, yana norozi bo‘lsa.

– Men shaharda ham ishlash kerak ekan deb eshitgandim, – dedi qaynotasi.

– Kerak. Men jon deb suv quvurini kovlagani borardim, zo‘r berib ishlab qo‘yardim-da, keyin g‘am-tashvish chekmasdim, suv va issiqlik tayyor.

– Bir tomondan mundoq olib qaralsa, to‘g‘ri, ammo ikkinchi tarafdan, fojia, sen unda umuman uyqudan bosh ko‘tarmasliging mumkin. Ha, mayli, qani ketdik.

– Biror narsa yeb olasanmi? – so‘radi xotini. Ivan rad qildi. Xohish yo‘q.

– Bosh og‘rig‘imi? – siziqsindi Naum.

– Xuddi shunday, janobi oliylari!

– Ha-a-a. Mana shunaqa. Sen esa suv quvuri deysan... Bo‘pti, ketdik.

Havo ochiq. Oftob charaqlab turar, qor yaraqlab ko‘zni olardi. O‘rmonda sokinlik, go‘yo orom olayotgandek. Yo‘l ancha uzoq – yigirma chaqirimcha yo‘l yurishlari kerak edi. Yaqinroqdan daraxt kesishga ruxsat etilmasdi. Naum hamon jahl qilib oldinda borardi.

– Jin ursin uni! O‘tin uchun o‘rmondan o‘rmonga borsang.

Ivan chanada mudrab borar, bir zayildagi yurish uni go‘yo allalardi.

So‘qmoqqa yetib kelib, ochiq soylikka tushishdi va toqqa ko‘tarila boshlashdi. U yerda yam-yashil o‘rmon yastanib yotardi.

Deyarli toqqa chiqib qolishayozgandi... Va yo‘ldan unchalik uzoq bo‘lmagan yerda ko‘rib qolishdi – beshta. O‘rmondan chiqib kutib turishardi. Bo‘rilar! Naum otini to‘xtatdi, astagina kelishtirib so‘kindi.

– Onangni seni... Kulrang ofatlar. Turishini qara.

Ivanning yosh, qo‘rqoq oti ortga tisarila boshladi, shotini bosib oldi. Ivan no‘xtani silkitib orqaga bura oldi. Ot xirillar, depsinar, shotidan oyog‘ini oshirib ololmasdi.

Bo‘rilar tog‘dan tusha boshlashdi. Naum otini avvalroq burib bo‘lgandi.

– Ha, nimaga turibsan, – deb qichqirdi.

Ivan chanadan sakrab tushdi, otni kuch bilan shotidan nari itarib yiqilib tushdi. Otning o‘zi burilib oldi-yu, turgan joyidan yugurib keta boshladi.

Naum esa allaqachon ilgarilab ketib bo‘lgandi.

– Talashayapti-i-i! – hovliqib otni qamchilar va baqirardi.

Bo‘rilar kulrang qor uyumiday yo‘lni kesib, tog‘dan tushib kelishardi.

– Talashayapti-i-i! – baqirardi Naum. «Nima, u esdan og‘ib qoldimi? – beixtiyor o‘yladi Ivan. – Kim, kimni talayapti?» U qo‘rqib ketdi, qiziq, qo‘rquv ham bor edi, yoniq qiziqish ham, qaynotasining qilig‘idan kulgisi ham kelardi. Ammo qiziqish tezda o‘tib ketdi. Endi kulgisi ham qolmayotgandi. Bo‘rilar chanadan yuz metrcha orqadagi yo‘lga chiqib, zanjir bo‘lib tizilishib tezda quva boshlashgandi. Ivan chananing old to‘sig‘idan mahkam ushlab olganicha bo‘rilardan ko‘zini uzmay kelayotgandi.

Oldinda gavdali, ko‘krakdor, tumshug‘i yapasqi bo‘ri kelardi. Endi faqat o‘n besh-yigirma metrlar chamasi masofa uni chanadan

ajratib turardi. Ivanni bo‘rining ovcharka itga o‘xshamasligi hayron qoldirgandi. U ilgari bo‘rini bunchalik yaqindan ko‘rmagan va u ovcharkaga o‘xshash, ammo sal yirikroq bo‘ladi, deb o‘ylab yurardi. Hozir esa Ivan tushundi: bo‘ri, bu – bo‘ri, jondor. Eng qopag‘on itni ham oxirgi paytda nimadir to‘xtatishi mumkin: qo‘rquv, erkalash yoki insonning keskin qichqirig‘i. Bu yapasqi tumshuqlini faqat o‘lim to‘xtata olardi. U irillamas, qo‘rqitmasdi... U o‘ljasini quvardi. Va uning dumaloq sariq ko‘zlari tik va sovuqqon boqardi.

Ivan chanaga qaradi – hech narsa, hatto oddiy cho‘p ham yo‘q edi. Boltaning ikkalasi ham qaynotasida. Faqat yonboshlash uchun birozgina pichan va qo‘lidagi qamchi.

– Talashayapti-i-i! – qichqirardi Naum. Ivanni chinakam qo‘rquv chulg‘adi.

Oldidagisi, to‘da boshi bo‘lsa kerak, chanani aylanib o‘ta boshladi, otni mo‘ljallab kelardi. U qandaydir ikki metrlar yaqin kelib qoldi... Ivan o‘rnidan yarim turdi-da, chap qo‘li bilan chananing to‘sig‘idan ushlab turib, qamchi bilan yetakchini qattiq urdi. U buni kutmagandi, tishlarini takillatib chetga qarab sakradi va tezligini yo‘qotdi. Orqadan to‘dasi yetib keldi. To‘da a’zolari uning atrofida chopib aylanishdi-da, to‘xtab qolishdi. U orqa oyoqlarida o‘tirdi, so‘yloq tishlari bilan goh u, goh bu bo‘rini turta boshladi... Yana turib oldinga qarab yurib ketishdi va tezda chanaga yetib olishdi. Ivan tayyorlanib, qulay paytni kuta boshladi...

To‘da boshini yana bir marta qamchi bilan tushirmoqchi edi. Ammo, u endi chanani olisroqdan aylanib o‘ta boshladi. Yana bittasi to‘dadan ajralib chiqdi. Ivan tishlarini qattiq qisdi, afti burishdi... «Tamom, o‘ldim». Oldinga qaradi.

– To‘xta-a! – qichqirdi u. – Ota!.. Boltani ber!

Naum otni qamchilab ketardi. Orqaga qarab, bo‘rilar kuyovini qanday aylanib o‘tishayotganini ko‘rdi va tezda ortga burildi.

– Ota... biroz sekinlat! Biroz sekinlat deyapman senga, yaramas!.

– Ularga bir nima uloqtir!.. – qichqirdi Naum.

To‘daboshi ot bilan tenglashib qolgan, unga tashlanish uchun qulay paytni kutayotgan edi, orqasidan chopib kelayotgan bo‘rilar ham ancha yaqinlashib qolishgandi, sal ushlansang ular chanaga qarab sakrashadi-yu, tamom. Ivan bir siqim pichanni ularga qarab otdi, bo‘rilar bunga e’tibor ham berishmadi.

– Ota, yaramas, sekinlat... Boltani tashla!

Naum burilib qaradi.

– Vanka!.. Qara, tashlayman!

– Sen sekinlat!

– Qara, tashlayapman! – Naum boltani yo‘l chetiga tashladi. Ivan mo‘ljalladi... chanadan sakrab tushib, boltani oldi. Sakray turib u orqada kelayotgan uch bo‘rini cho‘chitib yubordi, ular chetga qochishdi, yugurishni sekinlatib, odamga tashlanishga shaylanishdi.

Ammo aynan o‘sha lahzada to‘da boshi oyoqlar ostidagi qattiq qatlamni sezib qoldi-yu, otga qarab sakradi, ot hurkib chetga, qor uyumiga o‘zini urdi...

Chana ag‘darilib tushdi, shoti xomutni qayirib yubordi, otning tomog‘i qisilib qoldi. Ot xirillab, shoti qayishga o‘ralashib qoldi. O‘ljasiga yetib olgan bo‘ri sakrab otning ostiga kirib, o‘tkir tirnoqlari bilan qornini yorib tashladi.

Qolgan uch bo‘ri ham o‘ljaga qarab otildi. Keyingi lahzalarda bo‘rilarning hammasi ham hali dirillab turgan otning ichak-chavog‘ini oppoq qor ustida tortqilab eyishar, irillashar, qizg‘ish ichaklardan esa hovur ko‘tarilib turardi, to‘daboshi bu orada dumaloq sariq ko‘zlari bilan ikki marta Ivanga tikilib qaradi...

Hammasi shu darajada hayratlanarli, tez va oddiy yuz bergandiki, go‘yo tushga o‘xshardi. Ivan qo‘lida bolta bilan beixtiyor bo‘rilarga tikilib turardi. To‘da boshi unga yana bir qarab qo‘ydi... Bu g‘olibona bepisand qarash Ivanning g‘azabini qo‘zg‘adi.

U boltani baland ko‘tardi-da, bor ovozi bilan baqirib bo‘rilar tomon otildi. Ular xohlamaygina bir necha qadam nariroqqa qochib borib, qonli og‘izlarini yalab turishdi.

Ular buni shu darajada tirishib, berilib qilishardiki, boltali odamning ularga hech qanday qizig‘i yo‘qday. Ha, aytmoqchi, to‘da boshi unga diqqat bilan tik qarab turardi.

Ivan uni xayoliga kelgan eng yomon so‘kishlar bilan so‘kdi. Boltani silkitib, u tomon yurdi... To‘daboshi joyidan qimir etib ham qo‘ymadi.

Ivan ham to‘xtadi.

– Sizlar yutdilaring, – dedi u. Yutdilaring ablahlar. U qishloq tomon yurib ketdi. Xomtalash bo‘layotgan otga qaramaslikka harakat qildi. Ammo chiday olmadi, burilib qaradi... Rahmi kelganidan yuragi siqildi, qaynotasiga nisbatan kuchli bir g‘azab, alam qo‘zg‘aldi. U yo‘ldan tez-tez yurib keta boshladi.

– Shoshmay tur, sen!.. Hali shoshmay tur sen, sudraluvchi ilon. Axir, qutulib ketardik-ku, ot ham tirik qolardi. Olchoq!

Naum kuyovini burilishda kutib turgandi. U sherigi sog‘-salomat ekanligini ko‘rib, astoydil quvonib ketdi.

– Tirikmisan? Xudoga shukr! – Naum, vijdonan aytganda, xavotirlanardi.

– Tirikman! – javob qaytardi Ivan. – Sen ham tirikmisan?

Naum kuyovining ovozidan g‘azabni sezdi. Har ehtimolga qarshi chana tomon bordi.

– Xo‘sh, u yerda nima bo‘layapti?

– Senga ta’zim yo‘llashayapti. Olchoq!

– Senga nima bo‘ldi? Nega hurayapsan?

– Men hozir seni kaltaklayman, hurmayman.

Ivan chana tomon yura boshladi. Naum otga qamchi bosdi.

– To‘xta! – baqirdi Ivan va chana ortidan quva boshladi. – To‘xta, iflos! Naum otga tinmay qamchi urardi. Endi boshqa quvlashmachoq boshlangandi; odam odamni quvlab yugurardi.

– To‘xta, senga aytayapman! – qichqirdi Ivan.

– Hovliqma! – qichqirardi Naum. – Nimaga qizishasan-a? Yo esing og‘ib qoldimi? Mening nima aybim bor bu yerda?

– Aybing yo‘qmi? Biz ikkovlashsak qutulib qolgan bo‘lardik. Sen esa sotqinlik qilding!

– Axir, qanday qutulardik?! Bu nima deganing?

– Sen sotding, ilon! Men senga ko‘rsatib qo‘yaman hozir. Mendan qochib qutulib bo‘psan, yaxshisi to‘xta. Bo‘lmasa odamlarga hammasini aytib beraman... Yaxshisi to‘xta!

– Olasan, to‘xtamayman, og‘zingni katta och! Naum tinmay otni savalardi.

– Yaxshisi maslahatimga quloq sol, to‘xta! – Ivanning nafasi qisila boshladi. – O‘zingga yaxshi bo‘ladi: bejab qo‘yaman-u, hech kimga aytmayman.

– Sen iblisni qip-yalang‘och holingda qarindoshlikka qo‘shgandik, sen esa menga bolta ko‘tardingmi? Uyat bormi senda yo yo‘qmi?

– Mana hozir bejab qo‘yay, keyin uyat haqida gaplashamiz. To‘xta!

Ivan charchaganidan sekin chopib, orqada qolib ketayotgandi. Keyin quvishni butunlay bas qildi. Odimlay boshladi.

– Baribir topaman, hech qayerga ketolmaysan! – U oxiri qaynotasining ortidan qichqirgancha qoldi.

Ivan uyida hech kimni uchratmadi, eshikka qulf osilgandi. U qulfni yulib olib tashlab, uyga kirdi. Shkafni qidirib ko‘rdi... Kecha yarmi ichilgan aroq shishasini topib, stakanga quyib ichdi-da, qaynotasinikiga qarab ketdi.

Qaynotasining hovlisida chanadan chiqarilgan ot turardi.

– Uyida, – dedi Ivan qoniqish bilan eshikni turtib ko‘rarkan, – yopilmagan. U yopiq bo‘ladi deb o‘ylagandi. Ivan uyga kirdi... Uni kutishayotgandi. Uyda xotini, qaynotasi va uchastka noziri o‘tirishgandi.

– Xo‘sh, Vanya, nima bo‘ldi?

– Shunday-y-y... Ulguribsan-da, yugurib borishga? – so‘radi Ivan qaynotasiga qarab.

– Ulgurdim, ulgurdim. Tomoqni biroz moylab oldingmi?

– Ozroq moyladim... dadillik uchun.

Ivan stulchaga o‘tirdi.

– O‘zi senga nima jin tegdi, Ivan? Esdan og‘ib qoldingmi yo? – Nyura o‘rnidan qo‘zg‘aldi. – Nima, sen?..

– Otangga bir dars o‘tib qo‘ymoqchi edim... Odam qanday bo‘lishi kerakligi haqida.

– Qo‘ya qol, Ivan, – gap boshladi nozir, – xo‘p, baxtsizlik yuz beribdi, ikkovlaring ham qo‘rqib ketgansizlar... kim ham o‘ylabdi bunday bo‘lishini? Tabiiy falokat.

– Birgalashsak ulardan osongina qutulgan bo‘lardik. Men esa ular bilan bir o‘zim olishdim...

– Men senga boltani tashladim-ku? Sen so‘rading, men tashladim. Yana mendan nimani talab qilasan?

– Judayam ozgina narsani: odam bo‘lishingni. Sen esa olchoqsan. Darsni esa men senga baribir beraman.

– O‘qituvchini qarang-a? Mishiqi... Suv yuqmas lochin... Hamma narsa tap-tayyor uyga buni kiritsang, yana do‘q urishini qara. Yana nimadandir norozilar, bu kishiga quvurda suv kerak emish.

– Axir gap bunda emas-ku, Naum, – dedi nozir. – Suv quvurining nima aloqasi bor?

– Qishloqda yomon!.. Shahar yaxshi, – davom etdi Naum. – Unda nimaga bu yerga bostirib kelding. Noroziligingni ko‘rsatganimi? Odamlarni qo‘zg‘aganimi?

– Voy, yaramas-ey! – dedi Ivan hayrat bilan va o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Nozir ham o‘rnidan turdi.

– Qo‘yinglar! Ketdik, Vanya...

– Bilasanmi, bunday to‘polonchilarni qayerga tiqishadi? – Bo‘sh kelmasdi Naum.

– Bilaman! – javob berdi Ivan. – Boshi bilan muzning teshigiga...

Nozir Ivanning tirsagidan ushladi-da, tashqariga yetaklab olib chiqib ketdi. Ko‘chaga chiqqach, to‘xtashdi. Chekishdi.

– Xo‘sh, shundan keyin ham iflos emasmi? – Hamon jahl bilan g‘ijinardi Ivan. – Yana menga qarab ot qo‘ymoqchi.

– E, qo‘ysang-chi, uni!

– Yo‘q, men uni abjag‘ini chiqarishim kerak.

– Xo‘p, shu sassiq tezakni deb muddat ishlab olasan.

– Sen meni qayoqqa olib bormoqchisan?

– Yur, menikida yotib qolasan... Hovurdan tushasan. Bu ahvolda o‘zingga jabr qilasan, ilakishma bu ishga.

– Yo‘q, axir bu... nahot odam ham shunday bo‘lsa?..

– Mumkin emas, Ivan, kerak emas. – Mushtlaring bilan hech narsani isbotlolmaysan.

Ko‘cha bo‘ylab qishloq markazi tomon ketishardi.

– Nima, o‘sha yoqda eplolmadingmi? – birdan so‘rab qoldi nozir.

– Yetolmadim! – dedi afsus bilan Ivan. – Quvib yetolmadim.

– Mana, ko‘rdingmi? Endi kech, endi mumkin emas.

– Otga achinaman.

– Ha-a...

Jim bo‘lib qolishdi. Ancha paytgacha shunday yurishdi.

– Bilasanmi, sen meni qo‘yib yubor. – Ivan to‘xtadi. – Yakshanba bo‘lsa, men nima qilaman u yerda? Unga tegmayman, xavotirlanma.

– E, yo‘q, boraman. Ketdik. Bo‘lmasa, keyin qutulolmaysan. Senga achinganimdan aytayapman. Yuraver, shaxmat o‘ynaymiz... Shaxmat o‘ynaysanmi?

Ivan chekayotgan papiros qoldig‘ini qorga tuflab tashladi-da, yangisini olish uchun qo‘llarini cho‘ntagiga tiqdi.

– O‘ynayman.

METIN ODAM

«Gigant» xo‘jaligining uchinchi brigadasi uchun yangi ombor binosini qurib berishdi. Eski ombor – cherkovdan bo‘sh bochkalar, sement solingan qoplar, shakar va tuz solingan qog‘oz xaltachalar, ot-ulov uchun mo‘ljallangan bir uyum ayil, yugan-abzallar (brigadada bor-yo‘g‘i beshta ot bo‘lsa ham, anjomlar o‘n beshtacha otga yetardi. Bu-ku, mayli-ya, ortiqchasi zarar qilmaydi, ammo yer yutgur sichqonlar... Margimush sepib asrab-avaylashsa ham baribir kemiraverardi), supurgilar, xaskashlar, belkuraklar olib kelindi. Shunday qilib, endi hech kimga keragi bo‘lmagan cherkov bo‘shab qoldi. Unchalik katta bo‘lmasa ham, cherkov bir paytlar qishloqqa fayz bag‘ishlab turardi. Brigada boshlig‘i Shurigin Nikolay Sergeyevich cherkovga tikilgancha o‘yga cho‘mdi. Devoriga yaqin keldi-da, qo‘liga ilingan temir cho‘kich bilan uning g‘ishtlarini cho‘qilab ko‘rdi, chekdi va yana bir muddat o‘ylanib turdi-da, keyin uyi tomon ketdi.

– Cherkov ham endi bo‘shab qoldi... – dedi oradan ikki kun o‘tib xo‘jalik raisi bilan uchrashgan Shurigin.

– Xo‘sh?

– Uni nima qilamiz?

– Qulflab qo‘y, turaversin. Nima edi?

– U yerdan ancha-muncha g‘isht chiqadi, men uni cho‘chqaxona qurishga ishlatgan bo‘lardim, uzoqdagi zavoddan tashib yurgandan ko‘ra.

– Uni buzib olish uchun besh kishi yarim oy ovora bo‘lishi kerak. U yerda g‘ishtni terishmagan, go‘yo xuddi quyma qilib quyishgan. Jin ursin, qanday qilib buni uddalashgan, bilmayman!..

– Men uni ag‘anataman.

– Qanday qilib?

– Shunday. Uchta traktorga bog‘lab tortaman, ko‘z ochib yumguncha ag‘anaydi.

– Bo‘pti, unnab ko‘r-chi.

Yakshanbadan boshlab Shurigin harakatga tushdi. Uchta traktor olib keldi... Cherkovni har xil balandlikda uchta yo‘g‘on po‘lat arqon bilan o‘rab bog‘ladi, arqonlar tagidan devorning o‘rtasi va burchagida to‘qqizta yog‘och ustunlarni joylashtirdi...

Avvaliga Shurigin boshqa ishlarni qanday boshqarsa, bu ishni ham xuddi shunday: baqirib-chaqirib, so‘kinib boshqara boshladi. Ammo keyin, bu yerga odamlar chopib kelib, oh-voh qilishib, Cherkovga achinib qaray boshlaganlarida Shurigin birdan o‘zini cheklanmagan vakolatlarga ega arbobday his qila boshladi. So‘kinishni to‘xtatdi, ammo odamlarga qaramadi, go‘yo ularni ko‘rmayotganday, so‘zlarini eshitmayotganday edi.

– Nikolay, senga buyruq berishdimi yoki o‘zingdan chiqdimi? – so‘rashardi odamlar. – O‘zing o‘ylab topdingmi yo?!

– Nima, senga xalaqit berayotganmidi? Ozroq ichib olgan ombor mudiri Mixaylo Belyakov po‘lat arqon tagida turib oldi-da, Shuriginga:

– Kolka, nega bunaqa qilayapsan? – deb so‘radi.

Shurigin chinakamiga darg‘azab bo‘lib, oqarib ketdi:

– Yo‘qol, bu yerdan, aroqxo‘r Cho‘chqa!

Mixaylo hayron bo‘lib brigadirdan nariroqqa ketdi. Atrofda turgan boshqalar ham hayratlanib jim bo‘lib qolishdi. Ichishga Shuriginning ham suyagi yo‘q edi, hech kimni hech qachon «aroqxo‘r Cho‘chqa» deb so‘kmasdi. Unga nimadir bo‘lganmi?

Bu orada yog‘och ustunlar jipslashib, po‘lat arqonlar to‘g‘rilandi.... Hozir traktorlar o‘kira boshlaydi va qishloqda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan hodisa yuz beradi – Cherkov qulaydi. Katta yoshdagi odamlarning bari shu yerda cho‘qintirilgan, ota-bobolarning janozasi shu yerda o‘qilgan, osmonni har kuni qanday ko‘rishgan bo‘lsa, Cherkovni ham har kuni xuddi shunday ko‘rishga o‘rganib qolishgandi... Yana qaytadan ovozlar yangray boshladi:

– Nikolay, kim buyurdi?

– E, uning o‘zi! Ko‘rmayapsanmi, yuziga qara, shaytonning o‘zi!

– Shurigin, bas qil o‘zboshimchalikni!

Shurigin parvo ham qilmadi.

Yuzida xuddi avvalgidek qat'iylik, qarashida aniqlik aks etib turardi. To'dadan Shuriginning xotini – Klankani turtib, itarib chiqardilar... Eriga nimadir bo'lganini ko'rib turgan Klanka jur'atsizgina unga yaqinlashdi.

– Kolya, nima uchun ag'darmoqchi bo'layapsan?

– Ket, bu yerdan! – buyurdi Shurigin. – Burningni suqma!

Traktorchilarning yoniga hech bo'lmaganda vaqtni cho'zish uchun bordilar, kimdir tumanga qo'ng'iroq qilish uchun, kimdir qishloq o'qituvchisining uyiga yugurib ketdi. Shurigin traktorchilarning har biriga bir shishadan oqidan va «bajarilgan ish» uchun mo'maygina haq to'lashni va'da qilgandi.

Qishloqda hamma hurmat qiladigan yosh o'qituvchi tezda yetib keldi.

– Darhol to'xtating! Bu kimning buyrug'i? Bu o'n yettinchi asr!..

– O'zingniki bo'lmagan ishga aralashma, – dedi Shurigin.

– Bu mening ishimmi? Bu xalq ishi! O'qituvchi hayajonlanar, shu sababli kerakli so'zlarni topolmaganidan qizarib-bo'zarib qichqirardi. Sizning haqqingiz yo'q! Unga, hatto dushmanlarimiz ham tegishmagan!.. Yovvoyilar! Men buni yuqoriga yozaman!

Shurigin traktorchilarga ishora qildi... Motorlar o'kira boshladi. Po'lat arqonlar taranglashdi. Olomon dahshatga tushib asta oh tortdi. O'qituvchi ilkis joyidan qo'zg'aldi, yugurib cherkov ag'anashi kerak bo'lgan tomonga o'tib, devor tagiga borib turib oldi.

– Qotillik uchun javob berasan! Telba...

Traktorlar to'xtashdi.

– Qoch! – deb bo'kirdi Shurigin bo'yin tomirlarini bo'rttirib.

– Cherkovga tega ko'rma! Agar tegsang!

Shurigin o'qituvchining yoniga yugurib bordi-da, uni g'o'laday quchoqlab, cherkovdan nariga ko'tarib olib ketdi. Nimjongina o'qituvchi tipirchilab, uning quchog'idan qutulishga harakat qilar, ammo Shuriginning qo'llari juda baquvvat edi.

– Boshla! – dedi u traktorchilarga.

– Devor tagiga borib turinglar! – deya qichqirardi o'qituvchi odamlarga. – Borib turinglar!.. Ular botinisholmaydi! Men viloyatga chiqaman, ular buni taqiqlashadi!

– Boshla, nimaga baqrayasanlar? – baqirdi Shurigin traktorchilarga qarab. Traktorchilar richagni ishlata boshlashdi...

– Devor tagiga borib turinglar! Hamma tursin!..

Ammo hech kim joyidan siljimadi. Shuriginning tiyiqsiz g‘azabi hammani hushsizlantirib qo‘ygandi. Hamma gung. Kutib turardi. Po‘lat arqonlar taranglashdi... g‘ichirladi, qisirladi, ovoz chiqardi... Yog‘ochlardan biri qarsillab ketdi, burchakka qapishgan arqon balalayka toriday diringlab ovoz chiqardi. Ajablanarlisi, bularning hammasi uchta traktor kuchini ko‘rsatib, bor ovozi bilan o‘kirayotganiga qaramasdan, aniq va yaxshi eshitilib turardi. Cherkovning tepa qismi silkindi. Cherkov ag‘anashi kerak bo‘lgan joyning qarama-qarshi tomonidagi devor birdan butun eniga yorilib ketdi. Oppoq devordagi qop-qora, qo‘rqinchli yoriq kengaya boshladi. Cherkov gumbazining uchi engasha-engasha, gursillab pastga quladi. Yer xuddi snaryad portlaganday zirillab ketdi, atrofni chang-to‘zon qopladi.

Shurigin o‘qituvchini qo‘yib yubordi va u bir og‘iz ham so‘z demay cherkovdan nariga ketdi. Ikkita traktor hamon zanjirli oyoqlari bilan kuchanib yerni tirnardi. O‘rtadagi po‘lat arqon devorni qirqib botgan va tobora chuqur kirib borarkan, bekorga g‘ishtlarni maydalab ezayotgan edi...

Shurigin traktorlarni to‘xtatdi. Po‘lat arqonlarni yana qaytadan o‘rab chiqishdi.

Odamlar tarqala boshlashdi. Faqat har narsaga qiziquvchan bolalargina qolishgandi. Uch soatlardan keyin hammasi tugadi, cherkovdan uncha baland bo‘lmagan bir uyum qing‘ir-qiyshiq asos qolgandi. Cherkov shaklsiz chiqindilar uyumiday bo‘lib yotardi.

Traktorlar ketishdi.

Terlab, chang-to‘zonga belangan Shurigin do‘kondagi telefondan xo‘jalik raisiga xabar berish uchun jo‘nadi.

– Kuyib bitdi! – deb qichqirardi u telefon go‘shagiga. Rais bu qichqiriqdan nima kuyib bitganini anglamagan bo‘lsa kerak.

– Cherkov-da! Hammasi kuyib bitdi. Ha. Hammasi joyida. O‘qituvchi sal-pal shovqin soldi. Yo‘q. O‘qituvchi, undan battar qariya kampirlar. E, yo‘q, hammasi joyida. Ancha terlab-pishdik. Ancha narsa, ha. Ular shunaqaki: uch-to‘rttasi bo‘lak-bo‘lak. Ularni endi qanday ajratamiz, bilmadim. Temir bilan urib parchalashga harakat qildik, juda ham mustahkam ekan la’nati, eplab bo‘lmadi. Haqiqatan ham, quyma. Xo‘p. Salomat bo‘l. Hechqisi yo‘q.

Shurigin go‘shakni qo‘ydi. Sotuvchining yoniga keldi, uni yarim tunda, tumandan mehmonlar baliq oviga kelganlarida va xo‘roz ikki qichqirguncha ulfatchilik qilganlarida o‘rnidan ko‘p martalab uyg‘otardi.

– Ko‘rdingmi, cherkovning surobini qanday to‘g‘riladik? – dedi Shurigin mamnun holda tirjayganicha.

– Ahmoqona ish qilish uchun aql kerak emas, – dedi sotuvchi ayol qahrini yashirmay. – Buning tirjayishini qarang...

– Nima uchun ahmoqona bo‘larkan? – Shuriginning yuzida kulgidan asar ham qolmagandi.

– Nima, u senga xalaqit berayotganmidi, turgandi-ku?

– Nega u bekordan bekorga turishi kerak ekan? Hech bo‘lmaganda g‘ishtini olamiz...

– Sen sho‘rlikka g‘isht oladigan joy qolmabdi-da, boshqa. Ovsar.

– Vaysaqi! – Shuriginning ham jahli chiqdi. – Aqling yetmasa, indamay o‘tir.

– Meni yana yarim tunda uyg‘otib ko‘r-chi, men seni uyg‘otib yuboraman. Vaysaqi...

– Bu gaping uchun basharangga tushirishim ham mumkin. Hozir mana bu qadoq tosh bilan biqiningga o‘xshatib bir tushiraman, o‘shanda bilasan, vaysaqi qanday bo‘lishini.

Shurigin yana nimalardir deb so‘kib, esi yo‘q sotuvchini haqorat qilmoqchi bo‘layotgan edi, hamma yerda hozir-u nozir xotinlar kirib kelishdi.

– Bir shisha ber!

– Bor-bor, tomog‘ingni ho‘llab ol, – chuvillashdi ortidan. – Chanqab ketgandirsan?

– Albatta-da, changdan keyin!

– Qo‘li qichib qolgan bu iblisni...

Shurigin ayollarga o‘qrayib qaradi, ular ko‘pchilik edi, hammasini baqirib yengolmasdi. Shu bilan birga, ulardagi g‘azab ham noodatiy, boshqacharoq edi. Ko‘zlarida nafrat chaqnardi. Shishani oldi-yu, do‘kondan chiqdi. Ostonaga yetib borib, qayrildi-da:

– Men hali dumlaringni qisib qo‘ymasammi! – dedi va tez yurib chiqib ketdi. U ketib borarkan, jahli chiqardi: «Axir, baribir, ibodat qilishmasdi-ku, tiriktovonlar, endi esa tomosha ko‘rsatishyapti». Qulagan cherkov yonidan o‘tib borarkan Shurigin to‘xtadi, g‘ishtlarni

kovlashtirayotgan bolalarga uzoq vaqt qarab turdi. Qarab turarkan, o‘zini ovutardi:

«Ular katta bo‘lganlarida cherkovni bizning davrimizda ag‘darishgan deb eslashadi. Mana men, Vaska Duxaninning, cherkov gumbazidan xochni qanday qilib sug‘urib olganini eslayman. Bu yerda esa butunlay ag‘darildi. Albatta, eslab qolishadi. Ular o‘z bolalariga Shurigin amaki qanday qilib po‘lat arqon bilan cherkovni o‘rab...» xuddi shu payt ko‘nglini g‘ash qilib yodiga sotuvchi ayol tushdi, Shurigin g‘azablanib «ko‘zga cho‘p tushganday» uning bu yerda turishining «hecham keragi yo‘q edi», deb xayol qildi. Uyida uni g‘irt mashmasha kutib turardi: xotini kechki ovqat tayyorlamay, qo‘shnilarnikiga chiqib ketgan, pechka ustida yotgan bemor onasi qarg‘ishini boshladi:

– Kolka, badbaxt, tentak, qanday gunohga botganingni bilasanmi?! Indamay yurganding-ku, iblis... Hech bo‘lmasa biror narsa deb og‘iz ochganingda yaxshi odamlar senga aqlingni yeb qo‘yganingni tushuntirishardi. Voy, peshonamning sho‘ri bo‘lmay har balo bo‘lgur, odamlar ko‘ziga endi qanday ko‘rinasan!.. Axir senga la’nat yog‘iladi endi, la’natlaydilar!.. Endi bu boshingga qanday balolar yog‘ilishini ham sezmay qolasan-ku: endi yo uyingda yolg‘izlikda tarrakday qotasan, yo changalzorda biror ofatga yo‘liqasan...

– Nega endi meni la’natlasharkan. Qiladigan ishlari yo‘qligidanmi?

– Axir bu gunohi azim-ku!

– Vaska Duxaninni ham la’natlagan edilar, u xochni yechib olgandi. Qaytanga, u katta odam bo‘lib yetishdi-ku...

– U paytlari boshqa zamon edi. Kim senga uni buz deb o‘rgatdi? Kim? Iblis qo‘lingdan tortdimi? Hali shoshmay tur, hukumatning o‘zi bu qilmishing uchun adabingni berib qo‘yadi. Ana, o‘qituvchi yozadi, kerakli joyga yetkazadi, o‘shanda bilasan. Buni qaranglar, manavi paydo bo‘lmaguncha joyida turgandi. Badbaxtsan sen, badbaxt.

– Mayli, unda yotaver kasal bo‘li-ib.

– Odamlar ko‘ziga qanday ko‘rinasan endi?

– Birov borib ibodat qilgan bo‘lsa ham mayli edi! Qaqqayib turganida hech kim qaramasdiyam...

– Nega qaramasdilar deysan! Odamlar biror uzoqroq joydan kelayotganlarida u doimo ko‘rinib turardi, avval uni ko‘rardilar. Qanchalik horigan bo‘lsalar ham uni ko‘rgach, odamlarda kuch-quvvat

paydo bo‘lardi, o‘zlarini uylariga yetib kelgandek sezardilar. U odamlarga kuch berardi...

– Kuch berarmish... Nima, hozir birov piyoda yurarmidi?! Tushunsang-chi, hozir atom asri, ular bo‘lsa cherkovga achinib o‘tirishibdi. Mana, qishloqda hozirgacha klub yo‘q, birov g‘ing demaydi, bunga esa kuyinishlarini qarang-a. O‘lib qolmaydi hech kim.

– Sen o‘lmagin! Uyatdan qurib qaqshaysan endi...

Shurigin onasining vaysashlarini eshitmaslik uchun mehmonxonaga o‘tdi, stakanni to‘ldirib aroq quydi-da, ichib yubordi. Cheka boshladi.

– G‘ishtga endi birortayam iblis qo‘l tekkizmasa kerak, – o‘yladi u. – Buldozer bilan to‘dalab surib tashlayman, menga desa qichitqi bosib yotmaydimi.

Xotini allamahalda qaytdi. Shurigin shishani bo‘shatib ulgurgandi. Yana ichgisi keldi, ammo sotuvchi ayolning darg‘azab yuzini ko‘rishni xohlamasdi.

– Borib bir shisha olib kel, – dedi xotiniga.

– Shayton olsin! Endi u senga do‘st.

– Iltimos, borib kel...

– Sendan so‘rovdilar, sen quloq soldingmi? Endi boshqalardan ham so‘rama. Ahmoq.

– Ovozingni o‘chir. Senam o‘shalar bilan...

– O‘shalar bilan. Qayerda oqko‘ngil odamlar bo‘lsa shular bilanman. Nahotki senday uyatsiz cho‘chqa tomonda bo‘lsam? Iltimos qilishdi, hamma bir bo‘lib sendan iltimos qildi, yo‘q! Ko‘zingni baqraytirib...

– Jim bo‘l! Bo‘lmasa sochingdan sudrab...

– Sudraysan?! Qo‘lingni tekkizib ko‘r-chi, uyatsiz Cho‘chqa... Tegib ko‘r!

«Yo‘q, endi bu g‘avg‘o tun bo‘yi tinmaydi. Odamlar esdan og‘ishgan». Shurigin hovliga chiqdi, mototsiklni o‘t oldirdi...

Tuman markazigacha o‘n sakkiz kilometr, u yerda do‘kon bor, u yerda xo‘jalik raisi bor, u ham metin erkak, manovi burni oqib yurganlardan emas. Birgalikda ichish mumkin, suhbatlashib o‘tiramiz. Aytmoqchi, unga bu yerda qanaqa g‘alayon ko‘targanlarini gapirib beraman. Hech bo‘lmaganda, bir kulishamiz.

Ko‘chaning muyulishida mototsikl chiroqlari yorug‘ida bir uyum g‘isht elaslanib ko‘rinib ketdi, yerto‘laning bezovta qilingan biqsiq ruhi izg‘irdi.

«O‘n yettinchi asr, – yodiga tushdi Shuriginning. – Mana senga o‘n yettinchi asr! Yozarmishlar. Yozaver, yozaver» Shurigin tezlikni oshirdi... Va bor ovozi bilan qo‘shiq ayta boshladi. Bilib qo‘ysinlar, har xil qarg‘ish, la’natlar unga pisand emas, uning kayfiyati a’lo darajada.

Mototsikl qishloqdan burilib chiqdi-da, ko‘zining o‘tkir yaraqlagan nuri bilan qorong‘ilikka tig‘day sanchilib, tekis va ravon yo‘ldan tuman markazi tomon yelib borardi.

Shurigin yeldek uchirib haydashni yaxshi ko‘rardi...

O‘roz HAYDAR tarjimalari.

YERMOLAY AMAKI

Bolaligimda bo‘lgan bir voqea-hodisani haligacha unutolmayman.

Dala ishlari qizg‘in palla. O‘sha kuni g‘alla yanchishni vaqtliroq tamomlashimiz kerak edi, chunki havoning avzoyi yomg‘ir yog‘ishidan darak berardi. Osmonni qo‘rg‘oshin rang bulut qoplab, tez orada shamol esa boshladi. Biz bolalar uchun yomg‘ir yoqqani ma’qul, quvonishimiz sababi shu kuni dam olamiz, brigadir Yermolay amaki esa aksincha, u shoshmay norozi qiyofada bulutlarga tikildi.

– Hech qanaqa yomg‘ir bo‘lmaydi. Hozir shamol bulutni haydab ketadi. – Uning istak-xohishi esa xirmondagi g‘allani tezroq yanchib olish. Biroq, hamma allaqachon yo‘lga otlanishga shay turar, u ko‘ngliga qancha taskin bermasin, o‘zi ham ichida ketish taraddudida edi.

Brigadaning dala shiyponigacha bir yarim chaqirimlik yo‘l. Toki manzilga yetib borib, otlarni bo‘shatib, kechki taomni yeb bo‘lguncha ko‘k betinini asta-sekin bulut to‘liq qoplasa ham biroq, chindan ham yomg‘ir yog‘madi. Shamol kuchayganidan kuchayib, chang ko‘tarildi. Qop-qorong‘i tun bag‘rini chaqmoq qilichday kesib, izidan titroq solib ketma-ket momaqaldiroq gumbirladi.

– O‘g‘rilarning kuni tug‘adigan kecha bo‘ldi, – dedi Yermolay amaki. – Ha, aytgancha Grishka qani? Yermolay amaki atrofiga alanglab uni qidirarkan birdan uning ko‘zi menga tushib qoldi. – Grishka bilan Vaska ikkoving xirmon boshiga borib uxlanglar. Yo‘qsa, bunaqa notinch zulmat tunda kim biladi, yana birov kelib donimizni o‘marib ketmasin. Ko‘rmaysanmi, kechani...

Biz Grishka bilan xirmon boshiga jo‘nadik.

Oraliq masofa atigi bir yarim chaqirim yo‘l. Boya dala shiyponiga qaytishda otni yeldirib yo‘lni bir lahzada bosib o‘tgan edik, endi esa bu yo‘l bizga uzoq va xavfli bo‘lib ko‘rinayapti. Tinimsiz momaqaldiroq guldirar, xuddiki atrofimizni vahimali gumburlash qurshab olganga o‘xshardi! Ahyonda uchib kelib urilgan tomchilar yuzni og‘ritar edi. Ko‘tarilayotgan chang tekkan joyini xuddi cho‘g‘dek kuydirib achishtirardi. Havodan esa chaqmoqtoshni bir-biriga ishqalanganda chiqadigan achimtik kuyindi hidi kelardi.

Osmondan guldurab chaqmoq chaqnaganida yerdagi hamma narsa – g‘aramlar, daraxtlar, bir-biriga zich qilib tiralgan arpabug‘doy bog‘lamlari, bog‘kapa, bir joyda depsinib turgan otlar yilt etib ko‘rinar, keyin yana zulmat tun hammasini yutib yuborardi. Ko‘kda borliqni larzaga solib, uchqun sachratgancha yashin chatnab, tog‘ ko‘chkisidek uzilib katta tomchilar yerga urila boshladi.

Oxir – oqibatda biz adashib qoldik. Doni yanchilishi kerak g‘aramni izlab topolmay sarsonimiz chiqib, bo‘larimiz bo‘ldi. Chunki bu yerda g‘aramalar soni anchagina. To‘xtab kutar ekanmiz, chaqmoq chaqib borliqni yoritishi bilan tag‘in ilgarigidek ot choptirib boshqa g‘aramga yaqinlashardik. Havoda ko‘z ochib yumganchalik fursat ichida ko‘kish rang yorug‘lik yilt etib yana hammasi birdan yo‘qoladi. Qop-qorong‘i zulmat tun bag‘ri xuddi pastlikka qulagan ulkan toshdek gumburlab ketdi.

– Kel yaxshisi, birinchi duch kelgan g‘aram orasiga kirib tunaymiz, – deb taklif qildi Grishka.

– Albatta shunday qilamiz.

– Ertaga xirmonning boshida uxladik deymiz, buni kim bilib o‘tiribdi?!

Ho‘l poxolning hushbo‘y isi anqib turgan doni yanchilmagan g‘aramning issiqqina bag‘riga suqilib kirib oldik. Ertaga arzimagan narsaga jazolanmasligimiz uchun barvaqtroq uyg‘onishga qat’iy va’dalashdik... Qanday uyquga ketganimizni ham sezmay qolibmiz, tunda yog‘ayotgan yomg‘ir tovushini ham eshitmabmiz hatto.

Ertasi kun yoyilib ketgan bo‘lsa ham tevarak – atrof suv quygandek jimjit. Biz esa shubhasiz qattiq uxlab qolgandik.

Ammo kechasi bug‘doy poyalari nam tortib qolgani uchun don yanchuvchilar hech qachon barvaqt kelmasligi ma’lum. Shu bois biz dala shiyponiga ketdik.

– Kelinglar qorovullar, – dedi Yermolay amaki, bizlarni ko‘rgach, nazarimda u bizga sinchkovlik bilan tikilgandek tuyuldi. Qanday tunadinglar?

– Yaxshi.

– Hammasi yaxshimi? G‘alla xirmonlari joyidami?

– Hammasi yaxshi. Nima edi?

– Hech nima, Shunday so‘radim-da... O‘zim jo‘natganimdan so‘ng o‘zim so‘raymanda «Nimaga bo‘larkan?» –O‘zim hammasini qarab chiqishim kerak-ku. Menga negadir hammasi joyida emasga o‘xshayapti. – Don xirmoni butunmi?

– Butun. – Grishka yumaloq ko‘zlarini javdiratgancha unga kiprik qoqmay tikildi. – Nima edi?!

– O‘zi sizlar o‘sha yerga boruvmidingiz? Xirmon boshiga-da?

Mening umurtqamning boshidan to dumg‘azamgacha qattiq og‘riq kirib zirqiray boshladi. Grishka ham sarosimaga tushdi... Ko‘zlarini pirpirata boshladi.

– Qanaqasi bu «bo‘ldingizmi emish»?..

– To‘g‘risini aytinglar, u yerda bo‘ldingizmi, yo‘qmi?

– Bo‘ldik. Bo‘lmasa, biz qayerda bo‘ldik?

Eh, shu yerda Yermolay amaki birdan tutaqib ketdi.

– Ha, kelib-kelib sizlar meni aldamoqchi bo‘layapsizlarmi, it-vachchalar! Sizlar qaysi bir go‘rda – poxol-moxol orasida tunab, yana uyalmay menga u yerga bordik, deganingiz nimasi! Mana hozir ikkoving ham iflos mushukka o‘xshab to‘plangan g‘aramlar orasida burningizgach ko‘milib yotib, endi turib kelayapsizlar. Qayerda tunadingizlar?

– Nima... bizga ishonmaysizmi?

– Qayerda tunadingizlar?

– Aynan o‘sha yerda. – Grishka ko‘rinishidan o‘ladigan ho‘kiz boltadan qaytmas deganlaridek boshini kundaga qo‘yishga ham tayyor edi. Men yengil tortdim.

– Vaska qayerda tunadinglar?

– O‘sha joyda.

– Gapni achchiq ichakdek cho‘zib o‘tirmay, dangaliga ko‘chib qo‘ya qolmaysizlarmi!.. Yermolay amaki hatto boshini changallar ekan, og‘riqdan yuzi burishib ketdi. – Ko‘rmaysanmi ularning hunar ko‘rsatishini! Ha, sizlar xirmon boshida bo‘lmagansizlar,mutlaq bo‘lmagansizla-ar! U yerga o‘zim bordim-ku axir! Ablahsizlar, siz-

lar shunday yaramassiz! Men sizlar ketishingiz bilanoq izingizdan u yerga otlandim, ichki bir xavotirda, ular xirmon boshiga yetib bordimikan deb? Sizlar u yerda yo‘q edilaring!

Chindan ham u xirmon boshiga borgan ekan, biroq bundan biz zarracha xijolat tortmay o‘zmiznikini ma’qullar edik.

– Xo‘sh nima qipti?

– Nima?

– Ha, rostdanam... biz ham u yerda bo‘ldik. Demak, jindek kechikibmiz chog‘i... Biz yo‘lda adashib qolgandik.

– Qayerda kechikib?! – chinqirib yubordi Yermolay amaki. – Qayerda kechikib?! Men u yerda yomg‘ir tingunicha panada kutib turdim! Faqat u yerdan kun yorishganidan so‘ng ketdim. Sizlar u joyda bo‘lganlaring yo‘q!

– Bo‘ldik...

Yermolay amaki esini yo‘qotib qo‘ydi... Ehtimol biz – uning ko‘ziga havoda chaqmoq chaqib yilt etgan oniy lahzalarda xuddi bizning ko‘zimizga tashlangan kechaga g‘aramlar va otlar singari ko‘ringanga o‘xshaymiz. Negadir uning ko‘ziga qayta ko‘rinmaganimiz ajablantirayotgan edi.

– Bo‘ldingizmi?

– Bo‘ldik.

U jilovni mahkam ushladi... Biz har yerda turardik. Yermolay amaki jilovini qattiq ushlaganicha turar, og‘riqdan yuzini burishtirgancha nariga ketarkan kaftlari bilan ko‘zlarini artdi. U judayam baquvvat edi.

– Ablahlar, – dedi ketayotib yo‘l-yo‘lakay. – Bo‘lmadingizlarku axir, bo‘lmagansizlar – nima qilasizlar qasamxo‘rlik qilib – uni ko‘zlaringiz aytib turibdi. Yuzingiz qora sizlarning. Bunaqa tubanlik bilan uzoqqa borolmaysizlar! Shuni bilib qo‘ying, bir kuni harom qotasizlar. Sizlar uchun bu sharmandalik... Xezalakka o‘xshab qolibsizlar!.. Yaramaslar. Ko‘zlaringiz aytib turibdi- sizlarga gap kor qilmaydi! Oh!.. – Yermolay amaki oldimizga qaytib keldi. Ha sen to‘g‘rsini aytgin: qo‘rqdingmi, ehtimol topolmagandirsizlar – ha yo‘q, bo‘lishi mumkin emas, hammasini ko‘zlaringiz aytib turibdi. Yaramaslar... Modomiki, shunday ekan, besh ish kuningizni bekor qilaman.

Kunduzi donni yanchib tozalayotganimizda Yermolay amaki yana bir marta oldimizga keldi.

– Grishka, Vask... u yerda bo‘lmaganingnizni tan olasizlar-a. Bo‘pti, besh ish kuningizni olib tashlamayman. Rostdan ham u yerda bo‘lmagansizlar, to‘g‘rimi?

– Bo‘ldik.

Yermolay amaki bir muddat bizga qarab turdi... Keyin bizni oldiga chaqirdi.

– Bu yoqqa kelinglar... Keling, keling. Mana bu yerda men to yomg‘ir tinguncha panalab turdim. U turgan joyini ko‘rsatdi va bizga savolomuz qaradi. –Aytingchi, sizlar qayerga yashirindingizlar?

– Biz esa o‘sha joyning boshqa tomonida edik.

– Qaysi tomonida?

– Anovi yoqqa-da.

– Ho‘p, qani o‘sha anovi joyingiz?! Qayerda o‘sha anovi joylaring? – Uning yana toqati toq bo‘lib, g‘azabi qaynab ketdi. – Men axir ovozim boricha baqirib sizlarni chaqirdim!.. Men hamma g‘aramlarning atrofini bir-bir to‘liq aylanib chiqdim. Chaqmoq chaqib atrofni shunday yoritdiki, bu yorug‘da hali odam ekan, hatto yerda yotgan ignani ham bemalol topsa bo‘lar edi. Xo‘sh, qayerda bo‘ldingizlar?

– Shu yerda.

Yermolay amaki yana chinqirib yubormaslik uchun oxirgi bor kuchini to‘plab tishini tishiga qo‘ydi. Yana yuzlari burishib ketdi...

– Xo‘p bo‘pti, bo‘pti... Balkim, sizlar mening so‘kib yuborishimdan qo‘rqayotgandirsizlar? So‘kmayman. Faqat to‘g‘risini ayting, qayerda tunadinglar? Besh ish kuningizni ham kesmayman... Qayerda tunadingizlar?

– Xirmon boshida.

– Ha qayerda, qaysi xirmonning boshida? – Yermolay amaki sapchib ketdi. – Qayerda o‘sha xirmonning boshi?! Qayerda, qachon men... u-u-uv-v, ablahlar! – U bizni savalash uchun qo‘liga ilinadagin biron nima qidirib atrofiga ko‘z yugurtira boshladi.

Biz qochib qoldik.

Yermolay amaki g‘aram orqasiga o‘tib ketdi... Ehtimol, yana yig‘lagandir.

Mana o‘shandan buyon qancha suvlar oqib ketdi... Har gal bolaligim o‘tgan qadrdon uyga kelganimda marhum qarindoshlarim qabrini ziyorat qilish uchun qabristonga borar ekanman, bir chetda turgan xochga ko‘zim tushadi: «Yemilyanov Yermolay ...vich».

Yermolay Grigoryevich – Yermolay amaki. Uni ham eslab qabri tepasida bosh egib turarkanman – uzoq xotiralar og‘ushiga o‘yga cho‘maman. O‘ylasam, u odam mening bilishimcha: juda oddiy, umr bo‘yi boshi mehnatdan chiqmagan, samimiy va eng halol inson edi. Bu yerda yotganlarning hammasi shu, xuddi bobom va buvim kabi. Judayam oddiy. Faqat o‘ylaganim bilan oxiriga yetolmayan, har birining o‘z hayot maktabi va o‘zi yaratgan umr kitobi bor edi. Masalan, ularning hayoti haqida nima deyish mumkin, qandaydir juda katta mazmunga ega edimi? Chunonchi ular qanday yashab o‘tishdi. Yoxud hech qanaqa mazmun-ahamiyati yo‘qmidi, bor edi, atigi bittagana narsa – ish, ish... Bolalar tug‘ilishi bilanoq ko‘z ochib ko‘rgani faqat ish bo‘lar edi.

Bilasizmi, keyin men butunlay boshqa odamlarga duch keldim... Hammasi ham yalqov yo tanbal emas, yo‘q, biroq... ular o‘z hayotlarini mutlaqo boshqacha tushunadilar. Ha men o‘zim ham ularni tushunaman, endi boshqacha yo‘sinda! Biroq, faqat, qachon ana shu tepalikka qarasam, bilmayman, og‘ir savollar qurshovida qolaman: oramizdan qaysi birimiz haqmiz, kim aqlli?

KECHINMA

Har oqshom shu ahvol!

Qishloq tinchib odamlar endi uxlashga yotishi bilan – u boshlab qoladi... Muttaham anovi apparatining murvatini burashi bilan tovushi butun qishloqni tutib ketadi. Telbalarcha o‘ynagani o‘ynagan.

Bilmadim, uning garmoni qanaqa xilidan, maxsusmi – o‘kiradi. Ishonavering, ovozi yangramaydi – o‘kiradi.

Ninka Krichetovaga maslahat berishdi:

– Tezroq uning oldiga chiq! Bu tentakning dastidan bizga hech kun yo‘q.

Ninka taajjublanib kulimsiragancha dedi:

– Dunyoni suv bossa g‘ozga chikora! Sizga baribir. Xotirjam uxlayvering.

– Qanaqa uyqu, qachon qaramang, u derazamning tagida anovi matohini bo‘kirtirib tursa yotib bo‘ladimi! Hech qayerga ketmaydi, shu yerdan bir qadam ham siljimaydi, boshqa yoqqa, daryo bo‘yigami boray ham demaydi-ya... uzoqroqqa, atiydan qiladi.

O‘zi novchadan kelgan, do‘rdoq labli Kolka Malashkin bit ko‘zlarini surbetlarcha unga tikib dedi:

– Huquqim bor. Buni ta’qiqlash to‘g‘risida hech qanday modda yo‘q.

Shu yerdagi xo‘jalik rahbari – Matvey Ryazansevning uyi ham aynan o‘sha yerda, har doim Kolka garmonini olib chiqib bo‘kirtiradigan ko‘chada joylashgan. Garmonini ko‘chaning muyilishga chiqarib bo‘kirtira boshlashi bilanoq shovqin-suroni uning uyini qamrab oladi va bu hol ancha vaqtgacha davom etadi.

Muyilish boshidan endi kuy eshitila boshlaganda Matvey karavotda o‘tirganicha polga oyog‘ina uzatarkan jahl bilan g‘ijindi:

– Tamom. Ertagayoq bu yerdan quritaman. Bo‘ldi, hiqildog‘imga keldi, xo‘jalikdan haydab yuboraman.

U har oqshom shunday deydi. Lekin haligacha haydab chiqargani yo‘q. Faqat kunduzi Kolkaga duch kelib qolsa so‘raydi:

– Qachon bu jinniligingni bas qilasan, hali yana uzoq davom etadimi? Odamlar kun bo‘yi ishlab charchaydi, ular dam olish uchun o‘rniga cho‘zilishi bilan sen anovi matohingni bo‘kirtishga tushasan.

– Huquqim bor, – deydi tag‘in Kolka.

– Men senga haq-huquq qanaqa bo‘lishini ko‘rsatib qo‘yaman! O‘zim senga huquqning zo‘rini topib beraman.

Tamom. Shu bilan bu mavzudagi suhbat yakun topadi.

Biroq har oqshom Matvey karavotida o‘tirarkan, bir gapni qaytaradi:

– Ertagayoq haydayman.

Shundan so‘ng u uzoq vaqt o‘tirdi, xayolga cho‘mdi... Garmon allaqachon ko‘chadan ketib, uni o‘chgan bo‘lsa ham u baribir o‘rnidan qo‘zg‘almay o‘tiraverdi. Qo‘lini cho‘ntagiga tiqib papiros qutini olib stolga qo‘yarkan bittasini olib tutatdi.

– Bas qil, ha deb ichingni qora qurumga to‘ldirmagin! – bobillab berdi bekasi Alyona.

– Uxla, – dedi qisqa qilib Matvey.

Nima haqda o‘ylaysan? Ha, shunaqa, qandaydir... ko‘p narsa haqda. O‘tgan yillariga, hayot yo‘llariga xayolan nazar tashladi. Biroq uzuq-yuluq, g‘ira-shira voqealardan bo‘lak aniq bir narsani eslolmadi. O‘shanda ham to‘lin oy shu’lasidan tevarak-atrof oppoq yog‘duga cho‘milgan mana shunday tun edi. Garmon yangradi, ochiq derazadan salqin shabada bilan tomorqadan kelayotgan yavshanning taxir va achchiq hidi dimoqqa urilar ekan, beixtiyor mana shunaqa boshqa bir oqshomni yodiga tushirdi. O‘sha kungi kechaning bugungisidan farqi tun qop-qorong‘i edi. U otasi va ukasi Kuzma bilan qishlog‘idan o‘n besh chaqirimcha uzoqda boshqalar qatori pichan o‘rimida edi. Yarim tunda kutilmaganda Kuzma yo‘talgancha bo‘g‘ilib qoldi: kunduzi oftob ayni burovga olgan vaqtda terlab kelib muzdek buloq suvidan ichibdi, kechasi esa birdan uning tomog‘i hippa bo‘g‘ilib qoldi. Otasi Matveyni uyg‘otar ekan, chaqqonlik bilan O‘yinqaroqni (judayam gijinglagan ot) minib, tezroq qishloqqa borib sut olib kelishini tayinladi.

– Men bu yerda olov yoqib turaman... Olib kelishing bilan sutni qaynatib bolaga ichiramiz, shu yo‘l bilangina uning tomog‘ini tuzatishimiz mumkin, boshqa hech qanday chora yo‘q, – dedi otasi.

Matvey otasining gaplarini eshitgan zahoti borib O‘yinqaroqni o‘tlayotgan joyida yuganlab otga o‘tirdi va tinimsiz qamchilaganicha qishloqqa qarab uchdi. Mana bugun... Endi esa... Matvey yaqinda oltmishga to‘ladi, o‘shanda u o‘n ikki-o‘n uch yoshli bola edi – ana shu oqshom hamma xotirasini uyg‘otib yubordi. Inson va ot bir bo‘lib uchgancha qorong‘i kecha bag‘riga singib ketdi. Tun qo‘ynida otini choptirib borarkan, yuzi va dimog‘iga oqshom shudringiga to‘yingan o‘tlarning og‘ir va quyuq ifori urila boshladi. Qandaydir betiyiq zavq va sirli hayajon qurshovida o‘smirning boshi guvillab aylanayotganga o‘xshardi. Parvozni eslatadigan bu holatda u o‘zini yerdan uzilib uchib ketayotgandek his etardi. Atrofdagi hech nimani ilg‘ab bo‘lmas: na yer, na osmon, hatto otning kallasini ham – faqat qulog‘iga shamolning g‘uvillagan shovqini urilar, faqat o‘zi tomonga siljiyotganga o‘xshash vahimali tun olamini yorib u tezroq uyiga yetib borishga shoshardi. O‘shanda ukasining ahvoli bu qadar og‘irligi yetti uxlab tushigayam kirmagan. Bunday bo‘lishini hatto u xayoliga ham keltirmagan. Qalbi shodlikdan limmo-lim, tanasidagi har bir tomiri quvonchdan yorilay derdi go‘yo... Ahyon-ahyonda bo‘ladigan qandaydir o‘zgacha bir xohish, lahzalik quvonchni ko‘tarolmay u qiynalar edi.

... So‘ngra bu tuyg‘u – g‘amga aylandi. Keyin u sut olib keldi, otasi esa ukasini bag‘riga bosgancha gulxan atrofidan zir yugurib aylanib unga qandaydir ovutishga o‘xshash gaplarni aytardi:

– Qani, o‘zimning o‘g‘lim... senga nima bo‘ldi? Erkatoyim ozgina sabr qil. Hozir, jindekgina kutaylik, bolam. Hoziroq sut qaynaydi, ichishing bilan hammasi o‘tib ketadi, hech nima ko‘rmagandek bo‘lib ketasan, o‘g‘lim, o‘zimning erkatoyim... Mana, akang sut olib keldi!..

Kichkina Kuzmaning rangi ko‘karib, ahvoli tobora og‘irlashib borardi.

Matveyning izidan onasi shoshilib yetib kelganida, Kuzmaning allaqachon joni uzilgan edi. Qo‘llari bilan boshini changallaganicha otasi o‘tirgan joyidayam chayqalib turar, damba-dam bo‘g‘iq tovushda cho‘zib-cho‘zib ingranardi. Matvey ajablanganicha qandaydir anglab bo‘lmaydigan sinchkovlik bilan ukasiga tikildi. Axir kechagina u bilan birga pichan tashigan, endi esa ko‘z oldida rangi bo‘zarib oqish tusga kirgan tamomila begona, notanish bola cho‘zilib yotibdi.

...Faqat shunisi g‘alati: nega anovi la’nati garmon kelib-kelib uning xotirasini ayqash-uyqash qilib ayni shu hodisani yodiga tushirdi? Bu oqshomda? Axir shundan so‘ng uning hayotida qanchadan-qancha voqealar bo‘lib o‘tdi: uylanish, kollektivlashtirish, urush. Toki bugunga qadar shunga o‘xshash orzu – armonlarga to‘la eh-he... ne bir kechalarni ko‘rmadi! Biroq hammasi qanaqadir so‘lg‘in, faromush va noaniq. Umr bo‘yi Matvey nimani qilish kerak bo‘lsa, sira bo‘yin tovlamay hammasini bajardi: aytishdi, kolxozga borish kerak – bordi, uylanish vaqti yetganida – uylandi, Alyonadan bolalari dunyoga keldi, ularning bo‘yi cho‘zilib qoldi... Urush boshlandi – jangga ketdi. Yaralanib boshqa erkaklardan uyiga erta qaytdi. Aytishdi: «Faqat Matvey rais bo‘lsagina rivojlantiradi, boshqa emas, xo‘p dedi-ko‘ndi». Rais bo‘ldi. Xuddi bo‘yinturuqday bu ishni uning bo‘yniga ilishdi. Asta-sekin bunga ham ko‘nikib ketdi. Hanuzgacha xo‘jalikning og‘ir yukli aravasini sudrab, torib kelayapti. Butun umri davomida uning ongu-shuurida bir so‘z hukmron: faqat ish, ish, ish. Hatto urushda ham – ish. Uning quvonch-tashvishi, hattoki g‘am-qayg‘usi ham ish bilan chambarchas bog‘langan. Gohida, masalan, atrofida qulog‘iga «sev-gi» so‘zi chalingudek bo‘lsa, buni u to‘liq fahmlab ololmaydi. Boisi uning tushungani, agar bu olamda muhabbat mavjud ekan, uning o‘zi ham, ehtimol, qachonlardir Alyonani sevgandir (u chindan ham qizlar-ning suluvi bo‘lgan), balkim birnarsa deyishi uchun, u bu haqda yana birnimalarni ko‘proq bilishi kerakdir, – unga esa bunaqa xislatlar be-gona. U va boshqalar o‘zlarining shubha-gumonlarini yashirishga uri-nib: muhabbat to‘g‘risida qo‘shiqlar aytardilar, hayajonga tushishardi, uzoqlardan esa o‘qlar tovushi eshitilardi... Lekin botiniy kechinmala-rini pinhon tutish o‘sha davrda odamlarga odat edi: muhabbat haqida so‘zlash kerakmi – bo‘pti muhabbat haqida gapir. Baribir, bu ishning yakuni uylanishga borib taqalardi. Nima u, Kolka, birovni sevib qol-ganmi? Nina chindan ham unga mos, to‘ladan kelgan, yoqimtoygina. U allaqachon uylanish yoshiga yetgan, kechasi bilan anovi matohni «vag‘illatib» odamlarning tinchini buzib yurguncha, to‘ppa-to‘g‘ri oldiga bormaydimi, ahmoq. Nima qiladi quruqdan-quruq behudaga sanqib yurib? Yosh, kuchi bor, yuragi ichiga sig‘may o‘ynab turibdi... Har doim o‘zi shunaqa bo‘ladi. Haliyam yaxshi, endi qizlarning izidan soyaday ergashib yurishmaydi, oldin ismini eshitishlari bilan sapchib tushardilar. Matveyning o‘zida bunday hol biron marta ham sodir bo‘lmagan...

Axir har doim mushti qichib turgan, o‘ziyam o‘sha paytlari buqaday baquvvat edi-da. Shunday bo‘lgach, u buni qayergadir ishlatishi kerak bo‘lgan-da.

Bir gal Matvey xuddi bugungiday o‘y-xayolga cho‘mgancha karavotda o‘tirar ekan, o‘zidan-o‘zi betoqat bo‘lib ayolini turtkilab uyg‘ota boshladi:

– Eshityapsanmi!.. Bo‘l, tezroq o‘rningdan turgin. Sendan bir narsani so‘ramoqchiman...

– Senga nima bo‘ldi, tinchlikmi? – ajablandi Alyona.

– Sen ham qachonlardir biron-bir kishini sevganmisan? U menmi yoki boshqa birovmi? Buning ahamiyati yo‘q.

Alyona hayron bo‘lib uzoq yotdi.

– Maboda kayfing yo‘qmi?

– Hay-y yo‘q!.. Sen sevganmisan? Menimi yoki shunday... peshonaga bitgani shu ekan, deb erga tegib ketaverganmisan? Men jiddiy so‘rayapman.

Alyona tushunib yetdiki, eri «oq suvdan ko‘proq tortib» qo‘ymagan, biroq yana uzoq jim qoldi – u ham nima deyishini bilmasdi, barisini unutib yuborgan.

– Nimaga sening boshingga birdan bunaqa bema’ni fikr kelib qoldi?

– Qandaydir ichki bir istak – xohishmi, bilmadim, bag‘rimni yondirib azoblagani-azoblagan. Nimagadir mening qalbimda... Qanaqadir yechimi mushkul, mubham bir nima... Negadir ismsiz bir dard qiynayapti.

– Sevganman, albatta! – ishonch bilan gapirdi Alyona. – Sevmaganimda, sira bunaqa bo‘lmas edi. Mening izimdan Minka rosa chopgan, bor-ku anovi Korolyov ishqimda qanday kuyib yongan. Baribir amalga oshmagan. Nimaga sen qoq yarim tunda ishq-muhabatni eslab qolding? Aljib gapirishingdan senda muhabbat qayta boshlanyaptimi deyman?

– Bor jo‘na! – achchiqlandi Matvey. – Yotib uxla.

– Sal bo‘lmasa senga aytish esimdan ko‘tarilay debdi, ertagayoq govmishni o‘tloqqa haydash kerak. Biz podachini ko‘ndirdik, ertalab tonggacha sero‘t dalada haydab boqmasa bo‘lmaydi.

– Qayerga? – birdan sergaklandi Matvey.

– Qo‘rqib yurak hovuchlama, sening pichani o‘riladigan maydoning emas.

– Qo‘lga tushsalaring bo‘ldi, jarimasi juda katta, so‘ng bosh tortmay to‘laysizlar.

– Biz pichani o‘rilmaydigan kichkina maydonna bilamiz, hosili qip-qizil bo‘lib pishib yotibdi. Govmishni o‘sha yerga olib borish kerak.

– Yaxshi...

U yana o‘sha qorong‘i kechada ukasiga sut olib kelishga borganini esladi, endi esa...

«Ahmoqdirman, balkim, – g‘amgin o‘yga botdi Matvey. – Qarigan sari hamma nodonlashib boraveradi».

Hali yuragidagi og‘riq bosilmagan edi. U Kolkaning «baqiroq» garmoni tovushini eshitish uchun hatto biroz sabr qilib kutishi kerakligini his etdi. Nega uning anchadan buyon ovozi chiqmaydi – jimjit, ko‘ngli tag‘in bezovtalana boshladi. Ninadan ham jahli chiqdi: «Yoqimtoy g‘unajin!.. Hididan sezilib turibdi, u tezda qo‘yib yuboradi!»

O‘tirib kuta boshladi. Papiros olib tutatdi.

Mana nihoyat uzoqdan ko‘chaning muyulishidan garmonning tovushi eshitila boshladi. Yuragidan og‘riq ko‘tarilganday bo‘ldi. Biroq bu qandaydir judayam g‘alati og‘riq – zaruriyatga o‘xshash. Busiz xuddi biron narsa kamdek, nimadir yetishmayotganday.

Yana qandaydir bir erta tong yodiga tushdi... Shudringli maysalar ustidan oyoq yalang yurib borardi u. Maysalar shabnamdan marjon taqqanga o‘xshardi go‘yo. Qadami ortidan faqat yanchilgan – yashil izlar qolayotgan edi. Shudring uning oyoqlarini yondirib borardi. Taajjublanarli tomoni, oyog‘ining muzlayotgani hatto xayoliga ham kelmasdi.

Shu payt birdan o‘limi haqida o‘ylab qoldi: nima bo‘pti, tezda hammasi tamom. Hech qanday vahimali qo‘rquv va og‘riqsiz, biroq judayam g‘alati-ya: hammasi risoladagiday amalga oshiriladi, bu tushunarli hol, seni esa qabristonga olib borib go‘rga tiqadilar va hattoki eslab achingan ham bo‘lishadi. Mana yana bir tushunish qiyin bo‘lgan tomoni: bu yerda qanday bo‘lsa shunday holda yakun topaveradimi? Xo‘p bo‘pti, shunday bo‘ldi ham deylik: quyosh tepaga ko‘tariladi va botadi – u hamma vaqt shunday chiqaveradi, botaveradi. Biroq, qishloqda odamlar qandaydir biroz boshqacharoq, bo‘ladi, ularni hech qachon bilolmaysan... Sirayam tushunib bo‘lmaydi. Chamasi o‘n-o‘n besh yil Matvey qan-

day odam bo‘lganini eslashlari mumkin, keyin esa tamom. Istak-xohishlarini bilishi kerak, so‘ngra ular bu yerda nima qilisharkin. Axir buning nimasi achinarli: quyoshni xo‘b miriqib tomosha qilgani singari yoxud bayramda sayr qilganari kabi mamnun bo‘lishlari bor gap, ammo... unchalik ham emas. Ko‘p narsani ko‘rdi. Biroq o‘zingcha nima deb o‘ylaysan: endi sen yo‘qsan, boshqa borlar esa qandaydir, sen esa qaytib boshqa bo‘lmaysan... Qanaqadir sensiz bo‘shliqqa o‘xshash nimadir paydo bo‘ladi. Yoxud hech nimami?

«Tuf-ey!.. Yo‘q, qariyapman».

Hatto bunaqa og‘ir o‘ylardan charchab ketdi.

– Quloq tut menga!.. Uyg‘onsang-chi, – Matvey xotinini o‘rnidan turg‘azdi. – Sen o‘limdan qo‘rqib dahshatga tushasanmi?

– Bu erkak jinni bo‘p qopti! – baqirib berdi Alyona. – Kim undan qo‘rqib dahshatga tushmaydi, nima u senga yarim shisha aroq-midi?

– Men esa sirayam dahshatga tushmayman.

– Unday bo‘lsa jimgina yot. Bo‘lmasa, nimaga ha deb bu haqda o‘ylaverasan?

– Uxla, bo‘pti sen!..

Otni shitob yeldirib ketgan o‘sha sershovqin qop-qorong‘i tunda ham yuragi qandaydir bir shirin entikish bilan qinidan chiqqu-day hapriqqan edi. Yo‘q, bu hayotda qandaydir sir-sinoat bor, bu esa nimasi bilandir ham dahshatli, ham achinarli. Rosti ko‘z yoshi to‘kkuday achinarli...

U kutgan Kolkinning garmoni butun tunda biron marta ham eshitilmadi. Kutdi, kutdi, o‘tirdi, chekdi... Tamom, yo‘qmi, yo‘q. U sirayam bunaqa bo‘lishini kutmagan edi. Oxiri charchadi.

Ertalab Matveyni xotini uyg‘otdi.

– Nima bu, haligi qo‘ng‘irog‘imizning uni o‘chib qoldi?

– U uylanish taraddudida. Kelayotgan yakshanbada to‘yi.

Matvey birdan ma’yus tortib qoldi. U biroz mizg‘ib olish uchun yana o‘rniga cho‘zildi, biroq, uxlay olmadi. Shu ko‘yi u kun yoyilib ketgunga qadar ko‘zlarini qattiq yumib yotaverdi. Ayni damda u o‘zining boshidan o‘tgan yana qandaydir voqealarni eslagisi kelar, qancha urinmasin, biroq, aksiga olib birontasi ham esiga tushmasdi. Buning o‘rniga, aksincha, tamomila teskari bo‘lgan yana kolxozning orqaga cho‘zilayotgan yumush – tashvishlari egalladi... Yaqinda

o‘roq boshlanadi, lekin o‘roq mashinalarining yarmidan ko‘pi aravaning shotilariga o‘xshab temirchilarnikida qaqqayib, zanglab yotibdi. Jin urgir, bunaqada o‘t o‘rimini qachon boshlaymiz. Temirchi Filya esa parvoyi falak, yallo qilib yuribdi. Hali yana oldinda to‘y bor, u bo‘kib ichadi, bo‘ldi, o‘z-o‘zidan bir hafta havoga uchib ketadi.

«Ertagayoq Filya bilan gaplashish kerak».

...Boshqa bir kun Kolka do‘rdoqni uchratib qoldi, Matvey kulim – siragancha:

– Ukam, nima bo‘ldi, keyingi vaqtda garmoning tovushi chiqmay qoldi?

Kolka iljaydi... Quvonchdan og‘zi qulog‘iga yetgan edi.

– Tamom, Matvey Ivanich, boshqa qaytib endi tunda tinchingizni buzmayman. Hammasi tugadi. Langar tashlandi.

– Bo‘pti,bo‘pti, – deganicha Matvey o‘z ishi bilan ketdi, ko‘nglidan bshqa gap o‘tardi: «Shoshmay tur, sen kuyga kelgan buqacha, buncha quvonasan? Hali u seni shoxiga olib bir otsin, o‘shanda bilasan, Ninkani. Ularning hammasi shunaqa, Krechetovalar».

Bir hafta o‘tdi.

Tunlari esa odatdagiday derazadan yog‘ilayotgan oy yog‘dusiga cho‘milgan xonaga yelvizak tomorqadan yavshan va kartoshka barglarining aralash hidini olib kirdi... Borliqda qandaydir sirli sukunat hukmron.

Matvey juda yomon uxladi. Uyg‘onib ketdi, chekdi... Dahlizga o‘tib kvas ichdi. Keyin eshik oldiga chiqib o‘tirganicha yana chekdi. Sutdek oppoq kecha og‘ushidagi qishloq esa suv quygandek jimjit edi.

SIVIYGA SALOM AYTING!

Bu voqea shu to‘g‘ridakim, aniqrog‘i, Mixail Aleksandrovich Yegorov haqida, qisqacha aytsak: – fan nomzodi, novcha, ko‘zoynakli, hamma narsaga sinchkovlik bilan qaraydigan ziyoli odam. Ha, aytganday, yana bir gap, sal qolgan-a, uning uylanishiga.

Atrofidagi qizlar..., ayollar ohistagina erkalab uni – Mishel deb atay boshlashdi. Boshda bu nomdan Ko‘zoynak biroz ranjib yurdi. Nima bu? – Mishel es-hushi joyida bitta rus erkagi bo‘lsa, shunday ekan, horijiy yaltiroq ismlarga balo bormi? Unda bunday ismga zarracha ehtiyoj ham, qiziqish ham yo‘q. Umuman unga bunaqa ismning nima keragi bor? Axir, nima degani bu Mishel, Bazil, Andji – horijcha begona, sovuq nomlar, bular namuncha yopishmasa bunaqa bachkana ismlarga... Odam hijolat tortadi, noqulay ahvolga tushib, uyalib qoladi-ku, axir. Keyinchalik sevgilisiga o‘zining oddiy va jo‘n ismi ma’qulligini aytib, unga yotig‘i bilan tushuntirishni o‘ylar ekan, ko‘ngli xotirjam tortdi. Biroq u hozircha Mishel va shunga o‘xshash soxta nomlarga ko‘nib, sabr-toqat qilishga majbur. Mana, uning o‘ziga ma’qul, boshqalar uchun ham chaqirish qulay sevgani bor. Uni Katya deyishadi. Qaydam, jin ursin, uniyam Ket deyishadimi-ey.

Mishel Ketni ilk bor o‘zi ham odamlarini uncha yaxshi tanimaydigan bundayroq bir davrada uchratdi. Qandaydir bir tug‘ilgan kun edimi-ey, u bilan shu yerda tanishdi. Mishel boshda biroz begonasirab o‘tirdi. Biroq yoqimtoy, xushchaqchaq va istarali qizning iltifotidan o‘zini tezda qo‘lga olib, bir zumda u bilan apoq-chapoq bo‘lib ketdi.

Davra oxirida, shubhasiz, u Ketni uyigacha kuzatib bordi. Uning kichik va mo‘jazgina xonasida valaqlashib va har bir gapga qiqirlab kulishib birgalikda tong otqizishdi. Mishel shirin xayollar og‘ushida

entikkancha o‘ylar edi: u oqila ayol! O‘z ta’rifidan ko‘ngli qoniqmadi chog‘i, yo‘q, yo‘q... u o‘ta dono, yana biram yoqimli-ey... Ustiga ustak, atayin sekin, shiviralb gapirib so‘zlariga sirli tus berib, odamning ko‘nglini qitiqlashini aytmaysizmi...Odam ham bunaqa tortinchoq, xokisor bo‘ladimi-a? Uning bu qiliqlariga nomzod o‘zini aybdordek sezar edi. Ket unga yoqishni va, hatto, ichidan g‘ururlanishni xohlaydi. O‘zini zamonaviy, o‘ta qiziquvchan ko‘rsatgisi keladi... Voy, jinnivoyim-ey, deya ko‘nglidan kechirdi Mishel, – ertalab uyi tomon shitob odimlar ekan, sodda-samimiylik turganda, soxta zamonaviylikka balo bormi?! Nomzodning qalb torlarini ismsiz qandaydir ehtirosli tuyg‘ular chertayotganini, haligacha bunaqa ahvolga duch kelmaginini his etar ekan, ichida qandaydir ruhiy tetiklik va ishonch bosh ko‘tarayotganini angladi. Yuragida uyg‘ongan ajoyib, yoqimli sirli tuyg‘ular uning hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Men asta-sekin unga oddiy va abadiy haqiqatni anglatib boraman: qizig‘-a, nima yetsin bu tabiiylikka. Bari-bari qanday bo‘lsa, aslidagiday ko‘rsataman unga, deya o‘ziga so‘z berdi, nomzod.

Borgan sari – oshaveradi! – Mishel Ketnikiga jadal kirib keldi va gap boshlarkan bir nimadan quvonib, zavqlanib ketgan paytlarda aytadigan «hamma badiiy asar ham «Aeroport!»[1] – bo‘lolmaydi» – iborasini tag‘in tilga oldi. Ket uning ehtirosli gaplariga miyig‘ida kulib qo‘ydi... Mishel bu yerda o‘zini girdobga g‘arq bo‘lib, tasodifan qirg‘oqqa chiqib tirik qolganiga ishonmagan odamday his qila boshladi. Boisi, uyda hamisha bir xil hayot – uzluksiz va tinimsiz bir zaylda bosiq va sekin yangraydigan ajnabiy musiqa, kuy ohangiga monand oyoqlar ostida jimirlab o‘ynab turgan qizg‘ishrang shu’lalar...qisqasi xonada qandaydir lanjlik, zerikarli beg‘amlik hukmron. Har doimgidek Ket bo‘shashgan holda imo-ishora bilan gapirgandek sekin shivirlab qo‘ydi. Ammo Mishel uning gaplarini eshitmadi. Biroz toliqibdi, o‘yladi u. Mana, bahor ham yaqinlashib qoldi. Tabiat qo‘yniga, suv bo‘ylariga chiqsang, mudroq tuyg‘ularing junbushga kelib bu lanjlik va behollik batamom barham topishi aniq... So‘ngra biz hammasini qoyilmaqom qilib joy-joyiga qo‘yamiz: u ahmoq emas, barcha badiiy asar «Aeroport» emasligini juda

[1] Artur Xeylining mashhur «Aeroport» asari ko‘zda tutilgan.

yaxshi biladi. Ha mayli, boringki, «Aeroport» ham bo‘la qolsin, xo‘sh, nima bo‘pti, unda yanayam yaxshi. Chunki atrofimizdagi barcha narsalarga eng yuqori talabni qo‘yar edik: Mana, masalan, bir kunni o‘tkazdik, orqaga o‘girilib qarasak, nimadir qilinganini anglaymiz. Ich-ichdan qalbimizda shodlik tuyamiz, bunaqa quvonchli tuyg‘ularni his etmaslik borib turgan tentak, devonalik emasmi, axir?Albatta, ha albatta, xuddi shunday! – Mishel, Ketning jilvalinib turgan mayin soch tolalarini qo‘llari bilan tarar ekan, so‘zsiz, yaxshi bo‘ladi, deya o‘yladi.

Erkalanish, xushmuomalalik ham yuksak madaniyat ekanligini chuqur tushunadi u, albatta. Ammo biz ham bu savobli ishga o‘z ulushimizni qo‘shamiz, shak-shubhasiz bunda zafarga erishamiz.

– Katya, – dedi Mishel, – bilasanmi, men yaqinda mehnat ta’tiliga chiqaman, keyin ikkimiz Sibirga jo‘naymiz, Oltoyga. Yuk xaltamizni yelkaga tashlab olib yayov ketamiz. U yerlarda xalq tabobati judayam yaxshi rivojlangan, shu bahonada men ham o‘zimga kerakli materiallarni to‘plab qaytardim...

– Nayn[1], – dedi, – o‘zini atayin ranjigandek ko‘rsatib Ket begona tilda, keyin tabassum bilan – no-o[2] Mishel deb qo‘ydi.

Uning maftunkor tabassumi, nimalarnidir va’da qilib o‘ziga ohanraboday chorlovchi mayingina ovozini ikki og‘iz so‘zda ta’riflashning sira iloji yo‘q. Mishel uni o‘zgacha mehr bilan bag‘riga tortib o‘pa ketdi. Ket uning quchog‘ida ojizgina potirlar ekan, nozlanib:

– Bo‘ldi, bas qil, Mishel, bo‘ldi yetadi...

«Men buqaday baqquvvat erkakman!» – deya g‘urur bilan o‘yladi Mishel o‘zi haqida. Bunday damlarda astoydil huzur qilardi u. Asal oyiga o‘xshash bunday shirin kunlar bir oycha davom etdi.

Shunday ajoyib kunlarning birida kechqurun Mishel yana uning uyiga keldi. Ostonadan hatladi-yu, xuddi adashib begona uyga kirib qolgandek qaqqayib talmovsirab qoldi: kechagina o‘zi divanga suyanib yonidagi par yostiqlarga yonboshlagan ko‘yi emin-erkin o‘tirgan o‘rnida damlangan katta shardek do‘mpaygan semiz qorni ko‘ylagini yirtib yuborgudek beso‘naqay bir baqaloq xuddi o‘zi kabi divanda yastanib o‘tirar edi.

---

[1] Nayn-nemischa , yo‘q degani.

[2] No-o esa inglizcha kerak emas ma’nosida.

– Assalomu alaykum! – dedi Mishel. O‘zini xotirjam tutishga qancha urinmasin, baribir yuragida simillagan og‘riqli bir g‘ashliq tuydi. Borgan sari uning g‘azabi toshib borardi: boshda hatto Ketning xalatda ekanligini ham sezmadi. Ularning oldiga kirib kelgan Ketga tikilib qarar ekan, uning egnidagi libosni ko‘rib begona erkakning oldida nega bunday yuribdi, deb o‘ylab dil g‘ashlig‘i battar ortdi. Bu qanaqasi, axir?

Egniga yaltiroq gulli ko‘ylaq kiygan baqaloq divanda yonboshlagan ko‘yi ozoda kiyingan novcha nomzodga biroz istehzoli jilmaygancha takabburona qarab turdi.

– Tanishinglar, – dedi xotirjamlik bilan sekingina Ket. – Serj, u to‘g‘risida senga gapirgandim.

Serj boshini qimirlatib qo‘ydi.

Mishel tik turgancha norozi ohangda nimalardir deb ming‘irladi. Keyin u ham o‘tirdi. Xona unchalik dim bo‘lmasa ham, chekilgan tamaki, yana qandaydir allambalo narsalarning qorishiq chuchmal hidlari va sekin yangrayotgan musiqa kishida noxush kayfiyat uyg‘otar edi. Nomzod o‘zini judayam yomon his qila boshladi... U o‘rnidan turib Serjning oldiga keldi.

– Mixail Aleksandrovich, – o‘zini tanishtira turib unga qo‘lini uzatdi. «Balkim bu uning yaqin qarindoshidir?» – tag‘in shunday xayolga bordi u.

Unga sinovchan tikilar ekan, Serj ham istar-istamas qo‘lini uzatdi. Keyin uning ahvoliga achinib muruvvat ko‘rsatganday boshini qimirlatib qo‘ydi. Nomzodning baribir ko‘ngli joyiga tushmadi: Qanaqa qarindoshi! Qarindosh hech qachon unga mayna qilganday osmondan kelib qaramaydi-ku, surligini qarang, bu baqolaq aniq uning jazmani! Nomzod yana joyiga o‘tirdi.

– Qahvami? – xuddi hech nimani sezmagandek so‘radi Ket, o‘zini xotirjam tutgancha jilmayib – yo konyak ichasizlarmi?

– Ta’bingiz, sizga qaysi ma’qul bo‘lsa bizga ham shu-da? – dedi baqaloq o‘ta xotirjamlik bilan sekingina unga javoban. Ular o‘rtasida xuddi shunday sekin shivirlab gaplashish odatiy hol ekanda, – ko‘nglidan o‘tkazdi u.

«Xuddi Londondagi shohona uyingizdagiday!» – negadir birdan nomzodning yodiga shu gap tushdi. Odamning ensasini qotiradigan bu bema’ni iborani u kimdandir eshitgan. Hozir nimagadir shu gap xayolidan kechib, yana g‘azabi qaynab ketdi. U darg‘azab bo‘lgan

sari es-hushini yo‘qotib borar, ayni damda shaytonga hay bermasa, hech nimaga erisha olmasligini hatto xayoliga ham keltirmasdi. Chunki, Mishel odamning esini og‘diradigan bunaqa noqulay holatga oldin sirayam duch kelmagan edi-da.

– Balkim konyak durustdir, – dedi kutilmaganda nomzod ham ularga taqlidan astagina, ammo uning past chiqqan ovozida ham kinoya-piching aniq sezilib turardi. Nomzod o‘rnidan qo‘zg‘alib qo‘yar ekan, o‘zi uchun eng ishonchli va eng to‘g‘ri imkoniyat ana shu yo‘l ekanligini anglab yetgan edi. – Xo‘sh, sizlar-chi?

– Ehtimol, – dedi sekingina baqaloq, nomzodning bir chimdim qalampir solingan kinoyasini anglamay. Uning kesatik – pichinglarini yaxshi ilg‘agan Ket Mishelga bir zum tikilib turdi-da, istehzoli kulimsirab qo‘ydi.

– Serj, muzlatgichda turibdi, – dedi u.

Serj asta o‘rnidan turib sekingina oshxonaga ketdi.

– Bu nima qiliq? – dedi nomzod Serj xonadan chiqishi bilan. U shunday ayanchli va achinarli bir ahvolda ediki, gapirganda nafasi bo‘g‘ziga tiqilguday hansirar ovozida haligi kinoya – pichinglardan asar ham qolmagan edi.

– Nima? – Ket qo‘lidagi «Kent» sigaretasini chertib kulini oldidagi kuldonga tushirar ekan. – Nima kerak senga? – dedi.

– Kim bu?

– Tanishim ...

– Qanaqa tanish?

– Yaqin.

– Him-m...Tushunmadim! – qizishib ketdi. – Bu «eng yaqini deganingmi?»

Ket kulimsirab qo‘ydi... Nomzod darg‘azab bo‘lib quloq-chakkasiga tarsaki tortib yuborish uchun unga yaqinlashgan ham ediki, shu payt qo‘lida konyak va yana qandaydir bitta shisha bilan Serj kirib qoldi.

– Men u yerdan bir shisha viski ham topdim, dedi u. – Yaxshisi viski icha qolaylik. Sodali suving bormi?

– O‘sha yerda, pastki tomonida turibdi.

Serj shishalarni stolga qo‘ygancha yana sekingina oshxonaga ketdi.

– Bu nima qiliq? – nomzod g‘azabdan ko‘zlari qonga to‘lib tag‘in so‘radi. – Bu kim o‘zi?

– Mening eski tanishim deb, aytdim-ku. Do‘stim deb, yana nima kerak?

– Tushunmadim... – Nomzodning battar xunobi oshdi. Dahshatli og‘riqdan alahsirab xuddi o‘ziga o‘zi gapirganday: O‘rtamizdagi munosabat bunaqa poyoniga etadi deb o‘ylamagandim...

– Men senga nima yomonlik qildim?

– Men boshqacha o‘ylagan edim, nima desam ekan. Tushunmadim! – Hech nimani tushunmayapman!

– Nima, sen o‘zingni bu dunyoda yagonaman, mendan boshqa hech kim yo‘q, deb o‘ylovdingmi?

– Demak, sen bilan oramiz ochiq! – o‘ylamay gapirib yubordi nomzod. Gapi bachkana ekanligini tezda fahmlab, o‘zi ham xijolat tortdi.

– Nimaga endi? – deya so‘radi Ket. – Sen kelib ketaverishing mumkin...

– Belgilangan jadval bo‘yichami?

– Surbetlashma, – dedi u horg‘in qiyofada sekingina.

«Ketmayman!» – astoydil qaror qildi ichida nomzod. – Nima bo‘lsa bo‘ldi, boshga tushganini ko‘z ko‘radi. Men ularga hali onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman!»

Sodali suv idishini ko‘tarib Serj kirdi. U yag‘rindor, elka va ko‘kraklari keng bo‘lgani bois eshikdan qiyalab kirib chiqar edi.

– Sizga konyakmi yoki viskimi? – deb so‘radi yumshoqlik bilan iltifot ko‘rsatib. U o‘zini bu xonadonning to‘liq xo‘jayiniday tutar edi.

«To‘g‘ri-da, nimaga xafa bo‘lmasin, axir, kecha bu yerda o‘zi xon, ko‘lankasi maydon edi-ku», – xunob bo‘lardi nomzod. – Demak, bunday paytda rolga kirish kerak, kirganda ham uchiga chiqqan tullak roliga... yoki ilon yog‘ini yalagan odamga aylanishi kerak.

– Menga aroq, – dedi nomzod, – biroz tushkun kayfiyatda tavakkal qilib, bugun to‘yib ichishga ahd qildi, balki buni o‘zining haqiqiy «jentelmen» ekanligini isbotlashga urinish, deb atagan ma’quldir. To‘g‘risi, u nomigagina ichar, aslida deyarli ichmas edi. Shu bois bir-ikki qadahda mast bo‘lib qoldi. Mishel aroq yo‘qligini bilsa ham xuddi bu yerga begona odam singari atay aroq talab qilar, o‘zining bu qilig‘idan rohatlanar edi, o‘zi bu xonadonda aroq bo‘lganmi, deganday qilib.

– Bormi? – deb so‘radi Serj uy bekasidan. – Uning bachkana va takkaburona harakatlarini tushunib-tushunmay, kulimsirab ko‘ngilchanlik bilan.

– Yo‘q, – dedi qisqagina qilib Ket.

– Bo‘lmasa, nima qilamiz, bo‘pti, mengayam viski quya qoling, – dedi nomzod. – Sodali suv bilan. – U «jentlmen» rolini o‘ynashga kirishgan edi. Ket esa uning maynavozchilik qilayotganini ko‘rib, bilib turar, Serj hali uni to‘la anglab yetmagani uchun qiliqlarini to‘g‘ri qabul qilib, nomzod biz tufayli siqilyapti degan o‘yda o‘zicha hijolat tortayotgan edi. U o‘z nazarida Mishelni yumshoq fe’lli deb bilgani bois uning barcha kinoya va takabburrona qiliqlarini to‘g‘rilikcha qabul qilardi.

– Safarlar qanday bo‘ldi? – deb so‘radi Ket Serjdan. Guldor qog‘ozcha o‘ramini ochib, ichidan nimadir olib og‘ziga soldi va chaynashga tushdi. Shu ko‘yi og‘zidan olmay, hatto gapirganida ham sekin chaynab o‘tirdi. – Qiziq bo‘ldimi?

– Yomon emas.

– Kimlar bo‘ldi?

– Alka Vladik bilan, Radik ... Yana ikki kishi bo‘ldi, ularni sen tanimaysan.

– Radikning bitta o‘zimidi?

– Bitta o‘zi edi. Chakki bo‘lmadi. Ob-havoning biroz aynib turganini aytmasa...

– Nimaga Radikning bitta o‘zi?

– Radikni o‘zing yaxshi bilasan-ku! Tabiatan judayam beqo‘nim. Umuman olganda safarimiz ko‘ngildagidek o‘tdi. – Taassurotlarini ayta turib, Serj uchta qadahga ham ichimlikdan quydi: o‘zi va Ketning qadahiga yonidagi idishni olib sodali suv aralashtirdi. Nomzod soda suvli shishani o‘ziga yaqinroq tortib qo‘yar ekan, o‘ziga keragicha kuyib olishini aytdi. Nomzod ataydan viskiga suv aralashtirmay ichdi. Ket qadahdan bir-ikki ho‘plab yana chekishda lavom etdi. Serj qadahni yarimlatib u ham chekish uchun qo‘liga sigaret olib o‘rindiqqa o‘zini tashlar ekan, hatto kursi ham o‘rnidan siljib, surilib ketdi. Nomzod esa qadahni oxirigacha bo‘shatib, uh-uhlab qo‘li bilan og‘zini yelpib qo‘ydi.

Ket va Serj yana o‘z gurunglarini davom ettirishdi.

– Nima qildinglar? – so‘radi Ket.

– O‘zing bilasan-ku... Kun-u tun havo aynib turgandan so‘ng preferens[1] – kartabozlikdan bo‘lak nima ham qilardik. Darvoqe, – dedi hayajonlanib Serj, – bilasanmi, kim keldi? Siviy!

– Yo‘g‘-ey?

– Kutilmaganda yonimizga bitta mashina kelib to‘xtadi. Qarasak, undan Siviy tusha boshladi. Usti – boshi chang!.. Mashina yukxonasidan bir yashik shampan vinosini ham olib tushdi. Gazak esa odatdagidek o‘zimizning shodon qiy-chuv.

– Siviy bir o‘zi edimi? – gap qotdi nomzod.

Unga ajablanib qararkan:

– Ha, Siviy bitta o‘zi edi, – dedi Serj hayron bo‘lib.

– Nimaga axir? – taajjublandi Mishel. – Jinni-pinnimi u bir o‘zi kelib.

– Siz Siviyni taniysizmi? – qiziqib qoldi Serj.

– Yo‘g‘-u, ammo bu ko‘rinib turgan ahmoqlik-ku... buzuq havoda, yana bir o‘zi daydib yurishini qarang...

– Mishel, bas qil maynavozlikni, – dedi Ket sekingina, biroq qat’iy talabchan ovozda.

Serj Mishelga g‘azabli qarab qo‘ydi.

– Yana nimalar bo‘ldi? – deya so‘radi Mishel qo‘liga shishani olib, so‘ng boshqa bir bo‘sh qadahga to‘ldirib viski quydi. – Qani, bo‘lmasa tanishganimiz uchun ichamizmi? – qadahni qo‘liga olib kimningdir u bilan cho‘qishtirishini kutdi. Hech kim qo‘liga qadah olib u bilan cho‘qishtirmadi. Mishel bir o‘zi qadahni ko‘tardi. Uf-uflab chuqur nafas oldi, – Viski yaxshi ichimlik. Sizda «Kent» sigaretasimi? Ruxsat eting?

Serj unga sigaretali qutini uzatdi.

– Sigareta, bu qaynar xumcha emas, axir, to‘g‘rimi? – dedi Mishel eplab chekolmay qiynalar ekan, chunki u mutlaqo chekmas edi.

– Sizda umuman bundan durustroq biror narsa yo‘qmi? – so‘radi Serj.

– «Marlboro» bor, uni uyda qoldiribman, – bor kuchi bilan qancha harakat qilmasin, baribir nomzodning ovozi sekin va g‘o‘ldirab chiqdi. U ham o‘tirg‘ichini orqaga surgan edi, kutilmaganda kursisi surilib ketib – elektroorganga tegib ketdi. Uning tovushiga chalg‘ib qani mening «Marlborom» deya qidirib qoldi.

---

[1] *Preferens* – karta o‘yining o‘ziga xos bir turi.

Keyin bu tovush elektroorganniki ekani esiga tushib, ha, meniki uyda edi, deb qo‘ydi. – Mening nazarimda Ketnikida kimdir nimadir qilgan, bunga ishonchim komil. – Sizda ham elektroorgan bormi? – so‘radi u Serjdan.

– Yo‘q, menda balalayka bor.

– Him-mm... Siz balalayka chalishni bilasizmi?

– Ha, men uni yaxshi chalaman.

– Siviying bunga munosabati qanday?

– Siviymi?.. Tinglab turadi-da, yig‘lab yuboradi.

– Radik ham yig‘laydimi? Modomiki, ular yig‘lar ekan, siz kuyni shu qadar ta’sirli chalar ekansiz-da?

«Onajon, sen men uchun qiynalib tikma, uzun va yengi kalta qizil ko‘ylakni».

– Ajoyib qo‘shiq va musiqa... Nima uchun bunga yig‘lash kerak? Hech bo‘lmasa... tasvirlar. Umuman olganda, bunday paytda muhimi, kerakli tasvirlar asqotadi, to‘g‘rimi? Menimcha, yomon emas. Bu masalada Siviy qanday fikrda?

Ket chaynashdan to‘xtab va bir zum unga ajablanib qarab qoldi.

Serj quruq cho‘pday ozg‘in nomzodga tikilar ekan, uning alyog‘i-jalyog‘i gaplaridan ensasi qota boshladi.

Nomzod g‘irt mast edi. Uning qasoskor yovuz niyatlari barham topib, o‘rnini judayam xushchaqchaqlik va har xil kulgili harakatlar egallagan edi. – Shunday deng, Siviy tasvir muammolari to‘g‘risida bosh qotirar ekan-da, – deya u Serjdan yana so‘radi.

– Siviymi? – takrorladi Serj. Uning ovozi vahimali tusda jarangladi. – Siviy nima haqda ... o‘yladi?

– Serj! – dedi Ket.

– Ha-a, birinchi sovrinni Siviy olar ekan-da? – ezmalanishda davom etdi nomzod.

– Oladi. Xohlasangiz, men u olgan sovrinlardan bir juftini ko‘rsataman.

– U qachon o‘ylab ulguradi, – javobdan qoniqmay davom etdi nomzod. – Doim shamolday beqo‘nim bo‘lsa?

Serj Ketga norozi qiyofada qaradi, uning sabr kosasi to‘lib bo‘lgan edi.

– Mishel, buncha surbetlashmasang, to‘g‘ri o‘tir, – dedi Ket. – Hadeb bir gapni buncha saqichday chaynamasang.

– Tavba, kim surbetlik qilayapti? – ajablandi Mishel. – Biz shunchaki gurung qilayapmiz, xolos. Marhamat qilib ayting, u yerda xalq ko‘p edimi?

Serj indamadi.

– Mabodo u yerda qora tusli otga ko‘zingiz tushmadimi? Darvoqe, Siviy samolyotda o‘zini qanday his etadi? Rohatlanganidan otga o‘xshab kishnab yuborsa kerag-a? Ha, men ham bir marta qora otda rosa uchganman, u shunday kishnab yubordiki!..

– Bas, etar maynavozchilik! – g‘azabdan titrab ketdi Serj va o‘rnidan sapchib turdi. – Hozir esa sen meni kishnatib yubording... U kalta va baqaloq, biroq kuchli qo‘llari bilan nomzodning yelkasidan g‘ijimlab tutgancha siltab ko‘tarib turg‘azdi-da, yo‘lakka itarib yubordi.

Nomzodning ko‘zoynagi yerga uchib tushdi va oyoq ostida qasir-qusur qilib singani eshitildi. U Ket tomonga qaramoqchi bo‘ldi, ammo ulgura olmadi, chunki uni Serj dahlizga koptokdek uloqtirib yuborgan edi. Izma – iz chiqqan Serj uning jag‘iga musht tushirdi, nomzod boshi bilan borib devorga urildi. Qizig‘i shundaki, u hech qanday og‘riq sezmasdi. Serj yana bitta musht tushirdi. Bu galgi musht uning tishiga tekkan edi... U qadar og‘riq bilinmagan bo‘lsa ham og‘zida iliq va sho‘rta’m shilimshiq suyuqlikni tuydi.

«Qanday beshafqatsan-a!.. – o‘zidan uyalib ketdi u. – Ko‘rib turibsan, do‘pposlayotgan odaming bechora bir ahvolda bo‘lsa, tag‘in u mast, kaltaklashingni qara. – Yaramaslik ham evi bilan-da».

– Yanami? – so‘radi Serj.

– Qani bo‘l, – dedi nomzod.

Yana bir muncha vaqt Serjning bo‘yi va eni teppa-teng to‘rtburchak gavdasi ko‘z o‘ngida g‘ira-shira ko‘rinib turdi, so‘ng butunlay ko‘zdan yo‘qoldi... Qulog‘iga esa uzoqlashib borayotgan qadam tovushlari eshitilib turdi.

– Siviyga salom ayt! – dedi nomzod.

Qadamlar to‘xtadi ...Chamasi yarim daqiqacha bo‘m-bo‘sh zinapoyalar suv quygandek jim-jit bo‘lib qoldi, keyin eshik ochilib, yopildi va qulfning shiqirlagan tovushi eshitildi.

Nomzod dastro‘molchasini olib og‘zining qonlarini artdi va tutqichdan ushlagancha paypaslab zinadan sekin pastga tusha boshladi. U g‘alati tuyg‘ular qurshovida qolgan edi: garchi vujudi achchiq bir

og‘riqdan qiynalayotgan bo‘lsa ham, ayni damda o‘ylari tiniqlashib, esini yig‘ib olgandi. Endi u yerga qaytib kirish yaramaydi. O‘tgan kunlardan unga nima qoldi: yelkalarini Ketning erkalab silagani, bugungi itdek xo‘rlanish, yo tavbangdan ketay, xuddi kasalxonaga o‘xshaydi-ya: – o‘lim xavfi va alaxsirash... Yaxshisi, bu yerdan tezroq qorasini o‘chirgani ma’qul.

«Ha-a! – dedi nomzod Mixail Aleksandrovich, – bugun boshidan kechgan voqealarni ko‘z o‘ngiga kelitirar ekan: «Ha, Mishel, qandaysan?» – deb qo‘ydi va asta odimlaganicha uyiga qarab yo‘l oldi.

Ochil TOHIR tarjimalari.

ONA QALBI

Vitka Borzenkov tuman shaharchasidagi bozorga bordi, yuz ellik so‘mga cho‘chqa yog‘i sotdi (u uylanish harakatida yurar, pulga muhtoj edi), bir-ikki stakan «qizilidan» otish uchun vino do‘koniga kirdi. Keyin chiqdi, papiros chekdi...

Yoniga bir qiz kelib, asta shunday dedi:

– Tutatib olishga berib tur.

Vitka chekib turgan papirosini uzatdi, o‘zi esa qizning yuzini qiziqsinib kuzatdi – yoshgina, qosh-qovog‘i shishinqiragan, barmoqlari titraydi.

– Bosh og‘rig‘igami? – dabdurustdan so‘radi Vitka.

– Ha, – yashirib o‘tirmadi qiz «Belomor»ni huzur qilib tortarkan.

– Bosh og‘rig‘i qilishga hech vaqong yo‘qmi? – so‘radi yana Vitka odamlarning tang ahvolda qolganini tushuna olishidan ichida xursand bo‘lib.

– Senda-chi?

(Qiz uni cho‘chqa yog‘i sotayotganida atay kuzatgani, vino do‘koni eshigi tagida ham shunchaki poylab turganini Vitka xayoliga ham keltirmagandi).

– Yur, seni tuzatib qo‘yaman.

Qiz Vitkaga yoqib qoldi – xushro‘ygina, qaddi-qomati kelishgan... Yuzlari ichkilikdan shishgani va ahvoli tangligini ochiq-oshkora tan olishi esa Vitkani bir oz to‘lqinlantirdi hatto.

Do‘konga kirishdi... Vitka bir shisha qizil vino, ikkita stakan oldi... O‘zi bir yarim stankangina ichib, qolganini saxiylarcha qizga quyib berdi. Qaytib chiqqach, yana baland zinapoyada o‘tirgancha tutatishdi, Vitkaning bahri ochildi, qizning ham. Ikkovlarining ham kayflari chog‘ bo‘ldi.

– Shu yerda yashaysanmi?

– Ho‘ anavi tomonda, yaqin, – bosh irg‘adi qiz. – Rahmat senga, ancha yengil tortdim.

– Balki yana ichging kelayotgandir?

– Mayli... Lekin bu yerda emas.

– Qayerda?

– Menikiga borsak bo‘ladi, uyda hech kim yo‘q...

Vitkaning vujudini yoqimli, nozik bir his qitiqlagandek bo‘ldi. Hali erta edi, qishloqqa avtobus soat bir yarimda jo‘nardi – ungacha hamma ishga ulgurish mumkin.

– Mening dugonam ham bor, – dedi qiz Vitka qancha ichimlik olishni chamalab turganida. Shundan so‘ng yigit bir shisha oq va ikki shisha qizil vino xarid qildi.

– Tamaddi qilib, maydalaymiz, – dedi u. – Uyingda yegulik topiladimi?

– Topiladi.

Xuddi eski qadrdonlardek yo‘lga tushishdi.

– Shaharga nega keluvding?

– Cho‘chqa yog‘i sotdim... Pul kerak – uylanyapman.

– Shunaqa de?

– Uylanaman. Bo‘ydoqlik jonga tegdi. – Ajabo, Vitka qaylig‘iga nisbatan nohaqlik qilayotganini o‘ylab ham ko‘rmadi – notanish qiz bilan qayoqqadir ketyapti, qaylig‘idan ko‘ra bu qizning yonida o‘zini yaxshiroq, erkinroq his qilyapti.

– Qaylig‘ing chiroylimi?

– Senga nima desam ekan?.. Uy qizi..Yaxshi xotin bo‘ladi.

– Sevasanmi uni?

– Nima desam ekan?.. Shunchaki... Qachondir baribir uylanishim kerak-ku.

– Ehtiyot bo‘l. Keyin attang qilib yurma tag‘in... Oyoq-qo‘lingni bog‘lab olmasin.

Xullas, shunga o‘xshash gaplar bilan qizning uyiga yetib kelishdi (Uning ismi Rita ekan). Vitka qanday kelgani, qaysi jinko‘chadan yurganini anglamay ham qoldi. Uy oddiygina ekan – eski, ohori ketgan, lekin yana yetmish yil qilt etmay tursa kerak.

Xonalar (jami uchta) saranjom-sarishta, stollarda yelimdasturxonlar, bir so‘z bilan aytganda, shinamgina. Vitkaning kayfi yanada chog‘ bo‘ldi.

«Ofarin-u tasanno, tara-ra-ram», bir nimadan quvonib ketganida u doim shunday o‘ylardi.

– Dugonang qani?

– Hozir boshlab kelaman. O‘tira turasanmi?

– Xo‘p. Faqat tezroq qayt.

– Zeriksang, ana, radiolani yoq. Men darrov kelaman.

Nega Vitka bu qizning yonida o‘zini yengil, baxtiyor sezyapti? Tanishganlariga atiga besh daqiqa bo‘ldi, holbuki... Ana hayot! Qizning ko‘zlari mungli, o‘ychan, aqlli edi, Vitka goh unga achinib ketar, goh bag‘riga mahkam bosgisi kelardi.

Rita ketdi. Vitka xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi – radiolani yoqmadi: shusiz ham yuragi quvonchli allanimani oldindan sezgandek hapqirardi.

Keyin yuz bergan voqealardan Vitkaning yodida qolgani shular: Ritaning dugonasi keldi – xunukroq, qarimsiq, so‘lg‘in va yoqimsiz qiz. Kelishi hamon bidirlay ketdi, bir vaqtlar sirkda ishlaganini, «ilonday eshilib» tomoshalar ko‘rsatganini gapirdi. So‘ng ichdilar... Vitka stol yonidayoq uzalib Ritani o‘pdi, dugonasi buni ma’qullab kuldi, Rita bo‘lsa bir qo‘li bilan Vitkaning yelkasiga yengilgina urib, go‘yo uni nari itargan bo‘lar, narigi qo‘li bilan esa bo‘ynidan quchoqlab chippa yopishib olgandi.

«Mana buni hayot desa bo‘ladi! – degan o‘y o‘tdi Vitkaning qizigan kallasidan. – Jo‘shqin hayot degani shu. Qandingni ur, yigit!»

Ortiq hech nima yodida yo‘q – xuddi xotirasining shu qismini birov o‘chirib tashlagandek. Kech oqshom mahali allaqanday devor tagida ko‘zini ochdi.... Qayerdaligini-yu nimalar yuz berganini ming mashaqqat bilan idrok etdi. Boshi g‘uvillaydi, chakkalari og‘riqdan otilib chiqqudek. Og‘zi qurib, tili tanglayiga yopishgan. Bir amallab Ritani esladi... Va, vinoga bir balo qo‘shib uni mast qilishganini, chuv tushirishganini, ehtimolki, pulini qoqib olishganini fahmladi. Pul xavotiri kayfini xiyla tarqatdi. Bazo‘r o‘rnidan turib cho‘ntaklarini ag‘dardi: pul yo‘q edi. Vitka devorga suyanib, chor tarafga ko‘z yugurtirdi... Yaqin-atrofda Ritaning uyiga o‘xshash bironta uy ko‘rinmasdi. Hamma narsa, bari uylar boshqacha edi. Vitkaning pana joyda, yashirin cho‘ntagida o‘n so‘m puli bor edi – bozordayoq ehtimol shart, deb solib qo‘yuvdi... Titkilab ko‘rdi – pul o‘rnida ekan. Vitka birinchi o‘tkinchini uchratgunicha tavakkal ketaverdi. Bir choldan avtobus bekati qayerdaligini so‘radi. Yaqin ekan:

to‘g‘riga, muyulishdan chapga, so‘ngra o‘ngga va yana to‘g‘riga yursa bo‘ldi. «Xuddi bekatning oldidan chiqasiz», dedi chol. Vitka yo‘lga tushdi... Avtobus bekatiga yetguniga dovur ko‘nglida shaharlik muttahamlarga nisbatan shunchalar adovat yig‘ildiki, u haromtomoqlarni shu qadar yomon ko‘rib ketdiki, hatto boshining og‘rig‘i unut bo‘layozdi va shishgan miyasi yovuzlikdan tiniqlashib, ko‘ksida ulkan qasoskor kuch tug‘ildi.

– Shoshmay turinglar, – to‘ng‘illadi u, – senlarga ko‘rsatib qo‘ymasammi!..

U nima qilishini bilmas, bu ishlarning oqibati yaxshi bo‘lmasligini bilardi faqat. Avtobus stansiyasi yaqinida allamahalga dovur ishlaydigan do‘kon bor edi, u yer hamisha gavjum bo‘lardi.

Vitka bir shisha qizil vino olib, bir ko‘tarishda quritdi-yu bo‘shagan shishani qulochkashlab xiyobon tarafga uloqtirdi... Yonida mast erkaklar bor edi, uch kishi. Biri:

– U yerda odamlar bo‘lishi mumkin-ku, – dedi tanbehomuz.

Vitka matroscha kamarini yechdi, bir uchini bilagiga o‘rab, og‘ir to‘g‘asini cho‘qmordek salanglatdi. Qo‘li qichib turganida bu uchovlonning oyoq ostidan chiqib qolgani ayni muddao bo‘ldi unga.

– Qara-ya?! – ajablandi Vitka. – Odamlar, deysanmi? Nahotki bu sassiq shaharchada inson zoti bo‘lsa?

Uchovlon ko‘z urishtirdilar.

– Bu yerda turganlar kim bo‘lmasa?

– Qanjiqlar! Hammang bir go‘rsan, bildingmi?

Uchovi bostirib bordi, Vitka yakka o‘zi uch kishiga hamla qildi... Biri shu zahoti boshidan to‘g‘a yeb yiqilgach, qolgan ikkisi boshlarini avayladi, qo‘l-oyoq kuchi bilan Vitkani bir yoqli qilmoqqa urindi. Murodlari hosil bo‘lavermagach:

– Biznikilarni do‘pposlashyapti! – deb ayuhannos solishdi.

Yana beshtasi yopirilib keldi... Vitka ham benasib qolgani yo‘q: kimdir orqasidan kelib shisha bilan kallasiga soldi, lekin mo‘ljalda andak adashgan ekan, zarba yalabroq o‘tdi. Vitka yiqilmadi. Uning xo‘rlangan qalbi taskin topib, tantana qilmoqda edi.

Hamla qiluvchilar ketma-ket so‘kinishdi, pala-partish g‘uj bo‘lib bir-birlariga xalal berishdi – Vitka bundan foydalandi, o‘ng‘ay kelganini uraverdi.

Militsiya yetib keldi... Hammalari bir bo‘lib Vitkani do‘kon bilan panjara to‘siq o‘rtasidagi burchakka qisib borishdi. Vitka tixirlik

qildi. Militsionerlarni oldinga o‘tkazdilar, shunda Vitka ahmoqlik qilib ulardan birining kallasiga to‘g‘a bilan tushirdi. Vitkaning to‘g‘asi shunisi bilan dahshatliki, uning ichki, bukilgan tarafiga qo‘rg‘oshin quyilgan. Militsioner guppa yiqildi... Hamma oh urdi, esankirab qoldi. Vitka tuzalmas xato qilib qo‘yganini tushunib, kamarni tashladi... Uni avaxtaga olib ketishdi.

* * *

Vitkaning onasi falokatdan ertasi kuni xabar topdi. Ertalab uchastkavoy uni chaqirib, Vitka shaharda qanday baloni boshlaganini aytib berdi.

– Yo parvardigor! – qo‘rqib ketdi ona. – Endi nima qilishadi uni?

– Qamaladi. Qamalishi aniq. Melisa yigit jarohatlangan, kasalxonada yotibdi. Bunaqa ishning jazosi – qamoq. Besh yil berishlari mumkin. Nima balo, esini yeganmi u?

– Otaginam, xudo martabangni ziyoda qilsin, bir ilojini top, yordam ber, – yolvordi ona.

– Sizni qarang-u! Qanday qilib yordam beraman?..

– Ichgandir-da, kayfda qilgan bu ahmoqlikni...

– Qo‘limdan hech nima kelmaydi, tushuning! KPZda[1] o‘g‘lingiz, allaqachon unga qarshi ish ochishgandiram...

– Kim yordam bera oladi bo‘lmasa?

– Hech kim... Mayli, melisaga boring-chi, balki biron nimani aniqlashtirarsiz. Lekin u yerdagilar ham... nima qilib bera olishardi?

Vitkaning onasi – qoqsuyak, chayir, abjirgina kampir dastlab qishloqdan panoh izladi. Qishloq fuqoralar kengashi raisining yoniga yugurdi. Rais ham yelka qisdi:

– Qo‘limdan nimayam kelardi? Xo‘p ana, tavsifnoma yozib berishim mumkin... Baribir yozishga to‘g‘ri kelsa kerak. Xo‘p ana, yaxshi deb yozaman...

– Yoz, yoz, o‘rgilay, yaxshisini oshiribgina yoz, qishloqda miyasi butuni o‘zingsan. Mastlikda bo‘lgan bu ish, hushyorligida pashshagayam ozor bermaydi o‘zi, degin...

---

[1] *KPZ (boshlang‘ich hibs kamerasi)* – militsiya idorasidagi vaqtinchalik qamoq.

– Mast bo‘lganmi bo‘lmaganmi, deb so‘ramasalar keragov... Aytaymi, nima: o‘sha melisaning oldiga boring, ehtimol uncha qattiq urmagandir. Tag‘in kim bilsin...

– Umringdan baraka top, xudo yorlaqagur, ming rahmat senga...

– Qo‘ysangiz-chi...

Vitkaning onasi rayonga zing‘illadi. U besh farzand ko‘rgan, erta beva qolgan edi (1942-yili otasidan qoraxat kelganida Vitka hali go‘dak edi). 1945-yilda to‘ng‘ichi ham urushda halok bo‘ldi, 1946-yilda qizi ochlikdan o‘lib ketdi, keyingi ikki o‘g‘li tirik qolishdi-yu, ammo FZU[1] maktablarida o‘qib, hozir boshqa-boshqa shaharlarda istiqomat qilishardi. Kenjasi Vitkani parvarish qilish uchun ona jonini jabborga berdi, bor bisotini sotib bo‘lsa ham o‘g‘lining qornini to‘ydirdi. Shunga yarasha Vitka sog‘lom, kelishgan, mehribon yigit bo‘lib yetishdi... Binoyidek yigit-u, lekin ichkilikka og‘zi tegsa bas – qip-qizil ahmoq bo‘ladi-qoladi. Otasiga tortdi. Go‘ri nurga to‘lsin, qishloqda bironta mushtlashuv usiz o‘tmasdi.

Ona militsiyaxonaga yetib kelgan mahal u yerdagilar aynan kecha avtobus bekatida sodir bo‘lgan voqeani muhokama qilishardi. Haligi militsioner yigitni Vitka yomon urgan ekan – u chindan ham kasalxonaga tushibdi. Vitkaning kamari to‘g‘asidan «bahramand bo‘lgan» ikki aroqxo‘r ham kasalxonada edi. Militsionerlar to‘g‘ani qiziqsinib tomosha qilishardi.

– O‘ylab topganini qara u yaramasning!.. Sirtdan hech nimaga shubha qilmaysan: oddiy qayish, lekin polvonlarning toshiday salmog‘i bor-a. Qovurg‘asiga urmaganiga rahmat...

Shu asnoda Vitkaning onasi kirdi... Ostona hatlashi bilan tiz cho‘kdi-yu bo‘zlagancha so‘zlay ketdi:

– Tasaddug‘ingiz bo‘lay, taqsirlarim, oqil boshingizni Xudo panohida asrasin!.. Bolaginam yetkazgan ranj-alamni ko‘nglingizdan chiqazing, gunohidan o‘ting u battolning! Ichgan edi-da... Hushyorligida kishidan joniniyam ayamaydi, ilgaridan shunaqa o‘zi: ichmasa, kimsaga ziyon yetkazmaydi...

Militsiya boshlig‘i, stol yonida Vitkaning kamarini qo‘lida o‘ynab o‘tirgani so‘z boshladi. Ona barini tushunsin uchun sodda qilib, xotirjam, ijikilab so‘zladi.

---

[1] *FZU (fabrika-zavod ta’limi)* – sobiq SSSR davrida bevosita ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maktablar.

– Oshiqmang, onaxon. Avvalo o‘rningizdan turing – cherkov emas-ku bu yer. Keling, o‘z ko‘zingiz bilan ko‘ring....

Ona boshliq ovozidagi andak xayrixohlik ohangidan yupanib, oyoqqa qalqdi.

– Qarang: o‘g‘lingizning qayishi... U flotda xizmat qilgan, chamasi?

– Ha, ha, flotda – tog‘day-tog‘day kemalar bo‘larmish-ku...

– Endi bu yoqqa qarang: ko‘rdingizmi? – Boshliq to‘g‘ani ters qilib, qo‘lida salmoqladi. – Bu bilan yaxshilab bir ursa, odam til tortmay o‘ladi. Kecha o‘g‘lingiz qovurg‘ani mo‘ljalga olsa, tamom edi. Qotil bo‘lardi. Yaxshiki, uch kishi tirik, lekin shifokorlar ularning hayoti uchun kurashyapti hozir. Siz bo‘lsangiz kechir deysiz. Axir u uch odamni kasalxonaga yotqizdi-ku. Ulardan biri xizmat vazifasini o‘tayotgan edi. O‘zingiz o‘ylang: bunaqa aybni qanday qilib kechirish mumkin?..

Onadan donishmand zot yo‘q, biroq farzandi falokatga yo‘liqqan kezlarda ona qalbi yot idrokni qabul qilishga qodir emas va buni izohlashga mantiq ojizdir.

– Aylanay bolam! – xitob qildi ona va yig‘lab yubordi. – Mastlikda nimalar bo‘lmaydi deysan?! Har balo bo‘lishi mumkin... Rahm qilinglar!..

Onaga qaramoq og‘ir edi. Ovozida qayg‘u-hasrat shu qadar mo‘l ediki, eshitganning ko‘ngli buzilardi. Diydasi qattiq qavm bo‘lsa ham, militsionerlar toqat qila olishmadi: biri yuzini o‘girdi, boshqasi chekish bahonasida tashqariga chiqib ketdi...

– Bitta-yu bitta o‘g‘lim shu, yonimda qolgani shu bolam: meni yedirib-ichiradigan shu. Yaqindagina unashtirganman – uni qamab qo‘ysalar, qallig‘i nima bo‘ladi? Kutadi, deysizmi? Kutmaydi. O‘zi yaxshi qiz, bama’ni oiladan – yo‘qotsak ichimiz achiydi...

– O‘g‘lingiz shaharga nega kelgan edi? – so‘radi boshliq.

– Cho‘chqa yog‘i sotgani. Bozorga yog‘ eltgan. Pul zaril bo‘lib qoldi, to‘y qilish kerak, kelin tekinga kelmaydi-ku?

– Yonida hech qanaqa pul yo‘q edi.

– Ana xolos! – qo‘rqib ketdi ona. – Pullari qayerda bo‘lmasa?

– Buni o‘zidan so‘raganingiz ma’qul.

– O‘g‘irlatgan, hoynahoy! O‘g‘irlashgan!.. Jonim bolam, gunohidan o‘taqolgin, bildim nimaga mushtlashganini – pulini oldirganiga alamdan mushtlashgan!.. Kissavurlar tunashgan uni...

– Kissavur tunagan bo‘lsa, bizning xodimdan oladimi alamini – uni nega uradi?

– Jahl ustida urgandir...

– Har kim jahl ustida uraversa, hademay militsiyada hech zog‘ qolmaydi-ku. Undan ko‘ra jahlini tiyib olishni o‘rgansin o‘g‘lingiz! – Boshliq bor jur’atini jamladi: – Bunaqa ishlar afv etilmaydi, onaxon, o‘g‘lingiz qonuniy jazosini oladi!

– Farishta bolalarim, hoy yaxshi odamlar, – yana yolvordi ona, – jillaqursa men kampirga shafqat qilinglar, men sho‘rlik endigina ro‘shnolik ko‘ryatuvdim... O‘g‘lim chakki-chukki yuradigan bolamas, xotin olganidan keyin butkul quyilardi. Yo nasib, nevara allalayman deb orzu qilib yurardim...

– Gap bizda emas, onaxon, siz buni tushuning. Axir prokuror bor-ku! Xo‘p, bo‘shatib yubordik ham deylik, nimaga asoslanib ozod qilding, deb so‘ramaydimi bizdan? Haqqimiz yo‘q. Bizga bunaqa huquq berilmagan. O‘g‘lingizning o‘rniga men o‘tirmayman-ku axir!

– Haligi melisa yigitning ko‘nglini ovlasammikan? Men kanopdan mato to‘qiyman, tunov kuni to‘qiganim xo‘pam antiqa chiqdi – ko‘rganning og‘zi ochilib qoladi! Jon-jon deb bergan bo‘lardim...

– Sizdan hech vaqo olmaydi u, olmaydi! – axiyri baqirdi boshliq. – Odamlarni noqulay ahvolga qo‘ymang, aslo. Ikki oshnaning jiqillashi emas, jiddiy ish bu!

– Aytinglar, bolalarim, qaysi eshikka bosh uray men? Sizlardan yuqori turuvchi biror kishi bordir, yo yo‘qmi?

– Mayli, prokurorga uchrashsin, – maslahat berdi xonada o‘tirganlardan biri.

– Melnikov, bu kishini prokuror xonasiga kuzatib qo‘ying, – buyurdi boshliq. Va tag‘in onaga o‘girilib, xuddi kar yoki ovsar odamga tushuntirgandek dedi: – Prokurorga kiring – u bizdan katta! Ish allaqachon uning qo‘liga o‘tgan. Biz sizga biron yordam bera olamizmi, yo‘qmi – u aytadi. Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, bu yerda hech kim sizga yomonlik sog‘inmaydi!

Ona militsioner hamrohligida prokurorga ketdi. Yo‘l-yo‘lakay u Melnikovni gapga tutishga urindi.

– O‘g‘lim o‘rtog‘ingizni yomon uribdimi?

Militsioner Melnikov o‘ychan sukut qildi.

– Sud qilsalar necha yil berisharkin?

Militsioner katta-katta qadam tashlardi. Yana miq etmadi.

Ona uning yonida pildirab borarkan, bu daroz yigitdan gap olmoqqa tirishar va dam-badam yuziga qarab qo‘yardi.

– Men avom kampirga tushuntirib ayt, bolam, jim turmagin... Sening ham onang bordir, sizlargayam ichim kuyadi, shundoq achinamanki, mana hozir, shu tobda gapirayotibman-u yuragim uvishib ketyapti. Aytaqol, ko‘p berishadimi?

Militsioner Melnikov muhmal javob berdi:

– Onaxon, odamlar qabrlarni o‘zlaricha bezatadilar, to‘g‘rimi? Tevaragini o‘raydilar, tosh o‘rnatadilar, gulchambar qo‘yadilar... Nima deb o‘ylaysiz – o‘liklarga kerakmi shu? Yo‘q, bu tiriklarga kerak. O‘liklarga baribir.

Onani chunon vahima bosib, beixtiyor to‘xtadi.

– Bu gaping bilan nima demoqchi bo‘lyapsan?

– Yuring. Demoqchi bo‘lganim shuki, sud bo‘ladi, albatta. Kechirishlari ham mumkin: mast ekan, pulini oldiribdi, alamzada bo‘lgan. Biroq baribir sud qilishadi – boshqalarga ibrat bo‘lsin uchun. Bunda boshqalarning ko‘zini ochib qo‘yish muhimroq...

– Mast bo‘lgan, deb o‘zing aytyapsan-ku!

– Bu inobatga o‘tmaydi. Birov majburan og‘zidan quymagan-ku, o‘z ixtiyori bilan ichgan. Boshqalarga saboq bo‘lsin bu voqea. Endi u qamaladi, bu aniq, ammo boshqalar o‘ylab ish qiladigan bo‘ladi. Aks holda qayta tarbiyalay olmaymiz ularni.

Ona bu daroz melisa o‘g‘liga dushmanlik kayfiyatida ekanini anglab, jim bo‘lib qoldi. Prokuror onaga bir qarashda ma’qul tushdi – odamshavanda yigitga o‘xshadi. Onaning so‘zini diqqat bilan tingladi, holbuki u juda uzoq va poyma-poy gapirgan edi: o‘g‘li Vitka yaxshi, mo‘min bola, hushyorligida chivingayam zarar bermagan, endi usiz yolg‘iz o‘zi qandoq yashasin? Qallig‘i Vitkaning qamoqdan chiqishini kutadimi-yo‘qmi, xudo biladi, axir yaxshigina qiz – birov egallaydi-qo‘yadi-da...

Prokuror quloq qoqmay eshitdi, barmoqlari bilan stolni chertdi... so‘ng gapni uzoqdan, g‘alati tarzda boshladi:

– Mana siz, qishloqda tug‘ilib voyaga yetgan ekansiz, oilada ko‘pchilik edingizmi?..

– O‘n olti farzand bo‘lganmiz, otaxon. Shundan o‘n to‘rttamiz jon saqlab qolganmiz, ikki nafari bir qarichligidayoq nobud bo‘lgan. Pavel o‘lganida izidan tug‘ilgan bolaga ismini berganmiz...

– Ana, o‘n olti bola. Kichikroq jamoa. Bu jamoaga ota rahbarlik qilgan. Shundaymi?

– Shunday, otaginam. Otamizga bo‘yin egardik...

– Ana! – Prokuror onani tilidan ilintirmoqchi bo‘ldi. – Otaga itoat qilgansiz! Nega? Shumlik qilgan bolani otasi savalagan. Ukasi yoki singlisi buni ko‘rib, xulosa chiqargan. Shumlikning oxiri baxayr bo‘lmasligini tushungan. Katta oilalarda tartib-intizom shu yo‘sin saqlangan. Faqat shu yo‘l bilan. Agar ota bir gal kechirsa, ikkinchi marta kechirsa, so‘ngra nima bo‘lardi? Oilada beboshlik boshlanardi. Sizni tushunaman, onaxon, o‘g‘lingizga rahmingiz kelyapti... Ochig‘i, o‘zimniyam ichim achiydi – u yoqlar kurort emas, qolaversa, bir-ikki yilda qaytmaydi ham. Inson o‘laroq menga bari tushunarli, ammo tartib, qonun-qoida degan narsalar borki, ularning qarshisida kamina ojiz... Sud qilishadi. Qancha beradilar, buni bilmadim, sud hal qiladi.

Ona prokuror ham o‘g‘limni yomon ko‘rib qolgan, deb o‘yladi. «Jabrlangan o‘zlarining odami bo‘lgani uchun to‘nlarini teskari kiyib olishgan».

– Bolam, sening tepangdayam biron kishi bormi?

– Tushunmadim? – darrov anglamadi prokuror.

– Sen eng kattasimisan yoinki sendan ham katta amaldor bormi?

Prokuror picha o‘ng‘aysiz vaziyatda qolgan bo‘lsa-da, beixtiyor kulib yubordi:

– Bor, onaxon, bor. Ko‘p!

– Qayerda ular?

– Qayerda bo‘lardi?.. O‘lka hukumati idorasi bor... Nima, o‘sha yoqqa bormoqchimisiz? Maslahat bermayman.

– Yaxshi kishilar menga shunday aql o‘rgatishdi: sud bo‘lmasdan burun harakat qilib qol, so‘ngra kech bo‘ladi, deyishdi...

– O‘sha yaxshi kishilarga aytingki, ular... yaxshi emas ekan. Chetdan qaraganda yaxshi tuyuladi ular... lekin aslida... Kim maslahat beruvdi o‘zi?

– Ha endi, birovi-da...

– Nachora, xohlasangiz boravering. Yo‘lkiraga tushganingiz qoladi xolos. Foydasi bo‘lmaydi, aytib qo‘yay. Men sizga mutlaqo rasmiyat ila ma’lum qilyapman: sud bo‘lishi muqarrar. Sud qilmaslikka haqqimiz yo‘q. Bu sudni hech kim bekor qila olmaydi!

Onaning yuragi shuv etib ketdi. U prokurordan qattiq xafa bo‘ldi, ammo uning ko‘z o‘ngida gurs etib yiqilib uvvos solib yig‘lamayin deb, oyoqda bazo‘r turganini ham sezdirmadi. Ming mashaqqat bilan qaddini tutdi.

– Jillaqursa u bilan ko‘rishishimga ruxsat ber...

– Bu mumkin, – darrov rozi bo‘ldi prokuror. – Aytmoqchi, yonida katta pul bo‘lgan, deyishdi. To‘g‘rimi?

– To‘g‘ri...

Prokuror bir parcha qog‘ozga aji-buji xat yozib, onaga uzatdi.

– Militsiyaga boring.

Ona militsiyaga yo‘lni o‘zi topdi, daroz melisa yigit allaqachon ketib qolgan ekan. Odamlardan so‘ragan edi, ko‘rsatib qo‘yishdi. Onaning ko‘zlari xira tortdi, jimirlashdi... U unsiz yig‘ladi, ro‘molining uchi bilan ko‘z yoshlarini artdi va goho yo‘lkani turtib chiqqan toshlarga qoqila-qoqila odatdagidek ildam yurib ketdi... Ona shoshilardi. Oshiqmasam bo‘lmaydi, deb o‘yladi, o‘g‘lini sud qilib qo‘yishmasidan yetib borishi kerak. Yo‘qsa keyin qutqarib qolishi qiyin bo‘ladi. Ona bunga qattiq ishonardi. U bir umr musibatlar bilan olishib yashadi, shu bois yo‘l-yo‘lakay ro‘moli uchi bilan ko‘z yoshlarini artgan ko‘yi o‘z dardini o‘zi yengishga harakat qilardi. «Yaxshi odamlar bor, ular albatta yordam qo‘lini cho‘zadilar» degan o‘lmas ishonch yashardi ona qalbida. Anavilardan yorug‘lik chiqmasligi tayin, o‘zlarining odami kaltak yegani uchun alamzada, lekin bu yerdan uzoqroqda o‘tiradigan kattalar ham bor – ular yordam berishadi. Nahot yordam berishmasa? Yotig‘i bilan tushuntiradi bor gapni – muruvvat qilishadi, albatta. Ajabo, ona o‘g‘lining jinoyat sodir etganini bir zum ham o‘ylamas, faqat bir narsani bilardi: o‘g‘li katta bir falokatga yo‘liqdi. Shunday paytda joniga onasidan boshqa kim ora kirardi? Kim?! Yo rabbiy, kerak bo‘lsa poyu piyoda boradi o‘sha o‘lka hukumatiga, kechayu-kunduz yo‘l bosadi... Topadi o‘sha mehribon odamlarni.

– Xo‘sh? – so‘radi militsiya boshlig‘i.

– O‘lka ijroqo‘miga borishni buyurdi, – yolg‘onladi ona. – Manavi – uchrashuvga ruxsatnoma.

Ona qog‘ozni uzatdi. Boshliq, garchi sirtiga chiqarmaslikka tirishayotgan bo‘lsa-da, picha hayratlangan edi. Qog‘ozni o‘qib ko‘rdi... Ona uning hayratga tushganini payqadi. «Yelib-yugurishim kor qilyapti», dedi ichida. Va xiyol yengil tortgandek bo‘ldi.

– Melnikov, boshlab boring.

Ona uzoqqa borishga to‘g‘ri keladi, ko‘p yuramiz, temir eshiklar ketma-ket ochiladi va o‘g‘limni panjara ortida ko‘raman, u bilan pastdan, oyoq uchida uzalib so‘zlashsam kerak, deb o‘ylovdi... O‘g‘li esa shundoqqina pastda, yerto‘lada ekan. Yo‘lakda sochi olingan erkaklar domino o‘ynashardi... Ular ona bilan militsionerga tikilib qolishdi. Oralarida Vitka yo‘q edi.

– Ha, momo, sizgayam o‘n besh sutka berishdimi? – so‘radi turqi sovuq bittasi.

Hamtovoqlari hiringladi.

Militsioner onani yo‘lak boshidan uchinchimi yo to‘rtinchi kamera yoniga boshlab kelgach, eshikni ochdi...

Vitka yolg‘iz edi, kamera kattagina ekan, so‘risiyam keng-mo‘l. U so‘rida cho‘zilib yotgan ekan...

Militsioner kirganida pinagini ham buzmadi, ammo uning ketida onasini ko‘rdi-yu sapchib turdi.

– O‘n daqiqa vaqtingiz bor, – ogohlantirdi daroz chiqayotib.

Ona so‘riga o‘tirib, ro‘moli bilan apil-tapil ko‘zlarini artdi.

– Buni qara-ya, yerning tagida bo‘lsayam quruq, ham issiqqina ekan, – dedi u.

Vitka qo‘lini tizzasida chalishtirgan ko‘yi jim o‘tirardi. Bir kechada ko‘zlari kirtayib, soqol-mo‘ylovi o‘sib qolibdi – buncha tez, xuddi atay qilgandek. Ahvoli ayanchli edi. A’zoyi badani yengil titrar, buni onasiga sezdirmaslikka tirishardi.

– Pulingni oldirdingmi, bolam? – so‘radi ona.

– Oldirdim.

– Sadqayi sar, Xudoga soldim demaysanmi, mushtlashib nima qilarding? Pul odamni topmaydi, odam pulni topadi.

Vitka hech kimga, zinhor-bazinhor uni qanday tunab ketishganini aytmadi. Uyaldi. Ikki qanjiq... yer yorilsa-yu kirib ketsa! Hammadan ko‘ra onasiga jabr qilgani chakki bo‘ldi. Onasi yoniga kelishini, barcha qonunlarni bosib-yanchib bo‘lsa ham uni qutqarmoqqa chog‘lanishini bilardi – shu bois yuragi taka-puka edi.

Onaning ko‘nglida bu payt boshqa narsa kechardi: u olamda mirshab, prokuror, sud, qamoq borligini daf’atan butkul idrok etmay qo‘ydi... Yonida jigarbandi o‘tiribdi: gunohkor, notavon... Unga onaizori, faqat onasi kerak, shunday ekan nuridiydasini bag‘ridan kim ham tortib olardi?

– Xabaringiz bo‘ldimi, anavini yomon tushiribmanmi?..

– Ha... yo‘q, yalab o‘tgan deyishdi... Ammo ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olganmish.

– Ekspertiza qilishgandir, hoynahoy... Byulleten ochishgandir... – Vitka onasiga o‘girildi. – Yetti yilga kesishadi, oyi...

– Voy o‘lay!.. Namuncha ko‘p? – o‘takasi yorildi onaning.

– Yetti yil!.. – Vitka so‘ridan irg‘ib turib, kamera ichida u yoqdan bu yoqqa yurdi. – Hammasi barbod bo‘ldi! Hayotim ostin-ustun bo‘lib ketdi!

Onaning donishmand yuragi angladiki, farzandining qalbini umidsizlik yeb bitirmoqda...

– Hali sud qilishmadi-ku! – dedi ta’na bilan. – Elburutdan aza ochishga balo bormi.

– Nimani kutay? Bari ma’lum-ku...

– Ma'lum emish, e o‘rgildim! Men qayerlarga borganimni-yu nima ishlar qilganimni so‘ra avval!..

– Qayerga bordingiz? – hushyor tortdi Vitka.

– Prokurorga...

– Xo‘sh? Nima deydi?

– Ha barakalla, avvalambor shuni so‘ra edi, darrov «umrim barbod bo‘ldi» deb diydiyo qilmasdan! Kim aytadi seni erkak deb... Hali hech nima bo‘lgani yo‘g‘-u, xayolida... qiyomat qoyim bo‘lgandek.

– Prokuror nima dedi?

– Nima derdi?.. Hozircha vahima qilmasin, kallasidan har xil bo‘lmag‘ur xayollarni chiqarib tashlasin, dedi... Biz o‘z boshimizga bir ish qilolmaymiz, dedi, chunki haqlari yo‘q emish, siz ham fursatni boy bermang, o‘lka idoralariga boring, deb aytdi. Gapi avzoyidan, agar ular buyursa, bular xohlaydimi-yo‘qmi, qo‘yib yuborarkan. Shunday qilsangiz, o‘zimizning kishimiz oldida yuzimiz yorug‘ bo‘lardi: mana, sud qilmoqchi edik, lekin tepadan amr qilishdi, noiloj qo‘yvordik, deb aytamiz, deydi. O‘lka idoralariga boring, bor gapni qoldirmay ayting, dedi... Yoningda qancha aqcha bor edi, bolam?

– Yuz ellik so‘m.

– Esizgina-ya! Xazina topganday bo'libdi kim olgan bo‘lsayam...

Daroz militsioner mo‘raladi:

– Tugatinglar!

– Hozir, hozir, – hovliqdi ona. – Gapimiz bitib qoldi... Men shu tobdayoq uyga ketaman, qishloqqa, Mishka Bichkov senga karaxteristika[1] yozib bermoqchiydi... Chiroyli qilib yozaman, degan.

– Haligi... Jomadonimda harbiyda olgan faxriy yorliqlarim bor... har ehtimolga ularniyam oling...

– Qanaqa yorliqlar?

– Jomadonni ochsangiz, turibdi. Balki foydasi tegar.

– Olaman. Innaykeyin idoraga o'tib karaxteristikayam olaman... Qup-quruq bormayman harqalay. Kanopmatoni sotsammikan-a, Sergeyevna xaridor bo'layotuvdi?

– Nimaga?

– Jinday pul bo'lardi-da. Balki u yoqda bitta-yarimtaning og'zini moylashga to'g'ri kelar?

– Keragi yo'q, o'zingizga yomon bo'ladi.

– Bo'pti, ko'ramiz.

Eshikda yana melisa yigitning boshi ko'rindi:

– Yetar endi.

– Ketyapman, ketyapman, – shoshildi kampir. Eshik yopilganida esa qo'ynidan kulcha bilan tuxum chiqardi. – Ma bolam, yeb ol... Ich-etingni yeyavermagin – hali hech nima bo'lgani yo'q. Yaxshi odamlar yordam berishadi. Katta amaldorlarga boraman – ular behroq, hech kimdan qo'rqmaydi. Bular qo'rqadi, ular bo'lsa qo'rqmaydi – o'ziga o'zi xo'jayin ular. Oldilariga borish lozim bo'lsa, boraman. Sen esa qorningni to'qlagin-u biror nima bilan o'zingni ovut – Verka haqida o'yla loaqal... Verkayam dor-dunyosi qorong'i bo'lib yuribdi. Hovliqib keldi yonimga, eshitibdi allaqachon...

– Xo'sh?

– Ezilyapti-da, boyaqish.

Qaylig'i uni deb ezilayotgani ham Vitkaning ichini ilitmadi.

– Tag'in bir gap... – pichirladi ona. – Ichingda duo o'qib yurgin. Cho'qintirilgansan, ijobat bo'ladi. Hamma chorasini ko'raylik, shoyad bir joydan najot chiqib qolar. Ertaga uydan saharlab chiqaman – poyezd jo'nar mahalga dovur Avliyo Nikolay arvohiga sham yoqqani boraman, undan ham madad so'rayman. Parvo qilma, xudoyim kushoyish beradi. Har ehtimolga, otangdan kelgan qoraxatni qo'ynimga solvolaman...

---

[1] Xarakteristika, demoqchi.

– Akalarimga... bildirmang... hozircha aytmaylik.

– Aytmayman, aytmayman. Bekorga xavotirga solishning keragi yo‘q. Eng muhimi «umrim xazon bo‘ldi» degan gapni kallangdan chiqarib tashla. Kesadigan bo‘lsalar ham, el ko‘zi uchun bir-ikki yil beradilar. Yetti yil emas! Bir yilga qamalganlar esa olti oyga qolmay chiqadi. Yaxshi ishlaganni erta chiqarishadi. Balki senga bir yil ham berishmas.

Militsioner kameraga kirib turib oldi.

– Vaqtingiz tugadi...

– Ketyapman. – Ona so‘ridan turdi va militsionerga orqa o‘girgan holda o‘g‘lini naridan-beri cho‘qintirarkan, lablarini sag‘al qimirlatib:

– Yaratgan egam o‘z panohida asrasin, – deb shivirladi-yu kameradan chiqib ketdi. Yo‘lakdan borarkan ko‘zlari yoshlanib hech nimani ko‘ra olmasdi. O‘g‘li Vitkaga jabr bo‘ldi, oh, jabr bo‘ldi. Bolang kasal bo‘lsa achinasanku-ya, ammo bolang uchun odamlardan yordam so‘rasang-u ular ko‘zingga qarayolmay, yuzlarini ters qilsalar – tobi-toqating qolmaydi. Dam-badam yuraging orqangga tortib ketadi. Biroq ona tezda harakatga tushdi. U g‘oyiban alla-qachon qishloqda yurar, to jo‘nab ketgunicha kimga yo‘liqishini-yu qanaqa qog‘ozlarni olishini chamalar edi. «Yaxshi odamlar yordam berishadi» degan sobit ishonch qo‘lidan yetaklab borar, hech yerda o‘ralashib qolmas, yig‘lab ko‘nglini bo‘shatmoq uchun to‘xtamas, o‘g‘li kabi umidsizlikka ham tushmasdi, zero bu halokat ekanini bilardi. U harakat qilardi.

Choshgoh mahali, soat uchlarda ona qishloqdan o‘lka boshqaruv idoralari tomon yo‘l oldi. «Xudoyim, marhamatingni darig‘ tutma, – tinimsiz duo qilardi ichida. – O‘g‘limning yomon o‘y-xayollarini daf qil, unga aql-hush ato etgin. Hovliqmaligi bor – qiziq ustida o‘zini bir balo qilib qo‘ymasin».

Kech oqshom chog‘i u poyezdda jo‘nab ketdi.

«Hechqisi yo‘q, yaxshi odamlar yordam berishadi...».

Ona bunga qattiq ishonardi.

VIJDONSIZLAR

Gluxov chol oltmish sakkiz yoshida beva qoldi. Kampirini ko‘mdi, ma’rakalarini o‘tkazdi... Yig‘ladi.

– Endi nima qilaman-a? Bir o‘zim so‘ppayib qoldimmi-a? – yolg‘izlikdan ozorlandi chol.

Kampiridan ayrilgan chollar barchasi shunday deyishadi. Rost, unga juda og‘ir edi, judayam og‘ir, ammo u baribir «endi nima qilajagini» o‘ylamasdi. Qayg‘usi og‘ir edi, yuragi o‘rtanardi, bor gap shu. Ertaga nima bo‘lishi farqsiz edi uning uchun.

Suvlar oqdi, hash-pash deguncha bir yil o‘tib ketdi. Cholning ortiq toqati qolmadi. Dili tang bo‘ldi... Hayhotdek uyda so‘qqa boshi bilan siqilib ketdi. Uning o‘g‘li bor edi, kenjatoyi (kattalari urushda halok bo‘lishgandi), lekin u ham shaharda yashar, bu yoqqa ahyon-ahyonda kartoshka, sho‘rkaram, bodring, bolalariga asal (chol olti uya ari boqardi), qo‘lbola cho‘chqa yog‘i olgani kelardi xolos. Bosqinga o‘xshash bu keldi-ketdilar cholni quvontirmas, bil’aks qonini qaynatardi. Cho‘chqa yog‘i-yu asal, bodringni qizg‘anmasdi., Yo‘q. Faqat o‘g‘li begonalashib ketganiga kuyardi, nafs ilinjida qadam ranjida qilishidan jirkanardi. Chol o‘g‘lining xaltasini cho‘chqa yog‘i, karamga to‘ldirib berardi... Eng toza va yaxshi ne’matlarni solardi. Ko‘nglida g‘ijinar, ammo miq etib nolimasdi. Xo‘sh, o‘g‘li kelganida «Vanka, holim yomon, ichimga chiroq yoqsa yorishmaydi...» deya hasrat qildi ham deylik. Nima qilib berardi Vanka? Yordam qiladimi? Ha, yupatganday bo‘ladi, bir shishani ikkovlashib bo‘shatadilar, so‘ng chamadonini ko‘tarib oilasi yoniga – shaharga jo‘naydi. Shunaqa gaplar.

Shuning uchun ham chol uylanishga qaror qildi. Bir xotinni ko‘z ostiga olib ham qo‘ydi.

...O‘shanda 9-may edi, G‘alaba kuni. Odatdagidek, butun qishloq qabristonda urushda o‘lganlarni xotirlash uchun to‘plandi. Qishloq sho‘rosi raisi taburetkada o‘tirgancha ro‘yxatni o‘qirdi:

– Grebsov Nikolay Mitrofanovich.
Gulyaev Ilya Vasilyevich.
Gluxov Vasiliy Yemelyanovich.
Gluxov Stepan Yemelyanovich.
Gluxov Pavel Yemelyanovich...

Bu uchovi – Gluxov cholning o‘g‘illari. Har gal o‘g‘illarini nomma-nom o‘qishganida, qayg‘u temir chovutida cholning tomog‘idan bo‘g‘gandek bo‘lar, nafasi tiqilardi. U ko‘zini yerga tikdi, yig‘lamadi, ammo hech nimani ko‘rmasdi. Shu alfozda uzoq turdi. Sho‘ro raisi esa o‘qigani o‘qigan:

– Oparin Semyon Sergeich.
Popov Ivan Sergeich.
Popov Mixail Sergeich.
Popov Vasiliy Ivanovich...

Mozordagilar unsiz yig‘lashdi. Aynan unsiz, kim shol ro‘moli chekkasiga, kim kaftiga yuzini bosib yig‘lardi, ushbu daqiqalarda juda zarur bo‘lgan sukunatni buzmaslik uchun ehtiyot bo‘lib tin olardilar. Chol sal o‘ziga kelib, atrofiga alangladi. Har alanglaganida xayolidan bitta gap o‘tardi: «Eh-he, qancha odam nobud bo‘ldi-ya!..»

Shu mahal olomon orasida turgan Otavina kampirni ilg‘adi. U anchadan buyon qishloqda yashasa-da, asli boshqa yerlik edi, Gluxov uni yaxshi tanirdi. Anov alamli ro‘yxatda hech kimi yo‘q edi Otavina momoning, lekin u ham boshqalar kabi unsiz yig‘lar, cho‘qinardi. Gluxov xudojo‘y kishilarni hurmat qilardi. Ularni ta’qib etishib, mazax qilishsa ham hurmatlardi. Hech kimga bo‘yin egishni xohlamaganliklari uchun, halolliklari uchun. U Otavinaga qarab o‘ylanib qoldi... Bukriburun, tetikkina kampir, tomorqa ishlarini, hammom yoqishni, kvas tayyorlash va non yopishni bemalol eplaydi. Chol magazin nonini yeya olmasdi. Daf’atan xayoliga bir fikr keldi: «Axir u ham so‘qqabosh-ku... Balki?..»

Uyiga qaytdi, marhum o‘g‘illari xotirasiga ichdi... Astoydil o‘ylay boshladi: «U o‘z kulbasini sotib, menikiga ko‘chib o‘tsaydi. Uyining pulini menga desa kassaga qo‘ymaydimi. Birga yashasak bas, uyim huvillab yotmasa bo‘lgani. Odam kabi hammomga tushish, cho‘milgandan keyin bahuzur oyoq uzatish mumkin bo‘lardi... Ovqat pishirib dasturxonga qo‘yadigan, «Kelaqol, Yemelyan» deb chaqiradigan kishi bo‘lardi. Xonadonida hayot asari paydo bo‘lardi! Pechka yonida allakim kosovni taraqlatsa, xamirturush hidi anqisa,

bu tamom boshqa gap-da. Kechalari agar uyqu qochsa, pichirlashib gaplashib yotish mumkin... Yoki kolxoz brigadirini «onangni»lab so‘kishi mumkin. Darvoqe, Otavina – taqvodor kampir, uning yonida koskilik qilish yarashmaydi. Bir oyog‘i go‘rda ekan, bas, yetar umr bo‘yi so‘kkanlari. Ha, u kelsa, yaxshi bo‘lardi. Harchand nima dema, uy bekasi bo‘lganiga yetmaydi». Shunday o‘yladi chol. Hatto picha hayajonlandi ham.

Yakshanba kuni Olga Sergeevna Malishevanikiga bordi. U ham kampir edi, Otavinadan yoshroq, lekin chamasi, kallasi tuzukroq ishlardi. Gluxov chol shu Olga Sergeevnani bir zamonlar pinhona yaxshi ko‘rardi. U paytlarda u chol emasdi. Ko‘hlik, shang‘i Olgaga shaydo navqiron yigit edi. Malishevlarnikiga sovchi yuborishni xayol qilib yurganida inqilob boshlandi. Qishloqda bir shovvoz komissar paydo bo‘lib, hash-pash deguncha Olganing boshini aylantirdi-yu, o‘zi bilan qay go‘rga olib ketdi. Olib ketishga ketdi-yu, ammo o‘zi allaqayerda o‘qqa uchdi. Olga Sergeevna esa uyiga qaytdi va boshqa er qilmadi. Bir paytlar, hali bo‘ydoq Yemelyan Gluxov Olga Sergeevnani yo‘qlab qishloq sho‘rosiga kirgan (qiz o‘shanda sho‘ro kotibi bo‘lib ishlardi) va unga dardini to‘kib-solgandi. Olga Sergeevnaning jahli chiqdi, obidiyda qildi va shunqori – komissardan so‘ng erkak zotini yoniga yo‘latmasligini aytdi. Gluxov (uning picha kayfi bor edi), buzuq niyatda emasligini, shunchaki uni yaxshi ko‘rishini tushuntirmoqqa urindi. Yaxshi ko‘radi. Buning nimasi chakki? Olga Sergeevna battar ranjidi va tag‘in, barcha erkaklar unutilmas komissarining tirnog‘iga-da arzimasligini aytdi. U o‘zining komissari bilan hammani chunon qo‘rqitgan ediki, boshqalar ham ostonasini hatlashga jur’at eta olishmasdi. Biroq ko‘p yillar o‘tdi, hamma narsa unut bo‘ldi, bari o‘tib ketdi, allaqachon o‘zgacha hayot qaynardi, olamda boshqacha, ularnikiga o‘xshamagan muhabbat javlon urardi... Va Gluxov chol bilan nafaqadagi kampir Olga Sergeevna g‘alati bir tarzda do‘stlashib qolishdi. Chol yolg‘iz yashaydigan kampirga xo‘jalik ishlarida qarashardi: qishda qor kurar, o‘tin yorar, supurgi boylab berar, tomini tuzatardi... So‘ng o‘tirib, chaqchaqlashardilar. Malisheva choraktalikni stolga qo‘yardi... Gluxov hanuz undan hayiqar va sovet hokimiyatini maqtagani maqtagan edi.

– Ana qarang, qandoq... tartibli hukumat-a! Ilgari qanaqa edi: yoshingni yashab, oshingni oshaganingdan keyin hech kimga kerak bo‘lmay qolarding. Endi bo‘lsa pensiya berishyapti. Xo‘sh, qaysi

xizmatlarim uchun menga har oy yigirma besh so‘m to‘lashyapti? Holbuki, o‘z o‘g‘lim besh so‘mdan ortiq pul bermagan menga, shuginani ham ba’zan ko‘zi qiymaydi..Hokimiyat esa har oy kanda qilmaydi. Ana ular, haligi, komissarlar o‘shanda... ular tushunishgandi. Ular porloq kelajak uchun o‘z jonlarini tikishdi. Olga Sergeevna, o‘rnimizdan turib ularni xotirlashni taklif qilaman.

Olga Sergeevna norozi to‘ng‘illardi:

– O‘tir. Endi nima zaril?.. – kampir endilikda komissarini juda kam eslar, kechalari vahm bosishi haqida so‘zlardi ko‘proq.

– Shundoq bosib keladiki, tamom, hozir jonim uziladi, deb o‘ylayman...

– Yuragingdan boshlab chulg‘aganday bo‘ladimi?

– Hamma yog‘imdan. Birdaniga, har yoqdan tappa bosadiki, tamom bo‘ldim, deyman. Keyin chunonam bo‘shashamanki, qo‘l-oyog‘imni qimirlatgulik holim qolmaydi. Xuddi uzoq-uzoqlarga suzib ketayotgandek bo‘laman.

– Ha, – hamdardlik bildirardi Gluxov. – Shunaqa bo‘ladi o‘zi, vaqti-soati yetsa, hammamiz shunaqa suzib ketamiz. Qaytmaydigan bo‘lib...

Gluxov chol kampirini ko‘mganidan so‘ng Malishevanikiga yanada serqatnov bo‘lib qoldi. Biror ro‘zg‘or yumushini bajarardi, ikkovlashib ayvonda o‘tirishni, asal bilan choy ichishni xush ko‘rishardi. Chol kichik idishda asal keltirardi. Suhbatlashardilar.

– Kampiringni sog‘inib siqilasanmi? – qiziqsinardi Malisheva.

Gluxov qanday javob berishni bilmasdi. Nojo‘ya gapirib qo‘ysam, Malisheva izza qiladi, deb cho‘chirdi. Rostdan ham, kampir uni uyaltirar, yetmishni qoralab qolgan bo‘lsang-da, jim o‘tirganing, meni tinglaganing ma’qul, deb dakki berardi.

– Siqilasanmi?

– Shunchaki... – chaynaldi Gluxov. – Achinaman, albatta. Har holda u bilan... ellik yil birga yashadik.

– Yuz yil ham yashash mumkin... Mazmuni bormi? Fillar ikki yuz yil yashaydi, lekin nima ma’ni?

Gluxov xafa bo‘ldi:

– Uch o‘g‘lim urushda halok bo‘lgan! Sen menga bunaqa gaplarni aytasan...

– Hech nima deganim yo‘q, – pastroq tushdi Malisheva. – Ular Vatan uchun halok bo‘lishdi.

– Siqilaman, albatta, – bu gal dadilroq dedi Gluxov. – U men bilan qancha balolarni boshidan kechirdi-ya!.. Chidadi boyaqish. Yoshligimda xo‘p ahmoq edim, fe’lim chars edi... Bariga dosh berdi, mehribonim. Attang.

– Senlarni hali ko‘p taroshlash kerak! – uf tortdi Malisheva. – Yana ikki yuz yil taroshlash kerak, o‘shandagina odamga o‘xshaysanlar. U bilan ellik yil yashading... Xo‘sh? Hech vaqo deya olmaysan. Polizimda burgan o‘syapti... u ham o‘syapti. Yonida esa – qulupnay. Farqi bormi?

– Nimaga itob qilasan axir? – ajablandi Gluxov.

– Farqi bormi, deyman?

– Taqqoslagan narsangni qara-yu...

– Taqqoslayman! Nimagaki, birov bor, yashamaydi – yonadi, boshqasi esa tutaydi. Birining – har bir lahzasi mazmunli, boshqalari esa... O‘z g‘ami bilan yashaydi, xolos. Ayg‘irlar...

– Hammayam komissar bo‘la olmaydi-ku! – qizishib e’tiroz bildirdi Gluxov «ayg‘ir» degani uchun undan ranjib.

– Ellik yil birga yashading, – tobora zabtiga oldi Malisheva. – Shundan loaqal bir haftani odam kabi yashadingmi?

– Odam kabi yashagan kunlarim to‘lib yotibdi. Ortig‘i bilan bor, kerak bo‘lsa.

– Ko‘rinib turibdi! – lablarini qimtidi Malisheva. – Ayg‘irlar!

Gluxov kampirning nimasidir g‘azabini qaynatayotganini his qilar, ammo nimaligini hech anglay olmasdi.

Shundoq bo‘lsa ham u Malishevanikiga qatnashda davom etdi. Ba’zida mana shunday dahanaki jang qilishar, boshqa paytlar tinchgina o‘tirishardi. Oqshom qanday o‘tib ketgani bilinmasdi.

Shu yakshanba Gluxov Malishevanikiga bolta-yu arrasiz keldi. Gaplashmoqchi, maslahatlashmoqchi edi u. Kampirdan yordam so‘rab kelgandi.

– Sergeevna, maslahat so‘rab keldim. Yordam ber.

– Nima gap? – qulog‘ini ding qildi Malisheva. U maslahat berishni yoqtirardi.

– Otavina kampirni taniysanmi?

– Ha, xo‘sh?

– U bilan gaplashsang – menikiga ko‘chib kelishga rozi bo‘larmikan? O‘z kulbasini esa, mayli, sotsin. Yoki bundoq, hozircha eshik-darchalarini tambalab qo‘ysin, yashab ko‘raylik – agar

chiqishib ketsak, o‘shanda bemalol sotaveradi. Tavakkal qilmaslik uchun. Nima deysan? O‘zim aytgani yuragim betlamaydi, sen gaplashsang devdim. Uni xafa qilmayman... To‘rt oyoq, madori qochgan oyoqlar bo‘lsa ham, har holda ikki oyoqdan ko‘ra yaxshi-da. Nima deding? – Gluxov odatiga ters o‘laroq ko‘p va tez gapirdi. U xijolat chekayotgandi. – O‘ylab-o‘ylab shu fikrga keldim. Yolg‘iz yashash jonimga tegdi. Menimcha, unga ham yengil bo‘ladi. Nima deysan?

Malisheva angrayib qoldi. Shu qadar hayron bo‘ldiki, anchagacha tili kalimaga kelmadi.

– Uylanmoqchimisan?

– Ha, uylanmoqchi... bu... qanaqasiga uylanish bo‘lsin? Shunchaki – turmushimiz yengillashsin degan maqsadda er-xotin bo‘lamiz.

– Huquqiy jihatdan bu baribir uylanish. Namuncha dumingni likillatasan?

Gluxov esankiradi.

– Uylanish bo‘lsa uylanish-da. Nima, bu nojoiz ishmi?

Malisheva cholga sinchiklab va allanechuk yot, xufiyona adovat ko‘zi bilan qaradi.

– U rozimi? Darvoqe, hali unga aytib ulgurmadim, deding-a...

– Bilmaydi u! Shuning uchun keldim. U bilan gaplash. Ko‘ndirishga harakat qil. Xudojo‘y kampir, ehtimol, «gunoh bo‘ladi» deb unamas... Qanaqasiga gunoh bo‘lsin? Men yolg‘izman, u ham...

– Uning qizi bor, shaharda...

– Bilaman. Shaharda mening ham o‘g‘lim bor. Ulardan ne naf endi? Qolgan umrimizni birga o‘tkazsak degandim. Yengilroq bo‘ladi. Kim oldin o‘lsa, ko‘madigan odam bo‘ladi.

– Axir bolalaringiz bor! – birdan asabiylashib ovozini balandlatdi Malisheva. – Nega o‘zlaringni buncha bechorahol qilib ko‘rsatasanlar?

Gluxov jim bo‘lib qoldi. Qovog‘i solindi, Malishevaga razm solib qaradi. Nega muncha jahl qiladi? Halitdan beri tizinglaydi-ya. Nega?

– Nima bo‘ldi senga, Sergeevna? – so‘radi chol.

– Hech nima. Uylanishni xohlagan sizlar, men emas. Sen esa mendan so‘raysan, nima bo‘ldi, deb. Menga hech nima bo‘lmadi.

– Negadir achchiqlanyapsan...

– Sirayam-da! Uylaninglar! Otavina kampir bilan gaplashib beraymi? Gaplashaman, – taraddudga tushdi Malisheva va bidirladi: – Chaqiraman, gaplashamiz, mendan nima ketdi. Rozimi-yo‘qmi, bilib olaman. Nega jahlim chiqadi? Meni emas, senlarni mazax qilishadi-ku.

– Qanaqasiga?

– Nima?

– Nega kulishsin axir?

– Nima, rahmat deyishsinmi?

– Axir yolg‘iz keksalar turmush qurishi mumkin emasmi?..

– Mumkin, mumkin. Ertaga tushlik mahali kel... Uni vaqtliroq chaqirib, avval u bilan gaplashib ko‘raman, sen esa keyinroq kel, tushda. Bo‘ladi bunaqa voqealar, bo‘ladi. Istagancha topiladi! U bilan so‘zlashaman, xavotir olma. Tayin so‘zlashaman!

Gluxov chol Malishevanikidan dili g‘ashlanib chiqdi. Kampir allaqanday fitnani boshlamoqchi ekanini ko‘ngli sezdi. G‘alati kampir, xudo haqqi. Hadeb asabiylashadi, jahl qiladi. Qo‘yib bersa, hammani qaytadan tarbiyalamoqchi bo‘ladi... Hammaga yashashni o‘rgatadi, hammani sud qiladi o‘zicha. Chol qaytib borib, «Hech qanday yordaming kerakmas, o‘zim bir ilojini qilarman», deb aytmoqchi ham bo‘ldi. To‘xtadi ham, birpas qaqqayib turdi. So‘ng qo‘l siltadi, sadqai sar, mayli, gaplashsin. O‘zi baribir eplolmaydi, yotig‘i bilan tushuntirishni bilmaydi. Jahli chiqsa chiqar, ishni o‘rinlatsa bo‘lgani.

Ertasi kuni kampirlar – Malisheva hamda Otavina uchrashdilar. Suhbat bo‘ldi.

Otavina momo Malishevanikiga kelgach, birinchi galda uyning kunjaklariga ko‘z tashladi (ikona yo‘qmikan?), so‘ng qisinib-qimtinib yumshoq divan chetiga cho‘kdi. Hol-ahvol so‘rashishdi.

– Bilasanmi, seni nimaga chaqirdim? – darhol muddaoga ko‘chdi Malisheva. – Gluxov cholni taniysanmi?

– Yemelyan Yegorichnimi? Taniyman, nega tanimay. Uning uch o‘g‘li frontda...

– O‘sha senga uylanmoqchi, – chuchvara sanagandek burro-burro gapirdi Malisheva. – Rozimisan?

– Yo aziz-avliyolar! – cho‘qindi Otavina. – Esi joyidami?!

– Nima bo‘pti? – allanechuk xush-xandon davom etdi Malisheva. – So‘qqaboshsizlar... Sen, avvalo, yaxshilab o‘yla, javob berishga shoshilma. U ham barcha chollarga o‘xshagan sassiq taka, ammo

qolgan umringni yashashingda yordami tegishi mumkin. O‘zing nima deysan? Uyini hozircha sotmasa ham bo‘ladi deydi, tambalab qo‘ysin, agar til topisha olsak, keyin sotadi, pulni kassaga qo‘yadi deydi. Sen nima deysan?

– Nima deyishim mumkin? – hang-mang bo‘ldi Otavina momo. – Hushim boshimdan uchdi. Tomdan tarasha tushgandek, erga tegasanmi desalar-a!.. – Otavina chin dildan, piqillab kuldi. – Bunaqada aqldan ozish hech gapmas. Kelinmish-a!

– Ha, u esa kuyov. Xo‘sh, nima deysan?

– Shoshmasang-chi, Sergeevna, oshiqma, hushimni yig‘ib olay...

– U halizamon keladi. Javobingni bilgani.

– Ana xolos! – Otavina o‘rnidan yarim turib eshik tarafga qarab qo‘ydi. Yana o‘tirdi. – Toza qiziq bo‘ldi-ku!

– Fahmlashimcha, sen qariyb roziga o‘xshaysan.

Otavina kampir birdan jiddiylashdi.

– Gap bundoq, Sergeevna. To‘g‘ri, u yomon cholmas, ichmaydi, xudoga xush kelmaydigan ishlari yo‘q, bo‘lsa bordir, ammo men eshitmadim. Faqat... – Otavina sovchiga qaradi. – Qandoq bo‘larkin-a? Rost, keksayganda turmush quradiganlar bo‘ladi, binoyidek yashashadi...

– To‘ppa-to‘g‘ri.

– Bordi-yu u kechalari tegajoqlik qilsa-chi?

Malisheva og‘zini ochib qoldi.

– Qanday?

– Qanday bo‘lardi? Shunday. Ular bari shunaqa! Eng birinchi navbatda bilishni istardimki, umid qilardimki, u kechalari menga tirg‘almasa. Yana koskilik qilmasa. Tamaki chekadi... Bunisi mayliga... hamma chekadi, buni taqiqlash qiyin.

– Rozimisan-yo‘qmi? – ajablandi Malisheva.

– Shoshmasang-chi, qistama ko‘p. Aytyapman-ku, mening talay shartlarim bor. Xo‘sh, u mumkin emas, bu ham mumkin emas... Agar chol «Mumkin bo‘lgan biror nima bormi o‘zi?» deb aynib qolsa, hammasi chippakka chiqadi, – Otavina kampir yana piqillab kuldi. – Sira xayolimga kelmagandi, yetti uxlab tushimga kirmovdi... Yo parvardigor. Kim bilibdi deysan. Men ilgari yashagan Bulanixada qadrdon dugonam bor, uning boshiga ham shu savdo tushgandi. Bir chol kelib he yo‘q, be yo‘q «Kuzmovna, kel, turmush qurib birga yashaylik», degan. Yashashdi ham. Rost, chol ikki yil burun

qazo qildi... Dugonam uning uyida turadi hozir. Tuzukkina yashashdi, xabarim bor. Qancha deysanmi?.. Besh yilcha. Chol unga sira ozor bermadi. Umrining adog‘ida odamlar ancha esli bo‘lib qolishadi. Hozir-chi?.. Hozirgilarga qaragan sayin yurak hovuchlaysan... Xudoyim-ey!.. Qarigan chog‘ingda issiqqina uyda halovatda yashaganga nima yetsin... Kulbam chunon eskirib qolganki, qishdan chiqqaniga xursandman, hech isitib bo‘lmaydi. O‘tin qalaganim-qalagan, lekin xuddi kapada yashaganday.

– Qizingnikiga ko‘chib ketsang bo‘lmaydimi?

– Ol-a! O‘zlari katalakday xonada tiqilib qolishgan... Yashab ko‘rganman. U paytlar nevaralarim yosh edi, yashaganman. Turganbitgani azob. Endi esa umuman iloji yo‘q – nevaralarim maktab yoshiga yetib qolishgan. Qizim bilan kuyovim menga kulba sotib olishganida quvonchim ichimga sig‘madi. Bulanixadagi uyimni allaqachon sotganman. Qizimni uzatayotganda sotuvdim. Qubbalik uy edi, yana yuz yil qilt etmasdi. Sotdim, nachora. Ularga kooperativ uy kerak, pulni qayerdan olishsin? U armiyadan qaytdi, qizim endi texnikumni bitirgandi o‘shanda. Oyi, kel, uyni sotaylik, deyishdi. Agar biz bilan yashashni istamasang, senga keyinroq uy olib beramiz, deyishdi. Xullas, xiyla vaqt ularnikida yashadim, nevaralarimni allaladim, keyin esa menga qishloqdan bir kulbacha qilib bermasanglar bo‘lmaydi, shaharda bo‘g‘ilyapman, dedim. Chaynala-chaynala, shu kulbaga pul topib berishdi. Bulanixada uylar qimmat, bu yerda ancha arzon, shu tariqa qishlog‘ingizga kelib qoldim. Keksaygan chog‘ingda... issiqqinada yashagan ma’qul... Zarar qilmaydi.

Gluxov chol kampirlar uchrashishganini bilardi-yu, ammo suhbatning ruhidan bexabar edi. U har ehtimolga yangi kamzul kiydi, bir idishga asal soldi, bir shisha musallasni qo‘yniga tiqdi va Malishevanikiga jo‘nadi.

Keldi... Salom-alik qilishdi. Picha xijolat tortgancha shisha bilan asalni stolga qo‘ydi... Tamakidonini olmoqchi bo‘lib cho‘ntagiga qo‘l suqdi.

– Shishani ochishga shoshilma, – dedi Malisheva. – Shoshmaganing ma’qul.

Cholning yuragi uvishdi. U Otavina bilan yashashga o‘zini ruhan xo‘p tayyorlagan, hamma tomonni hisobga olgan, nazarida turmushlari yomon bo‘lmasligi kerak edi. Nima gap ekan?

– Ikkovingizni ham xo‘p tingladim... Albatta, bu sizlarning shaxsiy hayotingiz, er-xotin bo‘lishga haqqingiz bor... Tentaklar ham binoyidek yashab ketishadi. Lekin baribir sizlardan so‘rayman, vijdoningiz qandoq yo‘l qo‘yadi? A? – Malisheva bu so‘zlari bilan Gluxov va Otavinaning yuziga tarsakilagandek bo‘ldi. Qandaydir tushuniksiz shafqatsizlik bilan, jon-jahdi bilan, sirli bir alam bilan urdi. Vijdonini yeb qo‘ygan kelin-kuyov qizarib-bo‘zargunicha, o‘zlarini qo‘yarga joy topolmay qolgunicha, qilmishidan iztirob chekkunicha uraverdi, uraverdi. – Bu ishdan keyin odamlarning ko‘ziga qandoq qaraysizlar? A? Axir odamlar bir umr yolg‘iz yashashadi... Mana, men, umr bo‘yi yolg‘iz yashadim, yigirma uch yoshimdan beri... Nima, meni so‘raganlar bo‘lmaganmi? Bo‘lgan. Kechalari kelishmaganmi, derazamni chertishmaganmi? Kelishgan. Chertishgan. Gluxov, qishloq sho‘rosiga kelgan, sensiz dunyo ko‘zimga qorong‘i, degan sen emasmiding? Aytganmisan? Qani, gapir!

Gluxov yer yorilsa qa’riga kirib ketishga rozi edi.

– Bir ahmoqlik qilganman-da... mastlikda, – tan oldi u. – Sen bilan unashganim yo‘q... Nimalar deyapsan o‘zing? Bu qachongi gaplar, u paytlar...

– Ahmoqlik qilganmish! Go‘yo endi aqli kirgandek – yetmish yoshida uylanishni ko‘ngli tusab o‘tirsa-ya. O‘rgildim sen aqllidan. Sen-chi, seni nima jin urgan!.. «O‘ylab ko‘raman... issiqqinada yashagan yaxshi» emish. Kim aytadi seni taqvodor deb! Sen ham qolishmaysan... Boshqalarga barmog‘ingni bigiz qilasan, gunoh ishlar qiladi deysan. O‘zing-chi? Yoshlarga shunday ibrat ko‘rsatasizlarmi? Bu to‘g‘rida o‘yladinglarmi hech? Xalq oldidagi mas’uliyatingizni anglaysizlarmi? – Malisheva qoqsuyak barmoqlari bilan stolni chertdi. – Bu haqda o‘yladinglarmi? Yo‘q, o‘ylamagansizlar. Xudbinlar. Xalq ter to‘kib ishlab yotibdi, sizlar bo‘lsa to‘y dardida... odamlarga ichkilikbozlik, havoyi ishlar uchun bahona topib beryapsizlar. Vijdonsizlar!

– Qanaqa to‘y?! – hayqirdi Gluxov. Otavina momo churq etmay turardi. – Imi-jimida o‘tkazardik, vassalom. Qanaqa to‘y?

– Xuddi... daydiga o‘xshaysan-a. Tuf-ey! Hayvon.

– Nima?! Bilasanmi, sen... – portladi chol. – Ho‘ o‘sha... – boloxonador qilib so‘kindi. Va eshikni qarsillatib yopgancha chiqib ketdi.

Izidan Otavina kampir ham chiqdi. Ustlaridan birov qaynoq suv to‘kkandek otilib chiqishdi. Ko‘chada bir-birlariga qiyo ham

boqmay, turli tarafga yugurishdi, holbuki muyulishgacha yo‘llari bir edi.

Gluxov chol qishloqni bir aylanib chiqib, uyiga qaytdi. Dam tupurar, dam so‘kinar, sira o‘ziga kelolmasdi... G‘azabi qaynaganidan «U qanjiqni yoqib yuboraman» deb ham o‘yladi hatto.

Yoqib yubormadi-yu, lekin Malishevanikidan qadamini uzdi. Ko‘chada duch kelib qolganida yuzini o‘girdi. Salomlashmadi.

Otavina momo shaharga – cherkovga gunohini yuvgani ketdi. U juda qattiq azob tortdi, Malishevadan o‘zini olib qochdi.

Malisheva bu g‘alati sovchilik mojarosi haqida qishloqda hech kimga og‘iz ochmadi. Gluxov ham, Otavina ham gap tarqatadi deb qo‘rqishgandi. Yo‘q, churq etmadi.

UMIDVOR DILLAR

Mixaylo Bespalov bir yarim hafta uyida bo‘lmadi: rayon ichkarisidagi olis qishloqlardan shaharga g‘alla tashib yurdi.

Shanba kuni kunbotarda keldi. Rulni aylantira-aylantira tortanqis darvozadan mashinani kiritib olgunicha motor shovqini iliq va og‘ir havoni larzaga solib turdi.

Hovliga kirgach motorni o‘chirdi va kapotni ochib, tagiga sho‘ng‘idi.

Uydan Mixayloning xotini, kulcha yuzli yoshgina juvon – Anna chiqdi. Zinada eriga qarab turdi-turdi va axiyri achchig‘i kelib:

– Jillaqursa so‘rashgani kirsang bo‘lardi, – dedi.

– Salom, Nyusya! – xush-xandon so‘rashdi Mixaylo va «Hamma narsani tushunaman-u, lekin hozir juda ham bandman-da» degan ma’noda oyoqlarini silkitib qo‘ydi.

Anna eshikni taraqlatib yopgancha uyga kirib ketdi.

Mixaylo yarim soatdan so‘ng kirdi.

Anna qo‘llarini baland ko‘ksi ustida chalishtirgan ko‘yi beri burchakda o‘tirardi. Ikki ko‘zi derazada. Eshik ochilganida ham pinagini buzmadi.

– Senga nima bo‘ldi? – so‘radi Mixaylo.

– Hech nima!

– Ranjiganga o‘xshaysan-ku?

– Nahotki! Mehnatkash xalqdan ranjib bo‘larkanmi? – yopishmagan piching va alam bilan e’tiroz qildi Anna.

Mixaylo o‘ng‘aysizlikdan turgan yerida andak depsinib qoldi. So‘ngra pechka yonidagi xarrakka o‘tirib, etigini yechdi. Anna unga ko‘z qirini tashladi-yu vahmi kelib oh urdi:

– Voy xudoyim-ey! Irkit bo‘lib ketibsan-ku!..

– Chang, – izoh berdi Mixaylo paytavalarini etik qo‘njiga tiqarkan.

Anna eriga baqamti keldi, uning manglayidagi to‘zg‘in sochlarini tuzatdi, soqoli olinmagan yuzlarini kaftlari orasiga oldi va yorilib ketgan, sho‘r, qattiq, mudom benzin va tamaki hidi anqiguvchi lablariga tashna va qaynoq lablarini bosdi...

– Xudoyim-ey, rang-ro‘yingga qarab bo‘lmaydi-ya! – ehtiros bilan pichirladi u erining yuziga yaqindan razm solib.

Mixaylo muloyim, mayin vujudni og‘ushiga tortdi va baxtiyorlikdan do‘rilladi:

– Hamma yog‘ingni kir qilaman-ku, tentak qiz!..

– Kir qilaqol... hech nimani o‘ylama! Qaniydi, tez-tez kir qilib tursang!

– Sog‘indingmi?

– Sog‘indingmi deydi-ya! Bir oy qorangni ko‘rsatmaysan-u...

– Qanaqasiga bir oy bo‘lsin? Seni qara-yu... puchuq!

– Qo‘yvor meni, hammomdan xabar olishim kerak. Sen ham shaylan. Ichki ko‘ylak-ishtoning anavi qutida.

U ketdi. Mixaylo bezillab qolgan oyoqlarini yaqindagina artilgan taxta pol ustiga qo‘ydi va bitta-bitta bosib dahlizga o‘tdi, burchakka qalashtirib tashlangan eski qulflar-u g‘altaklar, anvoyi temir-tersak orasida xo‘p kuymalanib nimanidir qidirdi. So‘ngra eshik oldiga chiqib, xotinini chaqirdi:

– An! Karburatorga ko‘zing tushmadimi?

– Qanaqa karburator?

– Qanaqa bo‘lardi... trubkachalari bor bir narsa-da!

– Hech qanaqa karburator ko‘rganim yo‘q! Boshladi tag‘in...

Mixaylo kafti bilan yuzlarini ishqaladi, mashinasiga picha qarab turdi, keyin uyga qaytib kirdi. Pechka tagini ham kavlashtirgach, karavot tagiga mo‘raladi... Karburator hech qayerda yo‘q edi.

Anna keldi.

– Tayyor bo‘ldingmi?

– Bilasanmi... bir nimam yo‘qolganga o‘xshaydi, – kuyunib dedi Mixaylo. – Qayerga daf bo‘ldi ekan, la’nati?

– Sho‘rim qursin! – qirmizi lablarini tishladi Anna. Ko‘zlarida tip-tiniq yosh tomchilari yiltiradi. – Zig‘irdek vijdoni yo‘q buning! Uyingda bek bo‘lib o‘tirsang nima bo‘lardi-ya! Ozib-yozib bir kelasan-u, shundayam o‘zingdan ortmaysan...

Mixaylo zipillab xotinining yoniga keldi.

– Nima qil deysan, Nyusya?

– O‘tir bundoq! – Anna ko‘z yoshlarini sidirib tashladi.

O‘tirdilar.

– Vasilisa Kaluginaning duxobadan tikilgan nimpaltosi bor... biram yaxshiki! Ko‘rgandirsan, u har yakshanba bozorga kiyib boradiku?

Mixaylo har ehtimolga qarshi:

– Ha-da! Haligi... allambalo matah edi... – deb qo‘ydi va Vasilisaning paltosini tasvirlab bermoqchi bo‘ldi-yu, lekin hadeb lapanglab, qaytaga Vasilisaning qandoq yurishini ko‘rsatib berdi. U shu tobda xotinining ko‘nglini ovlashni juda xohlardi.

– Xullas, Vasilisa o‘sha kalta paltosini sotmoqchi. To‘rt yuz so‘rayapti.

– Xo‘p... – Mixaylo bu arzon yoki qimmatligini bilmasdi.

– Shunga o‘ylab qoldim, olsammikan, a? Qishga dovur pul yig‘sak, senga ham palto olardik. O‘sha paltoga rosa ko‘nglim sust ketyapti-da, Misha. Tunov kuni kiyib ko‘ruvdim, loppa-loyiq ekan!

Mixaylo o‘ng qo‘li bilan qavariq ko‘kragini qashladi.

– Olish kerak o‘sha nimpaltoni. Nimasini o‘ylaysan?

– Oshiqma! Peshonangda soch siyrak tortibdi... Pulimiz yo‘qku, baribir. Bilasanmi, nimani o‘ylab qo‘ydim, bitta sovliqni sotsak qalay bo‘larkin? O‘rniga qo‘zi olib qo‘yardik...

– To‘ppa-to‘g‘ri! – xitob qildi Mixaylo.

– Nima to‘g‘ri?

– Sovliqni sotish kerak.

– Senga qolsa hamma narsani sotasan! – Anna aftini bujmaytirdi.

Mixaylo gangib qoldi, mehribon ko‘zlarini pirpiratdi.

– O‘zi aytib, o‘zi qaytadi-ya...

– Men aytsam, sen qaytargin-da, axir. Sotaylik desam rozi bo‘laverasanmi? Bunaqada bor bisotimizni pullab yuboramiz-ku!

Mixaylo xotiniga oshkora maftun bo‘ldi.

– Aylanay sendan... Xo‘pam aqling bor-da!

Anna maqtovdan iyib ketdi, lekin zaharligini qo‘ymay:

– Endi payqadilar to‘ram... – deb achitib oldi.

* * *

Hammomdan kech qaytishdi. Qorong‘i tushib bo‘lgan edi.

Mixaylo orqaroqda qolib ketdi. Anna zinaga yetgan chog‘ kabina eshigi g‘iyqillab ochilganini eshitdi.

– Misha!

– Hov! Hozir, Nyusya, radiatorning suvini to‘kib tashlasam bas.

– Top-toza ustingni bulg‘aysan tag‘in!

Mixaylo javob bermay, gayka buragichlarni shiqirlatib kavlashtirdi.

– Misha!

– Bir daqiqa, xotinjon.

– Ust-boshing kir bo‘ladi axir!

– Kiyimimni tekkizganim yo‘q, xotirjam bo‘l.

Anna eshik zanjirini zulfindan yechdi va erini kutib, zinapoyada turib qoldi.

Mixaylo qorong‘ida oq ishtoni lip-lip etib, mashina atrofida girdikapalak bo‘ldi, axiyri yengil tin olib, gayka buragichni bir chekkaga qo‘ydi-yu uyga qarab ildamladi.

– Bitirdingmi?

– Karburatorni bir ko‘rish kerak edi-da. Taraq-turuq qilyapti negadir.

– O‘shaning bilan og‘iz-burun o‘pishmaysanmi mabodo? Kuyovligingda menga bunchalik parvona bo‘lmagansan, la’nati mashinangni namuncha papalaysan axir! – jahl qildi Anna.

– Topgan gapingni... Mashina nima qildi senga?

– Hech nima. Temir-tersaklaring dastidan kun ko‘rmayapman.

Uy ichi saranjom-sarishta, issiqqina edi. O‘choqboshida samovar biqirlardi.

Mixaylo karavotga omonat cho‘zildi. Anna dasturxon tuzay boshladi.

Ayol yelib-yugurib talay kuvacha-yu dekchalarni stol ustiga tashir ekan, erini so‘nggi yangiliklardan voqif qilardi:

– ...Endigina magazinni yopmoqchi bo‘lib turgan ekan. U esa, atay poylab turganmi, qo‘qqisdan bosibdi! «Salom, men revizorman», debdi...

– Iya! Xo‘sh, keyin-chi? – Mixaylo astoydil quloq sola boshladi.

– Avvaliga xo‘p xushomad qilgan, dumini tutqizmagan. Sichqon bo‘lsa ekanki, duch kelgan kavakka urib ketsa. O‘zini kasalga solsayam bo‘lmabdi...

– Revizor-chi?

– Revizor mahkam turib olibdi: «Magazinni taftish qilamiz», debdi. Ko‘zi pishgan tullak xodim ekan.

– Ana. Rosa odamiga yo‘liqibdi-yu, azamat?

– Kechasi bilan tekshirishibdi. Ertalab esa bizning Ganya magazindan to‘g‘ri avaxtaga ravona bo‘ldi.

– Qanchaga kesishdi?

– Sud qilishmadi hali. Seshanba kuni sud bo‘ladi. Odamlar uning qo‘li egriligini anchadan beri sezib yurishardi. Zoyasi oxirgi paytlar kuniga kamida ikki marta yasan-tusan qiladigan bo‘luvdi. Qaysi ko‘ylagini kiyishni bilmasdi. Bitib ketishgandi-da o‘ziyam! Hozir esa «Erimni bekorga qamashdi, xatolik bo‘ldi», deb nolib yuribdi. Xatolik emish! Revizor xato qilarkanmi?

Mixaylo o‘ychan tortib qoldi.

Tashqari birmuncha yorishdi, oy chiqqan edi. Qishloqning narigi tarafidan garmon tovushi quloqqa chalindi.

– O‘tir, Misha.

Mixaylo chekib turgan papirosini bosib o‘chirgach, karavotni g‘ijirlatib turdi.

– Uyda bironta eski adyol topiladimi? – so‘radi u.

– Nima qilasan?

– Kuzovga to‘shamoqchiydim. Don ko‘p to‘kilyapti.

– Ularing nima, bo‘yradekkina kigiz topib berisholmaydimi?

– Qiyomatda insof kiradi ularga. Va’da qilishadi-yu hech vaqo yo‘q.

– Ertaga biron nima toparmiz...

Shoshilmay, uzoq ovqatlanishdi.

Anna yerto‘laga zing‘illab tushib, yog‘log‘ida asal solingan aroqdan keltirdi.

– Manavini tatib ko‘r-chi.

Mixaylo yog‘log‘ini bir ko‘tarishda bo‘shatdi, og‘zini artdi va shundan so‘nggina nafas chiqardi:

– O‘h... zo‘r bo‘pti!

– Bayramga dovur toza yetiladi. Endi ovqatingni ye. Burning so‘ppayib qolibdi. O‘zingni o‘tgayam, cho‘qqayam uraverishing chakki-da, Misha. Bu ishing yaramaydi. Boshqalarni qaragin, semirib yurishibdi, boqilgan ho‘kizdek! Senga esa qaragan sayin vahmim keladi.

– Hechqisi yo‘q, – do‘rilladi Mixaylo. – O‘zingni ishlaring qalay?

– Qora bug‘doyni yanchayapmiz. Shunaqa changki!.. Qaymoq solib pishirilgan quymoqdan ol. Yangi bug‘doy unidan. G‘allaning

yili kelganmi deyman, Misha! Shunaqa mo‘l bo‘lganki. Buncha hosilni nima qilisharkin?

– Kerak bo‘ladi. Shunday katta mamlakatni boqish osonmi, bu, bilasanmi... yer yuzining oltidan biri degani.

– Ol, ye! Sening ovqat yeyishingni tomosha qilishni yaxshi ko‘raman. Ba’zan, qarab turib ko‘zim yoshlanadi nimagadir.

Mixaylo qip-qizarib ketdi, ko‘zlari erkalagansimon, sho‘xchan boqdi. Nigohidan, xotiniga shirin-shirin gaplar aytgisi bor, lekin nima deyishni bilmasdi.

Allamahalda uyquga yotishdi.

Oy shu’lasi deraza oynalarini kumush tusga solgandi. Deraza aksi polga charog‘on kvadrat bo‘lib tushgan, uning ichida soyalarning qora to‘ri g‘imirlardi.

Garmon tovushi o‘chdi. Endi yiroqlarda, qirda yolg‘iz traktor bir maromda tarillardi xolos.

– Kechaning go‘zalligini qara-ya! – zavqlanib pichirladi Mixaylo.

Mudrab yotgan Anna qimirladi.

– A?

– Tunni aytaman...

– Yaxshimi?

– Ertak-ku xuddi.

– Sahar vaqti deraza tagida allaqanday qush sayraydi, – uyqu aralash g‘o‘ng‘illadi Anna erining pinjiga suqilarkan. – Eshitsang maza qilasan...

– Bulbulmi?

– Bu paytda bulbul nima qilsin?

– Ha-ya, rost...

Jimib qolishdi. Uzzukun don sovuradigan mashinani aylantirib charchagan Anna bir zumda uyquga ketdi.

Mixaylo yana birpas yotdi, so‘ngra qo‘lini Annaning bo‘yni tagidan ohista sug‘urib, o‘rnidan turdi va oyoq uchida yurgancha uydan chiqdi.

Yarim soatlardan keyin Anna paypaslab yonida erini topolmagach, derazadan boqib uni mashinasi yonida ko‘rdi. Mixayloning oppoq ichki ishtoni oy yorug‘ida benihoya tovlanardi. U zo‘r berib karburatorni puflardi.

Anna past ovozda chaqirdi.

Mixaylo cho‘chib tushdi, karburator qismlarini zina ustida qoldirib, pildiragancha uyga yugurdi. Jimgina ko‘rpa tagiga kirdi.

Anna uning biqiniga qulayroq o‘rnasharkan, dakki berdi:

– Bir kechaga kelding-u shundayam dumingni xoda qilasan-a! Axiyri yoqib yuboraman-da o‘sha mashinangni. Shoshmay tursin!

Mixaylo xotinini yelkasiga shapatilab erkalatdi, yupatdi o‘zicha. Annaning ginasi tarqagach, unga o‘girildi va pichirlab dedi:

– Bilasanmi, nima bo‘libdi, jiklyorga jimitdaygina, bir tutam paxta tiqilib qolgan ekan. Jiklyor esa shunaqa ingichka narsa bo‘ladiki... igna suqsang kirmaydi.

– Tozalab oldingmi axir?

– Albatta.

– Tag‘in benzin hidi kelyapti sendan! Puf... Buncha sassiq!..

Mixaylo qattiq xaxolab kuldi, lekin darrov jim bo‘ldi.

Anchaga dovur jim yotdilar. Anna yana chuqur va tekis nafas ola boshladi.

Mixaylo ehtiyotkorlik bilan yo‘talib qo‘ydi, xotinining nafas olishiga quloq tutdi va qo‘lini tortib olmoqqa tutindi.

– Yanami? – so‘radi Anna.

– Chanqadim.

– Dahlizdagi mo‘ndida kvas bor. Keyin qopqog‘ini yopib qo‘y.

Mixaylo allaqancha tog‘orachalar-u bochkachalar orasida xiyla kuymalandi, nihoyat mo‘ndini topdi va cho‘k tushdi-yu idishga og‘zini qo‘ygancha muzdekkina, nordonroq kvasdan simirdi.

– O‘h! Jonim kirdi-e! Sengayam olib boraymi?

– Yo‘q, ichmayman.

Mixaylo pishqirgancha lab-lunjini artdi, dahliz eshigini lang ochdi...

Tun rostdan ham ajoyib edi – sokin, yorug‘... Osmonning allaqayerida oy nuridan shaffoflangan pardek bulutcha suzib yurardi.

Mixaylo yovshan hidiga to‘yingan sarrin havodan ko‘ksini to‘ldirib simirgach:

– Qara-ya, qandoq kecha!.. Oromijon!.. – deb qo‘ydi...

YASHASH UCHUN QISHLOQ TANLAYAPMAN

Nikolay Grigoryevich Kuzovnikov ismli bir kishi risoladagidek va durust hayot kechirardi. Qachonlardir, o‘ttizinchi yillarning boshlarida xalqlarni harakatga keltirib to‘zg‘itib yuborgan buyuk kuch uni ham qishloqdan olib chiqib ketgandi. U shaharda avvaliga rosa siqilib zerikdi, keyin uzoq mulohazalardan so‘ng shuni anglab yetdiki, agar birozgina uddaburon, ayyor va eng muhimi, sovuqqon bo‘lsa, butun umr qora mehnat ostida ezilib ishlashi shart emas, yashashning oson yo‘llari ham bor. Shu bois, u omborxona ishini tanladi va butun umri omborxonachilik bilan o‘tdi, hatto urush yillarida ham. Shu tariqa, u ulkan shaharda, binoyiday uyda umrguzaronlik qildi (bolalaridan alohida, ular ulg‘ayib odamlar qatoriga qo‘shilib ketgan), keksaydi va endilikda nafaqaga hozirlik ko‘rardi. U ishlagan omborxonalarida o‘g‘rilik qilganmidi? Qanday tushuntirsak ekan... Huquqshunoslik bo‘yicha oliy ma’lumotga ega qandaydir mishiqi nuqtai nazaridan olib qaralsa – ha, o‘g‘rilagandi, ammo mulohazali, aqli raso inson qarashlaridan kelib chiqilsa – bu o‘g‘rilik emasdi: u faqat kam-ko‘stini butlash, ehtiyojini qondirish uchungina olardi, xolos. Qolaversa, u ishlagan yillarga ko‘z tashlab faoliyati davomida qanchadan-qancha ezgu va xayrli ishlarni amalga oshirganini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘g‘rilik qildi, deyish ham kulgili eshitiladi. Shuyam o‘g‘rilik bo‘ptimi! To‘g‘ri, u o‘margan, lekin hech qachon haddidan oshmagan, hech qachon boshqalardan ko‘ra yaxshi yashayotganini bildirmagan. Shuning uchun, o‘sha oliy ma’lumotli huquqshunoslarning hech biri uni biror marta ham qo‘lga tushirolmagan. Nikolay Grigoryevich vijdoni bilan murosa qila olardi: ya’ni vijdoni uni ko‘pam bezovta qilmasdi. Yo‘q, uni butkul insofsiz ham deb bo‘lmasdi, shunchaki, u tabiatan shunday edi: qolaversa, bu yerda vijdonning nima aloqasi

bor?! Faqat barchasini tartib bilan bajarish kerak: jinnilik qilma, ziqna va ahmoq bo‘lma, vijdon esa – u... bilasizmi... Agar qora kuningga asrab qo‘yganing bo‘lsa, u holda insof va vijdon haqida gapirish mumkin. Har holda, hamma ishlaringni taroziga solib, obdan tekshirib, puxta o‘ylab, oxirigacha yetkazib qo‘ygan bo‘lsanggina tinch uxlaysan – vijdon degan tuyg‘u shunda boshqalarni bezovta qilib, qiynayversin. Och qoringa safsata sotish – bu, bilasizmi, judayam oqilona ish emas.

Sirtdan qaraganda, hammasi yaxshi va ko‘ngildagidek ko‘rinardi. Nikolay Grigoryevich o‘z hayot yo‘lida ko‘p sinovlarni boshdan kechirdi. Goho xayol surib qolarkan, o‘ziga o‘zi shunday derdi: «Qoyil, yashavor: qamoqqa tushmading, urushdan omon chiqding».

Lekin Nikolay Grigoryevichning tabiatida g‘alati bir odat bor ediki, har qancha urinmasin, uni hatto o‘zi ham hech tushunib yetmasdi. Zotan, u bunga urinmas, bu haqda bosh ham qotirmas, shunchaki bu injiqlikka (rostdan ham bu injiqlikmi yoki boshqamidi) hayotida ko‘p narsalarga bo‘yin eggani kabi, jimgina bo‘ysunardi.

Xullas, so‘nggi besh-olti yil ichida u shunday odat chiqargandi.

Shanba kunlari, ish vaqti tugaganidan so‘ng, issiqqina uyida xotini kutib o‘tirganidan xotirjam, hamma ishlari joyida, ko‘ngli ham osoyishta ekan, odatda, u bir stakan aroq ichib, tramvayda vokzalga qarab yo‘l olardi. Shahardagi vokzal juda katta, doimo odamlarga to‘la bo‘lardi. U yerdagi hojatxonaning oldida kashandalar joyi bor edi. Bu yer har doim – erta-yu kech gavjum bo‘lar, shovqin-suron va g‘ala-g‘ovur quloqlarni batang qilardi. Nikolay Grigoryevich to‘ppa-to‘g‘ri o‘sha erga qarab yurdi.

– Birodarlar, – xitob qildi u hammani o‘ziga qaratib, – bu yerda qishloqdan kimdir bormi?

Bundaylar har doim ko‘p bo‘lardi. Shu sabab, suhbatlar ham asosan qishloqchasiga kechardi.

– Xo‘sh?.. – deyishdi unga. – Bo‘lsa-chi, senga nima?

– Yashash uchun qishloqqa bormoqchiman. Hech kimning xabari yo‘qmi, qayerdadir tajribali omborxona xodimlari kerakmasmikin? Men o‘ttiz to‘rt yil shu sohada ishladim... – shunday deya Nikolay Grigoryevich o‘zi ham qishloqdan ekanligi, ancha yillar oldin u yerni tark etib, butun umr omborxonalarda ishlagani-yu va mana endi keksalik ostonasida ko‘ngli yana qishloqni qumsayotgani ha-

qida batafsil, zavq bilan gapirib berdi. Uning so‘zlari juda ishonarli va samimiy edi... Shundan so‘ng boshlandi. Yig‘ilganlar uning sog‘inchini juda yaxshi tushunishlari, shaharda har qancha sandiroqlamasin, agar odam qishloqdan bo‘lsa, ertami-kechmi, qishloq baribir uni o‘z bag‘riga tortishi haqidagi fikriga qo‘shilishdi. Xullas, tanlov uchun qishloqlarni taklif qila boshlashdi. Nikolay Grigoryevich manzillarni yozib olishga zo‘rg‘a ulgurarkan, yana shovqin-suron, bahs boshlanib ketdi.

– He, sen o‘sha Vyazovkang bilan jonga tegding!..

– Sen uni bilasanmi o‘zi? Nega qo‘lingni siltalaysan?! U yerda biror marta bo‘lganmisan?

– Vyazovkadami? Ha, men o‘sha Vyazovkangizni besh qo‘limdek yaxshi bilaman! Yo Xudo, Vyazovka!.. Odam qariganda, imkon qadar, tabiati...

– Tabiatning nima aloqasi bor? – bahsga aralashdi boshqalar. – Tabiatmas, ish joyidan kelib chiqish kerak. Men sizning Vyazovkangizni bilmayman. Xo‘sh, u yerda omborxona bormi? Axir, bu odam joyni, eng avvalo, ishidan kelib chiqib so‘rayapti-ku.

– Yo‘q, – dedi Nikolay Grigoryevich, – albatta, har holda, tabiatiyam...

– Ha, barakalla! Omborxona nima degan gap?! Oddiy bir omborxona-da. Uni hozir hamma joyda topish mumkin. Mana, masalan...

– He, bahslaringdan o‘rgildim, – suhbatga aralashdi ovoziga vazminlik berib, sipo ko‘rinishga urinayotgan bir kishi, – nuqul baqir-chaqir. Xo‘sh, omborxona – to‘g‘ri, u hozir istalgan yerda bor, masalan, yashash sharoiti masalasi-chi? Ana, bizda – ombor ham, daryo ham, ko‘l ham bor, lekin qurilish qilish osonmas, narxi otning kallasidek.

– Xo‘sh, qancha ekan? – hushyor tortib qiziqsindi Nikolay Grigoryevich.

– Sharoitiga qarab.

– Xo‘sh, masalan, bir uy-bir dahliz... Arzonroqmi?

– Barcha qurilishlari bilanmi?

– Ha, albatta, hammom, o‘tinxona... Yana, birorta shiyponi, qayig‘iyam bo‘lsa – bo‘sh vaqtlarimda sayr qilishni yoqtiraman.

– Demak, yaxshigina bir uy-bir dahliz, – o‘zicha hisob-kitob qila boshladi sipo kishi, – mo‘rcha...

– Xaroba emas, risoladagidek hammom, albatta.

– Risoladagidek hammom, daraxt to‘sinidan ombor... biz taraflarda, odatda, barcha omborlar daraxt to‘sinidan tiklanadi.

– Qishloqda arralash dastgohi bormi?

– Qishloqning o‘zida emas-u, sal chetroqda.

– Xo‘sh, xo‘sh?

– Tabiiyki, kattagina tomorqasiyam bor...

– Kampirim bilan menga endi katta tomorqaning zarurati yo‘q.

– Endi, juda kattamas-u, o‘rtacha. Hozir katta tomorqalarning o‘zi yo‘q. Xo‘sh, nafsilamrini aytganda, narxi taxminan – uch yoki uch yarim.

– Mingmi?! – dedi kimdir hayratga tushib.

– Yo‘q, rublda, – to‘ng‘illadi sipo kishi.

– Ha, olib qoch-a. Bunday narx bo‘lishi mumkinmas, – e’tiroz bildirdi ko‘pchilik.

Sipolik shu yerga kelganda nihoyasiga etdi.

– Sizlarni aldab menga zaril keptimi?! Yoki men o‘z uyimni sotuvga qo‘yyapmanmi? Bor gapni aytyapman. Manavi odam so‘ragani uchun...

– Bo‘lmasa, nega unday? Axir, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan narx-da. Qanday qishloq o‘zi u?

– Oddiy bir qishloq.

– Bo‘lmasa, nega bunchalik narxi osmon? Yoki aqldan ozganmisizlar?

– Bizni-ku, aqlimiz joyida, ammo eshitishimcha, o‘zi bilganicha, isrofgarchilik bilan qurilish qilayotganlar bor. O‘shalar esdan og‘ishgan. Endi bunisini o‘zim ham uncha yaxshi tushunmayman...

– Buni men ham eshitgandim. Aytishlaricha, uch yuz rublga yaxshi uy olish mumkinmish.

– Ehtimol, uch yuzga balki bordir, balki yo‘qdir...

– Qishlog‘ing qanday ataladi? – so‘radi Nikolay Grigoryevich bularni yozib olarkan.

– Zavalixa. Qishloqmas, ovul.

– Qayerda joylashgan?

– Mana, agar hozir manavi yo‘ldan yuriladigan bo‘lsa... – sipo kishi ovuli qayerda joylashgani-yu, unga qanday borilishini batafsil tushuntirdi.

– Tuman markazimi?

– Ilgari tuman markazi edi. Keyinchalik tumanlarni kengaytirish boshlanganda, biz Krasnogorsk tumanidan uzoqlashib ketdik va markaziy qo‘rg‘on bizda qolib ketdi.

– Har holda, yuk tushirib ortadigan bazaling bo‘lsa kerak? – savolda davom etdi Nikolay Grigoryevich.

Sipo kishi ovuli haqida erinmasdan, atroflicha gapirib berdi. U hatto qarshisidagi odam boshqa qishloq va ovullar qolib uning ovuliga qiziqayotganidan xursand ko‘rinardi. Atrofdagilar esa ularni g‘ashlanib, go‘yoki rashki kelgandek kuzatishardi. Shu bois, maroqli suhbatning beliga tepishga bahona topishdi.

– Baribir, nega sizlarda narx-navo bunchalik-a?! Yaqin atrofda o‘rmon ham bo‘lmasa kerag-ov?

– Xo‘sh, bo‘lmasa, sizlarda qanday? – dedi asabiylashib qimmat ovuldan kelgan kishi. – Qani, ayt-chi, sizlarda yaxshigina bir uy-bir dahliz qancha turadi? Faqat rostini ayt, yolg‘on gapirma!

– Aldab nima qilaman? Yaxshigina bir uy-bir dahliz bizda... demak, qo‘shimcha qurilishlari, tomorqasi, hammasi bo‘lib – bir yarim, ikki ming.

– Qayerda u? – ovoz kelgan tomonga o‘girildi Nikolay Grigoryevich.

Shundan so‘ng bunisi ham alohida zavq bilan o‘z ovuli, undagi daryoning nima deb nomlanishi, nega u yerda go‘sht mahsuloti kuzda... kabi ikir-chikirlargacha erinmay, uzoq tushuntira ketdi.

– Bojam kelgandi... aynan kuz faslida... O‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. «Ha-a, – dedi, – sizlarda yashasa bo‘larkan! Eh, – dedi ўana xo‘rsinib, – sen bizning maskanga bir bora bosh suqib ko‘rganingdaydi».

– Uning o‘zi qayerdan?

– Ural ortidan... Zlatoust shahridan.

– Nega endi shaharingni tiqishtirasan? Biz bu yerda qishloq hayoti haqida gaplashyapmiz-ku.

– U ham aynan shahardanmas, shaharga yaqin joydan.

– Allaqayerlardagi joylarni aytishning nima keragi bor, bu odam o‘z yerimizga qiziqayotgan bo‘lsa! Masalan, men ham aytishim mukin edi: mening ham bojam Magadanda...

– E, onasini emsin! Balki Amerikadayam, dersan.

– Amerikaning nima daxli bor?

– Unda Magadanning nima aloqasi bor?

– Aloqasi shundaki, gap qishloqlar haqida ketayotgandi, sen esa yo‘q joydan Zlatoustni tiqishtirding! Nega endi Zlatoustga yopishib olding?!

– Bo‘ldi, bo‘ldi, – tinchlantirishga urindi Nikolay Grigoryevich qiziqqon qishloqliklarni. Ajablanarlisi, u o‘zini go‘yo bir to‘da mardikorlarga ish taqsimlayotgan xo‘jayindek tutardi. – Tinchlaninglar, birodarlar, axir, biz bozordamasmiz-ku. Meni hozir boshqa narsa qiziqtiryapti: masalan, sening ovuling dengiz sathidan qancha balandlikda joylashgan? – dedi Nikolay Grigoryevich, bizning ovulda uylar arzonroq, degan kishiga yuzlanib.

Albatta, u buni bilmasdi. Tabiiyki, bu yerdagilarning birortasi ham o‘zlarining ovuli dengiz sathidan necha metr balandlikda ekanini bilmasdi.

– Bu nimaga kerak?

– Juda kerak, – tushuntira boshladi Nikolay Grigoryevich. – Yurak-qon tomir tizimi uchun muhim. Agar yer balandroqda bo‘lsayam, to‘g‘ri kelmaydi: kislorod yetishmovchiligi kuzatiladi.

– Bunga ahamiyat bermagan ekanmiz, – tan olishdi to‘planganlar.

Ha, Nikolay Grigoryevich o‘zini ko‘rsatishni bilar va shunga urinar edi. Qurilishlar, oziq-ovqat narxlari, qishloqlarda daryo yoki ko‘llarning bor-yo‘qligi, o‘rmonning uzoq yoki yaqindaligi haqidagi gap-so‘zlardan so‘ng suhbat qishloq odamlariga ko‘chdi: shundan keyin qaysi qishloqda odamlar xushmuomala, ochiqyuz ekani, o‘g‘ri va qasamxo‘r emasligi xususidagi bahslar boshlandi. Shunda to‘planganlar asta-sekin bir-birlarini aldashga tushdilar. O‘z qishlog‘i odamlarini maqtay boshlagan kishining yonida turgan boshqasi ham, tabiiyki, undan qolishmaslikka harakat qilardi.

– Bizda-chi... e’tibor beringlar: bizda biror juvon suvga chiqadigan bo‘lsa, hech qachon uyiga qulf solmaydi – nega deb o‘ylaysizlar? Eshik zulfiniga cho‘p tiqib qo‘ysa, bas: o‘sha uyga hech kim kirmaydi. To‘g‘ri, lo‘lilar bizdayam bor, hatto juda ko‘p, lekin ular ham shunday uyga yaqin yo‘lashmaydi: chunki biz ularniyam shunga o‘rgatganmiz.

– Shuyam gap bo‘ldi-yu!.. Bilasizlarmi, bizda bir o‘g‘ri bor...

– O‘g‘ri?!

– O‘g‘ri! Biz uning o‘g‘riligini, buning uchun besh marta o‘tirib chiqqaniniyam bilamiz. Qishlog‘imizda xizmat ko‘rsatgan bir keksa o‘qituvchi yashaydi, ordenlariyam bor... Xullas, o‘sha o‘g‘ri mualli-

maning yoniga kelib shunday degan: «Uyingda ikki hafta yashashga ruxsat ber». Bir paytlar uning qo‘lida o‘qigan ham... birinchi sinfdamikin. O‘zi mehribonlik uyidan chiqqan, muallimayam o‘sha yerda ishlagandi, chamasi. Ha, shunday. Xullas, «Uyingdan joy ber, – degan. – Navbatdagi manzilimni aniqlashtirib olguncha ikki haftagina yashasam bas».

– Uyiga kirgizdimi?

– Kirgizdi! Tamom, endi uyini o‘marib, ship-shiydam qilib ketadi, deb o‘ylagandik!.. Kampirga hatto juda achingandik ham.

– Gap shundaki, ularning o‘z qonuni bor: yashagan joyingda o‘g‘rilik qilma!

– Ha, ha.

– O‘marmadimi?

– Yo‘q! Aslo! Cho‘pigayam tegmagan. So‘zida turdi.

– Ha, qani, bu temir qonunni buzib ko‘r-chi. Mabodo, agar o‘g‘irlaganida, biror narsasini olganida bormi... bu ishi uchun...

– Hech narsaga tegmagan!

– Baribir, bunga ishonish qiyin... Tupuradilar ular bunday qonunlarga! Qonunmish. O‘tgan yili mening bir g‘aram pichanimni o‘marib ketishdi, iblislar.

– E-e, qo‘ysang-chi! Buni o‘zimiznikilardan kimdir qilgan. Haqiqiy o‘g‘ri sening pichaningni boshiga uradimi?

Miriqib kulishdilar. Boshqa voqealar ham yodga olindi... Shu asno ketini ketiga ulab chekdilar. Chekilaverib ko‘zlar ham yoshlanib ketdi. Baqt esa, har tugul, o‘tib borardi: ko‘z ochib yumguncha bir soatning o‘tib ketgani sezilmay qolardi. Axir, vokzalda vaqtni o‘ldirish – bu odamni ziq qilib yuboradigan jarayonlardan biri.

– Bir kuni tumandan chiqib ketayotgandim, – deya gapga aralashdi lahzalik sukutdan chaqqonlik bilan foydalanib bir kishi. – Qarasam, yo‘l chetida bir kampirsho turibdi... shu, chamasi, saksonsakson besh yoshlarda. Qo‘lini ko‘tardi, to‘xtadim. «Qizilgacha, o‘g‘lim». Qizilgacha oltmish besh kilometr. «Yo‘lkira uchun, – deb so‘radim, – biror narsangiz bormi?» – «Bor, chirog‘im, bor». Xullas, yo‘lga tushdik... – so‘zlovchining ko‘zlari hikoyasining eng qiziq nuqtasiga yaqinlashganidan charaqlab ketdi. – Qizilga yetib keldik. «Bo‘ldi, – dedim, – onaxon, manzilga yetib keldik. Endi to‘lang». U sumkasini uzoq vaqt timirskilab... besh dona tuxum chiqarib bersa bo‘ladimi!

Yana kulgi ko‘tarildi. Hikoyanavis mamnun jilmaydi.

– «Ilgarilari, – deydi, – olishardi. Biz, – deydi yana, – har doim tuxum bilan to‘laganmiz». – «Mayli, – dedim, – ketavering, onaxon...»

Hikoyanavis kampirga qarata: «Ketavering, – dedim, – onaxon, ketavering. Sizdan nima ham olardim, ketavering», deya aytgan gaplarini qayta-qayta takrorladi. Garchi u atrofidagilar e’tiborini qozonish, ularning labida tabassum uyg‘otish uchun gapirayotgan bo‘lsa-da, lekin hikoyasidan mehribon inson ekani ko‘rinib turardi. Umuman, bu yerda to‘planganlar orasida, qishloq va ovullarda yaxshi, sodda, ayyorlikni bilmaydigan, ko‘nglida kiri yo‘q insonlar juda ko‘p, hatto ularning bari shunday kishilar desa ham bo‘ladi. Chunki toza qalblik ularning tabiatida bor. To‘g‘ri, bitta-yarimta buzg‘unchi, yovuz yoki xasisrog‘i ham uchrab qolishi mumkin. Ammo ularga ko‘p ham e’tibor qilish kerak emas. Shunchaki ular esi past tentaklardir.

Nikolay Grigoryevich ham endi hech narsalarni yozmas, kim gapirsa, boshini o‘sha tarafga burib, faqat maroq bilan tinglar, atrofdagilarga qo‘shilib miriqib kulardi... Uning astoydil quloq tutishi va samimiy kulgisidan ilhomlanib, to‘planganlar yanada zavq bilan samimiy va beg‘araz kulgiga yo‘g‘rilgan hikoyalarni so‘zlashdan charchashmasdi. To‘g‘ri, ba’zan allakim qitmirlik qilishga yoki yolg‘on aralashtirishga urinib ko‘rar, ammo hech kim bunga ortiqcha e’tibor qilmas, davraning beg‘ubor ruhi bularning barchasini bosib ketar edi. Chunki ezgulik hamisha yomonlikdan ustun kelganini bu yerdagilarning hammasi yaxshi bilardi.

– Qaysi bir kuni qarasam, pivo sotishayotgan ekan. Navbatim yetgach, sotuvchi ayol mengayam quya boshladi. Quyishga quydiyu, lekin to‘ldirmadi... Boshqalargayam shunday qildi. O‘ylab qoldim: «Agar shu ishni bizda qilganida rahmat eshitmagan bo‘lardi».

Hamma bu fikrni qo‘llab-quvvatladi – albatta! Odamlar ko‘p, ular mudom shoshilishadi, bundaylar esa shundan foydalanib qolishga harakat qilishadi, uyatsizlar! Lekin masalaga boshqa tarafdan qaralsa – xo‘sh, sotuvchi arzimas chaqalik pivo urib qoldi. Axir, uning ham oilasi bordir. Qolaversa, sen ham o‘sha zormandani bir-ikki qultum kam ichganining uchun o‘lib qolmagandirsan...

Ha, qishloqliklarning nazdida shahardagi bunday hodisalar surbetlikning o‘zginasi. Yana nima deyish mumkin... buni tushun-

tirib ham bo‘lmaydi. Umuman, shaharliklarni tushunib bo‘lmaydi. Huda-behuda bir-birlariga baqirishadi, yomonlik qilishadi, pand berishadi. Mana, masalan, o‘sha sotuvchi ayol yoki umuman, istalgan shaharlikdan biror narsa so‘rab qolgudek bo‘lsang, senga yeb qo‘ygudek o‘qrayib tikilib, shunday bobillab beradiki, qochgani joy topolmay qolasan. Bu borada hammaning fikri bir, yakdil edi... Nikolay Grigoryevich ham ko‘pchilik qatori shu kabi shahar injiqliklarini hazm qilolmasdi. Shu bois qishloqlik bir erkakni hojatxona devoriga qisib olgancha bo‘g‘ilib so‘zlay ketdi:

– Mana shuning uchun ham bu yerlardan bosh olib ketgim kelayotganini endi tushungandirsan!.. Ortiq bardoshim yetmaydi. Bu yerda meni yomon yashaydi deb o‘ylaysanmi?! Ko‘pchilik orzu qiladigan ro‘zg‘orim, hayotim bor! Ikki xonali uyim bor, faqat kampirim bilan men yashaymiz... Ammo boshqa chidolmayman! Bunday hayot yuragimni ezib qon qildi!.. – Nikolay Grigoryevich qarshisidagi odamga baqirgudek so‘zlarkan, tinimsiz o‘z ko‘ksiga mushtlar, yig‘lab yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib turardi. Lekin ajablanarlisi shundaki, u shahar hayotini so‘kib qanchalik ayyuhannos solmasin, unga ham bu yerning nuqsi allaqachon urganini, xuddi shaharliklar kabi omborxonada haydovchilar va hammollarni bekorga so‘kishini, unga murojaat qilganlarni behuda jerkishini unutayotgandi. Ehtimol, unutmagandir, ehtimol yuragini kemirib yotgan o‘sha tuyg‘ular hozir bo‘g‘zidan otilib chiqib, qarshisidagi kishining yuziga alam bo‘lib sochilayotgandir. Nima bo‘lmasin, ayni paytda uning ongini faqat bir o‘y qamrab olgandi: hozirgi hayot – hayot emas, ikki xonali uy ham, boshqasi ham chaqaga ham arzimaydi. Yaxshisi qishloqdan odmigina uy olib, chin ma’noda odamga o‘xshab, munosib hayot kechirganga ne yetsin! Bu yerda sandiroqlab, shunchaki kun kechirgandan nima naf? Axir, u ham inson-ku! Eng muhimi, Nikolay Grigoryevich dilidagilarni to‘kib solarkan, yuragi taskin topardi... O‘tkir tamaki tutuni va bo‘yi orasida endi faqatgina Nikolay Grigoryevichning tobora xotirjam tortib borayotgan ovozi eshitilar, atrofdagilar unga jimgina quloq solib, chin dildan achinishar va qanday bo‘lmasin, yordam berish yo‘llarini izlashardi...

Ko‘nglidagini to‘kib-solib ruhi yengillashgach, cho‘ntagida manzillar yozilgan qog‘oz bilan Nikolay Grigoryevich piyoda uyiga qarab yo‘l oldi. Har doim shunday – vokzaldan uyigacha bo‘lgan

to‘rt bekatlik yo‘lni u piyoda bosib o‘tardi. Sekin yurib borarkan, qalbidagi hayajoni bosilar, manziliga yetganda esa shirin charchoq bilan zo‘r ishtaha bosib kelardi.

Aslini olganda, u hech qayerga ketmoqchi emasdi. Uning miyasida biror qishloq va ovulga borib yashash fikri yo‘q edi-yu, lekin haftaning o‘sha kuni va o‘sha vaqtida vokzalga bormasa bo‘lmasdi – bu zaruratga aylangandi. Bu ishi uchun uni kimdir uyaltirishi, masalan, to‘ng‘ich o‘g‘li yo‘lini to‘sishi, vokzaldagilar bilan valaqlashib, uyga manzillar yozilgan qog‘ozcha bilan qaytishiga taqiq qo‘yishi ham mumkin edi... Lekin bu taqiq yordam berarmidi? Shunday bo‘lganda taqdirda, u yashirincha borgan bo‘lardi. U endi busiz yasholmasdi.

Jamshid MATYOQUBOV tarjimalari.

VANKA TEPLYASHIN

Vanka Teplyashin o‘n ikki barmoq ichak yarasi bilan qishloq kasalxonasiga yotdi. Shu holida yotganicha yotaverdi. Bu orada kasalxonaga tuman markazidan bir kishi keldi, shifokor Vankani kabinetiga chaqirdi, shaharlik kishi bilan Vankani aylantirib ko‘rishdi, qornini ezib-bosishdi, yelkalariga urib-urib qo‘yishdi... O‘zlaricha bir nimalarni gaplashishdi. Keyin Vankaga yuzlanishdi:

– Shahar shifoxonasiga borasanmi?

– Nimaga? – tushunmadi Vanka.

– Yotgani-da. Bu yerda yotganingdek, o‘sha yoqdayam oyoqni osmondan qilib yotaverasan. Mana... Sergey Nikolayevich davolaydilar.

Vanka rozi bo‘ldi.

Shahar shifoxonasiga durustgina joylashtirishdi. Vankani u yerda «xos bemor» deb atay boshlashdi.

– Xos bemorimiz qani? – deb so‘rardi hamshira.

– Qayerda bo‘lardi, – deya javob qilishardi Vankaning palatadoshlari, – hojatxonada chekayotgan bo‘lsa kerak-da.

– Yana chekyaptimi? Nima qilsa bo‘ladi, a, bu xos bemorimizni...

Vankaga shahar shifoxonasida nimadir yoqmadi. Palatadoshlariga boshidan o‘tgan savdolarni so‘zlab beraverardi: o‘tgan yili haydovchilik guvohnomasini olib qo‘yishmoqchi bo‘lishganini-yu, bir safar mashinasida cho‘kib ketishiga bir bahya qolganicha...

– Oldinda muz tog‘ bo‘lib do‘mpayib qolgan... Eshikni ochib, gazni bosdim. Shu mahal lop etib pastga sho‘ng‘ib ketsam bo‘ladimi! – Vanka so‘zlayotganda shoshib-pishar, qo‘llarini sermar, jonhalak bo‘lib bir joyda o‘tirolmasdi. – Tog‘dan tushayotganday sho‘ng‘idim o‘ziyam! Suv peshoynadan yuz-ko‘zim demay savalay ketdi. Kat-

takon muz eshikka urilib, ochilmaydigan qilib qo‘ydi. Pastga sho‘ng‘iyapman-u, qani endi eshikni ocholsam. O‘zim allaqachon kabinada suzib yuribman. Bir ilojini qilib narigi eshikni ochdim, kabinadan chiqib, u yoq-bu yoqqa qaradim...

– Sen xuddi, nimaydi... hammomga tushib qoldingmi, nima balo: «chiqdim-u, u yoq-bu yoqqa qaradim»mish. Kamroq alda odamni.

Karavotda o‘tirgan Vankaning sodda ko‘zlari chaqchayib ketdi.

– Men aldayapmanmi? – birmuncha fursat bundan ortiq so‘z topolmadi. – Topgan gapingni qara-yu. Qanaqasiga aldayman?

Rostdan ham Vankaning soxt-sumbatiga qarab uning yolg‘onlamasligiga ishonasan kishi. Eplagan aldaydi.

– Xo‘sh, xo‘sh? Davom et, Van. Pandavaqilarga e’tibor berma.

– Xullas, tepaga qaradim: ko‘kish teshik ko‘rindi, xuddi o‘sha yerdan tushib ketgandim... o‘sha yoqqa intildim.

– O‘zi suv tagida qancha vaqt qolib ketding?

– Qayoqdan bilaman! Ko‘p bo‘lmasa kerak har holda, shunchaki hikoyam cho‘zilib ketdi, xolos. Ustiga ustak, gapimni bo‘lyapsizlar.

– Xo‘sh, xo‘sh, keyin-chi?

– Xullas, chiqdim... Chopqillab yordamga yetib kelishdi. Birinchi uchragan kulbaga olib kirishdi...

– Keyin darrov aroq bilan-a..?

– Oldiniga odekolon bilan obdan ishqalashdi... Keyin bir hafta «qizil chinnigul»ning hidi ketmasa deng. Ana undan so‘ng aroqqa yugurishdi.

...Vanka yuragi siqila boshlaganini o‘zi ham payqamay qoldi. Deraza oldida soatlab turgancha, o‘zining qalbi-yu aqliga yot-begona ko‘chaning hayotiga tikilib qolardi. Yashashlariyam bir g‘alati: shovqinlaydi, baqiradimi-yey, bir-birini eshitmaydi-ya. Barchasi yurak qo‘ltiqlab olgan, lekin tepadan hamma odam bir ko‘ringani uchunmi, ular bir joyda yugurayotganga o‘xshaydi. Tez orada Vanka ko‘cha bo‘ylab nigoh sirpantirishga o‘rganib qoldi... Puf desang, beli sinar bitta-yarimta satang bir qarich yubkada o‘tib qolganini aytmasa, hammasi bir xil. Vankaga sog‘inch indi. U o‘zini yakka-yolg‘iz seza boshladi.

Ammo-lekin bu shovqin-suron ko‘chada, pastda tuyqus onasini ko‘rib qolganda ajablanib quvonganini ko‘rsangiz edi... Ana, ko‘chani kesib o‘tyapti, alang-jalang boqadi – qo‘rqyapti. Eh, onajonim-a! Ona ko‘ngli bilan sezibdi-da.

– Onam kelyapti! – deya qichqirdi Vanka. Bu inson quvonchi shunchalar erkin va nogahoniy yangradiki, palatadagilar sharaqlab kulib yuborishdi.

– Qani, Vanya?

– Ho‘v, ana! So‘mka ko‘tarib kelyapti! – Vanka deraza rafiga osilib, qichqirdi: – Oyi!

– Pastga tushib, kutib ol, – deyishdi Vankaga. – Yo‘qsa, o‘tkazishmaydi, bugun qabul kuni emas.

– O‘tkazishadi. Qishloqdan kelganini aytsa... – deya fol ochishdi ba’zilar.

– Heh, «o‘tkazishadi»mish! Anavi ramaqijon qizamiqko‘z turgan bo‘lsa, o‘tkazmaydi.

Vanka pastga chopdi.

Onasi o‘sha ramaqi qizamiqko‘z oldida yalinib turgan ekan. Qizamiqko‘z hatto eshitmasdi ham.

– Menga kelishdi! – uzoqdan so‘z qotdi Vanka. – Bu kishi mening onam.

– Chorshanba, shanba, yakshanba – qabul kunlari, – kakkuladi qizamiqko‘z quruqqina qilib.

Vankani ko‘rgan onaizor shodlanib ketdi, endi peshvoz yurmoqchi edi, qizamiqko‘z ushlab qoldi.

– Orqaga.

– Menga kelishdi, dedim-ku! – tutaqdi Vanka. – Bu nima qilganing?!

– Qabul kunlari – chorshanba, shanba, yakshanba, – deya yana kukuladi qorovul.

– Bilmabman-da, bolam, – yalinishga tushdi onaizor, – qishloqdan keldim... Bilmabman, bolam. O‘g‘lim bilan biron yerda birpas o‘tirsam bo‘ldi...

Vanka onasining ovozidagi mungni ilk bor eshitib, tong qotdi... Onasining yalinib-yolborishlaridan hamiyati qo‘zg‘adi.

– Yalinmang, oyi.

– Manov o‘rtoqqa tushuntiryapman-da...

– Jim turing! – dedi Vanka. – O‘rtoq, – deya murojaat etdi qorovulga boadablik va viqor ila, lekin qorovul unga qayrilib ham qaramadi. – O‘rtoq, deyapman! – tovushini balandlatdi Vanka. – Sizga aytyapman!

– Vankajon, – achchig‘i burnining uchida turadigan o‘g‘lini bilgan ona zorlandi.

Birovning dardiga qayishmaydigan qizamiqko‘z go‘yo yonida hech kim yo‘qday bir chetga baqraygancha turaverardi.

– Yuring, hov, anavi yerda o‘tiramiz, – dedi Vanka onasiga tishini tishiga bosib va qorovulning ortida ko‘rinib turgan o‘rindiqni ko‘rsatdi. Keyin bamaylixotir baqako‘zning yonidan o‘tib ketdi.

– Or-r-qaga, – amr qildi qizamiqko‘z irganib va Vankaning yengidan tortmoqchi bo‘ldi.

Vankaga shu narsa kerak edi. Qizamiqko‘z unga teginishi bilanoq, Vanka olako‘zning qo‘lini siltab tashladi-yu, onasiga mehribonlik qildi:

– Mana shu yerga, o‘rindiqqa.

Vanka davomini ham kutayotgandi – hozir qizamiqko‘z orqadan kelib ushlaydi. Ushladi ham. Vankaning yo‘l-yo‘l pijamasi yoqasidan. Og‘ritib tortdi. Shu asnoda Vanka uning qo‘lini tutib olib, shunday qayirdiki, qizamiqko‘zning og‘zi qiyshayib ketdi.

– Yana bir marta qo‘lingni yugurtirganingni ko‘rsam... – tilga kirdi Vanka salmoqdor so‘zlarni topolmay, – sen bilan... siz bilan jiddiy gaplashishimga to‘g‘ri keladi.

– Van, – yig‘lamsiradi onasi. – Xudoyim-ey, o‘z panohingda asra...

– O‘tiring, – amr-farmon qildi Vanka ovozini cho‘ktirib. – Manov yerga o‘tiring. Xo‘sh, qishloqlar qalay?..

Qizamiqko‘z birmuncha muddat esankirab qoldi, keyin o‘ziga kelib, baqirdi.

– Stigayeev! Lizaveta Sergeyevna!.. Bu yoqqa! Mushtumzo‘rlik qilishyapti! – degancha xuddi savdoyini tutib olmoqchi bo‘lgandek Vankaga qulochini yozib tashlandi. Ammo Vanka joyida qimirlamay o‘tiraverdi, faqat ko‘zlarini olaytirib pastdan qizamiqko‘zga tikildi. Shugina nigoh qizamiqko‘zni to‘xtatdi. Taqqa to‘xtab, tag‘in baqirdi: – Stigayeev!

Yon tomondagi xonadan qo‘lida bo‘lka non bilan oq xalatli chorpahil Yevstigneyev yugurib chiqdi.

– A? – anqovsiradi Yevstigneyev.

– Bu yoqqa, yonimga! – qichqirdi qizamiqko‘z va qo‘llarini yozib Vankaga tashlandi.

Vanka uni qabul qilib oldi... Qorovul orqaga o‘mbaloq oshib tushdi. Shunda Yevstigneyev «mushtumzo‘r»ni ko‘rdi-yu, u ham tashlandi.

...Ular Vankani eplasholmadi... Garchi Yevstigneyevning bo‘yni yo‘g‘on bo‘lsa-da, ikkovlashib qancha chiranishmasin, Vanka qochmadi ham, tutqich bermadi ham. Stul va to‘mbalar kamroq uchishi uchun o‘zini ehtiyot qildi. Lekin baribir qorovulning to‘mbasi uchdi, grafin chil-chil sindi. Shovqin-suron ko‘tarildi... Oq xalatlar birdan ko‘payib ketdi. Vankaning shifokori Sergey Nikolayevich chopib yetib keldi... Qizamiqko‘z va Yevstigneyevni arang ovutishdi. Sergey Nikolayevich Vankani tepaga olib chiqib ketdi.

– Bunaqa emas-da endi, Ivan...

Vanka esa, akchincha, o‘zini bosib olgandi. Tushundiki, hozir o‘z uyiga jo‘naydi. Hatto onasiga kutib turishini tayinladi.

– Nima jin urib anovi bilan pachakilashib yuribsan?

– Onamni ichkariga kiritmadi.

– Aytmaysanmi o‘zimga, hammasini joyiga qo‘yardim! Palatangga boraver, onaxonni o‘zim olib kiraman.

– Kerakmas, hozir uyga ketamiz.

– Qanaqa uy? Nimalar deyapsan?

Lekin Vanka ikki oyog‘ini bir etikka tiqib, «ketaman»ga tushib qoldi. Aslida, uyga ketmoqchi bo‘lgani uchun ham xotirjam tortgandi. Sergey Nikolayevich ko‘ndirishga rosa urindi. Hatto:

– Onang menikida tura tursin. Uch kun. Qancha xohlasa! Uyimiz keng. Axir, biz hali ishni oxiriga yetkazmadik. Tushunyapsanmi? Sen menga pand beryapsan. Anovi aqli noqislarga ko‘p ham e’tibor beraverma. Ha, endi nima qilardik, bori shu-da. Onang esa seni ko‘rgani kelib turadi... – deb manzirat ham qilib ko‘rdi.

– Yo‘q, – dedi Vanka. Onasi qizamiqko‘zga mung bilan yalingani ko‘z oldidan ketmasdi uning. – Qiziq odam ekansiz, yo‘q, dedimmi, yo‘q.

– Lekin men senga ruxsat bermayman!

– Derazadan oshib tushaman... Tunko‘ylakda qochaman.

– Be-e, – ranjidi Sergey Nikolayevich. – Bekor qilyapsan-da shuni.

– Hechqisi yo‘q, – Vankaning zavqi kelib ketdi. Faqat shu do‘xtirning ranjigani chatoq bo‘ldi-da. – O‘zizga bironta yarasi bor-

dan topib olavering... Ana, derazaning tagida bittasi yotibdi, malla, uniyam ichagida yarasi bor.

– Gap bunda emas-da, Ivan.

– Yo‘q, – Vanka o‘zini tobora yengil his etmoqda edi. – Mendan o‘pkalamang.

– Nimayam derdim... – Sergey Nikolayevichning battar ta’bi tirriq bo‘ldi. – Bundoq holda seni ushlab turish ham befoyda. Balki o‘ylab ko‘rarsan?.. Zora, o‘zingga kep qolsang...

– Yo‘q. Gap bitta.

Vanka narsalarini yig‘ishtirgani palatasiga chopdi. Palatada birbiriga so‘z bermay Vankani koyib ketishdi:

– Esini yegan!

– Shu yerda dardingga shifo topayotgan bo‘lsang, Sergey Nikolayevich seni otday qilib uyingga jo‘natardi.

O‘zining qarichi bilan o‘lchayotgan bu odamlar bilmasdiki, tez orada onasi ikkalovi avtobusga o‘tirishadi-da, qarabsizki, bir-ikki soatda Vanka uyida choy ichib o‘tirgan bo‘ladi. Ular buni qayoqdan ham tushunsin!

– Qayoqdagi yo‘q bir ahmoqni deb sog‘lig‘ingdan voz kechasanmi, o‘rgildim sendaqalardan!

– Odam bo‘lish kerak, – dedi Vanka adovat aralash tantanavor ovozda. – Tushunarlimi?

– Tushunarli, tushunarli... Bekorga hovliqyapsan, bekorga.

– Yarimta so‘lkavoyni qistirmaysanmidi o‘sha qizamiqko‘zga, olam guliston bo‘lardi.

Vanka hamma bilan shod-xurram xayrlashdi, salomatlik tiladi va yengil tortib pastga hakkalab tushdi.

Pastda o‘zining kiyimlarini olishi kerak edi. O‘lganning ustiga tepganday, kiyimni ham aynan Yevstigneyev berar ekan. Yevstigneyev Vankaga yovqarash qilmadi, aksincha, achingannamo so‘z qotdi:

– Haydashdimi? Qurib ketsin...

Kiyimlarni uzatayotib, sekin engashib, ta’na qildi:

– Anovinga elliktani uzatganingda, hech qanaqa vahima-pahima ko‘tarilmasdi. Eh, yoshlar, yoshlar, nahot aqlingiz shunga kelganda kaltalik qilsa?

– Pora bilan og‘izga urish emas, odam bo‘lish kerak, – dedi yana Vanka viqor bilan. Biroq kuyadori hidi anqib turgan, hamma yoqni

ilgak bosib ketgan yerto‘lada bu so‘zlar unchalik ham jaranglamadi; Yevstigneyev ham e’tibor berib o‘tirmadi.

– Manavi boshmoqlar senikimi?

– Meniki.

– Oxirigacha davolanmasdan ketyapsan ekan-da...

– Uyda davolanarman.

– «Uyda»mish! Tuzalib bo‘psan...

– Omon bo‘l, Ivan Petrov! – dedi Vanka.

– O‘zing sog‘ bo‘l. Shifokordan iltimos qilsang bo‘lardi, zora qoldirsa. Yomonga yondoshib bekor qilding-da o‘zing.

Vanka Yevstigneyevga dardini dasturxon qilib o‘tirmadi, onasining qoshiga shoshdi, hoynahoy, boyaqish ko‘z yosh qilib o‘tirgan bo‘lsa kerak.

Taxmini to‘g‘ri chiqdi: onasi o‘rindiqda ko‘z yoshlarini shol ro‘moliga artib o‘tirardi. Qizamiqko‘z bo‘lsa o‘zining to‘mbasi yonida yo‘lakka tikilgancha, qoqqan qoziqday turardi. Unga ko‘zi tushgan Vankaning yuragi dukurlab ketdi. Qadamini sekinlatdi – oxirida ichidagini to‘kib solmoqchi bo‘ldi. Lekin hadegancha uzib oladigan gap topolmadi.

– Omon bo‘l! – deya oldi xolos. – Kirdi-chiqdi.

Qizamiqko‘znig ko‘zlari pirpirab ketdi, biroq qayrilib qaramadi – qorovulligini davom ettiraverdi.

Vanka onasining sumkasini ko‘tardi. Ona-bola sal qolsa saratonni ham davolaydigan, ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan shahar shifoxonasini tark etishdi.

– Qo‘ying, yig‘lamang, – deb yupatdi onasini Vanka.

– Keting yer iskamaydi-ya sen bolani, – dedi ona dilidagini tiliga chiqarib. – Ho‘ birda texnikumdan ham...

– Ha, bo‘pti, bo‘pti... Texnikum-pexnikumi bilan qirilib ketsin! Sizga bir gapni aytib qo‘yay: haliginda anavi qizil zo‘ldirga yalinganingizday boshqa hech kimga poy-patak bo‘lmang. Xo‘pmi?

– Birini aka, birini opa deb alqamay ko‘p narsaga erishib bo‘larkanmi?!

– Ha, endi... bunaqasi ketmaydi-da. Eshitgan quloqqa – uyat, axir.

– «Uyat»mish... Mana, hozir pensiyamga bir dunyo xat-hujjat yig‘ishim kerak, g‘o‘ddaygan bilan ish bitmaydi. So‘ramay ko‘r-chi, biring ikki bo‘larmikin?

– Xo‘p, xo‘p... – Har ne bo‘lganda ham onaning gapi – gap. – Uylar qalay, tinchmi?

– Bir navi. O‘zimizda davolanasanmi endi?

– Haligi... bilmasam, – deb javob qildi Vanka. – Allaqachon sog‘ayib qoldim.

Birmuncha fursatdan so‘ng ona-bola vokzalda avtobusga o‘tirib, uylariga ravona bo‘lishdi.

TASODIFIY O‘Q

Oyog‘i jonsiz edi. Tug‘ilganidan beri shunaqa o‘zi: ingichka, qiyshiq... qurib qolgan palakday osilib turadi. Sal-pal qimirlaydi xolos.

Vaqti-soati kelguncha Kolka bu noqisligiga uncha ahamiyat bermadi. Tengdoshlari atak-chechak qilib ikki oyoqlab yurishni o‘rganishganda, u uch oyoqlab yurishni mashq qildi. Qo‘ltiqtayoq xalal bermasdi. U boshqa bolalar bilan o‘sib-ulg‘aydi, begona polizlarga oshib tushib, oshiq-moshiq o‘ynardi – o‘ynaganda ham kiftini keltirib o‘ynardi! – bitta qo‘ltiqtayog‘ini chetga surib qo‘yib, chap qo‘liga suyanardi-da, mo‘ljalga olardi – shaq! – tamom, yarim do‘jna[1] oshiq qaytib davra aylanmasdi.

Ammo yillar bir-birini quvalab o‘taverdi. Kolka ko‘rkam, chayir yigitga aylandi. Endi qo‘ltiqtayoqlar unga xalal beradigan bo‘ldi. Tengqurlari mohporalarni klubdan uylariga kuzatib qo‘yishganda, u joniga tekkan ikki «hamroh»ini g‘irchillatib, tor ko‘chada bir o‘zi ketardi.

Kolkaning ziyrak nigohlari o‘ychan boqadigan bo‘ldi.

Qo‘shni yigitlarni har yili armiyaga kuzatishardi: dam birini, dam boshqasini, dam bir to‘dasini... Shovqin-suron bilan kuzatishardi. Kolka uylarining soyasida turib, tirqishdan mo‘ralardi. U ham armiyaga borishni istardi.

Bir safar otasi, kolxoz mexanigi Andrey Voronsov, o‘g‘lining mana shu mashg‘uloti ustidan chiqib qoldi... Bildirmasdan uyga kirib ketmoqchi edi, lekin Kolka qadam tovushlarini eshitib, o‘girildi.

– Nima qilyapsan? – deb so‘radi otasi o‘zini bilmaganga olib.

Kolka sholg‘omday qizarib ketdi.

---

[1] *Do‘jna* – o‘n ikki dona; yarim do‘jna – olti dona (*izohlar tarjimonniki*).

– O‘zim, shunchaki, – dedi-da, dastgohiga yo‘naldi (Kolka qishloqdoshlarining soatlarini tuzatardi – bir qo‘noqdan o‘rganib olgandi).

Vaqt esa shuvillab o‘taverardi.

Hammani domiga tortadigan voqea sodir bo‘ldi: Kolka sevib qoldi.

Ularning ro‘parasida, yo‘lning narigi yuzidagi chog‘roq uyda ovozi o‘tkir qiz – Glashka turardi. Kolka bu qizga har kuni derazadan tikilardi. Ertalabdan kechgacha tovonidan o‘t chaqnaydigan Glashka hovlida izg‘ib yurardi: goh yerto‘laga tushib-chiqadi, goh g‘ozlarni quvib yuboradi, goh tomorqalariga tushib, egatlarni bosib-yanchgan cho‘chqalar sabab qo‘shni qiz bilan urishadi... Uzzukun faqat shu qizning ovozini eshitasan.

Bir kuni Kolka qo‘shni qizga qarab turib, e yo‘q, be yo‘q o‘zicha o‘yladi: «Eh... qaniydi shunaqa chiroyli bo‘lmaganda, unga uylanardim-qo‘yardim». O‘shandan beri har kuni ikki xayoli Glashkada bo‘ldi. Bundan iztirobga tushardi. Nedir bir kuch uni dastgohidan turib, eshik oldiga chiqishga majbur qilardi.

– Glashka! – deb chaqirardi qizni. – Qachon erga tegasan-a, g‘unajin?! To‘yingda bir maza qilib o‘ynarmidim!

– Hech kim olmayapti, Kolya! – deb javob qilardi gapga chechan Glashka. – Men allaqachon tayyorman!

«Seni qara-yu!» – deb o‘ylardi Kolka va o‘ychan ko‘k ko‘zlari tinib ketardi.

Qishloq uzra iyulning moviy osmoni olis-olislarga cho‘zilib ketgan. Milt-milt qilgan sarob ichra ko‘zga ertakmonand xayot ko‘rinadi. Tong shafag‘i anhorga yopirilib tashlanadi-da, atrof jimib qoladi. Tunlari ham sokin... Bu sukunat ham shiringina, ham azob berib yurakni ezadi.

Yozda Kolka bir devori ko‘chaga qaragan omborchada uxlardi.

Bir safar ana shu devorga bir juftlik kelib suyandi. Kolkaning yuragiga sanchiq kirdi – u Glashkani tanidi, garchi devor ortidagilar anchagacha jim turishgan bo‘lsa-da. Keyin Kolka ularning pichir-pichiri va hihilashlarini eshitib yotdi. O‘sha tunda u qo‘ltiqtayoqlarini la’natladi. Yuzini bolishga burkab yig‘ladi. Ortiq bunday yasholmasdi!

Tong yorishgach, feldshernikiga bordi. Feldsher bilan qalin edi – birga-birga ovga chiqishar, baliq tutishardi.

– Kallayi sahardan turib olibsanmi? – so‘radi feldsher.

Kolka eshik tagiga o‘tirib, qo‘ltiqtayog‘ining uchini yerga suqdi...

– Ortiqcha pistoning yo‘qmi? O‘zimniki tugabdi.

– Pistonmi? Hozir ko‘ray-chi. – Feldsher ichkariga kirib, bir daqiqadan keyin bir hovuch piston olib chiqdi. – Ma.

Kolka pistonlarni cho‘ntagiga solib, chekdi... Zo‘rama-zo‘raki tirjayib, feldsherga qaradi va o‘rnidan turdi.

– Piston uchun rahmat.

– Bemalol. O‘zim ham ovga chiqardim-u... – feldsher xo‘rsinib, kal boshini qashidi. – Lekin.. lekin ta’til avgustda-da.

Kolka darvozadan chiqib, to‘xtadi. Yo‘lga uzoq qarab qoldi.

Ortga qaytib, yana darvozadan ichkariladi.

– Ma, pistonlaringni, – dedi u feldsherga. – O‘zimniki tiqilib yotibdi.

Feldsherning qoshlari chimirildi.

– Tushunmadim.

– Oyog‘imni ko‘rib qo‘y... yasama oyoq qo‘ydirmoqchiman. Hiqildog‘imga keldi bunaqa yurish.

– Ha, shunaqa demaysanmi, – feldsher Kolkaning ko‘zlariga tikilib turib... dovdirab qoldi. – Qani, bir ko‘raylik-chi.

Ikkovlashib majruh oyoqni uzoq tekshirishdi.

– Manavi yerini sezyapsanmi?

– Sezyapman.

– Bu yerni-chi?

– Qani, yana bir marta... Ha, sezyapman.

– Qimirlat. Yana. Endi yonga. Qimirlat, qimirlat. Shunday. – Feldsher qaddini rostladi. – Umuman olganda... Gapning qisqasi, urinib ko‘r. Hozir aniq bir narsa deyolmayman-u, lekin urinib ko‘rish kerak. Manavi yeridan kesib tashlanadi. Tushunyapsanmi?

– Tushunyapman.

– Tavakkal qilaver. Darrov oyoqqa turib ketolmaysan-ku-ya, biroq ter to‘kishingga to‘g‘ri keladi. Uqdingmi?

Kolka uyga kela solib, yo‘lga tadorik ko‘rishga tushib ketdi – shaharga, shifoxonaga borishga qaror qildi. Onasiga nega ketayotganini aytmadi, otasini ko‘chaga chaqirib, tushuntirdi:

– Borib, oyog‘imni kestiraman.

– Qanaqasiga? – Andreyning ko‘zlari do‘layib ketdi.

– Yasama oyoq qo‘ydirmoqchiman.

Bir haftadan so‘ng Kolkaning oyog‘ini kesishdi. Yigirma yetti santimetrli cho‘ltog‘i qoldi.

Yara oz-moz bitgach, adyol tagida cho‘ltog‘ini qimirlatib shug‘ullana boshladi.

Otasi ko‘rgani keldi. Karavot yonida uzoq o‘tirdi... Kesilgan joyiga qaragisi kelmadi: nima bo‘lganda ham oyoq edi-da. Endi o‘shayam yo‘q.

* * *

Keyin Kolka uyga kirmasdan N-skka o‘tib ketdi.

Uyga yarim oydan so‘ng qaytdi... Qo‘lida qopga solingan allaqanday uzun matoh ham bor. Kolkani «oyoqsiz» ko‘rgan onasi oh tortib yubordi. Kolka tirjayib turaverdi...

Qopni ochib, polga lok surtilganday yalt-yult yaltillama yasama oyoqni tashladi.

– Mana... oyog‘im.

Hamma yasama oyoqqa qiziqsinib qaradi. Kolka esa bir chekkada tirjaygancha turaverdi: yo‘lda yasama oyoqqa obdan qarab olgandi.

– Yaltillashini qarang... Yo Xudoyim! – dedi onasi.

Otasi mexanik sifatida yasama oyoqni qo‘liga olib, sinchiklab ko‘zdan o‘tkazdi.

– Toza matoh, – deb xulosa qildi otasi. – Kuzma bobonikiga o‘xshagan yog‘och emas.

Xullas, yasama oyoq hammaga yoqdi. Hamma, jumladan, Kolka ham ishonardiki, bunaqa qimmat yasama oyoqda ancha-munchasi yurolmaydi. Axir, bu matoh asl, toza materialdan mustahkam, bejirim qilib ishlangan: har xil qadamalari, murvatlari bor.

– Qachon sinab ko‘rasan? – deb so‘radi otasi yasama oyoqni qo‘lida salmoqlab ko‘rarkan.

– Yara yaxshilab bitsin, keyin. Shoshilmaslikni maslahat berishdi.

* * *

Qop-qorong‘u tun. Olislarda chaqmoq chaqadi.

Kolka elburutdan omborchasiga kirib ketdi. Yotib, kuta boshladi.

Butun qishloq suv quyganday jimjit.

Birpas o‘tib Kolka chiroqni yoqdi va yasama oyoqni taqishga tushdi. Taqdi. Keyin tamaki buruqsitdi. Chekib turib yasama oyog‘iga tikildi.

– Tuppa-tuzuk oyoq-ku... Heh!

Hafsala bilan popirisini o‘chirdi. Turdi. Turdi-yu, mast odamday munkib ketdi. Karavotning uchidan arang ushlab qoldi. O‘zini o‘nglab, sog‘ oyog‘i bilan qadam tashladi. Chapini, yasama oyog‘ini joyidan qimirlatolmadi. Yiqilib ketdi. Yana karavotni ushlab qoldi... Yasama oyoqni tortib-tortib bog‘ladi. Yuragi duk-duk urib ketdi.

– Hechqisi yo‘q. Biroz ter to‘kishga to‘g‘ri keladi, – deya o‘zini ovutdi.

Yana bir urinish – befoyda. Chap oyoq hech bo‘ysunmasdi. Shunda Kolka o‘ng oyog‘i bilan katta qadam tashlab, butun gavdasi bilan chap oyog‘ini tortishga chirandi. Yana quladi. Anchagacha yerda yotdi. Chap oyoq, yarim qadam bo‘lsa-da, odim otishga yaramasdi.

– Hap senimi, palid! O‘rganmagansan-da, – deb qo‘zg‘aldi Kolka. Yana bir marta urindi. Qayta-qayta urindi. Barcha urinishlari chippakka chiqaverdi.

Kolka harsillab qoldi.

– Bir tutatib olaylik, tag‘in harakat qilamiz. – U alam bilan o‘ziga o‘zi gapirardi. Muvaffaqiyatga erishishiga ishonmay qo‘ydi, ammo buni tan olgisi kelmasdi. Aslo! Qanday qilib tan oladi, axir?

Tortib-tortib chekdi. Keyin jon-jahdi bilan yasama oyoqda yurishga tirishdi. Yana muvaffaqiyatsizlik. Takror va takror.

Kolka boloxonador qilib so‘kindi-da, karavotga uzaldi. Shu payt karavot tepasiga osig‘liq turgan miltiqqa ko‘zi tushdi... Sekin o‘rnidan turdi... Yana-tag‘in chap oyoqda yurishga urinib ko‘rdi.

– Baribir yurasan. Qani... Ho‘ppa! Ax, palid!

Bezillab qolgan cho‘ltoq lov-lov yonardi. Kolka yasama oyoqni echib, cho‘ltog‘iga puf-pufladi. So‘ngra, og‘riqqa bardosh berib, yasama oyoqni qaytadan taqdi.

– Hozir men seni... Qani! Tag‘in yurmaysanmi?

Tong otdi.

– Iflos! – dedi Kolka va joyiga yotdi. Ko‘zlarini chirt yumib oldi. Moy bosgan bir bashara Kolkaning ustiga engashdi-da, razilona irshaydi. Kolka ko‘zini ochdi... – Ha-a, senmi, maraz, – deb devordagi miltiqni oldi...

Otasi ko‘ngilsizlik haqida ertasi kuni kechki mahal eshitdi (zaxira asbob-uskunalar uchun tuman markaziga tushgandi). Uyga kelishi bilanoq bo‘lgan voqeani hovliqib gapirib berishdi. Ota shartta otining boshini burdi-da, kasalxonaga qarab yelib ketdi.

– Hozir kirmaganingiz ma’qul, – tushuntirgan bo‘ldi doktor. – Hozir u...

Ota doktorni nari itarib, palataga chopdi.

Hamma yog‘i bintlangan Kolka chalqancha yotardi... Rangi dokadek oppoq, tuqqan onasi ham tanimaydi – qandaydir yot-begona. Ahvoli abgor. Palatada yod hidi anqirdi.

G‘am-alamdan otasining peshanasidan sovuq ter chiqib ketdi.

– Menga aytsang bo‘lardi-ku – kerakli joyga otgan bo‘lardim... Bunaqa qiynalmasdan darrov... – Otaning ovozi qaltirab ketdi... Peshanasidagi terni artib, karavot yonidagi kursiga cho‘kdi.

Kolka otasiga ko‘zini qiyshaytirib qaradi... Lablarini qimirlatdi...

– Og‘riyaptimi? – so‘radi otasi.

Kolka ko‘zini yumib-ochdi: og‘riyapti.

– Eh... – deb ota palatadan chiqdi.

– Gap bunday: hammasi uning qanchalik yashashni istashiga bog‘liq. Tushunyapsizmi? Organizmning o‘zi...

Ota musibatdan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi: doktorning yoqasidan oldi:

– Sen nima qilyapsan bo‘lmasa bu yerda? Organizm!

– Esingizni yig‘ing. Qo‘yvoring. Qo‘limizdan kelganini qilamiz.

Andrey doktorni qo‘yib yubordi, palataga qaytib kirmoqchi edi, eshik oldida to‘xtab qoldi... va kasalxonadan chiqib ketdi. Ancha joygacha borib qolgandi, otda kelgani esiga tushdi. Izvoshga o‘tirib, otni qamchiladi...

Kolkaning onasi ko‘rpa-to‘shak qilib yotardi – musibatni ko‘tarolmay xastalanib qolgandi.

– Tuzukmi? – deb so‘radi uyga kirib kelgan eridan.

– Agar unga biron kor-hol bo‘lsa, seniyam sog‘ qo‘ymayman. O‘ldiraman. Bolta bilan chopib tashlayman. – Andrey oppoq oqargan, ko‘rinishi dahshatli edi.

– Voy Xudoyim...

– Xudoyim, Xudoyim!.. Topgan gaping shu! Bitta bolani ikki oyoqli qilib eplab tug‘olmading! Hozir mendan ko‘rasan! – Andrey

tokchadan avliyo Nikolayning butini olib, polga urib sindirdi. – Mana, mana! Kerakmi?!

– Andryusha!.. Xudoyim... U Glashkani deb shunday qilgan. Makkor ilon ham uni sevganda edi, o‘g‘limiz soppa-sog‘ yurardi, hozir esa igna yutganday.

Andrey birmuncha vaqt xotiniga merovsirab qarab turdi.

– Qaysi Glashka?

– Qaysi bo‘lardi, qishlog‘imizda bitta Glashka bor o‘zi.

Andrey Glashkalarnikiga yo‘naldi.

– Andrey tog‘a!.. Nahotki, meni deb shunday qilgan bo‘lsa? Endi nima qilamiz?

– U tuzalib ketadi. – Andrey sharaq etib yuziga urdi. – Agar unga aytsangki... ihm... tuzalib ketarmidi. Do‘xtir aytdiki: agar uning o‘zi yashashni xohlasa... Uni aldab ko‘r. A, nima deysan?

Glashka ko‘z yoshi qildi.

– Bunday qilolmayman. Unga judayam achinaman, lekin aytolmayman. Boshqasiga va’da berganman...

Andrey o‘rnidan turdi:

– Faqat ho‘ngillama... Sal narsa bo‘ldimi, darrov uvvos tortishadi bu tovuqmiyalar. Aytolmaysanmi, tamom-vassalom. Yig‘laganing nimasi? Bu yerga kelganimni hech kimga aytma. – Andrey yana kasalxonaga yo‘l oldi.

* * *

Kolka o‘sha-o‘sha shiftga termilib yotardi.

– Hozir uyga bordim... – Andrey qadoq qo‘llari bilan tizzasini siladi... etigining qo‘njini to‘g‘riladi. – Yo‘l-yo‘lakay Glashkalarnikiga kirib o‘tdim...

Kolka otasiga hayron bo‘lib qaradi.

– Boyaqish yig‘ladi. Nega menga miq etmadi u ahmoq, dedi. Men jon-jon deb unga turmushga chiqardim, dedi...

Kolkaning yonog‘i andak qizardi... ko‘zini yumib, ochmay yotaverdi. Ota uzoq kutdi: o‘g‘li nega eshitishni istamayotganini tushunmasdi.

– O‘g‘lim...

– Keragi yo‘q, – dedi Kolka labining bir chetidan. – Aldamang, dada... shundog‘am nomusga qoldim.

Andrey palatadan qaddi dol bo‘lib chiqdi.

Kasalxonadan sal narida Andreyning qoshiga Glashka chopib keldi.

– Unga aytaman, Andrey tog‘a... mayli! Roziman, deyman, tuzalib ketsa bas.

– Kerakmas, – dedi Andrey. Qovog‘ini uyib oyog‘ining tagiga qaradi. – Shundog‘am tuzalib ketadi. Aldasak, battar bo‘ladi.

* * *

Kolka tuzalib ketdi.

Bir-ikki haftadan so‘ng karavotda o‘tirib, mo‘ychinak bilan soat kavlardi – palatadoshi ko‘rib berishni iltimos qilgandi.

Oftob charaqlagan. Deraza ortida avgustning choshgohi hayotning yorqin va sokin kuyini chaladi. Bo‘yalgan tunuka tom va yalpiz quyosh taftidan qizib is taratadi. Kasalxona hovlisida issiqdan miyasi aynigan xo‘roz damo-dam qichqirardi...

– Bekorga bunaqa qichqirmayapti, – dedi kimdir. – Makiyoni xiyonat qilgan. O‘zim ko‘rdim: qizil xo‘roz kelib, shappa bosdi-da, olib ketdi.

– Tomoq qirib qichqirayotgani qayoqqa qaradi?

– Bumi?.. Mehnat safariga ketgandi – qo‘shni hovliga.

Kolka yuzini bolishga burkab, sekingina kulardi.

Bitta-yarimta qanday qilib bu ahvolga tushganini so‘rasa, Kolka duv qizarib, istar-istamas javob berardi:

– Bexosdan, – derdi-da, soatga unnardi.

Otasi har kuni kasalxonaga kelib turdi... Karavot yonidagi kursida uzoq vaqt o‘tirardi. O‘g‘lining soat timirskilashiga tikilardi.

– Uy tinchmi? – so‘rardi Kolka.

– Bir navi. Joyida. Parrakni yo‘qotasan, – deb adyolga tushib ketgan mayda parrakni ushlab olib, o‘g‘liga uzatardi otasi.

– Buni soat kapgiri deyishadi.

– Zig‘irdayligini qara! Buni yasashganini aytgin.

– Ha, zavodda hamma narsani yasashadi.

– Men, masalan, o‘ldirishsayam bunaqasini umrimda yasolmayman.

Kolka kulib qo‘yardi:

– Siz – bu siz. U yerda esa uddalashadi.

Andrey ham kuladi... tizzasini kafti bilan silab:

– Ha, u yerda hamma narsaning evini qilishadi, – deydi.

YAKSHANBA KUN KAMPIRCHA...

Qachonlardir uning ketmoni uchgandi. Urush qo‘pgan zamon edi. Qishloq kezib, qo‘shiq kuylardi. Uni ramaqijon, lekin joni qattiq, ziqna va shang‘i Matryona Kondakova yetaklab yurardi. U Matryona Kondakovani xotinjon deb atardi.

U ko‘pincha qishloq do‘koni po‘saxonasiga o‘tirvolib, qo‘shqator barmoqbosdili rus garmonini, tizzasiga qo‘yvolib hafsala bilan uzoq sozlar, yelkasidagi tasmani to‘g‘rilab olardi... U, albatta, artist edi. Tinglovchilarni shaylar, ko‘nglini iydirardi. Tinch-xotirjam o‘tirardi. So‘qir ko‘zlari (u tug‘ma ko‘r edi) allaqayoqlarga, olis-olislarga «tikilardi». Mana shu daqiqalarda uni kuzatish qiziq edi. Matryona huda-behudaga tantanali tomoshani buzaverardi – timirskilanib, chaqa-pul tashlash uchun zinaga alyumin do‘lchani qo‘yar, negadir guldor kashmiri sholro‘molni yarashsa-yarashmasa – axir, yosh qizcha emas – boshiga tashlab olardi... Matryonaga ko‘p ham e’tibor berishmasdi. Ganyaga nazar solishardi. Kutib turishardi. U esa asta, sipogina yo‘talib olardi-da, boshini salgina xam qilib, yolg‘iz o‘zigina ko‘radigan olislarga «tikilgancha», boshlardi...

Ancha-muncha qo‘shiq bilardi. Hammasi urush, zindon, yetimchalar, daydilar haqida bo‘lardi... Orasida «diniy»lari ham chiqib qolardi, biroq ortidan «qizil» qo‘shiqlar yangrardi. Yoqmasa, iltimos qilishardi:

– Gan, oyoqsiz haqidagini boshla.

Ganya mehribon Xudojondan aqalli tushida bo‘lsayam oyoqchalar ato etishni so‘ragan, yurish qanaqa bo‘lishini bilishni juda-juda istagan oyoqsiz (qizaloq) haqidagisini kuylab ketardi...

Xotin-xalaj hiqillashga tushardi.

Matryona ham kashmiri sholro‘molining bir uchiga ko‘zyoshlarini artib olardi. Kim bilsin, balki jo‘rttaga qilgandir. U ilonning yog‘ini yalaganlardan edi.

Ganya «sibmaxlag»chilar[1] (Sibir lagerlari mahkumlari) va surgundan qochishni eplaganlar haqida kuylardi; o‘sha qochoq qochishga qochibdi-yu, qayoqqa borishni bilmay boshi qotibdi, chunki xotini – suyuqoyoq bittasiga ilakishib, dom-daraksiz yo‘qolgan ekan-da.

Keyin «moviy, odmi durracha»ni kuylardi...

Damlari ichiga tushib tinglashardi. Ganya past, bo‘g‘iq ovozda aytar, ba’zida (avjiga chiqqanda) birdan jim bo‘lib qolar, faqat soziga zo‘r berar, so‘ngra yana davom etardi. Qo‘shiqlari har xil bo‘lardi.

Yakshanba kun kampircha
Zindon sari yo‘l oldi.
Och qolgandir o‘g‘ilcha,
Tugun qildi, «oh» soldi.

Ganya yiroqlarga «tikilgani», yuzi qayg‘uli va jiddiy tusga kirgani uchunmi, kampircha turma darvozasiga yaqinlashgani, tuguncha-sida ul-bul: bir tishlam sala, bo‘g‘irsoq, tuxum, lattaga o‘ralgan tuz, bir shisha sut borligi ko‘rinib ketardi go‘yo...

Tugunni ber, okasi,
Yo‘lda hamma gap qotdi –
Zindonband ko‘p, nechasi
Ochligidan tosh qotdi.

Xotin-xalaj, qari-qartang, bola-baqra bularning barchasini o‘zlaricha tushunishardi – u yoqda boyaqishlar ko‘pliginiyam, ochlikdan tirishib qolishlariniyam. O‘sha bechora «o‘tirgan»ga, kampirning o‘g‘liga «rizq»ini yetkazishlarini chin dildan istashardi – ozgina bo‘lsayam qorniga biron nima tushsin, chunki ahmoqqayam ayonki, avaxtada o‘zi emas. Ammo...

Dedi qo‘rchi yoyilib:
«O‘g‘ilginang gum bo‘ldi.
O‘tgan kunda otilib,
U dunyoga yem bo‘ldi».

Bo‘g‘izga alam-dog‘ tiqilib qoladi. Odamni o‘kirib yuborgisi keladi... Ganya anglab turardi buni. Ammo miq etmasdi. Faqat mis qirrali eski garmonigina sado beraverardi. Keyin esa:

---

[1] *Sibmaxlag* – Sibir maxsus lagerlar boshqarmasi (*tarj.*).

Ortga qaytdi kampircha
Zindondan bosh eggancha...
Bilmas endi hech kimsa
Yurakdagi dog‘ qancha.

Qanaqasiga bilishmasin – bilishardi! Ko‘z yoshi qilib olishardida, do‘lchaga beshtalik, o‘ntalik, yigirmataliklarni tashlashardi. Matryona kim qancha berayotganini hushyor kuzatib turardi. Ganya bo‘lsa garmonini quchoqlab o‘tirar, hamon o‘zining olis, noma’lum sayhonliklariga «tikilgani tikilgan» edi. Bu nigohlar g‘alati edi, tushuntirib bo‘lmas darajada dahshatli, yurakni ezadigan.

Keyin urush tugadi. Omon qolgan erkaklar qaytib kelishdi... Qishloqqa jon kirib, gavjumlashdi. Radio o‘tkazishdi, patefon olib kelishdi – Ganya endi ortiqchaday tuyuldi. Matryona ikkovi kezinishdan to‘xtashmadi, lekin uni baribir berilib tinglashmasdi. To‘g‘ri, sadaqa berishardi, shunday – rahm qilib, ko‘zi ojiz odam, amal-taqal bo‘lsayam tirikchiligi o‘tsin, deb. Keyinroq Ganyani qishloq idorasiga chaqirishib:

– Senga nafaqa tayinlaymiz. Endi sang‘ib yurmagin, – deb uqtirishdi.

Ganya anchagacha raisga yonlamasiga qarab, og‘ziga tolqon solib o‘tirdi. So‘ngra:

– Qimmatli hukumatimizga rahmat, – dedi-yu, ketdi.

Shundayam sandiroqlashni qo‘ymadi, faqat uzoqroqqa, o‘sha «isqoti radio‘» o‘tkazilmagan yerlarga boradigan bo‘ldi.

Ammo qancha uzoqqa borsa, shuncha battarlashaverdi. Yosh-yalang hatto ularning ustidan kulishgacha bordi.

– Siz, amaki... ko‘zga yosh keltirvoryapsiz-ku. Sho‘xrog‘idan chalsangiz bo‘lmaydimi?!

– He, zang‘arlar, – dili og‘ridi Ganyaning. – Ja-a ko‘p narsani tushunasanlar-da!

Shartta garmonini yig‘ishtirib, qopchig‘iga solardi-da, Matryona bilan yana olg‘a ketishardi... Lekin borgan sari ahvol chatoqlashaverdi.

Shundan keyin Ganya daydishni bas qildi.

Matryona ikkovlon tog‘ etagidagi choqqina kulbada turishardi. Matryona polizda kuymalanardi. Ganya nimaga unnashni bilmasdi. Ichadigan odat chiqardi. O‘zlarining yerlarida Matryona bilan itmushuk bo‘lib olishardi.

– Nafsingga o‘t tushsin! – shang‘illardi Matryona. – Ichib ado qilasan nafaqangni, keyin ikki barmog‘imizni burnimizga tiqib o‘tiraveramizmi?! Xumkallang ishlaydimi o‘zi yoki umuman ilmateshik bo‘p ketganmi?

– Yum og‘zingni, – do‘q qildi Ganya. – Umuman ochma!

– Kapgir bilan boshingga bir tushiraman – ochish qanaqaligini ko‘rasan o‘shanda!.. Shayton olgur, ko‘rsoqqa.

Ganya dokadek oqarib ketdi.

– Sen mening soqqalarimga til tekkizma! Nurdan ajratgan senmassan meni, kim qo‘yipti senga bu gaplarni valdirashni!

Ganya allanechuk tajanglashib qoldi. U-bu joyga, to‘yga aytishsa, bosh tortadigan bo‘ldi.

– Men sizlarga masxarabozmasman, yallama-yorim qilishlaring uchun ting‘ir-ting‘ir chalib bergani. Uqdinglarmi? Endi patefonlaring bor – o‘shaning nog‘orasiga o‘ynayveringlar.

Bir safar qishloq idorasidan yoshlar kelib-ketishdi (aftidan, Matryona halloslab borib shikoyat qilgan), yurak yutib og‘iz ochishdi:

– Siz shunaqa bir... ko‘zi ojizlar jamiyati borligini eshitgandirsiz...

– Ana o‘shaqqa borib yozilinglar, – dedi Ganya. – Menga shu yer ham bo‘laveradi. Anavi... mening... unga aytib qo‘yinglar: yana bir marta idorama-idora chopadigan bo‘lsa, oyoqlarini sindiraman.

– Nega shunaqasiz-a?

– Qanaqa?

– Sizga yaxshi bo‘lsin deyilyapti, axir...

– Men esam istamayman! Ular istashsa, men istamayman! Shunaqaman... nokas tug‘ilganman, o‘zimga yaxshilikni ravo ko‘rmayman. Nafaqamni to‘lab turibsizlar, shunisiga rahmat. Ortiq hech vaqo kerakmas sizlardan menga. O‘sha jamiyat-pamiyatlaringda balo bormi menga? Paypoq to‘qib, radio‘ eshitib o‘tiramanmi?.. Rahmat! O‘shaqdagilarga mendan boshim yerga tekkuncha ta’zimimni yetkazib qo‘yinglar.

...Faqat bir marta Ganyaning ko‘ngli orziqib ketdi, jon kirganday bo‘ldi, yosharib ketganday tuyuldi hatto...

Shahardan allaqanday odamlar – uch kishi kelib so‘rashdi:

– Gavrila Romanich Kozlov shu yerda yashaydimi?

Ganya sergaklandi.

– Nimaydi? Jamiyatga borish uchunmi?

– Qanaqa jamiyat?.. Siz ko‘pgina qo‘shiq bilarkansiz, bizga aytishdi...

– Xo‘sh?

– Bir eshitsak degandik. Yozib olsak bo‘lardi...

– Nega? – o‘smoqchiladi Ganya.

– Biz xalq qo‘shiqlarini yig‘amiz. Yozib olamiz. Qo‘shiqlar o‘lmasligi kerak...

Shunday so‘zlarni aytgan tilingga shakar, shaharlik!.. Ganya dik etib o‘rnidan turdi, ma’nosiz ko‘zlari pirpirab ketdi... Ko‘zyoshlarini tiyolmadi, quyilib kelaverdi, odamlar oldida yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Keyin qovog‘ini uyib, yo‘talib qo‘ydi, anchagacha churq etolmadi.

– Bizga kuylab berasizmi?

– Kuylab beraman.

Po‘saxonaga chiqishdi. Ganya zinapoyaga o‘tirvoldi, tag‘in garmonini tizzasiga qo‘yvolib hafsala bilan uzoq sozladi, yelkasidagi tasmani yaxshilab to‘g‘rilab oldi. Yana yiroq-yiroqlarga «tikildi», yuzida tantana va jiddiyat balqidi. Mung va nafislik ham.

Erta kuzakning to‘kin-sochin kunlaridan biri, yerda tinchlik-osoyishtalik, tanni yayratar iliqlik hukm surmoqda. Qishloqda yosh-u qari karam kesishga, kartoshkani o‘raga ko‘mishga, tomorqalarda ekin-tikin poyalarini hali quruqligida yoqishga shoshib, ish qaynayotgan mana shunday rohatijon kunda hech kim Gavrila Romanich Kozlovnikida bugun shodiyona ekanini bilmasdi.

Tomorqadan Matryona yetib keldi.

Qo‘shni Yegor Anashkin chetandevorga suyanib oldi... Po‘saxonaga allaqanday chambaraklar qo‘yib, qo‘llarida yon daftar bilan Ganyani eshitishga taraddudlanib turgan shaharliklarga angrayib qolishdi.

– Boshlanishiga munglisidan bo‘lsinmi yoki turma haqidagisidanmi? – so‘radi Ganya.

– Istaganingiz.

Ganya qo‘shig‘ini boshladi... O‘h, kuylagandayam, shunday kuyladiki! Avvaliga oyoqsiz qizcha haqidagisini aytib ko‘rdi. Nima deyisharkin, deb to‘xtadi. Zo‘r diqqat bilan yiroqlarga «tikildi».

– Bironta, haligi... jiddiyrog‘idan... Yo‘q, buyam yaxshi! Lekin... bironta haqiqiy dardlisidan bo‘lsin...

– Nahotki, oyoqsiz qolish dard bo‘lmasa? – hayron bo‘ldi Ganya.

– Dard, dard, – ko‘na qolishdi. – Xullas, istaganingizni kuylayvering.

Mitrofan mozor joyda
Ota qizin shart otdi, –

qo‘shig‘ini kuylay ketdi Ganya. Ich-ichidan to‘lib-toshib, qoyillatib kuyladi.

– Bunisini bilamiz, eshitganmiz, – deb shart to‘xtatishdi uni.

Ganya elovlandi.

– Bo‘lmasa, qanaqasi?

Shu joyida uch shaharlik o‘zaro bahslashib ketishdi: biri qatorasiga yozish kerak, desa, ikkitasi, nega ekan, deb oyoq tirab turib oldi.

Ganya zo‘riqib eshitib turdi. O‘sha-o‘sha olislarga «tikilib» qoldi – aftidan, uni tinglab, bahslashgan emas, hiq-hiq yig‘lashgan damlarni tasavvur qildi.

– Turma haqidagisiyam bor, devdingiz. Qani. Bir eshitaylik.

Ganya garmonni yoniga qo‘ydi. Tutatib chekdi.

– Turma – yomon gap, – dedi. – Xudo ko‘rsatmasin. Nima qilasizlar-a?

– Nega, axir?!

– Yo‘q, yaxshilar, yetar. O‘yin-kulgi qildik, shuning o‘zi yetadi. – Yana-tag‘in teskari to‘nini kiyib oldi Ganya.

– Odamlar iltimos qilishyapti, axir! – tumshuq suqdi Matryona. – Namuncha tarang qilmasang?

– O‘chir! – cho‘rt kesdi Ganya.

– Eshak, – dedi-yu, Matryona tomorqaga qarab ketvordi.

– Bizdan ranjidingizmi? – so‘rashdi shaharliklar.

– Nega ranjirkanman? – hayron bo‘ldi Ganya. – Yo‘g‘-e. Nega ekan? Sizlarga qanaqa qo‘shiq kerakligini bilmas ekanman, xolos. Bor-yo‘g‘i shu.

Shaharliklar jomadonlarini yig‘ishtirishdi, Ganyaga tashakkur bildirib, uch rubl berishdi va ketishdi.

Yegor Anashkin pastak chetandevordan oshib o‘tib, Ganyaning yoniga cho‘kdi.

– Rostdanam, nimaga tixirlik qilding? – qiziqsindi u. – Aytib beravermaysanmi, ko‘proq tashlab ketisharmidi.

– Cho‘chqalaringni boqyapsanmi? – so‘radi Ganya birmuncha sukutdan keyin.

– Boqishga-ku boqyapman, – xo‘rsindi Yegor. – Endi qayoqqa gumdon qilishni bilmayapman jin urgurlarni. O‘shanda boplab laqillatishdi-da, bittasini besh puldanmish! Endi qayoqqa yetaklayman o‘lgurlarni? Bozorgami – shundog‘am mensiz tiqilib yotibdi u yog‘da, bir menmidim shunaqa...

Yegor tutun buruqsitib, o‘yga toldi.

– E, seni qara-yu, cho‘chqavoz! – dedi Ganya birdan quvnab. – Ma, uchtalikni ol – borib bir shisha opke. Cho‘chqalaringning sog‘lig‘i... innaykeyin... g‘am tortmasliging uchun ichamiz.

ALYOSHA TAJANG

Uning ismi Alyosha ham emasdi, u Kostya Valikov edi, lekin qishloqda hamma uni Alyosha Tajang deb chaqirardi. Nega uni shunday atashardi: bizning kunimizda kamdan-kam uchraydigan mas'uliyatsizligi-yu beboshligi uchun. Shunday bo'lsa-da, uni batamom mas'uliyatsiz deb ham bo'lmasdi: haftada besh kun u bo'yin tovlamas ishchi edi, kamiga, serhafsala, uquvli ishchi edi (yozda kolxoz sigirlarini o'tlatar, qishda ham molboqarlik qilardi – fermada go'laxlik qilar, tuyqus tunda tuqqan sigirlarga doyalik ham qilardi), lekin shanba kelishi bilanoq, tamom: Alyoshaning tushovi yechilardi. Ikki kun: shanba va yakshanbada u kolxozda sira qora mehnat qilmasdi. Qachon o'ziga bunday ajabtovur tartib-qoidani o'rnatib olgani ham unutildi, zohid Alyosha deganlari «onasining qornidan tushganidan» buyon shunaqa – shanba va yakshanba kunlari ishlamasligini hamma biladi. Bir necha marta ta'sir o'tkazishga urinib ko'rishdi, biroq bari bekor ketdi. Unga achinishardi: besh nafar churvaqasi bor, faqat to'ng'ichi o'ninchiga o'tdi, qolgan dumbullari hali ikkinchi, uchinchi, beshinchi sinf partalarida o'tirardi... Xullas, undan qo'lni yuvib, qo'ltiqqa artishdi. Boshqa nimayam qilishardi? Tomog'ing yirtilguday bo'lib tushuntirasanmi-yo'qmi, baribir go'rni tushunmaydi. Ko'zini pirpiratib turaveradi... «Xo'sh, uqdingmi, Alyosha?» – deb so'rashadi undan. «Nimani?» – «O'zingga ep ko'rayotgan bundaqangi narsalarni yig'ishtirish kerak! Fabrikada ishlamaysan-ku, qishloq xo'jaligida ishlaysan! Bu qanaqasi? A?» – «Nima?» – «O'zingni go'llikka solma! Sendan, axir, rus tilida so'ralyapti: shanba kuni ishlaysanmi?» – «Yo'q. Qolaversa, go'llikka kelsak, meniyam qo'limdan keladi... peshanangni bir urib qashqasini chiqarib qo'yaman, buning uchun sen menga hech qanaqangi modda-podda topib berolmaysan. Biz ham qonunni bilamiz. Sen meni haqorat qilding, men esa peshonangga tushirdim: bir-u

bir». Ana shunaqa, gaplashib bo‘psan u bilan. Shanba kuni qilinsa, hatto majlisgayam borib o‘tirmaydi.

Xo‘sh, shanbada nima qiladi?

Shu kuni hammomni yoqardi. Bo‘ldi, tamom. Boshqa hech nima. Yaxshilab qizitib, ustidan bir suv quyib olardi-da, parlanishni boshlardi. Parlangandayam hech kimga o‘xshamay, xuddi parovozday – naq besh soat parlanardi. Dam olib, albatta, tutatvolib... Lekin baribir aqlga sig‘maydi – buning uchun qanaqangi tanaga ega bo‘lish kerag-a?! Otnikidaymi?

Shanba kuni uyqudan turiboq, darrov bugun shanba ekani yodiga kelardi. Ko‘ngliga muloyim shodlik inardi. Hatto yuzi yal-yal yona boshlardi. Yuvinmasdanoq, darhol hovliga – o‘tin yorgani oshiqardi.

Hammomni isitishda o‘zining odati bor edi. Masalan, hammomga qayin o‘tinlarini yoqardi, laqqa cho‘g‘ bo‘lib anchagacha isitadi. U o‘tinni bahuzur, jo-bajo qilib yorardi...

Mana, aytaylik, o‘shanday shanba kunlaridan biri.

Havo erinchoq edi – etjunjiktirar, rutubatli, shamol esib turibdi – haytovur, oktyabrning oxiri. Bunday ma’suma kuzak havosi Alyoshaning jon-dili edi. U tundayoq yomg‘ir sevalab o‘tganini eshitgandi – og‘ir-bosiqlik bilan derazaga tasira-tusur urilib, birdan tinib qolgandi. Keyin esa qachon qarama g‘uvillab turadigan tomning o‘ng burchida shamol uvillay boshladi. Deraza tabaqalari taraqlab ketdi. Keyin tinib qoldi, lekin tongda yana esishga tushdi – qor uchqunlari aralash, sovuq shamol turdi.

Alyosha qo‘lida bolta bilan hovliga chiqdi va qayin g‘o‘lalarini tanlay boshladi. Izg‘irin fufayka ichiga ham kirdi... Biroq Alyosha bolta bilan silkinib-silkinib, qizib oldi.

U sarjindan yo‘g‘onroq g‘o‘lalarni tanlab oladi... Tanlab-tanlab, cho‘chqachadek qo‘liga oladi va xarrakka olib boradi.

– Buni qarang, qanday-a, – deb erkalatardi u g‘o‘lani. – Ataman-a, ataman... – Ana shu «ataman»ni kenggina to‘nkaga qo‘yib, to‘qillatishga tushadi.

Hash-pash deguncha kattagina g‘aram qilib qo‘yadi... G‘aramga qarab turib qoladi. Bu g‘o‘lalarning oqligini, hali nami qochmay bejirim turganini aytmaysizmi, ulardan dimoqqa urilayotgan yog‘och isi-chi – hali buzilmagan, sal hovuri ko‘tarilgan, o‘rmon hidi anqib turibdi...

Alyosha ularni hammomga tashiydi, tosh yoniga avaylab taxlaydi. Hali fursati keladi – gurillatib yoqish ham ko‘ngilni iydiradigan mashg‘ulot. Alyosha hatto o‘t yoqqanda hayajonga tushardi. O‘zi umuman olov yoqish Alyoshaning jon huzuri.

Lekin hali suv ham tashish kerak. Ko‘p ham yoqimli ish emas-u, ammo zerikarli ham emas. Alyosha tezroq tashib qo‘yishga chiranardi. Suv to‘la paqirni obkashda eltayotganda, shunday bedana yurish qilardiki, to‘kib yubormaslik uchun daroz qaddini shunday dol qilardiki, ko‘rib kulgisi qistaydi odamning. Quduq yonidagi xotin-xalaj ko‘z uzmay qarab turishardi. O‘zaro luqma tashlab ham olishadi.

– Sen bir qaragin, naq prujina-ya! Dorboz!

– Bir tomchiyam to‘kmaydi-ya!

– Qayoqqa opketyapti o‘zi?

– Qayoqqa bo‘lardi, hammomni isitgani-da.

– Hali vaqtli-ku!

– Kun bo‘yi boshi bilan sho‘ng‘iydi hammomga. Tajang deganlarichayam bor-da... bu Alyoshaning.

Alyosha mo‘rchatosh ustidagi qozonni to‘ldiradi, yog‘och kadini ham, yana o‘n besh yil avval o‘zi sotib olgan, jujuqlarining hammasini galma-gal cho‘miltirgan rux qoplangan vannani ham. Endi vannani hammomga moslab olgan. Biram yaxshiki! Supaning bir chetiga qo‘yilgan, ko‘p joy egallamaydi – parlanishga xalal bermaydi – qo‘l uzatsang, bas, suv yoningda. Alyosha supada lohas bo‘lib, sochlari chirsillay boshlaganda, boshini ana shu vannadagi suvga pishib-pishib olardi.

Alyosha suvni tashib bo‘lib, chekib olish uchun po‘saxonaga o‘tiradi. Buyam bir laziz daqiqalar-da – tutati-i-ib o‘tirish. Shu damda Alyosha hammom kiyimxonasi va hammomga taqab qurilgan qaznog‘idagi ashqol-dashqollarini ko‘zdan kechirishni yoqtirardi. Yo‘q narsaning o‘zi yo‘g‘-a bu yerda! Dastasiz eski chalg‘ilar, almisoqdan qolgan xaskash, panshaxa... Dastgohchayam topiladi, tuppa-tuzuk asbob-uskunalar ham: randa, dastarra, iskana... Bular yakshanba kunga, ertaga shu yerda timirskilanadi.

Hammom hali nim qorong‘i, isimagan, lekin uning chuchuk, muzday isi qayin tarashalari hidi bilan aralashib ketgan – sezilar-sezilmas bilinadi – bu hademay yuz beradigan huzur-halovatdan darak. Alyoshaning yuragi turib-turib shodlikka to‘ladi, «Hoz-zir»,

deb o‘ylaydi. Hali hammomni yuvib chiqishi kerak: hatto mana shu ishni ham xotiniga ishonmaydi. Supurgi, bankachada qum tayyorlab qo‘ygan... Alyosha fufaykasini yechdi, ko‘ylagining yenglarini shimarib, ichkarini yog‘ tushsa, yalaguday qilib tozalashga kirishdi. Hamma yoqni yuvib chiqdi, supurib-sidirdi, toza suv sepib, lattada artdi. Lattani chayqab, zarang daraxti shoxiga ilib qo‘ydi. Zarang hammom yonida ko‘kka bo‘y cho‘zgandi. Ana endi suv to‘ldirsa ham bo‘ladi. Alyosha tag‘in bir tutatib oldi... Qovog‘idan qor yog‘ib turgan osmonga, olis ma’yus ufqqa, qishloqqa ko‘z tikdi... Hech kimnikida hammom yoqilmagan. Keyinroq yoqishadi, oqshom mahali, tezgina cho‘milib olishadi, «pash-pash» qilib... Achchiq tutunni ichlariga yutib, badanlariga hammomsupurgi urib terlab-pishib o‘tirishadi. Obdan bug‘lanishadimi-yo‘qmi, karavotga arang yetib kelib, jasadlarini tappa tashlashadi-da, manavini hammom desa bo‘ladi, deb o‘ylashadi. Heh, o‘rgildim!.. Alyosha tamaki qoldig‘ini yerga tashlab, etigi bilan nam yerga yaxshilab ezg‘iladi va hammomga suv to‘ldirgani ketdi.

G‘o‘lalarni hamma qatori mo‘rchatoshga terib chiqdi: ikkitasini bunaqasiga, bittasini unaqasiga, ko‘ndalangiga, keyin ustidan. Olov tili hosil bo‘ladigan yerga tutantiriq, qog‘oz-pog‘oz qo‘yishadi, hozir yermoyi ham quyishadigan bo‘lishibdi. Alyosha esa hech nima taxlab o‘tirmaydi: ko‘ndalangiga qo‘ygan g‘o‘lani o‘rtasidan yorib tarasha qilib maydalab qo‘yadi, ana shu tarashalarni yoqsa bo‘ldi – lov etib o‘t oladi-qo‘yadi. Mana shu gurillab yona boshlashi zap hayajonli lahza-da. Oh, oromijon! Alyosha mo‘rchatosh qarshisiga cho‘kkaladi-da, olov avvaliga lipillab-lipillab, keyin esa dilga o‘t solib, gurillab ketganiga ko‘z uzmay o‘tirdi. Alyosha hamisha olovga tikilib ko‘p o‘yga tolardi. Masalan: «Mana, sizlar, hamma odamlar bir xil yashashini xohlaysizlar... Ikkita tarasha bir xil yonmaydi-ku, sizlar bo‘lsa odamlar teng yashasin, deysizlar!» Yoki o‘zicha bir yangilik ham o‘ylab topadi: odam o‘lim to‘shagida yotganda, ittifoqo, yashagisi kelib ketadi, shunday umid qiladiki, biron-bir malhamdori topilishidan suyunib ketadiki!.. Bu-ku ma’lum. Biroq har qanday cho‘p-xas ham shunday: birdan gur etib o‘t oladi, shunday yorishib yonadiki, hayron qolasan kishi: qayoqdan paydo bo‘larkin bunaqa oxirgi shiddat?

O‘tin risoladagiday yona boshladi, endi borib choy-poy ichsa-yam bo‘ladi.

Alyosha qo‘lyuvgichda yuvinib oldi, artinib, ko‘ngli yorishib uyga kirib ketdi.

U hammomga unnaguncha, bolalari birin-ketin maktabga jo‘nashdi. Alyosha eshik ochilib-yopilganini, darvoza g‘iyqillaganini eshitib turdi. Alyosha bolalarni yaxshi ko‘rardi, lekin hech kim Alyoshani bolalarga bunchalik mehri tovlanadi, deb o‘ylamasdi: shunchaki mehrini ko‘rsatmasdi. Gohida bitta-yarimta churvaqaga qarab turardi-da, yuragi mehr-muhabbatdan zirqirab ketardi. Turib-turib, falakning gardishiga hayron qolardi: inson nimadan yaralgan-a o‘zi?! Qariyb yo‘qdan bor bo‘lgan, zarraning zarrasidan yaralgan. Bolalarni, ayniqsa, jujuqliklarida, norasidaliklarida ko‘proq yaxshi ko‘rardi. Mana, yoshgina nihol: qani, bor kuching bilan yopish, tirmash. Hali hammasi oldinda – hech qanaqa aql-paql bilan ulg‘ayib qolmaysan. Mana, o‘rmalab-emaklab katta bo‘lishyapti. Alyoshaning qo‘lida bo‘lganda-ku, yana beshtasini yasab olardi, lekin xotini charchagan.

Choy ustida xotini bilan gurunglashib oldi.

– Sovuq tushdi-ya. Qara, qor ham yog‘voradi-yov, – dedi xotini.

– Yog‘adiyam. Mayli-yu, lekin xo‘l yerga yog‘sa, baharnav edi.

– Isitdingmi?

– Isitdim.

– Kuzmovna kelgandi... Qarz olgani.

– Xo‘sh? Berdingmi?

– Berdim. Chorshanbagacha, deydi, keyinroq kartoshka puli olarkan...

– Ha, mayli. – Alyoshaga ularning, masalan, pul qarz olishlari yoqardi – odamlarni ko‘ziga bemalol masrurlik bilan qaraysanda. «Tajang, Tajang», deyishlari tillaridan tushmay qolgandi o‘zi. Ahmoqlar.

– O‘n besh rubl. Chorshanbada kartoshka puli olamiz, deydi...

– Bo‘pti-da. Borib, davom ettiray-chi.

Xotini indamadi, bo‘pti, boraver yoki shunga o‘xshash gap ham qilmadi. Ilgarilari bobillab berardi, ish janjalgacha yetib borardi: hali uni, hali buni qilish kerak – uzzukun hammom isitmaysan-ku! Alyosha shundayam zig‘ircha-da yon bermasdi: shanba kuni faqat hammom. Gap tamom, vassalom. Menga desa, yonib ketmaydimi! Qurib ketsin hammasi! «Nima, mingta jonim bormi?!» deb baqirardi Alyosha g‘ayriixtiyoriy ravishda. Taisya – xotini mana shundan

qo‘rqardi. Gap shundaki, Alyoshaning akasi Ivan shu tarzda o‘zini otib qo‘ygan. Bunga uning xotini sababchi bo‘lgandi: ikkovi nimaningdir ustidan adi-badi aytishib qolishgan, alaloqibat, qo‘ydi-chiqdi shungacha yetib borganki, akasi Ivan boshini devorga gurs-gurs urib: «Qachongacha azob chekaman?! Qachongacha?! Qachongacha-a?!» deb nolishga tushgan. Befahm xotini esa uni tinchlantirish o‘rniga ustidan kula boshlagan: «Qani, bo‘l... Kuchliroq ur! Qani, ko‘raylikchi, peshonang qattiqmikin yoki devormi?» Ivan miltiqni changallab oladi... Xotini hushidan ketib, gursillab yiqiladi, Ivan esa ko‘ksiga qurol tiraydi. Ikki norasida bolasi chirqillab qolaveradi. O‘shanda Taisyani ogohlantirishgandi: «Qara lekin... bularning qonida bo‘lmasin tag‘in». Shundan keyin Taisya pisib qolgandi.

Choy ichib bo‘lib, Alyosha issiqina pechka yonida chekdi va yana-tag‘in hammomga qarab ketdi.

Hammom to‘libdi.

Eshikdan bir tekis, shiddat bilan, xuddi daryo o‘zanini boshqa yoqqa burayotgandek, tutun ko‘kka o‘rlaydi. Boshida shunaqa bo‘ladi o‘zi, keyin, mo‘rchatoshda qaynoq harorat yig‘ilib qolgach, tutun kamayadi. Vaqtida qalab ham turish darkor: cho‘g‘ni burchakka itarmaslik ham kerak, tiqishtirib tashlamaslik ham kerak – olov yayrab-yayrab yonishi lozim. Emin-erkin, mo‘l-ko‘l bo‘lib, hamma burchaklarda birdaniga yonishi kerak. Alyosha tutun tagidan mo‘rchatosh yoniga borib, polga o‘tirdi va birmuncha fursat lang‘illama olovdan ko‘z uzmay qoldi. Pol oz-moz qizibdi; yuzi va tizzalariga issiq tegyapti, biron narsa bilan yopinib olish kerak. Hozir bu yerda o‘tirmaganiyam ma’qul: bilib-bilmay is gazi yutib yuborishi mumkin. Alyosha uquv bilan so‘xtalarni siljitib, hammomdan chiqdi. Hali ish ko‘p: hammomsupurgi tayyorlashi, fonarga yermoyi quyishi, qarag‘ay shoxlarini shay qilib qo‘yishi kerak... Nimanidir so‘zsiz, dimog‘ida hirgoyi qilgancha, Alyosha hammomsupadan tushdi, poyasi qalinroq hammomsupurgini tanladi, so‘ngra kundaga qarag‘ay shoxlarini qo‘yib butab chiqdi – tekis qilib, butoqlarsiz. Bir quchoq qilib xarrakka taxladi. Xo‘sh, bunisi tayyor. Yana nima? Fonar!.. Alyosha tag‘in tutun ichiga kirdi, fonarni olib chiqdi, chayqatib ko‘rdi – to‘ldirish kerak. Yermoyi oz-moz bor-u, lekin... keyin bosh qotirmaslik uchun quyib qo‘yish kerak-da. Alyosha hirgoyisini davom ettirdi... Ko‘ngli biram xotirjamki, e Xudoyim! Bolalari soppa-sog‘, hech kim bilan sen-menga bormadi, hatto

qarz ham olishdi... Umr deganlarining eng asosiy damlari qachon-a o‘zi? Urushdami? Alyosha jang qilgan, yarador bo‘lgan, sog‘aygan, yana qaytib jangga kirgan. Keyinchalik Alyosha umr bo‘yi urushni nafrat bilan esladi. Urush haqida bironta ham kinofilm ko‘rmadi – ko‘ngli ag‘darilib tushardi. Odamlargayam hayron qolasan – o‘-o‘-o‘tirib ko‘raverishadi! Begona quloq eshitsa, ishonmaydi-yu, ammo-lekin Alyosha hayot haqida jiddiy, chuqur mulohaza qiladi: uning siri nimada, suyib-ardoqlash kerakmi, masalan, yoki qiladigan ishim qolmadi, deb, tinchgina oyoqni uzatvorgan ma’qulmikin? Hatto tasavvuriga ham zo‘r berib ko‘rdi: baland-baland ucharmish, yuqoridan yerga qararmish... Lekin baribir anglab yetmadi: og‘ilxonadagi sigirlarini tasavvur qilib ko‘rdi – qumursqadek mayda... Odamlar, ularning hayoti borasida ham yalt etgan fikr bo‘lmadi. Xo‘sh, shunday ekan, hayotni sevish kerakmi yoki yo‘qmi? Keyinroq, oxirgi damlarda undoq yashamadim, bundoq ishlarni qilmadim, deb o‘kinib qolsang-chi? Yoki bunday bo‘lmasmikin? Boshqalar tinch-osoyishta jon berishadi-ku, osmon uzilib, yerga tushmaydi-ku. To‘g‘ri, achinasan, noxush holat: baribir yomon emas-da. Alyosha xayoliga ana shu «baribir yomon emas-da», degan fikr kelib qolganda, hayotida bo‘lib o‘tgan bir voqeani esga olardi. Xullas, bunday bo‘lgandi. Urushdan qaytardi... Manzil uzoq – qariyb butun mamlakatni bosib o‘tish kerak. Lekin taraqa-turuq qilib ketishardi. Qaysidir kichikroq stansiyada, O‘rolga yetishmagandi, perronda Alyoshaning oldiga bir juvon keldi va elanishga tushdi:

– Quloq sol, askar, meni o‘zing bilan olib ket – axir, opang qatoriman... Sen bilan shu yerda ko‘rishgandayman. Zudlik bilan jo‘nab ketishim kerak, lekin hech ketolmayapman.

Front ortida mehnat qilganga o‘xshaydi, to‘lachadan kelgan, bo‘ynida xoli bor ekan, lablarini bo‘yab olibdi... Durustgina kiyinib olibdi. Lablari kichkina, tepa labining ustini hat bosgan. Mo‘ltirab qaragancha, Alyoshaga barmoqlari bilan teginadi, silab qo‘yadi. Sal-pal uyalganday bo‘ladi, lekin baribir nozlanib ko‘z suzadi. Alyosha urushda bironta ham ayolga yaqinlashmagandi... Urushgacha ham maqtansa arzigulik ish qilmagandi: faqat bazm-kechalarda qizlar bilan og‘iz-burun urishtirgandi. Shu, xolos. Mana bunisi esa g‘alati qarab turibdi... Alyoshaning yuragi hapriqib ketdi, shunday hayajonlandiki, qulog‘i tom bitdi, og‘zi ochilib qoldi.

Lekin baribir birga ketishdi.

Vagondagi askarlar ham tinchlarini yo‘qotishdi, ammo manavi tannoz Alyoshaga chippa yopishib oldiki, ortiqcha yaqinlashib ham bo‘lmaydi, xijolat tortadi odam. Boradigan manzili uzoq emas ekan: ikki stansiyadan keyin tushadigan bo‘ldi. Voqea oqshom mahali yuz berayotgandi. Juvon ma’yuslanib bunday dedi:

– Stansiyadan sal narida turaman. Lekin bir o‘zim ketishga qo‘rqyapman. Boshim qotdi, nima qilsam ekan...

– Uyda kimdir bormi? – beixtiyor og‘zidan chiqib ketdi Alyoshaning.

– Hech kim yo‘q, yolg‘iz o‘zimman.

– Mayli, kuzatib qo‘yaman, – dedi Alyosha.

– O‘zing nima qilasan keyin? – hayron bo‘lib, sevinib ketdi juvon.

– Ertaga boshqa eshelonda ketarman... Qurib ketmagan-ku!

– Ha, har kuni o‘tadi... – deya tasdiqladi juvon.

Ikkovlashib juvonnikiga yo‘l olishdi. Alyosha uyga olib ketayotganlari qo‘lida edi: ikki juft zobitcha etik, xuddi shunday zobitcha gimnastyorka, nemis gilami. Juvonnikiga olib boruvchi yo‘lni, o‘sha gunohga botgan tunni Alyosha goh-goh eslab turardi. To o‘sha nozanin bilan ketisharkan, Alyoshaning butun badani qizib, gung-gurs bo‘lib, dahshat qamrab olaverdi... Yurish biram holdan toydiradigan va og‘ir bo‘ldiki, xuddi kun davomida tandirday qizib turgan iyun osmoni yerga tushganday edi. Alyosha zil-zambil oyoqlarini arang sudrar, og‘ir-og‘ir nafas olar, go‘yo miyasining qatig‘i chiqib ketayotganday tuyular edi. Hozir ham ikir-chikirigacha eslaydi. Alya – juvonning ismi shunday edi – uni qo‘ltig‘idan ushlab oldi... Alyosha uning dag‘al krepdeshin ko‘ylak ostidagi qo‘li qanday yumshoq, issiqina ekanini yaxshi eslaydi. Egnidagi ko‘ylagining rangi yodida yo‘g‘-u, biroq ana o‘sha krepdeshinning uchli-uchli tikanaklari, issiq g‘adir-budurini hozirgacha yodidan chiqarmagan. O‘sha krepdeshin allatovur ham tikanakli, ham silliq edi. Qo‘lidagi mo‘jazgina soatcha ham esida – ingichka tasmasi qo‘lini qisib turardi. Ana o‘shanda, juvonning o‘zi unga mayl bildirib, qo‘ltig‘idan olib, keyin qaynoq biqini bilan asta teginganda, Alyosha karaxt bo‘lib qolgandi... Qo‘lining tafti ham xotirasidan ko‘tarilmagan. Ha-a... Xullas, tunda arqonlar bir yechildi-da. Tongda Alyosha na juvonni, na o‘zining lash-lushlarini topoldi. Keyinroq, vagonda ketayotganda (hujjatlariga tegmabdi), juvon eshelonlarni kutib

olib, anqovroq askarlarni tanlashini anglab yetdi. Lekin ertalab: Alyosha, nemis gilamingni ber, gimnastyorkangniyam ber, maylimi, etiklaringniyam bera qol, deb so‘raganda, hammasini qo‘shqo‘llab uzatgan bo‘lardi. Balki bir juft etikni o‘ziga olib qolarmidi.

O‘sha krepdeshin ko‘ylakli Alyani eslab qolardi goho. O‘zi bilan o‘zi qolganda, Alyosha miyig‘ida kulib qo‘yardi. Bu voqeani hech kimga, hech qachon aytmagandi, unga, Alyaga esa ko‘ngli tushib qolgandi. Ana shunaqa.

O‘tinlar yonib bo‘ldi... Tilla, qaynoq cho‘g‘ uyumi tin olar, hararot chiqarar edi. Dam-badam ko‘kish alanga lipillab ham qoladi... Ana senga o‘t-alanga. Qani, hammasi – devor, pol, hammomsupa qizib, cho‘g‘ bo‘lsin-chi... Keyin qo‘l tekkizib bo‘psan.

Alyosha polga qarag‘ay shoxlarini tashladi – naq o‘rmondagi jazirama Toshkentga aylanadi, bu shoxlardan shunaqangi ifor, kishini sarmast qiluvchi xushbo‘y is taraladiki, e-e, jin chalib ketsin-ey, maza bo‘ladi! Alyosha har doim oxirgi daqiqalarda behalovat bo‘lishni istamasdi, lekin hech uddasidan chiqolmasdi. Hovlida timirskilanib, bolta-moltalarni yig‘ishtirib qo‘yardi... Yana-tag‘in hammomga kirdi – ha, yo‘q, hali bor.

Alyosha uyga kirdi.

– Ich kiyim uzatvor, – buyurdi xotiniga, shodligini yashirishga urinib. Negadir uning shanba kungi shodligi hammaning g‘ashiga tegardi. Hech tushunib bo‘lmaydi-da bu odamlarni: o‘zlari tentaklik ustiga tentaklik qilishadi, boshlari noma’qulchilikdan chiqmaydi-yu, yana ensa qotirib, to‘ng‘illaganlariga o‘lasanmi, tushunishmaydi-da.

Xotini Taisya miq etmay sandiqni ochdi, qopqog‘i tagiga boshini suqdi... Bu Alyoshaning ikkinchi xotini. Birinchisi, Sonya Polosuxina qazo qilgan. Undan bola ko‘rmagan. Alyosha ikkalasi haqida: Sonya haqida ham, Taisya haqida ham kamroq o‘ylardi. Alyosha beligacha yechinib, kursiga o‘tirdi. Yalang oyoqlarini o‘ziga tortdi, allatovur huzurni tuydi. Yana bitta tutatvolsa... Lekin bolalari tug‘ilganidan beri uyda chekish odatini tashlagan.

– Kuzmovnaga pul nega kerak bo‘p qopti? – so‘radi Alyosha.

– Qaydam. Sob bo‘lgandir-da, shunga zarur bo‘lgandir. Nonni, axir, shimildiriqqa sotib olishmaydi-ku.

– Kartoshkani ko‘p topshirishiptimi?

– Ikki arava... Yigirma qopcha.

– Pulni kuraklab olisharkan-da!

– Ha, kuraklab olishadi. Hamma shunaqa deyapti... Ular hisob-kitob daftariga yozilmagan, deb o‘ylaysanmi?

– Qanaqasiga yozilmagan bo‘lsin! Masalan, Solovyovlar yozilmagan.

– Ishtonni issiqrog‘idan beraymi? Yo paxtaligidanmi?

– Paxtaligidan bera qol, hozircha sovuq suyak-suyakka o‘tgan yo‘g‘-u.

– Ma, ol.

Alyosha toza ishtonni olib, tizzasiga qo‘ydi. Hammomni o‘ylab, birpas o‘tirdi.

– Ha... mayli.

– Kolkaning tag‘in anginasi og‘rib qopti.

– Nega maktabga jo‘natding bo‘lmasa?

– Qaydam... – Taisya o‘g‘lini nega maktabga yuborganini o‘zi ham bilmasdi. – Dars qoldirib nima qiladi?! Shundog‘am boray-bormaymi deb o‘qiyapti.

– Ha... – Qiziq, Alyosha bolalarini kasal bo‘lishi borasida, hatto qattiq og‘rib qolganlarida ham jiddiy o‘ylab ko‘rmagan ekan – shunchaki yomon narsalarni o‘ylamaslikka tirishardi. Xayoligayam kelmagan ekan.

Shukurki, birontasiyam o‘lmadi. Ammo-lekin Alyosha bolalari ta’lim olib, katta shaharga ketib, hurmat-ehtiromga erishishlarini biram istardiki! Yozda esa bu yoqqa, qishloqqa kelisharmidi, Alyosha ularning yonida – kelinlarining, kuyovlarining, nevaralarining yonida kuymalanarmidi... Axir, Alyoshaning qanchalik mehribon, jonkuyar ekanini birov bilmaydi, shaharliklar esa darrov payqagan bo‘lishardi. Nevaralari hovlida chopqillab yurishardi... Yo‘q, yashashdan baribir ma’no bor. Har doim ham yashashni eplolmasligimiz, endi, bu boshqa gap. Ayniqsa, qishloq to‘nkalari – voy, shunaqangi o‘r xalqki bular! O‘zimizdan chiqqan o‘qigan odamlarni olaylik – agronomlar, o‘qituvchilar, masalan: shaharda o‘qib, yana qishloqqa qaytgan qishloqidan ko‘ra dimog‘i shishganrog‘ini topolmaysan-ey. Gerdayib yurishini-chi, birovni nazar-pisand qilmaydi-ya! Bo‘yi bir qarich bo‘lgani bilan, hammaga yuqoridan qarashiga o‘lasanmi! Shaharliklar esa ko‘ppaklarini, madaniyatlarini ko‘rsatishni bilishadi va hech kimni tahqirlashmaydi. Shaharlik, aksincha, birinchi bo‘lib o‘zi senga salom beradi.

– Xo‘sh... Mayli-da, – dedi Alyosha. – Boray-chi.

Shunday qilib, Alyosha hammomga qarab ketdi. U uydan hammomga mana shunaqa ob-havoda, sovuq va namgarchilikda borishni yoqtirardi. Birgina ishtonda, sovqotish uchun, atay sekin borardi. Yo'l-yo'lakay bitta-yarimta bahona ham topib olardi: itning zanjirini yechadi, sal nariroqqa yurib, darvozani yaxshilab yopadi. Muzlab qolish uchun shunaqa qiladi.

Xarrakda Alyosha qip-yalang'och bo'lib yechindi, o'ziga bir ko'z yugurtirib oldi, hali zuvalasi pishiq. Yuragi bir simillab qo'ydi – hammomda o'tirishni istayapti. Alyosha o'zining betoqatlanayotganiga kulib qo'ydi. Yana birpas xarrakka o'tirdi... Eti junjikib, xuddi o'sha krepdeshinday, g'uddalar paydo bo'ldi, heh... Dard ustiga chipqon, hayotda nimalarni bo'lmaydi! Alyosha shanbani shuning uchun ham yaxshi ko'rardiki, shu kuni u ko'p mulohaza qilar, xotirlar, o'ylar edi. Xo'sh, qanday buyuk qadriyatlar uchun shanbani tortiq qilishi kerak ekan sizlarga? A?

Yeturman, yeturman,
Habibaga yeturman!..

deb kuyladi Alyosha asta va eshikni ochib, hammomga kirdi.

Eh, hayot!.. Qishloqda umumiy hammom bo'lardi. Alyosha bir marta kirib ko'rgan. Kulgi-yu, gunoh! Ayni lo'lilar cho'milayotganda kiribdi. Ular cho'milmasdi, asosan pivo ichib o'tirishardi. Erkaklar lo'lilarga javrashadi, ular ham qolishmaydi: «Hammom nimaligini bilmaysizmi?» Bilishadi! Umumiy hammomda o'tirvolib, pivo ichishni bilishadi, xolos. Hammom emas, qandaydir mojaro. Yaxshiyamki, shanba kuni bormabdi; shanbada o'ziniki yoqib, isitib, umumiy hammom haqidagi barcha xotiralarini yuvib tashladi.

...Ana, hayot boshlandi – aniq-tiniq, ammo baribir tushuniksiz – aziz va qadrdon. Alyosha tog'ora, paqirni ishga soldi – kichkina Toshkentni sozlashga tushdi. Har qanday zararli zo'riqishlar Alyoshani tark etdi, mayda fikrlar yo'qoldi, qalbga barqarorlik, yaxlitlik, shaffoflik indi – hayot ravshanlashdi. Ya'ni hayot deganlari yonginasida, hammom darchasi ortida-yu, lekin Alyosha undan, uning g'alvalaridan, battolliklaridan uzoqlashdi, endi Alyosha yuksaldi, muruvvatliroq bo'lib qoldi.

Huzurlanganidan jo'shib ketgan Alyosha badanidan duv-duv ter oqmaguncha kuylashni juda-juda yaxshi ko'rardi. Tog'oraga suv quyayotib, jildir-jildir oqishiga quloq tutgancha, beixtiyor past ovozda

kuylay boshlardi. O‘zi ko‘p ham qo‘shiq bilavermasdi: bitta-yarimta qishloq termalari-yu, bolalari kuylab yuradigan qo‘shiqlarni uzuq-yuluq yodlab olardi. Hammomda o‘sha termalardan xirgoyi qilishni yoqtirardi.

Atrofga boqaman,
Jonim yo‘q.

deya kuyladi Alyosha, suv hovuchlab olgancha.

Voroshilovniki kabi
Paxxamayma jingalak kokil.

Yana suv hovuchlab oldi-da, yana kuylashda davom etdi:

Hammmomga o‘t yoqqan onam
Parlanishga qistar meni, eh!
Onajon, hammomki na kerak,
Jonajonim to‘yi bo‘lar, oh!

Tog‘oraga suv to‘ldirdi... Qaynoq suv to‘la tog‘oraga esa hammomsupurgini yumshatishga solib qo‘ydi. Cho‘milishga tushdi... To‘xtab-to‘xtab, tanaffus bilan ishqalandi. Issiq polga, shoxlar ustiga o‘tirdi, suvni shapillatdi va ming‘irlab kuylab ham qo‘ydi tag‘in:

Yolg‘iz yo‘ldan keturman,
Xayolim har tomonda.
Bekor, jonim, maqtangansan,
Ortimdan ergashur, deb.

U xuddi issiqqina daryoda g‘alati tarzda, o‘tirib olgancha ravon suzib ketayotgandek edi. Issiq-issiq suv naq yuragiga oqib kirayotgandek.

So‘ngra Alyosha supaga chiqib yotdi. Nogoh, bir kun kelib mana shunday holatda oyoqni uzatvorsam-chi, deb o‘yladi... Alyosha hatto qo‘llarini ko‘ksiga qovushtirgancha, birpas yotib ko‘rdi. O‘zini tobut ichida tasavvur qilishga urinib, o‘likka o‘xshashga chirandi. Ko‘z oldida nimalardir gavdalana boshladi – boshining izi qolgan yostiq, yangi pidjak... Lekin yuragi dosh bermadi, Alyosha o‘rnidan turdi va ta’bir xira bo‘lib, ustidan suv quydi. Ruhini tetiklashtirish uchun yana xirgoyiga o‘tdi:

Yeturman, yeturman,
Habibaga yeturman!

E, jin chalsin! Kelsa kelaveradi-da, nega elburutdan mashq qilishi kerak ekan?! Shunisi g‘alatiki, Alyosha urushda o‘lim haqida umuman o‘ylamasdi ham, qo‘rqmasdi ham. Yo‘q, albatta, ajaldan o‘zini imkon qadar panaga olardi, ammo bunaqangi tafsilotlarga berilib o‘tirmasdi. Shayton olsin ajalni! Vaqti-soati keladi baribir, qayoqqayam qochib qutulardi. Gap bunda emas. Gap shundaki, yer yuzidagi bu bayram – umuman bayram emas, uni bayram deb ham tushunmaslik kerak, kutish ham kerak emas, shunchaki xotirjamgina qabul qilish va «mijoz oldida tipirchilamaslik» kerak. Alyosha yaqinda bir latifa eshitgandi: emishki, bir qo‘shmachi islovotxonada qizlariga: «Asosiysi, mijozlar oldida tipirchilab qolmanglar», deb o‘rgatibdi. Alyoshaning labiga tabassum yugurib: «To‘g‘ri, mijoz qarshisida ortiqcha tipirchilaymiz», deb o‘yladi. Yerda yashash baribir yaxshi, oyoqni qo‘lga olib hovliqishga balo bormi? Qolaversa, kutilmaganda kelgan shod-xurramlik shirinroq bo‘ladi. Shanba – bu boshqa gap, shanbani bir hafta kutadi. Shunday damlar bo‘ladiki, ertalabdan xunobing oshgan, ko‘ngling chiroq yoqsa, yorishmaydi. Sigirlarni haydab qishloq chetiga chiqasan, oftob bosh ko‘tarib kelaveradi, unda-bunda butalar tepasidan boshlab olovrangga kira boshlaydi... Shunda tuyqus kutilmagan shodlik qalbingga iliqlik olib kiradi, ahvoli ruhiyang shunday ko‘tariladiki, e yo‘q, be yo‘q tirjayayotganingni o‘zing ham payqamaysan. Oxirgi paytlarda Alyosha ongli ravishda mubtalo bo‘layotganini sezib qoldi. O‘ylab ko‘rsa, qishloq ortidagi cho‘l, shafaq, yoz kunlari jon-dili ekan... Ya’ni u mehr-muhabbati jo‘shayotganini anglab turardi. Qalbiga tinchlik-osoyishtalik eshik qoqib keldi – mehr-muhabbati allaqachon kurtak yozgandi. Odamlarga mehr qo‘yish qiyinroq, lekin bolalar va cho‘lni esa, masalan, u hammasidan ko‘proq yaxshi ko‘rardi.

Shunday o‘y-xayollarga borardi Alyosha, ungacha esa qo‘li ish bilan band bo‘lardi. Muattar hid taratayotgan hammomsupurgini tog‘oradan oldi, bir chayqab olib, ustidan sovuq suv quydi... Keyin doshqozondan cho‘michda qaynoq suv oldi-da, mo‘rchatoshga sepdi – birinchisi, sinashta. Mo‘rchatosh vishilladi, pag‘a-pag‘a bug‘ ko‘tarildi. Harorat quloqlariga urildi, tomog‘igacha kirib bordi... Alyosha o‘tirdi, hovuri bosilishini kutdi, keyin esa lip etib supaga chiqib oldi. Supaning taxtalari biqini va belini kuydirmasligi

uchun tog‘orada suv sepdi. Hammomsupurgi bilan badaniga sekin-sekin urdi. Boshqalarning xatosi shundaki, ular darrov bor kuchlari bilan hammomsupurgida shuvillatib ura ketadilar. Yo‘q, bunaqasi ketmaydi, avvaliga hammomsupurgida tanani, yelkalarni, biqinni, qo‘llarni, oyoqlarni qitiqlash kerak... Sekin-sekin, sal-sal, bir chimdim, bir chimdim. Alyosha bu ishni qotirardi: sekin-astalik bilan badaniga hammomsupurgini silkib-silkib uradi, mayda yaproqchalari, go‘yo jajji, qaynoq kaftdek, terisiga tegadi, maylini oshiradi, birdaniga savalanish istagini qo‘zg‘aydi. Lekin Alyosha bunday qilmaydi. Chayinib olib, yotdi... Mo‘rchatoshga yana yarim cho‘mich suv sepdi, hammomsupurgini mo‘rchatoshga, bug‘ga tutdi va tizzasining orqasi, beliga qo‘ydi... Supadan tushdi-yu, eshikni ochib qo‘ydi va tamaki buruqsitish uchun o‘rindiqqa o‘tirdi. Endi unda-bunda qolgan is gazi bug‘ bilan chiqib ketadi. Mo‘rchatosh quriydi, toshlar qiziydi, ana shunda hadiksiramay, miriqib parlanish mumkin. Ana shunaqa, qadrdonlar.

...Alyosha qosh qoraya boshlaganda hammomdan chiqdi. Onadan yangi tug‘ilganday, butun badanidan bug‘ chiqib turardi. Po‘saxonaga kalishini yechib, oyoqartgichdan yurib, mehmonxonaga o‘tdi. Karavotga cho‘zildi. Endi vujudiga quloq solmasdi, tevarak-atrof gir-gir aylanardi.

Mehmonxonada to‘ng‘ichi Boris kitob o‘qib o‘tirardi.

– Qushday yengil bo‘ling! – dedi Boris.

– Mayli, mayli, – dedi Alyosha ko‘zini bir nuqtadan uzmay. – Hammomga kir.

– Hozir boraman.

O‘g‘li Boris anchadan beri otasi molboqar, podachi ekanidan uyaladigan, o‘zini o‘ng‘aysiz sezadigan bo‘lib qolgan. Alyosha buni payqagan bo‘lsa ham, indamasdi. Avvalboshda ko‘ngli ranjidi, ammo keyin o‘ylab ko‘rib, o‘g‘lidagi o‘zgarishni bilmaganga oldi. Yosh-da hali, oyni benarvon uraman, deydi. Mayli. Lekin yigitcha bo‘ychan, xushro‘y bo‘lib o‘syapti, Xudo beraridan qismasin, eslihushli er-yigitga aylanadi. Yaxshi bo‘ladi. Qarang-a, otasi cho‘pon ekanidan uyaladi... Eh, dilbandim-a! Qani, nishonni balandroq ol, osilsang, baland dorga osil. O‘qishi durust. Onasi qaysidir qizni kuzatib qo‘yayotganini aytib qoldi qay bir kuni... Hammasi yaxshi. Hayron qolasan kishi, lekin baribir yaxshi.

– Kira qolsang-chi hammomga, – buyurdi Alyosha.

– Qaynoqmi?

– Qaynoqligi qoptimi!.. Bir navi. Agar issiq bo‘lsa, tuynukni ochib qo‘y.

Alyosha o‘g‘illarini hammom qilishga hech o‘rgatolmadi-da – istashmaydi. Onasiga tortgan, Korostilyovlarga. O‘g‘li hammomga qarab ketdi, Alyosha esa qilt etmay yotaverdi.

Xotini kirib, sandiqqa bosh suqdi – o‘g‘liga kerakli narsalarni olmoqqa egildi.

– Esingdami, – dedi Alyosha, – Manyamiz kichkinaligida she’r to‘qigandi:

Oq qayin
Sel ostida,
Ustida ko‘k qariqiz,
Bunda qayin sovqotmas hecham.

Xotini sandiqdan bosh ko‘tarib, Alyoshaga qaradi... Birmuncha vaqt erining gaplariga o‘ylanib qoldi, hech vaqo tushunmadi, miq etmay, yana-tag‘in kuyadori hidi ufurib turgan sandiqqa bosh suqdi. Ishtonni olib, dahlizga chiqdi. Po‘saxonada bir dam to‘xtab, eriga o‘girildi.

– Xo‘sh? – deb so‘radi.

– Nima «xo‘sh»?

– She’r to‘qipti... Xo‘sh, nimani nazarda tutding?

– Biram kulgili edi. She’rni aytyapman.

Xotini ketmoqchi bo‘ldi, bekorchi gaplarga vaqtini behuda sovurishni istamadi, biroq nimadir esiga tushib, yana o‘girildi.

– Borovishka sigirimizni ichkariga qamab, yemini berish kerak – tert aralashtirib qo‘yganman. Men borib, bolalarni cho‘miltiray. Nafasingni rostlab, qarab qo‘yarsan.

– Mayli.

Hammom tugadi. Shanba esa hali nihoyasiga yetgani yo‘q, lekin hammom allaqachon tugadi.

KUYOVIM BIR MASHINA O‘TIN O‘G‘IRLADI!

Mushtdaygina, serzarda, jonsarak Venya Zyablitskiy xotini va qaynonasi bilan qattiq janjallashib qoldi.

Venya reysdan qaytib qarasa, charm palto olaman deb yiqqan pulini xotini Sonya o‘ziga sun’iy qorako‘l mo‘yna sotib olib, sob qilibdi. Sonya xaspo‘shlash maqsadida bunday dedi:

– Bilasanmi, shundoq tashlashgandi, hamma yoppasiga yopisha ketdi... Keyin men ham o‘ylab-o‘ylab, oxiri olaverdim. Qalay, boplabmanmi, Ven?

– «Olaverdim»? – zardasi qaynab peshanasi tirishdi Venyaning. – Yaxshiyam, birinchi o‘ylab, keyin olibsan. – Venyaning bir kun kelib charm palto kiyib, tugmalarini qadamay dam olish kuni qishloq bo‘ylab kerilib yurish orzusi uzoqqa surildi. – Rahmat. Eringning g‘amini yebsan... he, onangni...

– Bu nima deganing?

– Hech narsa, hammasi joyida. Rahmat, deyapman.

– Nega o‘zingdan o‘zing akillaysan?

– Kim akillayapti? Hammasi joyida, deyapman-ku! Axir, sen yoqavayron yuribsan, po‘stin kerak, albatta... Po‘stinsiz yurolmaysizlar-ku. Po‘stinsiz hayot hayotmi?! Tekinxo‘rlar.

Kulchayuz, biqqi Sonya onasiga arz qilgani chopdi.

– Oyi, qarang, qiliq ko‘rsatyapti – po‘stinni deb meni itdan olib itga soldi! – Sonya o‘zi o‘ttizga chiqdi, lekin qachon qarama yosh boladay onasiga shikoyat qilgani qilgan. – Tekinxo‘rlar, deyapti!

Mehmonxonadan qaynonasi chiqib keldi, u ham kulchayuz, oltmish yoshni qoralagan, zuvalasi pishiq kampir edi.

– Bu nima qiliq, Veniamin? – yozg‘irdi kuyoviga. – Boshqa er bo‘lganda suyunardi...

– Suyunyappan-ta! Shunchalik suyupyappanki, qip-yalang‘och bo‘lib, qishloqda ko‘chama-ko‘cha yugurishim qoluvdi.

– Agar aqling kaltalik qilayotgan bo‘lsa, unda eshit nima deyishayotganini! – ovozini balandlatdi qaynonasi. – Chiroyli, yasangan ayol – erning ziynati. Kim-kim, aynan sen bu haqda o‘ylab ko‘rishing kerak, ta’viya.

Venya rostdan ham xushro‘y emasdi (bo‘yi pastroq, ramaqijon, malla... Kamiga, oqsoqlanardi: o‘smirligida traktor tirkovchisi edi, kechasi tirkamada uxlab qolgan, egatga tushib ketib, plug g‘irch etib oyog‘ini bosib qolgan), bu haqda – ko‘rimsiz ekani haqida eslatishganda, qoni qaynab ketardi.

– Ha-a, siz bilasiz-da endi, odamlarni qanday yasantirish kerakligini! Naq ikkitasini yasantirdingiz-ku, axir... – Venyaning qaynotasi ham, Sonyaning sobiq eri ham o‘tirib chiqqandi. Qaynotasi kamomad uchun, Sonyaning eri esa mast bo‘lib mushtlashgani uchun. Qishloqda, erini ham, kuyovini ham qamalishida Lizaveta Vasilyevnaning qo‘li bor, degan mish-mish tarqalgandi.

– Og‘zingni yum! – kuyovining og‘ziga urdi Lizaveta Vasilyevna keskin. – Yo‘qsa, ko‘rsatib qo‘yaman men senga valdirashni!.. Ona suti og‘zidan ketmagan mishiqi!

Venyaning zardasi qaynab, turgan yerida tipirchilay boshladi... Qaynonasiga qarchig‘ayday yopirildi.

– Nega tovushingni ko‘taryapsan-a sen?! Nima haqqing bor?! Qari g‘ar...

Sonya mana shu gaplar uchun odamni qamoqqa tiqish mumkinligini anglab yetmagandi hali. U faqat onasidan o‘pkaladi.

– Voybo‘, yosh odam gapirmay qolsin... – deb sannadi eriga. – O‘zing endi yigirma sakkizga kirding-u, qari takaday sasiysan!

Qaynonasi esa, aksincha, bu gap-so‘zlar uchun qamash mumkinligini yaxshi bilib turardi.

– Nima-nima... Nima deding? G‘ar? Yaxshi! G‘armi?.. Yaxshi. Guvohlar oldida-ya. – U militsiyaga ariza yozish uchun mehmonxonaga o‘tdi. – Men senga ko‘rsatib qo‘yaman g‘or qanaqa bo‘lishini! – baqir-chaqir ovozi titrab chiqdi. – Burningni yerga ishqab qo‘ymasammi!..

– Qani, bo‘l, yozaver, yozishni ja-a hadisini olgansan. – Umuman olganda, Venya oz-moz qo‘rqib ketdi. Kim bilsin, bu shayton olgurni, butun tuman rahbariyati bilan osh-qatiq. – Senga odam qamatish cho‘t emas-ku!

– Men birinchilardan bo‘lib kolxoz tuzganman, g‘ar deganiga o‘laymi! – deb baqirgancha eshik tagida paydo bo‘ldi qaynonasi.

– Men haqimda-chi gazetada yozishgan, cho‘loq bo‘lsayam, moshin minadi, deb alqab-alqab yozishgan! – deb Venya ham baqirdi va ko‘ksiga mushtladi. – O‘n besh yillik mehnat stajim bor!

– Hechqisi yo‘q, u yoqda o‘zingga asqotadi.

Venya tag‘in portladi, qo‘rquvni unutib qo‘ydi.

– U yoq, deganing qayer?! Qayer, deyapman, qari g‘ar? Sen oldin qamat!.. Keyin o‘ylab ko‘raman qayerda asqotish-asqotmasligini. Tuhmatchi...

– Qamata-miz ham, – ovozi qaltirab va’da berdi qaynonasi va arizani davom ettirish uchun ichkariga kirib ketdi. Lekin o‘sha zahoti qaytib kelib, baqirdi: – Bir moshin o‘tin opkelganmiding?! Qayerdan olding?! Qayerdan?!

– Senlarni isinsin deb opkelganman...

– Qayerdan olding?! – ovozi boricha chinqirdi Lizaveta Vasilyevna.

– Sotib oldim!

– Qaysi pulga? Bor maoshingni uyga opkelgan bo‘lsang! Sen o‘tinlarni davlat o‘rmonidan tekindan-tekinga kesib kelgansan! Sen bir moshin o‘tin o‘g‘irlagansan!

– Xo‘p, shunday ham deylik. Nimaga darhol ariza bermading? Nega o‘tinlarni yoqib, mum tishlab o‘tirding?

– Bir tom tagida kim bilan yashayotganimni endi tushundim.

– E-e... dumingni likillatib qolibsanmi?! Qamoqda o‘tirishga kelsak, birga o‘tiramiz: men o‘g‘irlik qildim, sen esa o‘g‘irlik moldan foydalanding. Menga uch yil, senga kamida bir yarim yil berishadi. Ana shunaqa. Biz ham qonunni bilamiz.

– Yo‘-o‘q, senga hali qonunni bilishga g‘o‘rlik qilasan!.. Bir o‘tirib chiqsang, bilvolasan.

Qaynonasi chindan ham ariza ko‘tarib tuman markaziga, militsiyaga yo‘l oldi. Aftidan, bir mashina o‘tin haqida og‘iz ochmadi. U yerda sovxoz ma’muriyatiga shikoyat bilan murojaat qilishni maslahat berishdi, nega deganda, ko‘rga hassaday ayon bo‘lib turibdiki, bu oilaviy mojarodan boshqasi emas. Rostdan ham, odamni birinchi arizadanoq jinoiy javobgarlikka tortib bo‘lmaydi-ku! Agar bu holat takrorlansa, agar ayblanuvchi mast holatda bo‘lsa, bu boshqa

gap endi... Lizaveta Vasilyevna oyog‘ini qo‘liga olib, ma’muriyatga chopdi.

Venyani chaqirtirishdi.

Direktor o‘rinbosari yoshgina yigit edi, Venya uni kallali yigit ekani uchun hurmat qilardi. Uning qarshisida Lizaveta Vasilyevnaning arizasi yotardi.

– Xo‘sh, nima gap? Tinchlikmi? Mana, shikoyat qilishyapti...

– Shikoyatmish!.. O‘zlari anavindaqalarday kiyinib olgan, yegani oldida, yemagani ketida! – deb borini ro‘y-rost aytishga tushdi Venya. – Mening bor-yo‘g‘i shu – egnimdagilar, xolos. Umrim bino bo‘lib men ham odamga o‘xshab bir yuz oltmish rublga charm palto olaman, deb niyat qilgandim, o‘larday bo‘lib pul yiqqandim. Anovi esa o‘ziga po‘stin sotvolibdi. Po‘rimgina qishlik paltosi bo‘lmagandayam mayli edi-ya.

– Unda haqorat qilishning nima keragi bor edi?

– E, bunaqa paytda hammaniyam achchig‘i chiqadi-da! Itday ishlab, tishimning kovagida saqlab yurgandim!.. Hammomdan chiqib choraktalikni ichishga ko‘zim qiymadi-yu, u bo‘lsa po‘stin sotvolibdi! Yana deng, paltosi bor! Yo‘q bo‘lgandayam, xo‘p derdim, lekin bip-binoyi paltosi bor-ku! O‘zi nima deb yozibdi?

– Yozgan-da... ko‘p narsani yozgan.

Mana shu yerida Venya qaynonasi bir mashina o‘tin haqida churq etmaganini tushundi.

– Kollektivlashtirishni men qilganman, deb yozibdimi?

– Ha, shunaqa... Lekin sen baribir... bunday qilmasliging kerak, axir, yoshi bir joyga borib qolgan keksa odam... Xo‘sh, sotvolibdi, shunga shunchami?! U ham ishlayotgan bo‘lsa, xotining-ku nima qilgandayam.

– Ha, endi xotinim oyiga bor-yo‘g‘i oltmish rubl ishlaydi, issiq-qina uyda o‘tiradi, men o‘zim kamida bir yuz yigirma ishlayman – me’yoridan ortiq ter to‘kaman. Pulimni qizg‘onmayman! Lekin bir marta bo‘lsayam o‘zimga nimanidir ravo ko‘rishim kerak-ku! Ikkovi kiyim-kechaklarini kiyib yurishsayam, mayliydi. Sotib oldimi, tamom, sandiqqa tushadi. Men bo‘lsam... odamlarning ko‘ziga ko‘rinishga or qilaman.

Direktor o‘rinbosari nima qilishini bilmay boshi qotdi. U Venyaning haqligiga ishonardi.

– Baribir ham bunaqa yo‘l tutmaslik kerak, Veniamin. Bu bilan hech nimani isbotlolmaysan. Xotining bilan gaplashib ko‘r... Ha, nima? U ham odam-ku, tushunar, yoshgina bo‘lsa...

– E, xotinim bilan gaplashib nimagayam erishardim!.. Uning gapi – gap emas. Bu yoqda, – deya Venya arizaga imo qildi, – anavi bosh-qosh bo‘ladi.

Gapning indallosini aytganda, shunday ruhda gaplashishdiki, Venya idoradan yengil tortib chiqdi. Ammo qaynonasiga nisbatan alam va g‘azabi zig‘ircha bosilmadi.

«Voy, maraz-ey, – deb o‘ylardi u, – kiprik qoqmasdan qamatib yuborishdan toymaydi bu. Odamning ichiga shuncha fasod yig‘ilib qolganiga hayron qolasan-ey. Butun umr tish qayrab yashadi-ya. G‘ar... Shunaqa ekan, bu dunyoga kelib nima qilarding?»

Shu dam qarshisidan qadrdon do‘sti Kolka Volobuyev chiqib qoldi.

– Nima bo‘ldi? – Kolka qachon qarama mana shunaqa – deyarli og‘zini ochmasdan gapiradi. Odamga achingansimon, ko‘zini qisib qaraydi. O‘ziga yarasha-da fe’l-atvori.

– Nima bo‘pti?

– Qanaqadir... xuddi o‘q tekkan chumchuqqa o‘xshaysan. Qayoqdan sandiroqlab kelyapsan?

– Idoradan, – dedi Venya va bo‘lib o‘tgan hamma gaplarni – charm paltodan qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa artganini, uydagi qo‘ydi-chiqdini va qaynonasi uni qamatmoqchi bo‘lganini so‘zlab berdi.

– Ikkitasining boshini yedi, kamlik qilibdi-da, – dedi Kolka tishini g‘ijirlatib. – Yur, ketdik, otamlashamiz.

Venya jon-jon deb ergashdi.

Qittay-qittay otib olishgach, Kolka sovuqqon, ko‘kimtir ko‘zlarini qisib, Venyaga aql o‘rgata ketdi:

– Ta’sir o‘tkazish kerak. Faqat izingni qoldirma. Yo‘qsa, seni cho‘qilayverib, joningdan to‘ydirvorishadi. Kampirsho tag‘in bosh ko‘taradigan bo‘lsa, bir-ikki oldingga solib quvgin... Yo‘qsa, boshingga chiqib olishadi. Eshakday ishlayapsan o‘shalarni deb o‘zi...

Venyaning yuragi qasos o‘tida yona boshladi... Sonya tufayli chekkan ranj-alamlari birdaniga esiga tushib ketdi: unga erga tegmay zor-intizor kuttirganlari, na «Ha», na «Yo‘q», demay ilmiliq javob qilib, darvozasining tagida sarg‘aytirganlari... Yo‘q, bunaqasi

ketmaydi, chindan ham, hammasini joyiga solib qo‘yish kerak. Kim uni keng uyning xo‘jayini deydi?! Eshak, deb Kolka to‘g‘ri aytadi.

– Borib, bitta-yarimtaning terisiga somon tiqaman, – dedi u.

Ko‘p o‘tmay, uyga oqsoqlanib kirib keldi. Yuragini og‘ir, yovuz bir his xarsangtoshday ezardi.

«Xo‘p ahmog‘ini topib olishgan-da!.. Tagi pastlar. Militsiyaga yugurgani-chi! G‘ar!»

Sonya uyda yo‘q ekan.

– Qayoqqa gumdon bo‘ldi anavi? – deb so‘radi Venya.

– Itim biladimi, – po‘ng‘illadi qaynonasi. Idoradagi farrosh Venyani ko‘p ham po‘stagini qoqishmaganini yetkazgandi. (Juda g‘alati: Lizaveta Vasilyevna, mana, besh yildirki, ishlamaydi, biroq hali-hamon u bilan hisoblashishadi, gap yetkazishga oshiqishadi, hatto yurak hovuchlab turishadi.) – Menga hisobot bermaydi-ku.

– Quruq gap to‘xtatilsin! – deb bo‘kirdi Venya po‘saxonadan turib. – Ko‘p vaysalyapti!

Lizaveta Vasilyevna kuyoviga og‘zi ochilib qaradi:

– Nimalar deyapsan? Nima balo, ichvoldingmi?

Venyaning miyasida alomat bir fikr tug‘ildi. Hovliga chiqdi. Omborxonaga kirib, bolg‘acha bilan o‘ntacha katta mixlardan oldi... Hammasini cho‘ntagiga solib, tag‘in uyga qaytib kirdi.

– Anov yerda qanaqa mato yotibdi? – deb so‘radi sulhparvarlik bilan.

– Qanaqa mato? Qayerda? – deb darrovgina qiziqa qoldi qaynonasi ham.

– Hojatxona... Tuynukka tiqib qo‘yilgan. Qizil.

Qaynonasi o‘sha yoqqa oshiqdi. Venya uning ortidan yurdi.

Qaynonasi hojatxonaga kirishi bilanoq, Venya eshikni tashqaridan zulfinlab qo‘ydi. Keyin eshikni mixlay boshladi.

Qaynonasi baqirishga tushdi.

– Ozroq o‘tirib, tanangga o‘ylab ko‘r, – dedi Venya. – O‘zing odamlarni qamatishga ja-a ustasan-ku, ana endi qamalish qanaqa bo‘lishini bilib qo‘ygin. – Shunday deb Venya hamma mixlarni qoqib chiqdi va po‘saxonaga o‘tirib, Sonyani kuta boshladi.

– Voy-dod! – qichqirdi Lizaveta Vasilyevna. – Yaxshilar, qutqaringlar! Qutqaringlar! Yaxshilar!.. Kuyovim bir moshina o‘tin o‘g‘irladi! Kuyovim bir moshina o‘tin o‘g‘irladi! Kuyovim bir moshina o‘tin o‘g‘irladi! – deb baqirib-chaqiraverdi.

Venya po‘pisa qildi:

– Baqiraversang, o‘t qo‘yib, yoqvoraman.

Qaynonasi jimib qoldi. Faqat hiqilladi:

– Hap, senimi, Venka!..

– Tahdid qilyapsanmi?

– Yo‘q, tahdid qilmayapman, lekin buning uchun senga rahmat aytishmaydi!

Venyaning ko‘zi bir bo‘lak so‘ndirilmagan ohakka tushdi. Ohakni olib, hojatxona eshigiga: «1969-yil 25-iyulda plombalandi. Dumalatilmasin.» – deb yozib qo‘ydi.

– Shoshmay tur hali, Venka!..

– Hozir Sonyangniyam yoqvoraman... Sichqonning ini ming tanga bo‘ladi ungayam. Qorako‘l po‘stinchasini kiyvolib. Sizlar meni tilsiz-zabonsiz eshak deb o‘yladinglarmi? Uyga qanchadan-qancha maosh opkeldim, aqalli arzonroq bironta kostyum sotib olib berdinglarmi menga?

– Tayyoriga ayyor bo‘lib kelding-ku.

– Mabodo shir yalang‘och bo‘lib kelganimdayam, o‘sha holimda yuraverarmidim? Nahot bir dona ko‘ylakka arzimasam? Sen odamlarni quloq qilib yuborgansan... Vaholanki, o‘zing birinchi quloqsan! Yiqqan davlatingdan sandiq yorilib ketay deydi.

– Sening pulingga kelmagan bu mol-davlat!

– Nima sening pulinggami? Ering kim uchun o‘g‘irlik qildi? Puf sassiqqa chiqqanidan keyin, qamatvording. Endi o‘zing ham o‘tir. Uch sutka o‘tirasan. Qo‘limda miltiq bilan turaman, hech kimni yaqin yo‘latmayman. Seni karserga tiqib qo‘ydim, deb hisoblayver. Yomon xulqing uchun.

– Shoshmay tur sen, Venka!

– Ana shunaqa. Bo‘kirma, yo‘qsa, battar bo‘ladi.

– Yoshi bir joyga borib qolgan kampirni bunchalik xo‘rlash...

– Sen o‘zing yoshligingdayam, qariligingdayam, butun umr odamlarni tahqirlab kelding-ku.

Venya Sonyani kutib-kutib, toqati toq bo‘ldi. Qishloq bo‘ylab izlashga ahd qildi.

– Uningni chiqarmay o‘tir! – amr qildi qaynonasiga.

O‘sha kuni Venya, yaxshiyamki, xotinini topolmadi. Qaynonasini esa qo‘shnilar «karser»dan chiqarib olishdi.

Sud ola-g‘ovur bilan o‘tdi. Klubda – namunali sud sifatida o‘tkazildi.

Qaynonasi sudda yig‘lab-siqtadi, yana o‘sha eski «qo‘shig‘i»ni boshlab, birinchi kolxozlarni tuzganini, «karser»da o‘tirib, qanday azoblarga duchor bo‘lganini hiqillab aytib berdi – u Venyani qamatishga qasd qilgandi. Lekin hamqishloqlar e’tiroz bildirishdi. Yosh ham, qari ham Venyani bolalik chog‘idan bilishlarini, u yetim o‘sganini, hamisha mo‘min-qobil bo‘lganini, qo‘y og‘zidan cho‘p olmaganini aytib tashlashdi. Jazolash kerak, albatta, lekin qamoqqa tiqish kerakmas-da! Ayniqsa, keksa askar, yoshi qaytib qolgan, hurmatli, allaqachon nafaqaga chiqqan Mixaylo Kuznesov sidqidildan, samimiy so‘zladi.

– Grajdanin sudyalar! – deya so‘z oldi u. – Men Venkaning otasini yaxshi tanirdim – u jang maydonida mardlarcha halok bo‘lgan. Venkaning onasi esa jamoa xo‘jaligida og‘ir mehnatdan o‘lib ketgan. Venkaning o‘zi o‘n yoshidan boshlab qora mehnatga yopishgan... Grajdanka Kiselyova bo‘lsa... ana u, ko‘zyoshi qilib o‘tiribdi: to‘g‘ri, qarigan chog‘ingda hojatxonada o‘tirish – buni hech kimga ravo ko‘rmaysan, ammo baribir u umri bino bo‘lib qaddi dol bo‘lmagan. Ha, hozir ham qo‘lini sovuq suvga urmaydi – sening nafaqang menikidan ko‘proq har holda, mening esa butun badanim chandiq, uchta urushda qon kechganman...

– Men kambag‘al oiladan chiqqanman! – deb chiyillagan ovozda xitob qildi Lizaveta Vasilyevna. – Men birinchi xo‘jaliklarni...

– Men ham kambag‘al oiladan chiqqanman, – deya uning og‘ziga urdi Mixaylo. – Sen birinchi jamoa xo‘jaligini tuzgansan, mana, men birinchilardan bo‘lib jamoa xo‘jaligiga kirganman. Jamiyat oldida qanaqa ayricha xizmating bor o‘zi? Urush paytida qishloq matlubot jamiyatining raisi bo‘lgansan – och qolmagansan, hammamizning xabarimiz bor bundan. Anovi yigit esa o‘zini o‘zi boqdi, halol mehnati bilan... buni qadrlash kerak. Boshqachasi ketmaydi. Qamatish oson, o‘tirish mushkul!

– Unda tashakkurnomalarning o‘zi o‘ntacha bor! Har bayramda Venyani ilg‘or mehnatkash sifatida taqdirlashadi! – deya zaldan baqirib qolishdi.

Shu dam basavlat, to‘lachadan kelgan, yaltiroq kostyumdagi kishi o‘rnidan turdi. Zaldagilarga tushungansimon boqdi. So‘zlashdan avval sochlarini bir taradi, bir taradiki! Ushbu vaziyatda jinoyat

kattalashib ketmasidan kichigini jazolash kerakligini aytdi. Mana shunaqa yuvosh odamlar, yigitchalar qo‘liga pichoq olganini misol keltirdi...

– Sizlardan so‘rayapman, g‘azab otiga mingan manavi yigit ertagayam ichvolib, qo‘liga bolta yoki miltiq olmasligiga kim kafil bo‘la oladi? Axir, uyda ikki ayol bo‘lsa. Bir tasavvur qilib ko‘ring...

– U ichmaydi!

– Qarang-a, gazli suv ichgandan keyin qo‘liga bolg‘acha olib, qaynonasini hojatxonaga qamabdi-da?! Keksa, xizmat ko‘rsatgan ayolni-ya! Nima uchun? Buni qarangki, xotini o‘ziga po‘stin sotvolib, unga charm palto olmagani uchun!

Venyaning tagidagi stul chayqalib ketdi. Zaldagilarning aksari shunday qarorga kelishdi: Venka qamaladi.

– Yo‘q, o‘rtoqlar, hozir bizning odamgarchiligimiz shundan iboratki, ayblanuvchining bu qilmishini jazosiz qoldirmasligimiz kerak. Yaxshisi, hozir jazolaymiz. Bu bilan uni katta xavfdan qutqargan bo‘lamiz. Xavf-xatar esa unga soyaday ergashib yuribdi.

Basavlat kishi Venkaga uch yil berishni taklif qildi.

Shu on yana Mixaylo Kuznesov o‘rnidan turdi.

– Siz, o‘rtoq, hammasini to‘g‘ri gapirdingiz. Lekin men sizga Ulug‘ Vatan urushidan kichik bir misol keltiraman. Bizda bir askar yigit bo‘lardi, Venkaga o‘xshagan – qiltiriqqina, yoshgina – adashmasam, yigirmalar atrofida. Xullas, hujumga o‘tdik, haligi askar ishtonini ho‘llab qo‘yay dedi. Miltig‘ini tashladi, yiqilib tushdi, qo‘li bilan boshini changallab oldi... Siyosiy rahbar uni tribunalga bermoqchi bo‘ldi, lekin biz, yoshi kattalar, yo‘l qo‘ymadik. O‘rnidan turg‘azdik, biz bilan hujumga o‘tdi... Xo‘sh, nima deb o‘ylaysiz? Hammamizning ko‘z oldimizda ikkita fashistni yer tishlatdi. Fashistlar esa, shu desangiz, bo‘yi naq shipga yetadi, daroz, haligi askar, familiyasi nimaydi-ya, xullas, bo‘y-basti Venkadek. Buncha jasoratni qayerdan oldi?! Bu bilan shuni aytmoqchimanki, gohida odamni ojizlik, falokat nobud qilish mumkin, kuni bitdi, deb o‘ylaysan... Bu yerda esa, aksincha shoshilmaslik kerak, u hali oyoqqa turadi. Siz o‘zingiz jang qilganmisiz, o‘rtoq? – deb so‘radi gapining oxirida Mixaylo.

Basavlat kishi bunday ajabtovur misoldan loaqal kiprigini qoqmadi. U tushungannamo kulib qo‘ydi.

– Men urushda bo‘lganman, o‘rtoq. Bu savolingizga javob. Endi misolingizga kelsak... u, albatta, yorqin, ta’sirli, lekin bu yerga mutlaqo mos tushmaydi. Bu yerda siz, aytishadi-ku, Yaratganning inoyatini quymoqqa aralashtirib yubordingiz. – Basavlat kishi tarang tortilgan qornini silkitib-silkitib, miyig‘ida kulib qo‘ydi. – Bu misol bilan nima demoqchi bo‘lganingizning umuman teskarisini isbotlash mumkin. Darvoqe, o‘sha askarni sud qilishdimi?

Mixaylo darhol javob bermadi. Hamma unga qaradi.

– Sud qilishdi, – istar-istamas javob qildi Mixaylo. – Lekin...

– To‘ppa-to‘g‘ri. Lekin...

– Lekin oqibatsiz qoldirishmadi! – dadillandi Mixaylo. – Boshqa qismga o‘tkazishdi, xolos.

– Bu endi boshqa masala. U o‘rnidan turib, sizlar bilan yugurib ketgani hamda ikki fashistni yer tishlatgani – bu o‘z-o‘zidan ma’lum fakt, buni inobatga olish mumkin, ko‘rib turganimizdek, inobatga olishgan ham. Biroq shunday faktlar ham borki... moddiyan, inobatga olib bo‘lmaydi, men sizga aytsam. Askar qo‘rqib ketgan, qurolni tashlagan va yiqilib tushgan... U qo‘rqqan, bu tushunarli. Basharti, bir o‘zi o‘rmonda ayiqni ko‘rib qo‘rqib ketganda, u holda qismatini Parvardigorning, to‘g‘rirog‘i, ayiqning hukmiga tashlab qo‘ya qolardi – g‘ajib tashlaydimi-yo‘qmi, deb. Ammo bu yerda – askar hujumga bir o‘zi o‘tmagan, uning qo‘rqib ketgani butun rotaga qo‘rquv yoyilishiga sabab bo‘lgan.

– Aslo undaymas! – dedi Mixaylo. – Qanday yugurgan bo‘lsak, o‘shanday shiddat bilan yuguraverganmiz!

– Siz boshqacha kayfiyatda yugurgansiz. Allaqachon ichingizda qo‘rquv yashayotganini o‘zingiz ham bilmagansiz. Qo‘rqoqlik qilgan askar o‘zining bu xatti-harakatlari bilan sizlarni oldinda qanday xavf-xatar, ehtimolki, o‘lim kutib turganiga ishora qilgan...

– Qarang-a, usiz biz bilmay qolardig-a.

– Mazkur aniq-tiniq hodisaga keladigan bo‘lsak...

Venka basavlat kishidan ko‘z uzmasdi, uning nima deyayotganini yaxshi tushunmasdi. Faqat bu odam uni qamashni judayam istayotganini angladi. Ko‘p ham qahri qattiq qaynonasiga o‘xshamaydi, Venkani birinchi marta ko‘rib turibdi. Venka ilgari sira sudda bo‘lmagandi, davlat ayblovchilari, jamoat ayblovchilari borligini bilmasdi... Sud desa, ko‘z o‘ngida sudya gavdalanardi. Bu odam nima

uchun Venkani uch yilga qamoqqa tiqish uchun kuyib-pishayotganini sira anglolmasdi. Sudya miq etmaydi, bu esa – mana, nechanchi marta o'rnidan turadi, qamash kerak, deydi, tamom, vassalom. Venka hayronlikdan tosh qotdi. Undan biron-bir izoh berish-bermasligini so'rashganda, Venka shunchaki kiftini uchirdi-da, shoshgancha, qo'rqa-pisa:

– Nega? – deyoldi, xolos.

Sud hay'ati maslahatlashgani kirib ketdi.

Venka g'ing demay, kutardi. Vujudini dahshat qamrab olgandi... U qamoqdan qo'rqmayotgandi; bu yoqqa olib kelishayotganda, miyasida chamalab ko'rgan: yigirma sakkizga uchni qo'shamiz, boringki, to'rtni – o'ttiz bir yoki o'ttiz ikki... Hechqisi yo'q. U basavlat kishini ko'rib, dahshatga tushdi. Venka unga shunchalik tikilib qaragandiki, hatto hozir o'rnidan turib ketgan bo'lsa ham, uni tirikday ko'rib turardi: og'ir-vazmin, aqlli, quvnoq... Qamash kerak, deb hadeb isbotlayapti, isbotlayapti. Aql bovar qilmaydi. Keyin-chi, keyin nima bo'ladi? Qanday qilib kechlik taomni yeydi, bolalarini qanday suyib-erkalaydi, xotini bilan qachon bir yostiqda yotadi?.. Avvallari Venya odamlardan achchiqlanardi, ammo qo'rqmasdi, endi u, ittifoqo, tushunib yetdiki, ular dahshatli bo'lisharkan. Venyani umrida bir martagina ikki mast odam urgandi. Urib-urib, ingranib qolishgandi – qattiq g'ayrat qilishganidandir balki. Keyinchalik Venya uzoq vaqtgacha og'riqni emas, o'sha har bir zarbadan keyingi ingroqni unutolmay yurdi. Lekin ular mast edi, aql-hushlarini yo'qotishgandi... Manavi basavlat, o'qimishli esa darg'azab ham bo'lmaydi, hotirjamgina turib, qamash kerak, deb hammani ishontiradi. Yo yaratgan Egam! Qaynonasi!.. Qaynonasi – ilon va ahmoq, u kuyoviga uch yil emas, besh yillik qamoqni yelib-yugurib undirishga ham tayyor, uni tushunsa bo'ladi. U o'zi shunaqa – g'ar. Lekin bunisi!.. Buni qanday tushunsa bo'ladi?

Venyaga hukm chiqarishdi: ikki yillik shartli qamoq.

Hamqishloqlar Venya uchun quvonishdi.

Venya esa noodatiy tarzda parishonxotir ketaverdi... Hali-hamon ko'z o'ngidan basavlat kishi ketmasdi va Venkaning hayronligi ortib boraverardi... Nahotki, u hamisha shunday qilsa?

Hozircha Venya Kolka Volobuevnikida yashab turadigan bo'ldi.

Kolka tag'in ichishga qistadi, Venya rad etdi. Qosh qoraymasdan, mehmonxonaga chiqib, o'rindiqqa cho'zilib, o'yga botdi.

Dunyoning ishlari qiziq-da! Bir onda hayoti otsin-ustin bo‘lib ketdi-ya! Qurib ketsin edi o‘sha charm paltosi! O‘zi nega birdan charm palto sotib olgisi kelib qoldi? Shusiz ham yashadi-ku, osmon uzilib yerga tushmadi-ku, yana yashayverardi. Sonyani qaynonasidan ajratib olishi kerak edi! Alohida yashashlari kerak edi... To‘g‘ri, xotini ham anqov, onasiga qarshi chiqolmasdi. Ammo-lekin o‘sha tunda Venya nimani o‘ylamasin, qalbi qanchalik lovullamasin, basavlat kishi ko‘z o‘ngidan ketmadi – Venyaga yuqoridan qaraydi, sahnadan, jahl qilmaydi, baqirmaydi... Bo‘yinbog‘idagi metall ilmatugma yiltillab ketdi. Qop-qora, quyuq qoshlari qansharida birbiriga tutashib ketgan. Sochlari orqaga silliq taralgan, ko‘zni oladi. Bir necha tola kokili gajak bo‘lib peshonasiga tushgan, gapirganda silkinib-silkinib qo‘yadi. Beti oytovoqday, yumaloq bo‘lsayam, kulganda, yonoqlarida kulgich paydo bo‘ladi...

Ertalab Venya reysga, tumanga otlandi.

Sahar, oftob endi bosh ko‘tara boshlaganda yo‘lga chiqdi. Ammo havo iliq, tunda yer muzlamabdi.

Venya har doim yo‘lda xotirjam tortadi, odamlar haqida alomat xayollarga boradi: go‘yoki ular, tanigan-bilganlari qayerlardadir, uzoq-uzoqlarda qolib ketganday va Venyaga aloqasi yo‘qday tuyulardi. Hammasini birdaniga, to‘dalashtirib bir-bir xotirlardi... Ularni qattiq yanglishishgan, o‘lguday asabiy, molfahm, deb o‘yladi. Kechagi sudni og‘ir, aloq-chaloq tushday esladi...

Yigirma yettinchi chaqirimda Venya «Volga»ni ko‘rib qoldi – to‘xtab turibdi, kapoti ochiq, mashina yonida esa – sal qolsa, Venyaning yuragi qinidan chiqib ketayozdi – kechagi basavlat kishi qaqqayib turardi. Venya negadir dovdiradi, hatto gazni qo‘yib yubordi... Basavlat kishi «To‘xta» deb ishora qilgandagina, Venya itoatkorlik bilan to‘xtadi.

Basavlat kishi shoshib-pishib kabina yoniga keldi-da, hovliqib gapga tushdi:

– Tashlab o‘tsang-chi, quloq sol... – Shunda Venyani tanib qoldi. – O‘-o‘, – deyoldi, xolos. Venyaning nazarida, u ham biroz esankirab qolganday bo‘ldi. – Eski tanishlar-ku!

– O‘tir! – deya manzirat qildi Venya. Basavlat kishining ko‘zlaridagi sarosimani ilg‘agan Venyada allaqanday betamizlik, shumlik uyg‘ondi. – Burnimiz ko‘tarilganicha yo‘q hali!

Basavlat kishi lip etib kabinaga chiqdi va ko‘zini lo‘q qilib Venyaga tikildi. Yo‘lga tushganlaridan bir daqiqa o‘tib, Venya, bu salobatli odam ko‘zimga rostdan esankiraganday ko‘rindimi o‘zi, deb shubhalandi.

– Xo‘sh, qalay? – deb so‘radi basavlat kishi.

– Nima qalay?

– Kayfiyating qalay, deyman... Men biron hafta ichib yotsang kerak, deb o‘ylagandim. Senga to‘g‘risini aytaman, yigit: kecha omadli chiptani sotib olding.

Venya indamadi. Nima deyishni, o‘zini qanday tutishni bilmasdi.

– Turgan gap, xotining bilan ajrashayotgandirsan, hoynahoy? – deb so‘radi basavlat kishi tushungannamo va Venyaga qaradi.

– Albatta, – dedi Venya. Kechagi sudda o‘zini pishiq-puxta, aqlli, shiddatkor tutgan bu odam hozir hazil-huzul qilayotganidan taajjublandi.

– Eh, yoshlar, yoshlar... Qachon qarama, falokatga yo‘liqib yurasizlar... Burningga suv kirmaguncha aqling ham kirmaydi. Bilinib turibdi – ming bir mashaqqat bilan kun ko‘rarkansan. Sen bo‘lsang bir zarb bilan hammasiga chiziq tortib qo‘ya qolding: oilang buzildi, obro‘ying bir pul bo‘ldi... Xotiningni yaxshi ko‘rarmiding?

Shu yeriga kelganda, tuyqus Venyaning qoni qaynab ketdi:

– Ishing bo‘lmasin!

– Albatta, bu mening ishimmas! – xitob qildi basavlat kishi. – To‘g‘ri, og‘ayni, bu sening ishing. Agar mening ishim bo‘lganda, vijdonim qiynalardi. Men siz tentaklarga achinaman, xolos, gap shunda. Besh tiyinligidan ichvolib, sherga aylanasizlar. – Basavlat kishi qornini silkitib «hihi»ladi. – Nahotki, hushyorlikda gaplashib bo‘lmasa? Husni bir jahon xotining bor ekan, kecha ko‘rdim. Yallo qilib yashamaysanmi...

Bir zumga Venyaning ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi – yurak-bag‘ri o‘rtanib anglab yetdi: axir, u Sonyadan ajralib qoldi-ku! Butunlay! Xuddi jarlikka qulayotganday vahimaga tushdi...

– Aytmoqchi, anavi charm palto qanaqa edi? Qayerdan sotib olmoqchiyding?

– Ha, umi, aymoqda bittasi tikadi... – Venya nigohlarini oldinga qadagandi. Oldinda Usha daryosi uzra ko‘prik o‘tgandi. Keng, uzun. Ko‘klamda Usha ham Volga singari to‘lib-toshib oqadi. – Buyurtmaga tikadi.

– Bitta paltoga qancha haq oladi? Materiali o‘zidanmi?

– O‘zidan.

– Qancha oladi? – qayta so‘radi prokuror.

– Har xil. Men bir yuz oltmish so‘mligidan tiktirmoqchiydim. Yaxshirog‘i bo‘lsa, qimmatga tushadi. – Venyaning quloqlari uning savollarini eshitmasdi-yu, lekin to‘g‘ri javob berardi.

– Yaxshiroq, deganing nimasi?

– Charmi boshqa, oshlovi boshqa... Oshlovi har xil bo‘ladi.

– Xo‘p, eng yaxshisi-chi? Ya’ni eng yaxshi charm, eng yaxshi oshlovi bo‘lsa, qanchaga tushadi?

– Uch yuz rubl atrofida... Bittasiga to‘rt yuzga tikib bergan, deb eshitgandim.

Mashina ko‘prikdan o‘ta boshladi.

– O‘sha aymoq qayerda? Uzoqmi?

– Yo‘q. – Shunisi ajablanarliki, Venya kabinada o‘zi bilan o‘zi gaplashib ketayotganday edi.

– Manzilini bilasanmi?

– Bilaman. Bilaman... Eh! – deb deb qattiq hayqirdi birdan Venya, xuddi bo‘shliqda ketayotganday. – Ko‘prikdan gumburlab qulab tushsakmikin?!

U gazni bosib, rulni qo‘yib yubordi... Mashina bir siltandi. Venya prokurorga nazar soldi... Uning dahshatdan katta-katta ochilgan ko‘zlarini ko‘rdi. Venkaning zavqi kelib, kuldi. Keyin prokuror jonholatda rul chambaragiga yopishdi. Shu taxlit ko‘prikdan tushib borishdi: Venya labida tabassum bilan gazni bosar, prokuror esa rulni boshqarardi. Ko‘prikdan eson-omon o‘tib olishgach, Venya gazni kamaytirib, rulni oldi. To‘xtadi.

Prokuror kabinadan sakrab tushdi... Venkaga bir qarab qo‘ydi. Uning aft-basharasi murdanikiday oqarib ketgandi. U, aftidan, nimadir demoqchi edi, ammo tili kalimaga kelmadi. Eshikni qarsillatib yopdi.

Venya tezlikni oshirib, olg‘a ketdi. Negadir o‘zini toliqqanday his qildi. Kabinada bir o‘zi qolgani yaxshi bo‘ldi-da, yengil tortdi. Bemalolxo‘ja bo‘lib oldi.

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimalari.

MUNDARIJA

Yuksak iste'dod sohibi 3

HIKOYALAR

Qishloqilar... *O'tkir Hoshimov va Xayriddin Sultonov tarjimalari* 6
Restorandagi voqea 15
Dumbul 25
«Xikoya» 36
Yetim Pyanixnmg operatsiyasi 43
Xotin erini Parijga kuzatdi 50
Mil pardon, madam! 59
Qayg'u 68
Etik 74
Cholning o'limi 83
Alam 88
Imtihon 98
Chol, qiz va oftob 106
Ilon zahri 112
Yosh Vaganovning iztiroblari 123
Ikkinchi seansga chipta... *O'roz Haydar tarjimalari* 141
Kuzda 150
Yolg'iz o'zlari 161
Styopka 169
Yashaging keladi 182
Oldidan va yonidan 206
Bo'rilar 216
Metin odam 223
Yermolay amaki... *Ochil Tohir tarjimalari* 231
Kechinma 237
Siviyga salom ayting! 245
Ona qalbi... *Jamshid Matyoqubov tarjimalari* 256
Vijdonsizlar 271
Umidvor dillar 282
Yashash uchun qishloq tanlayapman 289
Vanka Teplyashin... *Saidjalol Saidmurodov tarjimalari* 299
Tasodifiy o'q 307
Yakshanba kun kampircha... 315
Alyosha tajang 322
Kuyovim bir mashina o'tin o'g'irladi! 337

Adabiy-badiiy nashr

Vasiliy Makarovich SHUKSHIN

CHOL, QIZ VA OFTOB

Hikoyalar

Nashr uchun mas'ul
Mizrob Bo'ronov

To'plab, nashrga tayyorlovchi
Bahrom Akbarov

Muharrir *Bahrom Akbarov*
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*
Texnik muharrir *Tatyana Xaritonova*
Kichik muharrir *Matluba Salimova*
Musahhihlar: *Durdona G'aybullayeva, Shohida Hojiyeva*
Kompyuterda tayyorlovchilar: *Kira Goldobina, Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 4-iyunda ruxsat etildi.
Bichimi 60×90$^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 22,0.
Nashr tabog'i 22,40. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 20-4.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.
www.iptd-uzbekistan.uz

26 615,60 сунд



V.M. Shukshin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7145-4-0